



SHARQ XALQLARI FOLKLORI – MILLIY
QADRIYATLAR IN'IKOSI
XALQARO ILMIY KONFERENSIYA

ФОЛЬКЛОР НАРОДОВ ВОСТОКА - ОТРАЖЕНИЕ
НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ
МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

FOLKLORE OF THE PEOPLES OF THE EAST
- A REFLECTION OF NATIONAL VALUES
INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE



TOSHKENT
2021-yil 16-oktabr

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

**SHARQ XALQLARI FOLKLORI - MILLIY
QADRIYATLAR IN'IKOSI**

IKKINCHI QISM

**ФОЛЬКЛОР НАРОДОВ ВОСТОКА-
ОТРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ
ЦЕННОСТЕЙ**

2 ЧАСТЬ

**FOLKLORE OF THE PEOPLES OF THE EAST –
A REFLECTION OF NATIONAL VALUES**

PART 2

Toshkent 2021

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 2 martdagi 78-F-sonli farmoyishi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil 10 martdagi 122-sonli buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 noyabrdagi “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qaroriga binoan 2021 yil 10 aprelda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Sharq madaniyati va merosini tadqiq etish ilmiy-tadqiqot markazi” va “Sharq mamlakatlari adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik” kafedrasidan tomonidan “Sharq xalqlari folklori – milliy qadriyatlar in’ikosi” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari kiritilgan.

To‘plamdan sharqshunos mutaxassislar tomonidan olib borilgan Ipak yo‘li folklori davlat ilmiy – tadqiqotlar doirasidagi maqolalari, shuningdek, respublikamiz va xorijiy mamlakatlarning adabiyotshunos olimlarining maqolalari o‘rin olgan. Mazkur to‘plam sharq mamlakatlari folklori janrlari badiiyati, yozma adabiyotdagi rivoji, folklor asarlarning o‘zaro ta’siri va tipologiyasi masalalari, o‘zbek va xorijiy sharq halqlari folklori aloqalari masalalari kesimidagi yangi ma’lumotlar bilan tanishishda zaruriy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Mas’ul muharrirlar:

f.f.d. prof. G.Sh. Shomusarov

Tahrir hay’ati:

**f.f.d dots. D.Z. Muhiddinova, f.f.d. prof. R.U.Xodjaeva,
f.f.d. prof. T.A. Muxtarov, f.f.d. prof. U.U. Muhibova,
f.f.n. dots. M.Ziyavuddinova, f.f.n. dots. A. Alimbekov
f.f.n. Sh.I. Ahmedova, kat. oqit. N. M. Saidova,
kat. oqit. Sh.T.Komilova.**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2021 yil 7 oktyabr 2 - sonli majlisi qaroriga muvofiq nashrga tavsiya etilgan.

© **Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021**

SO‘Z BOSHI

Insoniyat ongida shakllangan ilk badiiy fikrlar folklor meros mazmunida o‘z aksini topgan. Xalq og‘zaki ijodiga bag‘ishlangan ushbu xalqaro anjuman to‘plamini Sharq xalqlari folklori - milliy qadriyatlar in‘ikosi, deb nomlanishi ham bejizga emas. Bu ayni haqiqatdir, zero qadimiy milliy va ma‘naviy qadriyatlar, aynan folklor asarlar mazmunida bizgacha yetib kelgan.

Xalq og‘zaki ijodi har bir millat adabiyotining negizini tashkil etadi va uning tarkibida shakllangan turli nasriy va nazmiy janrlar, ulardagi obrazlar, motivlar yozma adabiyot rivojida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Jahon xalqlari o‘rtasidagi o‘zaro ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy aloqalarning qadimdan mavjud bo‘lgani ham folklor merosini o‘rganish asosida ma‘lum bo‘lgan. Xususan, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida davlat ilmiy loyihalari doirasida Buyuk ipak yo‘li mintaqasi xalqlari folklor merosi o‘rganildi, ularning tipologiyasi amalga oshirildi va yozma adabiyotga ta’siri kabi masalalar doirasida ilmiy izlanishlar olib borilib, sharq xalqlari folklori bo‘yicha ilk bor o‘zbek tilida yaxlit, fundamental tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Ushbu tadqiqot natijalari ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar negiziga qurilgan Ipak yo‘li mintaqasi xalqlari o‘rtasida madaniy va adabiy aloqalar ham juda yaxshi rivojlangan bo‘lganligi shu mintaqada xalqlari folklor merosini o‘rganish, ularni qiyosiy tadqiq qilish asosida aniqlandi.

Anjuman natijalari sifatida to‘plamga kiritilgan maqolalarda o‘zbek, turk, arab, afg‘on, eron, xitoy, koreys, indonez, ozarbijon, qozoq folkloriga oid mifologiya, dostonlar, ertaklar, masallar, afsonalar, rivoyatlar, maqollar, matallar, xalq qo‘shiqlari, baxshichilik, topishmoqlar, ularning mazmun-mohiyati bilan bog‘liq mulohazalar, ayrim folklor janrlarning qiyosiy tahliliga bag‘shlangan maqolalar o‘rin olgan.

Ushbu anjuman doirasida folklorshunoslikda hali o‘rganilmagan muammolar, janrlar tasnifi, ularning kelib chiqish asoslari, badiiyat olami, ulardagi til va uslub masalalari kabi talaygina o‘rganilmagan muammolar hali o‘z tadqiqotchilarini kutib turgani ham aniqlandi.

Ushbu anjuman materiallari xalq og‘zaki ijodi bilan qiziquvchi barcha tadqiqotchilarni folklorshunoslikda yana yangi yangi saxifalar ochishlariga undashiga umid qilib qolamiz.

BIRINCHI KENGASHI. SHARQ MAMLAKATLARI FOLKLORI JANRLARI BADIYATI VA YOZMA ADABIYOT RIVOJIDAGI O'RNI

SHARQ XALQLARI FOLKLORIDA RANGLARNING RAMZIY MA'NOLARI

Abdullaeva Ruqiya Muhammadovna
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti magistranti

Annotasiya: Folklor lingvo-madaniyatning asosi bo'lib xizmat qiladi. Madaniyatda eng avvalo shu olam va inson tushunchasi bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liq holatda amalga oshadi. Jamiyatdagi har bir shaxs bolaligidan ona tilini xalqining madaniyati bilan birga o'ziga singdirib oladi. Xalq madaniyatining barcha nozik tomonlari shu xalqning o'z tilida aksini topgan bo'ladi. Birgina iboralarning o'zini olib qaraydigan bo'lsak, unda butun xalq ruhi, ideologiyasi o'z aksini topgan bo'ladi.

Har bir xalq yoki elatning turish-turmushi, urf-odati, dunyoqarashi o'ziga xos, ular uzoq davrlar mobaynida shakllangan. Bu narsa hatto rangga bo'lgan munosabatda ham namoyon bo'ladi. O'rta Osiyoda, xususan, biz – o'zbeklarda yorqin ranglarga ijobiy ma'no yuklanadi. Masalan, oq rang ezgulik, soflik belgisi sanaladi. Boshqa millatlar unga boshqacha nazar bilan baho berishi mumkin. Bu esa, boya ta'kidlanganidek, xalqning mentalitetiga – milliy dunyoqarashiga bog'liq.

Kalit so'zlar: folklor, lingvomadaniyat, madaniyat, xalq, urf-odat, millat, milliy dunyoqarash, doston, badiiy adabiyot.

Аннотация: Фольклор - основа лингвокультуры. В культуре, прежде всего, представление о мироздании и человеке происходит во взаимосвязанном состоянии. С раннего возраста каждый член общества усваивает свой родной язык вместе с культурой своего народа. Все тонкости народной культуры отражены в языке народа. Если мы посмотрим на саму фразу, то она отражает дух и идеологию всей нации.

У каждой нации или народа свой образ жизни, обычаи и мировоззрение, которые формировались на протяжении длительного периода времени. Это видно даже по отношению к цвету. В Средней Азии, особенно у нас, узбеков, яркие цвета имеют

положительное значение. Например, белый цвет - знак добра, чистоты. Другие страны могут оценивать это по-другому. Это, как отмечалось ранее, зависит от менталитета людей - национального мировоззрения.

Ключевые слова: фольклор, языкознание, культура, люди, традиции, нация, национальное мировоззрение, эпос, художественная литература.

Abstract: Folklore is the basis of linguoculture. In culture, first of all, the idea of the universe and man occurs in an interconnected state. From an early age, each member of the society learns his native language along with the culture of his people. All the subtleties of folk culture are reflected in the language of the people. If we look at the phrase itself, then it reflects the spirit and ideology of the entire nation.

Each nation or people has its own way of life, customs and worldview, which have been formed over a long period of time. This can be seen even in relation to the color. In Central Asia, especially among us Uzbeks, bright colors have a positive meaning. For example, white is a sign of goodness and purity. Other countries may rate this differently. This, as noted earlier, depends on the mentality of the people - the national worldview.

Key words: folklore, linguistics, culture, people, traditions, nation, national outlook, epic, fiction.

Ma'lum bir xalq madaniyatining aynan shu xalq so'zlashadigan tilda aks etishini tushunamiz. Folklorda xalqning nafaqat bugungi kundagi turmush tarzi, balki asrlar davomida shakllanib kelgan milliy, tarixiy, diniy madaniyati aks etadi. Har bir tildagi folklor janrlar, maqollar, iboralar, shu tilda muloqot qiladigan xalqning asrab-avaylanadigan, eng ko'p o'rganiladigan muhim ahamiyatga ega bo'lgan xalq og'zaki merosi hisoblanadi. Bu sohaning vazifasi til orqali xalqning bugungi kungacha shakllangan madaniyatini o'zida aks ettira olishidir.

Folklor lingvo madaniyatning asosi bo'lib xizmat qiladi. Madaniyatda eng avvalo shu olam va inson tushunchasi bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liq holatda amalga oshadi. Jamiyatdagi har bir shaxs bolaligidan ona tilini xalqining madaniyati bilan birga o'ziga singdirib oladi. Xalq madaniyatining barcha nozik tomonlari shu xalqning o'z tilida aksini topgan bo'ladi. Birgina iboralarning o'zini olib qaraydigan bo'lsak, unda butun xalq ruhi, ideologiyasi o'z aksini topgan bo'ladi.

Har bir xalq yoki elatning turish-turmushi, urf-odati, dunyoqarashi o'ziga xos, ular uzoq davrlar mobaynida shakllangan. Bu narsa hatto rangga bo'lgan munosabatda ham namoyon bo'ladi. O'rta Osiyoda, xususan, biz – o'zbeklarda yorqin ranglarga ijobiy ma'no yuklanadi. Masalan, oq rang ezgulik, soflik belgisi sanaladi. Boshqa millatlar unga boshqacha nazar bilan baho berishi mumkin. Bu esa, boya ta'kidlanganidek, xalqning mentalitetiga – milliy dunyoqarashiga bog'liq.

O'tmishda asir tushgan yoki yengilgan qo'shin oq bayroq ko'targan. Oq sulhparvarelchilar va betaraf tomonlarning rangi hisoblanadi. Yaponiya, Hindiston va Xitoyda esa bu rangga motam ramzi deb qaraladi. Oq Hindistonda kasallikni ham ifodalaydi. Yashil Amerikada xafsizlikni, Fransiyada esa jinoyatchilikni anglatadi. Qizil esa muhabbat va hayot rangidir. Qizil Fransiyada aristokratlar rangi sanaladi. Xitoyda baxtni, Yaponiyada esa xavfni anglatadi. Shu sababli yapon multfilmlarida qahramonning g'azabini, qahrini aks ettirish uchun qizil rangdan ko'p foydalaniladi. Sariq Amerikada qo'rqoqlik va irodasizlikni ifodalaydi. Bu rang Xitoyda baxt va boylik, Yaponiyada esa go'zallik va nafosat belgisidir. Hindular sariqni muvaffaqiyat keltiradi deb hisoblashadi. Qora Yevropada azaldan yovuzlik, vayronganchilik va o'lim obrazi bo'lgan. Ayrim sharq mamlakatlarida bu rangga sevgi va oilaviy baxt belgisidir. Moviy Misrda haqiqat va ezgulikni, Amerikada jasurlikni, Yaponiyada esa tovlamachilik va firibgarlikni bildiradi.

Ma'lumki, rangni anglatadigan so'zlarda ham har bir xalqning madaniy an'analari ko'zga tashlanadi. Qiziq tarafi shundaki, ranglarning ramziy timsoli lingvomadaniy nuqtai nazardan bir necha ma'noni anglatishi ham mumkin. Masalan rus tilida sariq rangning ramziy ma'nosi bir tarafdin quyoshrangidan kelib chiqib, abadiylik timsoli bo'lsa, ikkinchi tomondan kasallikka ishoradir. Shunaqa holatlardan kelib chiqib qaraladigan bo'lsa rang tushunchasi o'zida ijtimoiy- madaniylik bilan birga emotsional va hissiy omillarni ham o'zida aks ettiradi. Bizga ma'lumki, ranglar sovuq va issiq va hattoki qaynoq ranglar guruhiga bo'linadi. Ranglar ko'rinishiga ko'ra ham ba'zi ramziy ma'nolarni anglatadi. Ingliz tilida ko'k rang alohida rang sifatida emas, qora rangning ochroq ko'rinishi hisoblanadi.

Insoniyat paydo bo'libdiki, uning tabiat bilan o'zaro munosabati yaqqol ko'zga tashlanadi. Tabiatda mavjud bo'lgan ranglar jilosi har qanday ijodkorning e'tiborini tortadi. O'zbek mumtoz adabiyotining

yirik namayondasi bo‘lgan Alisher Navoiy she‘riyatida ham tabiatda mavjud bo‘lgan ranglarning turli ifodasini kuzatamiz. Navoiy poeziyasi uchun xarakterli bo‘lgan poetik usullardan biri – ranglarning ramziy qo‘llanishidir. Masalan, lirik qahramonning hijron kunlaridagi ruhiy va jismoniy holatini sariq (oshiqning hazin holati), qora (baxti qoralik), oq (qora rangga kontrast qo‘yib, baxti qoralikni bo‘rttirish) ranglar vositasida yorqin tasvir etadi. Alisher Navoiy o‘zining “Sab‘ai sayyor” dostonida ham ranglardan unumli foydalangan. Buni ko‘proq har bir bob uchun yozilgan maxsus sarlavhalarda yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Quyidagi baytlarda sariq rangning turli ma‘nolarda qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin:

*Jilva qildi nigori rumiy chehr,
Sariq ‘oltun aro nechuk kim mehr.*

Sariq rangli qasrda rum chehrali nigor, xuddi quyosh singari, oltin rang liboslar ichida jilvalanib turar edi. Shoh Bahrom yakshanba kuni rumlik go‘zal bilan sariq rangli qasrda Zayd Zahhob to‘g‘risidagi hikoyatni tinglaydi.

*Qahrabo rangi gar mufarrih emas,
Ne uchun ul chekar somonniyu bas.*

Ularning yuzi ham xuddi oltin, qahrabo kabi sarg‘ayib ketganini xalq ko‘radi. Qahrabo **sariq** rangli ma‘dan bo‘lib, Navoiy bu so‘zni bejizga qo‘llamagan. Chunki bu baytda sariq rangning turli ma‘no qirralarini ochib berishi kerak edi. Bu tasvir Zayd Zahhobga yomonlik qilgan dushmanlarining holatini aks ettiruvchi bayt hisoblanadi.

Yashil rang qadimdan ilohiy ranglardan biri bo‘lib keladi. U qadimda dunyo tomonlari, jumladan, sharq tomon shu rang bilan ifodalangan. Ushbu rang hayot, yangilanish, jonlanish, umriboqiylik, ona tabiat kabi ramziy belgilarga ega. Alisher Navoiy ham o‘z ijodida ushbu rangdan ko‘p foydalangan va u bilan bog‘liq g‘azallar ham yaratgan. U “Sab‘ai sayyor” dostonining uchinchi hikoyatini mana shu rang bilan bog‘liq baytlar ila bezagan. Jumladan, asardagi hikoyatning sarlavhasi shunday satrlar bilan boshlanadi:

*Shahrisabz o‘ldi bizga chun mulkat,
Yo‘q ajab gar yashil durur kisvat.*

“Kishvarimiz juda dilkash bo‘lib, u ham Shahrisabz va ham Kash nomi bilan yuritiladi. Bu shahar ko‘m-ko‘k bo‘lib, suvi ham sabzadek ko‘k va Oynadek tiniqdir. Yerimiz yashil giyohlar-u ko‘m-ko‘k daraxtlarga burkangani uchun shahrimizning nomi Shahrisabzdir.”

*Rangi azxar bahor rangi erur,
Sabzau marg'zor rangi erur.*

Yashil rang bahor rangidir. U sabza va o'tloqzorlar rangidir. Yashil rang yangilanish va yasharish ramzini ham bildiradi.

*Shahrisabz o'ldi bizga chun mulkat,
Yo'q ajab gar yashil durur kisvat.*

Alisher Navoiy moviy rangdan ham juda mohirona tarzda foydalangan. "Sab' ai sayyor" dostonining beshinchi hikoyati bo'lmish "Mehr va Suhayl" hikoyatida moviyrang bilan bog'liq tasvirlar berilgan. Uning sarlavhasi quyidagicha: "*Chorshanba kuni Bahromning moviy kisvat bila gunbadi nilufariyg'a mayl qilib, xurshidi osmoniy. libos bila jomi firuzagun aro kabudon mayidek boda solib no'sh qilg'oni va no'shono'sh unin toqi nilufaridin oshurg'oni*".

Bundan ko'rinib turibdiki, birgina moviy so'zini anglatish uchun Alisher Navoiy bir necha so'zlardan, jumladan, "nilufariy", "osmoniy", "firuzagun" kabi so'zlardan foydalangan. Bu uning so'z qo'llashdagi yuksak mahoratidan dalolat beradi.

Badiiy adabiyotda ranglardan qahramon ismlarini atashda ham keng foydalaniladi. Qahramon xulq-atvoriga qarab ranglardan foydalanib, ismlar beriladi. Amerikalik yozuvchi, Joef Xellerning "Catch 22" asarida kapitan Blek (Captain Black) bor. Bu asarning rus tilidagi tarjimasida (tarjimon A. Kistyakovskiy) tarjimon ingliz tilidagi qora rangning tun, yovuz, bad bashara, xunuk ma'nolaridan kelib chiqqan holda asardagi salbiy tomonlarni o'zida mujassam etgan bu personajni Капитан Гнус deb ataydi. Гнус rus tilida asl matndagi ma'nolarni ortig'i bilan ochib bera oladi. Asl matndagi Black ismi tarjimada shu holicha olinganda, rusiyzabon o'quvchi uchun shunchaki personaj xarakterini ifodalovchi va hech qanaqangi ma'noga ega bo'lmagan atoqli ot hisoblangan bo'lardi. Ingliz tilidagi bo'yoqdorlik rus tilida o'z ahamiyatini yo'qotgan bo'lardi. Va holanki muallif bunday ismlardan aynan qo'shimcha ma'lumot berish va emotsional bo'yoqdorlikni kuchaytirish maqsadida foydalanadi. Shuning uchun ham ranglardan foydalanib tanlangan atoqli otlar tarjimasida tarjimon amalga oshirishi kerak bo'lgan jiddiy masala hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, lingvistik va madaniy folklor jihatlar aloqa jarayonlarida va ma'lumotlar va g'oyalarni bir muhitdan boshqasiga o'tkazishda muhim rol o'ynaydi va har bir kishi ushbu jihatlarni hisobga olishi va tarjima, yozish va nutq holatlarida ular bilan tanishishi kerak. Ba'zi hollarda o'quvchining yoki tinglovchining

noroziligini va unga etkazilgan materialni qabul qilmasligini keltirib chiqaradigan xato yoki chalkashliklar yoʻqligi yoki boshqa holatlarda bu noxush natijalarga olib keladi. Tadqiqotlarimiz jarayonida shuni guvohi boʻldikki, lingvomadaniyatning oʻrni badiiy tarjimada beqiyosdir. Umuman olganda lingvomadaniyatga oid bilim va koʻnikmalarsiz tarjimon natijaga erisha olmaydi. Bu tabiiy, chunki madaniyat tushunchasi jamiyat rivojlanib borgan sari, oʻzgarib boraveradi. Demakki lingvomadaniyatda folklor tushunchasi ham yangilanib boraveradi. Bu oʻz oʻrnida boshqa sohalar kabi badiiy adabiyotga taʼsir qiladi. Badiiy adabiyot borki, albatta uni tarjima qilishga talab va ehtiyoj boʻladi. Shunday ekan tarjima maktablarimizni kelajakda munosib oʻrnini topishini taʼminlashimiz uchun tarjimonlarni qoʻllab-quvvatlashimiz, ham nazariy, ham amaliy bilimlarni puxta egallashimiz va shart- sharoitlardan unumli foydalanmoqligimiz kerak.

Adabiyotlar:

- [1] - دكتور محمد معين و دكتور سيد جعفر شهيدى " لغت نامه
- [2]-J.Sharipov " Oʻzbekistonda tarjima tarixidan" 1965
"Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar" -1972
- [3]-Gʻ.Salomov "Til va tarjima"-1966
- [4]-N.Komilov "Bu qadimiy sanʼat"-1979
- [5]-Tarjima sanʼati (maqolalar toʻplami-1980)
- [6]- Кулнич М. А. Лингвокультурология юмора. Самара- 1999
- [7]- Komilov N. Bu qadimiy sanʼat. – Toshkent: Adabiy meros, 2000
- [8]- Тимко Н.В. Лингвокультурологические аспекты перевода цвето обозначений. Курск- 2012
- [9]- Musaev.Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005.
Oʻquv qoʻllanma
- [10]- Salomov Gʻ. Tarjima nazariyasi asoslari.–Toshkent: Oʻqituvchi, 1983.
- [11]- Joʻraev K. Tarjima sanʼati. – Toshkent: Fan, 1982. 505.
- [12]- Ilmiy toʻplam. Toshkent: Gʻ.Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1980.
- [13]- Швейцар А.В. Перевод и лингвистика. – Москва, 1973.

XALQ OG‘ZAKI IJODI VA IJROVIY LIRIKA UYG‘UNLIGI

Abdullayeva Umida Abdukadirovna
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalq og‘zaki ijodining janri bo‘lgan mif(asotir)lar, ular qahramonlarining shoir Usmon Azim ijodidagi ijroviy lirik obrazi tasviri haqidagi ma‘lumotlar kiritilgan bo‘lib, xalq og‘zaki ijodi va ijroviy lirikaning uyg‘un jihatlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, mif, mifologiya, ijroviy lirika, kredo.

Abstract: in this article, information about the genre of folk oral creativity, myths(acutirs), the image of their heroes in the work of the poet Osman Azim, the image of the executive lyric, the oral creativity of the people and the harmonious aspects of the executive lyric are analyzed.

Keywords: folk oral creativity, myth, mythology, executive lyrics, credo

Аннотация: В данной статье представлена информация о мифах(асотирах), являющихся жанрами устного народного творчества, об исполнительском лирическом образе их героев в творчестве поэта Османа Азима, проанализированы гармонические аспекты фольклорного творчества и исполнительской лирики.

Ключевые слова: фольклор, миф, мифология, исполнительская лирика, кredo.

Badiiy adabiyot asosiy vazifasidan kelib chiqib, so‘z orqali inson qalbida ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg‘otadi. Uning bu vazifasi og‘zaki ko‘rinishida ham, yozma shaklida ham amalga oshirilaveradi. Inson qadimdan atrof muhitda ro‘y berayotgan voqeliklarga o‘z munosabatini bildirgan. Bu munosabat, avvalo, turli hatti-harakatlar, ovozlar, ehtiroslar vositasida amalga oshirilgan bo‘lib, keyinchalik his-tuyg‘ularni so‘zlar, so‘z yig‘indisi, raqslar bilan ifodalangan. Keyinchalik odamlar o‘zlaricha dunyoning, tabiatning, hayvonlar, o‘simliklar, tog‘lar, suvlarning paydo bo‘lishini izohlovchi to‘qima hikoyalar o‘ylab topadilar. Yigitlar, qizlar muhabbat qo‘shiqclarini to‘qidilar. Qabila-urug‘ning mard va jasur yigitlari haqida,

ularning g‘aroyib qahramonliklari haqida afsona va rivoyatlar paydo bo‘ladi. Bularning hammasi hali yozuv madaniyati vujudga kelmasdan oldin jamoa-jamoa bo‘lib yashayotgan aholi o‘rtasida shuhrat topadi. Bugungi kunda biz ularni “xalq og‘zaki ijodi” deb atashga odatlanganmiz.

Xalq og‘zaki ijodi badiiy adabiyotning eng qadimiy shakli bo‘lib, yillar davomida sayqallanib, takomillashib, mukammal ko‘rinishga ega bo‘lib boraveradi. U yozma adabiyot uchun tayanch vazifasini bajarishi bilan alohida xarakterlidir.

Xalq ijodiyotining yaratilishi va yashash tarzi og‘zaki usulda amalga oshadi. Xalq yaratgan asarlar o‘zining g‘oyaviyligi, chuqur xalqchilligi, til boyligi va badiiyligi bilan ajratib turadi. U xalqning yengilmas irodasini, kelajakka bo‘lgan ishonchini, tasavvurlarini yaqqol aks ettiradi.

Xalq og‘zaki ijodi insoniyat tarixiga tengdosh eng qadimiy san‘at. U har bir xalqning og‘zaki ijodi o‘sha xalqning fe‘l-atvori, orzu-umidlari, estetik didi, ruhiyati, orzu-intilishlari, urf-odat va an‘analari, geografik sharoiti va tabiatini aks ettiruvchi o‘ziga xos oynadir. Bu oyna bizga ezgu niyatlar, insoniy fazilatlar, yovuzlik va adolatsizlikka qarshi kurashlarni ko‘rsatadi. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodini barcha tur va janrlari bilan insonni kamolotga yetaklaydigan, foydalanganing sari to‘lib boradigan ma‘nolar ummoniga o‘xshatish mumkin. Xalq og‘zaki ijodining barcha tur va janrlarida xalqning orzu-umidlari, intilishlari, qiziqishlari va donishmandligi, zakovati aks ettiriladi. Xususan, asotir(mif)lar ham shular jumlasidan.

Ibtidoiy insonlarning koinot va tabiat hodisalarining mohiyati, paydo bo‘lishi o‘zlaricha izohlash maqsadida yaratgan og‘zaki hikoyalari asotirlar(miflar) hisoblanadi.¹

Mif ibtidoiy jamiyatda olamni tushunish va anglashning asosi bo‘lgan, shuning uchun ham mif ijod qilish insoniyatning madaniy taraqqiyotidagi muhim hodisa hisoblangan. Inson ilk yaratilgan paytidan boshlab faqatgina atrofga ta‘sir qilib qolmasdan, “idrokli inson” sifatida olamni anglab yetishiga to‘g‘ri kelgan. Miflar ana shu munosabat bilan paydo bo‘lgan, ya‘ni, mif idrokli insonning aqliy faoliyati mahsuli.

Mif(asotir)larning paydo bo‘lishi va rivojlanishi qadimgi Yunonistonga borib taqaladi. O‘sha paytda odamlar tasavvurida mavjud bo‘lgan xudolar Zevs, Poseydon, Qahramon, Xestiya, Demeter hamda

¹Sh.Sariyev. Adabiyot.1-qism. Toshkent-Sharq, 2013

xayoliy jonzotlar, hayvonlar va dahshatli Minotaur - hayvon haqida Qadimgi yunonlarning xayoloti kentavrlar, yarim odamlar, yarim otlar, sochlari oʻrniga ilonli dahshatli Gorgonlar haqidagi mif (asotir)lar yunon xalq ogʻzaki ijodi mahsulidir. Shuningdek, deyarli barcha burjlar nomlari qandaydir tarzda qadimgi yunon afsonalari bilan bogʻliq. Bunday afsonalar turli xalqlar va qabilalarda paydo boʻlishiga qaramay, ularda mazmun oʻxshash boʻlgan. Bu xususiyat barcha xalqlar ogʻzaki ijodi mushtarak ekanligini anglatadi.

Yunon mifologiyasidagi “Dedal va Ikar” asotiri insonning hayotiy orzusi boʻlgan ozodlik yoʻlidagi harakatlarini ifoda etadi. Oʻz kasbining ustasi boʻlgan Dedal va uning oʻgʻli Ikar Afinaga ketmoqchi boʻladilar, biroq, Minos ustani qoʻyib yubormadi. Dedal bu holatdan chiqib, oʻziga va oʻgʻliga, xuddi dengiz ular uchun yopiq boʻlsa, osmon boʻylab uchib ketishi uchun qushlar singari qanot yasadi. Usta oʻgʻliga uchishni oʻrgatadi va unga juda baland koʻtarilmaslikni buyuradi, aks holda quyosh qanotlar qurilishining tarkibiy qismi boʻlgan mumni eritib yuborishi mumkinligi, shu bilan birga uchib ketadigan moslamani suv namlantirmasligi uchun dengizdan pastroqda ham uchmaslikni taʼkidlaydi. Dedal oʻgʻlini oltin oʻrtalikni topish va unga rioya qilishga oʻrgatadi. Ammo, otasining nasihatiga amal qilmagan, uchish zavqiga mast boʻlib, qanotlari bilan balandliklarga parvoz qilgan Ikar quyoshda kuyib suvga qulaydi va halok boʻladi.

Aristotelning taʼkidlashicha, shoir “oʻz holicha” qolmaydi, balki oʻzga shaxsning his-tuygʻularini uning oʻz tilidan “men” shaklida ifoda etadi. Yaʼni ularda lirik subʼyekt ham, lirik kechinma obʼyekt ham shoirdan oʻzga shaxsdir. Maʼlumki, oʻzga shaxs his-tuygʻularini ifodalash uchun avval ularni anglash taqozo etiladi, demak, bu oʻrinda shoir oʻzga shaxsni badiiy idrok etadi. Adabiyotshunos D.Quronov bunday sheʼrlarni “ijroviy lirika” namunalari deb koʻrsatadi.

XX asr oʻzbek sheʼriyatida ijroviy lirika keng ommalashdi. Abdulla Oripovning “Furqat nidosi”, “Musofir”, “Zardusht soʻzi”, “Hamza nidosi”, “Ulugʻbek faryodi”, “Shikoyatchi hangomasi”, Erkin Vohidovning “Vafo”, “Yomonning soʻzi”, “Gamlet” kabi, Usmon Azimning “Otello”, “Turdi Farogʻiy”, “Usmon Nosirning soʻnggi tushi”, “Brut”, “Mirzo Ulugʻbekning oʻkinchi”, “Dedal va Ikar” kabi sheʼrlari ijroviy lirika namunalaridir.

Usmon Azimning “Dedal va Ikar” sheʼri yunon asotir(mif)i asosida yozilgan boʻlib, shoir Dedal va Ikar timsolida ijroviy lirika namunasini yaratdi. Bu oʻrinda lirikada «men»-Dedal tasvirida, noanʼanaviy nutq

tashuvchilarning rol o‘ynaydigan qahramonning mifologik xilma-xilligi bilan ichki aloqalari o‘rnatiladi.

She’rda mifologik-tarixiy ijro lirikasi misolida haqiqiy dalillar ramziy hodisalar vositasida ochib beriladi:

*-Yuragim qo‘ymadi, uch deb qo‘ymadi,
Falakka intildim, ammo bu hayot
Yerga ko‘maverib tanni, to‘ymadi...
Baribir men qanot yasadim, qanot!...²*

She’rning birinchi bandida lirik sub’yekt – shoirning usta Dedal taqdiri bilan bog‘liq kechinmalari ifoda etilgan. Ya’ni agar bu o‘rinda qanot yasalishi – lirik kechinma ob’yekti bo‘lsa, she’rning ikkinchi yarmida uning kechinmalari bevosita o‘z tilidan ifoda etiladi, ya’ni u endi lirik sub’yektga aylanadi va xuddi shu hol uni lirik personaj deyishga asos beradi.

*Bolam! Sen ne uchun meni qiynaysan,
Sening ham joningdan o‘tdimi turmush?
Uchish ham azobdir, axir...Bilmaysan!
Uchish – qismat osha – betin zo‘riqish.*

Bu o‘rinda tarixiy mif (asotir) syujeti bugungi kun voqeligi bilan qorishiq holatda ochib beriladi. Shoir ijro etilayotgan qahramon nutqi orqali hayotiy haqiqatni o‘quvchi ongiga singdiradi.

*Qara! Menga qara! Ahvolimga boq!..
Ammo sen so‘zlaysan qandaydir tushdan!
Uchganning hamisha qismati chatoq,
Yerni-ku gapirma, falak ham dushman.*

Jonli poetik obraz, hayotiy haqiqat mavjud she’rning har bir misrasi o‘quvchini fikrlashga majbur etadi va maqsadli xulosalar chiqarishga undaydi. She’rda lirik qahramon tilidan aytilgan - garchi padari bo‘lsa-da unga taqlid qilmaslik; jaydari taqdirga ko‘nikish; hayot davomida ermak uchun it urishtirish; mayxonada tadbir uyushtirish kabi poetik ko‘chimlar ba’zan kimdan o‘rnak olishni bilmaydigan, dunyoga kelib, yashashdan asl maqsadi nima ekanligini anglay olmayotgan kishilarni o‘ylashga, fikrlashga majbur etadi.

O‘z maqsadi yo‘lida hech narsadan qaytmaydigan xarakter Ikar timsolida ifodalanib, lirik qahramonning yuksak pafos bilan yo‘g‘rilgan nasihatiga amal qilmay, halokatga uchraydi.

²Azim, Usmon. Kollaj: Nazm, baxshiyonalar, nasr, dramaturgiya – T; “Sharq”, 2018.

*Behuda yuksaklik esa toldirar!
Past uch! Dengiz ichra parvoz ham ko'rkam...
To'xta! Quyosh sari borma! Yondirar!
To'xta! Qanotlaring kuyadi, bolam!..*

Shoir o'quvchiga hayotda hamma narsada me'yor bo'lishi, me'yor va mezonni anglash insonning oliy saodati ekanligini anglatish uchun Dedal ijroviy lirikasi timsolida ramziy hodisalarni dalillab beradi. Hayotning shafqatsiz ammo, mavjud haqiqatini o'quvchining ko'z o'ngida poetik namoyon qila oladi. Parvozgga shaylangan uchuvchi xavfsiz, davomli parvozni amalga oshirishi lozim, aks holda parvoz xatarli yakunlanishi mumkin.

*- Hech kimni ayamasi rivoj hududi!
Bizni yamladimi? Yo'qdir e'tiroz:
Kuyib tushayotgan, bolam, vujuding,
Ko'kda qolgan esa la'nati parvoz!*

Rivojlanayotgan, yuksak lavozim va martabalarga erishayotgan inson o'zligini yo'qotdimi – hayotda barcha narsani boy beradi. Bu jarayonda u barcha narsasini yo'qotadi, ammo achchiq tajribadan samarali dars oladi. Shoirning kredosi shu. U o'zining xayotiy xulosa va fikrlarini mifologik obraz vositasida o'quvchiga ishonarli va ta'sirli ifodalaydi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, xalq og'zaki ijodi donishmandlik mahsuli sifatida teran mazmun, jozibador poetik tasvir hamda mukammal kulminasiya, yechimiga ega bo'lgan badiiy asarlarni yaratishda poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Azim, Usmon. Kollaj: Nazm, baxshiyonalar, nasr, dramaturgiya – T; “Sharq”, 2018.
- 2.1. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990.
3. Sh. Sariyev. Adabiyot. 1-qism. Toshkent-Sharq, 2013
4. Oripov, Abdulla. Tanlangan asarlar. – T.: “Sharq”, 2019,

ADABIYOTSHUNOSLIKDA MAQOL JANRINING O‘RGANILISH TARIXI

Boysinov Sohijjon Sobirovich
Jizzax davlat pedagogika instituti,
katta o‘qituvchi
Jizzax, O‘zbekiston Respublikasi

Annotasiya: Ushbu maqolada folklor janrlaridan maqollarning o‘zbek xalq og‘zaki ijodida tutgan o‘rni va uning o‘rganilishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: maqol, maqollar tadqiqi, maqollar mavzusi.

Аннотация: В статье рассматривается роль пословиц из фольклорных жанров в узбекском фольклоре и его изучении.

Ключевые слова: пословица, исследование пословиц, темы пословиц.

Abstract: The article examines the role of proverbs from folklore genres in Uzbek folklore and its study.

Keywords: Proverb, study of proverbs, topics of proverbs

Maqol jahon xalqlari og‘zaki ijodining klassik janrlaridan biri bo‘lib, unda xalqning uzoq asrlik tarixi, turmush tarzi, milliy madaniyati, etnografiyasi, orzu-istaklari, dunyoqarashi, o‘y-fikrlari, tilining misqollab yig‘ilgan boyligi tamg‘alangan bo‘ladi. Xalq maqollarida kishilikning turmush tajribalari asosida chiqargan falsafiy xulosalari ixcham va lo‘nda shaklda ifoda etilgan. Ularni qadimgi xalq poetik tafakkurining, ota-bobolar donishmandligining bebaho merosi, til tarixining takrorlanmas yodgorligi desa bo‘ladi.

Maqollar tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi va ular turli nomlar bilan – maqol, matal, masal, hikmatli so‘z, donolar hikmati, mashoyixlar, donishmandlar so‘zi, otalar so‘zi, naql, bobolar naqli, qayroqi so‘zlar, hikmat guldastalari deb atalib kelgan.

Dunyo folklorshunosligida maqollarni o‘rganish bugungi kunda yuqori bosqichga ko‘tarilgan. Qadimgi xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lgan maqollarning ilk tadqiqotchisi Mahmud Koshg‘ariy hisoblanadi. “Mahmud Qoshg‘ariy turkiy qabilalar folklorining qo‘shiq, maqol, matal, marosim folklori, afsona, rivoyat kabi janrlariga oid katta material to‘plagan. Shuning uchun ham “Devonu lug‘otit turk” asaridagi folklor

materiallarini o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodi namunalari bilan qiyosiy o‘rganish folklorning tarixiy taraqqiyotini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi”[1, 25 6.].

Muallif “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida so‘zlarning ma’nosini izohlash uchun, o‘rni bilan, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan misollar keltirgan. Bular qadimgi dostonlar, xalq qo‘shiqlaridan olingan she’riy parchalar va turkiy xalqlar orasida keng yoyilgan maqollardir. Mahmud Qoshg‘ariy asarda xalq maqollarini keltirar ekan, ularning mazmuni va qanday holatda ishlatilganini yoritib bergan. Turkiy xalqlar tilining bitmas-tuganmas xazinasini sanaluvchi ushbu asarda 400 dan ortiq xalq maqollari qo‘llangan va ular qanday o‘rinlarda qanday ma’nolarda qo‘llanilishi izohlangan.

Shu o‘rinda qimmatli bir ma’lumotni keltirib o‘tsak, o‘zbek maqollarini ilmiy o‘rganish XIX asrlardan boshlangan. Ma’lumki, XIX asrning ikkinchi yarmida (1863) vengriyalik tarixchi, sayyoh Herman Vamberi O‘rta Osiyoga hoji niqobida kelib ketgan. U ketishida o‘zi bilan olib ketgan 19 yoshlik mullavachcha Mulla Isoq bo‘lib, u o‘sha yurtda voyaga yetib, hattoki Vengriya Fanlar Akademiyasida ishlagan. 1865 yilda esa Vengriya Fanlar Akademiyasining filologiya bo‘limi “Tilshunoslik axboroti”da o‘zbek maqollarini nashr ettirgan. O‘z ichiga 44 ta maqol, matal, ertak va topishmoqlar kiritilgan ushbu to‘plam Yevropa ilmiy jamoatchiligida katta shov-shuv uyg‘otadi. Chunki shu davrgacha o‘zbek xalq maqollari haqida Yevropa ahli bexabar edi.

Agar Mulla Isoh chop ettirgan maqollar tarkibiga nazar soladigan bo‘lsak, unda qadimda qo‘llanib kelingan, shuncha davrlar o‘tgandan so‘ng ham o‘z shakli, mazmuni va ahamiyatini yo‘qotmay kelayotgan qator aforistik birliklar o‘rin topganligining guvohi bo‘lamiz. Jumladan: enasini ko‘rib qizini ol; asal tutgan barmog‘in yalar; da’vogaring podsho bo‘lsa, arzingni Olloh eshitsin; ochlik neni yedirmas, to‘qlik neni dedirmas; arpa bug‘doy osh bo‘lur, oltin-kumush tosh bo‘lur; qorani yuvsang, oq bo‘lmas; ot oriqlikda, yigit g‘ariblikda bilinar va boshqalar.

“Maqollar xalq og‘zaki ijodining qadimiy ommaviy janrlaridan biridir. Ularda xalqimizning dunyoqarashi, jamiyatga bo‘lgan munosabati va axloqiy normasi o‘z ifodasini topgan. Maqol – mantiqiy mushohada namunasi, odob va axloq qoidalarini o‘zida jamuljam etgan dono gap. U kishilarni ogohlantiradi (Birovga kulma zinhor, senga ham kulguvchilar bor), maslahat beradi (Yo‘l bilmasang, yo‘l so‘ragin yurgandan, gap bilmasang, gap so‘ragin bilgandan), tanbeh berib, tanqid qiladi (Cholni ko‘rib buvam dema), mehnatni ulug‘laydi (Ishlaganning

og‘zi oshga tegar, ishlamaganing boshi toshga tegar), hajviy kulgi ostiga olib, fosh etadi (Ishtonsiz tizzasi yirtiqqa kular) va boshqalar. Maqollarda chuqur mazmun, mehnatkash ommaning donoligi, milliy an‘ana, uzoq asrlik hayot tajribalari, tabiat va jamiyat hodisalari haqidagi fikri, bahosi, mehnat yakunlari mujassamlashgan. Shuning uchun ham maqollar uzoq umrli bo‘ladi. Maqollarda har bir tarixiy davr, ijtimoiy siyosiy voqealar ma‘lum darajada o‘z izini qoldiradi” [2, 108 6].

Darhaqiqat, maqollar kishilarning ijtimoiy hayotga, jamiyatga bo‘lgan to‘g‘ri munosabatini shakllantirish va rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib qolaveradi.

Shu narsa ayonki, ular qadim zamonlarda xalq turmush faoliyati jarayonida yuzaga kelib, shu kunlarga qo‘llanib kelinmoqda, o‘z ijodkori bo‘lmish xalq bilan birga yashamoqda. Albatta, ayrim maqollar xalqning ma‘lum davr bosqichida qo‘llanilib, keyin iste‘moldan chiqib ketishi ham mumkin bo‘lib, hayotiy voqelikni aks ettirgan maqollar ommalashib, tildan-tilga, davrdan-davrga o‘tib, yashovchan turg‘un paremiologik birliklarga aylanadi. Chunki har bir maqol va matalda xalq hukmi, uning umumiydashgan xulosalari aks etadiki, ular barcha davrlar uchun tegishlidir: “Bola – yoshidan, Xotin – boshidan, Odamga – libos, eshakka – to‘qim, Nima eksang, shuni o‘rsan, Yiroqdagi quyruqdan yaqindagi o‘pka yaxshi, Obro‘yni yoshlikda saqla, Til – aql tarozisi» kabi.

Maqollar mavzu jihatidan juda boy va turfa xilda bo‘lib, Vatan, mehnat, sevgi-muhabbat, mardlik, pand-nasihat, yaxshilik va yomonlik, elga va yurtga sodiqlik kabi ezgu mavzularda, shuningdek, salbiy xislatlar xususida ham bo‘lib, kishilarni yaxshilikka, to‘g‘rilikka, olijanoblikka, mardlikka chorlaydi. Maqollarda aks etgan mazmun hatto kichik bir asarga teng keladi. Ular asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham, lo‘nda va sodda poetik shaklga tushgan.

Professor Q.Sodiqov maqollar shakli va uslubi to‘g‘risida quyidagi fikrni aytadi: “Xalq maqollarida badiiy uslub ixcham bir ko‘rinishda mujassamlashgan” [3,78 b.]. Muallifning boshqa bir qadimgi uslublarga bag‘ishlangan asarida yozma uslub to‘g‘risida quyidagi fikrlar bayon etilgan: “Yozma adabiy til, matn tuzish an‘anasi endigina yuzaga kelayotgan bir chog‘da xalq og‘zaki ijodi va uning uslubi allaqachon shakllanib, yuksalish bosqichiga o‘tgan edi. Badiiy uslub o‘zining og‘zaki bosqichidayoq pishib yetilgan. Yozma badiiy uslub o‘z qolipini, bichimini og‘zaki adabiyotdan oldi. Og‘zaki ko‘rinishda asrlar osha

takomillashib kelgan badiiy uslub yozma adabiyotga ko‘chib, o‘z yo‘lini yang bir shaklda davom ettirdi” [4, 12-13 b].

Ushbu ta’rif xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lmish qadimgi turkiy maqollarga ham tegishli. Ular og‘zaki shaklda paydo bo‘lib, davrlar osha takomillashib, uslub jihatdan sayqallashib, so‘ng Mahmud Koshg‘ariy yig‘ib, keltirgan shaklga o‘tgan. Undagi maqollarning ko‘pi turli shakllarda kunimizgacha yetib kelgan.

So‘nggi yillarda maqollarning tematik guruhleri xilma-xilligi, ularni mavzu (tematik) guruhlarga bo‘lib o‘rganish borasida mulohazalar, to‘xtamlar ko‘zga tashlanmoqda. Maqollarni mavzu (tematik) guruhlarga bo‘lib o‘rganishda ularning ma’nosi, mazmun-mohiyati hisobga olinishi lozimligi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan e’tirof etilmoqda. Jumladan, “Ularni quyidagi 16 mavzu guruhlariga ajratish mumkin: 1. Birlik va hamjihatlik haqidagi maqollar; 2. Bilimlilik va bilimsizlik haqidagi maqollar; 3. Dangasalik va mehnatsevarlik haqidagi maqollar; 4. Vaqt va hayot tarzi bilan bog‘liq maqollar; 5. Manmanlik haqidagi maqollar; 6. Xoinlik haqidagi maqollar; 7. Kishining or-nomusi haqidagi maqollar; 8. Erkinlik, ozodlik haqidagi maqollar; 9. Rizq-nasiba haqidagi maqollar; 10. Halollik haqidagi maqollar; 11. Kishi taqdiri haqidagi maqollar; 12. To‘g‘ri so‘zlik haqidagi maqollar; 13. Kishining fe‘l-atvori haqidagi maqollar; 14. Ezgulik bilan bog‘liq maqollar; 15. Qarindosh-urug‘chilik haqidagi maqollar; 16. Tenglik haqidagi maqollar” [5, 15 b].

Maqollarni o‘rganish, ulardagi mazmun-mohiyatni teranroq anglab yetishda bunday tartiblanish o‘rganuvchilarga anchayin yengillik va qulaylik tug‘dirishi aniq.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining eng ta’sirchan, eng esda qoluvchi, kishini o‘ylashga, fikr-mulohaza yuritishga beixtiyor majbur qiluvchi kuchga ega bo‘lgan maqollarni qay yo‘sinda bo‘lsada o‘rganish orqali inson shaxsiyatida ijobiylik xislatlari ko‘payib boradi. U o‘z-o‘zini idora qilishga, qilgan ishlari yuzasidan o‘ziga hisob berishga, o‘zini taftish qilishga odatlanadi.

Bizning vazifamiz esa olimning “...men har bir qabilaga mansub so‘zlarning yasaliş xususiyatlarini va qanday qo‘llanilishini qisqacha izohlab ko‘rsatish uchun alohida yo‘l tutdim. Bu ishda misol tariqasida turkiylarning tilida qo‘llanilib kelingan she’rlardan, shodlik va motam kunlarida qo‘llaniladigan hikmatli so‘zlaridan, maqollaridan keltirdim, toki, ulardan foydalanuvchilar naql qiluvchilarga, naql qiluvchilar esa

o‘z navbatida shu tilda so‘zlovchilarga yetkazsin» [6, 44 b.] degan istagini amalga oshirish.

Adabiyotlar:

1. Jo‘rayeva M. Folklorshunoslik asoslari. –T.: Fan, 2009. –B 25.
2. Imomov K. v.b. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. –T.: O‘qituvchi, 1980. –B. 108.
3. Sodiqova Q. Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi. –T. 2006. –B. 78.
4. Sodiqova Q., Omonov Q. O‘zbek tilining yozma uslublari tarixidan. – B. 12-13.
5. Mirzaaliyev I.M. Qadimgi turkiy maqollar semantikasi va stilistikasi (“Devonu lug‘ati-t-turk” materialida). Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avt. –T. 2020. B 15.
6. Mahmud Qoshg‘ariy. Devonu lug‘ati-t-turk. Nashrga tayyorlovchi: S.Mutallibov. 1-tom. –T.: Fan, 1960. B 44.

BOLALAR ADABIYOTI VA FOLKLORIDA POLVON OBRAZI

Ismanjonova Maftuna Tursunpulot qizi
Namangan viloyati 63-maktab o‘qituvchisi
Ilmiy rahbar: f.f.n dotsent M.Sulaymonov
Namangan, O‘zbekiston Respublikasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada bolalar yozma va og‘izaki adabiyotida yaratilgan obrazlar vaular tabiatidagi farqlar haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Folklor, “Alpomish” dostoni, “Ravshan” dostoni, Shukur Sa’dulla, Anvar Obidjon, ertak, doston, “Daxshatli Meshpolvon”, “Kachal Polvon”, “Mamatkarim Polvon”

Аннотация: эта статья содержит информацию о различиях в природе образов и образов, созданных в детской письменной и устной литературе.

Ключевые слова: фольклор, эпос "Алпомиш", эпос "Равшан", Шукур Саудулла, Анвар Обиджон, сказка, эпос, "ужасный Мешполвон", "качал Полвон", "Маматкарим Полвон"

Abstract: this article provides information on the differences in the vaular nature of images created in children's written and oral literature.

Keywords: folklore, “alpomish” dostoni, “Essen” dostoni, Shukur sa’dulla, Anvar Obidjon, fairy tale, epic, “terrible Meshpolvon”, “Kachal Polvon”, “Mamatkarim Polvon”

Barcha zamonlarning ijod sarchashmasi bo‘lib kelgan folklor an’analrida insoniyat yuksak tuyg‘ulari, orzu-umidlari, kurashlar va mag‘lubiyatlarini ifoda etib kelgan. Folklor namunalari og‘izaki so‘z san’ati bo‘lib, xalqimizning dunyoqarashi, badiiy mulohazalari, orzu va intilishlari, salohiyati, so‘zamolligi, shuningdek, turish-turmushidan guvohlik beradi. O‘zbek folklori xilma-xil janrlardan tarkib topgan bo‘lib, har bir janr o‘z yo‘nalishi va o‘quvchisiga ega.

Adabiyotning o‘ziga xos olamiga ega bo‘lgan bolalar folklori ham o‘z maqsad vazifasiga ko‘ra insonning ruhiy kamoloti va ma’naviy salohiyatini tarbiyalashda yetakchilik qiladi. *“Bolalar folklori kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosining uyg‘unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o‘yinlar, qo‘shiqlar va musiqali poetik janrlaning butun bir tizimi tarzida tarkib topgan. Uni yaratishda kattalar ham, bolalar ham baravar hissa qo‘shishgan”.*³ Bolalar folklori samimiy, toza dunyosi, hayotsevarligi, hazil-mutoyiba, o‘yin-kulgiga boyligi va xayolot dunyosining sarhadsiz kengliklari bilan kattalar folkloridan ajralib turadi.

Bu dunyo vakillariga xos bo‘lgan ishonch va o‘zgacha zavq-shavq tuyg‘ulari asar mazmuniga quvvat berishi ham bor gap. Xususan, asarda keltirilgan devlar, parilar, taviya mahluqlar va suv parilari-yu, yengilmas bahodirlar g‘oyat tabiiy holda tasavvur etiladi. Shuning uchun ham folklor namunalari bolalar adabiyotida juda erkin harakat qiladi. Folklorning bu turi o‘z tarixiga ega bo‘lib, *“XX asr oxirlariga kelib, bolalar folklorida ham shakliy va mazmuniy uzilishlar yuz beradi. Asosan, bolalar uchun mo‘ljallangan ertaklar tili topishmoq kabi janrlar stilizatsiyasi kuchaydi, yozma adabiy jarayonga aylana boshladi. Yozuvchi va shoirlar tomonidan zamonaviy mavzudagi ertaklar, topishmoqlar yaratila boshlandi. Muallifli alla matnlari paydo bo‘ldi. Bu esa folklor va yozma adabiyot munosabatining Yangi pog‘onaga ko‘tarilganligidan guvohlik beradi. Bu davrda o‘zbek folklori teatr, kino, televidenie bilan munosabatini yanada mustahkamroq qilib qaror toptirdi. Folklor mavzulari asosida multfilmlar (“Zumrad va Qimmat”, “Aldar ko‘sa va boy”, “Farrux va Zumrad”), operalar (“Tohir va Zuhra”), filmlar (“Yetti jin”, “Kulol polvon sarguzashtlari”) yaratildi”*⁴.

³OxunjonSafarov.O‘zbek xalq og‘izaki ijodi.«Musiq»2010 yil 331-bet

⁴Oxunjon Safarov.O‘zbek xalq og‘izaki ijodi.«Musiq»2010 yil 53-bet

Shu jihatdan, bolalar xalq qo‘shiq-lari-yu dostonlaridan, ertaklaridan, afsonalaridan, rivoyatlaridan samimiyat, insoniylik, fidoiylik, sabr-u qanoat, mehr-muhabbat kabi yuksak tuyg‘ular bilan birga, ota-bobolari yashab o‘tgan olis yo‘llar, mashaqqatlar, Vatan tuyg‘usi va yurt farovonligi uchun kurashgan ajdodlari jasoratidan ruhiy quvvat olgan holda tarbiyalanmoqdalar.

Binobarin, bolalar folklorida qo‘shiq, maqol va topishmoq kabi yetakchi janrlar kabi ertak va doston namunalari ham alohida o‘rin tutadi. Ertaklardagi ixcham, sodda va lo‘nda fiklar nafaqat bolalar, balki har qanday kitobxonga tez yetib boradi. Ertaklarda xalq hayotining ayanchli va baxtli qismati g‘oyat nozik chizgilar bilan beriladi. Insonlar va jamiki tasvir obektiga olingan jonga ishonch ruhi bilan sug‘orilgan mazkur janrda bolalar uchun har tomonlama o‘rnak va ibrat bo‘ladigan qahramonlar yaratilgan. Eng muhimi, bu kabi qahramonlardagi sifatalar orqali ertaklar bolada insonni sevish, kasb-u koriga rag‘bat bilan qarash, shu asosda hayotni anglash tuyg‘usini ardoqlab o‘stiradi. Bu jihatdan, folklor bolalarning ma‘naviy-axloqiy jihatdan shakllanishlarida muhim tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Xalq ertaklarida el-yurt tinchligi va istiqboli yo‘lida kurashga otlangan kuchli, epchil, chapdast, mehnatsevar, dovyurak, saxiy qahramonlar ulug‘lanadi.

Xalq ertaklari o‘z xususiyatiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi: hayotiy ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli afsonaviy ertaklar, ijtimoiy-maishiy ertaklar. Barcha turlar qahramonining maqsad-vazifalari esa mushtarak. Bu borada yaratilgan folklor namunalarida polvon obrazi ko‘p bor tilga olinadi. Xususan, bolalar folklorida yaratilgan polvonlar chidam va bardosh borasida qanchalik o‘rnak bo‘lsa, ularning aql-u zakovati shunchalar kishiga namuna bo‘la oladi.

Jismoniy jihatdan kuchli polvonlarni biz ko‘proq dostonlarda kuzatamiz. “Alpomish”, “Ravshanxon” kabi dostonlarda nomi tilga olingan polvonlar bir-biridan keskin farq qilsa-da ularga berilgan sifat g‘oyat o‘rinli. Boisi jismoniy jihatdan kuchli va baquvat bo‘lgan polvonlar xalq ijodiyotida doim ham aql-zakovat jihatdan e‘tirof etilmaydi. “Alpomish” dostonida Surxayl kampirning olti o‘g‘lini xalq polvoni deya ataydi.

*...Qorajonning bir akasi bo‘ladi,
Taraf bo‘p Qo‘shquloq polvon jo‘nadi.⁵*

⁵Алпомиш: Ўзбек халқ қахрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М. Зарифов/. — Т.: «Шарк», 1998.

Biroq ularga berilgan mazkur sifat mardlik va qahramonlikdan begona. Shu bois, Ko‘kaldosh, Ko‘kaman, Ko‘kqashqa, Boyqashqa, Toyqashqa, Qo‘shquloqlar polvon deya atalishi balki, ular bilan kurashga chiqqan Alpomishning kuchiga ishora qilsa ne ajab. Yoki o‘zbekning qizi Barchin Ko‘kamanning yoqasiga yetib, bir qo‘lidan belbog‘idan tutib, “Yo, Shohimardon pirim!” deb ko‘tarib, chalqarmon qilib yerga qo‘yishida ham biz ko‘poq Barchinning sharq ayoliga xos bo‘lgan bardoshi va or-nomus himoyichisi sifatidagi jasoratiga guvoh bo‘lamiz. Zotan, bu kabi or-nomus himoyasi yo‘lida jasorat ko‘rsatgan To‘maris, Zarina kabi ayollar xalq og‘zaki ijodida ko‘p uchraydi.

“Ravshanxon” dostonida esa polvon sifati ko‘p o‘rinlarda Ravshaning otasi Hasanxonga nisbatan aytiladi.

“Hasan polvon o‘zi olovday yonib, dudday tutanib turgan edi”,

“Ana endi Hasan polvon Shirvon odamlaridan omonlik tilanganlariga omon berib, qo‘shining u yoq-bu yoqqa qochganlari yig‘ilib, hammasi bir yerga uyilib, qilich sadoqlarini bo‘yinlariga solib kelib Hasanxon polvonga elanib, yolvorib itoat qildi”

“Ana endi to‘rt mard Hasanxon polvonning oldiga keldi. Salom berib, ko‘rishib o‘tirdi”

“Hasan polvon o‘zi olovday yonib, dudday tutanib turgan edi”

*“Ravshanbek o‘ng tarafiga qarasa, otasi-Hasan mard polvon yo‘lbarsday kelib turibdi: ostida G‘irkok oti, sherday haybati, qaynab g‘ayrati, ko‘zi yoshga to‘lib, ot qo‘yayin deb turibdi”*⁶

Ravshanxonning Shirvon elida o‘g‘il tutungan avval ajdahor, so‘ng kal va polvon deya ta‘riflangan olti o‘g‘li ham bahodirlikda kishiga o‘rnak bo‘la oladi. “Alpomish” dostonidagi olti polvondan farqli bu qahramonlar ijobiy sifatlari bilan boyitilgan. Ulardagi jasorat, haqiqat uchun kurash, do‘stga sadoqat va lafzi halollik kitobxonda ezgu fazilatlarni shakllanishida tayanch bo‘la oladi.

Davrlar o‘tishi bilan dostonlarda ma‘lum tarixiy shaxsning prototipi orqali tarixiy qo‘shiqlar yaratish ommalasha bordi. Chunonchi, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining “Mamatkarim Polvon” dostonida yakkakurashchi obrazida samarqandlik polvon Muhammadkarim Abdurahim o‘g‘li prototipi yaratildi. “Bushax so‘z jismoniy kuchiga tayanib, mahalliy amaldorlar va boylarning ta‘zirini beradi, mehnatkashlarning manfaatlarini himoya qilishga urinadi. Nomoz va Mamatkarim obrazlari yakkakurashchi obrazi namunasi bo‘lsa-da,

⁶Kuntug‘mish. Ravshan:Dostonlar/Aytuvchi Ergash Jumanbulbul o‘g‘li; yozib oluvchilar: Muhammadisa Ernazar o‘g‘li, Hodi Zarif. – T.: “Sharq”, 2011.- 368-bet

xalqning zolimlarga qarshi noroziligini, milliy ozodlik uchun intilayotganligini namoyon etadi”.⁷

Ertak janrida esa polvon sifati ko‘pincha xalq erki va ozodligi yo‘lida kurashga chiqqan qahramonlarga nisbatan beriladi. Ularning jismoniy imkoniyati-yu vahm-u farosati ikkinchi planda qoldiriladi. Jumladan, bolalar adabiyotining sevimli adibi Anvar Obidjonning “Daxshatli Meshpolvon” ertak qissasidagi Meshpolvon portreti tasviri (“...ikki lunji nog‘ora, beti oftobday zog‘ora, betida eshak tepkisidan naqshlangan chandiq, qorni qirq pudlik sandiq, burni mushuknikidek puchuq, yelkasi bo‘yni hurpaygan chumchuq, bo‘yni oldinga enkaygan, quloqlari dinkaygan, oyoq bosishi ilang-bilang, boshi Yoz yovonch o‘lidek yap-yalang, ko‘rinishidan kamgap-u anqov, aslida mahmadana-yu mijg‘ov, ko‘zlari boyqushnikiday ola... Xullas, rosayam qiziq bola”) va qahramonlik sarguzashtlari katta-yu kichikka baravar zavq berishidan tashqari, yozuvchi bu orqali xalqona iboralar jilosi, unutilayozgan xalq dostonlari va ertaklari ohangi, ruhini bugungi yosh avlod qulog‘iga singdirishni ko‘zlaydiki, bu ham o‘z navbatida, hodisaning ikki xil mazmun-mohiyatiga xizmat qila oladi”⁸

Anvar Obidjonning “Daxshatli Meshpolvon” ertak-qissasi mustaqillik arafasida yozilgan tom ma‘nodagi erk va ozodlik umidlaridan quvvat olgan asardir. Asarda ozodlik va mustaqillik tuyg‘usi yosh qahramon timsolida gavdalanadi. Asarning ruhi bizga “Alpomish”, “Ravshan” kabi dostonlarning nodir namunalarini eslatadi. Qahramonlardagi jasorat, ishonch va kurashdagi imkoniyatlar, mardlik bir-birini takrorlaydi. Bu esa bolalar yozma adabiyoti va og‘izaki adabiyoti o‘rtasida ma‘naviy ko‘prik sifatida baholanadi, desak yanglishmaymiz. Asarda Meshpolvonga hamroh bo‘lgan Oshiqbola Go‘ro‘g‘libek va Ravshanxonlar avlodidan, polvonlikda ajdodlaridan kam emas. Asar yozma adabiyot namunasi bo‘lsada unda o‘g‘izaki adabiyot ruhi mavjlanib turadi. Asar qahramonlarini sifatlashda ham adib folklor an‘analariga bir qadar murojat etadi. Jumladan, asar bosh qahramoni Meshpolvon o‘z tilidan xom semiz, anchayin mechkay, yeb to‘ymas, hatto bir oz tekin xo‘r tasvirlaydi. Undagi o‘rnak bo‘ladigan sifat ham or-nomus va erk yo‘lida kurashga otlangani va bu bilan qalbida jo‘sh urgan mardlik va jasoratdir. Bolaligida buvisining qo‘liga qarab o‘sgan bo‘lsa-da, aqli kira boshlagach, ota-onasini bosqinchi dushmanlar asir qilib olib ketgani, ularning qiynoqda

⁷Oxunjon Safarov. O‘zbek xalq og‘izaki ijodi. «Musiqqa». 2010 yil

⁸Oxunjon Safarov. Bolalar adabiyoti. Buxoro davlat universiteti

azoblanayotganlarini his qilgach, qalbida isyon tuyg‘usi jo‘sh uradi. Muallif Oshiq bolani ham polvonlikda bobolaridan kam emasligini xalq dostonlariga monand tasvirlaydi: masalan, oltisida o‘zini otda erkin tutadigan, yettisidan onga xanjarday og‘ surtadigan, sakkizida o‘q-yoy bilan tangani yirtadigan... o‘n birida uyida oshna kutadigan, o‘n ikkisida haftalab ovga ketadigan va h.k. Asarda Sepkil shoh saltanatining ma‘naviy chirkligi bukri chol tilidan aytilgan fikrlarda oydinlashgan. Doston-qissa nihoyasidagi hayot-mamot jangi ezgulik va adolatning g‘alabasi bilan tugaydi. Sepkil shoh bandilari ham isyon ko‘targach, Meshpolvon lashkarlarining qo‘li baland keladi.

“Kachal” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi kal bollib, ko‘chma holda “maymoq, qaltiroq, qo‘rqoq” degan ma‘nolarda qo‘llanilib, istehzo va pichingni ifodalaydi. Shu ma‘noda Kachal Polvonni maymoq Polvon, qaltiroq Polvon, qursoq Polvon deya kesatish, unga istehzo qilish va piching urish mumkin. Shu asosda Kachal uning laqabiga aylanib, bu bilan xalq unga hazil qilgan, uning ustidan tabassum etgan, muloyimgina jilmaygan.⁹ Kachal polvon nuqsonlardan holi qahramon emas, u bir muncha maishatparast, kamuquv, maqtanchoq, mahmadonadir.

Asarga diqqat qilsak, Kachal Polvon doim eldoshlari bilan kurshga kiradi, yolg‘iz harakat qilmaydi. Uning g‘alabasi ham mana shunda. Bu bilan yozuvchi jamoatchilikning birdamlikdagi qudrati va hamkorlikda shakllangan mustahkam a‘loqasini hayot haqiqati sifatida talqin qiladi. Asarda elikka yaqin obraz mavjud. Shomamat ota, Orif jarchi, Boybuvako‘sa, Beknazar karnaychi, Ernazar maymunchi, Jo‘ra qiziq, Mullajon, Bichaxon, To‘tixon, yetim qiz Mohira, kayvoni, askiyachilar, Qo‘zich o‘tir, Ro‘zigov, Dehqon ota, Jalol polvon, Abdurahmonbek, Iso avliyo, Nosir bo‘ri, Qora Mirshab, To‘racha-chinoq, maktabdor domla va boshqalar.

Xulosa o‘rnida aytashim mumkinki, folklor asarlariga boy bo‘yoqlar, jonli obrazlar bolalar yozma adabiyotiga alohida bir ruh bag‘ishlaydi. Uning ko‘rkamligini oshiradi. Bolalarda xalqona qadryatlarni angalashni, his etishni qaror toptiradi. Ular qalbida Kachal Polvon, Meshpolvon, Hasanxon polvon va boshqa qahramolar kabi mardlik tuyg‘ularini shakllantiradi.

⁹Oxunjon Safarov. O‘zbek xalq og‘izaki ijodi.«Musiqqa».2010 yil

Adabiyotlar:

1. Oxunjon Safarov. O'zbek xalq og'izaki ijodi. «Musiqqa». 2010 yil
2. Mamasoli Jumaboyev. Bolalar adabiyoti va folklor. "Adabiyot jamg'armasi". Toshkent-2016
3. Kuntug'mish. Ravshan: Dostonlar/Aytuvchi Ergash Jumanbubul o'g'li; yozib oluvchilar: Muhammadisa Ernazar o'g'li, Hodi Zarif. – T.: "Sharq", 2011.- 368-bet
4. Alpomish: O'zbek xalq qahramonlik dostoni//Aytuvchi: Fozil Yo'ldosh o'g'li, yozib oluvchi: M. Zarifov/. —T.: "Sharq", 1998.

TARIXIY ONG SHAKLLANISHIDA XALQ OG'ZAKI IJODINING AHAMIYATI

Ernazarov Shermuxammad Eshbekovich
O'zbekiston Milliy universiteti, katta o'qituvchi,
Toshkent, O'zbekiston Respublikasi

Annotasiya. Maqolada O'zbekiston hududida yashagan qadimgi ajdodlar tomonidan boy xalq og'zaki ijodi shakllantirilganligi, afsona, doston, ertak, epos, rivoyat kabi xalq og'zaki ijodiyoti namunalarida dastlabki tarixiy ong unsurlari namoyon bo'lishi va bular milliy g'oya shakllanishida tarixiy manba bo'lganligi aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, afsona, doston, ertak, epos, rivoyat, tarixiy ong, milliy g'oya.

Аннотация: В статье отражено формирование богатого народного устного творчества древними предками, жившими на территории Узбекистана, первое проявление исторического сознания в образцах народного устного творчества, таких как легенда, эпопея, сказка, эпос, повествование, и это исторические источники в формировании национальных идей.

Ключевые слова: народное устное творчество, легенда, эпопея, сказка, эпос, повествование, историческое сознание, национальная идея.

Abstract: The article reflects the formation of a rich folk oral creativity by ancient ancestors who lived on the territory of Uzbekistan, the first manifestation of historical consciousness in the samples of folk

oral creativity, such as legend, epic, fairy tale, narrative, and these are historical sources in the formation of national ideas.

Keywords: folk oral art, legend, fairy tale, epic, narrative, historical consciousness, national idea.

Ijtimoiy taraqqiyot natijasida tarixiy ong ham boshqa ijtimoiy ong shakllari kabi predmetli-amaliy faoliyatdan ajralib chiqdi. Ijtimoiy mehnat birqadar yuqori darajaga ko'tarildi. Shu jumladan, sinfiy jamiyat shakllandi. Natijada tarixiy ong predmet-ashyoviy, ishlab chiqarish, siyosiy faoliyat bilan bevosita bog'lanmagan holda rivojlana boshladi. Jahon xalqlarida bu jarayon bir tekis va bir vaqtda sodir bo'lmadi,

Albatta, mif, epos, qadimgi qonunlari va boshqalar tizimsiz bo'lib, parchalar bilan cheklangan. Demak, miloddan avvalgi X asrdayoq tarixiy ongning obektiv shakllanishi uchun tarixchilar ilk qadam tashlaganlar. Ular asarning qimmatini saqlashga harakat qilganlar. Shuningdek, tarixiy ong (tarixiy bilim) boshqa ong shakllaridan ajralib chiqdi. Shu vaqtdan boshlab tarixiy ongning muhim ichki tavsifi amaliy haqiqat tomon yo'naltirildi [1, 23v.].

Jamiyatda tegishli shart-sharoitlar paydo bo'lishi bilan asosiy ijtimoiy, iqtisodiy muhit shakllanib, guruhlar, qatlamlar paydo bo'ladi. Ijtimoiy ong ijtimoiy guruh va sinflarga molik bo'ladi. Rivojlanayotgan jamiyatda shaxs individuallashtirilib, jamoaga o'zini qarama-qarshi qo'ygan bir paytda ijtimoiy ongning alohida parchalari (qadimgi qonunlari) individual muallif bilan bog'lanishi mumkin. Ammo shu jamoaguruhning ma'naviy, ruhiy, iqtisodiy manfaatlarini qondira olmasa va unga zid bo'lsa, sekin-asta o'z ahamiyatini yo'qotib boradi.

Jamiyat taraqqiyoti davomida ushbu jamiyatda mavjud bo'lgan professional guruhlar (jumladan, kohinlar, harbiylar, davlat xizmatchilari va boshqalar)ning ajralib chiqishi, muhim ijtimoiy funksiyalarning alohida bo'lishi qachonlardir yagona bo'lgan ijtimoiy ongning alohida shakllarga bo'linishi oqibatidir. Xuddi shu davrda siyosiy va huquqiy ong ham rivojlana boshlaydi.

O'tmishdan qolgan juda ko'p matnlarning tahlillari sinfiy jamiyat shakllanishi jarayonida diniy, huquqiy, sinfiy, siyosiy, badiiy va ma'naviy ongning mavjudligidan darak beradi. Bunda ijtimoiy ongning ana shu shakllarida tarixiy ong unsurlarining zarralarini ko'rish mumkin. Chunki ijtimoiy ongning barcha shakllari insoniyat tarixi bosqichlari quchog'ida shakllanadi va rivoj topadi. Bunda tarixiylik va tarixiy onglilik bu shakllarning asl, tub mohiyatiga yetishda katta ahamiyatga ega. «Jahon tarixi bu ruhiy g'oya: tabiatning makonda ko'rinishi kabi

umuman ruhning vaqtda ko‘rinishidir» [2, 99v.], Gegelning bu fikrini tarixiy ongning falsafiy jihatdan belgilash deb baholash mumkin. Tarixiy ongning shakllanishi uzoq vaqtni o‘z ichiga oladi. Tarixiy bilimlar ijtimoiy ongning muhim funksional tuzilishi tarkibidagi asosiy unsurlardir. Faylasuf N.A.Berdyayev: «Tarixiy bilim va tarix falsafasi o‘z gnoseologiyasiga va o‘z bilish nazariyasiga ega bo‘lishi kerak» [3, 12v.] - degan fikrni bildirgan edi.

Dastlab inson o‘zining hayoti davomida ahamiyatli bo‘lgan voqea-hodisalarni o‘z xotirasida saqlab qolishga harakat qilgan. Chunki bu ahamiyatli hodisa o‘zining va uning kelajak avlodining hayotida qaytarilishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarda saboq vazifasini o‘tashi mumkin edi. Ilk tarixiy bilim etnos - xalqning o‘zini, o‘z urug‘ining huquqini, urf-odat, an‘analarini saqlab qolish va asoslashga xizmat qiladigan asosiy hayotiy omil edi. Sharq xalqlari, urug‘-qabila va elatlar mifologik va qahramonlik eposlari va alohida afsonalarida, sulola ertaklarida tarixga qiziqish, tarixiy ong o‘z aksini topdi.

Shumerliklarning Gilgamesh haqidagi eposi, hindlarning «Maxobxorot» va «Ramayana» dostonlari, sak va massagetlarning «Shiroq», «To‘maris» afsonalari shular jumlasidandir. Bu mifologik manbalar qadim o‘tmish tarixiy ongning o‘ziga xos ko‘rinishi, uning ma‘naviy shart-sharoiti edi. Mifologiya insoniyat tarixining ibtidosidir.

Biz mifologiyani tarixiy ong rivojlanishining ibtidosi deb qarar ekanmiz, mifologiyaning genezisi haqida qisqacha to‘xtalib o‘amiz. Mifologiyani tarixiy ongning ilk shakllaridan biri deb hisoblash mumkin. Mifologik nuqtayi nazardan afsonalar yolg‘on va inson fantaziyalarining o‘yini deb tushunilmaydi. Mifologiya voqelikning va ongning bir ko‘rinishidir. “Yunonlar, qat‘iyat va dinning tanazzul davrida emas, balki din va afsonalarning gullab-yashnagan davrida, ba‘zi qabilalar timsoh tishlaridan marjon taqish odatiga ega bo‘lganlarida, ularning ko‘p sonli Zevsi yoki Apollonlari haqida gaplashganda diniy aqidaparastlik o‘z-o‘zini qiynashdan oldin va hattoki o‘zini yoqib yuborishdan oldin yetib borganida, katta daryolarni kesib o‘tishda cho‘kish xavfidan qochish uchun, bu erda faoliyat yuritadigan afsonaviy patogenlar shunchaki fantastika, bular uchun toza fantastika emas, deb aytish juda johil bo‘lar edi. Afsonaviy mavzular bu fantastika emas, balki eng yorqin va haqiqiy haqiqat. Bu fikr va hayotning mutlaqo zarur kategoriyasidir” [4, 25v.].

Mifologiya ibtidoiy ongda voqelikning in‘ikosi hisoblanadi. Bu in‘iko qadimgi zamonga xos bo‘lgan xalq og‘zaki ijodida yaqqol

gavdalanadi. Afsonalar insoniyat tarixining turli bosqichlarida paydo bo'ladi. Ular tabiat va jamiyatning turli xil hodisalarini umumlashtirishga intilish natijasidir. Mifologiya qadimgi davr jamiyati dunyoqarashining o'ziga xos shaklidir. Faylasuf N.A.Berdyayev mifologiya tarixiy ongning ilk ko'rinishi ekanligini quyidagi so'zlarda tasdiqlaydi: «Afsona - xalq xotirasidagi voqea haqida saqlanib qolgan hikoya bo'lib, u tashqi ob'ektiv faktning qirralarini yengib, ideal sub'ektning ob'ektiv haqiqatini ochib beradi» [5, 18v.].

Jamiyatning tarixiy ongi tushunchasi bilan, odatda, tarqoq shakllangan barcha ko'p xillik yoki fan yaratgan shakllar nazarda tutiladi. Ularda - jamiyat o'tmishi anglanadi. Jamiyat o'z harakatini vaqt bo'yicha qayta ishlab chiqarishni qamrab oladi. Tarixiy ongni «tarqoq» deb tushunishga kelganda, bu so'z tushuntirishga muhtojdir. Ijtimoiy ong shakllari tarqoq holda shakllanadi. Chunki birinchidan, ular borliqning tegishli tuzilmalariga taalluqli. Ikkinchidan, ular inson xohish-irodasidan mustasno shakllanadi yoki ma'lum ong shakllarini yaratish, jamiyatni boshqarish usullari bo'lgan qoidalar, mezonlar, yo'riqnomalar tarzida shakllantiriladi.

Mif olamning yaratilishi, insoniyatning kelib chiqishi, shuningdek, xudolarning qahramonlarning paydo bo'lishi, ularning faoliyati haqidagi badiiy, sodda badiiy tafakkur mahsuli bo'lgan adabiy parchadir. Mif yunoncha "afsona", "rivoyat" deb qaralsa-da, uni afsona bilan bir qatorga qo'yib bo'lmaydi. Mif badiiy tafakkurning eng kichik, sodda, epik syujetga ega bo'lmagan ilk badiiy shaklidir. Mif adabiy jarayonning ilk ko'rinishidir.

Mif tafakkurning beixtiyor shaklidir, afsona ongli ijod mahsulidir. Insoniyat azalda mif yaratishni maqsad qilib qo'ymagan. Ma'lum kultlar, udumlar, urf odatlarni bayon qilish va amalda qo'llash natijasida miflarning turlari kelib chiqqan. Bular ko'proq totemistik miflarga, kosmogonik miflarga ham tegishli. Mif qaysidir xalqlarda yozma shaklda ham saqlangan. Masalan, shumer, babil, misr, xet kabi qator xalqlarning yozma yodgorliklaridan bir qator miflar yetib kelgan.

Ismlarning, udumlarning, buyumlarning, buyumlarning paydo bo'lishi haqidagi etiologik miflar, olamning paydo bo'lishi haqidagi kosmogonik, insonning paydo bo'lishi haqidagi antropogonik – bu miflar arxaik miflarning asosiy mazmunini tashkil qiladi. Bu tip miflar barcha xalqlar adabiyot namunalari bor. Dunyoning miflarida bir qator mavzular va motivlar takrorlanaverganligini olimlar aniqlangan.

Mif orqali inson ibtidoiy shaklda bo'lsa ham olamni ilmiy bilishga harakat qilgan [6, 55v.].

Tarixiy manbalarga ko'ra er. avv. 1 ming yillikda hozirgi O'zbekiston hududida yashagan qadimgi ajdodlar tomonidan boy xalq og'zaki ijodi shakllantirilgan. Xalqning qahramonona o'tmishi, orzu-umidlarini ifodalovchi eposlar turli xalqlarda turlicha ko'rinishda, hajmda va turli nomda yuritilgan. Masalan: o'zbek xalq dostonlari, rus bilinalari, ukrain dumalari va boshqalar shular jumlasidandir.

Xalq eposining eng qadimgi namunalari ibtidoiy jamoa davrida paydo bo'ldi. Ularning asosiy mazmuni insonning mehnat jarayoni va qabilalarning o'zaro to'qnashavini aks ettirishdan iborat edi. Bu narsa hozir ko'pgina arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ov tasvirlari, tosh quroilar, uy-joylar va boshqa qurollar vositasida jang qilayotgan kishilar epos-dostonlarini ana shunday tasvirda qiyoslash orqali tasdiqlanadi.

Epos-dostonlar avloddan-avlodga og'zaki yetkazish natijasida o'tib keladi. Bu, albatta, bir tomondan matnni xotirada saqlashni, boshqa tomondan uni aniq qayta tiklashni talab qiladi. Bu hol alohida kishilarning matnni xotirada saqlash qobiliyati, malakasining shakllanishiga olib kelgan. Natijada doston, eposlarni aytish bilan shug'ullanadigan alohida kishilar paydo bo'lgan. Sharq mamlakatlarida bunday kishilarni baxshi, jirov, g'arbda laerd deb atashgan. Yaqin-yaqinlargacha turkiy xalqlarda mashhur baxshilar qadimdan qolgan epos-dostonlarni to'y-tomoshalarda biror musiqa asbobi yordamida, boshdan oxirigacha aytar edilar. Albatta, bunday matnlarni yodlash o'ziga xos kuchli xotira va mashaqqatli mehnatni talab qiladi. Yozuv paydo bo'lgunga qadar, tarixiy-ijtimoiy voqea-hodisalarni saqlovchi va yig'uvchilar asosan donishmand yoki oqsoqollar edi. Bunday muhim xotirani saqlovchining o'limi uning avlodlari uchun katta kutubxonaning yonib ketishi bilan barobar edi.

Matnni ijrochidan ijrochiga yetkazish turli qo'shimcha, to'ldirish, o'zgartirishlar, tushunilishi qiyin bo'lgan joylarni tushirib qoldirish yoki yengil tushunchalarga almashtirish bilan yonma-yon kechgan. Ijtimoiy xotiraning hayotiyiligini faqat og'zaki matnlar orqali amalga oshirish sharoitida undan foydalanish juda qiyin edi. Gomerning «Illiada»sini jo'r bo'lib, qo'shiq qilib aytish uchun ikki hafta, «Maxobxorot»ning to'liq aytilishi uchun to'rt oy, Xitoy eposlari, o'zbek xalq dostonlarini kuylash uchun har biriga sal kam bir yil kerak edi. Og'zaki matnning axborotni ashyoviy tashuvchisi sifatida bo'lishi tarixiy ongning mustaqil

shakl sifatida kristallashuvi va ajralishi uchun o‘tib bo‘lmaydigan to‘siqlarni yaratdi.

Qadimgi Bobil, Misr, Hindiston va Xitoy, Turonda miloddan avvalgi III-I ming yilliklardayoq olam, jamiyat va inson shaxsi o‘rtasida bog‘liqliklar yoki qandaydir yaxlitlik mavjudligi, insonning bu yaxlitlikning mohiyatini aniqlash, bilishga urinishini bu hududlarda vujudga kelgan xalq og‘zaki ijodi namunalari, turli tarixiy qo‘lyozma va qarashlarda ko‘rish mumkin.

«O‘zligini anglash» tushunchasi jamiyat taraqqiyotining o‘rta asrlar so‘nggi bosqichida, yangi va eng yangi davrlarda shakllana boshladi. Yevropa an‘analarida bunday tushuncha Suqrot davridan tarqaldi. Ijtimoiy-tarixiy voqelikning bayon qilinishida aniq shakllantirilgan qoidalarning yo‘qligi haqiqat va uydirmalar ajratilmagan holda ijtimoiy-tarixiy voqelikni bayon qilishga sabab bo‘ldi. Aniq shakllantirilgan qoidalarning yo‘qligi, haqiqat va uydirmanini bir-biridan ajratish mezonlari, voqealar va vaziyatlar determinasiyasi, aloqasi va izchilligini belgilashning yo‘qligi tarixiy tafakkur taraqqiyotida tarqoq bosqichning asosiy xususiyatlari sifatida ko‘rinadi [7, 28v.].

Xalq poeziyasi, dostonlari uning tarixi bilan bog‘liq. Poeziyada ham, tarixda ham xalqning sirli ruhiyati mujassamlashgan. Shu sababli uning tarixini poeziya bilan, poeziyani esa tarix bilan tushuntirib berish mumkin. Tarixiy ong genezisi juda qiyinchilik bilan asta-sekin kechdi. Dastlab o‘tmish voqealari izchilligini bayon qilish yoki muhokama qilish uchun tayyor shart-sharoit, maxsus matnlar yo‘q edi. Dastlabki tarixiy ong unsurlari afsona, doston, ertak, epos, rivoyat kabi xalq og‘zaki ijodiyoti namunalari namoyon bo‘ladi.

Har qanday xalq, millat, elat milliy g‘oya atrofida birlashuvda milliy qadriyatlar va o‘z-o‘zini anglash muhimdir. Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo‘lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlarini, an‘analarini, jamiki moddiy-ma‘naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi [8, 77v.].

Hozirgi kunda millatimiz tarixiy ongini shakllantirishga katta e‘tibor berilmoqda. Milliy tarixning yoritilmagan sahifalarini o‘rganish tomon muhim qadam tashlandi. “Tarixga nazar solsak, Buyuk ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizasiya va madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lganini ko‘ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me‘moriy obidalar, nodir qo‘lyozmalar, turli osori

atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi” [9, 1v.]. Shu bilan birga xalq og‘zaki ijodi namunalari, umuman ma’naviy an’analar, milliy qadriyatlar, ijtimoiy tajribalar miliy g‘oya tarixini, tarixiy ong va tafakkurni anglash va tasdiqlash vositalaridir.

Adabiyotlar:

1. Rajabov R. Tarix fanining metodologik asoslari: Darslik. - Toshkent: Istiqlol, 2013. –B. 23.
2. Гегель Г. Сочинение. –М., 1935, т.8. –С. 69.
3. Бердяев Н. СМЫСЛ ИСТОРИИ. –М.: «МЫСЛЬ», 1990. –С. 12.
4. Rajabov R. Tarix fanining metodologik asoslari: Darslik. - Toshkent: Istiqlol, 2013. –B. 25.
5. Бердяев Н. СМЫСЛ ИСТОРИИ. –М.: «МЫСЛЬ», 1990. –С. 18.
6. Nasimxan Rahmonov. O‘zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarimigacha). T.: “Sano standart” nashriyoti, 2017. –B. 55.
7. Rajabov R. Tarix fanining metodologik asoslari: Darslik. - Toshkent: Istiqlol, 2013. –B. 28.
8. Milliy g‘oya targ‘iboti orqali o‘zbek mentalitetida pragmatik va bunyodkorlik fazilatlarini shakllantirish jarayonlarini optimallashtirish/ M.Quronov va boshq.: -Toshkent, Turon zamin ziyo. 2014. –B. 77.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 30 sentyabrda O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // Yangi O‘zbekiston, 2020 yil 1 oktyabr.

BOLALAR FOLKLORINING O'RGANILISHI

Saydaxmedova Nigora Sulaymonovna

NamDU mustaqil izlanuvchisi, Namangan, O'zbekiston Respublikasi

Rahmatova Mavjuda Mutallievna

Chortoq tuman 53 sonli DIUM, ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Namangan, O'zbekiston Respublikasi

Tursunqulova Shaxloxon Meliboevna,

Namangan shahar 18 DIMI ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Namangan, O'zbekiston Respublikasi

Annotasiya: Ushbu maqolada Namangan viloyati bolalar folklori haqida so'z yuritilgan. Bolalar folklorining doimiy rivojlanishida ekanligini, Namangan bolalar folklori namunalari esa yozma holatda deyarli jamlanmaganligini misollar orqali ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: boychechak, chittigul, alla, folklor, ibora, maqol, qo'shiq.

Аннотация: Эта статья о детском фольклоре Наманганской области. Например, детский фольклор находится в постоянном развитии, а образцы детского фольклора Намангана практически отсутствуют в письменной форме.

Ключевые слова: ромашка, читтигуль, алла, фольклор, фраза, пословица, песня.

Annotation: This article is about the children's folklore of the Namangan region. For example, children's folklore is in constant development, and samples of children's folklore in Namangan are practically absent in written form.

Key words: chamomile, chittigul, alla, folklore, phrase, proverb, song.

O'zbek folklorini yozib olish, tadqiq etish ishlari boshlangandan buyon bolalar folkloriga ham katta e'tibor berib kelinmoqda. Hozirga qadar o'zbek xalq og'zaki ijodiga oid qo'llanma, darslik, majmua va boshqa namunalarda bolalar folkloriga ham alohida sahifa ajratilgan, uning o'ziga xos xususiyatlari atroflicha yoritilgan. «O'zbek folklori ocherklari» nomli uch tomlik tadqiqotlar nashrining birinchi tomida O.Safarov va G'. Jahongirovlarning «Bolalar folklori» maqolasi o'rin olgan [1, 272 b]. O'zbek xalq og'zaki ijodining ajralmas qismi bo'lgan bolalar folkloriga oid e'lon qilingan tadqiqotlarda umuman, o'zbek bolalar folklori xususiyatlari tahlil etilgan. Lekin, Namangan viloyati

bolalar folklori hozirga qadar alohida o'rganilmagan. Aslida Namangan xalq og'zaki ijodiga mansub asarlar o'zining qadimiyligi va anonim xarakterga ega ekanligi bilan yozma ijod namunalari ajralib turadi. Har bir davrda yangi-yangi folklor namunalari yaratiladi, zamon, ijtimoiy tuzum, iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy hayotdagi rivojlanishi bilan bog'liq jarayonlar, tushunchalar xalq og'zaki ijodiyotida ham ma'lum ma'noda o'z aksini topadi, eskirgan tuzum yoki voqea – hodisalar, davrlar bilan bog'liq ayrim og'zaki ijodiyot namunalari unutiladi. Shuning uchun ham folklor asarlarining yozib olish muhimdir. Lekin, xalk og'zaki ijodiyotining ayniqsa, bolalar folklorining doimiy rivojlanishida ekanligini, Namangan bolalar folklori namunalari esa yozma holatda deyarli jamlanmaganligini hisobga olib, bolalar jonli ijrosi asosida og'zaki ijod namunalari sanamalar, tez aytishlar, qo'shiqlar, topishmoqlarni yozib olib, asosan, shu namunalarni tahlil etdik. Bolalar folkloriga oid asarlarining badiiy xususiyatlari, ularda poetik bo'yoqlar; bolalar folklori namunalari ma'naviy – ma'rifiy ahamiyati kabi masalalarni ham chuqur tahlil etishga harakat qilamiz.

Shunday qilib, qo'shiqchilikda ilk o'quvni onalaridan olgan ikki, uch yoshlik bolalar atrofdagi voqea – hodisalar taqlid qila boshlaydilar, to'rt, besh yoshlarga to'lganlarida esa mustaqil qo'shiq ijro eta boshlaydilar. Turli yoshdagi bolalarning voqelikka poetik munosabatlari chuqurlashgani sari qo'shiqlar ham shakl, ham mazmun jihatdan teranlashib takomillashib boradi. Shu zaylda uchlik, to'rtlik, beshlik, oltilik va sakkizlik shaklidagi qo'shiq namunalari yuzaga kelgan. Ayniqsa to'rtlik shakli bolalar repertuarida keng tarqalgan. Kompozision jihatdan dialog asosida qurilgan qo'shiqlar ham bir talay. Odatda bunday qo'shiqlar aytishuvlar (aytishmalar) ham bir talay [1,326 b].

Bolalar qo'shiqlari bolalar folklorining asosini tashkil etadi. Qo'shiqlarni shovqin solib, harakatli o'yin davomida, yakka o'zi yoki xor bo'lib ijro etiladi. Shu o'rinda hammammizga qadrdon bo'lgan «Oq terakmi, ko'k terak» o'yini qabilachilik davridagi dual tuzilishi, ya'ni qabila ichidagi fratriyalarning o'zaro bahs-munozaralari, ramziy janglari namoyish etilgan qadimiy marosimlar asosida kelib chiqqan deb hisoblaymiz [2, 19 b].

Bolalar qo'shiqlari turli mavzu va ko'lamda bo'ladi. Mavsumiy qo'shiqlari, marosim qo'shiqlari, tabiat bilan bog'liq bo'lgan, fasllar almashinuviga doir qo'shiqlar, qushlarning uchib kelishi, ketishi, ramazon qo'shiqlari va boshqalar. Mashhur mavsumiy qo'shiqlardan

«Boychechak», «Oftob chiqdi olmgga», «Laylak keldi», kabilarni ta'kidlash lozim.

«Boychechak xabari» bilan bog'liq an'analar tabiat hodisasi sharafiga o'tkazilgan qadimiy bolalar o'yinidir.

*Adirlar to'la chechak,
Biz keldik ucha-ucha,
Boychechagim, boychechak,
Kutib oling, hoy checha [3, 22 b]*

deya kuylashadi.

Halinchak uchish o'zbeklarning qadimiy ommaviy o'yinlaridan biri bo'lgan. Kelib chiqish tarixiga ko'ra halinchak uchish o'yini aslida hosildorlik kul'turalariga aloqador qadimgi marosimlar tizimida yuzaga kelgan. Bu o'yinni oladigan bo'lsak, (A.K. Baravkov tomonidan asrimizning 20-yillarida yozib olingan qadimiy qo'shiq) boqqa chiqib daraxtlarga arqon bog'lab uchgan qizlar, o'yin bilan birga nutqiy qobilyatlarini ham rivojlantirishgan :

*Halinchagim- salgimchak, opayam salom,
Dodayam- salom, - deb qo'shiq aytishadi[3, 26 b].*

Shu tariqa barcha qarindoshlariga salom berib chiqqan qizlar, boshqa qizlarga navbat berganda shunday kuylashgan:

*Halinchagim jo'nasin, Sariq otim saqlansun,
Ko'k otim ko'klansin, Pushti otim pishlansun,
Oq otim oqlansun.*

Yana bir misol:

*Ha-yu, hayatda, achasi Mashadda,
Ha-yu, hayatda, dodasi Toshkanda.*

Shu tariqa uzoq shaharlar va poytaxt nomlari sanab o'tiladi. Bunda bolaning topqirligi va geografik bilimlari mustahkamlanadi.

Bolalarda ramziy magik harakatlar muayyan ritmik izchillikda bajarilishi davomida musiqiy komponent yuzaga kelgan. Natijada ritmik harakat- so'z- musiqiylik uzvlarining qorishiq holda uyushishi natijasida «Chittigul» kabi o'yin va qo'shiqlar hosil qilingan.

*Chuchvara qaynaydi-ya, Acham menga bermaydi-ya,
Bermasa bermasin-a, Uyimga kirmasin-a
Elagim olmasin-a, Nonimni yemasin-a,
Chittigul, chittigul, Etaginga gul bosdim.*

Qo'ling qo'lbog'da bo'lsin, Hayu, chitti gul, Hayu, chitti gul.

Shu va shu kabi barcha janrdagi qo'shiqlar, o'yinlar biron maqsad sari yo'naltirilgan bo'lib, hayotda o'z o'rnini topgan, keng tarqalgan

qo‘shiqlardir. Xulosa qilsak, barcha qo‘shiqlar bolani badiiy so‘z vositasi bilan tarbiyalashga xizmat etadi va uning aqliy, fiziologik va estetik jihatdan mukammal o‘shishga yordam beradi. Oldimizdagi muhim vazifalardan biri, Namangan bolalar folklori namunalarini to‘plash, saqlash, avlodlarga asrab yetkazishdir.

Adabiyotlar:

1. «O‘zbek folklori ocherklari » II- tom. 272- bet.
2. Abu Ali ibn Sino Tib qonunlari. Toshkent. 1-kitob. 1959 y.
3. «Alpomish» Farg‘ona, 2000 y.
4. Barkamol avlod jismoniy tarbiyasida jismoniy tarbiya va sportning o‘rni. Respublika ilmiy-amaliy anjuman. Jizzax, 2001 y.
5. Boboev T. She‘r ilmi ta’limi. Toshkent . O‘qituvchi, 1996 y.
6. Galiev Shamil. O‘zbek bolalar o‘yini folklorining tasnif va poetikasi. Avtoreferat. Toshkent.1998 y.
7. Namangan xalq og‘zaki ijodi namunalari. 22-26 – betlar.

ERTAKLARNING PAYDO BO‘LISHIGA OID TURLI QARASHLAR

Tursunov Z.

Namangan Davlat Universiteti

katta o‘qituvchisi

Namangan, O‘zbekiston Respublikasi

Ertaklarni birinchilardan bo‘lib ilmiy tadqiq etishga kirishgan olimlar aka-uka Grimmlardir. Ular ertaklarni nashrga tayyorlar ekanlar, yig‘ilgan ertaklarning mavzusi, g‘oyasi, syujet va motivlar yig‘indisining bir-birisiga o‘xshashligi ularda katta qiziqish uyg‘otdi. Aka-uka Grimmlar ertaklarning kelib chiqish tarixi to‘g‘risida o‘zlarining to‘plamlarini izoh qismida fikr bildirishgan. Ularning fikricha, ertaklarning ildizi miflarga borib taqaladi. Ertaklar kadimgi miflarning qoldiqlari o‘laroq vujudga kelgan. Grimmlar nazariyasi bo‘yicha oriylarning yer yuzi bo‘ylab tarqalishi, miflarning dunyo bo‘ylab yoyilishiga sabab bo‘lgan. Davrlar o‘tishi bilan xalqlar o‘z miflarini o‘zgartirganlar, moslashtirish jarayoni kechgan. Va nihoyat ular butunlay yo‘qolib ketish arafasida, ularning qoldiqlaridan ertaklar vujudga kela boshlagan. Miflar o‘rnida faqatgina ularning motivlarigina

saqlanib qolgan. Mazkur motivlarning birikuvidan hozirgi kunda bizga ma'lum bo'lgan ertaklar yuzaga kelgan. Shunga asoslanib Grimmlar g'oyasini oriylar nazariyasi deb izohlanadi.

Grimmlar nazariyasi ancha muddat o'z qimmatini saqlab qoldi. Va nihoyat 1859 yilda Gyottingendagi sanskrit tadqiqotchisi Teodor Benfey «Panchatantra»ni hind tilidan olmon tiliga tarjima qildi va uning kirish qismida ertaklarning kelib chiqish tarixi bo'yicha yangi qarashni o'rta tashladi. U mavjud ertaklarni Grimmlardan farqli o'laroq miqlarga emas, balki adabiyotga bog'ladi. Aniqrog'i barcha ertaklar ildizi uning fikricha Hindistonga borib taqaladi. Barcha ertaklarni Buddizmning mevasi sifatida ta'riflaydi. Shunga ko'ra uning nazariyasi hind nazariyasi deb nom olgan. Benfey ertaklarning dunyo bo'ylab yoyilishida adabiyotning ahamiyatiga katta baho beradi. Uning ta'kilashicha bu jarayon X asrlarda, ya'ni arablar Hindistonga bostirib kirganlaridan keyin boshlangan. Arablar Hindistonga yaqinlashar ekanlar u yerdagi boy adabiy merosni uz tillariga tarjima qilishga katta e'tibor berganlar. Natijada, bular asta sekin Eron, Arabiston, Misr va Ispaniya orqali Yevropaga kirib kelgan. Ko'pchilik ertakshunoslar kadimgi Vizantiyani Sharq va G'arb orasidagi darvoza sifatida ta'riflaydilar hamda ilk adabiy alokalar aynan shu yer orqali amalga oshganini ta'kidlaydilar. Agarda uning geografik joylashuvini nazarda tutsak, buni izohlashga xojat kolmaydi. Hind afsona, rivoyat va ertaklari shu darajada g'aroyib va jozibali ediki, ular tez orada xalq ichiga singib ketdi. Benfeyning fikricha xayvonlar haqidagi ertaklar teskari yo'nalishda, ya'ni Qadimgi Gresiyadan Hindistonga qarab harakat qilgan. Sharqda va Shimolda hind rivoyatlari Buddizmning yo'yilishi va uning adabiyoti orqali tarqalgan. G'arbgacha tomon yo'yilishida birinchi navbatda forslardagi «To'tinoma» va arablardagi ayrim hollarda yaxudiydagi manbaalar zanjir vazifasini bajargan. Hind ertaklarini og'zaki yo'l bilan xalqdan - xalqga o'tib yoyilganini ham Benfey inkor etmaydi. Uning ta'kidlashicha, shu yo'l bilan ular Tibet, Mo'g'iliston, O'rta Osiyo, Rossiya va Sharqiy Yevropa orqali G'arbiy Yevropaga yetib kelgan.

Benfey nazariyasiga qarshi o'laroq ingliz olimlari E.V.Taylor va Andryu Langlar tomonidan yangi antropologik nazariya o'rta tashlandi. Ular ertaklarni kelib chiqishini ibtidoiy davrga taaluqli deb hisoblaydilar. Taylor insoniy urf-odatlar, qarashlar sohasida olib borgan izlanishlari yuzasidan quyidagi fikrga keladi. Uning ta'kidlashicha qadimgi diniy tushunchalar, masalan vujud va rux o'rtasidagi o'zaro munosabat, ruxlarga bo'lgan munosabat hamma xalqlarda ham bir xil

bo'lgan. Shunga asosan antropolog olimlar dunyoning turli burchaklarida bir-biriga o'xshash ertaklar vujudga kelgan deb uqtiradilar. Yuqorida olimlarning fikriga tayanadigan bo'lsak, barcha xalqlarning tashqi olamga munosabati, fikrlash tarzi, fantaziyasi bir xil, shu sabab ular bir xil ichki ruhiy kechinmalar, bir xil taassurotlarni keltirib chiqaradi. Ertaklar orasidagi o'xshashlik xalqlarning o'zaro bir-biriga bog'liqligini yoki u yoki bu xalqdan ikkinchi bir xalqga ko'chishi bilan xarakterlanmaydi, balki yuqoridagi tamoyillarga asosan mustaqil ravishda paydo bo'ladi. Buni fanda ertaklar poligenezisi deb ham atash mumkin.

XX asr boshlariga kelib ertakshunoslikda yana bir yangi nazariya yuzaga keldi. Bu nazariyani Karle Kron va Anti Aarni asos solgan Finlandiya maktabini yaratdi. «Jug'rofiy – tarixiy» metod asoschilari ertakning kelib chiqishi, uning tarixini aniqlash uchun, avval xar bir ertakning syujeti tarixi o'rganilishi kerak degan fikrni bildiradilar. Bu metod asosida ma'lum bir hil syujetga ega bo'lgan ertak variantlari ham jug'rofiy, iloji bo'lsa ham tadrijiy tomondan bir-biri bilan qiyoslanadi. Variantlarni bir-biri bilan puxta qiyoslash orqali aynan bir syujetdagi ertakning ilk boshlang'ich variantini aniqlash mumkin bo'ladi. Bundan tashqari uning kelib chiqqan o'rnini, vujudga kelgan vaqti va dunyo bo'ylab tarqalish yo'nalishi ham aniqlanadi.

Biz yuqorida keltirilgan ertakshunoslikdagi eng asosiy yo'nalish va uslublar to'g'risida qisqacha ma'lumot berdik. Holbuki ertak janrining yuzaga kelish tarixini o'rganish, bu sohada amalga oshirilgan ishlarni atroflicha tahlil qilish jiddiy tadqiqot uchun asos bo'lishi tabiiy.

Adabiyotlar:

1. Sulaymonova.F. Sharq va G'arb, Toshkent, 1979
2. Max Lüthi, Märchen, Neunte Auflage, Verlag J.B.Metzler, Stuttgart-Weimar, 1996
3. Sulaymonova.F. Sharq va G'arb, Toshkent, 1979.
4. H.-J. Uther, Märchen in Europa, zur Geschichte des Genres innerhalb der Kinder-und Jugendliteratur, Beitrag im „Hören, Lesen, Sehen, Spüren. Märchenrezeption im europäischen Vergleich“, herausgegeben von Regina Bendix und Ulrich Marzolph, Schneider Verlag Hohengehren, Baltmannswiler, 2008.
5. Пропп.В., Морфология волшебной сказки, Москва 2001

“AFSONA VA RIVOYATLAR” MODULINI O‘RGANISH MAVZUSINI O‘TISHGA DOIR INTERFAOL METODLAR

*O‘raeva Darmonoy Saidaxmedovna
Buxoro davlat universiteti
Filologiya fanlari doktori, professor
Buxoro, O‘zbekiston Respublikasi*

Annotasiya. Maqolada “Afsona va rivoyatlar” modulini o‘rganish mavzusini o‘tishga oid zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda interfaol metodlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: modul, “Afsona va rivoyatlar” moduli, “Venn” diagrammasi, ma’ruza, FSMU metodi.

Аннотация. В статье представлены современные педагогические технологии и интерактивные методы изучения модуля «Мифы и легенды».

Ключевые слова: модуль, модуль «Мифы и легенды», «Диаграмма Венна», лекция, метод ФГМУ.

Abstract. The article presents modern pedagogical technologies and interactive methods for studying the module "Myths and Legends".


Keywords: module, "Myths and legends" module, "Venn diagram", lecture, FSMU method.

O‘zbek folklori fanidan “Afsona va rivoyatlar” modulini o‘rgatish jarayoni tarix fani bilan uzviy bog‘liqlikda olib boriladi. Chunki afsonada hayot voqeligi xayoliy, rivoyatda esa hayotiy uydirma asosida talqin etilgan bo‘ladi.

Folklor fani tarkibida afsona va rivoyatlarni o‘rgatishdan ko‘zlangan maqsad shuki, avvalo, ularning so‘z san‘atiga asoslangan og‘zaki epik janrlar ekanligini, o‘zida xalq hayotining ijtimoiy, maishiy, madaniy qirralarini asrlar davomida badiiy ifodalab kelayotganini, ajdodlarimizning vatan erki va mustaqilligi, obodligi uchun kurashlari tarixini, milliy tuyg‘ularni aks ettirishini talabalarga anglatishdan iborat. Shu maqsad asosida o‘qituvchi masofadan turib talabalar bilan onlayn muloqotga kirishar ekan, afsona va rivoyatning faqat folklor janri ekanligini, ular og‘zaki yaratilganini, yozma adabiyotda bunday janrlar mavjud emasligini, faqat ba’zan shoir, adib va dramaturglar o‘z asarida biror-bir tarixiy yoki maishiy afsona va rivoyatni sintezlashtirishi mumkinligini tushuntiradi. Shuningdek, afsona va rivoyat folklorning alohida-alohida janri ekanligini, ularning uydirma turiga qarab o‘zaro

farqlanishini ochib beradi. Mana shu vazifani bajarayotganda esa quyidagi ko‘rgazmadan foydalanish mumkin:

Afsona va rivoyat janrlariga xos o‘xshash va farqli jihatlar



Shundan so‘ng hayot haqiqati va badiiy to‘qima, hayotiy va xayoliy uydirma nima ekanligi haqida tushuncha berib, bu hodisalarning mohiyatini anglatish lozim. Toki, talabalar afsona va rivoyatlarning o‘zbek xalq og‘zaki ijodi janrlari tizimida tutgan o‘rnini, ahamiyatini, so‘z san‘ati namunalaridan ekanini his qilishi kerak. Har bir talaba milliy o‘zlikni anglashda qadriyatlarimizdan sanalgan afsona va rivoyatlarning o‘rnini tushunishi lozim.

Afsona va rivoyatlarga xos janriy xususiyatlar haqida mukammal ma’lumotga ega bo‘lish, ularni bir-biridan farqlash, misollar asosida ular haqida mustaqil fikr yuritishga erishmoq shart.

Professor-o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi aloqa telegramm yoki elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi.

Ma’ruza qismlarini tuzishda quyidagilarga e’tibor berish, bizningcha, maqsadga muvofiq bo‘ladi: a) mavzu bilan tanishtirish; b) mavzuni asoslash, ya’ni mavzu qo‘yilishining sababi va ahamiyatini tushuntirish; v) ma’ruzani mantiqiy bog‘liqlik asosida olib borish; g) ma’ruzani yakunlash.

Ma’ruzaning mantiqiy bog‘liqligini ta’minlash uchun esa afsona va rivoyatlar haqidagi ma’lumotlarni mantiqiy ketma-ketlikda berish kerak. Bunda dastlab afsona, keyin rivoyat tushuntirilgani ma’qul. Shuningdek, mif, ertak, naql bilan ham ularni chog‘ishtirish foydadan xoli emas. sababi, ularning kompozision qurilishida, obrazlar tarkibida, ifoda uslubida o‘ziga xos ba’zi yaqinliklar borligi ma’lum.

Bunda darsni axborot kommunikasion texnologiyalardan foydalanib tashkil etishda o‘qituvchi quyidagi kabi ko‘rgazmalardan foydalanishi mumkin:



FSMU metodiga asoslangan topshiriq: Yuqoridagi jadvalga tayanib, rivoyatning mavzusiga ko‘ra turlanishini shunday tartibda jadvallashtiring. So‘ngra o‘z nuqtai nazarini bayon eting. Fikrlaringizni asoslash uchun misollar keltiring. Aniq xulosalar chiqaring.

“Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi” metodiga asoslangan topshiriq. Bunday metodlar, odatda, talabalar bilan individual onlayn ishlashni tashkil etish uchun qulaydir.

Epik janrlarni tasniflang va quyidagi jadvalga joylashtiring.

| Epik janrlar | Lirik janrlar | Dramatik janrlar |
|--------------|---------------|------------------|
| | | |

1. Askiya. 2. Qo‘shiq. 3. Ertak. 4. Naql. 5. Lof. 6. Rivoyat.
7. Doston. 8. Maqol. 9. Topishmoq. 10. Olqish. 11. Qarg‘ish. 12. Terma.
13. Latifa. 14. Alla.

Demak, yuqoridagi “Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi” metodi orqali o‘zbek folklorining janrlar tizimi va tarkibini, unda xalq afsona va rivoyatlarining o‘rnini aniqlash, belgilab ko‘rsatish mumkin. Buning uchun esa xalq og‘zaki ijodi namunalari bo‘yicha ma‘lumotlarning internet tarmog‘ida kengroq joylashtirilishi ulardan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

DRAMA SHAKLLANISHIDA FOLKLOR JANRLARI TA'SIRI

Shomurodova Dilorom Husanmurotovna
Qarshi davlat universiteti
Ilmiy rahbar: f.f.n., dotsent Imomova Gulchehra
Muhammadiyevna
Qarshi, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya: mazkur maqolada dramaturgiya shakllanishida folklor janrlarining ta'siri, xususan, marosim folklori, xalq og'zaki dramalarining drama rivojidadagi katta manba bo'lganligi ilmiy nazariy adabiyotlar asosida tadqiq qilingan;

Kalit so'zlar: drama, tragediya, mif, marosim folklori janrlari, xalq teatrlari, doston;

Аннотация: В статье исследуется влияние фольклорных жанров на формирование драматургии, в частности обрядового фольклора, на основе научно-теоретической литературы, что народные устные драмы являются важным источником в развитии драматургии;

Ключевые слова: драма, трагедия, миф, обрядовые фольклорные жанры, народные театры, эпос;

Annotation: This article examines the influence of folklore genres in the formation of drama, in particular, ceremonial folklore, on the basis of scientific theoretical literature that folk oral dramas are a great source in the development of drama.

Keywords: drama, tragedy, myth, ceremonial folklore genres, folk theaters, epic;

Badiiy ijodda o'zining dialoglar va harakatlarga boyligi, haqiqiy hayotga juda yaqinligi bilan ajralib turadigan dramaturgiya boshqa adabiy turlarga nisbatan sinkretik tabiatga egaligi, qamrov, imkoniyat doirasining kengligi ya'ni teatr san'ati bilan uzviy bog'liqligi, ommabopligi bu sohaning inson ma'naviy tafakkuri rivojida muhim ekanligini ko'rsatadi. Zero, inson dramatik asarlarni nafaqat o'qiydi, balki asar qahramonlari bilan ma'lum muddat birga yashaydi, qahramonlar dardini ko'radi, eshitadi, his qiladi. Bu adabiy tur shu sababdan qadim tarixga ega.

Dramaturgiyaning har uchchala turi genezesi ham antik davr mifologiyasiga borib taqaladi. Bu bosqichda mif sinkretizmi yetakchilik qiladi. Bu miflarda janr shakllangan hudud kishilarining e'tiqodi, diniy

marosimlari, turmush tarzi o'z ifodasini topgan. Dramaning paydo bo'lishi haqidagi ilk miqlar yunonlarning Dionis –o'simliklar, uzumchilik, vinochilik ma'budi bilan bog'liq. «Uning qahraton qishdagi iztiroblari haqidagi mungli madhiyalaridan –tragediya, o'yin-kulgi, hazil-mutoyiba bilan o'tadigan bahorgi xushchaqchaq bayramlardan komediya vujudga kelgan deb faraz qiladilar»[1, 463 b.]. Bu tomoshalar nafaqat ko'ngilxushlik uchun, balki o'sha davrda yunon dehqonlari hayotining ifodasi, shuningdek, ularning Dionisga bo'lgan e'tiqodi, ibodati, baraka tilash marosimi sifatida ham qaraladi.

Ammo aslini olganda Yevropa nazarida shunday qaralsa-da, O'rta Osiyoda bu adabiy turning tarixi ancha uzoq davrga borib taqaladi. Xususan, Mamajon Rahmonov «O'zbek teatri tarixi» Markaziy Osiyoda ilk teatr san'atining paydo bo'lishini bu hududda yashagan xalqlarning ibtidoiy yashash sharoiti bilan bog'lab, bu davrda odamlarning ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik singari kundalik hayotga xos ehtiyojlari asosida teatrga xos dastlabki elementlar paydo bo'lganligini, ya'ni ovi baroridan kelishi yoki mo'l hosil olish uchun turli hayvon terilarini yopinib raqsga tushganliklarini keltirib o'tadi. Keyinchalik «Avesto» bilan bog'liq miqlar, diniy marosimlar, so'ngra Aleksandr Makedonskiy davrida Ellin madaniyatining keng yoyilishi teatr, o'z o'rnida dramaturgiyaning rivojiga katta turtki bo'ldi. Makedonskiy buyrug'i bilan yunon san'atkorlari Markaziy Osiyoda ham maxsus tomoshalar ko'rsatgan. Ular uchun esa yunon teatrlari tipida aylana amfiteatrlar qurilgan. U yerlarda Sofokl, Esxil, Yevripid tragediyalari namoyish etilgan.

Olim teatrning tanazzul davri sifatida arab xalifaligi istilosi va shundan keyin hukm surgan islom muhitini ko'rsatadi. Biroq bu davrda ham teatr to'la-to'kis yo'qolmagan. Ya'ni keyinchalik sharqdagi Renessans davrida ilm-fan rivoji bu sohaga ham ta'sir ko'rsatgan. Xususan, Temuriylar, shayboniylar va uch xonlik davrida islom aqidalariga amal qilingan, shariat qoidalari asosida teatr san'ati masxara, maddohlik, voizlik shaklidagina mavjud bo'lgan. M. Rahmonovning yozishicha, «Buxoro, Xorazm va Qo'qon xonliklaridagi xalq teatrlarida XVII-XVIII-XIX asrlarda o'ynalib kelgan «Mudarris», «Er taqsimoti», «Cho'pon bola», «Xon hajvi», «Zarkokil», «Mozor», «Avliyo», «Sirkataroq azizlar», «Hoji kampir», «Farzand duosi», «Dorbozlik» «Qalandarlar» ...kabi 500 dan ortiq xalq og'zaki komediyalari qadimiy aktyorlik san'ati haqidagi ma'lumotlar bor.» [2, 259 b.] Bu tomoshalarda

asosan, xalqning ijtimoiy, iqtisodiy, maishiy, ma'rifiy muammolari ko'tarilib chiqqan.

Ilk professional yozma dramalar jadidlar davrida shakllangan bo'lsa, uning rivojida, nafaqat Yevropa, balki milliy tarixiy asoslar: xalq teatrlari, folklor va diniy marosimlar muhim asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Zero, «marosim inson moddiy va ma'naviy turmushining talab va ehtiyoji bilan yuzaga kelgan va keladigan, tabiiy xatti-harakat, bezak (dekorasiya) va matniga ega bo'lgan hayotiy sahna asaridir». [3, 9 b.] Milliy urf-odatlarimiz, marosimlarimiz tarkibida o'zining tomoshaviyligi teatrlashtirilgan sahna ko'rinishi shaklida bo'lib, dramaga xos elementlar asosida janr shakllangan. Ular harakat, mimika, dialog, dramaga o'xshash kompozitsion unsurlar, guruhli ijro kabi dramatik xususiyatlardir.

Adabiyotshunos olim Nasiba Tursunova o'zining tadqiqotida marosim folklori va dramaturgiya o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, quyidagi fikrlarni bildirgan: «Marosimlarda ijro etiladigan verbal qism, ya'ni aytim, qo'shiq, dialog, va monologlar odatda poetik jihatdan kanonik matn holatida an'anaviylashgan bo'lib, bu matnning ijrosi marosim tabiatiga mos xatti-harakatlar, turli atributlar, imo-ishoralar hamda ishtirokchilarning marosim chog'idagi muayyan holatlariga muvofiq tarzda amalga oshirilgan. Asta-sekin marosimni o'tkazish jarayonining teatrlashtirila borishi va urf-odatlar zamirida o'z ifodasini topgan ramziy-ritual kod o'rniga badiiy-estetik kod, ya'ni obrazlilikning tobora chuqurroq singib borishi natijasida so'zning ruhiy-hissiy ta'siriga e'tibor kuchaytirila boshlangan. Shu tariqa an'anaviy marosimni qadriyatlar tizimida dramaga xos ekspressivlik, tomoshaviylik, teatrilizatsiya, sahnaviy harakatlarda ifodaviylikning yorqin namoyon bo'lishi, kuchli va ishonchli katarsis va teatr san'atiga xos boshqa elementlarning ilk embrional ko'rinishlari vujudga kelgan». [4, 71-72 b.] Olima fikrlarini isboti sifatida o'zbek to'y marosimlarida, xususan «Beshik to'y» marosimlaridagi sahnaviy xatti-harakatlarni tahlil qilar ekan, unda drama janriga xos elementlar yaqqol namoyon bo'ladi. Demak bundan anglashiladiki, marosim folklori o'zbek dramasi shakllanishidan katta ta'sir ko'rsatgan. Adabiyotshunos olim Uzoq Jo'raqulov ushbu folklorshunoslikka oid marosim folkloriga doir janrlarni dramaga aloqadorligi nuqtai nazaridan ikki turga ajratadi:

«1. Sof drama (yozma dramaning muallif tomonidan taqdim etilgan ilk nusxasi) asariga xos elementlarni o'zida aks ettiruvchi marosim folklori janrlari: kina, badik, burey-burey, avrash, olqish, qarg'ish, yig'i-

yo‘qlov, motam qo‘shiqlari, jar chaqirish, yor-yor, o‘lan, lapar, kelin salom, kuyov salom, to‘y olqishlari.

2. Teatr sahnasidagi kabi so‘z, harakat, muayyan dekoratsiya elementlari mavjud bo‘lgan janrlar: chilla qochirish (yoki chilla quvdi, chilla guzaron) beshikka solish, oyna ko‘rsatar; mavsumiy marosimlardan: boychechak, «Sust xotin», «Choy momo», «Loy tutish», «Shox moylar», «Tushov kesdi» marosimlari». [5, 21 b.]

Ushbu tasnifda dramaga xos bo‘lgan janriy xususiyatlar jihatdan farqlanish kuzatiladi. Ya’ni birinchi tasnifga kirgan janrlarda dialogik nutq yetakchilik qilgan holda drama strukturasi singdirib yuborish orqali drama kompozitsiyasining boir bo‘lagini tashkil etsa, ikkinchi tasnifdagi janrlarda bevosita teatr sahnasiga xos bo‘lgan real harakat, shunga mos muloqot hamda ma’lum dekoratsiya elementlari asosiy o‘rin tutadi.

Shuningdek, drama shakllanishida o‘zbek folklorining doston, qo‘shiq, askiya, latifa, ertak, aytishuv kabi janrlar ham asosiy o‘rin tutadi. Ularning barchasida dramaga xos qator elementlar, ya’ni dialogik nutqqa qurilganligi, dramatik konfliktning, dramatik muloqot, dramatik pafosning mavjudligi, ijroviy jihatdan sahna asariga o‘xshashligi kabi unsurlar qorishiq holda keladi.

Shu bilan birga adabiyotshunos olim Shuhrat Rizaev «Dramaturgiyaning jadid adabiyotida yozma namunalari paydo bo‘lgunga qadar kechgan tarixi faqat masxaraboz va qiziqchilar teatrida ijro etib kelingan og‘zaki drama ko‘rinishlardan iborat» [6, 14 b.] degan fikrni ilgari suradi. Fikrining isboti sifatida akademik V.V.Bartoldning «Turkistonning madaniy hayoti tarixi» risolasidagi xalq tomoshalari ... «drama adabiyotining ibtidosi sifatida qiziqishi uyg‘otishi shubhasizdir» deb berilgan qaydlarini keltiradi.

Shuningdek, qadim «To‘maris», «Shiroq», «Zariadr va Odatida», «Siyovush», «Afrosiyob», «Rustam» nomi bilan bog‘liq epos va afsonalarning kuylanib, turli harakatlar bilan ijro qilinishi ham Markaziy Osiyoda teatr va dramaturgiyaga aloqador jihatlarning mavjudligidan dalolat beradi. Shu bilan birga yurtimiz hududida teatr va xalq og‘zaki drama mavjud bo‘lganligining dalillaridan biri milliy bayramimiz Navro‘z bayramidir. Bu bayramda xalq sayllar uyushtirib, turli taqlidiy o‘yinlar, tomoshalar uyushtirilgan. Bu bayramlarda masxaraboz va muqallidlar, qo‘g‘irchoqboz-u «ot o‘yin»lari marosimning tarkibiy qismiga aylangan.

Olim Sh.Rizaev xalq teatrlarini va og‘zaki drama tomoshalarini dramaturgiyaning so‘z yoki harakatdan iborat uch ko‘rinishi sifatida quyidagi turlarga ajratadi:

1) Masxarabozlarning faqat hajv va kulgidan iborat so‘z o‘yinlariga qurilgan dialoglari shaklidagi ko‘rinishi;

2) Muayyan qiyofa va qiliqlarga taqlidan harakatlarni namoyon qiluvchi so‘z vositasi va so‘zsiz ijro etiladigan ko‘rinishi;

3) Turli niqoblar bilan hamda «chodir jamol», «chodir hayol» kabi qo‘g‘irchoq o‘yinlari paytida ijro etiladigan shakli.[6. 15 b.]

Demak yuqoridagilardan ma‘lum bo‘ladiki, o‘zbek xalqining sahnaviy-dramatik san‘ati xalq og‘zaki poetik ijodi janrlari hamda mifologik tasavvurlar bilan bog‘liq ramziy-ritual udumlar bilan bevosita bog‘liq holda shakllangan.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek dramasi janriy xususiyatlarini faqat Yevropa ta‘sirida rivojlangan deyish xato fikrdir. Zero, qadimdan mavjud bo‘lgan an‘anaviy marosimlarning hayotiy sahna asari sifatida o‘tkazilishi va marosimiy madaniyatning badiiy mohiyat kasb etganligi dramatik san‘atning kelib chiqishi uchun poetik zamin vazifasini bajargan. Shuningdek, folklor janrlari, xalq og‘zaki dramasi dramaturgiya tadrijiy takomilida katta manba bo‘lganligini nazarda tutish lozim bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Kun I.A. Qadimgi Yunoniston afsona va rivoyatlari. T.: O‘zbekiston, 2013
2. Rahmonov M. O‘zbek teatr tarixi. Qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar. –T.: Fan, 1975
3. Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. Toshkent, 1986,
4. Tursunova N. Marosim folklori va dramaturgiya. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali 2021\ 5
5. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. Toshkent, 2015
6. Rizayev Sh. Jadid dramasi. Toshkent, 1997.

THE INFLUENCE OF FOLKLORE ON CLASSICAL ORIENTAL LITERATURE

*Eshonkulova Surayyo Isomiddinovna
Jizzakh State Pedagogical Institute,
Candidate of Philology, Associate Professor
Jizzakh, Republic of Uzbekistan*

Abstract: The article is devoted to the influence of folklore on classical oriental literature. The image of historical figures associated with Islam was analyzed, it was transferred into written literature through the Koran and folklore, the poets pointed to the qualities inherent in these images with a certain ideological and artistic intention, as a result of which new images appeared and the emergence of means of expressing the image.

Keywords: Influence, Islam, tradition, idea, folklore, hagiographic works.

Annotatsiya: Ushbu maqola folklorning mumtoz sharq adabiyotiga ta'siri masalasiga bag'ishlangan. Islom dini bilan bog'liq tarixiy shaxslar obrazi Qur'oni Karim va folklor asarlari orqali yozma adabiyotga ko'chganligi, shoirlar ma'lum bir g'oyaviy-badiiy niyatda bu obrazlarga xos sifatlarga ishora qilishganligi, natijada, ijodkorning tafakkur mevasi sifatida yangi obrazlar va ifoda tasvir vositalari maydonga kelganligi tahlil ostiga olingan.

Kalit so'zlar: Ta'sir, islom, an'ana, g'oya, folklor, manoqibi asarlar.

Аннотация: Статья посвящена влиянию фольклора на классическую восточную литературу. Проанализирован образ исторических личностей, связанных с исламом, был перенесен в письменную литературу через Коран и фольклор, поэты указали на присущие этим изображениям качества с определенным идеологическим и художественным замыслом, в результате чего появились новые образы и возникновение средств выражения образа.

Ключевые слова: Влияние, ислам, традиция, идея, фольклор, агиографические произведения.

There is an inextricable link between history and literature. Complementing each other, they serve the interests of society. history is real information and space, time and events associated with the life of specific individuals. Fiction has somewhat different tasks. Literature in artistic form with the use of allegories and metaphors depicts certain historical events and experiences of individuals. When displaying historical events and historical figures in a work, the author can widely use hyperbole. As a result, the power of the influence of the depicted object or event on the consciousness and perception of the reader increases several times and thus creates the basis for the formation of a positive or negative attitude towards the image of a historical person. In this sense, the images of historical figures depicted in fiction, depending on the perspective of the author's approach, in the reader's mind can be formed as symbols of good or evil, generosity or avarice, courage or cowardice, a reflection of the author's ideas.

In Uzbek classical literature, a rich experience of depicting images of historical figures has been accumulated. Taking into account certain peculiarities, they can be conditionally classified as follows: 1. Images of historical figures of the pre-Islamic era; 2. Images of historical figures associated with the religion of Islam.

Images of these types are found and play a certain role in the works of authors of different times. Reading about the images of such historical figures, the reader imagines the historical reality associated with them. By displaying a specific historical personality, the author sets a specific goal for himself. This goal, as a rule, is associated with the problems of the time in which the author lived or with his literary and aesthetic ideal.

The images of the first group can also be divided into groups of historical and syncretic images. For example, the images of Afrasiab, Hizr in some sources are presented as historical, in others - as mythical images.

According to this classification, gravestones with the names of historical figures who left a bright mark in the pre-Islamic history of the Turkic peoples - Kultegin, Bilgakhokon, Tunyukuk - can be noted as valuable sources. It can also be traced that the events associated with the names of Alp Er Tung, Uguzkhon, as well as Arkanakun, Alankuva, which are directly related to the history of the Turkic peoples, are reflected not so much from a historical perspective, but from an artistic perspective.

The history of the Turkic peoples in various forms, in particular, information about the life of Uguzkhon, Alankuva, the events of Arkanakun, is reflected in historical sources after the Islamic period [1, 3-14 p.]. For example, the work of Ollomurod Annaboyoglu "Uguz, Alankuvava Shayboniy noma" (17th century) consists of three parts, the first part reflects the events from the era of Uguzkhon, Alankuva to the era of Genghis Khan, the second - the history of the Kungirod clan, and the third - the history of Shaiboniykhan. The beginning of the work reflects the history from the events associated with Nux, the genealogy of the Turkic peoples, its formation and up to the era of Genghis Khan [2, 99 l.].

The work of Shermuhammad Munis "Firdavsul-ikbol" is dedicated to the history of the Khiva khans. The work begins with an account of the history of Yofas, who is considered the ancestor of the Turkic peoples, and covers the events that took place before the era of Ollokulikhon [3, 259 l.]. In the work of Muhammad Yusuf Bayon "Shajharai Xorazmshohiy", like in Munis, traditionally, but in a brief form, reflects the history from Adam to Yofas, and then follows a description of the events that took place before 1913 [4, 504 l.].

The work of Muhammad Sharif bin Muhammad Naki "Tojut-tavorix" is dedicated to the ruler of Bukhara Amir Haydar. At the beginning of the work, the history of the Mangits dynasty is described, the ancestor of which was Uguzkhon. The following is a description of the spread of the Turkic peoples, the history of Genghis Khan and the Shaybanids [5, 536 l.].

The work "Habib us-siyar" reflects the sequence of dynasties that left their mark on the history of the life of the Iranian padishahs, the Prophet Muhammad and his associates, caliphs, generations of Genghis Khan, Temurids, Uzbek khans and Safavids [6, 935 l.].

These works on historical themes are distinguished by the fact that they are written in a beautiful artistic form. Information about historical persons is displayed by means of poetic depiction. Probably, the authors resorted to artistic presentation primarily in order to awaken the reader's interest in this work. This method enhances the effectiveness of the work, and as a result, the images of historical figures are presented to the reader as a symbol of greatness, strength and courage.

This is an important aspect inherent in the description of the history of the peoples of the East up to the twentieth century. In this regard, at one time Ibn Sina, Farabi, F. Rosenthal, V.V. Bartold considered sources

of this type as literary and artistic works [7, 3-4 p.]. Exploring the works of Ogahi on historical themes, prof. N. Jabborov and N. Shodmonov claimed that these are samples of literary and historical prose [8, 3-4 p.]. In this regard, it can be said that under the influence of sources of this type, the truth about historical figures in artistic form reached subsequent generations. The bulk of these works were written at such a high artistic level that the information contained in them about historical figures prevented the perception of their images as truth.

X. Egamov and N. Rahmonov noted that Urkhun-Yenisei monuments from the past of the Turkic peoples played an important role in the formation of Uzbek literature: *“Folklore really had a strong impact on the ancient Turkic literature. This is noticeable in the characterization of heroes, poetic style, grammatical forms and the display of words in monuments. For example, in the six stories of the large monument about Kul Tegin, the historical fact and syncretism of legends occupy the main place. These are stories about the first Turkic Xakans Bumun and Istami, Eltarish Xakan and Kapagan Xakan, Bilga Xakan and Kul Tegin. In the works created on the basis of these monuments, there is a noticeable desire not only to reflect social reality, but also to depict in a fantastic form the aspirations, hopes and ideals of the people ”* [9, 95-96 p.]. Meanwhile, in these literary monuments, for the first time in a peculiar form, the interpretation of the images of historical figures is presented.

The tombstones associated with the history of the Turkic peoples are, in fact, a reflection of the worldview of the people, their relationship to history. N. Rahmonov wrote about the peculiarities of one of the tombstones: *“The goal of Yullugtegin, the author of the text about the state and cultural and economic life of the people in the Turkic kaganate, the spiritual world of rulers, their role in governing the state, the conquest of large territories and their annexation to the Turkic kaganate, the conquest of the Turkic people by the Tobgachs and the torment of the Turkic people was to prepare the reader to subsequent events and their correct perception, awakening interest in subsequent events. The tombstone was erected in honor in honor of Kultegin, but the author set himself the goal not only to glorify the military heroism of Kultegin, but mainly to display in detail the socio-political life of the Turkic kaganate, the relationship between the rulers and the people, the merits of the kagans in managing the state, i.e. display in detail the methods of government of each kagan. The narrator focused on the fate*

of the entire nation and state" [10,28 p.]. The scientist also believes that such tombstones are a kind of example of a work of art.

In the historical and artistic works widespread among the peoples of Turan and Iran, Alp ErTunga - Afrasiab was considered the pride of the Turkic peoples, and among the Iranians he was represented as a conqueror. Noting that information about Alp ErTunga is also found in sources created before the "Avesta", A. Abdurahmonov wrote: *"Works about Alp ErTunga - Afrasiab are often found in Turkic and Perso-Tajik literature. The image of Afrasiab is especially widely covered in Persian-Tajik literature. The dastan of "Barzunom", similar to "Shahname" by Ferdowsi and "Shahname" by XojaAmidiAtai, presents the entire complexity of Afrasiab's emotional experiences. The image of Afrasiab is also given a place in the first part of the 7-part book "Ravzat us-safo" by the historian Mirkhond (XY century). Why did the image of Alp Er Tung - Afrasiab so attract the attention of historians, poets and writers throughout the XY century and in subsequent centuries - the attention of researchers? Undoubtedly, there is one and exact answer to this question: The restriction by the fact that Alp ErTunga - Afrasiab was a hero, the ruler of the Turkic peoples does not reveal the essence of the issue. The bottom line is that the courage, courage, intelligence, resourcefulness, fair government of the state, the policy of uniting the Turkic strata inherent in the Turkic peoples are concentrated in the idea of works in which the image of Alp Er Tung - Afrasiab is created"* [11,56-57 p.].

The image of Afrasiab in "Shahname" by Ferdowsi, in which the rulers of Iran are glorified, is presented differently. In the "Shahname" of Ferdowsi, in the view of the Iranian people, the ruler of the Turks is portrayed as a conqueror, a bloodsucker and a ruthless person. These qualities are described in the following byte:

When the name Afrasiab is mentioned, Imagine how a powerful rock melts, like the waters of a frozen river [12, 9 p.].

Here is what A. Hayitmetov writes about poetic passages about the life of Afrasiab in the work "A Turk is lugin Devon": *"The lyrical hero of these poems is a person who loves life and work, striving for enlightenment, he is an active fighter for his own happiness ... This is the socio-political ideal of ancient Turkic lyric poetry. Her hero lives with the thoughts and concerns of his people "* [13, 146-147 p].

This opinion of the scientist indicates that the genetic foundations of the image of a historical personality were laid in the first samples of

Turkic literature. This idea is confirmed by the works about Uguzkhon. This image is displayed in the works of "Zhomeut-tavorih" by Rashididdin, "Turt ulus tarikhi" by Ulugbek, "Shajarai Turk" by AbulgoziBahodirkhon, as well as in the dastan "Uguznoma" and other similar works. In these works, Uguzkhon is presented as a person who for many years justly ruled the state and the people. In sources after the Islamic era, he was described as the ruler of the Muslim [14, 57-68 p.].

A. Abdurahmonov wrote that: *"A son was born to Korakhon. It was a very beautiful child. But for some reason he did not take his mother's breast. One day my mother had a dream. In a dream, the baby turned to the mother with the words:*

-Hey mother, I will not feed on your milk until you accept Islam and believe that there is no god but Allah.

The mother did everything the baby asked for. She admitted that there is no god but Allah. And the young man began to take her milk. The child's soul was imbued with love for the Almighty. At the age of one, he became a very beautiful child. Korakhon began to notice that a radiance was emanating from the child lying in beshik. In those days, it was customary to give a name to a child after reaching the age of one. Korakhon addressed his wife: *"Our son is one year old. What name are we going to give him?"* and immediately the tender voice of a baby came from beshik:

- "My name is Uguz" [15,68-69].

This is followed by a description of his coming of age, marrying a believing girl, his occupation of the throne, the unification of the vast region in which the Turkic peoples lived, his just rule for 73 years.

In this footnote, the personality of Uguzkhon is idealized: in this way, the idea of increasing trust in him, uniting all Turkic peoples around this personality was pursued. And for this, the emphasis was placed on the fact that he was a ruler, a believer in Islam.

The theme of Islam and the Koran formed the basis in the interpretation of images of historical figures in Uzbek literature. In Islamic literature, images of historical figures were created on the basis of such criteria as faith, noble aspirations, responsibility to the Creator. Therefore, the rich traditions of the literature of the Turkic peoples played a significant role in territories with a single Islamic culture and influenced other literatures [16, 62 p].

According to experts, images of historical figures associated with the religion of Islam were transferred to written literature through the

Koran and folklore. Poets turned to these images to convey certain artistic ideas. As a result, *“as a product of the author’s thought, new images and means of display appear in the arena”* [17.66 p].

At the same time, the creation of "manokibi" - hagiographic works in the literature of the Muslim East is considered a peculiar phenomenon. These works deserve attention not so much for their historicity as for their legendary character in describing the details related to the life and work of famous representatives of the religion of Islam. For the first time, works of this type were created in Arabic and Persian; in Uzbek literature. In these works, dedications to the Prophet Muhammad, his successors, Hazrat Ali, Imam Hasan and Imam Husan, Muhammad Hanafiy are not so much historical as they are close to legendary. Together with the images of people, the images of divas and peri were also used in these works. Z.X. Jumaev wrote about the changes in the veracity of the life of historical personalities: *“It is known that in the process of oral transmission and improvement of historical legends, certain structural and composite changes take place in their plot structure. Characters, modeled after a real historical personality, are presented as epic images based on the criteria of artistic thinking”* [18,5-6 p.].

At the same time, it should be noted that books appeared on the life of religious leaders. These books differ in the method of a new interpretation of the images of historical figures. As a result of the division in the religion of Islam, ideals were formed inherent in each separately taken region. For example, this is the nature of the historical and artistic works dedicated to Abu Muslim, who led the uprising against the unanimity of the population of Khoras and Maverraunnahr. The legends about this personality that existed in Merv later served as the basis for the work *“Kissai Abu Muslim”* [19, 3-6 p.]. This book can serve as a vivid example of the idealization of images of historical figures.

In conclusion, we can say that during the long historical development of Uzbek literature, the images of historical figures, the artistic interpretation of these images and the content of the artistic display of the image have improved. Sometimes the truth associated with historical figures was idealized to a certain extent with the passage of time. At the same time, the desire of the authors to increase the reader's interest in these works, the ability not to be limited to bare facts and the achievement of their artistic reflection testifies to the enrichment

of literary and aesthetic experience in this direction. As a result, the images of individual historical figures in fiction are presented to the reader as both historical and ideal personalities. In turn, the images of these historical figures became symbols of the hopes and aspirations of people, nobility, courage and perfection.

References:

1. Ahmedov B. MirzoUlug‘bekvauning “Tarix-i-arba’ ulus” (“To‘rt ulus tarixi”) asarihaqida // Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. – T.: Cho‘lpon, 1994. – B. 3-14; Abulg‘oziy Bahodirxon. Shajarai tarokima. – T.: Cho‘lpon, 1995. – B. 47.
2. Ollamurod Annaboyo‘g‘li. O‘g‘uz va Alanquva va Shayboniynoma. O‘zR FA ShI, 4347 raqamli qo‘lyozma asar. 99 varaq.
3. Shermuhammad Munis. Firdavsul-iqbol. O‘zR FA ShI, 821/I raqamli qo‘lyozma asar. 259 varaq (1b-259a).
4. Muhammadyusuf Bayoniy. Shajari xorazmshohiy. O‘zR FA ShI, 9596 raqamli qo‘lyozma asar. 509 varaq.
5. Muhammad Sharif bin Muhamad Naqiy. Tojut-tavorix. O‘zR FA ShI, 2092 raqamli qo‘lyozma asar. 536 varaq.
6. G‘iyosiddin bin Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar. O‘zR FA ShI, 2153 raqamli qo‘lyozma asar. 935 varaq.
7. Муродов О.М., ПоляковаЕ.А. Трансформация мифологических легендарных образов в таджикско-пэрсидских хрониках XI-XV вв. – Душанбе: Дониш, 1986. – С. 3-4.
8. JabborovN. O‘zbek badiiy-tarixiy nasrining saranamunasi // Ogahiy Muhammad Rizo. Zubdatu-t-tavorix. – T.: O‘zbekiston, 2009. – B. 3-4;
9. ShodmonovN. “Shohidu-l-iqbol”ning o‘zbek badiiy-tarixiy nasri taraqqiyotidagi o‘rni, manbalari va matniytadqiqi: Filol. fan. dokt. ... diss. avtoref. –T., 2009. – 48 b.
10. Egamov X., Rahmonov N. Turkiy yozma adabiyot va og‘zaki epik an’analar munosabatiga doir // Adabiy meros, 1985. –№ 1. – B. 95-96.
11. Rahmonov N. Bitiglar olamida. – T.: Fan, 1990. – B. 28.
12. Abdurahmonov A. Turkiy xalqlar adabiyoti. – Samarqand: SamDU, 2007. – B. 56-57.
13. Xamidov X. Узбекский пэреводы «Shah-name» Firdousi: Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. – T., 1967. – S. 9.
14. Hayitmetov A. Hayot baxsh chashma. – T.: Adabiyot va san’at, 1974. – B. 146-147.

15. Abdurahmonov A. Turkiy xalqlar adabiyoti. – Samarqand: SamDU, 2007. – B. 56-57, 68-77.
16. Abdurahmonov A. Turkiy xalqlar adabiyoti. – Samarqand: SamDU, 2007. – B. 68-69.
17. Karomatov H. Qur'on va o'zbek adabiyoti. – T.: Fan, 1993. – B. 62.
18. Rafiddinov S. Majozvahaqiqat. –T.: Fan, 1995. – B. 88.
19. Jumayev Z.H. O'zbek xalq tarixiy rivoyatlari: Filol. fan. nom. ... diss. Avtoref. – T., Fan, 2005. – B. 5-6.
20. B.Sarimsoqov. Afsonaga aylangan tarix // Abu Muslim jangnomasi. – T.: Yozuvchi, 1992. – B. 3-6; Dostoni Sohibqiron Abo Muslim. O'zR FA adabiyot muzeyi, 433 raqamli bosma kitob. – 302. b.

YAPON FOLKLORIDA ERTAKLARGA YUKLATILGAN DIDAKTIK G'OYALAR

*Egamberdiyeva Mukarram Shoolimovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
o'qituvchisi
Toshkent, O'zbekiston Respublikasi*

Annotatsiya: Folklor- xalq og'zaki ijodi bo'lib, ertak ham xalq tafakkurining badiiy ko'rinishi hisoblanadi. Ertaklarning mavzu ko'lami, badiiy bo'yog'i, tasvir usuli, estetik bezagi, tarbiyaviy ahamiyati asrlar davomida sayqal topib kelgan. Ertak har bir millat, xalqning didaktik dunyosida alohida o'rin egallaydi. Mavzular o'xshasa-da, tasvir usuli, bayon imkoniyatlari bir-biridan farq qiladi. Ushbu maqolada yapon folklorida ertaklarning o'rni va ularning yosh avlodni tog'ri tarbiyalashdagi ahamiyati tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: yapon folklori, yapon ertaklari, tonchibanashi, tarbiya

Annotation: Fairy tales are also an artistic expression of folk thinking. Folklore takes a special place in the didactic world of the people of each ethnic group in the world. Although the themes are similar, the method of depiction, the possibilities of narration are different. This article analyzes the role of fairytales and the significance of their contribution in efficient bringing up the new generation in Japanese folklore.

Keywords: Japanese folklore, Japanese fairytales, tonchibanashi, upbringing

Аннотация: Фольклор-это народное устное творчество, а сказка-художественное воплощение народного мышления. Тематика сказок, художественная роспись, техника изображения, эстетическое оформление, воспитательное значение нашли отражение на протяжении веков. Сказка занимает особое место в дидактическом мире каждой нации и народа. Хотя темы похожи, метод изображения, варианты описания несколько отличаются друг от друга. В этой статье анализируется роль сказок в японском фольклоре и их значение в воспитании подрастающего поколения.

Ключевые слова: японский фольклор, японские сказки, Тончи банаси, воспитание

Folklor-bu xalq ijodini ifodalovchi termin hisoblanadi. U og‘zaki tarzda yaratilib, og‘zaki tarzda tarqaladi va ommaviy repertuardan o‘rin oladi. Xalq badiiy ijodi deyilganda eng qadimgi davrdan hozirgacha xalq tomonidan og‘zaki tarzda yaratilgan, asrdan-asrga, ajdodlardan-avlodlarga og‘zaki tarzda (yoxud yozuv paydo bo‘lgandan keyin yozma holda) yetib kelgan, ilk muallifi noma‘lum bo‘lgan, oilaviy- maishiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy mavzularni estetik ideallar tarzida aks ettirgan barcha tur va janrlardagi og‘zaki, badiiy asarlarni tushunamiz.

Ma‘lumki og‘zaki adabiyot yozma adabiyot paydo bo‘lmasidan ilgari, uzoq o‘tmishdayoq mavjud edi. Bu adabiyot xalq badiiy kamoloti va ma‘naviy boyligining bitmas-tuganmas hazinasidir. Xalq og‘zaki ijodi turmush tajribalari asosida yuzaga kelgan bo‘lib, mehnat jarayoni bilan chambarchas bog‘langan. Xalq donoligi tufayli turli xil sharoitlardagi mehnat jarayonlarida barcha yoshdagilar uchun ham birdek ajoyib bo‘lgan ijod namunalari yaratilgan. Inson qadimdan atrof-muhitda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildirgan.¹⁰

Xalqning uzoq davrlar mobaynida shakllangan psixikasi, ruhi, etik va estetik qarashlari jamida uning milliy xususiyatlarini ko‘rish mumkin.¹¹

Yapon folklori haqida gap borar ekan shuni ta‘kidlash joizki, ushbu xalq folklori boshqa xalqlar folkloridan o‘zining rang-barang janrlari bilan farq qiladi. Bundan tashqari yapon xalq og‘zaki ijodi qahramonlari

¹⁰ O.Safarov. <<O‘zbek xalq og‘zaki ijodi>> Toshkent 2010[26b]

¹¹ A.B.Mitford. <<Tales of old Japan:folklore, fairy tales, ghost stories and legend of samura>>[5-6b]

ham o‘ziga xos bo‘lib, ularning xatti-harakatlari hamda so‘zlari va hatto o‘y-hayollarida ham falsafiylik mavjud bo‘lib, ularning zamirida yotgan ma‘noni anglash uchun o‘ziga xos bilim va o‘sha zamon va yapon xalqi haqida tasavvur kerak bo‘ladi.

Yapon folklori 口承文芸 (koushoubungei) yoki minkandenshou deb nomlanadi. Bu soha bilan shug‘ullanuvchi olimlar ya‘ni folklorshunoslar esa minzokugakusha, folklorshunoslik sohasi esa minzokugaku atamasi bilan nomlanadi. Mazkur soha vakillari o‘rganuvchi obektlar ya‘ni xalq og‘zaki ijodi namunalari esa minzokushiryo nomi bilan yuritiladi.

Yapon folklorida ko‘pincha g‘ayritabiiy va kulguli vaziyatlarga boy bo‘lgan ertak va hikoyalarni uchratishimiz mumkin. Shunga monand ravishda qahramonlar ham g‘ayrioddiy kuch-quvvatga va qobiliyatga ega obrazlardir. Masalan ular bodhisattva, kami (ilohiy ruhlar, hudolar), yokai (mahuqlar yoki shaytonlar), odamxo‘r maxluqlar ko‘rinishida ham namoyon bo‘ladi. Bunga misol qilib “Kappa” (suv ilohlarining bir turi), “Daryo farzandi”, “Gataro”, “Ko‘l o‘g‘li” kabilar ertaklar qahramonlarini keltirishimiz mumkin. Tengu (samoviy itlar), yurei (arvohlar) hamda noodatiy kuchga ega bo‘lgan yapon ajdaholari, Kitsune (tulki), Tanugi (bo‘rsiq), Mujina (bo‘rsiq), Bakeneko (ilohiy mushuk) va boshqalar ham yapon adabiyotida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Ertaklar jamiyatda shaxs sifatida shakllanuvchi bolalar ongini rivojlantirishga, tafakkur fokusini kengaytirishga, turli muammoli vaziyatlarga munosabat bildira oladigan mustaqil fikrlash tarzini shakllantirishga xizmat qiladi. Ertaklar bolalarda ilk badiiy zavqni uyg‘otuvchi, ularni badiiy obrazlar dunyosiga olib kiruvchi, hayot haqiqatiga asoslangan, hayot va fantastika xususiyatlari bilan yo‘g‘rilgan, odamlarga ibrat-o‘git beruvchi og‘zaki hikoyalardir.

Ertaklar mavzu doirasining kengligi, ifoda ko‘lamining o‘ziga xosligi, badiiy kompozitsion qurilishga egaligi, obrazlar tizimining xilma-xilligi bilan boshqa xalq ijodiyotining mahsulidan farq qiladi. Ertaklarda xulosa tugal, yechim aniq bo‘lib, o‘quvchi nigohida yomonlikning mag‘lubiyati, ezgulikning ustuvorligi tantana qilishi badiiy bo‘yoqlar bilan ifoda etiladi. Ertaklarning mavzu doirasidan kelib chiqqan holda obrazlarning xilma-xilligi yuzaga keladi. Ertaklardagi afsonaviy, fantastik, mifologik, realistik, satirik obrazlarga turli xil badiiy-didaktik g‘oyalar singdiriladi. Ularning xatti-harakatlari orqali o‘quvchi ongida ma‘lum bir voqelik badiiy ifoda asosida

shakllanadi. Badiiy ifodaning ko‘rinishi ifoda tarzi bilan bir qatorda obrazlarning tipik ko‘rinishlari asosida beriladi.

Yapon folklorida maishiy ertaklar boshqa janrdagi ertaklarga nisbatan kechroq paydo bo‘lgan. Mazkur mavzudagi ertaklar shahar madaniyati shakllangan davrlar ya’ni XI-XII asrlarga kelib paydo bo‘ladi va o‘zining cho‘qqisiga erishadi deb aytishimiz mumkin. Chunki shu davrga kelib maishiy mavzudagi ertaklarga talab kuchayadi. Negaki bu paytda feodalizm avj olgan, zodagonlar, ruhoniylar kambag‘al dehqon va xizmatchilar ustidan zug‘um o‘tkazishar, ularni tahqirlashar edi. Ularga nisbatan adolatsiz munosabatda bo‘lar edilar. Qisqa qilib aytganda shu davrdan boshlab ikki tabaqa o‘rtasida ayovsiz kurashlar bo‘lib o‘tadi. Bu vaziyatni kuzatib, guvohi bo‘lib turgan xalq esa o‘zlarining turmush tarzi aks etgan ertaklar yaratib, ularni hikoya qilib bera boshlashadi. Mazkur ertaklarda oddiy xalq o‘zlarining orzu-istaklarini, ularni ezib kelayotgan zodagonlar ustidan o‘zlarining adolatli g‘alabalarini aks ettirgan. Albatta bu g‘alaba qanday yo‘l bilan qo‘lga kiritilganini qayd etishni ham unutishmagan.

Yapon ertaklarining mavzu doirasiga ko‘ra bir qancha turlari mavjud. Ularning eng mashxur, xalq sevib tinglaydiganlari sirasiga biz quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- 1) mukashibanashi (uzoq o‘tmish haqidagi ertaklar)
- 2) namidabanashi (qayg‘uli ertaklar)
- 3) obakebanashi(arvohlar haqidagi ertaklar)
- 4) ongaeshibanashi (mehr-shavqat to‘g‘risidagi ertaklar)
- 5) Varaibanashi (kulguli yumoristik ruhdagi ertaklar)
- 6) Yokubaribanashi (ochko‘zlik haqidagi ertaklar)
- 7) Tonchibanashi (topqirlik, zukkolik haqidagi ertaklar) ¹²

Tonchibanashi (ayyorlik va zukkolik to‘g‘risidagi ertaklar) ertaklari boshqa mavzudagi ertaklardan qiziqarli ekanligi va kutilmagan hodisalarga boyligi bilan farq qiladi. Bu turdagi ertaklarda hajm ancha qisqa, obrazlar ko‘lami esa yetarlicha tor bo‘ladi. Tonchibanashi ertaklarida obrazlar 3-4 ta obrazdan oshmaydi. Ba’zilarida esa ikkita obraz orqali voqealar rivoji aks ettiriladi. Bular bosh qahramon va uning antagonisti hisoblanadi. Bosh qahramon bu oddiy dehqon, hunarmand yoki xizmatkor bo‘lsa, uning antagonisti zodagon, boy feodal, bosh ruhoniy, samurai jangchi bo‘ladi. Birinchi toifa shubhasiz zaif, lekin topqir va uddaburon. Ikkinchi toifa esa butunlay ularning aksi, ya’ni

¹² Maer, Fanny Hagin. “Ancient Tales in Modern Japan : An Anthology of Japanese Folk Tales”. Bloomington : Indiana University Press, 1985. [9-10b]

kuch-qudratli, biroq bu kuch-qudrat ularning aqlida emas. Ikkinchi toifa odamlari boy va qudratli bo‘lishiga qaramay, nodon va kaltafahm qilib tasvirlangan. Ular o‘rtasidagi jang nihoyasida albatta topqir va dono bo‘lgan oddiy xalq obrazi g‘alaba qozonadi. Bu g‘alabaga esa ular qandaydir g‘oyibdan keladigan yordam bilan emas, balki o‘z aql zakovatlari, halolliklari bilan erishadilar. Tonchibanashi ertaklari imkon qadar real hayotga asoslangan. Qahramonlari ham kundalik hayotimizda uchratishimiz mumkin bo‘lgan insonlar aksidir. Shu jihati bilan ham tonchibanashi ertaklari bolalarni tog‘riso‘zlikka, birovning haqini yemaslikka, egri yo‘ldan borgan odam baribir mag‘lubiyatga uchrashini osonroq anglab yetishiga yo‘naltirilgan.

Quyida yapon folkloridan o‘rin olgan ertakni tarjima va tahlil qilgan holda ko‘rib chiqamiz. Obrazlar qay biri salbiy va yoki qay biri ijobiy ekanligi u qadar katta ahamiyat kasb etmaydi. Negaki har ikkalasi ham o‘z maqsadlari yo‘lida kurash olib bormoqda. Muhimi ularning bu maqsadga erishish uchun tanlagan yo‘llariva erishilgan natijadir.

Misol uchun “Sehrli ot” ertagini ko‘rib chiqish mumkin.

Qadim-qadim zamonda Notohanto orolining yuqori qismidagi Hikusuna qishlog‘ida Sanuemon ismli kambag‘al dehqon yashagan ekan. Ujussasi kichik, biroq juda ham aqlli odam ekan. Uning ho‘jayini savdogar boy har gal guruch o‘rimi paytida soloqlarni oshirib haqqini urib qolar edi. Bir kuni oilasi bilan och qolgan dehqon otini sotgani bozorga boradi va: “Mening otimning ahlati oltin bo‘lib tushadi, Bu noyob ot. Buni sotib oladigan odam yo‘qmikan”- deydi. Bu gapni eshitgan savdogarlar bir-birlari bilan kim o‘zarga bahslashib, otni o‘zlaricha narhlay ketishdi. Ular orasidan hojayini chiqib otni juda qimmat narxga sotib olib ketibdi. Sanoqli kunlar o‘tib, o‘sha savdogar Sanuemonning oldiga rangi o‘zgargan holda kelibdi. “O‘sha kuni sen yolg‘on gapirgan ekansanku. Otimning ahlati oltin bo‘lib tushadi degan eding. U o‘shandan keyin bir marta ham ahlat chiqarmadiku!”-deb shikoyat qildi.

Bu gaplarni eshitib, Sanuemon kuldi. “O‘sha kuni otga nima bergan eding? Men oltin berardim. Unga yemish va sabzi berib oltin kutish xato”- deb javob qaytardi.

Bunday javobni eshitib ho‘jayini indamasdan ortiga qaytib ketishdan boshqa chora qolmadi.¹³

¹³ “Japanese fairy tales”. Japan Guide. Archived from the original on July 29, 2012. Retrieved August 14, 2012.[34b]

Yuqorida ko‘rib chiqilgan ertakda guvohi bo‘lamizki zukkolik va topqirlik, nodonlik ustidan haqli g‘alaba qozondi. Bosh qahramon hisoblanga Sanuemon kuchsiz, oddiy dehqon obrazi bo‘lib tasvirlangan, lekin u zukko va topqir. Uning antagonisti esa buning butunlay aksi boy, qudratli, biroq nafsining quliga aylangan ochko‘z. U shuncha boylik topgan-u aql topmagan nodon obrazida tasvirlangan. Ular o‘rtasida kechgan yashirin jangda oddiy dehqon g‘oyibdan kelgan ilohiy kuch yordamida emas, balki o‘z aql-zakovati bilan g‘alaba qozonadi. Bu ertakda dehqonning ayyorligini biz salbiy ma‘noda tushunishimiz kerak emas. Bizning ongimizda ayyor deganda ko‘pincha salbiy tushuncha yuzaga chiqadi. Aslini olganda “Sehri ot” ertagidan ijobiy yoki salbiy obraz kim ekanligi u qadar katta ahamiyatga ega emas. Ertak tahlilida eng e‘tiborli jihati ularning qay biri g‘alabaga erishganligidir. Ularning har ikkalasining ham maqsadlari bir: u ham bo‘lsa boy bo‘lish. Bu maqsad yo‘lida esa albatta zukko va topqir qahramon g‘alaba qozonadi. Yana bir ahamiyatli jihati bu ikki obraz o‘z navbatida hamma davrda uchrovchi insonlarni gavdalantirganligidadir. Bu ertakning xulosasi pand - nasihat ruhida desak xato bo‘lmaydi. Ertakdagi voqeadan o‘quvchi, boshqalarning haqqiga xiyonat qilish, ularni aldash yaxshi odat emasligini, aqlsiz kimsalar esa o‘z nodonliklari tufayli doimo pand yeyishlari mumkinligini tushunib yetishlari uchun yaratilgan deb xulosa chiqarsak mubolag‘a bo‘lmasa kerak. Umuman barcha yapon ertaklari insonlarni tarbiyalashga, hayotni anglashga, ularni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirishga mo‘ljallangandir.

Yapon ertaklarida yana bir yashirin vosita borki, bu bosh qahramonni g‘alabaga olib boruvchi aqlidan faqat yaxshi maqsaddagina foydalanishidir. Bu orqali o‘sib kelayotgan avlodning qalbiga ruhiga yaxshilik urug‘ini qadash va yillar o‘tgach shu urug‘ning mevasini korish orzu umidi yotadi.

Adabiyotlar:

1. O.Safarov. “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” Toshkent 2010 [26b]
2. A.B.Mitford “Tales of old Japan: folklore, fairy tales, ghost stories and legend of samurai” [5-6b]
3. 岡本太郎. 日本の伝統 / 太郎岡本. 東京 : 光文社, 1999. – [235b]
4. Maer, Fanny Hagin. “Ancient Tales in Modern Japan : An Anthology of Japanese Folk Tales”. Bloomington : Indiana University Press, 1985. [9-10b]

5. "Japanese fairy tales". Japan Guide. Archived from the original on July 29, 2012. Retrieved August 14, 2012.[34b]

INGLIZ MAQOL VA MATALLARINING TARJIMADA AKS ETISHI

Otaboeva Mohira Axmadovna

*O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va fol'klori instituti,
tayanch doktorant*

Toshkent, O'zbekiston Respublikasi

Annotasiya: Maqolada ingliz xalq maqollarining adabiyotda qo'llanishi (L.Kerroll asarlari misolida) va uning tarjimada aks ettishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: folklor, maqol, tarjima, Viktorian davri adabiyoti, obraz.

Аннотация: В статье рассматривается использование английских народных пословиц в литературе (на примере произведений Л. Керролла) и их отражение в переводе.

Ключевые слова: фольклор, пословицы, переводы, викторианская литература, образность

Abstract: The article discusses the use of English folk proverbs in literature (on the example of the works of L. Carroll) and their reflection in translation.

Key words: folklore, proverbs, translations, Victorian literature, imagery.

Maqol va matallarni o'z tilida «qayta yaratish», ya'ni o'g'irish badiiy tarjima jarayonida tarjimon yechishi lozim bo'lgan asosiy masalalardan sanaladi. Xalq og'zaki ijodining bu janrlari ayniqsa asar kontekstida kelsa, uni to'g'ri o'g'irish tarjimondan muallif mansub xalqning fol'kloridan boxabarlikni ham talab qiladi. Zero, maqol, matallar har bir millatning asrlar osha sayqallangan, to'plangan donishmandligi va uning milliy o'ziga xosligini ko'rsatuvchi bebaho xazinasidir.

Bizning tarjimashunoslikda mazkur masala anchadan buyon o'rganilib kelinadi. Biroq Angliya fol'klarining badiiy adabiyotda aks etgan bunday namunalarini o'g'irishda yuzaga keladigan masalalar haqida tahlil qiluvchi manbalar yetarli deb bo'lmaydi. Zero, dunyo klassiklaridan e'tirof etiluvchi talay ingliz adiblari ijodini, asarlari negizida o'sha xalq fol'klori yotadi.

Angliya adabiyotida shunday davr mavjudki, unda fol'klorning adabiyotga bevosita va bilvosita ta'siri ayniqsa yuqori bo'lgan. Viktorian davri, deb nomlangan bu adabiy muhitda angliyalik ijodkorlar asarlarida mamlakat bo'ylab hukm surayotgan sanoatlashish jarayonining insonlarning moddiy va ma'naviy dunyosida aks etishiga urg'u berishadi. Shubhasiz, bu paytda Ch.Dikens, J. Bronte, E.Gaskell, J.Eliot singari zabardast adiblar romantizmdan uzoqlashib, tanqidiy-realizmda ijod qilishar, endi ular inson botinidagi qarama-qarshilik, ruhiy evrilishlarga, satiraning achchiq kulgisi ortida maishiy turmushdan ezilgan insonning ma'naviy fojeasini ko'rsatishardi[1, 333 b]. Biroq ayni pallada yana L.Kerroll, E.Lir, V.Tekkerey singari adiblar ham ijod qilishardiki, ularning asarlari ingliz fol'kloridan bevosita va bilvosita «suv ichar»di. Shu jihat, ya'ni Lyuis Kerroll ertaklarining fol'klor bilan mushtarakligi tarjimonlar oldiga ularni o'g'irishda bir qator masalalarni ham ko'ndalang qo'yardi.

«Alisa Mo'jizalar mamlakatida» va «Alisa Ko'zguortio'lkasida» ertaklarida Kerroll xalq ijodidan keng foydalangan», deb yozadi adib asarlarini rus tiliga o'g'irgan tarjimon va Kerroll hamda Viktorian davri adabiy muhitining tadqiqotchisi N.Demurova. «U fol'klor an'anasiga asoslanib, o'ziga xos obrazlar va vaziyatlar yaratadiki, ular aslo fol'klorning shunchaki takrori yoki undagi stereotiplarning ko'paytirish emas. An'anaviy, asrlar davomida sinalgan, sayqallangan fol'klor va, bir tomondan individual, kutilmagan, oldindan aytib bo'lmaydigan yozuvchi uslubining bunday mutanosib uyg'unligi – shular Kerroll ertaklariga joziba bag'ishlagan. Bu ertak matnida butun bo'y basti bilan seziladi»[2, 159 b]. Demak, Kerroll ertaklarini o'g'irish tarjimonidan nafaqat tilga doir bilim va yozuvchi ijodiy laboratoriyasi bilan tanish bo'lishdan tashqari, Angliya folkloridan boxabarlikni ham taqozo etadi.

Lyuis Kerroll ikkala mashhur ertaklarida fol'klordan imkon qadar foydalanganini, ta'kidlab o'tdik. Adib xalq ertaklariga xos motivlar: voqealarning tushda bo'lishi, bo'y-bastning biror yegulik, ichimlik ta'sirida o'zgarishidan tortib fol'klorga xos obrazlar (Humpty-Dumpty, Cheshire Cat, Hatter, March Hare, Unicorn, Lion), xalq qo'shiq, maqol va matallariga murojaat qilgan.

Birgina maqol va matallarni oladigan bo'lsak, Kerroll ertaklarida ulardan ikki usulda foydalangan. Birinchisi, maqolni to'g'ridan-to'g'ri o'zini keltirgan bo'lsa, ikkinchisida xalq maqol yoki matallaridagi personajlarni asarga kiritgan.

Kerroll maqol va matallardan to'g'ridan-to'g'ri foydalanganda, ularni personajlar nutqiga singdirib yuborgan. Bu esa, e'tibor berilmasa, dialog ichida maqollikini ham sezilmasligiga sabab bo'ladi. Masalan, «Alisa Mo'jizalar mamlakatida» ertagining sakkizinchi bobida Qirol qo'lini o'pishni istamagan Cheshir Mushugining bu ishidan norozi bo'lib, uning o'qrayib qarashiga e'tiroz bildirganida Alisa «A cat may look at the King» (Mushuk Qirolga qarashi mumkin)[3, 62 b] deydi. Bir qarashda bu oddiy e'tirozdek tuyuladi, biroq Qirolga e'tiroz bildirishga Alisaning haqi yo'qligini inobatga olsak, u aytgan gap aslida e'tiroz emas, balki do'stini hayotini saqlab qolish uchun aytilgan maqol ekani oydinlashadi. Maqol esa «hatto past tabaqadagilarning ham o'z huquqlari bor», «barcha tirik jonzotlar teng» degan ma'nolarni anglatadi. Uning tarjimasiga keladigan bo'lsak, asarni o'g'irgan ikki tarjimon (Sh.Dolimov va M.Otaboeva) ham so'zma-so'z o'g'irgan. Bu tarjimashunos A.Fedorov keltirgan maqol va matallarni o'g'irishning birinchi usuliga, ya'ni maqol va matallarni tarkibidagi so'zlarning moddiy ma'nosini aynan saqlagan holda — aniq o'g'irishga mos tushadi. Olim bundan tashqari yana ikki usul: maqolning aynan moddiy mazmunini va shaklini birmuncha o'zgartirish yoki asl nusxadagi maqol, matallarni asar tarjima qilinayotgan tildagi mavjud muqobili bilan almashtirish orqali tarjima qilishni ham taklif qilgan[4, 171 b]. Bu maqolga ekvivalent sifatida ma'no jihatdan «Hamma odam - bir odam, Hamma maxluq - bir maxluq», «Chumchuq ham o'z toshicha botmon» kabi maqollarimizni keltirish mumkin. Darhaqiqat, ular mazmun jihatdan to'g'ri keladi, lekin matn konteksiga bog'liqligini, ya'ni Kerroll bu maqolni unda mushuk va Qirol haqida gap ketgani uchun ham foydalanib, bu bilan o'ziga xos so'z o'yini qilganini unutmashlik kerak. Mazkur holatlar haqida olim M.Morozov «maqol uchun asos bo'lgan so'z tarjima qilinayotgan asar konteksti bilan bog'langan bo'lsa, u so'zma-so'z tarjima qilinishi lozim»ligini [5, 35 b] uqtirgan.

«Ingliz tilidagi maqol va matallarni boshqa tillarga tarjima qilish juda qiyin. Ularning aksariyati ma'lum bir nutq uslubiga mansub yorqin va hissiy jihatdan boy iboralar bo'lib, ular aniq milliy xarakterga ega»deya etirof etgandi rus tadqiqotchisi Ye.S. Leushkina o'zining ingliz maqollarini rus tiliga o'g'irish borasidagi maqolasida. Ingliz maqollaridagi ana shu hissiy xususiyatlarni Kerroll o'z ertaklari personajlariga ko'chirgan va bu uning folklorning mazkur janridan foydalangan ikkinchi usuli bo'lgan. Ya'ni ertaklardagi ayrim obrazlar xalq maqollaridan olingan, ahamiyatli jihati esa yozuvchi personajlar

xarakter xususiyatlari ham aynan maqollarda ifoda etilganidek bergan. Albatta, «har bir xalq maqoli, matali va idiomasida, asosan o‘sha xalq yashayotgan tabiiy sharoit uchun muvofiq va tipik bo‘lgan hayvon yoki parrandalarning nomlari asos bo‘lib keladi»[6,]. Masalan, «Alisa Mo‘jizalar mamlakatida»ertagidagi Mart Quyoni (March Hare) obrazi bor. Uning telbanamo so‘zlari va fe‘lini tushunish uchun inglizlarning «Mart Quyonidek ahmoq» maqolidan boxabar bo‘lish kerak. Bizda quyon obrazi qo‘rqoqlik, ehtiyotkorlik ramzi sifatida qo‘llanilsa, britaniyaliklar nima qilayotganini tushunmayotgan, mantiqsiz gapirayotgan insonlarga nisbatan ishlatishadi. Sababi esa quyonlarning organizmidagi o‘zgarishlar sabab ular ko‘klamning ilk oyi martda telbataskari harakatlar qilishi bilan bog‘lashadi. Asarning «Ahmoqona choyxo‘rlik» bobida uni Sh.Dolimov «Mart Quyoni», M.Zohidova esa «Ovsar Quyon»[7, 12 b] tarzida o‘g‘irgan. Markur ikki tarjima ham personaj xarakterini ifodalaydi, biroq Mart Quyoni deya o‘girilishi bevosita ingliz xalqi iborasi bilan bog‘liqligi bois milliy koloritni saqlash uchun qo‘l kelgan.

O‘sha ertakdagi yana bir obraz Cheshir Mushugi ham o‘rta asrlarda angliyaliklar qo‘llagan «Cheshir mushugidek tabassum qiladi»maqolidan olingan. Bu ibora og‘zi qulog‘iga yetgudek tabassum qiluvchilarga nisbatan qo‘llangan, uning kelib chiqishini esa adib tug‘ilgan Cheshir grafligi bilan bog‘lashadi. ertakdagi chig‘anoqlar bilan bog‘liq epizodni ham kerrollshunoslar «chig‘anoqdek kaltabin» maqoli sabab yaratilgan degan taxmini ilgari surishadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, yozuvchi xalq maqol va matallaridan qanday usulda foydalanganidan qat’i nazar, Britaniya folklorini dunyoga yoyishga, umrini uzaytirishga beqiyos hissa qo‘shgan. Zero, har bir yozuvchi, avvalo o‘z xalqining farzandi, uning ijodining ildizi shu millat folkloriga borib taqaladi.

Adabiyotlar:

1. Бернштейн И. и др. “История всемирной литературы” (Том седмой). М.:Наука, 1990.
2. Демурова Н. “Люис Кэрролл. Очерк жизни и творчества”. М.:Наука, 1979.
3. ЛюисКэрролл.АлисаМўжизаларюртида. Ш.Долимовтаржимаси. Арт Натион, 2021.
4. Федоров А.В. “Введение в теорию перевода” (Лингвистические проблемы). М.: Изд-во лит. на иностр. яз, 1953.

5. Морозов М.М. “Пособие по переводу русской художественной прозы на английский язык”. М.: Изд-во лит. на иностр. яз., 1956.
6. Саломов Ф. “Тил ва таржима”. Т.: Фан, 1966.
7. Люис Кэрролл. Алиса мўжизалармамлакатида. М. Зоҳидова тар. – Тошкент: Янги асравлоди, 2016.

**SIYOVUSH KASROIY IJODIDA “ORASH KAMONGIR”
OBRAZI TALQINI**

Yusupova Dinora Akmalovna
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti
o‘qituvchisi
Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi

Annotasiya: Mazkur maqolada qadimiy afsonalarning zamonaviy adabiyotda aks etishiga doir qarashlar eronlik shoir Siyovush Kasroi ijodi misolida tahlil etiladi. Shuningdek, konkret afsonaviy obrazlarning qiyosiy tadqiqi asosida an’ana va novatorlik masalasi yoritiladi.

Аннотация: В данной статье анализируется отражение древнеперсидских мифов и притчей в современной литературе на примере персидского поэта Сиявуша Касрои так же освещаются вопросы соприкосаний традиции и новаторства на примере конкретных мифологических образов

Annotation: This paper analyzes the reflection of ancient Persian myths and parables in contemporary literature on the example of the Persian poet Siyawush Kasroi also highlights issues Touching tradition and innovation applied to specific images gical.

Xalq tafakkuri va ijodining mahsuli bo‘lgan afsona va miflar asosan konkret tarixiy sharoit va voqealardan kelib chiqqan bo‘lib, ularda hayot mashaqqatlari va xalq orzulari aks etadi.

Eron adabiy tanqidchiligida afsonalarning janr xususiyatlari, afsonaviy qahramonlar va ularning zamonaviy adabiyotda qo‘llanilishi kabi masalalarga alohida etibor berib kelingan. Jumladan, eronlik tadqiqotchi Hasanpur Oloshtiy bu xususda quyidaicha fikr bildiradi: “Afsonalar zamonaviy she’rning mazmun - mohiyatini hamda tilini muvozanatda ushlab turuvchi asosiy unsurlardan biri hisoblanadi. Afsonalar garchi qadimgi dunyoga taalluqli bo‘lib, insonlar tasavvurida o‘sha davrni gavdalantirgan. Shuningdek, yangi davr va intellegentlar

asrida bugungi kun insonlari aql – zakovatida ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan”¹⁴. Darhaqiqat, afsonalar faqat o‘tmishga xos adabiy hodisa emas. Turli davrlarda, shuningdek, zamonaviy adabiyotga mansub asarlarda ham mashhur afsonalar motiivlarining aynan o‘zgartirilmasdan kelishi yoki transformasiyaga uchragan holda qo‘llanilishi uchraydi. Ba‘zan qadimgi afsonalar syujetlarining mantiqiy davomini yangi davrda yuzaga kelgan asarlarda ko‘ramiz. Shuningdek, so‘nggi yillarda yaratilgan modern ruhdagi ko‘pgina she‘riy va nasriy asarlarni tushunish mavjud afsonalar haqidagi bilimga ega bo‘lishni talab qiladi.

Zamonaviy adabiy asarlarda afsonaviy qahramonlar talqini qadimiy davr adabiy asarlariga qaraganda ko‘p qirralidir. Quyida ulardan ayrimlariga to‘xtalamiz.

1. Qadimiy afsonalarni hech o‘zgartirishsiz qayta yaratish.

Shoir qadimiy afsonalarda tasvirlangan voqelik bilan yangi davr voqeligi o‘rtasidagi o‘xshashliklar asosida ma‘lum bir afsona syujetidan hech bir o‘zgartirishsiz foydalanadi. Darhaqiqat, bu turdagi afsonalarning davomiyligi siri hozirgi asrda ularning shu davrning ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan bog‘liqlik qudratidir. Misol tariqasida Siyovush Kasroiyning “Orash-ye kamongir” she‘riy dostonida keltirgan afsonalarni ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin.

2. Qadimgi afsonalarga o‘zgartirish kiritgan holda qayta yaratish.

Bu holatda agar afsonalar yuzaga kelish holatlari bilan farq qilsa va ularni qayta yaratishning imkoni bo‘lmasa, unda shoir afsonalarni hozirgi sharoit bilan moslashtirish uchun bu afsonalarga o‘zgartirish kiritadi. Zero, “Afsonalar har zamonda o‘zining alohida shaklida, o‘rniga va tatbiq etish xususiyatiga ega bo‘lgan. Vaqt davomida, geografik chegaralarda va turli insonlar orasida o‘zgartirish mumkin va yangi ma‘noni aks ettiradi”. Doktor Xonlarining Simurg‘ davrning ekzistensializm g‘oyalari ta‘sirida noiloj asotirlar ham shu g‘oyaning “jozibaliligi”ni o‘ziga qamrab olgan¹⁵.

3. Tarixiy shaxslarni “afsonaviylashtirish”.

Afsonalar doim ham yangi jamiyat tafakkuri bilan moslashish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi, o‘rni bilan o‘z joyini yangi afsonalarga

¹⁴ ادبیات پژوهش، شماره 9، پاییز 1388، مقاله حسین حسن پور آلاشتی، مراد اسماعیلی. "تحلیل اسطوره ها در اشعار سیاوش کسرای". ص 90

¹⁵ حسین حسن پور آلاشتی، آمانحانی. 1385 ص 1

bo'shatib beradi. Bu yo'nalishdagi afsonalar ko'pincha tarixiy siymolardan afsonaviy obrazlarni yaratish bilan xarakterlanadi hamda ko'proq siyosiy xarakterdagi asar namunalari sifatida yuzaga keladi¹⁶.

Siyovush Kasroiy ham davr talablarini inobatga olib, ehtiyotkorlik bilan qadimiy afsonalardan va tarixiy siymolardan foydalangan holda yangi afsonalar yaratishi uning she'rlariga o'ziga xos badiiy barkamollik baxsh etgan. U o'zining ideologik va siyosiy qarashlarini ifodalashda afsonalardan mohirona foydalanadi. U hatto tarixiy siymolar taqdiri haqida afsonalar yaratib, ularga afsonaviy ko'rinish bergan. Fikrimiz isboti sifatida shoirning "Orash-ye Kamongir", "Jahon Pahlavon", "Anduh-e Semurg" va "Mo'hr-e so'rx" epik dostonlarida turli afsonaviy va tarixiy obrazlardan foydalanganini aytib o'tish mumkin.

Orash obrazi. Orash kamonchi Eronning qadimgi afsonaviy qahramonlaridan birining nomi. Arash Tabaristonlik bo'lib, Manuchehrning sipohiylaridan edi. U Eron va Turon urushidan so'ng Eronlik kamonchi sifatida namoyon bo'ldi, Eron va Turon chegarasi belgilandi. Orash kamongir dostonining sharxi "Shohnoma"da keltirilmagan. Ammo u yerda uning nomi keltirilib, dostonida ma'lum bir ishoralar keltirib o'tilgan.

Pahlaviy davridagi, shuningdek islom davridagi tarixiy kitoblarda Orashga ishora qilinadi. Abu Rayhon Beruniy o'zining "Kitob ul-boqiy" asarida "Tirgon bayrami"¹⁷ga tasnif berish chog'ida Orash dostonini aytib o'tadi va bu bayramning kelib chiqishini Orash eposi bilan bog'laydi.

Avestoda Orashni "Orahsh" tarzida uchratishimiz mumkin. Avestoda aytib o'tilgan eng yaxshi kamonchi "Orahsh" biz so'z yuritayotgan Orashga qiyoslanadi. Orash obrazi Dehxudo asarida ham keltirib o'tilgan. Unda Orash Manuchehr lashkarlari orasidagi pahlavon kamonchining ismi. Manuchehr o'z hukmronligining so'nggi yillarida Turon hukmdori Afrosiyob bilan jang qiladi. Dastlab Afrosiyob g'alaba qozonadi va Manuchehr Mozandaronga qochadi.

Siyovush Kasroiy ham Orash obrazidan foydalangan holda "Orash-ye kamongir" ("Orash kamonchi") epik dostonini yozadi. Uning Orash afsonaviy obrazini qayta yaratishiga quyidagi ikki omilni sabab qilib ko'rsatish mumkin:

¹⁶اسماعیل پور 1388 ص 173

¹⁷O'rta Eron asrida o'tkazilgan bayram nomi. (Eron shamsiy yilining 4-oyiga to'g'ri keladi. Bizda 21-22-iyun – 21-22-iyul)

1. Siyovush Kasroiylar Eronning kelajagidan umidvor shoirlardan bo'lgan. Vaholanki, noumidlik va tushkunlik shoir yashagan davrda barcha eronliklar qalbini egallab olgan bo'lib, juda kamsonli aholi Eronning kelajagidan umid qilardi va ishonardi. Shoirning afsonaviy lirik qahramoni Orash haqidagi afsona Eron jamiyatida umidsizlik va tushkunlik hukmronlik qilgan qadimgi zamonlarda paydo bo'ldi. Eronning barcha qahramonlari Afrosiyob bilan bo'lgan jangda chorasiz ahvolda uning qo'shini saflarida xizmat qiladi. Orash kamonni o'qlagan holda namoyon bo'ladi. U eronliklar orasida umidvorlik, hayajon va qalblarida tug'yon uyg'otadi. Kasroiylar ham Orash Kamongirning umidbaxshlik va ruhiy unsurlarini inobatga olgan holda eronliklar orasida bu afsonani o'z ishining asosi sifatida kiritadi va Orash kamongir dostonini shu asosda yozadi. Doktor Xonlariy bu haqda shunday yozadi: "Noumidlik va o'limni madh etgan aksariyat shoir va yozuvchilardan farqli o'laroq, bu she'rda hayotdagi umidvorlik, qalb tug'yoni, muhabbat, yelib – yugurish hukmronlik qiladi".

2. Shubhasiz, Kasroiylar bu afsonani qayta yaratishdan asosiy maqsadlaridan biri jamiyat hayotini, uning ustidan hukmronlik qilayotgan umidsizlikni tanqid qiladi.

Ta'kidlash joizki, ko'p tanqidchilar bu she'rni millatga umid bag'ishlaydigan va ruhiy quvvat beradigan she'r deb baholaydilar. Zero, mamlakatdagi milliy harakatlardan so'ng odamlar umidsizlikka va tushkunlikka tushib qolgan edilar. Orash kamonchi esa umidbaxsh etuvchi va ruhiy quvvat bag'ishlovchi hislatlarga ega bo'lgan.

Kasroiylar zamonasida ro'y berayotgan vaziyatlarga e'tibor qaratgan holda mazkur afsonani qayta yaratishga qo'l uradi. Eron jamiyatida yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat shoirni o'tgan kunlarga chorlaydi va shoirni mazkur mazmundagi she'rni yozishga undaydi. Zero, Eron jamiyati bir vaqtlar o'zgalar ustidan hukmronlik qilgan. Kasroiylar shu vaziyatlarni hisobga olgan holda kuylaydi:

فصل ها فصل زمستان شد
صحنه گلگشت ها گم شد نشستن در شبستان شد
در شبستان های خاموشی
می تراوید از گل اندیشه ها عطر فراموشی
سنگر آزادگان خاموش
خیمه گاه دشمنان پر جوش
مرزهای ملک
همچو سر حدات دامنگستر اندیشه بی سامان
برجهای شهر

همچو باروهای دل بشکسته و ویران
دشمنان بگذشته از سر حد و از بارو

Mazmuni:

*Fasllar qishga aylandi,
Sayr maydonlari g'oyib bo'ldi,
Indamas tun oqshomlarida
Guldan taralar fikrlar atri.
Qo'rqinchli edi va o'limning boli.
Zodagonlar istehkomi sokin,
Dushman qarorgohi esa gurkiragan.*

Shundan ko'rinadiki, Siyovush Kasroiy Orash kamongir dostonini kuylash bilan Orashning orzusi o'z yurtidagi aholining tirgagi va tayanch manbai bo'la olish hamda umidsizlik va tushkunlikka giriftor bo'lgan, unga umid va ilinj ko'zi bilan boqayotgan odamlarni ozod etish va mavjud vaziyatni tanqid ostiga olish, shu yo'l bilan mamlakat ustidan tashqi kuchlarning hukmronligi va ularning ta'sir kuchini tugatish ekanligini ko'rsatib beradi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, bu she'rda tasvirlangan Orash obrazi qadimda tilga olingan Orash timsoli kabi yurtiga va vatandoshlariga najot baxsh etish uchun o'z jonini fido qiladi. Ijodkor Orashning tilidan shunday deydi:

در این میدان
در این پیکر هستی سوز بی آسمان
پری از ببايد تا فرو ننشیند از پرواز

Mazmuni:

*Bu jang maydonida,
Bujangdahayotqurol-yarog'sizo'tichida,
Qulab tushmasliging uchun joning bilan uchishing kerak
Va yana shunday deydi:*

شامگاهان
راه جویانی که می جستند آرش را به روی قله ها پی گیر
باز گردیدند
بی نشان از پیکر آرش
با کمان و ترکشی بی تیر
آری آری جان خود در تیر کرد آرش
کار صد ها صد هزاران تیغه شمشیر کرد آرش

Mazmuni:

*Kechki tomon,
Orashni izladilar qal'alardan, ketma-ket,*

*Qidirdilar,
Orashdan hech darak yo‘q,
Ha,ha, Orash o‘ziga kamondan o‘q uzdi.
Yuzlab, yuzminglab ishi shamshir uchini o‘ziga tiqdi.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek adabiyoti tarixi. 1978.
2. Hamidjon Homidiy. “Firdavsiy va O‘zbek adabiyoti”. Toshkent, 2012.
3. Abulqosim Firdavsiy. “Shohnoma” (Saylanma) Toshkent, 2012.
4. “Bahrom va Gulandom” Sayqaliy. T.: 1960
5. ادبيات پژوهش، شماره 9، پاییز 1388، مقاله حسین حسن پور آلاشتی، مراد اسماعیلی. "تحليل اسطوره ها در اشعار سیاوش کسرایی"
6. سیاوش کسرایی، 1383

IKKINCHI KENGASH. FOLKLOR ASARLARINING O‘ZARO TA‘SIRI VA TIPOLOGIYASI MASALALARI

ФИЛОСОФСКАЯ ЛИРИКА И ПЕЙЗАЖНЫЕ МИНИАТЮРЫ ПАК МОГ ВОЛЯ

Алиева Дильдора Ботировна

*Ташкентский государственный университет востоковедения,
преподаватель-стажёр*

Ташкент, Республика Узбекистан

Аннотация: В данной статье рассматривается творчество известного представителя поэтической школы «Голубой Олень» Пак Мог Воля. Поэтические образы Пак Мог Воля имеют тесное взаимодействие с национальным фольклором, но в то же время понятны для современного человека. В ходе анализа известных произведений, необходимо отметить, что поэт часто затрагивает в своих стихотворениях тему бытия и смысла жизни, одновременно используя религиозные символы в сочетании с описаниями природы, используя народную символику, метафоры, сравнения.

Abstract: This article examines the work of the famous representative of the "Blue Deer" poetry school Pak Mog Vol. The poetic images of Pak Mog Volya have close interaction with national folklore, but at the same time are understandable for a modern person. In the course of analyzing famous works, it should be noted that the poet often touches on the theme of being and the meaning of life in his poems, while simultaneously using religious symbols in combination with descriptions of nature, using folk symbolism, metaphors, comparisons.

Annotatsiya: Mazkur maqolada biz she'riyatning taniqli vakili Pak Mog Volning "Moviy Kiyik" asarini ko'rib chiqdik. Pak Mog Volning she'rlaridagi badiiy obrazlar milliy folklor bilan bog'langan, ammo ular hozirgi kunda yashayotgan kishilar uchun ham tushunarli. Mashhur asarlarini tahlil qilish jarayonida shoirning xalq ramzlari, kinoya, o'xshatishlar bilan birga diniy ramzlarni tabiat tasvirlari bilan birgalikda hayot mazmuni va maishiy hayotni tasvirlaydi

Ключевые слова: «Голубой Олень», национальная культура, новая тенденция, поэзия «канхо», традиции, новаторство.

Key words: “Blue Deer”, national culture, new trend, “kanho” poetry, traditions, innovation.

Пак Мог Вольявляется одним из самых ярких представителей группы «Голубой Олень» («정늑»), которая была создана в 1946 году. Данная патриотическая группа посвятила свое творчество отображению красот родной природы, памятников и предметов национальной культуры, знаменитых монастырей, храмов, пагод. В своей пейзажной лирике поэты группы воспевают красоту многовековых памятников, исторических мест, зелень холмов и голубизну озёр, выражая свою ностальгию по утраченной свободе и мирной жизни. Эта поэзия стала демонстрацией их гражданского мужества, стойкости и противостояния не только цензуре, но и самой идее превосходства японской культуры. Обращение поэтов «Голубого Оленя» к истокам и мотивам классической поэзии стало свидетельством особого внимания к историко-культурной, литературной памяти корейского народа [2, 15с.].

Собрание произведений Пак Мог Воля определило новую тенденцию в корейской поэзии. Он стремился в своих произведениях выразить боль, смерть и даже повседневные жизненные реалии существования. В своей поэзии он не поддерживал стандартный сентиментализм и лиричность. Позднее творчество поэта пронизано оптимизмом, любовью к жизни, своей способностью усваивать предлагаемые жизненные реалии. Поэтические образы Пак Мог Воля имеют тесное взаимодействие с национальным фольклором, но в то же время понятны для современного человека. Есть одна общая черта, которая объединяет творческое наследие великого поэта, – это стремление к переменам, которые не всегда бывают позитивными, а иногда сопровождаются выходом из зоны комфорта, и Пак Мог Воль осознавая это, понимает какие трудности его ждут впереди, но он готов встретить их достойно, проявить холоднокровие при встрече с неизвестностью [3, 67с.]. Наиболее ярко это прослеживается в его стихотворениях «Путник» («나그네») и «Цветок тыквы» («박꽃»).

*«Белый подол платья
В исчезающий ветер
На соломенной крыше
Развивается.
Бедная жизнь*

*Надоедливо шепчет:
Девушка с цветком тыквы,
Девушка с цветком тыквы,
Давай же, в этот короткий вечер
Безмолвно рыдать».
(«Цветок тыквы»).*

Пак Мог Воля в данном стихотворении описывает повседневную жизнь корейского народа. Образ белого платья олицетворяет чистоту и целомудренность девушки. Вечер и ветер передают временность данного положения, что бедность будет не всегда и это переходящее явление. Образ цветка тыквы в литературе обычно является символом изобилия. В данном стихотворении это может означать достаток и процветание народа в будущем. Мы можем предположить, что оно написано в более поздний период творчества Пак Мог Воля. Это произведение является отражением надежды корейского народа на светлое будущее, которое должно наступить после окончания войны.

Широко известно высказывание китайского поэта Су Ши о своем предшественнике, художнике и поэте Ван Вэ: «В его стихах – картины, в его живописи – поэзия»[1, 9с.]. Это изречение можно отнести и к творчеству Пак Мог Воля. Незримая сила внутреннего созвучия его стихов собирает образ в единое целое, где достаточно извлечь одно звено, чтобы картина рассыпалась, перестала существовать, как, например, в его стихотворении «Путник» («나그네»).

*«Путник идет через реку,
Пшеничное поле,
Следуя за луной в облаках.
Дорога – как веревка,
В триста ли от Намдо.
В каждой деревне испив выдержанное вино,
На закате отправляется в путь странник,
Следуя за луной в облаках»[1, 14с.].*

В стихотворении поэта образ одинокого человека, напоминает образ отшельника, удаляющегося в лоно природы.

Отшельничество, как особый идеал поведения и образа жизни, всегда притягивало внимание поэтов. Идеологической основой отшельничества выступали даосизм и буддизм чаньского толка. Бегство от мира на природу становится одной из главных тем в поэзии *канхо*, в которой утвердились и свои поэтические приемы.

Так, месяц в стихотворении становится высшей точкой пространства; реки и озера – горизонтальной поверхностью пейзажа; деревья, сосны, а часто и горы выступают вертикальной осью пейзажа. Наряду с ночным пейзажем присутствуют картины вечернего заката. Картина вечернего заката в стихотворении Пак Мог Воля полна символов. Месяц, плывущий в облаках – символ вечности и неумолимого хода времени, одинокий путник – его временный спутник, составляют картину мироздания, где каждому отведен свой путь. Поэт не протестует, не пытается задержать ход времени и вернуть уходящее. Лирический герой помнит веселую юность, но не испытывает сожаления о том, что она прошла. Пак Мог Воль верит, что всё в мире преходяще, а человек – путник, который должен уйти, когда настанет его срок, повинаясь вечному закону природы.

Необходимо отметить, что Пак Мог Воль часто затрагивает в своих стихотворениях тему бытия и смысла жизни, одновременно используя религиозные символы в сочетании с описаниями природы. Так, восприятие природы поэтом можно показать на примере знаменитого стихотворения «Весенний ветер» («봄바람»).

*«Вьющаяся трава
Мягко- мягко дует
Я в ветреном лесу
Слегка дует
После того, как подул ветер
Появляется зеленый росток
Я после ветра
Порхающий абрикосовый цветок
Вьющийся ветер во дворе
Поговорим о весне
Я на ветру на пути к дому
Давайте поговорим о весне».
(«Весенний ветер»)[4, 98с.]*

Центральной темой данного стихотворения является пейзаж. В нём наиболее полно раскрывается природный дар поэта-пейзажиста, умевшего видеть то, что другие люди не замечали. Удивительная черта поэта наделять разумом и чувствами неодушевленные предметы привнесла в это произведение особую теплоту и нежность. Образность и умение улавливать даже самые незначительные нюансы позволяют Пак Мог Волю воссоздать необыкновенную в своей простоте картину, привычную для поэта, но открывающую неискушенным читателям двери в совершенно иную реальность. В пору расцвета природы мир наполнен гармонией, он совершенен и безупречен в своей красоте, когда «Появляется зеленый росток, а после ветра – порхающий абрикосовый цветок». Именно таким представляется поэту тихий весенний день. Возможно, это воспоминания поэта о том прекрасном, что было в его жизни, согревающие его душу и наполняющие любовью к родному краю. Главная идея произведения – ощущение счастья, которое дарит весна. Произведение вызывает положительные эмоции, так как в нем отсутствуют пессимистические образы.

Важно отметить, что поэтический мир Пак Мог Воля – это, прежде всего, мир образов, красок и пейзажей, наполненный деталями. Образы природы в стихотворениях Пак Мог Воля напоминают о неумолимом беге времени. В них поэт использует приёмы скрытой ассоциации, внутреннего параллелизма. Например, в стихах «Голубой Олень» («청록»), «Горный персик расцветает» бурное половодье и цветение трав – приметы обновления, новой жизни, новой любви. Выразительная, живописная деталь придаёт его поэзии неповторимые черты. В пейзажах Пак Мог Воля отсутствуют картины увядания, смерти природы, несущие печаль. Его поэзия светла и полна надежды, несмотря на то, что стихи создавались в тяжёлые годы японской оккупации.

Однако в более позднем творчестве Пак Мог Воля постепенно отходит от пейзажной лирики, с годами его размышления о жизни, о смысле бытия приводят его к мысли о неизбежности смерти, такая тема прозвучала в его стихотворении «Осенние сумерки» («가을어스름»).

*«Холодная тень опустилась
Сумерек время настало.
По дороге кривой, как утиная шея
Поздней осени ночь нарастала.
В каждом гороховом поле
Дует ветер осенний,
На заборе из синего камня
Воркует голубь вечерний.
В день сбора капусты
Ужин подали нам поздно.
На узкой преузкой дорожке
Висит кусок юбки белый
Словно исчез, но вновь появился,
Воркует голубь вечерний».
(«Осенние сумерки»)[4, 103с.]*

В стихотворении «Голубая косуля» («청노루») наиболее ярко проявилось творческое кредо Пак Мог Воля. Так, образы природы напоминают о неумолимом беге времени. Поэт использует приёмы скрытой ассоциации, внутреннего параллелизма. Выразительная, живописная деталь придаёт его поэзии неповторимые черты.

*«Храм горы Мин ЧенУн
Старый плиточный дом
Если на горе Заха
Весной растает снег
У вяза расцветут
12 новых листьев
Голубая косуля
В чистом снегу
Словно в кучерявых
Облаках».*

(«Голубая косуля»)[4, 76с.]

Косуля – это род оленей. Образ Оленя свободно живущего на земле, наслаждающегося красотой природы и следующего ее законам – олицетворение мечты поэта с гармоничным существованием человека на земле. Этот образ моделирует картину идеального, мистического мира.

Обращение поэта к природе как хранителю изначальной естественности и мудрости, было не только выражением его

мировоззренческого взгляда, но и служило для противопоставления ее современной действительности. Олень – носитель сакральной, духовной чистоты, становится центральной фигурой пейзажа. Это был своеобразный отход от традиции пейзажной лирики, которой было присуще изображение в пейзажах в основном, птиц. Чтобы не нарушать его гармоничное состояние, поэт не вводит фигуру человека. Пейзаж возникает не как статически застывшая картина, а раскрывается постепенно, по мере движения луны и оленя. В отличие от пейзажей Чо Чжи Хуна, передающих не характер местности, а отвлеченно-обобщенный образ, у Пак Мог Воля это топографически конкретный пейзаж.

Таким образом, в творчестве Пак Мог Воля органично переплетаются новое и традиционное. Поэт умело сочетает философское осмысление бытия и легкую прозрачность метафор, связанных с миром природы. Анализируя лирику поэта можно отметить, что его творческое наследие написано в жанре «свободного стиха» («자유시»). Сочетая в своих произведениях самобытность корейского народа и его традиции, он в то же время мог изобразить это в своем оригинальном стиле. Традиционность проявляется и в разработке Пак Мог Водем темы любви, которая раскрывается не в аспекте взаимоотношений влюбленных (встреча, разлука, измена и т.д.), а в выдвигании на первое место самого чувства, его значимости. Созданные им пейзажи свидетельствуют, что художнику присуще цельное восприятие мира, определяемое традиционными философскими взглядами на мироздание, цель и назначение человеческого бытия. Эта поэзия нацелена на активное противодействие идеям буржуазного индивидуализма, замкнутости, элитарности, привнесённым романтиками, символистами, модернистами, стремится повернуть развитие «новой поэзии» в русло национальной художественной традиции.

Литература:

1. Китайская пейзажная лирика. – М., 1999. – С.9.
2. Солдатова М. В., Пак К. А. Современная литература Кореи. – Владивосток: ДВГУ, 2003.
3. Тэн А.А. Очерки корейской литературы XX века (до 1945). – Сеул, 2003.
4. 한국인의애송시 3.–ChunghapublishingCo., 1986.
5. <http://korea-blog.livejournal.com>

ПИСЬМЕННАЯ ЛИТЕРАТУРА ЭПОХИ ЗОЛОТОЙ ОРДЫ, РАЗВИТАЯ В СРЕДНЕЙ АЗИИ И КАЗАХСТАНЕ

Арынова Динара Суиндиқовна
«Государственный историко-культурный
заповедник-музей «Азрет-Султан»
Научный сотрудник, магистр истории
Город Туркестан, Республика Казахстан
Байсеит Султан Ерланулы
«Государственный историко-культурный
заповедник-музей «Азрет-Султан»
Научный сотрудник, магистр религиозных наук
Город Туркестан, Республика Казахстан

Аннотация: В статье рассказывается о том, как в эпоху Золотой Орды на казахской земле и в странах Средней Азии развивалась письменная культура и пути ее распространения, развивались наука и образование, поднималась литература и культура, закладывались основы цивилизованного общества. Также рассмотрены труды восточных ученых.

Ключевые слова: Великий Шелковый путь, Золотая Орда, Восточные науки, Восток, Литература.

Abstract: In the article, it is noted that during the Golden Horde era, the written culture developed on the Kazakh land and in the countries of Central Asia, the ways of its spread, science and education were widely spread, literature and culture were raised, and the foundations of a civilized society began to be laid in this era. It also examines the works of Eastern scientists.

Key words: The Great Silk Road, The Golden Horde, Eastern sciences, the East, Literature

Annotatsiya: Maqolada oltin O'rda davrida qozoq zaminida va O'rta Osiyo mamlakatlarida yozma madaniyat va uni tarqatish yo'llari qanday rivojlangan, fan va ta'lim rivojlangan, adabiyot va madaniyat yuksalgan, taraqqiy etgan jamiyat asoslariga asos solingan. Sharq olimlarining asarlari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: bilan izlash: Buyuk Ipak yo'li, Oltin O'rda, Sharqiy fanlar, Sharq, adabiyot

Казахская степь, занимавшая огромные территории, была великой империей со времен таких империй как тюркский каганат, саки и гунны. Таким сильным духовным и политико-общественным государством стала история триумфального независимого Караханского каганата, Золотой Орды, Ак Орды, Казахского ханства на протяжении многих веков. Другие корни казахского народа уходят в четыре, пять тысяч лет за пределы летописи древних племен, населявших Центральную Азию. Он восходит к летописям, восходящим от древнетюркской эпохи к временам Золотой Орды

Развитие устной и письменной литературы в XII-XIX веках начало формировать первые представления о художественности, образности, необходимости в воспитательном значении искусства слова. Таким образом, монгольское нашествие, начавшееся в XIII веке, принесло тюркским народам, идущим по пути развития культуры и науки, искусства, образования, языка и литературы колоссальные последствия. Вместе с катастрофическими последствиями мангольской оккупации были и некоторые положительные стороны. Мангольское правительство создает условия для развития торговли и международных связей, внедряет целостную систему транспортного сообщения со всей землей. Международными, находящимися в этой далекой киянке, устанавливаются торговые и культурные связи. [1. с. 107] Также тюркские народы имеют многовековой фольклор, они не утратили свою литературу, искусство и культуру. Культурное, литературное, историческое наследие, письменные памятники, рукописи, художественные произведения, словари и переводы, летописи, созданные в период XIII-XV вв. такими видными лицами как Абу Наср Аль-Фараби, Абу Али ибн Сина, Абу Райхан Аль-Бируни, Махмут Кашкари, Жусуп Баласагуни, Ахмед Иугинеки, Ходжа Ахмед Ясави, Сулеймен Бакыргани и др. вышли на сцену истории в эпоху Возрождения. Это “Риторика” Аль-Фараби, “Об искусстве поэзии”, “Даныш-наме” ибн-Сины (“Книга знаний”), “Хикметы” Аль-Бируни (“Слова мудрости”), “Диванилукатат-Турк” Махмуда Кашкари (“Сборник тюркских слов”), “Благословенный валик” Баласагуни, “Дивани Хикмет” Ясави (“Книга разума”), “Книга Бакыргани” Бакыргани и др. Все перечисленные выше работы по-прежнему требуют глубоких исследований. Также, в эпоху Золотой Орды упоминается имя Асана Кайгы.

Государство Золотая Орда в исторической литературе называется “Кыпчакский улус”. Степень общественного и культурного развития населения Золотой Орды была неравномерной. Золотая Орда рассматривается как страна, известная только эксплуататорством, враждебностью. Но на самом деле в тот период большое внимание уделялось архитектуре и науке. В том, что литература, культура, искусство того времени были на высоком уровне, можно убедиться через исследования, исторические письменные источники.

В эту эпоху стали закладываться основы цивилизованного общества, где широко распространялись наука и образование, совершенствовалась литература и культура. Человек, читающий исторический роман-трилогию Ильяса Есенберлина “Золотая Орда”, может понять облик того времени, характер времени, ориентацию эпохи. Адаптация от кочевого образа жизни к полуоседлому образу жизни сформировала городскую культуру и воспитала степную цивилизацию. Создание таких столиц, как Сарай-Берке, Сарай-Бату, мода и роскошь которых была согласована, строительство мавзолея Джучи хана в Улытау, литературное наследие восточных стихотворцев – все это характерно для эпохи Золотой Орды. Известно, что торговым связям сопутствовало культурное процветание. Это понятно, если не говорить о Великом Шелковом пути. А господство Золотой Орды во внешней политике и торговые связи сделали города культурными центрами. Особенно в таких городах-поселках, как Сарай-Бату, Сарай-Берке, Ургениш, Хорезм, Сыганак процветала торговля и ремесла, развивались наука, культура, литература, искусство. Например, в 1357 году Махмуд Алиулы Кердери написал в столице Золотой Орды городе Сарай свою прозаическую художественную книгу «Нахжиульфарадис». Согласно данным, в литературе в эпоху Золотой Орды родились такие произведения, как «Мухаббатнаме» Хорезми, поэма поэта Кутбы «Хусрау мен Шырын», «Гулистан бит турки» Сайфа Сарайи («Тюркский Гулистан»), «Киссасуланбия» Рабгузи («рассказы о пророках»), «Кодекс Куманикус» («словарь Куманского языка») на древнем кыпчакском языке. В поэме «Хусраууа Шырын», которая является одной из литературных реликвий, написано, что помимо истинной любви, справедливость и честность побеждают порок и зло, заговор и предательство, сплетни и ложь.

Также, в одних источниках говорится: «Особое значение имеет изучение выдающегося наследия казахской литературы эпохи Золотой Орды-Кыпчака. Необходимость традиционного и художественного осмысления произведений этого периода, определившего исламско-просветительский характер письменного традиционного развития казахской литературы, очевидна. Поэтому изучение памятника Рабгузи "Кисас-ульанбийа" вытекает из современных актуальных требований литературоведения. По-новому продолжается работа по внедрению в научный оборот через фундаментальные исследовательские труды духовных ценностей в многовековой истории казахской литературы. В этой связи мы констатируем непрерывность исследований, рассматривавших выдающиеся произведения эпохи Золотой Орды с ориентацией на историческую поэтику, историю языка, методологию. В названных работах исследованы произведения этого периода, в том числе произведения в письменном памятнике Рабгузи "Кисас-ульанбийа" с разных ракурсов. Ученые-историки, журналисты рассматривают произведения этого периода в увязке с проблемами, касающимися истории тюркских народов, языковых аспектов». [Акишев А.К, Асылбеков К.М, Байпаков К.М. «История Казахстана с древнейших времен до наших дней». с. 113].

В первой половине XIV века столицы Золотой Орды Сарай обрел небывалую популярность, и стал одним из крупнейших культурных центров. Из созданных в это время художественных произведений были литературные поэмы поэта Хоруми «Мухаббат нами», сага С.Сарая «Гюльстан на тюркском языке», Сага Кутба «ХусраууаШырын» и эпос Бурбека «Жусуп - Зылика», Сага Рабгузи «Кисса - сул - Анбия».» "Кисса-сул-Анбия" была издана в октябре 1914 г., а позже в Ташкенте.

XIII-XIV вв. На кипчакском языке создано множество литературных памятников. Развивалась устная литература народа. Кыпчаки и другие тюркские племена имели свою импровизационную поэзию. В памятнике кипчакского языка сохранились такие виды устной литературы, как загадки, пословицы, поэмы обытеи обычаях народа. Широко известны имена таких талантливых жырау, как Сыпыражырау и Коданатайши, Асан Кайгы и Казтуган, воспевавших единство народа и любовь к Родине [Акишев А.К, Асылбеков К.М, Байпаков

К.М.«История Казахстана с древнейших времен до наших дней».С. 122-123 б]

Асан Кайгы настоящее имя, которого было Хасан Сабитулы (предположительно 1361-70 годы) — поэт, философ, легендарный персонаж. Был влиятельным бием Улуг-Мухаммеда, после смерти которого был приглашен ханом кочевых узбеков Абулхайром. Затем стал советником и наставником первых казахских ханов Керей и Жанибека. Предположительно именно он их вдохновил на создание нового государства.

Прозван «Асан печальный» («кайгы») из-за постоянных размышлений и раздумий. Асан мечтал о счастливом будущем для народа, страстно желая преобразовать родную степь в край изобилия и достатка, в обитель добродетели и гармонии, где будет жить счастливый миролюбивый вольный народ, которому будут служить сильные и мудрые ханы. Он получил прозвище «печальный», потому что видел, насколько реалии жизни далеки от его идеала и мечтаний о справедливом обществе.

Асан Кайгы — автор многих слов-назиданий, философских песен. В их отрывках, дошедших до наших дней, отражены исторические события той эпохи, отношение самого Асан Кайгы к происходящим событиям. Асан Кайгы считал, что «сперва надо укреплять ханскую власть и усилить оборону народа». Вместе с тем, он в открытую предлагал хану личные интересы, амбиции отставить в сторону и поставить во главу угла «долг хана перед народом». Он укорял Жанибек хана: «Не думая о будущем казахского народа, ликуешь от временных успехов». «Философ кочевого (ногай, казак, киргиз, кара калпак) народа» (по определению Шокана Уалиханова) стремился создать из родственных племен единое государство, беспокоился об укреплении казахского ханства».

Несмотря на то, что Асан Кайгы был исторической личностью, он приобрёл в народной памяти легендарные и даже сказочно-мифологические черты. Так, прозвище «кайгы» (печальный) связывалось с тем, что, выловив в Иртыше по предсказанию гадалщика дочь речного султана, предназначенную ему в жёны Асан не выполнил определённых условий, и она улетела в небо.

Наиболее популярной является легенда о поисках Асаном Кайгы обетованной земли Жер-Уюк с обильными

пастбищами и полноводными реками, мягким климатом, множеством зверей и рыбы, где люди живут без горя и нужды, вражды и угнетения. На быстрой, как ветер, верблюдице Желмая он объездил все стороны света, однако нигде не смог найти Жер-Уюк. Эта социально-утопическая легенда отражает конкретную историческую ситуацию середины XV века, когда усилившиеся после распада Золотой Орды и Белой Орды междоусобицы вызвали массовую откочёвку казахских родов и племён из Восточного Дешт-и-Кыпчака в Западное Семиречье. Асан Кайгы был советником одного из возглавивших это движение султанов — Жанибека, поэтому он вошёл в народное сознание как неутомимый искатель счастливой земли, выразитель надежд простых людей на новую жизнь. [Казахская ССР: краткая энциклопедия / Гл. ред. Р. Н. Нургалиев. С. 131.]

Место его существования соответствует периоду становления Золотой Орды и казахского народа. Основным местом в творчестве Асанкайгы являются философско-назидательные жанры: толгау, терме, ораторские слова, отражающие актуальные проблемы казахского быта. [Биекенов К. Садырова М. Толковый словарь социологии. с. 344.] Также в одном из источников Асан был одним из влиятельных биев хана Золотой Орды Улуг-Мухамеда. Когда Улуг-Мухамед был изгнан из Орды, Асан ушел вместе со своим правителем. Вскоре после смерти хана он вернулся в Дешт-и-Кипчак. В 1450-х годах во время боя в улусе Абулхайр выступал за Султанов Керея и Жанибека. Когда в 1456 году в Чуйской долине была образована Казахская Орда, Асан стал девизом нового государства. Согласно некоторым источникам Асан Кайгы умер в Сарыарке – Улытау [Кирабаев С, Найманбаев К, Базарбаев М., «Ай заман-ай, заман-ай» с. 22]

В книге «Золотая Орда» И. Есенберлина написано, что в «Орду пришел АсанКайгы" [И. Есенберлин. Золотая Орда. С. 262-266.] Аз Жанибек (год рождения 1342), правивший всей Алашским народом, хан Золотой Орды Асанжырау вместе с тем Аз Жанибеком вмешивается в решение многих вопросов. После смерти аз Жанибека Асан возвращается в Дешт-и-Кипчак. Но после того, как отделенные от Орды племена расположились в Шу, Сарысу, страна стала крепкой, а братское дружное население борется за то, чтобы быть сплоченным. Асан считал необходимым,

прежде всего, усилить ханское правительство, повысить обороноспособность страны.

Век Жанибек хана-это время, когда древние тюркоязычные народы наиболее приблизились к культуре восточных стран, особенно арабской и персидской. Вчерашние благородства кочевых стран, подобно аристократии страны-резидента, стали заниматься науками, вызванными передовыми восточными странами. Было построено много мечетей, медресе. Это медресе в мечетях, для обучения детей, для популяризации мусульманской религии кочевников. Ученые мужы из Египта, Шамы, Рима, Багдада тепеь собирались на берегах Волги, в степях Кипчаков. В этот период Дешт-и-Кипчак также отправлял своих детей на науку-образование. Народ в то время называл хана Жанибека Аз Жанибеком, то есть мудрым Жанибеком за широкое проведение политики просвещения, подражания художественному образованию, развитие не только боевой культуры, но и культуры страны и науки.

Торговля древним Шелковым путем между Западом и Востоком теперь стала не только шелком из Китая в Иран, жемчугом, кораллами, драгоценными камнями из Индии в Европу, но и драгоценными знаниями, трудами Абу Насра аль Фараби, написавшего «Шахнаму» Фердауси, «Врачебными канонами» Ибн Сины, продолжавшими врачебные науки великих ученых Востока Аль-Бируни, Али-ибн Аббаса, пришли на запад через этот Шелковый путь. А оттуда на Восток дошли философские и научные трактаты Демокрита, Сакрата, Платона, Аристотеля, Птолемея, геометрии Архимеда, Эвклида. [И.Есенберлин. Золотая Орда.С. 197] таким образом, даже в эпоху Золотой Орды Шелковый путь способствовал культурному духовному процветанию человека. Венецианский купец Марко Поло, семнадцать лет служивший в Орде Кублай хана, шел по этому Шелковому пути и достиг стран Востока. На всемирную карту, составленную М. Санудо в 1247 г. По его «книге», были нанесены Грузия, Дербент, Китай.

После распада Золотой Орды она распадается на несколько ханств. Это Касымское ханство, Казанское ханство, Астарханское ханство, Казахское ханство, Узбекское ханство и Крымское ханство. Здесь начинается эпоха казахского ханства. Как бы то ни было, Золотая Орда была не только военной державой, но если

присмотреться, и детально изучить также и научной, культурной державой, и мы должны и дальше изучать историю великих степей, ведь еще много неразгаданных тайн.

Литература

1. Ай заман-ай, заман-ай. (Воспеваает пять веков) Т- I. А.1991 г. С-22
2. Акишев А.К, Асылбеков К.М, Байпаков К.М. «История Казахстана с древнейших времен до наших дней». А.1993 г. С-107
3. Биекенов К. Садырова М. Толковый словарь социологии. - Алматы: Создік-Словарь, 2007. — С-344
4. История Казахстана. Очерки. А.1994 г. С- 113
5. История Казахстана. Очерки. А.1994 г. С- 122-123
6. И.Есенберлин.Золотая Орда. А.1999 г. СС-262-266
7. И.Есенберлин.Золотая Орда. А.1999 г. С- 197
8. Казахская ССР: краткая энциклопедия / Гл. ред. Р. Н. Нургалиев. — Алма-Ата: Гл. ред. Казахской советской энциклопедии, 1991. — Т. 4: Язык. Литература. Фольклор. Искусство. Архитектура. — С. 131.

AFG‘ON O‘ZBEK TO‘YLARI MAROSIM FOLKLORIDA ZULLISONAYNLIKNING AKS ETISHI

Xudayqulova Latifa Avazovna

*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili,
adabiyoti va folklori instituti,*

filologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada afg‘on o‘zbeklari to‘y marosimlarida «Noy- noy» janri va nikoh to‘yi marosimlari urf-odatlarini, an‘analari hamda hududiy-lokal xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: xalq qo‘shig‘i, bayram, urf-odat, marosim, to‘y, an‘ana, fol'klor, g‘oya, poetika.

Аннотация: В данной научной статье рассматривается афганский свадебный обрядовый жанр «ной-ной» и освещена свадебные обрядовые традиции, обычаи, а также их регионально – локальные особенности.

Ключевые слова: народная песня, праздник, обычаи, обряд, свадьба, традиция, фольклор, идея, поэтика.

Abstract: This scientific article examines the Afgan wedding ritual genre «noiy- noiy» and highlights the wedding ritual traditions, customs, as well as their regional and local features.

Key words: Folk song, holiday, customs, ceremony, wedding, tradition, folklore, idea, poetics.

Markaziy Osiyo hududida kechgan murakkab etnogenetik jarayonlar natijasida mintaqa aholisi marosim folklorining janrlar tizimida xilma-xillik shakllangani singari, o‘zbek nikoh to‘yi bilan bog‘liq udumlar va verbal komponentlarda ham ko‘pqatlamlilik va hududiy o‘ziga xosliklar yuzaga kelgan. Nikoh to‘yi turkiy xalqlar marosim folklorining qadimiy uzvlaridan biri hisoblanadi. Bizga ma‘lumki, asrlar davomida shakllangan marosim qo‘shiq-lari, urf-odat va rasm-rusumlarda xalq qalbining eng nozik tuyg‘ulari, ezgu intilishlari o‘z poetik ifodasini topgan. Bu urf-odat-larning ko‘pchilik qismini to‘y marosimlari tashkil etadi. To‘y so‘zi qadimgi turkiy tilda «bayram» ma‘nosini anglatadi. Xassos olim M.Alaviyaning ma‘lumotiga ko‘ra, «To‘y» so‘zi to‘ymokdan olinib, katta ziyofat ma‘nosini anglatadi [1, B. 153]. Nikoh to‘yi marosimiga oid ilk qaydlar XI asrning ulug‘ tilshunos olimi Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘otut-turk» asarida nikoh to‘yi bilan bog‘liq bir qancha so‘zlarning izohi keltiriladi [3, B.214-215]. Nikoh to‘yi marosimida eng asosiy qo‘shiq-lardan biri hisoblangan «yor-yor» qo‘shig‘idir. «Yor» so‘zi qadimda «qo‘shiq», «ashula» ma‘nosida qo‘llanilgan «yir»/ «jir» leksemasi bilan bo‘lib, ayrim turkiy xalqlar folklorida hozirgi kunda ham «yir/jir» so‘zi «qo‘shiq», «ashula» ma‘nosini anglatuvchi atama sifatida qo‘llaniladi. Bundan tashqari, yana bir taxmin borki, bu qo‘shiqning har bir baytidan so‘ng takrorlanadigan «yor-yor» radifiga ko‘ra, bu qo‘shiq asosan yorga murojaat bo‘lib, yorni ta‘rif-tavsif qilishiga ko‘ra ham «yor-yor» deb nomlangan. Qadim zamonlardan o‘zbek, tojik, uyg‘ur va turkman xalqlari orasida ikkilik yoki to‘rtlik shaklidagi termalardan iborat «yor-yor» janri keng tarqalgan. Mazkur janr afg‘onistonlik o‘zbeklar nikoh to‘yida ham alohida o‘rin egallashiga guvoh bo‘lamiz. Afg‘oniston o‘zbeklari orasida nishonlanadigan nikoh to‘yida bu janr «Noy-noy» deb nomlanadi. To‘rtlik shaklidagi termalardan iborat «noy-noy» – kelin uzatishda ijro etiladigan, har bayti «noy-noy» iborasi bilan tugaydigan, xalqning qalb qo‘rida yaralib, tildan tilga, dildan dilga ko‘chib ajdodlardan

avlodlargacha yetib keladigan xalq qo‘shig‘i bo‘lib, o‘zining ta’sirchanligi hamda bir vaqtning o‘zida ham mungli, ham bayramona usulda, shodiyona kayfiyatdagi ijroning mujassam etilganligi bilan ilmiy ahamiyatga egadir. Afg‘onistonda an’anaga ko‘ra, «noy-noy»lar asosan ayol ijrochi tomonidan ijro etiladigan marosim qo‘shig‘i sifatida ommalashgan. Nay-nayimda norim bor-ey, noy-noy, Qo‘limda nora bor-ey, noy-noy. Yangaginam boshiga-ya, noy-noy, Og‘am olib borsa-ya, noy-noy. Mazkur marosim qo‘shig‘ida kuyov ta’rifiga asosiy e’tibor qaratilgan bo‘lib, uni «nor tuya»ga o‘xshatish orqali kuyovning ayni kuch-quvvatga to‘lganligi, jismonan baquvvatligi, oila qurishga tayyor ekanligi bayon etilgan. Qadimda ko‘pgina hududlarda kelinni kuyovnikiga otga mindirib uzatib ketganlar. Otning uzangisini kuyovning akasi yoki tog‘asi ushlab turgan, kelinning otasi esa engashib turgan va qizi otasining yelkasiga chiqib otga mingan. Bu odatni boysunliklar «uzangi bardor» deyishgan. Yuqorida keltirilgan to‘rtlik shaklidagi «noy-noy» qo‘shig‘ida ham kelinni yangasiga aynan akasi topshirishi izohlangan. Olma, anor bormi-ey, noy-noy, Behi, anori bormi-yov, noy-noy. Kuyovjoni yengida-ey, noy-noy, Kuyov sarpo yopadimi-yov, noy-noy. Bu to‘rtlik bandida tasvirlangan «olma, anor, behi» detalining poetik mazmuni ham olma muhabbat ramzi bo‘lib, anor va behi serhosillik g‘oyasini tashishi bilan xarakterlanadi. Yuqoridagi «noy-noy» matnida qo‘llanilgan «anor, behi» detali orqali ham kelinning serfarzand bo‘lishiga ishora qilingan hamda to‘yda kuyovga sarpo berilgan. Tepaga chiqdim shu yo‘ldan-ey, noy-noy, Tepadan topdim tuyun-ey, noy-noy.

*Oltovdan keyin tushdim-ey,
noy-noy Xabarin oldim shu yil-ey,
noy-noy.*

*Osildi-ey, osildi-ey,
noy-noy,
Baxmal ko‘ylak osildi-ey,
noy-noy.*

*Sabzagulni aytganda-yov,
noy-noy,*

Xonandalar bosildi-yov, noy-noy.

Bizga ma’lumki, to‘y kuni kuyovni uyida chimildiq osilgan va yangalar kelinning kiyimlari hamda ro‘mollarini chimildiq tutilgan uy devoriga yoyib, uyni bezatishgan. Bu to‘rtlikda ham baxmal ko‘ylaklarni chimildiqqa osilgani va ayollar tomonidan sabzagul qo‘shig‘i aytilishi va

xursandchilik qilinishi ta'riflangan. Yeydilar-o, yeydilar-ey, noy-noy, Qatlamani yeydilar-ey, noy-noy. Toza tushgan kelinni-ey, noy-noy, Sepi kamam deydilar-ey, noy-noy. Sho'rpo solma yemayman-o, noy-noy, Haq uyda jonona-yo, noy-noy. Qizlaroy-yo haq uyda-yo, noy-noy, Hammasiga imona-yo, noy-noy. Bizga ma'lumki, nikoh to'yida qo'y so'yilgan va kelgan mehmonlarga sho'rva bilan qatlama patir tortilgan. Bu udum yoshlarning ro'zg'ori barakali bo'lib, ikkovi patirning qat-qatidek qo'sha qarib, o'zlaridan ko'payib yursin, degan ramziy ma'noni anglatgan. Biyo-biyo boqirayo, noy-noy, Kaptariman loqirayo, noy-noy. Ollo-ollo bistorayo, noy-noy, Sabza qilma zoqirayo, noy-noy. Meshini-yo, meshini-yo, noy-noy, Azon bedot meshini-yo, noy-noy.

Ba jonatki domodjon-a, noy-noy, Valosaped meshini-yo, noy-noy. Ma'lumki, o'zbek nikoh to'yining o'tishi jarayoni bilan aloqador rasm-rusumlar va udumlar folklorida «yor-yor», «o'lan» janrlari qatorida «kuyov o'tirsin», «kelin o'tirsin» marosimlarining aytimlari ham muhim o'rin tutadi [4, B.35-36]. Mazkur marosim aytimlari afg'on o'zbek nikoh to'yi uzvlarida ham mavjuddir. Afg'on xalqi zullisonayn xalq bo'lib, ikki tilda ijod qiluvchi, ikki tilda gapiruvchi, to'y marosimlarini ham ikki tilda o'tkazuvchi xalq ekanligini yuqorida keltirilgan namunadagi «biyo-biyo», «meshini-yo-meshine», «domod» kabi so'zlarni ishtiroki orqali ham asoslash mumkin. «Kuyov o'tirsin» udumida kelinning qarindoshlari, dastlab ota-onasi, so'ng yaqin xeshu aqrabolari kelin-kuyovga o'tirishga ruxsat berishadi, bunday ruxsat bo'lmaguncha kuyov o'tirmagan, bu o'z navbatida, kuyovning kelinni tarbiyalab voyaga yetkazganlarga, to'yga yig'ilganlarga nisbatan hurmati, izzat- ehtiromi ifodasi hisoblangan" [2, B.65]. Bu odat afg'on nikoh to'yida ham uchraydi. Mazkur qo'shiqda qo'llanilgan «kaptar» atamasi poetik timsol bo'lib, «kaptar» kelin va kuyov o'rtasida sevgi vositachisi bo'lganligiga ishoradir. Sallaginang abdishi-yo, noy-noy, Qumdan bo'lar qo'rg'oshin-o, noy-noy. Shu ketishda kelmasa-yo, noy-noy, Daryo bo'lar ko'z yoshing-o, noy-noy.

Boloxona, tarxona-yo, noy-noy, Mayizi dona-dona-ey, noy-noy. Qizlarimni to'ylarida, noy-noy, O'ynasin ba jahona-yo, noy-noy.

Ariq bo'yi chinni nam-ey, noy-noy,

Xonni qilay jinni nam-ey, noy-noy. Do'stlarim salom beray, noy-noy, Tilini uchi binamey, noy-noy.

Mundan bordim to'yi-ya, noy-noy, To'yiya-yo, uyiya-yo, noy-noy. Onasi chalobi jobi, noy-noy, Kuyov bachcha bo'yiya-yo, noy-noy.

Bag‘idan uzdim uzum-ey, noy-noy, Yayradi ikki ko‘zim-ey, noy-noy. Parvo qilmang do‘stlarim-ey, noy-noy, Dunyo koinot tinch bo‘lsin-ey, noy-noy. «Noy-noy» matnida kelin va kuyov ta‘rifi, qiz unib-o‘sgan xonadonni tavsiflashga alohida e‘tibor qaratiladi hamda to‘yda yig‘ilgan barcha ishtirokchilarga butun dunyo tinch bo‘lish istagi bildirilishi bilan nihoyasiga yetadi. Shuni ta‘kidlash kerakki, nikoh to‘yi tarkibidagi bir qator udumlar, masalan, «sovchilik», «non sindirish», «fotiha to‘yi», «kuyov sinov», «olovdan aylantirar», «kelin salom», «yuz ochdi», «it irillatar», «kampir o‘ldi», «oyna ko‘rsatar», «shirin suv ichirar», «soch siypatar», «chiroq aylantirar» singari udumlar talqinida umumo‘zbek folklori uchun mushtarak bo‘lgan belgilar ko‘zga tashlanadi. Shu bilan bir qatorda afg‘on o‘zbeklari to‘y marosim folklorida mavjud udumlarning bajarilishi chog‘ida ijro etiladigan qo‘shiq va aytimlar, ya‘ni verbal qism talqinida o‘zbek marosim folklorining o‘ziga xosligi ko‘zga tashlanadi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, afg‘oniston hududida shakllangan etnofolkloriy areallar umum o‘zbek nikoh to‘yi uchun mushtarak jihatlarga ega bo‘lishidan tashqari har bir joyda to‘yning o‘tkazilish tartibi, uning o‘ziga xos rasm-rusumlari, urf-odatlar va unda ijro etiladigan qo‘shiq, aytim va olqishlariga ko‘ra bir-biridan farqlanib turadigan lokal xususiyatlarini ilmiy jihatdan o‘rganish esa biz mutaxassislar oldida turgan muhim vazifalardan biri ekanligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Alaviya M. O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari. – Toshkent: Fan, 1974. – B.153.
2. Jo‘raev M., Xudoyqulova L. Marosimnoma. O‘zbek xalqining urf-odat va marosimlari haqida qisqacha ma‘lumotnoma. – Toshkent: Alishyer Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. – B.65.
3. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘atit turk. T. I. – Toshkent: Fan, 1960. – B.214-215. 4. Safarov O. “Kelin o‘tirsin” va “Kuyov o‘tirsin” marosim qo‘shiqlari (Buxoro nikoh to‘ylari misolida) // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1989. – 5-son. – B.35-36.

FOLKLOR ASARLARIDA O‘TOVSOZLIKKA DOIR BADIY MA’LUMOTLARNING IFODALANISHI

Berdiev Husan Xolnazarovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Samarqand, O‘zbekiston Respublikasi

Annotasiya: mazkur maqolada o‘zbek tili o‘tovsozlik leksikasining o‘zbek adabiy tili, lahja va shevalar, lug‘atlar va etnografik materiallarda hamda og‘zaki va yozma adabiyot namunalari uchun qayd etilgan. Xususan, o‘tovsozlik leksikasining xalq og‘zaki ijodi materiallarida ifodalanishi aniqlanib, olingan xulosalar ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: folklor asarlari, doston, terma, o‘lan, topishmoq, maqol.

Аннотация: В статье отмечается, что лексика юртоостроительства узбекского языка встречается в узбекском литературном языке, диалектах, словарях и этнографических материалах, а также в устной и письменной литературе. В частности, было установлено, что лексика юртоостроительства выражена в материалах устного народного творчества, выводы научно обоснованы.

Ключевые слова: фольклорные произведения, эпос, поэма, сборник, загадка, пословица.

Abstract: In this article it is noted that the lexicon of the Uzbek language is found in the Uzbek literary language, dialects and dialects, dictionaries and ethnographic materials, as well as in oral and written literature. In particular, it was determined that the lexicon of grassland is expressed in the materials of folklore, and the conclusions are scientifically and theoretically based.

Key words: folklore works, epic, folk, olan, riddle, proverb.

Badiiy tafakkur mahsuli bo‘lmish ijod namunalari: xalq og‘zaki ijodi dostonlari, maqollar, topishmoqlar, iboralar, o‘lan va termalar kabi folklor janriga oid asarlarda turkiy xalqlar uysozlik, jumladan, o‘tovsozlik madaniyatiga doir ko‘pgina ma’lumotlar uchraydi. Bu, o‘z

navbatida, ushbu sohaga doir qadriyatlarning xalq hayotida qadim davrlardan boshlab mustahkam o‘rin olganligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, "Alpomish" dostoni materiallari nafaqat adabiy estetik, balki lingvistik nuqtai nazardan ham muhim ma'lumotlar beradi.

Dostonda soha leksikasi, shu jumladan, o‘tovsozlik terminlari ham anchagina. Kontekstual sinonimik qatorni tashkil etuvchi so‘zlar ishtirok etgan quyidagi misollarni keltirish mumkin:

O‘tov: "Xonning Chibor oti poyganing oldini olib, shashti bilan kelib, baxmal o‘tovni yetti marta aylanib, otning tizginini ushlab Qorajon to‘xtatdi..."

Yurt: "...O‘z akamga o‘zim zakot berguncha, Boshqa yurtida juz'ya berib yurayin, // Maslahat ber, o‘n ming yurtli qarindosh!"

Uy termini shu murojaatning boshqa o‘rinlarida "Maslahat ber, o‘n ming uyli qarindosh!" tarzida kelgan. Yoki: "...uyalarini buzib, tuyalarga ortib, ayollari ham o‘z yuki-yobini bo‘g‘ib, bo‘g‘cha-bo‘ylarini chog‘lab, to‘polon bo‘lib, shovqin-g‘alag‘ur bo‘lib qoldi. O‘n ming uyli Qo‘ng‘irot talato‘p bo‘lib, Kashal eliga, Qalmoq yurtiga qarab, ha deb ko‘cha berdi..."

Chodir: "...Alpomishning tanidan Qorajon poygaga bormoqchi bo‘ldi... Alpomish chodirda o‘tirib qoldi".

O‘tovsozlikka oid to‘r, bo‘sag‘a, poygak singari so‘zlar hozirgi paytda ham keng qo‘llaniladi. "Alpomish"da: "Shu majlisda bir Yartiboy oqsoqol degan bor edi. Majlisli kun bo‘lsa, to‘rdan joy tegmay, piyoladan choy tegmay, bo‘sag‘aning oldida kavushga joy bermay, kavush bilan aralashib, it yiqilish bo‘lib, poyga betda yotar edi..."

Asardan soha terminlariga oid ko‘plab misollar keltirish mumkin:

Baxmal o‘tov//baxmal uy: boy-badavlat, martabali kishilarning o‘tovi: "... bir baxmal o‘tovni tikib... o‘z kayf-safosi bilan o‘tirib edi..."

Japsar: tirqish, tuynuk. O‘tovning uvuq va keragalari tutashgan, jiplashtirilgan joyi.

Bu so‘zdi aytib Barchin suluv turadi,

Japsar yorib Chilbir cho‘lga qaradi (va b.).

Doston materiallarida, shuningdek, chodir, baqan, bo‘g‘cha-bo‘y, beshik-kertti, bo‘sag‘a, jaylov, japsar, jarchi, jihaz, jelak, jovchi, kapa, kebanak, kuyov tovoq, kuyov uloq, ko‘nak, ko‘sov, lo‘k, mehtar, ovsar, rasmi qa‘da, saba, siriq, tarkash, tuvurlik, to‘qqiz tovoq, chanqavuz, changg‘arog‘i, chotir, choch siypatar, shomiyon, shouloq, qiz opqochdi, qulluq bo‘lsin qilmoq, qo‘l ushlatar, qo‘nmoq singari o‘tovsozlikka aloqador so‘zlar uchraydi.

Ma'lum bo'ladiki, xalq dostonlarida podshohning ov yoki sayrga chiqishi tasvirlangan o'rinlarda chodir, boshqa tafsilotlar bayonida o'tov leksemalari qo'llaniladi. Chunonchi, "Rustamxon" dostonida: "Shunday qilib, yo'l yurib, Qurudim mamlakatini yoqalab chodir-chaman tikib qo'ndi"... "Bir kuni Rustam enasi va tozilarini qoldirib, zarur anjomlar topish uchun yo'l tortdi. Ko'zi tog' bag'ridagi o'tovga tushdi". Asarda o'tovsozlikka oid boshqa terminlar ham kuzatiladi: "Ot ustida o'tovning bo'sag'asidan qaradi. Ko'rdi:.. Ikki qo'li orqasiga boylangan, sochidan uyning keragasiga boylovli turibdi". O'tovsozlik terminlari xalq dostonlaridan namunalar berilgan dars-liklardagi satrosti lug'atlarda ham mavjud. Chunonchi: "Keraga – o'tovning chetanga (to'qima devor) o'xshatib ishlangan devori" [7, 103]. Shuningdek, o'tovsozlik terminlari "Kuntug'mish", "Oychinor", "Kelin-oy yoki Norguloy" (va b.) singari dostonlarda ham faol tarzda uchraydi.

O'tovsozlik terminlarining topishmoqlarda ifodalanishi. Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, o'tovsozlik leksikasiga oid lingvistik birliklarning matnda bevosita ishtirok etish/etmasligiga ko'ra, topish-moqlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. O'tov va uning qismlari nomi aks etgan topishmoqlar. Bular o'xshatish asosida boshqa narsa-predmetlarni ifodalaydi. Bu qiyoslashlar estetik, axloqiy, tarbiyaviy munosabatni yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladi. Chunonchi, quloq va uning teshigi, elak, it, chumchuq, ko'z, qosh, burun, og'iz, kiprik va soch haqidagi misollarni shu guruhga kiritish mumkin.

Dialogik xarakterdagi topishmoqlarda mavzuga oid xarakterli misollarni uchratish mumkin. Topishmoqning savol qismida ko'z, qosh, burun, og'iz, kiprik va soch kabilarning shakliy belgilari ifodalangan bo'lib, ularning nomlari javob qismida keltiriladi. Bunda o'tov va odamning yuz qismi a'zolari shakliy belgilariga ko'ra qiyoslanadi. Binobarin, topishmoqning savol qismida o'tovsozlik, javob qismida metaforik tarzda anatomik terminlar aks etganini quyidagi misolda ko'rishimiz mumkin:

| Topishmoqning savol qismi | Topishmoqning javob qismi |
|--|---|
| -чанғарақта қош чырақ, о нїмәдїр, балқантаз? ўй устїдә пәрлі жәй, о нїмәдїр, балқантаз? | -чанғарақта қош чырақ, көз дэгәні эмәсмә? ўй ұстдә пәрлі йәй, қаш дэгәні эмәсмә? |

| | |
|--|---|
| <p>зэрэң жэрдэ қош төлө, о нимэдір, балқантаз? хэвізі бар, сувы жоқ, о нимэдір, балқантаз? қатар-қатар қара нар, о нимэдір, балқантаз? үй артыда қош тэрэк, о нимэдір, балқантаз? [8, 151]</p> | <p>зэрэң жэрдэ қош төлө мурун дэгэні эмэсмэ? хэвүзі бар, сувы жоқ, авыз дэгэні эмэсмэ? қатар-қатар қара нар, кіпрік дэгэні эмэсмэ? үй артыда қош тэрэк, чәч дэгэні эмэсмэ? [8, 151-152]</p> |
|--|---|

Matn savol qismidagi uy termini o‘tovni ifodalab keladi. Lug‘atlarda ham bunday ma‘nodoshlikni ifodalovchi ayrim qaydlar mavjud. Chunonchi, “O‘tov (Dhq) kelin-kuyovlar uchun tayyorlangan, nikoh marosimiga mo‘ljallangan qora uy – yurt...» [4, 82].

2.O‘tov va uning qismlari nomi aks etmagan, biroq shu tushunchalar ifodalangan topishmoqlar

Ma‘lum bo‘ladiki, ayrim topishmoqlarda o‘tovsozlik terminlari bevosita tilga olinmaydi. Topishmoqning javobidan uning nima ekanligi ayonlashadi. Misol uchun quyidagilarni keltirish mumkin:

Жинді қыз, жинді қыз // Жін төбәгә чықты қыз.

Балларыны йәртин, // Дәрәң-дүрүң қылды қыз (қора уй чанғороғи) [8, 142]; *Біздің үйдә қырқ қыз бар, бәрі чәчпәклі* (увук ва унинг боғи) [8, 138].

Topishmoqlarda qo‘llangan o‘tovsozlik terminlari orqali narsa-predmetlarning quyidagi xususiyatlari asos qilib olingani kuzatiladi: – shakliy belgi (... kəpə – quloq va uning teshik qismi); – ovoz belgisi (Chang‘araqta charqillaq...) (o‘tovsozlik termini+qush ifodasi); – harakat-holat belgisi (Kerəgədə kirkillək...) (o‘tovsozlik termini+elak ifodasi).

O‘tovsozlik terminlarining maqollarda ifodalanishi. Maqollar milliy dunyoqarashni namoyish etishga doir lingvistik qadriyatlarni o‘z bag‘rida saqlab kelmoqda. Chunonchi, Jaman yudən jaman tytyn – Jomon uydan jomon tutun. Yoki: Tiri bop tərde joq, əli bop gərde joq – Tiri bo‘p to‘rda jo‘q, o‘li bo‘p go‘rda jo‘q; Japsars'z uy bomas, mesleetsiz toy (va b.).

Umuman, xalq maqollarida ham o‘tovsozlikka oid ko‘pgina so‘z terminlar ifodanganki, bu ularning xalq ma‘naviy-moddiy merosining yorqin namunasi ekanligidan dalolat beradi.

O'tovsozlik terminlarining iboralarda ifodalanishi. Soha terminlari o'zbek xalq iboralari tarkibida ham faol qo'llanishda. Bu jarayonni tadqiqot obektimiz materiallarida ham ko'rish mumkin: Chig'arg'an qiz chiyden tashqari – uzatilgan qiz, boshqa xonadon a'zosi [8, 193]; Chag'araqtan chig'ib ketejatqani joq – nojoiz ishlarga qo'l urayotgani yo'q [8, 186]; Irgəsi qo'qig'an – irgasi qo'qig'on... Chechesi taza irgesi qoqig'an g'o'r eken – Yangasi toza uyi qo'qigan noshud ayol ekan [8, 132].

O'tovsozlik terminlari termalar, o'lan va olqishlar hamda yozma adabiyot namunalarida ham tez-tez namoyon bo'ladi. Ularda soha terminlari muayyan poetik vazifa bajaradi, she'ning kompozision-struktur tarkibida uslubiy vositalardan biri bo'lib keladi:

Qorauy – uvug'i, qorauy – tuvug'i, // Kelinoyga o'tmaydi, qahraton-sovug'i.

Qofiyadosh so'zlar uvug'i-tuvug'i-sovug'i paradigmatic qatorida dastlab-ki ikki so'z o'tovsozlik termini bo'lib, ular she'ning eng muhim ritmo-melodik markazida poetik vositaga aylangan. O'tovsozlik terminining radif bo'lib kelishiga ham qator misollar uchraydi:

Boshimga boshpana, o'tov, // Necha ming yoshsana-a, o'tov (qo'shiqdan)

O'tovsozlik termini (uvuq) va o'tov anjomini tayyorlashda ishlatiladigan material (chuvuq) nomini ifodalovchi leksema ishtrokida hosil bo'lgan o'xshatishga quyidagi misralar misol bo'la oladi:

Kelinoylar kelar uvuqday, // Egilmagan chuvuqday [5, 357].

*Takror san'ati: Vale bazm yuz boshliq oq uy aro,
Oq uy tashi tuya mushki birla qaro ("SI").*

Tanosib san'ati: to'r, borgoh-chodir, taxt, shoh tushunchalari aloqadorligida hosil qilingan:

*To'rida borgohning bir biyik taxt,
Aning ustida bir shohi javonbaxt ("FSh")
Ruju' san'ati: Chotma dema hajr qaro shomi de,
Zulmu taab uylarining domi de.*

Ko'rib o'tilganlardan ma'lum bo'ladiki, o'tovsozlik terminlari xalq og'zaki ijodining o'ziga xos janrlari hisoblanmish topishmoq, maqol, ibora, o'lan va termalar hamda yozma adabiyotda ham faol qo'llaniladi.

O'tovsozlik terminlari o'zbek xalqi bilan bir qatorda, qardosh qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, turkman tillari vakillari nutqida ham keng qo'llanadi. Chunonchi, o'zbeklarda: mulkin ko'rda bo'zin ol, irgasin

ko'rdagi qizin ol (so'zlashuv nutqi). Irga – o'tov ichi paygoh tarafi; changgaraqda charqilak, keragada kerkilak (badiiy nutqdan). Qoraqalpoq so'zlashuv va badiiy nutqida chang'aroq so'zi oila ma'nosini ifodalaydi: “Raxmet Ametovtiң sh a ң a r a g ‘ i n a” [3, 100] (ta'kid bizniki – X.B.). Qozoq tili materiallaridan ham bunga ko'plab misollar keltirish mumkin: “Auil – memlekettiң k ye r ye g ye s i” [2, 34] (ta'kid bizniki – X.B.).

Nomlanishlardagi har xillikning yana bir tomoni kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy mavqeiga aloqador bo'lishi haqidagi qaydlar xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotga mansub tarixiy, zamonaviy asarlarda ham aks etgan. Chunonchi, A. Omonturdiyev tadqiqotiga ko'ra, «Boy va kambag'al tushunchasi chorvadorlar yashaydigan qora uy, o'tov, oq o'tov, baxmal o'tov, kapa, chayla, olachuq, chodir kabilar orqali ham anglashiladi [6, 139].

Lingvistikada o'tov, asosan, qora uy tarzida sharhlanib kelganining guvohi bo'lamiz: a) «O'tov (Dhq) – kelin-kuyovlar uchun tayyorlangan, nikoh marosimiga mo'ljallangan qora uy – yurt...» [4, 107]; b) “O'tov 1 (Yong'oqli) – kelin-kuyov uchun yoki boshqa maqsadlar uchun tikilgan yangi qora uy...” [5, 400].

Ikkinchi tomondan esa, “o'tovlar hajmi va boshqa xususiyatlariga qarab xilma-xil bo'lishi mumkin. Binobarin, ulardan har birining o'z nomi mavjud. Masalan, bir qanotli keragalisi – yerqanat, ikki qanotlisi – qo'shqanat, sakkiz keragalisi – qanat...” [1, 98].

Uchinchidan, nomlanishlar ishlatiladigan materiallar (kigiz ustidan qoplangan matolar) rangi bilan ham muayyan ma'noda aloqador bo'lgan: oq o'tov, qora o'tov, duxoba o'tov, shohi o'tov kabi. Prof. E.Umarov oq uy atamasi xususida to'xtalib, uning tarkibi va nomlanishi haqida quyidagi asosli fikrlarni ta'kidlaydi: “Oq uy ikki (oq+uy) qismdan iborat bo'lib, qadimda chorvadorlarning yozda salqin, qishda issiq boshpanasi hisoblangan. Bu boshpananing oq uy deyilishiga sabab, o'zbek qomusida yozilishicha, uning ustiga oq kigiz yopilgan. Kigiz ustidan esa oq mato qoplangan va u oq arqonlar bilan bog'langan” [9, 31-32].

To'rtinchidan, zamonaviy asarlarda ham o'tovsozlik terminlari ishlatilgan bo'lib, ular, asosan, tarixiy koloritni berish, yozuvchining badiiy olami bilan bog'liq yuksak ideallarni to'la aks ettirish maqsadiga xizmat qiladi. Xuddi shu jihatdan o'tovsozlik terminlari konseptual xususiyatga egadir. Adabiy asarlar ko'zdan kechirilganda, A.Qodiriy, Zulfiya, A.Oripov, Sh.Xolmirzaev, T.Murod, E.Shukur (va b.) singari

ijodkorlar qo‘llagan terminlar shunday maqsadga xizmat qilganligi kuzatiladi. Mazkur masala va uning til representasiyasiga aloqador antroposentrik xususiyatlari navbatdagi tadqiqotlar uchun keng ko‘lamli materiallar beradi.

Adabiyotlar:

1. Abdiev M. O‘zbek tili o‘tovsozlik atamaları// O‘TA, 2001. – №6. – B. 98.
2. Алласугуров Е. Мәңги жаса. – Нөкис: Билим, 2009.
3. Кенжеахметұлы С. Жеті қазына. 2-кітап. – Алматы: Ана тілі, 2005.
4. Mirzaev N. O‘zbek tili etnografizmlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 1991.
5. Nafasov T. Qashqadaryo o‘zbek xalq so‘zlari lug‘ati. I. – Toshkent: Muharrir, 2011.
6. Omonturdiyev A. Professional nutq evfemikasi (chorvadorlar nutqi misolida): Filol. fan. d-ri ...diss. – T., 2009.
7. Rafiev A., G‘ulomova N. Ona tili va adabiyot. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2002.
8. To‘ychiboev B., Qashqirli Q. Zominning til qomusi. – Toshkent, 2012.
9. Umarov E. Alishyer Navoiy asarlarida oq uy atamasi //O‘TA, 2005. – №1. – B. 31-32.

QORAQALPOQ XALQ DOSTONI “QIRQ QIZ” NING SAHNAVIY TALQINI

Doshanova Muxabbat Muratbaevna

*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti mustaqil
tadqiqotchisi*

Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi

Annotasiya: Maqolada, qoraqalpoq xalq dostonlardan biri “Qirqqiz” dostonini teatr sahnasida namoyishi yozilgan. Ushbu doston qahramonlik eposi bo‘lib, o‘z yurtini himoya qilishga otganlangan qirq nafar mard qizlar haqidadir. Doston ilk marta 1945 yilda Amet Shomurodov va Ibrohim Yusupovlar tomonidan sahnaga qo‘yilgan. 2015 yilda Q.Zaretdinovning “Qirq qiz” baleti saxnalashtirilib

xalqimizga namoyish etilgan. Adabiyot va teatr doimo o'zaro aloqada ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: "Qirq qiz", doston, qoraqalpoq, adabiyot, teatr, sahna.

Аннотация. В статье говорится, что на сцене будет исполнен один из каракалпакских народных эпосов «Кырк кыз» («Сорок девушек»). Эта эпос - героическая эпопея о сорока отважных девушках, которые встали на защиту своей страны. Впервые эпос поставили в 1945 году Амет Шомуродов и Ибрагим Юсупов. В 2015 году был поставлен и показан нашему народу балет К.Заретдинова «Кырк кыз». Подчеркивается, что литература и театр всегда на связи.

Ключевые слова: «Кырк кыз», эпос, каракалпак, литература, театр, сцена.

Annotation. The article says that one of the Karakalpak folk epics "Kyrk kyz" ("Forty girls") will be performed on the stage. This epic is a heroic epic about forty brave girls who stood up to defend their country. For the first time, the epic was staged in 1945 by Amet Shomurodov and Ibragim Yusupov. In 2015, K. Zaretdinov's ballet "Kyrk Kyz" was staged and shown to our people. It is emphasized that literature and theater are always in touch.

Key words: "Kyrk kyz", epos, Karakalpak, literature, theater, stage.

Qoraqalpoqlar urug'-aymoqchilik va qabilaviy an'analari asosida hayot kechirishadi. Chorvachilik, dehqonchilik va baliqchilik ularning asosiy mashg'ulotlari hisoblanadi. Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodi bevosita qo'shni -o'zbeklar, qozoqlar va turkmanlar xalq og'zaki ijodi bilan ham yaqin. Chunki bu qo'shni xalqlarning o'zaro munosabatlari azaldan mavjud bo'lib, yaxshi qo'shnilikka asoslangan edi. Shu bois, qoraqalpoq xalq qo'shiqlari, jumladan, "Xaujar", "betochar", "qiz yig'lar", "yo'qlov" kabi milliy qo'shiqlar qo'shni xalqlar marosimlarida ham u yoki bu shaklda mavjud. Oila nikoh munosabatlari bilan bog'liq marosimlar ham mavjud. Ushbu marosimlarga bolalar yoshligidan tayyorlanib boradilar. Ota-onasi, qo'shnilari, qarindoshlari ularga o'rgatib boradi. Bu repitisiya emas, balki ular tinglovchi, kuzatuvchi, oddiy qilib tomoshabin bo'lib ishtirok etadi. Chunki, bu masala oilaning obro'yi hisoblanadi. Ushbu marosimlarda aytiladigan milliy qo'shiqlarni ham bolalar yoshlikdan to'ylarga borib yodlab olishadi. To'ylardagi

raqslarni o'rganishadi. Bu ularning mahoratini oshirishga yordam beradi.

Xalq dostonlari ham qoraqalpoq xalqlarining sevimli aytishuvlaridir. Bu dostonlar ham sahnalashtirilgan. Jumladan, 1940 yilda N. Devqaraev "Alpomish" dramasida xalq o'yinlardan "Ayqulash" o'yini sahnaga olib chiqqan. Ushbu musiqali dramada baletmeystri Tamara Ibragimova 1942 yilda, Ali-Ardobus 1944 yilda, Liza-xanum Petrosova 1956 yilda mohrlik bilan sahnada ijro etgan. Musiqasini kompazitor V.G.Shafrannikova bastalagan[1. 38]. Dramaturg Rahim Majitov tomonidan 1939 yilda "Hake qayde?" o'yini iniserovkasini musiqali drama "Qora yuraklar" spektaklida sahnaga olib chiqilgan.

Volga bo'yidan to Farg'ona vodiysiga qadar hududda, Orolbo'yi va Zarfshon ko'chmanchi qoraqalpoqlar o'z madaniyati, an'alarini saqlagan holda istiqomat qilishar edi. "Qirq qiz", "Alpamis", "Qoplun" va boshqa dostonlarini yoddan bilishgan. Bu dostonlarda o'z yurtiga muhabbat, ajdodlar merosi, g'ururi, oilaviy an'alarini, vatanparvarlikni tarannum etadi. Ushbu dostonlar aytuvchilari Jarou va baxshilar bu dostonlarni shu vaqtga qadar yetib kelishiga katta hizmat qilganlar. Ular turli xalq o'yinlari, hazil, xalqona marosimlarni yetib kelishga ham o'z hissasini qo'shganlar.

«Qirq qiz» dostoni qoraqalpoq xalqining kechmishi va ma'naviy dunyosi, qahramonligi va g'am-alamlarini, urf-odatlarini va kelajak to'g'risidagi orzu umidlarini yoritgan o'lmas asardir. "Qirq qiz" qahramonlik eposi qoraqalpoq xalqining badiiy obrazi, 2000 yillik ko'p qatlamli va ko'p tomonlama tarixiy va etnografik yodgorlikdir. Unda Xorazm xonligi va Turkiston bo'lib o'tgan ham uzoq tarix voqealari, ham bizning davrimizga yaqin to'qnashuvlar aks etgan. «Qirq qiz» dostoni to'rtko'llik baxshi Qurbonboy Tojiboevdan Sh.Xo'janioyozov, S.Mavlanov va A.Begimovlar tomonidan 1939-1940 yillarda yozib olinib, qoraqalpoq tilida nashr qilingan. Hozirgi davrda qardosh xalqlar madaniy merosini o'rganish va o'zlashtirishga intilish yanada ko'chaymoqda. Binobarin, mazkur doston o'zbek, rus, turkman, qozoq, qirg'iz tillariga tarjima qilingan. Chunonchi, XX asrning 40-50 yillarida «Qirq qiz» eposini atoqli o'zbek shoirlari Uyg'un va Mirtemir o'zbek tiliga, 1958 yilda turkman tarjimon-olimi Q.Seydmuradov turkman tiliga, 1970 yilda esa qozoq shoirlari X.Ergaliev, S.Maulenov va A.Shalabaevlar qozoq tiliga tarjima qildilar.

Doston voqealari, qahramonlarning hatti-harakatlari, fikr-tuyg'ularida, hayoliy-fantastik, mifologik unsurlar, grotesk va

giperboladan ko‘ra realizm kuchliroq ifodalanadi. Qahramonlarning o‘q o‘tmas, qilich chopmas xususiyatlardan xoli ekanligi, faqat xalqdan madad olishi dostonni nisbatan yozma adabiyot asarlariga, qolaversa, davrimizga yaqinlashtiruvchi realistik xususiyatlardir. Shubhasiz, bunda Qurbonboy jirovning dostonni davr ruhiga nisbatan mos tarzda kuylaganligi ham muhim rol o‘ynasa-da, doston o‘z an‘anaviy belgilarini saqlab qolgan. Dostonning yetakchi qahramonlari qiyin vaziyatlarda diniy-ilohiy ruhdan madad tilashmaydi. Xalqning oqilu dono kishilari bilan kengashib, xalqdan ma‘naviy-ruhiy madad oladilar. Dostonning barcha qahramonlari: Guloyim, Oltinoy, O‘tbosgan, Arslon, Sarvinoz va boshqalar botirlik, mardlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, dushmanga cheksiz nafrat xususiyatlarini o‘zlarida mujassam etganlar. Bosqinchi xonlar Surtaysho va Nodirshohning adabini berib, o‘z yurtlaridan haydab chiqaradilar. Yurtda tinchlik va osoyishtalik o‘rnatadi, xalqlar do‘st va ahil bo‘lib yashay boshlaydilar. Demakki, xalqning ozodligi yo‘lida fidoyilik ko‘rsatish dostonning asosiy g‘oyalardan biridir. Dostondagi misralar orasida xarakterlarni oydinlashtiruvchi ajoyib tasvirlar, dialoglar, zaruriy tafsilotlar va qahramon xarakterini ochuvchi holatlar bayoni, adabiy-tarixiy manbaa sifatida muhim ahamiyat kasb etadi[2. 118].

“Qirq qiz” dostonining sahnaviy talqinini 1945 yilda Amet Shomurodov va Ibrohim Yusupovlar tomonidan yaratilgan [1. 31]. Asardagi qirq qizlarning taqdiri, jasorati, harakterlarning rang-barangligi, murakkab va bir-biriga o‘xshamas inson taqdirini ifodalashi bilan tomoshabinlar e‘tiborini jalb etdi. Shuningdek, bu asar milliy o‘ziga xosligi, rejissyorlik yechimlarining betakrorligi, aktyorlik talqinlarining beqiyosligi bilan ham diqqatga sazovordir.

Qoraqalpoq xalqining milliy qadriyatlari, ma‘naviy merosi keyingi yillarda ham sahnaga olib chiqilmoqda. Jumladan, 2015 yilda Q.Zaretdinovning “Qirq qiz” baleti saxnalashtirilib xalqimizga namoyish etildi.

O‘zbek rejissyori va video-rassom Saodat Ismailovanning Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Qirq qiz (musiqiy spektaklining namoyishi O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san‘atni rivojlantirish jamg‘armasi tomonidan Zamonaviy san‘at markazi taqdimoti loyihasi doirasida tashkil etildi. “Qirq qiz” eposi (dostoni) qahramoni – qoraqalpoq xalqining badiiy qiyofasidir. Spektaklda Markaziy Osiyo vokal san‘atining mumtoz maktablari: O‘zbekiston tanovari, dostonlar, jirov va Qoraqalpog‘iston, Qozog‘iston,

Qirg‘izistonning uzoq aytiladigan qo‘shiqlarini namoyish etuvchi ko‘plab xalq cholg‘ulari yangraydi. “Qirq qiz” – bu rejissyorning Markaziy Osiyo ayol ovozlarning turli xildagi vokal va musiqiy kuchini hamda boyligini birlashtirishga, shuningdek, tomoshabinga xalq afsonalari, dostonlari va musiqiy asarlarida saqlanib qolgan mintaqaviy yaxlitlikni ko‘rsatishga urinishidir. Spektakl avval, N’yu-Yorkda BAM (Brooklyn Academy of Music) teatrida va Parijda Klod Levi-Stross teatri sahnasida, Jak Shirak Fondining Branli qirg‘og‘idagi Muzeyida namoyish etilgan.

Xullas, xalq dostonlarining mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari, motivlari, jarangdorligi, tarbiyaviy ahamiyati teatr sahnalarida ham o‘z aksini topish lozim. “Qirq qiz” dostonining qoraqalpoq tetar sahanasidan to xalqaro miqyosida tarannum etilishi nafaqat milliy qadriyatlarni qadrlash, balki turkiy xalqlar do‘stligi, hamfikrligi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Adabiyot va teatr doimo o‘zaro uzviylik va muvofiqlikda yosh avlodning ma’naviyatini shakllantirishda bir-birini to‘ldirib borgan, bormoqda ham.

Adabiyotlar:

1. Алланазаров Т. Каракалпакский советский театр. Истоки и формирование. Ташкент: Фан, 1966. С. 178.

2. Dilmanova I., Mambetaminov N. “Qirq qiz” eposining turkiy tillar tarjimalariga doir // «Fan va ta’lim-tarbiyaning dolzarb masalalari» mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani matyeriallari. – Nukus., 2019. 321b.

QADIMIY QADRIYATLAR TAHLILI

Mamatqul JO'RAEV
filologiya fanlari doktori, professor
Toshkent, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Pushtun xalq ijodi va adabiy maktablari, Sharq mumtoz adabiyoti va adabiy aloqalar masalasiga doir ko'plab yirik tadqiqotlar muallifi, taniqli sharqshunos olim, professor Abdurahim Mannonovning "Afg'on xalq og'zaki ijodiyoti" nomli monografik asari tahlil etilgan bo'lib, monografiyada afg'on xalq og'zaki badiiy ijodining o'ziga xosligi, o'rganilishi tarixi, janriy tarkibi va badiiyati haqida keng qamrovli ma'lumot berishi bilan muhim ilmiy qimmatga egaligi alohida ta'kidlangan. Qolaversa, bu monografiyada tahlilga tortilgan faktik materiallar va muallifning ilmiy-nazariy xulosalari Sharq folklorshunosligining turli muammolari yuzasidan tadqiqot olib borayotgan yosh olimlar uchun ham muhim manba sifatida xizmat qilishi haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: monografiya, "Afg'on xalq og'zaki ijodiyoti", folklor, pashtun urf-odat va marosimlari, xalq qo'shiqchiligi, baxshilar va qissaxonlar ijodi, topishmoq va maqollar, landey, alla.

Аннотация. В статье анализируется монография «Афганский фольклор» профессора Абдурахим Маннонова, известного востоковеда, автора многих крупных исследований по пуштунскому народному искусству и литературным школам, восточной классической литературе и литературным отношениям. В монографии подчеркивается уникальность устного искусства афганский народ, история его изучения, исчерпывающая информация о жанровой структуре и искусстве, а также его важная научная ценность. Кроме того, проанализированные в монографии фактические материалы и научные и теоретические выводы автора служат важным источником для молодых ученых, занимающихся исследованиями различных проблем восточного фольклора.

Ключевые слова: монография, «Афганский фольклор», фольклор, пуштунские обычаи и обряды, народные песни, произведения бахши и сказочников, загадки и пословицы, ландей, колыбельная.

Abstract. The article analyzes the monograph "Afghan folklore" by Professor Abdurahim Mannonov, a famous orientalist, author of many

major studies on Pashtun folk art and literary schools, Eastern classical literature and literary relations. The monograph emphasizes the uniqueness of oral art. the Afghan people, the history of its study, comprehensive information about the genre structure and art, as well as its important scientific value. In addition, the factual materials analyzed in the monograph and the author's scientific and theoretical conclusions serve as an important source for young scientists engaged in research on various problems of oriental folklore.

Key words: monograph, “Afghan folklore”, folklore, Pashtun customs and rituals, folk songs, works of bakhshi and storytellers, riddles and proverbs, landey, lullaby.

Jahon miqyosida globallashuv jarayonlari g‘oyat tezlashib borayotgan hozirgi davrda milliy o‘zlikni saqlash va ma’naviy qadriyatlarni asrab-avaylash orqali yosh avlodni ezgu an’analar ruhida tarbiyalash har qachongidan ko‘ra muhimroq ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, qadimdan o‘ziga xos badiiy qadriyatlari bilan dunyo poetik tafakkuri taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan Buyuk Ipak yo‘li mintaqasi xalqlarining benazir og‘zaki ijodida o‘z ifodasini topgan yaratuvchilik, yaxshilikni ulug‘lash, hamjihatlik, mehr-oqibatlilik, samimiyat, muhabbat va vafodorlik, keksalarni qadrlash va yoshlarni e‘zozlash kabi e‘zu g‘oyalar asrlar mobaynida komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishning asosiy vositalaridan biri bo‘lib kelgan. Shuning uchun ham ushbu mintaqada istiqomat qiluvchi xalqlarning folklor an’analari tarixi, shakllanish jarayoni va tadrijiy rivoji, xalq og‘zaki badiiy ijodining milliy o‘ziga xosligi, janrlar tarkibi, ijro usullari va ma’naviy-madaniy hayotda tutgan o‘rni masalalarini qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etish nomoddiy madaniy meros durdonalarining hayotbaxsh mohiyatini yanada kengroq ko‘lamda targ‘ib qilishga imkon beradi. Pushtun xalq ijodi va adabiy maktablari, Sharq mumtoz adabiyoti va adabiy aloqalar masalasiga doir ko‘plab yirik tadqiqotlar muallifi, taniqli sharqshunos olim, professor Abdurahim Mannonovning “Afg‘on xalq og‘zaki ijodiyoti” nomli monografik asari ham tarixiy asoslari olis asrlarga borib taqaladigan qadimiy folklor an’analaridan biri haqidagi boy materiallarning ajoyib tarzda ilmiy tahlili hisoblanadi.

O‘zining o‘ndan ortiq monografik tadqiqotlari, yettita darslik va o‘quv qo‘llanmalari, shuningdek, sharqshunoslikning dolzarb muammolariga doir 200 ga yaqin maqolalari bilan ilmiy jamoatchilikka yaxshi tanish bo‘lgan Abdurahim Mannonov uzoq yillar mobaynida Afg‘onistonda yashovchi xalqlarning folklori va yozma adabiyotini

o'rganish bilan izchil shug'ullanib kelgan olimdir. Bu yo'nalishda ilmiy tadqiqot olib borishning murakkabligi shundaki, Afg'oniston ko'pmillatli mamlakat bo'lib, uning hududida 30 dan ziyod katta va kichik xalqlar va elatlar, etnik guruhlar, jumladan, pashtunlar (afg'onlar), dariyazonlar, o'zbeklar, xazoralar, tojiklar, choraymoqlar, turkmanlar, nuristonliklar, balujlar, hindlar va boshqalar istiqomat qiladilar. Bu xalq va elatlarning barchasi o'ziga xos urf-odat va marosimlari, asrlar osha shakllanib kelgan madaniyati, mifopoetik tasavvurlari va inonch-e'tiqodlariga ega bo'lib, ayniqsa, xalq og'zaki badiiy ijodida ularning tarixi, an'analari, diniy qarashlari, urf-odatlari bilan birga har birining o'ziga xos qismati va turmush tarzi aks etgan. Bu qadriyatlar tizimi aslini olganda Ipak yo'li mintaqasi xalqlari badiiy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib, juda ko'p jihatlariga ko'ra mushtarak negizga ega. Shuning uchun ham Afg'onistonda yashovchi etnoslarning folklorini to'plash va ilmiy tadqiq etish mintaqaxalqlari og'zaki badiiy ijodi janrlarining shakllanish tarixi, qadimiy ildizlari, tadrijiy rivojlanish bosqichlari, o'zaro o'xshashliklari va milliy o'ziga xosligini oydinlashtirishga imkon beradi. Masalaning ana shunday dolzarb jihatini yaxshi tushungan sharqshunos olim A.Mannonov Afg'onistonda istiqomat qiluvchi pashtunzabon va dariyazon aholi og'zaki badiiy ijodi materiallarini to'plashga kirishib, ushbu mamlakatning turli hududlaridan yozib olingan afsonayu rivoyatlar, ertak va naqlar, maqol-matallar, doston va qissalar, latifayu topishmoqlardan iborat nodir manbalarni bir joyga jamlash maqsadida astoydil ish olib bordi. Natijada serviqor cho'qqili tog'lar orasidagi so'lim daralarda ohangrabodek jaranglagan landey deb ataluvchi qadimiy qo'shiqlar, ko'kalamzor vodiylar bag'ridagi mo'jzagina qishloq chekkasida joylashgan tomi loysuvoq uydan tarayotgan munis ona allasi, toshlardan toshlarga urilib pastga shoshayotgan sho'xshan daryo sohilidagi majnuntol soyasidagi o'tirib gurun qilayotgan keksa chollarning afsonayu ertaklari, suvsizlikdan qaqrab yotgan jazirama dashtu biyobonlar uzra yangragan dard to'la tarixiy qo'shiqlar, shuningdek, qissaxonlar repertuarida saqlanib qolgan ishqiy-romanik, xayoliy-fantastik va diniy mavzudagi qissalar, dostonlar, ko'plab hikmatli so'zlar, maqol-matallar va topishmoqlar to'plandi. Ana shu boy faktik materialni Buyuk Ipak yo'li mintaqasi xalqlari folklori kontekstida tahlil qilish natijasida olimning "Afg'on xalq og'zaki ijodiyoti" nomli muhtasham monografiyasi yuzaga keldi.

Bu monografik tadqiqotning eng muhim jihati unda afgʻon xalq ijodining janrlar tarkibi, oʻziga xos ijro usullari va bugungi saqlanish holati xususida juda qiziqarli maʼlumotlarni oʻzida mujassam etganligi bilan belgilanadi. Olim 1815 yilyoq afgʻon xalq qoʻshiqlarining oʻziga xosligi va qasidagoʻylik anʼanasi, pashtunlarning baʼzi bir urf-odatlarini haqida maqola yozgan ingliz missioneri M. Elfinston, oʻzining 1876 yilda bosilgan “Banu, yohud bizning afgʻon chegaramiz” nomli kitobida pashtunlarning doston, topishmoq va maqollaridan namunalar keltirgan S. T. Torbern, 1888–1890 yillarda chop etilgan “Afgʻon xalq qoʻshiqlari” kitobida pashtun urf-odat va marosimlari, xalq qoʻshiqchiligi, baxshilar va qissaxonlar ijodi, shuningdek, topishmoq va maqollar, *landey* (ikki misralik sheʼr), alla, yigʻi-yoʻqlovlar, boshqa epik va lirik asarlar haqida keng koʻlamli maʼlumotlarni oʻzida jamlagan fransuz olimi Jems Darmsteter, ingliz tiliga tarjima qilingan oʻnta afgʻon ertagini 1912 yilda “Bengal Osiyo jamiyati axboroti”da pashtu tilidagi asliyati bilan chop ettirgan F. Melon, 1926 yilda Ollohobodda “Afgʻon maqol va matallari” kitobini chop ettirgan K. A. Boylening ishlarini atroflicha tahlilga tortgan. Afgʻonlarning ogʻzaki badiiy ijodi materiallarini toʻplab, ilmiy oʻrgangan B.D. Pureskiy, M.G.Aslanov, Aziz Niallo (Stanishevskiy), K.A.Lebedev, T.G.Abayeva, I.A.Dvoryankov, G.F.Girs tadqiqotlari hamda afgʻon xalq ertaklari, maqol-matallarining turli yillarda chop etilgan majmualarining ahamiyati koʻrsatib berilgan. Afgʻon (pashtun) xalqining ogʻzaki ijodini oʻrganishga munosib hissa qoʻshgan afgʻonistonlik olimlar, xususan, taniqli maʼrifatparvar shoir Gʻulom Muhayiddin Afgʻon hakmda afgʻon maʼrifatparvar adabiyotining asoschisi Mahmud Tarziyning toʻplovchilik faoliyati, “Anjumani adabiy” (“Adabiy anjuman”), “Anjumani pashtu” (“Pashtu adabiy anjuman”), Afgʻon akademiyasi – “Pashtu toʻlena” kabi tashkilotlarning xalq ijodini yozib olish borasidagi faoliyati xususida qiziqarli maʼlumotlar keltirilgan.

Professor A.Mannonov oʻzining monografik tadqiqotida pashtun xalqining gʻoyatda boy, sarmazmun, oʻziga xos va betakror ogʻzaki ijodiyoti namunalarining janriy mansubiyati haqida fikr yuritarkan, ularni dastavval marosimga aloqador boʻlgan folklor asarlari hamda marosim folklori namunalari kabi ikki katta tipga boʻlib tasniflaydi. Tahlil natijasida tarixiy ildizlari juda qadimiy zamonloarga borib taqaladigan pashtun folklorida Ipak yoʻli mintaqasida istiqomat qiluvchi boshqa xalqlar ogʻzaki badiiy ijodida uchramaydigan oʻziga xos qoʻshiq janri – ikki misrali sheʼriy band tuzilishiga ega “landey”lar yoki

“nimakey”, “bo‘gatey”, “babulola”, “lo‘ba”, “sonde nore”, “kokari nore”, “sarukay”, “de atan nore” kabi she‘r va qo‘shiq turlari, original syujetli qissa-ertaklari mavjudligi aniqlangan. Masalan, ertak janri jahonning deyarli barcha xalqlari og‘zaki badiiy ijodida mavjud bo‘lishiga qaramasdan uning pashtun folkloridagi “qissa-ertak” shaklidagi tipi ijro usuli, syujet qurilishi va motivlar tarkibiga ko‘ra farqlanib turadi. Tarixiy-folkloriy jarayonning asrlar mobaynidagi izchil rivoji davomida ertakchilik va qissaxonlik an‘analarining birikuv natijasida yuzaga kelgan bunday o‘ziga xos folklor asarlari Muhammad Gul Nuriy tarafidan tto‘plab chop ettirilgan. Qissa-ertaklarning ijro jarayoni g‘oyat qiziqarliligi, asarlar syujetining asosan ishqiy-sarguzasht, diniy-ma‘rifiy va qahramonlik-jangnoma xarakteriga egaligi bilan alohida ajralib turadi. Jahon folklorshunosligining eng yangi ilmiy-nazariy konsepsiyalariga asoslangan muallif pashtun xalq qissa-ertaklarini “sehrli-afsonaviy qissa-ertaklar”, “hayvonlar haqidagi qissa-ertaklar”, “hayotiy-maishiy, ya‘ni novellistik ertak-qissalar” va “ishqiy-romantik ertaklar” kabi tiplarga bo‘lgan. Ushbu tasnif bevosita xalq orasidan yozib olingan faktik materiallar tahlili asosida amalga oshirilgan va qissa-ertaklarning barcha mavzularini o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lib, dunyo ertakshunosligidagi nazariy qarashlar mos kelishi e‘tiborga molikdir.

Monografiyani o‘qish jarayonida pashtun xalqi orasida og‘zaki ijodida o‘ziga xos badiiy to‘qimasi, fantastik yo‘nalishi, xayoliy va hayotiy uydirmalarni qiziqarli, zavqli shaklda hikoyalash tarzi bilan alohida ajralib turadigan “Zebzebona Shoperey”, “Jamolxon va Zebiniso”, “Ajdah va shahzoda”, “Nim-kuni” (“Chalavoy”), “Voqeaning boshi va oxiri” (yoki “Go‘zal chaman haqida”), “Sehrli quduq”, “Ibratli hikoya”, “Darvesh”, “Ajoyib bola – G‘aus-ul-Azam”, “Murg‘iy va Mirvays”, “Jonkuyar darvesh va shoh qizi”, “Inson va baxt”, “Jallotxon va Shamoyla” kabi sehrli qissa-ertaklar keng shuhrat qozonganligiga amin bo‘lasiz. Afg‘onlar orasida og‘zaki tarzda tarqalgan hayotiy-novellistik qissa-ertaklar esa hajman ancha keng qamrovligi, syujet qurilishi zanjirsimon tuzilishga egaligi, tasvirlanadigan voqelikning epik ko‘lami kattaligi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Xususan, xalq orasida keng tarqalgan “Fatehxon Baretsay”, “Musajon va Valijon”, “Dovyurak faqir va shoh qizi”, “Yaxshi maslahat evaziga berilgan non”, “Uch og‘a-inilar va yoqut”, “Ayyor talaba va muallim” kabi hayotiy-novellistik qissa-ertaklar badiiy tasvirning quyugligi, hikoyaning jozibadorligi va syujetning qiziqarliligi bilan

tinglovchini o'ziga rom etishi qayd etilgan. Bizning fikrimizcha, pashtun folkloridagi qissa-ertaklarning bu tipi o'zbek xalq og'zaki ijodidagi novellistik ertaklarga o'xshash bo'lib, kelgusida har ikki xalq folkloridagi mazkur janrlarni qiyosiy-tipologik nuqtai nazardan o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Ipak yo'li mintaqasi xalqlarining aforistik ijodiyoti shu darajada murakkab va serqirradi, shu bois purma'no didaktik qarashlarni o'zida aks ettirgan ixcham shakldagi bu folklor namunalari maqol, matal, naql, masal, zarbulmasal, otalar so'zi, mashoyixlar so'zi va boshqa atamalar bilan nomlab kelingan. Maqollar pashtun xalqi folklorining eng qadimiy, uzoq tarixga ega bo'lgan ommaviy janrlaridan tbiri hisoblangani uchun professor A.Mannonov o'z kitobida afg'onlar orasida nasriy yoki sajlangan va qofiyali she'riy shaklda ommalashgan xalq maqolalari tahliliga alohida fasl ajratgan. Ma'lum bo'lishicha, afg'on xalqining jonli og'zaki muloqoti jarayonida qo'llanilib kelinayotgan maqollarning umumiy soni o'n mingdan ortiqroq bo'lib, fikrni g'oyat siqiq shaklda ifoda etishga asoslangan bunday folklor asarlarida xalqning o'ziga xos turmush tarzi bilan bog'liq tushunchalari, hayotiy tajripibalari va ko'nikmalari, asrlar sinovidan o'tib, purhikmat qadriyatlar holiga kelib qolgan axloqiy-etik qarashlari o'z aksini topgan. Tahlil natijasida aniqlanishicha, pashtun maqollarida aossan xalqning dehqonchilik va chorvachilikdan iborat hayot tarzi o'z ifodasini topgan bo'lsa-da, ularning paremiologik merosida ilm-ma'rifat, donishmandlik va nodonlik, oqillik va johillik, aql-idrok, bilimdonlik va bilimsizlik haqidagi maqollar ham ko'p uchrar ekan. Kitobda tahlilga tortilgan "Dono kishi so'zidan ma'lum", "Iste'dod – quyoshning ko'zi", "Aqlli oldinga yuradi, orqaga nazar soladi", "Aql donoga do'st tutinadi", "Oqilga – ishora, aqlsizga – kaltak", "Aqling bo'lmasa, hech narsang yo'q", "Aqli kamning uyida hamisha g'am", "Johilga ikki marta salom ber", "Aqlsiz jamol qidiradi, aqlli – kamol", "Ahmoqning yuki doimo og'ir", "Bir ko'zi ko'r ikkinchisini qo'li bilan berkitar", "Tugunni qo'l bilan yechish mumkin bo'lsa, tish ne darkor?" kabi maqollar pashtun xalq og'zaki badiiy ijodida ilmu hunar, donolik va zukkolikni targ'ib qiluvchi hikmatli so'zlarning ham salmog'i kattaligidan darak beradi.

Kitobda pashtun xalq maqollarining mazmunidan kelib chiqib, shartli ravishda baxt va baxtsizlik, xursandchilik va dushvorlik, musibat va kulfat, rozilik va norozilik; tajribakorlik, tadbirkorlik, iste'dodlik, bilim va bilimsizlik, johillik; mehmonnavozlik, isrofgarchilik, yaxshi xulq va odob egasi bo'lish; sevgi va muhabbat, do'stlik va dushmanlik,

rostlik va yolg'onchilik; sog'lik va betoblik, yoshlik va qarilik, tiriklik va o'lim; farzand va oila, ayol va erkak, qarindosh-urug'chilik, qo'shnichilik, vatan va vatanparvarlik, sotqinlik va dushmanlik; boylik va kambag'allik, saxiylik va hasislik, ochko'zlik; qanoat va qanoatsizlik, til bilan dil birligi, yaxshi va yomon so'z, va'da va va'dasizlik, muomala odobi; mehnat va mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, uddaburonlik, dangasalik va bekorchilik, o'tgan umr; inson, insoniylik munosabatlari; aqlilik va ahmoqlik, kambag'allik va boylik, qadr-qimmat va obro'sizlik, hakamdorlik; adolat va haqiqatgo'ylik, kamtarlik va maqtanchoqlik, yolg'onchilik va ayyorlik, aldoqchilik; izzat-nafslilik, mardlik va irodasizlik, faxr va iftixor, mashhurlik va qo'rqqoqlik, ehtiyotkorlik; taqdir, umidvorlik, kuch-qudrat va zaiflik, qat'iyatsizlik; yaxshilik va yomonlik, ko'rolmaslik va xayrixohlik, manfaatdorlik; odat, ko'nikma, qiliq, o'zboshimchalik, o'ziniki va begonalik; zaruriyat, ehtiyoj, imkoniyat va imkoniyatizlik; vaqt, mezon, hisob-kitob, ko'p va kamlilik; sabab va oqibat, sirtqi va ichki mohiyat, kuzatuvchanlik; pand-nasihat, o'git, maslahatli va bemaslahat tadbir kabi guruhlarga ajratib tasniflangani e'tiborlidir. Maqollarni bunday mavzu tiplariga ajratish ularning mohiyati va mazmunini yanada teranroq tushunish imkonini beradi.

“Afg'on xalq og'zaki ijodiyoti” monografiyasining eng qiziqarli, faktik materiallarga g'oyat boy va tahliliy kuzatishlarning yangiligi bilan alohida ajralib turadigan qismi pashtun xalq she'riyatiga bag'ishlangan faslidir. Muallifning qayd etishicha, afg'onistonlik folklorshunos olimlar xalq she'riyatiga nisbatan ko'proq “qo'shiq”, “ashula” ma'nolarini bildiruvchi “sander” atamasini qo'llaydigan. Shu bois hozirga qadar yozib olingan xalq lirikasi namunalari “Pashto' sander”, ya'ni “Afg'on xalq qo'shiqlari” nomi bilan chop etilib kelinmoqda. Pashtun sanderalari mavzu ko'lamiga ko'ra, ishq-muhabbat, tarixiy-qahramonlik, urf-odat va marosim, satirik va didaktik qo'shiqlarga bo'linsa-da, xalq she'riyatining salmoqli qismini aynan marosim lirikasi tashkil etar ekan.

Afg'on (pashtun) xalqi og'zaki lirik she'riyatining o'ziga xos va eng ommabop turi *landey* bo'lib, bu ikki misralik qofiyasiz she'r hajman nihoyatda qisqa bo'lishiga qaramay, muayyan fikr va kechinmani yorqin, ajoyib badiiy chizgilarda ifodalaydi. Landeylarda ijrochining nozik his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari, dardu tashvishlari, orzu-umidlari, baxtu shodliklari tarannum etiladi. Olimning aniqlashicha, landey janrining qadimiy ildizlari “Avesto”ga borib taqaladi. Chindan ham, bundan bir necha ming yillar burun yaratilgan “Avesto” alqovlari,

ya'ni "goh"larining ijro etilish usuli va she'riy shakli o'zbek folklorining o'ziga xos ijro yo'li – xalfachilik an'anasining yuzaga kelishiga asos bo'lgani singari bu manba xalq ijodining tadrijiy taraqqiyoti davomida pashtun folkloridagi landey janrining shakllanishiga muayyan ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin.

Professor A.Mannonov tomonidan yaratilgan "Afg'on xalq og'zaki ijodiyoti" nomli monografiyaning muhim jihatlaridan yana biri unda pashtun folklori materiallari ayrim o'rinlarda o'zbek xalq ijodi manbalari bilan qiyosiy-tipologik tahlil qilinganligidir. Masalan, ikki qismdan iborat, ya'ni tugun – savol qismi va javob qismidan iborat pashtun topishmog'ining "Bu nima? Yuzta og'zi bor, na qorni bor, na gapiradi?" tarzidagi namunasi xususida so'z yuritgan muallif "bu nima?" so'rog'i asosiga qurilgan topishmoq strukturasi tipologik jihatdan mushtarak matnlar o'zbek folklorida, xususan, "Axlaptoz" ertagida uchrashini qayd qiladi. Xalq ertaklarida qo'llanilgan bunday raqamli jumboq odatda sovchi kelgan qizning donoligi, aqli rasoligidan dalolat beradi. 1959 yilda Samarqand viloyatidagi Zomin tumanining Qarapchi qishlog'ida yashovchi Yorlaqab baxshi Beknazar o'g'lidan folklorshunos M.Afzalov yozib olgan "Axlaptoz" nomli topishmoqli ertakda "Bu nima?" surog'i bilan boshlanadigan topishmoqli aytim bir tomondan, ziyrak, esli, aqli raso juftni topishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchidan, nomunosib, qari, miyasi suyulib qolgan talabgor taklifiga rad javobining o'ziga xos poetik ifodasi vazifasini bajargan. Bunday topishmoqlardan foydalanish Markaziy Osiyo turkiy xalqlari ertakchilik an'analari mushtarak xususiyatlaridan biri bo'lib, "Hutdi Humar", "Kambag'alning dono qizi" kabi turkman xalq ertaklarida ham mavjuddir.

Ushbu tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, jahon, shu jumladan, Sharq xalqlari orasida o'zaro iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy aloqalarni yanada kuchaytirish dolzarb bo'lib turgan hozirgi davrda qo'shni mamlakatlarda yashovchi xalqlarning folklori va yozma adabiyotidan xabardorr bo'lish, uning eng yaxshi badiiy an'analari o'rganish o'zaro adabiy aloqalar va badiiy tarjima amaliyotini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan olganda, A.Mannonov qalamiga mansub monografik mazkur tadqiqot afg'on xalq og'zaki badiiy ijodining o'ziga xosligi, o'rganilishi tarixi, janriy tarkibi va badiiyati haqida keng qamrovli ma'lumot berishi bilan muhim ilmiy qimmatga ega. Qolaversa, bu monografiyada tahlilga tortilgan faktik materiallar va muallifning ilmiy-nazariy xulosalari Sharq

folklorshunosligining turli muammolari yuzasidan tadqiqot olib borayotgan yosh olimlar uchun ham muhim manba vazifasini o'taydi.

XITAN XALQI FOLKLORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Latipov J.L.

*Romitan tuman 41-IDUM o'qituvchisi
O'zbekiston Respublikasi*

Annotasiya: Ushbu maqolada xitan aholisi madaniyatining ilk o'rta asrlardagi rivojlanish jarayonlari, xitan ma'naviy hayotida yetakchi ro'l o'ynagan folklor namunalari hamda ularning kelib chiqishida qo'shni xalqlar bilan munosabatlarning o'rni xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: folklor, diniy e'tiqodlar, moniylik, shomoniylilik, afsona va ertaklar, madaniy ta'sir.

Аннотация: В статье рассматривается развитие киданьской культуры в раннем средневековье, примеры фольклора, игравшего ведущую роль в духовной жизни кидани, и роль отношений с соседними народами в их происхождении.

Ключевые слова: фольклор, религиозные верования, манихейство, шаманизм, мифы и сказки, культурные влияния.

Annotation: This article discusses the development of Khitan culture in the early Middle Ages, examples of folklore that played a leading role in the spiritual life of the Khitans, and the role of relations with neighboring peoples in its origin.

Keywords: folklore, religious beliefs, manichaeism, shamanism, myths and fairy tales, cultural influences.

Xitan xalqlarining madaniyati Uzoq Sharq mintaqasida yashagan qo'shni qabilalar bilan munosabatlar jarayonida shakllanib borgan. Xitan tilining o'rta asr mo'g'ul tiliga juda o'xshashligi tufayli o'sha davr manbalarida ularning etnogenezi bir-biriga bog'liqligi ta'kidlangan. Til yaqinligi xususiyati, tabiiyki, madaniy aloqalarning almashinuvida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, tarixiy adabiyotlarda xitan lug'atidagi turkiy so'zlarning aksariyati siyosiy va harbiy atamalardan iborat ekanligi ta'kidlanadi [1,197]. Bu esa Turk va Uyg'ur xoqonliklari davridagi siyosiy-madaniy ta'sir natijasidir. Ko'chmanchi xalqlar madaniyatining o'zaro mushtarakligi ularning odat, an'analari hamda folkloridagi o'xshashlikda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ko'chmanchilar kundalik hayotida diniy e'tiqodlarning ta'siri juda kuchli edi. Xitan xalqlarining e'tiqodi dastlab urug'chilik davridagi

diniy tasavvurlarga asoslangan. Ye.Kichanovning yozishicha, ularda olov (yoki quyosh)ga topinish e'tiqodi mavjud bo'lgan [2,135]. Bundan tashqari, xitan afsona va rivoyatlariga asoslanib, ajdodlar ruhiga sig'inish va tabiat kuchlariga sig'inishning shakllanganligini taxmin qilish mumkin.

Abu Rayhon Beruniyning o'zining «Osor al-boqiya» asarida, Xitoy aholisining aksari Moniy dini va mazhabidirlar, deb yozadi [3,243]. Xitanlar qariyb bir asr davomida moniylikka e'tiqod qiluvchi uyg'urlar ta'sirida bo'lgan esa-da, ushbu fikrini haqiqat sifatida qabul qilishga to'la asoslar yetarli mavjud emas. Eng avvalo, Beruniy «Xitoy» deganda qaysi hududni nazarda tutganligi aniq emas. Chunki, tarjima izohlarida gap aynan ko'chmanchi xitanlar yoki Shimoliy Xitoy aholisi haqida ketayotganligi aniq izohlanmagan. Biz moniylik dinining xitan xalqlari orasida mavjud bo'lganligini aslo inkor qila olmaymiz. Lekin, uning jamiyatdagi hukmron e'tiqod shakli bo'lganligi haqidagi xulosa, fikrimizcha, bahslidir.

Beruniy, shuningdek, Xitoyda shomoniylarning keng tarqalganligi haqidagi ma'lumotni yozib qoldirgan [3,235]. Ko'chmanchi hayot tarzida yashovchi xitanlarda bu e'tiqodning mavjud bo'lganligini hech kim inkor eta olmaydi. Tarixiy adabiyotlarning guvohlik berishicha, xitanlarda tabiat kuchlarini ilohiylashtirish ham kuzatilgan. Bu esa, albatta, urug'chilik davridan qolgan diniy tasavvurlarning ta'siri edi. Masalan, ular quyuni ko'rganda, ko'zni yumib, «kunbula» deya havoni 49 marta qamchilaganlar[4,314]. Bu odat keyingi davrlarda ham ba'zi turkiy xalqlarda kuzatilgan. Qozoq ma'rifatparvari Ch.Valixonov quyunning ilohiylashtirilishi xitanlarda bo'lgani kabi qirg'izlar (aslida qozoqlar)da ham mavjudligini ta'kidlab o'tgan [5,59].

Xitan afsona va rivoyatlari sodda mazmunga egaligi va tilining xalqchilligi bilan ajralib turadi. Ularning xitanlar etnogenezi haqidagi afsonasiga ko'ra, ilk ajdod – Sishou xoqon oq ot minib muqaddas Tuxe (hozirgi Laoxa) daryosi bo'ylab sharqqa tomon ketayotgan vaqtida Xuanshuy (hozirgi Shara-Muren) daryosi sohillaridan kulrang ho'kiz qo'shilgan aravada yurgan Tyan'nyuy (samoviy ayol)ni uchratib qoladi. Ikki daryo qo'shiladigan Mue tog'ida ular turmush qurganlar. Sishou xoqonning sakkiz o'g'ildan qabilalar paydo bo'ladi. Shuning uchun xitanlar harbiy yurishlar oldidan oq ot va kulrang ho'kiz so'yib, qurbonlik qilganlar [2,256-257]. Ba'zi tarixchilar Sishou xoqon haqidagi ushbu afsonani afsonaviy mo'g'ul xoqoni Budanjir Munqaq bilan bog'liqligini taxmin qiladilar [6,20]. Masalaga bir yoqlama qarash,

fikrimizcha, to'g'ri emas. Chunki, ikki daryo tutashadigan joydagi uchrashuv syujeti koreyslarning Koguryo davlati asoschisi qirol Tongmyong (asl ismi Chumong, mil. avv. 37-18 yy)ning tug'ilishi haqidagi rivoyatda ham mavjud [7,35]. Aslini olganda esa, turli xalqlarning afsonalaridagi ba'zi o'xshashliklar, odatda, ushbu xalqlarning yagona tarixiy makonda yashaganliklari bilan bog'liqdir.

Aholi orasida keng tarqalgan afsona va ertaklarda xalqning og'ir kunlarida yordamga shay turadigan personajlar haqida hikoya qilinadi. Masalan, Nayxe ismli qabila sardori haqidagi afsonaga ko'ra, aylana bir chodirda uning bosh chanog'i shaklida xalq ko'zidan yashirin turishi bayon qilinadi. Agar davlatda tartibsizliklar yuz bersa, uning sharafiga oq ot va kulrang ho'kiz qurbonlik qilingan hamda uning inson qiyofasiga kirib, ushbu nizolarni bartaraf etishi va qayta boshchanoqqa aylanishiga ishonilgan [4,311]. Bundan tashqari, to'ng'iz boshi va terisidan ishlangan po'stin kiyib yuruvchi sardor Vayxe haqidagi cho'pchakda uning harbiy harakatlar vaqtida paydo bo'lishi haqida hikoya qilingan edi [1,197]. Ushbu afsonalarda qirg'inbarot urushlar va harbiy to'ntarishlardan bezgan xalq o'zi orzu qilgan tinchlikparvar xayoliy qahramonlarni yaratgan edi. Sodda syujetga asoslangan bu cho'pchaklar ertangi kunning bugungiga nisbatan yaxshi bo'lishiga ishonch ruhi bilan sug'orilgan.

Yana bir ertakda Chjouli Xunxe ismli qabila sardorining yigirmata qo'yi borligi va har kuni sardor ularning o'n to'qqiztasini yeb, birini qoldirishi, ertasiga esa yigirmata qo'yning yana paydo bo'lib qolishi haqida hikoya qilinadi [4,311]. Bu afsonada bir necha o'n yillar mobaynida ocharchilik va darbadarliklarga mahkum etilgan to'pori xitan xalqining to'qlik va mo'l-ko'lchilik haqidagi orzulari o'z aksini topgan edi.

Xitan folklori kelib chiqishi va mazmun jihatidan turk-mo'g'ul xalqlari og'zaki ijodi namunalariga juda yaqindir. Ye.Kichanov Rashididdinning «Jome ut-tavorix» asaridagi ma'lumotlarga asoslanib, VIII asr o'rtalarida xitanlar tazyiqi ostida mo'g'ullar yashab turgan hududlaridan g'arbga siljiganlar, deya xulosa beradi. Natijada «Arkanaqun dostoni» shakllangan [8,14]. Ammo, bu masala alohida tadqiqotlarni amalga oshirishni talab qiladi. Chunki, xalq dostonlarida o'z ifodasini topgan voqealar, yilnomalardagi ma'lumotlar hamda musulmon muarrixlarining turlicha fikrlarini o'sha davr tarixiy-siyosiy jarayonlari bilan taqqoslabgina aniq ilmiy to'xtamga kelish mumkin. Aslini olganda ushbu doston xunlar davlatining parchalanishi, Turk

xoqonligining tashkil topishi kabi tarixiy voqeliklarning badiiy adabiyotdagi talqinidan iborat turk-mo'g'ul xalqlarining transmilliy eposidir[9].

Turk-mo'g'ul dostonlarining xitan rivoyatlariga yaqinligi faqatgina «Arkanaqun dostoni» voqealari bilan cheklangan emas. Masalan, Chingizxonning ajdodlaridan hisoblangan afsonaviy ayol – Alanquvaning nurdan homilador bo'lishiga o'xshash syujet xitanlarda ham mavjud bo'lib, bu Abaoszining tug'ilishi haqidagi rivoyatdir[10,54]. Ushbu rivoyat mazmuniga ko'ra, uning onasi homiladorlik davrida tush ko'rib, qorniga quyosh nuri kirganligining guvohi bo'ladi. Biroz muddat o'tgach, Abaoszi tug'ilib, shu chog'da uy ichi yorishgan va yoqimli hid ufurgan. U tug'ilgan zahotiy oq emaklay boshlaydi va uch oyligida yurishni o'rganadi. Ushbu ma'lumotlar xalq dostonlari emas, balki, «Lyao shi» yilnomasida bayon etilgan. Abaoszi ulg'aygach, uning bo'yi 10 chi (216 sm)ga yetgan [11,43]. Hukmdorlar shaxsiyatining ulug'vorligini ko'rsatishga urinish barcha davrlarga xosligi uchun ushbu fikrlardan taajjubga tushish shart emas. Lyao saroyi tarixchilari esa bu borada xalq og'zaki ijodi namunalaridagi o'xshatish va qochirimlaridan foydalangan edilar.

Xitan madaniyati biz o'rganayotgan davrda faqatgina tor doiradagi diniy va folklor ijodiyotidan iborat bo'lsa-da, keyingi asrlarda ular Xitoy moddiy va ma'naviy merosining bir qismini tashkil etgan madaniyatga asos soldilar. Xitoycha boshqaruv tizimini o'zlashtirish va rivojlantirish orqali ham o'troq, ham ko'chmanchi turmush sharoitlarda yashovchi qator xalqlarning an'analari asosida shakllangan Lyao madaniy merosi bugungi kunimizga qadar insoniyat hayotida alohida ahamiyatga ega bo'lib keldi. Zero, ushbu madaniyat an'alarining ta'siri zamonaviy dunyoda ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Adabiyotlar:

1. Xu Elina-Qian. Historical development of the pre-dynastic Khitan (Academic dissertation). – Helsinki: Multiprint Oy, 2005. – 300 p.
2. Кычанов Е.И. Кочевые государства от гуннов до маньчжуров. – М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 1997. – 319 с.
3. al-Beruniy Abu-r-Rayhon Muhammad ibn Ahmad. Asarlar. T.1./ Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar./ Tarjimon A.Rasulov. Izohlarni I.Abdullaev va A.Rasulov tuzgan. Mas'ul muharrirlar: I.Abdullaev va O.Fayzullaev. – T.: Fan, 1968. – 488 b.

4. Храповицкий М.Д. Записки о народе Ляо // История Железной империи/ Пер. и коммент. Л.В. Тюрюминой. – Новосибирск: Издательство Института археологии и этнографии СО РАН, 2007. – С.311-314.

5. Валиханов Ч.Ч. Следы шаманства у киргизов // Собрание сочинений в пяти томах. Том 4. – Алма-Ата: Главная редакция Казахской советской энциклопедии, 1985. – С.48-70.

6. Крадин Н.Н., Ивлиев А.Л. История киданьского империи Ляо (907-1125). – М.: Наука – Вост.лит., 2014. – 351 с.: ил.

7. Ким Бусик. Самгук саги (Исторические записи трех государств) Кн.2. Летописи Когурё. Летописи Пэкче. Хронологические таблицы. Издание текста, перевод, вступ. статья и коммент. М.Н. Пака. – М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 1995. – 405, VIII, 344, VII с.

8. Кычанов Е.И. Жизнь Темучжина, думавшего покорить мир: Чингис-хан. Личность и эпоха. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН; Школа-Пресс, 1995. – 272 с.: ил.

9. Latipov J. «Arkanaqun» eposi va uning tarixiy ildizlari. – Vuxoro: «Sadriiddin Salim Vuxoriy» Durдона nashriyoti, 2021. – 60 b.

10. Е Лун-ли. Цидань го чжи. История государство киданей (Перевод с китайского, введение, комментарии и приложения В.С. Таскина). – М.: Наука, 1979. – 608 с.

11. История великой железной империи(Дайляо гуруни судури). Перевод с маньчжурского Л.В. Тюрюминой // История Железной империи/ Пер. и коммент. Л.В. Тюрюминой. – Новосибирск: Издательство Института археологии и этнографии СО РАН, 2007. – С.41-176.

ALDAR KO'SA, NASRIDDIN XO'JA TIPOLOGIYASI VA O'ZIGA XOSLIKLARI

*Madaliev Ya.X., Tursunbaeva G.K., Beskempirova B.K.
starshiy prepodavateli*

*Yujno-Kazaxstanskiy universitet im. M. Auezova
Filologicheskiy fakultet,
Shimkent, Kazaxstan*

Annotasiya: Qozoq xalqining sevimli qahramoni Aldar ko'sa har doim xalqning orzu va armonlari yo'lida xizmat qilgan, mehnatsevar, zolimlar zulmiga xalq tomonidan qarshi turadigan va bunda doimo g'alaba qiladigan obraz sifatida namoyon bo'ladi. Qozoqning maqol-matallaridagi «Kessang qon chiqmaydigan», «Tuxumdan jun qirqqan», «O'zi to'ysa ham ko'zi to'ymaydigan» kabi o'xshatmalarni Aldar ko'sa boylarga, xonlar bilan biylarga nisbatan qo'llagan.

Aldar ko'sa obrazining qozoq xalqiga xos yana bir xususiyati uning minib yurgan otida. O'zbek xalq og'zaki ijodidagi Nasriddin Afandi va turkman fol'kloridagi Kemine yonidagi ajralmas sherigi «aqli» har doim birga yuradi. Aldar ko'sa haqidagi latifalarda u kambag'al, ot buyoqda tursin, hatto eshagi ham yo'q piyoda sifatida tasvirlanadi.

Qozoq shoirlari, yozuvchilari va dramaturglari yaratgan Aldar ko'sa obrazi har doim xalq bilan birga, hamma vaqt bir-birlariga tayanch, suyanch bo'lib tasvirlanadi. Aldar ko'saning xalqchil timsoli va yorqin obrazi zamonlar osha yashayveradi.

Kalit so'zlar: xalq, latifa, maqol, kambag'al, armon.

Аннотация: Алдар Коса, любимый герой казахского народа, всегда служил на пути осуществления мечтаний и чаяний народа, будучи трудолюбивым.

Еще одной особенностью образа Алдара Косы является его конь. Насриддин Афанди в узбекском фольклоре и Кеминэ, неотъемлемая часть туркменского фольклора, всегда "умны". В анекдотах об Алдаре Косе его изображают бедным пешеходом, не говоря уже о лошади, даже после.

Образ Алдара Косы, созданный казахскими поэтами, писателями и драматургами, всегда изображается с людьми, всегда как поддержка друг друга. Популярный образ и яркий образ Алдара Косы будут жить вечно.

Ключевые слова: люди, анекдот, пословица, бедняк, гармония.

Abstract: Aldar Kosa, the beloved hero of the Kazakh people, has always served on the path of the dreams and aspirations of the people, being hard-working.

Another feature of the image of Aldar Kosa is his horse. Nasriddin Afandi in Uzbek folklore and Kemin, an integral part of Turkmen folklore, are always "smart". In the anecdotes about Aldar Kose, he is depicted to poor pedestrians, not to mention a horse, not even after.

The image of Aldar Kosa, created by Kazakh poets, writers and playwrights, is always depicted with people, always as a support for each other. The popular image and bright image of Aldar Kosa will live forever and ever.

Keywords: people, anecdote, poor man, harmony.

Qozoq xalq og‘zaki ijodidagi ma’lum bir latifada Aldar ko‘sa, Xo‘ja Nasriddin, Jirenshe chechan qahramon nomlari turli hududlarda turlicha, almashtirilib aytilaveradi. Bir yerda latifa Aldar ko‘sa nomi bilan aytilsa, ikkinchi bir yerda huddi shu latifa Xo‘ja Nasriddin nomi bilan atalishi mumkin. Bu jarayonga e’tiroz bildirilmaydi, aksincha qo‘llab-quvvatlanadi. Nafaqat qozoq folklorida, balki butun turk xalqlarining og‘zaki ijodidagi latifa janrining milliy va baynalmilal qahramon darajasiga ko‘tarilgan qahramonlari Xo‘janosir va Aldar ko‘salarni tipik obraz deb atasak to‘g‘ri bo‘ladi.

Nasriddin xo‘ja to‘g‘risidagi ilk ma’lumotlar Abulxayir Rumiyning “Saljuqnoma”sida uchraydi. Sulton Mehmed Jem sultoni humronligi davrida “Saljuqnoma” nomli asarini yetti yil yozgan. 1480 yili kitob holidan bostirgan. Tadqiqotchilar Nasriddin xo‘janing yashagan davri haqida turlicha qarashlarni ilgari suradi. Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda Nasriddin xo‘ja saljuqlar, boshqa ma’lumotlarda esa Amir Temur davrida yashagan deb aytiladi. Nasriddin xo‘ja Almati mintaqasida umr surgan deb ta’kidlaydigan tadqiqotlarda uni 1208 yili Aqmeshitda Abdulla xo‘ja va Sidig‘a xotinning oilasida dunyoga kelgani bayon etiladi. XIX asrda yashab, Sirdaryoda muftiy bo‘lgan Xusaynning “Majmuai-Muxorif” asarida Nasriddin xo‘janing tug‘ilgan joyini Xortu manzili deb ko‘rsatadi. Biroq tadqiqotchilar buni rad etishadi. Atoqli ensiklopedist Fund Kashiruli XIII asrda yashagan Xo‘ja Ibrohim va Sayd Mahmud asarlarining bosh qahramoni Nasriddin xo‘ja bo‘lishi mumkin deb ta’kidlaydi. Ba’zi tadqiqotchilar saljuqiylar davrida yashagan Darvesh, Bolgariya va Makedoniyada umr surgan Xiter Petr, sisiyalik Glufa, germaniyalik Till, rossiyalik mujik Xorshena kabi

qahramonlarning ham Nasriddin xo‘jaga o‘xshash beligilari bor deydi. Nasriddin xo‘ja Anado‘lining asl farzandi ekani, folklor asarlarida uning eshakkaga ters minib yurganidan aslida xristian monaxi bo‘lgani aytiladi. Boshqa tadqiqotchilar Nasriddin xo‘jani Xuroson mintaqasidan chiqqan darvesh desa, o‘zbeklar uni Buxoroning farzandi deb ko‘rsatishadi. Turkiyalik tadqiqotchilar Istanbulning ilk qozisi bo‘lgan Sivrixisardan chiqqan atoqli Xizir janoblari bilan “Tazarrunoma” muallifi Sinan pashani Nasriddin xo‘ja deb aytishadi. Tadqiqotchi O‘zxon O‘zturk “Nasriddin xo‘ja mo‘g‘ul bosqinchiligining ta’siriga uchragan Anado‘lu xalqining mushfiq holini ifodalagan shaxs. U yozma adabiyot shakllanmagan davrda yurt boshqaruvchilarini o‘tkir tili bilan fosh qilib, xalqning fikrini bildirgan edi”, – deydi. Nasriddin xo‘ja to‘g‘risida atroflicha ma’lumot beradigan manbalarning biri – London muzeyidan topilgan “Xaza Terjemey Nasriddin Yefendi Raxme” nomli asardir. Biroq bu asardagi qahramonning ba’zi xatti-harakatlari Nasriddin xo‘janing qiyofasi bilan to‘g‘ri kelmaydi. Unda Nasriddin xo‘ja avliyosifat qilib tasvirlanadi.

Shuningdek, Nasriddin xo‘ja obrazi genezisini tadqiq etgan olim Mexmed Fuad Ko‘pruluzada 1918 yili e‘lon qilgan “Nasriddin xo‘ja” nomli asarining kirish qismida: “Sivrixisor muftiysi bo‘lgan Xasan ustozning qadimgi manbalarida Nasriddin xo‘janing hayotiga bog‘liq iqtibos ma’lumotlar berilgan. Unda Nasriddin xo‘ja 605 yili Sivrixisorga qarashli Xortu qishlog‘ida tavallud topganligi ta’kidlanadi. Bu 1208 yillarni o‘z ichiga oladi. Lekin Ko‘pruluzadaning “Muftiy Xasanning bu ma’lumoti qaerdan olingani aniq emas” deb aytib o‘tgan. Bu esa yuqorida keltirilgan ma’lumotning to‘g‘riligiga shubha uyg‘otadi. Bu mavzuni tarixchi olim Shinasi Oltindagi mirzo ham qo‘zg‘agan. Uning tadqiqotlarida: “Sivrixisor muftiysi Xasan ustozning “Majmub-i Ma’rif” nomli tugallanmay qolgan asarida Nasriddin xo‘janing 1208 yili Sivrixisorda tavallud topganligi to‘g‘risida ma’lumot keltirilganligini ta’kidlab o‘tgan.

Shuningdek, Ko‘pruluzada “Xo‘ja 635 yili, Said Xayrun va Said Ibrohim sultonlarga yollanma ishlash maqsadi bilan otasidan qolgan merosni Mexmed degan kishiga omonat qoldirib, Aqshexirga yo‘l olgan”ligini aytib o‘tgan. Nasriddin xo‘janing Sivrixisordan Aqshexirga ko‘chganligi haqida yuqorida keltirilgan tarixchi Shinasi Oltindagi mirzo bo‘lsa: “Sivrixisor bilag‘oni Xasan ustozning “Majmub-i Ma’rif” nomli tugallanmay qolgan asarida Nasriddin xo‘janing 1237-1238

yillarda Aqshexirga ko‘chganligi yozilgan” deya ta’kidlashi Ko‘pruluzada axborotini tasdiqlaydi.

O‘zbek adabiyotidagi Nasriddin xo‘ja to‘g‘risidagi latifalarning bir qismi Amir Temurga bag‘ishlanganiga qarab, uni Movoraunnahr qo‘shini Anado‘lini bosib olgan paytda, ya’ni o‘n beshinchi asrning boshida yashagan, deb aytish mumkin. O‘rta Osiyo xalqlarining Nasriddin xo‘ja to‘g‘risidagi latifalari Amir Temurning Anado‘liga yurishidan so‘ng keng tarqay boshlagan. Umuman, O‘rta Osiyo xalqlarida Nasriddin xo‘ja kabi so‘zga chechan, o‘tkir zehni bilan xon va podsholarni esankiratgan shaxslar ko‘p bo‘lgan. Nasriddin xo‘ja hayotligidayoq avliyo sifatida tan olingan. U har doim xalqning g‘amtashvishi bilan yashab, boy va zodagonlarni tanqid qilgan: “Bir kuni Nasriddin xo‘ja eshagini yo‘qotib: “Ey, Oллоh, eshagimni zolim olsa, olsin. Biroq olimga uchratmagin”, debdi. Yurtdoshlari, uning gapidan hayron bo‘libdi. “Zolim olsa, olsin, deganingiz nimasi?” – deb so‘rashibdi. Nasriddin xo‘ja: “Zolim olsa, olsin deganim, zolim eshakning go‘shiti harom ekanini biladi. Olim esa bir amallab fatvo chiqarib, eshakning go‘shiti halol ekan, deb uni yeb qo‘yishi mumkin”, degan ekan. Bu latifada ham jamiyatdagi nohaqliklar qalamga olingan. Bu esa xalqni yengil kulgu bilan bir lahzaga bo‘lsa-da dardu xasratlardan forig‘ qilishga xizmat qilgan.

Kulguning tabiati erkinlikni suyadi. U insoniyatni oqsuyak yoki kambag‘al deb ajratmaydi. U – adolatsizlik va zo‘ravonlikning barcha ko‘rinishlariga qarshi chiqa oladigan katta kuchdir. Agar oddiy xalqning vakili martabasi yuqori shaxsning oldida kula olsa, shon-shuhrat oyoq osti bo‘ladi. Xo‘ja Nosir va xon orasidagi satira kulguning ana shunday ijtimoiy vazifasiga bag‘ishlanadi. Masalan, Xo‘ja Nosir latifalarining birida Xo‘ja Nosirga “ilon yili tug‘ilganman” degan xonga qarab, “Ha, xalqni ilondek chaqishingizning boisi shu ekan-da!” deb javob beradi. Umuman, ijtimoiy haqiqatgina kulgi uyg‘otadi. Insoniyat jamiyati – kulgu va qayg‘u podsholigining makonidir. Chunki, yer yuzida odamzotgina o‘zi kulib, boshqani ham kuldira oladi. Ho‘ja Nosir to‘g‘risidagi latifalarda aql tarozusidan o‘tgan haqiqat bor. Qahramon doimo harakatda bo‘ladi. Bor voqealar hayotning o‘zidan olinadi. Albatta, bunda xayolning ahamiyatini yo‘qqa chiqarib bo‘lmaydi.

Qozoq ertaklarida Aldarko‘sadan ham chapani qahramonlar uchraydi. Masalan, Aldarko‘sadan aldanib, otini oldirib qo‘ygan Jirenshe uyiga kelgani zahoti ayoliga bor voqeani aytib beradi. Ayoli bo‘sh beshikni olib, daryoga yo‘l olgan Aldarning ortidan boradi. Aldar

daryodan beshikni olib o'tay desa, ayol: "Bola bir uyg'onsa, borar yerimga yetgunimcha betinim yig'laydi. Yaxshisi, men o'zim olib o'ta qolay, otingizni bering", deydi. Aldar otini beradi, shunda ayol: "Soqol-murting yo'q, hali yosh ekansan. Esing kirganda keyin javobini berarsan", deb otga qamchi uradi.

Aldar ko'sa obrazi qadimdan madaniyati rivojlangan Eron, Arab mamlakatlari adabiyotiga o'tgani ham sir emas. «951 yil arablar somoniylar ustidan g'alaba qozonib, O'rta Osiyodan son-sanoqsiz qullarni o'lja qilib, ularni Misrga olib borib sotgani tarixdan ma'lum. Shunday qilib bir paytlari saroy shoiri bo'lgan ijodkorlar oddiy xalq bilan aralashadi».

Qozoq xalqining sevimli qahramoni Aldar ko'sa har doim xalqning orzu va armonlari yo'lida xizmat qilgan, mehnatsevar, zolimlar zulmiga xalq tomonidan qarshi turadigan va bunda doimo g'alaba qiladigan obraz sifatida namoyon bo'ladi. Qozoqning maqol-matallaridagi «Kessang qon chiqmaydigan», «Tuxumdan jun qirqqan», «O'zi to'ysa ham ko'zi to'ymaydigan» kabi o'xshatmalarni Aldar ko'sa boylarga, xonlar bilan biylarga nisbatan qo'llagan. Latifalarda xasis ramzi sifatida Chig'aybay obrazi tasvirlanadi. Unga qarshi xalq o'zining suyukli farzandi, uddaburon Aldar ko'sani yuboradi, boyning bermaydiganini oldirib, o'zi yemasdan qizg'anib yashirib o'tirgan ovqatini unga yediradi. Qahri kelgan xasis Chig'aybay Aldarning otini so'ymoqchi bo'lganida, buni sezgan Aldar xiyla bilan Chig'aybayga o'z qo'li bilan o'z otini so'ydiradi. Murakkab yo'ldan o'tib, xiyla bilan xasis boyning qizi Bizbekani ham olib ketadi.

Qozoq jamiyatidagi ijtimoiy, iqtisodiy tuzum taloto'plarida ularga qarshilik ko'rsatadigan asosiy kuch – kulgi, ya'ni Aldar ko'saning latifalari bo'lgan. M.Avezov bu haqida «Bu qurol, bu kulgi – o'lmas xalqning so'nmas kuchi» – deb aytib o'tgan. Demak, Aldar ko'sa haqida aytilgan qozoq latifalari uzluksiz har bir zamon, har bir davrda aytilib, yangilanib, tobora ko'payib, ezgulik yo'lida xizmat qiladi.

Aldar qozoq xalqining suyukli farzandi, u xalq orasidan chiqqan, g'amxo'r o'g'il, xalq uchun kuyib, eli uchun yonib, bor kuchini ayamadan og'ir azobli mehnatning qiyinchiligiga bardosh berib, ijobiy qahramon, aqlli mug'ombirning, farosatli quvning umumlashma obraziga aynalgan.

XX asrning birinchi choragida yozma adabiyot og'zaki ijod bilan chambarchas bog'liq ravishda rivojlana boshladi. O'rta Osiyoda yashagan qozoq, o'zbek, turkman, qirg'iz, qoraqalpoq xalqlarining

folklor qahramonlaridan Nasriddinxo‘ja, Aldar ko‘sa, Kemine, Aychurek, Manas to‘g‘risida hikoya p‘esa, povestlar yozildi. L.Solovevning «Nasriddinxo‘ja to‘g‘risidagi povest»i ikki kitobdan iborat Nasriddinxo‘ja haqida, P.Skosirevning «Vash pokorniy sluga» povesti turkman xalqining atoqli satirik shoiri Kemine nomi bilan og‘zaki ijodiyotning qahramonlari qatoriga aylanib ketishi to‘g‘risidagi ajoyib asardir: Yu.Kryukovskiyning «V poiskax prekrasnoy Aychurek» nomli hikoyasi qirg‘iz xalqining «Manas» eposining syujetiga asoslangan, Yu.Arabning «Veseliye poxojdeniya Nasriddina Afandi» p‘esasi Nasriddinxo‘ja haqida yozilgan dramatik asarlardan biri hisoblanadi.

Yozuvchi S.Adambekovning Aldar ko‘sa haqidagi yozgan hikoyalarining barchasi ham ertak syujetiga asoslangan. Hatto Aldar ko‘sa haqida aytiladigan latifalarda Chig‘aybay qaynotasi va Bizbeka uning o‘z ayoli sifatida tasvirlangan. Bir emas, bir necha bor Aldar akaning o‘zi bugungi kunda xalq bilan birga yurib, hayot kechirayotgan, ammo o‘tgan zamondagi Aldar ko‘sa ekanligini aytib, xalqni maftun qiladi.

S.Adambekovning satirik hikoyalari matnidagi latifalar ertak motivlaridagi ajoyib voqealar va chechanlik so‘zlar, maqol-matallar Aldar ko‘sa obrazining ichki psixologik holatini, uning dunyoqarashini, fe‘l-atvorini, milliy xarakterini anglatadi. Avtor Aldar ko‘saning to‘la qomatini, original turdagi milliy qahramonning obrazini hayotiy qilib ko‘rsata olgan. Qozoq qalamkashlari tasvirlaganidek, har bir davrning o‘z Aldar ko‘sasi bor ekanligiga iqror bo‘lamiz. Ertak syujetli latifalarda uchraydigan Aldarning Bizbeka ismli xotini ham, Chig‘aybay qayin otasi ham barhayot obraz sifatida ifodalanadi. Aldar va Bizbeka Taldiqo‘rg‘on viloyatidagi Qoratol daryosi atrofidan ko‘chib kelgan Chig‘aybayni eshitib, uni izlab chiqish syujeti ertak syujetiga xosdir. Mana shu safarida ham mehmonxonaning ichi sovuq, qandalasi ko‘p ekanligini ko‘rib, qattiq ranjiydi. Bu singari kamchiliklarni bartaraf qilishning yo‘llarini qidiradi. Gostrolga kelgan teatr artistlarining konserti konsert emas, taka o‘yin kabi bir-birlarini yelkalari bilan turtib, oyoqlarini chalib yurgandan noliydi. Yoshlarning ustki kiyimlarini ham yechmasdan teatrga kirib, tamaki chekib o‘tirganlariga ham o‘z noroziligini bildiradi.

Aldar ko‘sa obrazining qozoq xalqiga xos yana bir xususiyati uning minib yurgan otida. O‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi Nasriddin Afandi va turkman fol'kloridagi Kemine yonidagi ajralmas sherigi «aqli» har doim

birga yuradi. Aldar ko'sa haqidagi latifalarda u kambag'al, ot buyoqda tursin, hatto eshagi ham yo'q piyoda sifatida tasvirlanadi. Ba'zan esa ot minib, juldur chaponi bilan sovuqda ketayotganida oldidan yaxshi kiyingan, yaxshi ot minib duch kelgan boyni aldab, uning to'nini kiyib, yaxshi otini minib ketadi. Ikkinchi bir Jayroncha chechan bilan bog'liq latifalarda piyoda kelayotgan Aldarga to'qnashib «Sen meni alday olmaisan», deganida, men seni aldaydigan edim, lekin aldaydigan tayog'im uyda qolib ketibdi-ku, – deb Jayronchaning otini minib ketishi, Aldarning ko'pincha piyoda, bo'lmasa otga minib yurganligini ko'rsatadi. Bu holat Aldarning ko'chmanchi el orasidan chiqqan vakil ekanligini anglatadi. Rus yozuvchilaridan L.Solovevning Nasriddinxo'ja to'g'risida yozgan povestida o'zbekning Nasriddin xo'jasi shaharda o'sgan inson obraz sifatida tasvirlaydi. P.Skosirevning yozganidagi Kemine turmushi bilan chambarchas bayon qilinadi.

Qozoq shoirlari, yozuvchilari va dramaturglari yaratgan Aldar ko'sa obrazi har doim xalq bilan birga, hamma vaqt bir-birlariga tayanch, suyanch bo'lib tasvirlanadi. Aldar ko'saning xalqchil timsoli va yorqin obrazi zamonlar osha yashayveradi.

Adabiyotlar:

1. Jumanazarov U. O'zbek folklori va tarixiy voqelik. – Toshkent: Fan, 1995. – 144 b.
2. Jo'raev M. O'zbek samoviy afsonalari. – Toshkent: Fan, 1996. – 108 b.
3. Jo'raev M., Sattieva D. O'zbek folklorida hayot daraxti. – Toshkent: Fan, 2010. – 64 b.
4. Jo'raev M., Shomusarov Sh. O'zbek mifologiyasi va arab folklori. – Toshkent: Fan, 2001. – 136 b.
5. Адамбаев Б. Тарихи аңыз-әңгімелер. – Кітапта: Қазақ фольклорының типологиясы. – Алматы: Ғылым, 1977, 79-128 бб.

MAVLID MAROSIMLARIDA ME'ROJ BAYONI

Turdiyev Jahongir

*Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti*

Toshkent, O'zbekiston Respublikasi

Annotasiya: Mazkur maqola musulmon xalqlari tomonidan nishonlanadigan Mavlid marosimi va unda Me'roj hodisasining bayoniga bag'ishlangan. Unda mavlidga oid asarlar va ularning xususiyatlari tahlil etilgan. Mavlidga oid asarlarning taraqqiyoti jarayonida uni tahlil qilishda tarixiylik va hozirgi holat masalasini ajratish muhim ahamiyatga ega. Asar hamda mavlid marosimlarining xususiyatlarini yoritishda ana shu jihatlarga e'tibor qaratilgan. Maqolada asarda bayon etilgan Isro va Me'roj voqeasiga oid ma'lumotlar haqida ham so'z yuritilgan. Shuningdek, maqolada asarda qo'llanilgan nasriy qofiyaning o'ziga xosligi haqida bahs yuritilgan.

Kalit so'zlar: Mavlid, marosim, Isro, Me'roj, saj, siyrat.

Аннотация: Эта статья посвящена церемонии Мавлид, отмечаемой мусульманскими народами, и описанию в ней события Мираджа. Анализируются произведения Мавлида и их особенности. В процессе разработки работ Мавлида важно различать исторические и текущие вопросы при его анализе. Эти аспекты подчеркиваются в работе и при освещении особенностей церемоний мавлидов. В статье также упоминается информация о событиях Исры и Мераджа, описанных в произведении. В статье также рассматривается специфика прозаической рифмы, использованной в произведении.

Ключевые слова: Мавлид, ритуал, Исра, Мирадж, садж, сийрат.

Abstract: This article is devoted to the Mawlid ceremony celebrated by Muslim peoples and describes the event of Miraj in it. The works of Mawlid and their features are analyzed. In the process of developing Mawlid's work, it is important to distinguish between historical and current issues in his analysis. These aspects are emphasized in the work and in highlighting the features of the Mawlid ceremonies. The article also mentions information about the events of Isra and Miraj described in the work. The article also examines the specifics of the prosaic rhyme used in the work.

Key words: Mawlid, ritual, Isra, Miraj, saj, siyrat.

Ajdodlarimiz payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning siyratlari ya'ni, ularning hayotlari tarixini ilmiy o‘rganib, u zotga ergashib, ulardek yashashga intilib kelganlar. Zero, ularning hayotlari insoniyat havas qiladigan, barchaga o‘rnak bo‘ladigan komillik yo‘lidir.

Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamning hayotlari tarixiga bag‘ishlangan asarlar ilmda Siyrat deb nomlanadi. Vaqt o‘tib, siyratga bag‘ishlangan asarlar ichida siyratning ma’lum bir jabhasi yoritilgan asarlar ham ko‘paya bordi. Ulardan payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning xususiyatlariga bag‘ishlangan tur asarlar “Al-Xasois” – “Rasulullohning xususiyatlari” deb nomlangan bo‘lsa, u zot ishtirok etgan g‘azotlarga ko‘proq e’tibor berib, ularning shijoatlari yoritilgan asarlar “Mag‘oziy” – “G‘azotlar” degan nomni oldi.

Shuningdek, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning tavalludlarini markaziy nuqta qilib olib ana shu olamshumul hodisa atrofidagi ma’lumotlar haqida so‘z yuritishga urg‘u bergan siyrat asarlari turkumi ham vujudga keldi va ular “mavlid”, ya’ni “tavallud oni” yoki “mavlidun-Nabiy” – “Nabiyning tavallud oni” deb ataldi [4.19-20].

Mavlid munosabati bilan qilinadigan yig‘inlar ikki shaklda tus olgan. Ba’zi joylarda bu tadbir bayramona kayfiyatda, shodlik izhor qilish, sovg‘alar ulashish, na’t va nashidlar kuylash kabi ishlar bilan o‘tkaziladi. Ikkinchisi esa ilmiy anjuman shaklida o‘tkaziladigan mavlid yig‘inlaridir. Bular mavlid oyini siyratni o‘rganish mavsumi sifatida o‘tkazishga qaratilgan tadbirlardir. Bugungi kunda har ikkala usulni jamlagan holda mavlid yig‘inlari qilish ham keng yoyilgan [4.4].

Mavlid asarlaridan maqsad, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning shaxsiyatlarini qisqaroq yo‘l bilan tanishtirish, hayolda gavdalantirish va u zotning tavalludlari ulkan hodisa, insoniyat uchun buyuk ne’mat ekanini uqtirishdir. Mavlidlarda asosan Nabiy sollallohu alayhi vasallamning hayotlarining ilk bosqichlarini yoritishga alohida e’tibor berilgan. Ularning xulqlari, mehribonliklari umuman barcha fazilatlarini yoritishga katta ahamiyat berilgan. Ayrim mavlidga bag‘ishlab yozilgan asarlarda Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam hayotlari bilan bog‘liq birgina voqea hikoya qilinsa, boshqalarida u kishining mo‘jizalari kengroq tasvirlangan.

Umuman har yili hijriy-qamariy taqvimning rabi’ul avval oyida mavlid marosimlari o‘tkazish va bu marosimlarda mavlid asarlaridan va so‘z ustalarining na’tu madhlaridan o‘qib, payg‘ambarimiz Muhammad

Mustafo sollallohu alayhi vasallamning tavallud oylarini keng miqyosda. Xursandchilik bilan nishonlash musulmon olamida bir necha asrdan beri davom etib kelayotgan an'analardan hisoblanadi. Bizning yurtimizda ham ota bobalarimiz, otin oyilarimiz tomonidan mavlid marosimlari keng nishonlanib kelinadi. Shuningdek masjidlarda ham mavlid tadbirlari ko'tarinki ruhda o'tkaziladi. Diyorimizda bu kabi tadbir va marosimlarda Imom Said Jafar ibn Hasan Barzanjiyning arab tilida bitilgan "Iqdul-javhar fi mavlidun-Nabiyyil Azhar" ("Porloq yuzli Nabiyning mavlidlari xususidagi gavhar marjon") asaridan keng foydalanib kelingan. Mazkur mavlid asari yurtimizda shu qadar keng tarqalganki, xalq o'rtasida mavlid deyilsa, faqat shu asar tushuniladigan bo'lib qolgan. Buning sabablaridan biri Imom Barzanjiy rahmatullohi alayhining mavlidida asosan sahih, ishonchli ma'lumotlar keltirilgan. Bu esa asar qimmatini oshirishda muhim omillardan hisoblanadi.

Bu asar xalqimiz orasida keng tarqalgani va barchani qiziqtirgani sababli bir necha bor o'zbek tiliga tarjima va sharh qilingan. Jumladan, o'tgan asrda Marg'ilonda yashab, ijod qilib o'tgan olimlarimizdan biri Foziljon maxdum, Toshkent Islom universiteti tadqiqotchisi Nodirbek Nabijon o'g'li, yosh iqtidorli olimlarimizdan Hasanxon Yahyo Abdulmajid tomonidan amalga oshirilgan tarjima va sharhlar nashr qilingan.

Mazkur asar adabiy uslubdagi mavlidlardan bo'lib, unda Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning mavlidlari va unga bog'liq xabarlar badiiy bo'yoqlarda, balog'atli uslubda hikoya qilingan. Asar saj uslubida yozilgan bo'lib, ikki misradan iborat juftlikning har biri alohida qofiyada berilgan va asarning boshidan oxirigacha juftlikning birinchi misrasi bir tur qofiyada, ikkinchisi yana bir tur qofiyada tugallangan. Bunda ana shu oxirgi so'zda to'xtab, so'ngi harfni sokin qilish nazarda tutilgan, ya'ni shundagina qofiya hosil bo'ladi [4.13].

Ma'lumki, payg'ambarlar bilan sodir bo'lgan g'ayrioddiy ishlar va hodisalar "mo'jiza" deyilsa, avliyolar bilan sodir bo'lgan g'ayrioddiy ishlar "karomat" deb yuritiladi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bilan bog'liq ko'plab mo'jizalar sodir bo'lgan bo'lib, Isro va Me'roj hodisalari ulkan mo'jizalardan hisoblanadi.

Isro lug'atda "tungi sayr" ma'nosini bildirsa, shar'iy istilohda, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning Makka shahridan Quddus shahriga qilgan tungi sayrlari "Isro" deyiladi. Isro hodisasi Qur'oni Karim oyatlari bilan sobit bo'lgan. Bu haqda Isro surasining 1-oyatida bayon qilingan:

O‘z bandasini kechasi Masjidul Haromdan atrofini barakali qilganimiz Masjidul Aqsoga mo‘jizalarimizni ko‘rsatish uchun sayr qildirgan Zot pok bo‘ldi. Albatta, U eshituvchidir, ko‘ruvchidir [1. 282].

Oyatdagi “O‘z bandasi”dan murod, Muhammad sollallohu alayhi vasallamdir. Muhammad sollallohu alayhi vasallam doimo Allohning bandasi ekanliklari bilan faxrlanib yurar edilar. Ushbu oyatda u zotning nomlar aytilmay, “O‘z bandasi” iborasi ishlatilishi ham Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam faxr hamda eng og‘ir paytda u kishi uchun tasallidir [2.180].

“Me’roj – Nabiy sollallohu alayhi vasallamning Isrodan so‘ng o‘sha kechaning o‘zida “Masjidul Aqso”dan oliy samolarga, keyin “Sidratul muntaho”ga ko‘tarilishlari, so‘ngra o‘sha kechaning bir qismining o‘zidayoq “Baytul Maqdis”ga qaytishlaridir.

Me’roj lug‘at jihatidan narvonga o‘xshash “ko‘tarilish asbobi” ma’nosini anglatadi. Lekin uning qanday narsa ekani noma’lumdir. Uning hukmi ham boshqa g‘aybiy narsalarning hukmi kabi bo‘lib, shakl va holati qandayligini bilishga urinib aqlni qiynash durust emas” [3.170].

Me’roj haqidagi xabar sahih hadislarda kelgan. Jumladan, Imom Buxoriy o‘zining “Sahih”ida Molik ibn Sa’sa’a roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisni keltirib o‘tgan.

Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom me’roj kechasida Allohning qudratiga dalil bo‘luvchi ulkan belgilarni, jumladan, jannatni, do‘zaxni, Obod uyni (Baytul ma’murni), o‘tgan payg‘ambarlarni, Jabroil alayhissalomning asl holatlarini va boshqalarni ko‘rdilar. G‘aybga taalluqli mazkur narsalar Payg‘ambar alayhissalomga ko‘rsatilishining hikmati ko‘p. Jumladan, u zot kishilarni da’vat qiladigan narsalarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib, qalblaridan tasdiqlab olsalar, da’vat oson kechadi. Xaloyiqqa xujjat keltirish oson bo‘ladi, mo‘minlarning qalblari taskin topadi va hokazo. Kishilarni Muhammad alayhissalom o‘z ko‘zlari bilan ochiq-oydin ko‘rgan, qalblari ishonch ila tasdiqlagan xujjatli va dalilli narsaga chaqirganlar.

Imom Barzanjiy ham “Iqdul-javhar fi mavlidun-Nabiyyil Azhar” nomli asarlarida Isro va Me’roj hodisasini yuksak badiiy mahorat bilan ifodalaganlar.

Hadisi sharifda Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning “Isro va Me’roj” kechasida payg‘ambarlarni ko‘zlari bilan ko‘rganlari rivoyat qilingan. Yana u zotning barcha payg‘ambarlarni samoda ham ko‘rganlari zikr qilingan.

Mavlid asari muallifi ana shu hadisidagi ma'nolarni muxtasar qilib quyidagicha ifoda etadi:

أُسْرِي بِرُوحِهِ وَجَسَدِهِ يَقْظَةً مِنَ الْمَسْجِدِ الْحَرَامِ إِلَى الْمَسْجِدِ الْأَقْصَى وَرِحَابِهِ الْقُدْسِيَّةِ
ثُمَّ
وَ عُرِجَ بِهِ إِلَى السَّمَاوَاتِ فَرَأَى آدَمَ فِي الْأُولَى وَ قَدْ جَلَّلَهُ الْوَقَارُ وَ عَلَاهُ

So'ngra u zot sollallohu alayhi vasallam ruh jasadlari bilan uyg'oq hollarida Masjidul Haromdan masjidul Aqsoga, uning muqaddas rahbarlariga (Ochiq keng maydon, masjid hovlisi) tunda sayr qildirildilar hamda u zotni osmonlarga olib chiqildi. U zot birinchi osmonda Odam alayhissalomni ko'rdilar. Darhaqiqat, viqor uni ulug'vor qilib, qamrab olgan edi [4.171].

وَ فِي الثَّانِيَةِ ابْنَ الْبُتُولِ الْبِرَّةَ التَّقْشِيَّةَ
وَ ابْنَ خَالَتِهِ يَضْحِي الَّذِي أُوتِيَ الْحُكْمَ فِي صِبَاهُ

Ikkinchi osmonda ma'suma, oliyjanob, taqvodor ayolning o'g'li Iyso alayhissalomni hamda uning xolasining o'g'li, bolaligidayoq hikmat berilgan Yahyo alayhissalomni ko'rdilar [4.171].

وَ فِي الثَّلَاثَةِ يُوسُفَ الصَّادِقَ بِصُورَتِهِ الْجَمَالِيَّةِ
وَ فِي الرَّابِعَةِ إِدْرِيسَ الَّذِي رَفَعَ اللَّهُ مَكَانَهُ وَ أَعْلَاهُ

Uchinchi osmonda rostgo'y Yusuf alayhissalomni chiroyli suratda ko'rdilar. To'rtinchi osmonda esa Alloh martabasini baland va oliy qilgan Idris alayhissalomni ko'rdilar [4.172].

وَ فِي الْخَامِسَةِ هَارُونَ الْحَبَّابَ فِي الْأُمَّةِ الْإِسْرَائِيلِيَّةِ
وَ فِي السَّادِسَةِ مُوسَى الَّذِي كَلَّمَهُ اللَّهُ وَ نَجَّاهُ

Beshinchi osmonda banu Isroil ummati o'rtasida mahbub bo'lgan Horun alayhissalomni ko'rdilar. Oltinchi osmonda esa Alloh gaplashgan va nojot bergan Muso alayhissalomni ko'rdilar [4.172].

وَ فِي السَّبْعَةِ إِبْرَاهِيمَ الَّذِي جَاءَ رَبَّهُ بِسَلَامَةِ الْقَلْبِ حُسْنِ الطَّوِيَّةِ
وَ حَفِظَهُ اللَّهُ مِنْ نَارِ نَمْرُودَ وَ عَافَاهُ

Yettinchi osmonda Robbiga salomat qalb sof dil bilan kelgan Ibrohim alayhissalomni ko'rdilar. Alloh uni Namrudning olovidan asrab salomat saqlagan edi [4.173].

Imom Barzanjiy hazratlari o‘z asarlarida Isro va Me’roj voqealarini o‘ziga xos tarzda bayon etib, bu bayonni o‘quvchini hamda eshituvchini tasirlantira olganlar.

Muallifning “Iqdul-javhar fi mavlidun-Nabiyyil Azhar” (“Porloq yuzli Nabiyning mavlidlari xususidagi gavhar marjon”) asari tili adabiy va juda yengilligi keng ommaga manzur bo‘lishini ta’minlagan.

Imom Barzanjiy hazratlari Qur’on, hadis, siyrat va tarix ilmlarini puxta bigani sababli o‘z asarlarining asosiy iboralarini mazkur manbalardan olganini ko‘rish mumkin.

Asarda berilgan asosiy ma’lumotlar ishonchliligi bilan alohida ahamiyat kasb etgan. Muallif asarda Muhammad sollallohu alayhi vasallamning siyratlarini muxtasar bayon etib, unda voqealar rivojini davriy tartibda olib borganlar.

Adabiyotlar

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur’oni Karim va o‘zbek tilidagi ma’nolar tarjimasi. Isro surasi 1- oyat. 632b.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. 19 juz. Toshkent. 2006. 576b.
3. A.Abdurahim. E’tiqod durdonalari. Toshkent. 2012. 384b.
4. Sayyid Ja’far ibn Hasan Barzanjiy. Mavlid. Hasanxon Yahyo Abdulmajid tarjimasi va sharhi. Toshkent 2015. 336b.
5. AN-NAIM. Arabcha-o‘zbekcha lug‘at. Toshkent- 2003 960b

TÜRK-İSLAM ELYAZMA SANATLARINDA BESTİAR MOTİFLER

Doç.Dr. Sabina Nematzade.

*Azerbaycan Milli Bilimler Akademisi Z.Bünyadov adına Şarkiyat
Enstitüsü, Doğu-Batı Bölümü
Bakü, Azerbaycan*

Özet: Ulusların tarihsel köklerini, kimliklerini ve kültürel değerlerini yansıtan sanatlar vardır. Bunların korunması ve gelecek nesillere aktarılması çok önemlidir. Hat, minyatür, tezhip, cilt gibi sanatları içeren yazmalar, dini ve ahlaki değerleri, halk mitolojisini ve estetik beğeniye bünyesinde somutlaştırmaktadır. El yazmalarda natüralist motiflerin yanı sıra bazen bestiar yani zoomorfik motiflere de rastlıyoruz.

Yazar makalesinde Türk-İslam el yazma sanatlarında yer alan Ejderha, Simurg, Humay kuşu gibi hayvansal motifleri ele almakta ve bunların dini-mitolojik anlamlarını incelemektedir.

Anahtar kelimeler: El Yazma, Sanat, Motif, Bestiar, Ejderha, Simurg, Humay

Резюме: Есть искусства, которые отражают в себе исторические корни, идентичность и культурные ценности народов. Очень важно защитить их и передать будущим поколениям. Рукописи, содержащие такие искусства, как каллиграфия, миниатюра, иллюминация, переплет, воплощают религиозные и моральные ценности, народную мифологию и эстетический вкус. Помимо натуралистических мотивов, в рукописях иногда встречаются бестиарные (зооморфные) мотивы.

В своей статье автор исследует бестиарные мотивы в тюрко-исламских рукописных искусствах, такие как Дракон, Симург, Хумай и их религиозно-мифологические значения.

Ключевые слова: рукопись, искусство, мотив, бестиар, дракон, Симург, Хумай

Summary: There are arts that reflect the historical roots, identity and cultural values of peoples. It is very important to protect them and pass them on to future generations. Manuscripts containing such arts as calligraphy, miniature, illumination, binding, embody religious and moral values, folk mythology and aesthetic taste. In addition to naturalistic motifs, bestiary (zoomorphic) motifs are sometimes found in manuscripts.

In his article, the author explores bestiary motifs in Turkic-Islamic manuscript arts, such as The Dragon, The Simurg and The Huma bird, and their religious and mythological meanings.

Keywords: *Manuscript, Art, Motif, Bestiar, Dragon, Simurg, Huma bird*

Ulusların tarihsel köklerini, kimliklerini ve kültürel değerlerini yansıtan sanatlar vardır. Bunların korunması ve gelecek nesillere aktarılması çok önemlidir. Hat, minyatür, tezhip, cilt gibi sanatları içeren yazmalar, dini ve ahlaki değerleri, halk mitolojisini ve estetik beğeniye bünyesinde somutlaştırmaktadır. El yazmalarda natüralist motiflerin yanı sıra bazen bestiar yani zoomorfik motiflere de rastlıyoruz.

Bestiar (zoomorfik, hayvan kaynaklı) motifler iki gruptan oluşmaktadır. Bunlar Orta Asya'dan gelen Simurg (Zümrüdü Anka), Ejderha ve Kilin (ejderha atı) gibi tamamen hayali hayvan motifleriyle yanı sıra geyik, ceylan, aslan, pars, tavşan, kuş, balık, leylek gibi özelliklerini ve isimlerini koruyan hayvan motifleridir.[3, 61] Tezyinatta genellikle hayal ürünü olan bestiar motiflere rastlandığını belirtmek gerekmektedir.

Türklerde Ejderha (Ejdeha), yılan ve timsahın farklı hayvanlarla birleşmesinden oluşan bir yaratıktır gibi tasvir edilmektedir. Sıcak mevsimde bir kuş gibi gökyüzünde uçtuğuna, sonbaharda ise su yılanı veya timsah gibi yerin altına saklandığına veya suda yürüdüğüne inanılır. Çin kaynaklarına göre ejderha çoğunlukla sarı renkteydi ve imparatorluğun, tahtın, krallığın ve gücün simgesiydi.

Ejderhanın koruma, uyum, hareket, gökyüzü ve evren olarak hayal edilebilecek çeşitli sembolik anlamları vardır. Tüm bu sembolik anlamların ortak paydası, ejderhanın kozmik bir figür olmasıdır. Orta Asya inanışlarına göre evrenin temsilcisi olarak kabul edilen ejderha, gökyüzünün kubbesinin düzenini korumakla görevlidir.[6, 329-335; 7, 7-9] Belirtmek gerekmektedir ki, ejderha edebiyatta bazen ejder olarak ta geçmektedir.

Ejderlerin geceyi ve karanlığı simgeleyen ayı yutmaları ile, güneşin aydınlığının galip gelmesi ve iyiliğin kötülüğe zaferini göstermektedir. Karşılıklı ejder figürü Selçuk Sanatında, Anadolu Beylikleri döneminde de çok sık kullanılan bir motiftir. Çift ejder gök kubbeyi simgelemektedir. Çift ejder figürünün bazen başka mitolojik figürlerle birleştirilerek oluşturulan zengin kompozisyonlar da mevcuttur. [7, 8]



Yedi başlı ejderha (Britaniya Müzesi Add.7874)

Ejderha resimlerinin yanı sıra minyatürlerde, yazıtlarda ve el yazmalarında da Simurg kuşuna rastlıyoruz. Simurg kelimesinin Farsça karşılığı "otuz kuş"tur. Otuz farklı kuşun özelliklerine sahip olduklarına inanılıyor. Simurg devlet kuşu olarak da bilinmektedir.

Gövdesi oldukça iri, renkli ihtişamlı kuyruklu, güçlü bir kuştur. Hatta ejder ile mücadele edebilecek kadar çok güce sahiptir. İnsan gibi konuşan, son derece renkli ve süslü bir kuş olan simurgun, ateşten ve güneşten yaratılmış olduğuna inanılır. Simurg, tavus kuşu, grifon, aslan ve köpeğin ortak özelliklerine sahip olarak ele alınmıştır. [7, 91]

Simurg, pek çok mitolojik hikayede ve masalda karşımıza çıkan, kartal başlı ve pençeli, geniş ağızlı, kuyruğu uzun kıvrımlı, benekli gövdeli, sakallı ve ibikli olarak ifadelendirilen ikonografik bir motiftir. [7]

Zümrüdü-Anka – Simurg, Bülbülü-Anka, Ünka, Feniks (Phoenix) gibi adlarla farklı kültürlerde farklı anlamları taşısa da tüm kültürlerde “yanıp küle dönen, kendi külünden yeniden doğan, dünyada benzeri olmayan, güzel ve güçlü bir hükümdar kuş” özelliğine sahiptir.

Devlet kuşu olarak da bilinen Simurg kuşu, muhteşem renkli kuyruğu olan çok büyük, güçlü bir kuştur. Efsaneye göre, her şeyi bilen Simurg kuşu, Kaf Dağı'nın en yüksek zirvesinde, "Bilgelik Ağacı"nın bir dalında yaşar. Bir gün tüm kuşlar bir araya toplanıp kendilerine hükümdür seçmek kararına gelirler. Hüthüt kuşu Simurg adında dünyada tayı-beraberi olmayan bir kuşlar padişahının mevcutluğunu onlara söyler, hepsi birlikte onu aramak için yola çıkarlar.Kaf Dağı'nın en yüksek zirvesine ulaşmak için yedi dipsiz vadiyi geçmeleri gerekiyordu. Bu vadiler “arzu”, “aşk”, “bilgelik”, “istiğna”, “tevhit”, “serp ve heyret” ve nihayet “beka” vadileriydi. [1]

Bu vadileri geçerken bazı kuşlar yola devam etmeyi reddeder, yarı yolda kalır ve geri döner, bazıları sadece kendilerini düşünmeye başlar, kendilerini beyenip, başkalarını hor görür, semtini değiştirir ve yolunu kaybeder, bazıları yalnız kalır ve daha güçlü hayvanlara yem olur.

Yollarındaki ilk vadide - arzu vadisinde - yüzlerce engelle karşılaşır. Bu vadide dünya mallarından uzaklaşmak gerekir. Çünkü hiçbir şey kalmadığında gönül arınır. Gönül arındıkça, Tanrı'nın dergahında Zat nuru parlak. O ışık kalpte parlarken, bir arzu çoğalır, bin olun.

Sanki büyüdü olan aşk vadisinde, kuşların gözleri sisle kapanır ve gördüklerini güzel görürler. Gözlerini sihirli sis öyle kapatır ki, kendilerine aşık olup birlikte yol aldıkları sürüyü terk ederler. Bilgelik Vadisi'nde, hala Sisli Aşk Vadisi'nin sisinin etkisinde olan kuşlar, cahil ve kayıtsızdır. Zümrüt-Anka'yı bele unuturlar ve bu vadide kalırlar. İstiğna vadisinde bazı kuşlar, tatmin olduklarına karar vererek Zümrüt Kuşu aramaktan vazgeçerler. Kuşlar bu vadiden yolculuklarının boş olduğunu ve amaçlarının anlamsız olduğunu düşünerek dönerler. Tevhid vadisini geçerken sadece Allah'ın tek yaratıcı olduğunu anlayan kuşlar yollarına devam edebilirler. Serp ve hayret vadisini geçmek de her kuşa müesser olmuyor.

Sonuncu vadi yokluk vadisidir. Yalnız bu vadini geçenler varlığa kavuşa bilerler. Bu vadini “fena”dan sonra “beka”ya kavuşmakla kıyaslamak mümkündür. Fenadan sonra bekanın sırlarını yalnız bu sırları hak edenler biler.

Nihayet yedi vadinin ardındaki Kaf Dağı'na ulaştığında, yalnızca otuz kuş kaldı, çünkü bu zorlu vadileri ancak otuz kuş geçebildi. Önceden belirtdiğimiz gibi Zümrüt-Anka'nın başka bir adı olan Simurg kelimesinin Farsça çevirisi "otuz kuş"tur ('si'-otuz,' murg'-kuş). Onun otuz farklı kuşun özelliklerini taşıdığına inanılıyor.

Zümrüt-Anga, Azerbaycan mitolojisinde, klasik edebiyatında, maddi ve kültürel mirasımız olan el yazması tezhip ve minyatürlerinde, halılarda, kısacası kültürümüzde büyük bir yer tutmaktadır.

Melikmemmed'in masalında koruyucu, kurtarıcı, asil, adaletli, yüksek niteliklere sahip bir varlık olarak anlatılan Simurg'un (Zümrüt-Anga) Azerbaycan klasik şiirinde özel bir yeri vardır. Nesimi, Fuzuli, Nizami, Hakani'nin eserlerinde bu efsanevi kuşa sıklıkla rastlamaktayız.[5]

Tasavvufun simgelerinden Simurg'a ulaşmak için geçilen yedi vadi (aşamalar) Nesimi'nin eserine de yansımıştır:

“Baxmazam ənqayi-Qafa, qürbəti-lahuta mən,
Seyr ilə simurği-eşqəm, pərrü balı məndədir.”[2]

Görüldüğü gibi tasavvuf aleminde Zümrüt-Anka'nın bulunduğu Kaf Dağı'nın zirvesi, Allah'ın zatının ilk ve en yüksek âlemi olan ilahlık âlemi ile mukayese edilir. Simurg'un yorumunu Faridaddin Attar'ın Mantıgu-t-Tayr'ında ve Navoi'nin örnek olarak yazdığı Lisanu-t-Tayr'da bir tasavvuf sembolü olarak görüyoruz. Attar'ın eserlerinden bir örnek olan Gülşehri'nin Mantıgu-t-Tayr adlı eseri de aynı konuyu taşımaktadır. Bütün bu eserlerdeki ana fikir, tasavvuftaki "varlıkta birlik" (vahdeti-Vücut) fikrine dayanmaktadır.



Hipokrat`ın Simurg`a binip ilaç almak için Kaf Dağı`na gitmesi (Falname, Topkapı Saray Müzesi H. 1703)

Bir ejderhayla savaşılabilecek kadar güçlü, insan gibi konuşan, son derece renkli ve süslü olan Simurg, Türk-İslam kültüründe iki ana şekilde tasvir edilmiştir. İlkinde, nezaket sembolü ve kahramanların koruyucusudur. Yaşar Çoruhlu'ya göre [8, 22-23] bu, İslam öncesi Türk inançlarının koruyucu ruhunu da hatırlatıyor. İkincisinde, o zarar veren bir kurttur. İlkinde olduğu gibi, bir dağda yaşayan bu yaratık, pençeleriyle bir timsah, bir bebiri, bir fili kaldırabilecek güçtedir. Şehname'de hayırsever bir karaktere sahip olan Simurg, babası tarafından terkedilmiş olan Zal'ı bulur ve onu Kaf Dağı'na yükseltir ve sonraki yaşamında yardımcısı olur. İkinci olumsuz karakterli Simurg, İsfandiyar'ın her tarafı keskin silahlarla dolu bir araba kullanılarak öldürüldüğü kurt olarak gösterilmektedir.

Azerbaycan sanatında örneklerinde - minyatürlerde, tezhipte, halılarda vb. Simurg kuşunun (Zümrütü-Anka) ejderha ile birlikte tasviri genellikle iyi ve kötü arasındaki mücadeleyi temsil eder. Azerbaycan kültüründe Zümrüt-Anka bilgeliğin, adaletin, birliğin, nezaketin ve mutluluğun sembolüdür.

Gene İslam dünyasında önemli bir mitolojiya kuşu Huma[y] kuşudur. Bu kuşa Devlet Kuşu da denir (Tayrut-Devlet). Bunun gölgesi kimin üzerine düşerse o hükümdar olur ya da önemli bir göreve gelir. Bunun da Simurg gibi Kaf Dağı'nda yaşadığı söylenir, kanatları zümrüt yeşili olan bu kuşu kim öldürürse kırk gün içinde ölmüş. Üzerinden geçtiği kişilere zenginlik, mutluluk, uğur getirmiş. [4, 320] Halk arasında “başına devlet kuşu kondu” deyimiburadan gelmektedir.

Sonuç olarak belirtmek gerekir ki Mushaf'ın tezyinatında kullanılan motifler arasında hayvani motiflere rastlamak mümkün değildir. Yarı stilize veya hayali olan bestiar motifleri, Kur'an'a gösterilen saygıdan dolayı mushaf tezbihlerinde hiçbir zaman kullanılmamıştır.

Kaynakça:

1. Feridüddin Attat. Mantık el-Tayr. (Farsçadan çeviren – Abdalbaki Gölpınarlı). Kültür Yayınları, İstanbul.
2. İmadəddin Nəsimi. Azərbaycan.- 2019.- 23 iyun.- S.6.
3. İnci Ayan Birol Tezhip. İslam Ansiklopedisi. cilt 41, DİA, İstanbul 2012.
4. Metin And. Minyatürlerle Osmanlı-İslam Mitologiyası. İstanbul, YKY, 2015.
5. Səbinə Nemətzadə. “Azərbaycan mədəniyyətində Zümrüdü-ənqa”. “Füyuzat” jurnalı, №3 (113), Bakı, 2020.
6. Səbinə Nemətzadə. Təzhib sənətində natiralist və bestiar motivlər. Bakı Dövlət Universiteti İlahiyyat fakültəsinin elmi məcmuəsi. № 28 Bakı, dekabr (aralık) 2017.
7. Şenay Alsan. Türk Mimari Süsleme Sanatlarında Mitolojik kaynaklı Hayvan Figürleri (Orta Asya'dan Selçuklu'ya). Doktora Tezi, Marmara Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Türk Sanatı Ana Bilim Dalı İstanbul, 2005.
8. Yaşar Çoruhlu. Kozmolojik, mitolojik, astrolojik dini ve edebi tasavvurlara göre Türk sanatında hayvan sembolizmi – I. İstanbul: Seyran Kitap, 1995

OLMON ERTAKLARIDAGI SHE'RIY SATRLARNING O'ZBEKCHA TALQINI

Tursunov Zoxidjon

Namangan Davlat Universiteti,

O'qituvchi

Namangan, O'zbekiston Respublikasi

Olmon ertaklarini o'zbek tiliga tarjima qilish o'tgan asrning birinchi yarmidanoq boshlangan edi. Mutarjimlar asosan Grimmlar to'plamidagi ertaklarni o'girish bilan cheklanganlar. Bu boradagi ilk tarjimalar Farid Rasulovga tegishli bo'lib, u 1938 yilda Grimmlar to'plamidagi "Botir tikuvchi" ertagini rus tili orqali tarjima qilib, lotin alifbosida nashr ettiradi. Oradan bir yil o'tib esa, 1939 yilda sakkizta olmon ertaklari to'plami Adham Rahmat tomonidan o'zbek tiliga o'girilib kitobxonlar hukmiga havola qilindi. Ushbu to'plamdan aka-uka Grimmlarning dunyoga mashhur "Bremen musiqachilari", "Bir xurmacha shovla", "Quyvon bilan tipratikan" kabi ertaklari o'rin olgan. Keyingi o'zbek tilidagi Olmon ertaklari to'plami "Oltin g'oz" deb nomlanadi va 1940-yilda bolalar nashriyatida Vahob Ro'zimatov tarjimasida nashr qilingan. Shundan so'ng Olmon ertaklarini ko'p marotaba o'zbek tiliga o'girilib, qayta-qayta nashrdan chiqarildi. Bugunga qadar ko'plab Olmon ertaklari o'zbek tiliga tarjima qilindi va o'zbek kitobxonlari qalbidan o'ziga xos o'rin egalladi.

Olmon ertaklari o'zbek tiliga bevosita va bilvosita yo'llar bilan tarjima qilingan. Bu borada adabiyotshunos va folklorshunos olim H.Rahimovning ertak to'plamlarini alohida tilga olish lozim.

Olmon ertaklarida uchraydigan she'riy satrlarni o'zbek tilida qayta yaratishda mutarjim aksariyat hollarda muvaffaqiyatga erishgan. Tarjimon asosan ma'noni-ma'no bilan berish yo'lini tutgan. Shunday tarjimalarning ayrimlarini e'tiboringizga havola etsak:

1. „*Bäumchen, rüttel dich und schüttel dich,*

Wirf Gold und Silber über mich.“ Seite 113 (**Kinder- und**

Hausmärchen, Berlin 1970)

Tarjimasi: Ey daraxtjon, daraxtjon, quchog'ingni ochsang-chi,

Men g'aribning ustidan tilla-kumush sochsang-chi. 151-bet
(Asalari qirolichasi)

2. „*Rucke di guck, rucke di guck,*

Blut im Schuck (Schuh):

*Der Schuck ist zu klein,
Die rechte Braut sitzt noch daheim.*“ Seite 116 (**Kinder- und
Hausmärchen,
Berlin 1970**)

Tarjimasi:

Kuyov to‘ra, xon to‘ra,
Oyoq kiyimiga qara,
Tufli torga o‘xshaydi,
Qoni borga o‘xshaydi. 154 –bet (Asalari qirolichasi)
*„Mein Vöglein mit dem Ringlein rot
Singt Leide, Leide, Leide;
Es singt dem Täubelein seinen Tod,
Singt Leide, Lei – zucküht, zucküht, zucküht.“*
Seite 316 (**Kinder- und Hausmärchen, Berlin 1970**)

Tarjimasi:

*Beozor, munis qushcham,
Nechun fig‘on qiladi.
Xonishlari ne bois
G‘amdan darak beradi.
Bechora musichaning
Armonlari nechun mo‘l,
Ajaj qistab kelar deb
Ko‘z yoshlari bo‘lar ko‘l. 35-bet (Asalari qirolichasi)*

Olmon ertaklari ham huddi o‘zbek ertaklari kabi an’anaviy iboralar, tugallanmalar, maqol, matal va she’rlarga juda boy. Ammo ushbu ish doirasida ularning barchasini qamrab olishning imkoni yo‘q. Shu bois ham biz yuqorida tilga olingan jihatlarning ayrimlari xususida fikr bildirib, ularni o‘zbek tilida qayta yaratish borasidagi tarjimonlarning mahorati haqida to‘xtalib o‘tdik. Ammo kelgusida olmon ertaklarini o‘zbekcha tarjimalarini jiddiy tahlil qilish har ikki til lug‘at qatlamini mukammal o‘rganish, olmon xalqi tarixi, tili, madaniyati, urf-odatlari bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Kinder-und Hausmärchen von Brüdern Grimm, Berlin 1970
2. “Etti oqqush”, Toshkent 1990
3. “Asalari qirolicha”, Toshkent 2001
4. G‘.Salomov, Til va tarjima, Toshkent 1966

YAN KVI JA: MAYMUNNING HAM DARAXTDAN YIQILADIGAN KUNI BOR...

Hidoyatova Aziza Tal'at qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
o'qituvchi
Toshkent, O'zbekiston Respublikasi

Annotasiya: Mazkur maqolada zamonaviy koreys hikoyachiligiga ulkan hissa qo'shgan, maishiy mavzudagi hikoyalar ustasi, kichik obrazlar orqali xalq vakillarini ko'rsatib bera olgan adiba Yan Kvi Janing «maymunning ham daraxtdan yiqiladigan kuni bor» maqoli asosiga qurilgan «Qo'ng'iroq qushi» hikoyasining mazmun-mohiyati yoritilgan. Mazkur hikoya orqali biz adiba ichki olamiga nazar tashlaymiz, uning mahorat maktabi sirlaridan vofiq bo'lamiz, adiba is'tedodi tabiatini tushunishga harakat qilamiz.

XX asrning ikkinchi yarmi koreys jamiyati uchun og'ir sinovli davr bo'ldi. Millat muammosi masalasi bo'rtib namoyon bo'lgan davr yozuvchilari o'z asarlarida urush, uning oqibatlari, urushdan keyingi og'ir turmush, hayot iztiroblari, yaqinlarini yo'qotgan insonlar taqdiri, mehribonlik uylarining paydo bo'lishini yoritgan bir davrda, Yan Kvi Ja hikoya janri imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda maishiy hayot tasviri fonida mazkur davrga o'z munosabatini bildirdi.

Adibaning «Qo'ng'iroq qushi» hikoyasida daryoning ikki sohilida turgan ikki ayol taqdiri orqali milliy qadriyatlarga putur yetgani, jamiyatda «ajrashgan» ayollar sonining ortib borayotgani, «tirik» yetimlar holi, jamiyatdagi tartibsizliklar natijasida panjara ortiga mahkum qilingan er kishilar taqdiri haqida hikoya qiladi. «Maymunning ham daraxtdan yiqiladigan kuni bor» maqoli hikoyaning leytmotivi sifatida yangraydi.

Shu bilan birga xalq orasida azaldan mavjud maqoldagi maymun obrazi ilk bor adiba tomonidan qo'llanilgan. Panjara ortidagi maymun, shisha idishlarga solingan zax yerto'ladagi qo'ng'iroq qushi ramzida o'z erkidan, ozodligidan ayrilgan insonlar taqdiri, sanoatlashtirish davrida yangi madaniyatga ko'nika olmayapgan insonlar qiyofasi qiyoslangan. Tajribali inson ham hayotda xato qilishi daraxtdan-daraxtga sakrab yurishda mohir maymunga holiga o'xshatiladi.

Kalit so'zlar: Yun Xi, maishiy hayot, inson taqdiri, titrayotgan barg, maymunning ham daraxtdan yiqiladigan kuni bor.

Аннотация: В этой статье проводится анализ рассказа «Птица-колокольчик», созвучного смыслу пословицы «есть день, когда обезьяна падает с дерева». Автором рассказа является Ян Кви Джан - писательница, внесшая огромный вклад в корейскую новеллистику, мастер бытовых историй, изображающий представителей народа через маленькие образы. Этот рассказ помогает нам увидеть внутренний мир писателя, постигаем секреты его мастерства и природу таланта писателя.

Вторая половина двадцатого века была периодом суровых испытаний для корейского общества. В то время, когда писатели писали о войне, ее последствиях, невзгодах послевоенной жизни, жизненных страданиях, судьбе тех, кто потерял близких, появлении детских домов, Ян Кви Джа, используя возможности жанра новеллы, через изображение бытовой жизни смогла выразить свое отношение к этому периоду.

В новелле «Птица-колокольчик» писательница через повествование о судьбе двух женщин, стоящих по разным берегам реки, показывает потерю, подрыв национальных ценностей, растущее число разведенных женщин в обществе, тяжелое положение сирот при родителях и судьбу мужчин, заключенных в тюрьму в результате общественных беспорядков. Пословица «есть день, когда обезьяна падает с дерева» звучит как лейтмотив рассказа.

Образ обезьяны из пословицы, существующей в народе издавна, был впервые использован писательницей. В образе обезьяны за решёткой, птицы-колокольчика в стеклянной посуде в затхлом подвале показана судьба людей, лишенных своей воли и свободы, образ людей, не привыкших к новой культуре в эпоху индустриализации. Состояние опытного человека, допустившего ошибку в жизни, подобно упавшей с дерева обезьяне, которая до этого с мастерством перепрыгивала с дерева на дерево.

Ключевые слова: Юнь Хи, бытовая жизнь, человеческая судьба, дрожащий лист, есть день, когда обезьяна падает с дерева.

Annotation: This article reveals the content and essence of the story «Bellfinch» based on the proverb «Even Monkeys Fall from Trees» the writer, who made a huge contribution to the modern Korean prose, a master of the story of household topics, and who showed people's representatives through small images by Yang Kwija. Thanks to this story, we look at the inner world of the writer, we know the

secrets of her school of art, trying to understand the nature of the talented writer.

The second half of the twentieth century was a heavy test period for the Korean people. Writers who lived in the era, in which the problem of the nation in their works brightly reflected the war, its consequences, the post-war weight, the suffering of life, the fate of people who lost their relatives, the appearance of orphanages. Yang Kwija fertile use the possibilities of the narrative genre, described this period on the background of household life.

In the story of «Bellfinch» through the fate of two women standing on the two coasts of the river, the infringement of centuries-old national values is shown, an increase in the number of «divorced» women, orphans with living parents, the fate of men condemned behind the grille as a result of riots in society. The proverb

«Even Monkeys Fall from Trees» sounds like a leitmotif of a story.

It is worth noting that the image is obliged, which has existed since a long time in the proverb first used by our writer. It is compared the appearance of people deprived of freedoms that do not bother on a new culture during industrialization with monkeys behind the fence, with a bird on a glass box in its place. There is a similar position to make mistakes of experienced people with jumps of debris monkeys.

Keywords: Yun Hee, household life, the fate of a person, trembling leaf, even monkeys fall from trees

XX asrning yorqin ayol adibalaridan biri Yan Kvi Ja atrofidagi boshqa yozuvchilardan farqli ravishda o'z prinsiplaridan kelib chiqqan holda o'zi shohid bo'lgan, har kuni ko'radigan, atrof-muhitda sodir bo'layotgan va bilgan lavhalarni qog'ozga tushirdi. Bu davr ijodkorlarini asosan urush, urush qoldirgan achchiq qismat, urushning inson taqdiriga ta'siri, urush oqibatlarini ko'rsatuvchi asarlar yaratish qiziqtirgani holda, adibani oilaviy-maishiy hayot, kundalik turmush tashvishlari, zimmasiga erkaklar vazifasi ham yuklatilgan turli ayollarning bir-biriga o'xshamas, ammo tutash taqdirlar, sevgi-sadoqat, ma'naviy-axloqiy masalalar qiziqtirdi.

Yan Kvi Janing «maishiy hayot muammolari»ga asoslangan hikoyalari talaygina: «Vonmidonglik shoir», «Yashiringan gul», «Chonma qabriga yo'l»,

«Tog' guli», «G'amginlik kuch beradi» va h.k. Bunday hikoyalarda adiba kichik obrazlar yaratish orqali yangi personajlar yaratishga muvaffaq bo'ldi. Aslida adiba hayotning chigal muammolari girdobida

qondoshlik urushining milliy qadriyatlarga salbiy ta'sirini, «inson taqdiri»kabi eng asosiy muammoga o'z munosabatini bildirdi. Shu bilan birga bu hikoyalarda adibaning badiiy olamiga xos xususiyatlar namoyon bo'ladi, uning oddiy insonlar haqidagi fikrlari oydinlashadi.

Yan Kvi Janing qator hikoyalarida inson taqdiri maishiy hayot fonida beriladi. Jumladan, «Qo'ng'iroq qushi» hikoyasi bosh personajlari – bir eri bilan ajrashgan, ikkinchisining eri tushunarsiz sabab bilan qamoqxonada o'tirgan ayollar.

Hayotining eng shirin damlari oshxonada tunu-kun mehnat qilish bilan o'tayotgan ayol xayolidan shunday fikrlar kechadi: «...eri bilan ajrashgan kundan boshlab yolg'iz o'zi o'g'il farzandni voyaga yetkazish mas'uliyatini zimmasiga yukladi. Ammo o'zi tunu-kun ishda, o'g'li ham oshxonada ulg'aymoqda. Farzandining tarbiyasi ham buzilmoqda. Shu sababli har oyda bir marotaba beriladigan dam olish kunini o'g'liga baxshida qilishi lozim. Anchadan beri o'g'liga bog' sayriga borishni va'da qilgan edi»[1,199].

Farzand tarbiyasi ayol kishi uchun g'oyat mas'uliyatli bir vazifa. Ajrashgan ayol uchun esa bu yanada mushkul ish. Hikoya personaji Yun Xi o'zini ojiz va notavondek, xuddi kuz kunlari shoxda ilinib turgan yolg'iz bargdek his qiladi. O'g'lini bir o'zi hayot izg'irinlaridan asray oladimi, orzulari armonga aylanmaydimi, o'g'lining kamolini ko'rish nasib etadimi, buni bilmaydi. Oshxonada tarbiyalangan farzanddan nimani kutishini bilmaydi. Ajrashib to'g'ri qildimi? Shu sabab ayol goh mayus, goh xayolga cho'mgan holda yuradi.

Ayolning hayoti daryoning ikki qirg'og'iga o'xshaydi. Avvalgi hayoti bugungi hayotidan ajralib turadi. Avvallari farzandi tarbiyasi, kun kechirish tashvishidan yiroq ayol, endi har kuni bir ibora ta'sirida

«...maymunning ham daraxtdan yiqiladigan kuni bor». Bog' sayriga kelishga nima majbur qildi? O'zi qilgan xatoni anglab yetishmi, yoki farzandi bu xatosini takrorlamasligi kerakmi?

Yan Kvi Ja yaratgan bu obraz xaos davridan keyin koreys jamiyatida yuzaga kelgan ma'naviy bo'shliqni ko'rsatishda hayotiy ko'zguga o'xshaydi. Azaldan koreys jamiyatida oila muqaddas hisoblangan, er bilan ajrashish bu butun boshli avlod uchun isnod edi. Yun Xi obrazida mazkur davr ayollarining butun boshli turmush tarzi, qarashlari, hayot yo'li gavdalanadi.

Hikoya qahramoni ikkinchi ayolning eri qamoqxonada. Har ikki ayolni bir taqdir – bevalik birlashtirib turganga o'xshaydi. Bog' sayriga kelishganida Yun Xi ajrashgan eri, ikkinchi ayol esa panjara ortidagi eri

haqida xayol surib qolishdi. Bog‘ sayriga deyarli to‘laqonli oilalar dam olishga tashrif buyurishgan: ota-ona va farzandlar. Baxtiyor oilalar qo‘llarida tushlik solingan tugun, dam olish uchun kerakli anjomlarni ko‘tarib o‘tib ketishmoqda. Buni ko‘rgan ikki ayol yonlarida erlari bo‘lmaganligi uchun o‘zlarini farzandlari oldida noqulay his qilishdi. Har ikki ayol uchun o‘z oilalari «uzoq tog‘da yerga yengilingan xazon, asfaltga tushayotgan erta kuzning quyosh nurlari kabi omonatdek»[1, 200] tuyuldi.

Shunday xayollar og‘ushida qolgan ikkinchi ayol noma’lum vaqtga qamalgan eri, umrining qancha onlari qolgani haqida sarhisob qildi. Ilk bor erini ko‘rishga borganidagi holat yodiga tushdi. Ayol bir necha temir eshik hamda unga tikilgan qattiq nigohlar ostida eri oldiga o‘tdi. Uchrashuv xonasi to‘rtburchak shaklida bo‘lsa-da, eri bir sohilda, ayol bir sohilda o‘tirgandek edi. Er o‘zining kuchsiz va zaif holatiga, ayolini turmush tashvishlari girdobida qoldirgani, qizining ulg‘ayish davridan benasibliги uchun achinib o‘tirar, ayol esa o‘rtadagi panjarani so‘zsiz kuzatardi.

Yan Kvi Ja er va xotin uchrashuvidagi holatni bog‘dagi qushlar xonasi bilan qiyoslaydi. Hikoyaning nomi bejizga «Qo‘ng‘iroq qushi» deb atalmaydi. Bu bilan adiba eri qamoqxonada o‘tirgan ayol obraziga, ayol qalbidan kechayotgan g‘alayonlarga, o‘zgarishlarga urg‘u beradi.

«Bo‘yi va eni bir metrcha keladigan shisha qutilar devor sifat taxlab qo‘yilgan joyga kirmasdan yoqimsiz hid taralayotganini sezdi. Badbo‘y hid qushlar axlati va yopiq turgan xonadan taralayotgan bo‘lsa-da, bu hid ikki olamni yaqqol ajratib turardi. Ayol bexosdan erini esladi. Hid, ayniqsa bunday qo‘lansa hid erini yodga solardi. Badbo‘y hid chiqib tursa, hech narsa qilolmayman, derdi. Aralashib yotgan axlat, o‘rada to‘lib yotgan go‘ngni tozalamasa, u chidab turolmasdi» [1,219].

Qushlar bo‘sh va zax xonalarda ketma-ket qamab qo‘yilgan. Xonalarda qurigan daraxtlar qamoqxonadagi to‘rtburchak xonalarga qo‘yilgan omonat kursilarni yodga soladi. Ayol har bir xonadagi chumchuq, to‘rg‘ay va boshqa qushlarni qamoqxonadagi nigohlari o‘tkir panjara ortidagi insonlarga qiyosladi. Bu qushlar simyog‘ochlarda, dalalarda, qir-adirlarda erkin uchib, sayrab yurgan qushlardan farq qiladi. Eri ham goh ishga qatnab, goh uyga kelib yurgan edi. Endi u ham mana shunday sukunatga g‘arq bo‘ldi. Qaysi xatosi uchun?

Fikrimizcha, adiba qushlar xonasi va qamoqxonona o‘rtasida parallel o‘tkazar ekan, hikoyaga birmuncha dramatik tus beradi, ayol qalbida, ruhiyatida kechayotgan holat orqali dramatik jarayonga yo‘l axtaradi.

Yun Xi tomonidan aytilgan mana bu fikr ayolning qalbidagi o'ylar, iztiroblarni qo'zg'atib yubordi.

«Bir marta aldanganim ham yetadi, ikkinchi marta aldanishni xohlamayman. Bundan tashqari kim mening Songuyimga o'xshagan shumtakani o'z o'g'lidek katta qiladi? Erkaklar hayot davomida bir marta bo'lsa ham ichidagi haqiqiy gapni aytmasdan o'lib ketadigan xilidan»[1, 211].

O'ziga ishonib oshxona ishini yuritayotgan, pul topish hayot mazmuniga aylanayotgan Yun Xi uchun er kishi kunduzi keraksiz matohga o'xshardi.

Ayolning ko'zi qo'ng'iroq qushiga tushdi. Taxtakachdagi yozuv bu qo'ng'iroq qushi ekanligidan dalolat berar, aslida qush ismiga yarasha jarangdor ovozini yo'qotganga o'xshardi: «*Qo'ng'iroq qushi, qo'ng'iroq qushi, jororong qo'ng'iroq qushi*» [1,220].

O'ziga hissiz tikilib turgan qushni ko'rib ayol biroz taraddudlandi. Xayolidan bolalik xotiralari, beozor o't-olov kunlar o'tdi. Har safar qo'ng'iroq qushi sayrashini eshitganda shudring yanglig' paydo bo'ladigan bu his hozir sezilmadi. Ayolning fikri tiniqlashdi. Hoynahoy, bu qushning qafasga tushishi bilan bog'liq bo'lsa kerak:«*O'tgan kecha qo'ng'iroq qushni qayerdan tutib olib kelishdi? Jororong u qo'ng'iroqni qayerdan tutib olib kelishdi?*»[1,220].

Erkin yashayotgan qush makonini kim topdi? Bu qush qanday qilib insonning tuzog'iga ilindi? «Maymunning ham daraxtdan yiqiladigan kuni bor», bu ibora ayol qalbini zirqiratib yubordi. Eri-ku qaysi jinoyat uchun qamalangani ma'lum emas, qushni qaysi gunohi uchun qafasga solishdi?

Qo'ng'iroq qushi ayolning dardlarini yangiladi. Hikoya qaysidir jihatlari bilan Said Ahmadning «Laylak keldi» hikoyasini yodga soladi. Hikoya qahramoni Umri xola laylakni ko'rib qanday holatga tushgani, Yan Kvi Ja hikoyasi qahramoni ayolning holatiga o'xshab ketadi. Ayol eri va qo'ng'iroq qushi taqdirlari o'rtasida bog'liqlikni ko'radi. Eri jamiyatdagi tartibsizliklar sabab, qaysi gunohi uchun panjara ortiga mahkum qilinganini bilmaydi, ayoliga tushuntira olmaydi, qizi otasi haqida so'raganida ayoli nima deb javob berishini xayolidan o'tkazadi, faqat ojiz: qayerda xatoga yo'l qo'ydi?

Qo'ng'iroq qushi qaysi quyun ta'sirida inson qo'liga tushdi, bir umr qafasda yashashga mahkum etildi, jumboq. Endi u hech qachon ochiq dalada yurgandek sayramaydi, hatto insonlar sharpasidan cho'chimaydi. Ammo ayolning bolalikdan yod olgan qo'shiq satrlari qulog'i tagida

qayta yangraydi, albatta, bu qo‘shiqni qiziga o‘rgatishi kerak. Xatoni tuzatish kerak. Qo‘ng‘iroq qushi qayta sayrashi lozim, shunda u qilgan xatolarni tuzatadi, Yun Xi ham bu qo‘shiqni kuylashi lozim. Shunda o‘g‘il farzandni otasiz voyaga yetkazish qanchalik katta xato ekanligini anglab yetadi.

Darhaqiqat, adibaning mazkur hikoyasida uning yuksak saviyadagi maqsadi, chuqur hayotiy mantiqqa asoslangan qarashlari o‘z aksini topgan. Yangi madaniyat eng avvalo, oiladagi munosabatlarning darz ketishiga sabab bo‘ldi, jamiyatdagi tartibsizliklar esa ayrim insonlarni panjara ortiga mahkum qildi. Har ikki holatda ham insonni o‘ylantiradigan bitta savol «...qayerda xato qildim?» yangraydi va bu xalq orasida keng tarqalga «maymanning ham daraxtdan yiqiladigan kuni bor» iborasida o‘z ifodasini topadi.

Adabiyotlar:

1. 양귀자, 원미동사람들,–서울, 2012.
2. 조남현.– 1970-80 년대소설과여성의식페미니즘.–서울, 2005.
3. 임혜진, 양귀자소설연구: 단편소설중심으로, 고려대학교교육대학원석사학위논문
4. Цой И.В., Корейская литература второй половины XX века: основные направления.– СПб.; Издательство Санкт-Петербургского университета, 2012.

FOLKLORE IS THE ETERNAL HISTORY OF THE NATION

Ergasheva Zilola Saydullayevna
Department of World Languages and literature
Uzbekistan State Institute of Arts and Culture
Teacher
Tashkent, Republic of Uzbekistan

Annotation: This article is about folklore, its most beautiful form of folk art, its types and peculiarities. Epics, one of the genres of folklore, reflect the glorious past of our ancestors, their confidence in the future. After all, folklore combines the people's understanding of the world, their taste, social, historical, political, philosophical and artistic aesthetics.

Key words: folklore, traditional culture, handicrafts, epics, unique traditions, folk customs, folklore genres, proverbs,

Anotatsiya: Ushbu maqolada xalq ijodining eng go'zal san'at turi bo'lgan folklor, uning turlari hamda o'ziga xos xususiyatlari haqida gap boradi. Folklor janrlaridan biri bo'lgan dostonlarda ajdodlarimizning shonli o'tmishi, kelajakka ishonchi aks etadi. Zero, folklore xalqning olam haqidagi tushunchalarini, uning didi zavqini ijtimoiy tarixiy siyosiy, falsafiy va badiiy estetik qarashlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Kalit so'zlar: folklor, an'anaviy madaniyat, hunarmandchilik, dostonlar, noyob urf-odatlar, xalq urf-odatlari, folklor janrlari, maqollar.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос о фольклоре, красивейшем виде народного творчества, о его видах и особенностях. Эпосы являясь одним из жанров фольклора, отражающего славное прошлое наших предков, их уверенность в завтрашнем дне. Ведь фольклор сочетает в себе представление людей о мире, их вкусы, социальную, историческую, политическую, философскую и художественную эстетику.

Ключевые слова: фольклор, традиционная культура, ремесло, былины, уникальные традиции, народные обычаи, фольклорные жанры, пословицы.

Folklore - folk art: a set of folk ritual actions.
(Ozhegov)

Folklore is the origin of all art, and therefore it is in harmony with many other arts, but it is also a unique art form with its own uniqueness.

The field includes music, dance, handicrafts, fine arts, arts and other arts. In other words, oral art is a creative process that expresses the past, present and future of a nation and is closely linked to its destiny. That is why our scholars called it folk literature. To know what a nation is, one must first look at its folklore.

Folk art is an art of constant change, of constant movement in the true sense of the word. In other words, the samples of folk art are constantly updated, changed and improved, while maintaining the continuity of traditions in each performance. That is why examples of folk art have many variations. This variability is one of the most important aspects of the originality of folklore.

The idea that the beginning of any art is in folklore did not appear today. It is the product of many years of life observation, scientific experience. Indeed, the origins of the fine arts, crafts, music, dance, art, etc., go back directly to the oral tradition of the people, to the initial imagination and beliefs of the people.

According to the mythological notion, the past is the beginning of the beginning, the transformation of chaos into space. That's why our fairy tales begin with "Once upon a time, once upon a time, in the past." As you say, this is a numberless, pure, artistic history of any nation. We are not talking about unreal, artistic fabric that has no vital basis. Maybe it's half a myth, half a truth, a past wrapped in a mythological shell.

Unlike a fairy tale, both the narrator and the listener believe that the story is true. In addition, the epic is about the sacred memory of the ancestors, the glorious history. These glorious events continue in a time that has been sung, passed down and performed for generations. The intensity of today is rapid, and accordingly the demand and opportunities are expanding. Today, our children can not imagine their lives without modern technology, so we need to take into account their needs.

I wish we could create cartoons, movies, computer and mobile phone games, electronic programmes based on hundreds of our fairy tales and dozens of epics! If you have the opportunity to buy audio and video footage of the entire oral process, from folk dances to epics, in any store!

This may sound like a bit of a fantasy today, but of course we'll come to that. Because this is the demand to be a nation, to be great, to live with one's name and spirit in the cruel talotum of globalization. For this, folklore always comes to our aid, folklore saves. In recent years,

Uzbek folklore has become more interested in comparative considerations with the folklore of other nations and peoples. Comparison of the features of a number of genres created at the stage of literary development of the nation - fairy tales, epics, ceremonial folklore is very important in the establishment of literary cooperation in the years of independence.

The examples of folklore, which poetically reflect the national ideology and psyche of the peoples, are noteworthy for their deep ideology and art. They see the centuries-old dreams, aspirations, struggle for freedom and liberty of our ancestors, the pain and suffering on this path, the character, unique traditions, creativity and creative potential as important features of the national mentality. is thrown away. Therefore, the development of society, the collection, publication, study of folklore samples that have played a leading role in the enrichment of the spiritual world, comparing them with examples of oral works of other nations, bringing similarities and differences and Adding to the navigation pages is one of the most important tasks today.

Historians study how historical events are reflected in the folklore. Ethnographers are interested in folk customs, while art historians are interested in folk music, dance, games, and more. Linguists examine the dialects and dialects of the language of folk art, while literary critics examine the relationship of folklore works with written literature. Folklore works reflect the life of the people; embody the people's understanding of the world, their taste, socio-historical, political, philosophical and artistic aesthetics. Folklore is an artistic memory of the people about themselves.

It is a matter of preserving the memory and passing it on to future generations in a perfect state, in a broad sense, as an integral part of the problem of traditional folklore and its present state. Logically, as long as the people live, so does their oral art. This is an undeniable fact. But both the people themselves and the works they create are historical concepts. This means that over time, the material condition and spiritual image of the people will change. From this point of view, it is natural that the spiritual wealth created by the artistic genius of the people - the oral art of the people - will give way to new creations. Traditional folklore is preserved only in the memory of the people. Folklore genres differ from each other in the level of activity, the scale of their distribution among the masses. Some genres are performed by specially trained individuals, while others are performed in large numbers. For

example, while epics are performed by professional bakhshis, fairy tales are also performed mainly through the badi of storytellers.

In many genres of folklore, including folk tales, historical and lyrical songs, both reality and the protagonist are expressed realistically. In many works of folklore genres, the principles of artistic depiction of the hero are common. The people recognize only a hero who has ideal qualities and can follow the masses. That is why the heroes in folklore are incomparably idealized. In the works of folklore, the positive hero is shown not in psychological characteristics, as in the written literature, but in separate scenes of his life, his behavior, actions and activities. Thus, the folklore differs from the written literature by a number of features analyzed above. However, it has much in common with written literature in terms of its immense spiritual and educational value in human education.

Scholars rightly claim that myths have served as a unique source in the development of scientific ideas, in the emergence of philosophy, literature, fine arts, sculpture, architecture, music, theater. The oldest fairy tales describe various folk customs, traditions, tribal customs. Or they can be traced back to the plot (reality) of primitive myths. Over time, with the development of human society, fairy tales and myths were "mastered" by children (or as adults once presented to little ones the best things they created for themselves), and later, along with the brightest examples of world literature, "Robinson Crusoe", "Gulliver".

Folklore studies folklore genres in three literary rounds. The concept of tour has a wide meaning. It covers a variety of genres. Species differ in the nature of their depiction of reality. While the epic objectively reflects reality in a plot-narrative form, the lyric subjectively describes a person's impressions of reality, his inner experiences; and drama reflects the scenes of life through the speech and action of the characters. Genres of Uzbek folklore did not appear suddenly and simultaneously. The most ancient genres of folklore are based on myth, legend, legend, word magic songs, as well as seasonal ceremonial songs, in the next stage

And fairy tales, epics, proverbs, and riddles, followed by anecdotes, folk dramas, genres such as askiya, historical song. Historically formed in this way the system of genres of Uzbek folklore has developed during its development, improved and even underwent extinction. English folklore genres are also primarily from myths to epics, from epics to fairy tales, and from epics to historical and romantic songs.

World literature has a very deep history. As a basis of this history, folklore genres have been widely studied in recent years. The comparative study of folklore works serves to reveal the similarities of the literary environment and process between nations and peoples.

Literature:

1. Bogatyrev P.G Questions of the theory of folk art. M.,1971.
2. Byram, M (1989) Cultural studies in foreign language education. Clevedon Multilingual Matters.
3. Chistov K.V. Folk traditiona and folklore. Essays on Theory. L,1986.
4. Kramsch, C. (1995) The cultural component of language teaching. Language, Culture and Curriculum,8(2) , 83-92.
5. Nekrasova M.A. Folk art as part of culture. M., 1983.

ФОЛЬКЛОРНАЯ ОСНОВА ПРОИЗВЕДЕНИЙ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА

Исмоилов Хамдам

*Государственный институт искусств и культуры Узбекистана,
кандидат филологических наук, доцент
Ташкент, Республика Узбекистан*

Аннотация: В данной статье сделана попытка раскрыть фольклорную основу произведений известного писателя мирового значения Чингиза Айтматова. В молодости он благодаря своей бабушке слушал сказки и легенды, связанные своим народом, позже основательно изучал этих феноменов как литературный жанр, писатель в своих воспоминаниях писал о них, они окончательно пленяли его воображение, что впоследствии в композицию своих произведений ввел сцены из фольклора, благодаря чему его произведения стали бессмертными.

Ключевые слова: фольклор, легенда, писатель, произведение, сказки, бабушка, поэзия, эстетическое наслаждение, племя, варвары.

Annotatsiya: ushbu maqola Chingiz Aytmatovning mashhur jahon ahamiyatiga ega yozuvchisi asarlarining folklor asosini ochishga urinmoqda. Uning yoshligida, uning buvisi tufayli keyinchalik yaxshilab adabiy janr sifatida bu hodisalarni o‘rganib, o‘z xalqi bilan bog‘liq ertak

va afsonalar tingladi, uning xotiralar yozuvchi ular haqida yozgan, ular nihoyat o'z asarlari tarkibi folklor sahnalari joriy uning tasavvur asir, shuning uchun uning asarlari o'lmas bo'lib qoldi.

Kalit so'zlar: folklor, afsonalar, yozuvchi, ish, ertaklar, buvisi, she'riyat, estetik zavq, qabila, barbarlar.

Abstract: This article attempts to reveal the folklore basis of the works of the famous writer of world importance Chingiz Aitmatov. In his youth, thanks to his grandmother, he listened to fairy tales and legends related to his people, later thoroughly studied these phenomena as a literary genre, the writer wrote about them in his memoirs, they finally captivated his imagination, which subsequently introduced scenes from folklore into the composition of his works, thanks to which his works became immortal.

Key words: folklore, legend, writer, work, fairy tales, grandmother, poetry, aesthetic pleasure, tribe, barbarians.

Отрочество и юность писателя пришлись на годы войны. Край, где он родился (долина реки Талас в Киргизии), богат фольклором, легендами, сказками, преданиями. Этот сказочный мир приоткрыла Чингизу бабушка, о которой он сохранил благодарную память: «Пожалуй, сама того не подозревая, бабушка привила мне любовь к родному языку. Родной язык! Сколько об этом сказано. А чудо родной речи необъяснимо. Только родное слово, познанное и постигнутое в детстве, может напоить душу поэзией, рожденной опытом народа, пробудить в человеке первые истоки национальной гордости, доставить эстетическое наслаждение многомерностью и многозначностью языка предков. Детство – не только славная пора, детство – ядро будущей человеческой личности. Именно в детстве закладываются подлинные знания родной речи, именно тогда возникает ощущение причастности своей к окружающим людям, к окружающей природе, к родной культуре» («Заметки о себе»).

После шестого класса началась трудовая жизнь мальчика в родном колхозе. Потом были годы учебы: Айтматов стал зоотехником. Но всегда особый мир для него составляли книги: «Я всегда с трепетом, с благоговением брал в руки книгу, как нечто действительно святое а человек, написавший книгу, мне неизменно представлялся только таким, как Пушкин и Толстой». Огромным было для писателя значение русской литературы, бессмертия которой он видит в том, что она «шла из народа и несла свой свет в народ».

Очень рано у юноши сформировались представления о добре и зле, о долге и верности. Как-то, вспоминая эпизод из военного детства, Айтматов высказал мысль о том, что «добро в человеке надо растить это общий долг всех людей, всех поколений. Это в огромной своей доле и задача литературы и искусства». Эту задачу он и решает всем своим творчеством.[1]

Начало его литературной деятельности – журналистская работа (с 1952 года) и занятия переводами. И первый его рассказ был опубликован в том же 1952 году. Потом, до 1956 года, были пять лет литературной учебы на Высших литературных курсах в Москве. С 1961 года Айтматов – корреспондент «Правды» по среднеазиатским республикам и Казахстану.

В 1963 г. за повести «Первый учитель», «Тополек мой в красной косынке», «Джамиля» Айтматову была присуждена Ленинская премия. Трижды: в 1968, 1977 и в 1983 годах – он был удостоен Государственной премии.

Во всех произведениях писателя рассказывается какую-то сцену из фольклора и сюжет произведения раскрывается на основе этого мифа, или же он прямо не указывает какого-то мифа, который составляет основу определенного произведения и тогда чуткий читатель, знающий древнетюркские мифы может догадаться какой миф лежит в основе произведения. Как и другие народы древние тюркские племена имели в своем арсенале огромное количество мифов, которых писатель основательно изучал и ими пользовался в своих произведениях, чем и они стали бессмертными.

Фольклорные мотивы и элементы непосредственно входят в контекст произведений писателя. Писатель своими произведениями стремился исследовать первопричину беды с помощью мифа, предания, легенды. Обращение к мифу, использование его в художественной рефлексии позволяет раздвинуть возможности отражения проблем современного мира и места в нем человека. Писатель, создавая свои произведения, переработал богатейший фольклорный материал. Корни айтматовского мифологизма находятся в родной тюркской и мировой словесности и культуре.

Скзочная символика произведения писателя затрагивал вопрос мифологичности сознания. Писатель, опираясь на мифическую картину мира, строит свою особую модель мира. Миф как «сгусток мудрости» древних для Чингиза Айтматова становится инструментом моделирования художественной картины мира,

средством проникновения в глубины общественного разума. Миф служит средством выработки современного сознания.

Автору данной статьи посчастливилось два раза участвовать в беседе с писателем. В беседах он рассказал о себе, творчестве, произведениях и о мифах, которые составляют основу того или иного произведения.

Читая повесть «Джамиля» можно вспомнить древнюю сказку тюркского народа, где рассказывается о любви двух молодых людей со счастливым концом. Когда-то жили древнетюркские племена. Хотя они во многом отношении ладили друг с другом, но одно племя не отдавало девушку своего племени парню другого племени, но этот обряд нарушили двое молодых из этих племен. Однажды они познакомились и полюбили друг друга. Они хотели пожениться, но древний обряд преграждал им путь и они долго мучились. В этом случае им помог один добрый обряд «Киз олиб кочди» («Тайно увести девушку»). Они договариваются и парень уводит на коне, до определенного места их преследуют, если не догонят вынуждены будут сыграть свадьбу и обвенчать их. Этот обряд сохранился и в наши дни, даже превратился в спортивное состязание, что проводится в весенние праздники.

Исходя из этого мифологической сказки в «Джамиле» (1958 г.), рассказывая историю любви, отразившей драматизм общественных конфликтов, писатель показал взаимосвязь важных исторических перемен и нравственных коллизий, которые произошли в сознании людей в середине двадцатого столетия. Гордый и свободлюбивый характер Джамили сформирован новыми условиями жизни. Она упорна в труде, говорит людям правду в глаза, умеет постоять за свое человеческое достоинство как свои предки. Когда она встретила с Данияром, произошло столкновение двух сильных людей, двух ярких характеров, не похожих, но словно созданных друг для друга. С этой встречи и началось их пробуждение, осознание ими самих себя. Тема нравственного пробуждения личности – это и есть главная философская тема повести. Сложен путь Джамили и Данияра друг к другу. И жителя аула трудно было понять их самих, правду их чувства, их право на счастье. Однако герои пошли против устоявшихся обычаев. Их бунт не против законов нравственности, а против того, чтобы человек убивал любовь – эту высшую мудрость жизни. Мы не знаем, как сложится

жизнь героев, но хочется верить, что два сильных и любящих человека сумеют пройти через все эти трудности.

В повести «Белый пароход» (1970 г.) поднимаются характерные для творчества Айтматова моральные и социальные проблемы: беспощадное разоблачение корысти, общественной трусости, основанной на страхе и лжи. Здесь особенно ощутима боль за бессилие доброты, которая не может защитить человека от зла.

Место действия – маленький лесной кордон. Его населяют люди-антагонисты, силы которых не равны: с одной стороны – семилетний мальчик и его дед Момун, с другой – безжалостный, жестокий Орозкул.

Дед Момун не всегда был зависим, беспомощен, тяжело придавлен старостью. Когда-то он был силен, строил Магнитогорск, был стахановцем. Он добр, его волнует судьба дочери, внука. Он мог бы с мальчиком уехать с кордона, но сдерживает его вера в патриархальные родственные отношения, в их нравственность. И, конечно же, он не может предположить, что произойдет трагедия, о которой с такой болью и гневом рассказывает писатель.

Дед учил внука понимать природу (для них обоих она была живой), знакомил его с прошлым своего народа (подарил легенду о Рогатой матери-оленихе, спасшей когда-то киргизский народ), учил радоваться всему живому («Как просто вдруг стать счастливым и принести счастье другому! Вот так и нажо жить всегда!»). Мальчик научился складывать сказки.

Очень лаконично, обманчиво спокойно начинается повесть: «У него было две сказки. Одна своя, о которой никто не знал. Другая – та, которую рассказывал дед. Потом не осталось ни одной. Об этом речь».

Мальчик любил сказки, особенно он затаив дыхание слушал миф о Рогатой матери-оленихи. Об этом ему рассказал дед Момун.

Маленького человека лишили веру в сказку. Лишили веру в добро, справедливость. И сделали это взрослые люди, смысл жизни которых должен быть в том, чтобы защитить детей от зла. И среди них – самый близкий человек – дед Момун, не нашедший в себе сил противостоять тому злу, которое жило вокруг него. Это зло воплощено в Орозкуле и ему подобных, считавших, что «красотой сыт не будешь», и потому безжалостно уничтожающих эту красоту.

В один узел стянулись взаимоотношение людей на кордоне: добро и зло, бескорыстие и потребительство, любовь и ненависть к природе, к миру, ко всему живому. Переплелись реальность и сказка. Сюжет легенды о Рогатой матери-оленихе повторяется в действительности. Орозкул жестоко мстит сказке, когда отрубает голову убитой оленихе, ибо он беден душой и не может верить в нее. В его душе нет места для сказки, в которую верит Момун, не имеющий сил постоять за свою веру. И маленький мальчик не захотел более оставаться с ними. Он ушел к своим друзьям – к сказке, к камням, к реке, к белому пароходу. Он еще не мог бороться со злом, но и принять его тоже не мог. И потому он ушел из жизни, в которой был так одинок. Ушел в сказку. «Одно лишь могу сказать теперь, – пишет Айтматов, – ты отверг то, с чем не мирилась твоя душа. И в этом мое утешенье. Ты прожил, как молния, однако сверкнувшая и угасшая. А молнии высекаются небом. А небо вечное. И в этом мое утешенье. И в том еще, что детская совесть в человеке – как зародыш в зерне, без зародыша зерно не прорастает. И чтобы ни ждало нас на свете, правда пребудет вовеки, пока рождаются и умирают люди...».

Писатель-гуманист верит в торжество правды, в великие нравственные силы человека. Он учит нас быть сильными и мужественными в борьбе со злом, не оставаться равнодушными, «следовать прекрасным идеалам даже ценой своей жизни...»

Герой романа «Буранный полустанок» (1980 г.) Едигей Жангельдин – человек-труженик, на такой земля держится. Он – сын своего времени, неразрывной связью связанный с ним. Писатель смотрит на мир через его судьбу – судьбу фронтовика, рабочего. Следуя заветам Горького, Айтматов считает, что главным объектом литературы должен быть человек труда. Вместе с тем признает, что «человек-труженик интересен и важен настолько, насколько сконцентрировано в нем его время». Едигея он называет «человеком трудолюбивой души». У таких, как Едигей, нет готовых ответов на все вопросы, они их всю жизнь ищут, умеют задумываться над сложными проблемами. А XX век действительно ставит перед всем человечеством сложные вопросы и требует найти на них ответы, ибо, как утверждает писатель, «если человечество не научится жить в мире, оно погибнет».

Человек не должен жить только сегодняшним днем. Определить свое место в мире ему поможет его исторический опыт,

а значит, и историческая память. В романе очень сильно звучит именно мотив памяти.

Крохотный поселок Боранлы – Буранный находится в бескрайней Сарозекской степи. Только стук поездных колес – как пульс происходящей вокруг жизни. Поселок напоминает затерянный островок человеческого братства: здесь и ученый-геолог, знаток истории сарекезов Елизаров, и старожил Казангап, хранящий древние предания степей, и Едигей – человек совестливой и отзывчивой души, и учитель истории Абуталиб, сам ставший жертвой истории, ибо его «живым мясом отодрали от живого, от самого дорогого для него, от детей». Фронт, побег из фашистского плена, борьба в составе подразделения югославских партизан, боевые награды и ранения – и подозрительность, недоверие, жестокость в отношении этого светлого человека, погибшего вследствие репрессий и позднее оправданного.

Писатель упорно заставляет нас размышлять о «болевых точках» минувшего. «За все на земле есть и должен быть спрос», – говорит Казангап, веря в духовные силы человека, который сумеет преодолеть подлость и жестокость.

Большое значение имеет в романе легенда о древних кочевниках жуань-жуанях, которые пытками приводили людей к потере памяти, делая из них послушных рабов, забывших о прошлом. Таких людей, потерявших память, называли манкуртами. Легенда о юноше-манкурте, убившем свою мать – страшное предостережение тем, кто добровольно становится манкуртом, забывая традиции родного народа, его искусство. В романе таким показан Сабитжан: он равнодушен к памяти своего отца Казангапа, мечтает о том времени, когда людьми будут управлять по радио. Рассказывая о нем, Айтматов с тревогой говорит о бездуховности, которая приводит к обезчеловеченности человека.

«Буранный полустанок» – роман, в котором тесно переплетаются прошлое, настоящее и будущее человечества. Труден путь человечества, но тверда вера писателя и его героев в то, что «справедливость не истребима на земле!»

В основе романа «Плаха» (1986 г.) – чувство личной ответственности человека за все, происходящее на планете. Это роман-призыв, обращенный к каждому из нас: он призывает человечество осознать свое отношение к Земле, ко всему живому на ней.

В романе Ч.Айтматов ведет разговор об экономических и социальных проблемах, которые неразрывно связаны с проблемой нравственной – проблемой состояния человеческой души. Трагедия в Моюнкумской степи – это трагедия не только природы, когда по приказу человека разрушается его гармоничная сущность, но это трагедия и самого человека, приводящая к деформации человеческой личности...

Тема волков, в своей сути более нравственных, чем те люди, которые бессмысленно уничтожают все живое; тема Авдия Каллистратова с его поисками добра в человеке; тема Бостона, который платит высокую цену за совершенное людьми зло, – все это переплетено в романе Ч.Айтматова и философски осмысливается.

Условно роман можно разделить на 3 части: в первой рассказывается история семейства волков и ставится экологическая проблема; вторая часть – история правдоискателя Авдия Каллистратова – поднимает нравственно-философскую проблему; третья часть, рассказывающая о жизни чабанов, дает возможность писателю решать социальные проблемы. Однако в ткани художественного произведения все эти проблемы тесно переплетены на протяжении всего романа.

Духовный распад личности показан писателем в образах бандита Гришана, «гонцов», Базарбая и Кандалова с его бездумными и бездушными помощниками.

Мир зла страшен, и в романе показана его социальная сущность. Высшее назначение человека – это его труд и добро, им творимое. Бандиты с карабинами расстреливают стада сайгаков, чтобы выполнить план на мясу. «Гонцы» едут за анашой, чтобы наживаться на наркоманах и множить горе и зло. Они истребляют жизнь на земле, нарушают гармонию в отношениях человека и природы. А так как зло наказуемо, то за это расплачиваются другие, в частности Бостон.

Суровый реализм романа позволяет Ч.Айтматову показать, что несущие зло и страдание всегда бездуховны. Писатель говорит нам о вине человека за все зло, происходящее на земле, призывает бороться с этим злом и утверждать гуманность в высшем ее проявлении.

Литература:

1. Айтматов Ч.Т. Заметки о себе. – М. Современник. 1998.
2. Aytmatov Ch., Shoxonov M. Tog‘ cho‘qqisida qolgan ovchining ohi-zori. – T.
3. Нехлюдов С. Мифология тюркских и монгольских народов. – Москва, 1981.
4. Мискина М.С. Мифологические мотивы в повестях Ч.Айтматова. – Томск, 2000.
5. Акматалиев А. Чингиз Айтматов и взаимосвязи литератур. – Бишкек, 1991.
6. Айтматов Ч., Дайсаку И. Ода величию духа: Диалоги. – Москва, 1994.

UCHINCHI KENGASH. O‘ZBEK HORIJIY SHARQ XALQLARI FOLKLORI ALOQALARI MASALALARI

UBAYDIY IJODIDA FOLKLORNING TA’SIRI

Abdullaev Muhammad Xamzaevich
O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari Univarsiteti
Filologiya fanalri nomzodi, dotsent
Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi

Annotasiya: Ubaydiy o‘zbek adabiyotining taraqqiyotida salmoqli hissa qo‘shgan shayboniy shoirlardan. U Navoiyga ergashib turli janglarda ijod qilgan. Shu bilan birga Ubaydiy Ahmad Yassaviy uslubida xalqona hikmatlar bitgan. Shoir she’rida xalq og‘zaki ijodining ta’siri ko‘rinib turadi.

Kalit ko‘zlar: Ubaydiy, hikmat, folklor, xalq ijodi, Ahmad Yassaviy, barmoq vazn, xalqchil.

Аннотация: Убайди - один из шайбанских поэтов, внесших значительный вклад в развитие узбекской литературы. Он следовал за Навои и творил в различных боях. В то же время народная мудрость писалась в стиле Убайди Ахмада Яссави. В стихотворении поэта прослеживается влияние фольклора.

Ключевые слова: Убайди, мудрость, фольклор, народное творчество, Ахмад Яссави, вес пальца, фолк.

Abstract: Ubaidi is one of the Shayban poets who made a significant contribution to the development of Uzbek literature. He followed Navoi and worked in various battles. At the same time, folk wisdom was written in the style of Ubaidi Ahmad Yassawi. The influence of folklore can be traced in the poet's poem.

Key words: Ubaidi, wisdom, folklore, folk art, Ahmad Yassawi, finger weight, folk.

Turkiy adabiyoti yuksalishiga munosib hissa qo‘shgan shayboniy ijodkorlardan biri Ubaydiydir. Ma’lumki, shayboniy ijodkorlarning she’rlarida xalq og‘zaki ijodining ta’siri katta. Bu holatni Shayboniyxon va Ubaydiy ijodida ham uchratamiz. Tarixshunos olimlar Ubaydiyning to‘liq nomini Ubaydulloxon ibn Mahmud Sulton ibn Budog‘ Sulton ibn Abulxayrxon deb qayd etishadi. Abulxayrxonning Budog‘ Sulton ismli

o'g'li bo'lib, bu o'g'lidan Muhammad Shayboniyxon va Mahmudxon dunyoga kelgan. Mahmudxon Dashti Qipchoqda bobosi Abulxayrxon qo'lida tarbiyalanadi. Keyinchalik u Muhammad Shayboniyxon bilan birga toju taxt uchun kechgan janglarda faol qatnashadi.

Movarounnahr 1501 yilda shayboniylar qo'lga o'tgach, unga Buxoroni boshqarish topshiriladi. Ubaydiy ana shu sulton Mahmudxon oilasida 1487 (hijriy 892) yilda tavallud topadi. Tarixiy va ilmiy manbalarda Ubaydiyning tug'ilishi va vafoti sanasi qayd etilgan bo'lsa ham, tug'ilgan joyi to'g'risida ma'lumot juda kam saqlanib qolgan. Ubaydiy dunyoga kelganda otasi Mahmud Sulton piri va ustodi Nosiriddin Ubaydulloh Xoja Ahror huzuriga borib, unga nom qo'yib berishni iltimos qiladi. Nosiriddin unga iltifot ko'rsatib, o'z nomini qo'yadi.

Ubaydiyning yoshlik yillari ko'proq Buxoroda o'tadi. U otasining yolg'iz farzandi ekani tarixiy manbalarda keltirilgan. Ubaydiy o'z davrining yetuk olimlaridan ta'lim-tarbiya oladi. Arab va fors tillarini mukammal o'zlashtirib, Amir Abdulloh Yamaniy, Xoja Muhammad Sadr singari o'z davrining yetuk allomalaridan ilm olgani manbalarda qayd etilgan. Ayniqsa, Qur'oni karimga muhabbati va qiziqishi yosh paytidan ko'zga tashlanib, o'zi ta'kidlaganidek, uni yod oladi. "Kalomulloh"ni nasx xatida o'z qo'lida ko'chirib, Makka va Madinaga yuboradi va bu ulug' Kitobga turkiy tilda tafsir ham bitadi. Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" kitobida bu to'g'rida bunday deyilgan: "Fazilatlarining eng yaxshi ko'rsatkichlaridan biri – u (Ubaydiy M.A.) Qur'on mutolaasi va qiroatini yengillashtirish uchun turkiy tilda yozgan Qur'on tafsirikim, dalillari suyaniladigan asosda bitilgan..."

Ubaydiy fiqh ilmiga bag'ishlab bir risola ta'lif qilganki, uni "foydalar koni", deb ta'riflashgan. Uning qiroat, tafsir yoki dinning boshqa masalalariga bag'ishlangan risolalari ham bo'lib, hozirgacha topilgani yo'q. Keltirilgan ma'lumotlar Ubaydiyning diniy ilmlar bilan jiddiy shug'ullanib, uni badiiy ijod bilan bog'lashga harakat qilganini ko'rsatadi.

Darhaqiqat, Ubaydiy mazkur risolalarni yo'l-yo'lakay yozib qoldirgan deb bo'lmaydi. Shu munosabat bilan yana bir voqeani eslab o'tish lozimga o'xshaydi. Ubaydiyning otasi Mahmud Sulton dastlab Toshkentda yashab, so'ng Buxoroga kelgan Xoja Ahror Valiyning muridi Mavlono Muhammad Qoziga qo'l beradi. Ismoil Safaviy qo'shini bostirib kelgach, Mavlono oldin Andijonga, undan Ahsiga ketib qoladi. Mavlono Muhammad 1506-1507 yillarda Buxoroda istiqomat

qiladi. Ayni shu vaqtda uning suhbat va va'zlaridan bahramand bo'lgan Ubaydulloxon shogird bo'lishni ko'ngliga tukkan bo'lishi ehtimoldan yiroq emas. Ubaydiy 1504 yilda katta amakisi Suyunchakxon Sultonning qiziga uylanadi. Shu yilning oxirlarida esa otasi Mahmud Sulton Qunduzda vafot etadi. Shayboniyxon yolg'iz ukasining jasadini Samarqandga keltirib dafn etgach, Ubaydullo 18 yoshida Buxoro taxtiga o'tiradi. Uning taxtga o'tirishiga ko'pchilik ilm-fan va adabiyot namoyandalari katta umid bilan qarashdiki, buni Mir Muhammad Munshiyning shu voqea munosabati bilan yozgan ta'rixidan ham bilib olish qiyin emas:

*Abulg'ozu Ubaydullo Bahodirxoni dinparvar,
Bihamdullohki shud joyash farozi masnadi xoni.
Mu'ini dini Payg'ambar shudu gardid ta'rixash,
Mu'iniddin Ubaydullo ibn Mahmud Shayboni.*

Ubaydiyning Buxoro taxtida o'tirgan yili Shayboniyxon Xorazmga yurish boshlaydi. Bu yurishda Ubaydiy ham ishtirok etib, Xorazmni egallash uchun kechgan jangda jasur, tadbirkor, mohir sarkarda sifatida taniladi. Umuman olganda, Ubaydiyning kuchli harbiy salohiyati, qo'rqmas sarkardaligi tarixiy kitoblarda alohida qayd etilgan. "Tarixi Muqimxoniy"da uni "adolat shevasida yagona, jang jabhasida bag'oyat farzona edi", deb maqtalgan. "Tarixi Shayboniyxoniy", "Tarixi Rashidiy", "Tarixi Roqimiy", "Zubdat ul-asror" singari asarlarda tasvirlangan bir qancha harbiy voqealar bu bahoning haqqoniy ekanini ko'rsatadi. Aytish mumkinki, Ubaydulloxon amakisi bilan faqat harbiy yurishlarda emas, balki ilmiy va adabiy majlislarda ham birga ishtirok etib, undan o'rnak olishga harakat qilgan. Shu sababli Ubaydiyning "davr sultonlari ichida fazilat va kamolotda yagona"ligi goh-goh Shayboniyxon nomi bilan bog'liq tarzda tilga olinadi. Hatto Eron tarixchilaridan biri: "Ubaydixon ibn Mahmud Sulton Shayboniyxonning jiyani bo'lib, saxovat va shijoatda davr yagonasi edi", deydi. Ubaydiy adolat va saxovati, birinchi navbatda, din ravnaqi, yurt obodligi, xalq farovonligi, ilm-fan, san'at, adabiyot rivojiga va shu soha kishilarining takdiriga jiddiy e'tibor berganida ham ko'zga tashlanadi.

*Abulg'ozu Ubaydullo Bahodirxoni dinparvar,
Bihamdullohki shud joyash farozi masnadi xoni.
Mu'ini dini Payg'ambar shudu gardid ta'rixash,
Mu'iniddin Ubaydullo ibn Mahmud Shayboni.*

Ubaydiyning Buxoro taxtida o‘tirgan yili Shayboniyxon Xorazmga yurish boshlaydi. Bu yurishda Ubaydiy ham ishtirok etib, Xorazmni egallash uchun kechgan jangda jasur, tadbirkor, mohir sarkarda sifatida taniladi. Umuman olganda, Ubaydiyning kuchli harbiy salohiyati, qo‘rqmas sarkardaligi tarixiy kitoblarda alohida qayd etilgan. “Tarixi Muqimxoniy”da uni “adolat shevasida yagona, jang jabhasida bag‘oyat farzona edi”, deb maqtalgan. “Tarixi Shayboniyxoniy”, “Tarixi Rashidiy”, “Tarixi Roqimiy”, “Zubdat ul-asror” singari asarlarda tasvirlangan bir qancha harbiy voqealar bu bahoning haqqoniy ekanini ko‘rsatadi. Aytish mumkinki, Ubaydulloxon Shuni ham ta’kidlash kerakki, Ubaydiy tasavvufni chuqur bilish, shaxsiy hayotida tasavvufiy qarashlarga rag‘bat bildirish bilan kifoyalanib qolmasdan, diniy-tasavvufiy adabiyot xazinasiga o‘z hissasini qo‘sha olgan shoir sifatida tanildi. U fors-tojik va arab adabiyotidan xabardor bo‘lib, arabiy, forsiy va turkigo‘y shoirlarni yig‘ib, adabiy majlis va suhbatlar o‘tkazgan, bu yig‘inlarda diniy-tasavvufiy she’riyat ustida ham bahslar uyushtirgan. Mashhur turk olimi M.F. Ko‘pruli Ubaydiyning Qur‘on qiroati, tafsir, hadis va fiqh kabi islomiy ilmlarni mukammal egallagan, arabcha va forsiyning she’r yozish qadar yaxshi bilgan, badiiy san’atlarga kuchli qiziqish ko‘rsatgan, hatto naqqosh, xattot va musiqashunos, ma’rifatli bir shoh va iste’dodli shoir sifatida ta’riflaydi. Adabiy majlislarda ishtirok etgan Zayniddin Vosifiy yozadi: “Ul hazratning (Ubaydiy – M. A.) odati shu erdiki, har kuni bir she’rni o‘rtaga tashlab, unga tatabbu’ va javob yozishga shoirlarni undardilar. Derdilarki, tab’ni bekorga o‘tkazmanglar, uni mashg‘ul qilmoq lozim. Sustlik tab’ning bo‘shashiga sabab bo‘ladi va zehnni o‘tmaslashtiradi”.

Shuni ham aytish kerakki, Ubaydiy she’r yozish bilan ancha erta shug‘ullangan. Uning dastlabki she’rlarida Xoja Ahmad Yassaviydan ta’sirlanish ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun uning ilk davr she’rlarigagina asoslanib: “Ubaydiy she’rlari ham o‘zining tematikasi va g‘oyaviy mazmuni bilan Shayboniy she’rlaridan hech farq qilmaydi”, degan fikrlarni to‘la qo‘llab-quvvatlash haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Ubaydiy madaniy va ilmiy saviyasi yuksak shoir sifatida “Ubaydiy” va “Qul Ubaydiy” taxalluslari bilan ijod qilgan.

Ubaydulloxon umrini ko‘proq siyosiy va harbiy kurashlarda o‘tkazganiga qaramay, ilm va adabiyot, ayniqsa, she’riyat rivoji uchun o‘z ulushini qo‘sha oldi. U 1540 milodiy (945-46 hijriy) yilda badanida paydo bo‘lgan kasallikdan vafot etadi va vasiyatiga ko‘ra Xoja Naqshbandiy oyoq uchi tarafida dafn etiladi.

Ubaydiy Sharq she'riyatining deyarli barcha janrlarida qalam tebratgan ijodkor. Uning bizgacha yetib kelgan eng katta kulliyoti 1583 yilda Mir Husayn al-Husayniy tomonidan ko'chirilgan. Bu qo'lyozma O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida 8931 raqami bilan saqlanadi. Shoirning yana bir devoni masoil us-salot, hikmat, ruboiy, tarje'band va noma kabi janrlardan iborat. Biz mazkur devonning hikmat qismini nashrga tayyorladik.

O'zbek mumtoz adabiyotidagi eng qadimiy janrlardan biri hikmat deb atalgan. Ilmiy adabiyotlarda diniy-axloqiy mazmundagi she'rlar X asrlardan e'tiboran hikmat deb yuritilgani qayd etilgan. "Hikmat donishmandlik, irfon, ma'rifat, hikmatli so'z, sirli va maxfiy kalima, bilimdonlik va falsafiy ma'nolarni aks ettiradi". Shuningdek, bu kalima lug'atlarda Qur'on, Furqon, Injil, Zabur, to'g'ri so'z, nubuvvat; ma'rifati haqoyiqi mavjudot; ilohiy axloq sohibi bo'lmoq; botildan yiroqlashib, Allohga mutlaq itoat; qanoat va yaratishdagi ilohiy g'oya; ilmi laduniy, deb sharhlangan. Mufasssirlar otasi Ibn Abbos hikmatni quyidagicha ta'riflaydilar: "Hikmat ilmi shariat bilan ilmi tariqatning majmuasi". Qur'oni karimda: "U o'zi istagan kishilarga hikmat berur" (Baqara surasi, 269-oyat), "Aniqki, biz Luqmonga hikmat ato etdik..." (Luqmon surasi», 12-oyat) deb aytilgan Qur'on sirlarini bilish, nasihat va o'git, ilohiy bilimga ega bo'lish ma'nolarini anglatadi. Mustaqil she'riy janr sifatida hikmat, avvalo, Qur'oni karim va Payg'ambar (alayhissalom) hadislarini zaminida yuzaga kelgan.

Turkiy adabiyotda birinchi bo'lib hikmat yaratgan Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" asari o'zbek adabiyotida, xususan, Yassaviy maktabi shoirlari ijodida hikmatnavislik an'anasining muvaffaqiyat bilan davom topishini ta'minladi. Ahmad Yassaviydan keyin o'nlab shoirlar hikmat shaklida qalam tebratgan bo'lsalar-da, ular orasida e'tiborli ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritganlari unchalik ko'p emas.

Hikmatnavislikda Ahmad Yassaviy an'anasini davom ettirgan mutasavvif ijodkorlar, xususan, Sulaymon Boqirg'oniy (Hakim ota) o'z hikmatlarida til, vazn, qofiya va ifodada xalq she'riyatiga hamohanglik hamda yaqinlikka qat'iy amal qilgan edi. Balki shuning uchun ul zotning asarlari yanada kengroq tarqalib, turli qadimiy manbalarda alohida qayd etilgandir. Buni Fitratning «Qo'limizda bo'lg'on "Tazkirat ul-avliyo"ning hech biri Ahmad Yassaviyning "Hikmat"laridan xabar bermagan holda, hammalari Hakim Sulaymon otaning ko'p "Hikmat"lari borligini bir og'izdan aytib turadilar», degan fikrlaridan

ham anglash mumkin. Turk olimi M.F.K o‘pruli va A. Fitrat Sulaymon Boqirg‘oniydan tashqari hikmat janrida unumli ijod qilgan bir qancha shoirlarning (Hubbiy, Shams, Iqoniy, Qul Sharaf, Faqiriy va boshqalar) nomlarini ko‘rsatib o‘tishgan. Shular orasida Qul Ubaydiy ham bor. Abdurauf Fitrat “Qul Ubaydiy”, “Ubaydiy”, “Ubaydullo” taxalluslari bilan hikmatlar yozg‘on bu odam bizning fikrimizcha, mashhur o‘zbek xoni Ubaydulloxondan boshqa kishi emas”, deydi.

Darhaqiqat, Abdurauf Fitrat taxminda yanglishmagani va keyinchalik Ubaydullaxonning Buxorodan topilgan devoni va Turkiyada “Nuri Usmoniya” kutubxonasida saqlanadigan qo‘lyozmadan uning fikrlari to‘g‘riligi to‘la tasdig‘ini topdi. Chunki Ahmad Yassaviyga izdosh shoirlarning tajribalari inobatga olinmaganda, XV asrgacha adabiyotimiz tarixida bevosita Ahmad Yassaviy an‘analarining davomchisi o‘laroq qalam tebratgan ijodkorlar ko‘zga tashlanmaydi. Shayboniylarning Movarounnahrda kirib kelishi va badiiy ijod bilan shug‘ullanishlari tufayli Ahmad Yassaviy shaxsiyatiga va ijodiyotiga qiziqish qayta jonlanibgina qolmasdan, uning hikmatnavislik an‘analarini davom ettirish tamoyili boshlangan edi. Bu harakat boshida Muhammad Shayboniyxonning o‘zi turardi. Uning devonidagi hikmatlar, ayniqsa, Ahmad Yassaviy shaxsiyati madh etilgan she‘rlari ushbu da‘voni tasdiqlaydi, deb o‘ylaymiz. Shayboniyning hikmatlari son jihatidan unchalik ko‘p emas, ammo ular Ahmad Yassaviy va uning hikmatnavislik yo‘liga e‘tiborni jalb etish nuqtai nazaridan xarakterlidir. Shuning uchun Ubaydiy hikmat yozishga jiddiyroq kirishib, yanada yaxshi ijodiy yutuqlarga erishgan edi. U bir she‘rida Ahmad Yassaviy haqida shunday deydi:

Barcha mashoyix sarvari Sulton Xoja Ahmad Yassaviy,

Sonsiz muridlar rahbari Sulton Xoja Ahmad Yassaviy.

Xizr otaning hamrohi, ogohlarning ogohi,

Doim, «Ilohi, Ilohi» Sulton Xoja Ahmad Yassaviy.

Alloh zikri hamdami, barcha valiylar a‘zami,

Sirri ilohiy mahrami Sulton Xoja Ahmad Yassaviy.

Ham ishq ahdi sodiqi, ushshoq xayli Vomiqi,

Diydor ganji oshiqi Sulton Xoja Ahmad Yassaviy.

Ushbu parchadagi «barcha mashoyix sarvari», «ogohlarning ogohi», «barcha valiylar a‘zami», «ushshoq xayli Vomiqi», «diydor ganji oshiqi» kabi tavsiflar ham Ubaydiyning Xoja Ahmad Yassaviyga hurmat-ehtiromi naqadar yuksak bo‘lganini ko‘rsatib turibdi. Ubaydiy Sulaymon Boqirg‘oniy ijodiga ham hurmat bilan qaraydi. U Sulaymon

Boqirgʻoniy haqida shunday deydi:

*Voqif qulga Haq rahmatin enor derlar,
Bir jamʻ aro hozir oʻlub, xush oʻlturung.
Hakim ato himmatining payravligin,
Qul Ubaydiy haddin bilmay qildi koʻrung.*

Oʻz navbatida Ubaydiydan keyingi hikmatnavislardan biri Muhammad Tohir Eshon (1157 hijriy 1800 milodiy) Ubaydiy va uning avlod-ajdodlarini taʼriflab, 1160 misradan iborat hikmat janrida asar yozib qoldiradi. Barcha isteʼdodli shoirlar singari Ubaydiy hikmat yaratishda ham taqlidchilik usullarini tanlagani yoʻq. U sheʼriyatning mazkur sohasida ham mavjud anʼanani rivojlantirish bilan birga gʻoyaviy va badiiy yangiliklar yaratishga intilgan edi. Shuni alohida taʼkidlash joizki, xuddi Yassaviy toʻrtliklariga oʻxshab, Ubaydiy hikmatlarining maʼnolarini toʻliq kashf etish uchun Qurʼon va hadislardan puxta xabardor boʻlmoq zarur.

Xullas, hikmatlardagi har bir arabiy ibora yoki kalima shoirning Qurʼon oyatlariga suyanganiga ishorat boʻlib, ularning mazmun-mohiyatini tushunmasdan Ubaydiy nazarda tutgan maʼno-mohiyatlarga yetish qiyindir. Ubaydiyning hikmatlaridan birida shunday soʻzlar bitilgan:

*Qurʼon otligʻ kalomni kim oʻqusa,
Dev birla shayton andin qochar, derlar.
Ixlos ila fayz eshigin har kim qoqsa,
Muftihul-abvob anga ochar derlar.*

Ubaydiy hikmat yaratib, diniy, tasavvufiy, maʼrifiy va axloqiy maʼnolardan oʻquvchiga saboq berar ekan, birinchi navbatda Qurʼonga suyanib ish tutganini koʻramiz. U «Ilmning chavgoni barcha maʼrifat maydonida» deb biladi va «hikmat axdi kabi» xuddi shu maydonda javlon uradi. Bu esa tabiiy ravishda Qurʼon va hadis ilhomi hamda talablari bilan yashashga undaydi. Bu toʻgrida shoir oʻz xulosasini shunday bayon etgan edi:

*Sanga Qurʼonu hadis va fiqhdur mahkam sanad,
Oʻzlugudin banda har ishni qachon aylay olur.*

Ubaydiy hikmat janrida qalam tebratganda birinchi galda oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi va Ahmad Yassaviy tajribalariga suyangan va ularni muayyan darajada rivojlantirishni oʻylagan. Shuning uchun Ubaydiy va Yassaviy hikmatlari orasida bevosita oddiy xalq tili taʼsirida yozilgan yoki maʼno va ohang jihatidan xalq ogʻzaki ijodiga oʻxshash sheʼrlar

ham tez-tez uchraydi. Bunday she'rlar g'oyaviy-badiiy ahamiyatidan tashqari, o'ziga xos tarixiy qimmatga ham egadir. Chunki Ubaydiy Yassaviyning xalqona hikmatlarini asl shaklida o'qigan va ulardan ta'sirlangan deyishga yetarli asos va dalillar mavjud. Ahmad Yassaviyning mashhur hikmatlaridan birida bunday deyiladi:

*Beshak biling, bu dunyo barcha xalqdin o'taro.
Inonmagil molingga, bir kun qo'ldan ketaro.
Ota-ona qarindosh qayon ketti, fikr qil,
To'rt ayog'lig' cho'bin ot bir kun senga yetaro.
Dunyo uchun g'am yema, Haqdin o'zgani dema,
Kishi molini yema, sirot uzra tutaro.*

Dunyo, umr va molu davlatning o'tkinchiligi haqida bitilgan ushbu hikmat har tomonlama ibratlidir. Shu bois u o'z hayoti va umrining mazmuni xususida fikr yuritgan har bir kishi qalbiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu fikrni Ubaydiy to'grisida ham aytish mumkin:

*Ko'ch eldek, ey rafiq, olam bari ko'charo,
Ko'zni yumub ochquncha aziz umring kecharo.
O'lum solur motamga, odam o'g'lin har g'amga.
Aqli bo'lgon odamga ushbu ibrat yetaro.
Davlatingga tayonma, ganju molga inonma,
Ham barchaga ishonma, bari sandin ketaro.*

Mazkur hikmat o'n ikki baytdan iborat. Undagi «Ko'ch eldek, ey rafiq, olam bari ko'charo», «Ko'zni yumub ochquncha aziz umring kecharo», «Davlatingg'a tayonma, ganju molg'a inonma» singari misralar Yassaviyning shu mavzudagi hikmatining deyarli takroriga o'xshaydi. Ammo aynan shu yaqinlik va monandlik sababli biz Yassaviyning yuqoridagi hikmati boshqa bir qator hikmatlarga o'xshab izdoshlari tomonidan to'qilmaganiga ishonch hosil qilamiz. Yassaviyning hikmati tom ma'nosi bilan katta ibrat asosiga qurilgan. Lekin undagi fikr-mulohazalar Ubaydiydek hukmdor bir kishi tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va «Davlatingg'a tayonma, ganju molg'a inonma» deya, keyin o'limi haqida bahs yuritib:

*Xohi jahon sarvari, xohi bo'lsun sandori,
Barchani go'r ajdari bir-bir etib yutaro,*

-deyishi yana ham ibrat ma'nosini kuchaytiradi. Chunki o'lim oldida shohu gado teng. Haq huzuridagi javobgarlik esa gadoga nisbatan shohning zimmasiga ko'p mas'uliyat yuklaydi. Ubaydiy bu haqiqatni chuqur anglab yetgani uchun ham hikmatini:

Qul Ubaydiy, doimo aning sari havo qil.

O'kunchbila bu dunyo barcha eldin o'taro,

-deb tugatadi. Ubaydiy o'limni haddan oshmaslikning bir chegarasi va chorasi sifatida qarar ekan, "Ey do'stlar, Xudoda o'lumni unutmangiz" satri bilan boshlanadigan she'rining xotimasida yozadi:

Har kimki, haddin o'tsa Ubaydiy jafo chekar,

O'z haddingiznibarcha bilib haddin o'tmangiz.

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodda she'rlar barmoq vaznida aytilgan, jumladan Yassaviy hikmatlari ham aksar barmoq vaznida bitilgan. «Devoni hikmat»da aruzda yozilgan she'riy namunalar ham uchraydi. Biroq ayrim tadqiqotchilar bunday hikmatlar Yassaviyga mansub ekaniga shubha bilan qaraydilar. Bizning nazarimizda, bu masalaga ham kengroq qarash lozimga o'xshaydi. Bunday deyishimizning boisi shuki, Ubaydiy devonida Yassaviyning aynan aruzda yaratilgan hikmatlariga o'xshatmalar ham uchraydi. "Devoni Hikmat"da o'qiymiz:

-Bedor bo'lgul, ey mo'min, sahar vaqti ichinda,

Qutqar o'zingni o'tdin sahar vaqti ichinda.

Saharlarda ul gullar, sano aytur bulbullar,

Kim ayturkim biri bor sahar vaqti ichinda.

Sahar vaqtida ko'kdan malak kelur mo'minga,

Yozuqlardin yopurga sahar vaqti ichinda.

Sahar vaqtida ko'kdin jannat qopug'i ocharlar,

Bedor qulga sanjarlar sahar vaqti ichinda.

Sahar vaqtida qo'pgay, o'lumni yod qilg'ay,

Ko'rqunchdin ko'kka uchqay sahar vaqti ichinda.

Saharning lazzatini oshiq qullar bilurlar,

Haqni hozir ko'rurlar sahar vaqti ichinda.

Sahar vaqti xush soat, ham jannat erur rohat,

Tangriga qil ibodat sahar vaqti ichinda.

Bu hikmatda «sahar vaqti» diniy-tasavvufiy ma'noda talqin etilib, o'ziga xos poetik timsol darajasiga yetkazilgan. Haqiqatda ham Haq oshiqdari «Saharning lazzatini» yaxshi bilishgan. Ular uchun sahar vaqti «xush soat» va jannatga teng bir rohat pallasini hisoblagan. Ular bu paytda «ko'kdan malaklar» kelishiga, Alloh diydor ko'rsatishi va Unga toat-ibodat to'la ijobat bo'lishiga ishonganlar. Shuning uchun mutasavvif shoirlarimiz Yassaviy hikmatiga hamohang ravishda "sahar vaqti"ga bag'ishlab she'rlar yozganlar. Shunday she'rlardan biri Ubaydiy qalamiga mansub:

*Oh ursa arsho 'rtanur oshiq sahar vaqtinda,
 Na'ra urub, zikr aytur oshiq sahar vaqtinda.
 Rahmat saharda nozil bo 'lub, bo 'lur ham vosil,
 Bir lahza bo 'lma g 'ofil, oshiq sahar vaqtinda.
 Haqdin lutf atolar kelur nuru safolar,
 Qabul o 'lub duolar, oshiq sahar vaqtinda.
 Zohidlardek tavarru' aylab qilg 'il tatavvu',
 Tengriga ko 'p tazarru' oshiq sahar vaqtinda.
 Qabul aylab niyozin, Haq ko 'tarur ham nozin,
 Aytur anga har rozin, oshiq sahar vaqtinda.
 Al-avvalu val-oxir, al-botinu vaz-zohir.
 Uldur sanga bil nozir, oshiq sahar vaqtinda.
 Har kim qilsa Haq yodin, Haq eshitur faryodin,
 Topar barcha murodin, oshiq sahar vaqtinda.
 Niyozingni qilursen, ne rozing bor aytursen.
 Uldur dogi sandursen, oshiq sahar vaqtinda.
 Qul Ubaydiy maqsuduulduur kuygay vujudi,
 Shu 'laursa shavqo 'ti oshiq sahar vaqtinda.*

Yassaviy hikmatini nazardan soqit qilib, Ubaydiyning ushbu she'riga baho berish yoki uni to'liq taxdil etish mumkin emas, albatta. Bunda tatabbu' yo'lidan borib, tatabbu' talablariga rioya qilgan holda shoir «sahar vaqti»ning fayzi, sirlari, oshiq qismatidagi o'rni xususida mustaqil qarashlarini ham bayon eta olgan. Yassaviy hikmatlariga o'xshab Ubaydiy hikmatlarining asosiy mavzui ilohiy ishq sirlari bayoni va ishq axdiga pandu nasihatdir. Uningcha:

Muhabbatning sharobidin ichgon kishi Sakkiz uchmoh sharobini ko'zgo olmas.

Ubaydiy hikmatlarining lirik qahramoni shoirning boshqa janrlardagi lirik qahramonidan ancha farqlanadi. Chunki u chin ma'nosi bilan Husni mutlaqning oshiqi shaydosidir:

*Qul Ubaydsh Allohining shaydosidur,
 Ham boshida doim aning savdosidur.
 Tolib ul-matlub aning liqosidur.
 Jovidonga liqo kerak, bshing, do 'stlar.*

Shuning uchun u «tajalliy maqomi»ga yuksalish orzusi bilan yashagan:

*Tajalliy maqominda yurgum kelur,
 Haq jamolin ul maqomda ko 'rgum kelur.
 Haqiqatning jononidin topsam xabar,*

*Ishq otin ul soriga surgum kelur.
Mone' anga nafsoniylik pardasidur,
Haq yorligobul pardani turgum kelur...
... Qul Ubaydiy jonim bsha xidmat qshib,
Eratarining xidmatida yurgum kelur.*

Ubaydiy xalqona hikmatlarida, "Devoni hikmat"da bo'lganidek, shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat bosqichlariga tegishli masalalar izchil tarzda ta'rif va talqin etilmagan bo'lsa-da, sayri sulukning axloqiy, ma'rifiy, ruhoniylar jihatdan ibratli haqiqatlari atroflicha badiiy bo'yoqlar bilan ochib berilgan.

*Ey rafiqim, suluk ahli sohibi asror,
Sir olamin kezmaguncha bo'lmas ermish,*

deydi shoir va «sir olamin» kezgan «sohibi asror» zotlar sifatida oshiq, orif, faqir, darvesh va muqarriblarni namuna qilib ko'rsatadi:

*Ilohimdan qurbat istab, qurb ahlidek
Muqarrabin maqomiga yetgum kelur.*

Yoki:

*Oriflardek mosivalloh tarkin etmay,
Tajarrudning maqomiga dogi yetmay,
Fano filloh vujud ila o'z luk ketmay,
Yorotqonga loiq qulluq qilsa bo'lmas...*

Yana:

*Ishqi aro oshiq hamisha volai hayron kerak,
So'zi so'zon, bagri biron, ko'zlari giron kerak.*

Ma'lumki, so'fiylik yo'lga kirgan oshiq, orif, faqir, darvesh kabilar haqida mulohaza yuritish va ularga xos xususiyat yoki fazilatlarini ta'rif va tavsif etish tasavvuf she'riyatining, jumladan, hikmat janridagi she'rlarning o'ziga xos jihatlaridan biridir. Shuning uchun Ubaydiy hikmatlarida mazkur masala ancha keng o'rin egallaydi. Lekin shoir ular orasidan ikki toifa kishilar to'g'risida alohida hurmat-ehtiromlar bilan so'zlaydi. Bulardan biri orif va ikkinchisi darvesh. Darvesh va darveshlik xususida gapirmagan so'fiy yoki mutasavvif ijodkorni uchratish qiyin. Gap shundaki, ularning ko'pchiligida umumiy o'xshashlik va ma'lum bir takrorlarga ham yo'l qo'yilgan. Ubaydiy esa imkon boricha ana shunday umumiylik va takroriylikdan chekinishga intilgan. Shu bois uning darvesh ta'rifidagi she'rlari o'zining yangiligi bilan darhol nazarga tushadi.

Umuman olganda, tasavvuf adabiyotida ramz va majozning o'rni hamda xizmati haqida ko'p gapirilgan. Haqiqatan ham, so'fiy shoirlar

yoki tasavvuf ta'limoti to'g'risida bahs yuritgan ijodkorlar o'z she'rlarida majozga tayanish va ramziylik qonun-qoidalari bo'yicha qalam tebratishga harakat qilganlar. Shuningdek, ular foydalangan ramziy timsollar mazmuni dunyoviy yo'nalishda ijod etgan qalam ahlining she'rlaridagi ma'nolardan butunlay farqlanadi. Qushlar va hayvonlar timsoli qo'llanilib yaratilgan she'rlar Ubaydiy devonida ham mavjud:

*Xurus aytur: "Yod eting Allohni, ey gofillar,
Yotmoq nedur, yod etmay tun-kun ziyon ichinda".*

*Tovus aytur: "Har nakim qilsang fano mulkida, Mukofotin toparsan
ikki jahon ichinda".*

*Hudhud aytur: "Har kim rahm etmas, ey rafiqim,
Rahm etmaslar anga, bilgil davron ichinda".*

*Hudhud bila Sulaymon so'zin bilmak istasang,
Hikoyatin hudhudning o'qi Qur'on ichinda.*

*Qarlugoch aytur: "Ilgari yaxshiligni yuboring",
To topqaysiz Tengridin kavnu makon ichinda".*

*To'ti aytur: "Voy angakim. maqsudi va matlubi,
Dunyo bo'lgay hamisha baytul-ahzon ichinda...".*

*Bayon aylab qushlarning so'zlarini shavq ila,
Qul Ubaydiy bulbuldek sayrar bo'ston ichinda.*

«Xurus», «Tovus», «Hudhud», «To'ti» obrazlari Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirg'oniy hikmatlarida ham uchraydi, lekin Ubaydiy she'rida bu qushlar obrazi nisbatan boshqacha maqsad ifodasi uchun xizmat ettirilgan. Shu bois unda hatgo «to'ti» obrazi ijobiy xarakterga ega bo'lib, u «Voy angakim, maqsudi va matlubi dunyo bo'lgay hamisha baytul-ahzon ichinda» deya dunyoparastlikni qoralaydi. Qul Ubaydiyning «Qushlarning so'zlarini shavq ila» bayon aylashidan ko'zda tutgan bosh maqsadi esa, ilohiy idrok bilan Haq va haqiqatni tushungan qushlarni insonga ibrat va namuna qilib ko'rsatish edi. Shuning uchun «Xurus» g'ofillikni qoralaydi. Tovus fanodan so'zlaydi. Hudhud rahm va shafqatdan saboq beradi. Qarlug'och yaxshilik va ezgulikni madh etadi. Bu ham o'ziga xos bir hikmat bo'lib, Ubaydiy:

*Hikmapg gulistonida istasang ma'ni gullarin,
Ne gullar yo'q ma'nidin bu guliston ichinda, -*

degan so'zlarini amalda isbotlagan. Zero, Ubaydiyning hikmatnavislikdan maqsadi «hikmat gulistoni»dan «ma'ni gullari»ni terishdir. U hikmatlarning hikmatini tanlash va xalqqa yetkazishda Luqmoni Hakimni ibrat qilib ko'rsatadi.

*Dedi hikmat ahliga Luqmon Hakim, ey do‘stlar,
To‘rt ming hikmat manga berdi, karam aylab Xudo.
Saylab oldim to‘rt ming hikmat orasidin dogi,
To‘rt yuz hikmatni tanlab, xush ko‘rib, ey mujtabo.
Yana andin to‘rt hikmatni ayirdim xushlabon,
Asru xush kelgan uchun hikmatlar ichro ul mango.*

Luqmoni Hakim shu to‘rt hikmatdan yana ikkitasini unutib, yolg‘iz ikkisini ajratib qoladi. Bulardan birisi Xudo, ikkinchisi o‘lim. U shu ikki narsani unutmagan. Unutganlaridan biri birovga qilgan yaxshilik, ikkinchisi esa boshqalardan yetgan ranju sitam. Ubaydiy unutish va sira unutmaslik zarur bo‘lgan ana shu to‘rt hikmatda o‘zini Luqmoni Hakimga maslakdosh sezadi va boshqalarni ham shunga undaydi. Ubaydiy yashash va donolik hikmatini g‘aflatga qul bo‘lmaslik va g‘ofillikda kun kechirmaslik deb bilgan. Uningcha:

*Hikmat yuzidin yuruvki, gaflatdan emastur,
G‘ofil yurmaklik xalq ichra hikmatdan emastur.*

Ubaydiy hikmatlari shunday kata adabiy xazinaki, mavzu doiralari juda keng bo‘lishi barobarida Ubaydiy dunyoqarashida uning o‘z davriada biy xususiyatlari taqozosi bilan juda ko‘p muammolar o‘rtaga qo‘yilib, yangi va rang-barang muhim g‘oyalar ilgari surilgan. Abdurauf Fitrat Ahmad Yassaviy «Devoni hikmat»ining adabiy qiymati to‘g‘risida mulohaza yuritib, «Yassaviyning adabiyotda tutg‘on yo‘li sodda xalq shoirlarimizning tutg‘on yo‘llaridir. Unda Navoiy istioralari, Boburning forscha yozishmalari yo‘qdir, uning hikmatlari vaznida, qofiyada, uslubda xalq adabiyoti atalgan she‘rlar bilan barobar yuradi», deydi.

Masalan, Ubaydiyning bir hikmati shunday satrlar bilan boshlanadi:

*Baytul-ahzon bo‘lg‘usidur bog‘u bo‘ston, g‘am yema,
G‘ussai g‘am gulxani oxir guliston, g‘am yema.
Hajr shomi yetsa dardu g‘am sanga dildordin,
Vasl ayyomi yetar dardinga darmon, g‘am yema.*

Til va uslub e‘tibori bilan bu hikmat oshiqona g‘azallardan keskin farq qilmaydi. Undagi «g‘ussai g‘am gulxani», «hajr shomi», «vasl ayyomi» kabi istioraviy iboralar g‘azaliyot xazinasidan olingan. Hikmatdagi g‘oya esa ma‘rifiy-axloqiy xarakterga ega.

Ubaydiy hikmatlarida she‘riy san‘atlarning o‘zi bir olam. To‘g‘ri, ularning aksarida bo‘rtib turgan diniy asos va ularning ma‘nolarini sharxdash diniy ilmdan yetarli darajada xabardor bo‘lishni talab etadi. Shoirning Luqmoni Hakim,

Yusuf (alayhissalom), Yunus (alayhissalom), Iso (alayhissalom) va

Muhammad (alayhissalom) payg‘ambarlar haqidagi talmixlardagi ma’no va mazmuni to‘liq anglamoq va sharxlamoq uchun bevosita Qur’oni karim, hadisi sharif va Islom tarixiga murojaat qilish kerak.

Ubaydiy hikmat janrida samarali ijod qilgani ayni haqiqat. Lekin bu hikmatlar shoir ijodining qaysi davrlari mahsuli, degan savolni yuzaga keltirishi tabiiy, albatta. Bu savolga aniq javob qaytarish qiyin, chunki shoirning taxminan 1516 yillarda Sulton Ali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan devonida hikmat janridagi she’rlar kiritilmagan. (Bizning taxminimizcha, Mirali kotib (1478 1546) Sulton Ali Mashhadiy uslubida ko‘chirgan. Chunki Indiana shtatidan keltirilgan Ubaydiy devonining birinchi betida “Musavvar bixati Sulton Ali Mashhadiy” deb yozilgan jumla bor.) Uning «Kulliyoti» esa Ubaydiy vafotidan keyin 1583 yilda ko‘chirilgan. Ubaydiy Ahmad Yassaviy hikmatlari bilan juda yoshligidan tanishgani va ularni qiziqib o‘qib-o‘rganganini inobatga olinsa, uning ijodining ilk davrlaridayoq hikmatlar yaratganligi unchalik shubha tug‘dirmaydi.

Bundan tashqari, Ubaydiyning din va tasavvuf bilan qiziqishi ham ancha erta boshlangan. Bu ham uni hikmat yozishga ilhomlantirgan bo‘lishi kerak. Lekin bizning taxminimizga ko‘ra, shoir asosan 1510 yillardan keyin, ya’ni Shayboniyxon vafot etgach, hayot, zamon va beshafqat voqelik hodisalari bilan yuzma-yuz kelib, turmushning oqu qoralarini bir qadar chuqur anglagach, hikmat yozish bilan o‘ziga o‘zi ma’naviy-ruhiy tasalli berish, ilohiy ishq haqiqatlariga suyanish, yolgiz Yaratgandan najot tilash, ma’rifat sirlarini mukammal o‘zlashtirish mayllariga berilishdan ham sezish mumkin.

Xullas, Ubaydiy zamondoshi Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ilm-ma’rifatga katta e’tibor qaratgan shoh va rang-barang janrlarda qalam tebratgan shoir edi. Ayniqsa, u hikmat janrida qalam tebratgan shoir sifatida adabiyotimiz tarixidan o‘ziga xos o‘rin egallagan ijodkor. Uning 1786 baytdan iborat 235 donadan ziyod (2 baytlikdan to 30 baytlik) hikmatlari faqat son jihatidan emas, ma’no va mohiyat e’tibori bilan ham mumtoz adabiyotimiz xazinasiga qo‘shilgan salmoqli ulushdir. Ubaydiy hikmatlarida arabiy va forsiy so‘zlar, Qur’oni karim oyatlari yoki hadisi shariflardan olingan ibora va iqtiboslar tez-tez uchrasa-da, ularning tili va ifodasida unchalik murakkablik ko‘zga tashlanmaydi. Bu hikmatlar xalq ongi va ko‘nglini ilm-ma’rifat nurlari bilan yoritishga yaqindan yordam beradi. Ubaydiy bir hikmatida:

*Meni haq qorii Qur’on qilibtur,
Jamoliga mash hayron qilibtur.*

*Ilmlar berib o'tluq o'lordin,
Tasavvuf mulkida Sulton qilibtur,*

deydi. Ana shu satrlardan Ubaydiy ijodida qadimiy qipchoq xalqlarining sodda tili va u xalq ardoqlagan tasavvuf ilmiga naqadar muhabbatli va ixlosli ekanini bilib olsak bo'ladi.

O'ZBEK XALQ O'LANLARI POETIKASIGA DOIR

*Turg'unov Sherali Dolixonovich
Namangan davlat universiteti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Namangan, O'zbekiston Respublikasi*

Annotatsiya: Maqolada o'zbek xalq o'lanlarining badiiyati haqida so'z boradi. O'lanlar tahlilga tortilib, badiiy tasvir vositalari, o'xshatishlar va qo'llanilgan boshqa she'riy san'at turlari aniqlashtirilgan. Asar tarkibidagi poetik obrazlar va ularning badiiy vazifasiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: o'lan, poetika, she'riy san'atlar, o'xshatish, alliteratsiya, poetik obraz

Аннотация: В данной статье рассматриваются узбекские народные уланы. Также представлен анализ и выявлены используемые художественные средства изображения, аналогии, поэтические образы в композиции произведения, внимание к их художественной задаче и другие виды поэтического искусства.

Ключевые слова: улан, поэтика, аналогия, аллитерация, поэтический образ

Annotation: The article deals with the art of Uzbek ulans. The poems are analyzed and the means of artistic representation, analogies, and other types of poetic art used are identified. The work focuses on the poetic images and their artistic function.

Key words: ulan, poetics, analogy, alliteration, poetic image

O'zbek xalq qo'shiqlari sirasiga kiruvchi, to'y marosimi folklorining verbal komponenti sifatida namoyon bo'luvchi o'lanlar o'zining betakror badiiy tarovati, turli tasvir vositalari va san'atlar bilan ziynatlanganligi hamda obrazlar tizimining rang-barangligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘lanlar qishloqlarda istiqomat qiluvchi, asosan, dehqonchilik va chorvachilik evaziga ro‘zg‘or tebratgan xalq vakillari tomonidan ijod va ijro qilingan, shu boisdan ham xalq qo‘shiqlarining shahar markazlari va shaharga yaqin hududlarda yashovchi, ya’ni hunarmandchilik, kosiblik hamda savdo-sotiq kabi mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanuvchi xalq tomonidan ijod qilingan turlaridan samimiylik ufurib turishi, “fikriy erkinligi”[1.174.], mazmuni, badiiyati, ijro uslubining poyon bilmasligi bilan ajralib turadi. Xalq qo‘shiqlari tadqiqotchisi zukko olima Muzayyana Alaviyaning to‘g‘ri ta’kidlashicha, o‘lanlarda “fikriy siqqlik ko‘rinmaydi”[1.174.]. Aytish mumkinki, o‘lan yaratuvchilari va ijrochilarining ko‘ngli ham bepoyon yaylovlar va dala-dashtlar kabi keng.

O‘lanlarning poetik jihatlariga e’tibor qaratar ekanmiz, “O‘landa fikr shunday ochiq ifodalash, ruhiy holatni hayotda uchrab turadigan jo‘ngina narsalarga o‘xshatib, taqqoslab ko‘rsatish xos”[1.174.] ekaniga guvoh bo‘ldik. Haqiqatan-da bu holat o‘lan ijodkorlarining “obrazli tafakkur darajasi bilan”[1.174.] bog‘liqdir.

*Daryo tuman oqadi qanday bo‘lib,
Suv qurisa qum qolar toshday bo‘lib.
O‘zim yomon bo‘lsam ham, yorim yaxshi,
Bilinmaydi serqatiq oshday bo‘lib.[3.39.]*

Daryo tuman (tuban deyilmoqchi), ya’ni pastlikka qarab oqadi. Agar daryoning suvi qurisa, qum qoladi, xolos, mazmunidagi salbiy holat keyingi misralarda ifoda qilingan hayotiy jarayon uchun parallel ravishda qiyos qilingan, ya’ni o‘zi yomon, yori yaxshi. Shunday esa-da, ovqatning ta’mi yaxshi chiqmasa, serqatiq qilib tanovvul qilsangiz, sezilmaganidek, yor-yorlarda aytilgan, “bir yaxshiga bir yomon har joyda bor” dir. Misralar orqali xalq hayotiy qonuniyat, hayotiy bir mezonni ifoda etgandek. Chunki xalqimizda bir gap bor: er-xotin har ikkisi, xalq tili bilan aytganda, yaxshi bo‘lishi ham bo‘lmaydi. Biri yaxshi bo‘lsa, biri biroz yomon bo‘lgani ma’qul. Biri kam dunyo deyishadi. Yana xalq qo‘shiqlarida “Ikki oshiq bir bo‘lsa, ko‘rolmas baxtiqarolar” deb ham kuylanadi. “O‘zim yomon bo‘lsam ham, yorim yaxshi” misrasida ana shu haqiqat ayonlashgandek. Misrada qo‘llangan “yaxshi” va “yomon” so‘zlari o‘zaro mazmunan zid bo‘lib, tazod san’atini yuzaga chiqargan. “Serqatiq osh” o‘xshatishi esa o‘ta xalqona

bo‘lib, xalqning ko‘ngliga juda yaqin va buning o‘rnida boshqa muqobil tashbehni tasavvur etib bo‘lmaydi.

*Qoshing qora ko‘rinadi qaraganga,
Soching mayda o‘riladi taraganga.
Seni otang bermasa, suyganingga,
Ne deb javob berasan o‘z yoringga?[3.39.]*

Qaraganga qiz qoshining qora bo‘lib ko‘rinishi bu – qizning bo‘yi yetganidan dalolat beradi. Bundan tashqari “qo‘shiqlarda qosh sehrli qudratga ega deb talqin qilinadi. Sevgilining maftun qilish, yurakka o‘t yoqish, jon olish xususiyatlari ko‘pincha qoshga ko‘chiriladi.”[2.21.] Bu o‘rinda qosh oshiqlarni o‘ziga mahliyo etuvchi magik qudratga ega obraz sifatida namoyon bo‘lgan. Bundan tashqari, “*Qoshing qora ko‘rinadi qaraganga*” misrasidagi “qoshing”, “qora”, “qaraganga” so‘zlari “q” tovushi bilan ibtido topgan bo‘lib, “konsonant alliteratsiya”[4.26.]ni ro‘yobga chiqargan.

Ikkinchi misradagi soch timsoli ham shu turdagi obrazlar sirasiga kiradi. Kuyov chimildiqqa kirib, kelin bilan ilk ko‘rishish jarayonida “Oyna ko‘rsatar”, “Qo‘l ushlatar”, “Oyoq bostirar” ritual marosimlari qatorida soch bilan bog‘liq “soch siypatar” marosimi ham bo‘lib, kuyov onasi tomonidan berilgan ro‘mol vositasida yorning sochini yuqoridan pastga – sochning uchiga qarab silab qo‘yadi. Bu jarayon orqali ilk munosabatda bo‘layotgan kelin va kuyov o‘rtasida mehr-muhabbat uyg‘onib, o‘rtadagi to‘siq yo‘qoladi. Shuning uchun ham nikoh kuni kelinning sochiga alohida e‘tibor qaratilgan: rayhon novdasi solingan xushbo‘y suv bilan yuvib, o‘landa ta‘kidlanganidek “mayda o‘ril”gan.

O‘lanning yigit tomonidan aytilganini inobatga olsak, ushbu o‘rindagi sochni taragan odam oshiqqa nisbatan raqib ekanligi ayonlashadi. Sochning silanishi, taralishi, mayda o‘rilishi bu – nikohdan dalolatdir. O‘lanchi yigit yorining o‘zgaga turmushga chiqib ketayotganidan hasratda.

*Bug‘doy solma tegirmonning do‘liga,
Nazar solma sen kishining yoriga.
Nazar solsang sen kishining yoriga,
Osilasan podshoning doriga.[3.40.]*

Bug‘doy, umuman, urug‘, yerga urug‘ tikish kabilar xalq qo‘shiqlarida oila, farzand singari ma‘nolarni ifoda qilishga xizmat qiluvchi ramziy obrazlar sanaladi. Tushda yerga urug‘ tikish, ekin ekish

kabi jarayonlarni ham xalq oila qurish, farzandli bo‘lish tarzida ta’bir qiladi. Shu jihatdan qaraganda, o‘zaro paralellikni ta’min etayotgan “Bug‘doy solma tegirmonning do‘liga” va “Nazar solma sen kishining yoriga” misralarini o‘zaro muqoyasa qilish orqali poetik fikr konkretlashtirilib, tasvirning jonli va yorqin bo‘lishiga erishilgan.[5.222.]

Xalqimizda azaldan muqaddas sanalib kelingan oilaga xiyonat juda og‘ir gunoh hisoblangan. O‘z oilasi bo‘la turib, o‘zganing yori bilan ketishdek xiyonatkorlik “podshoning doriga osil”ishdek oliy jazoga loyiq bo‘lgan.

O‘lan janri namunalarining paydo bo‘lishida u yaratilgan joy – makon muhim ahamiyat kasb etgan, chunki yuqorida ta’kidlaganimizdek, o‘lan ijodkorlari, asosan, qishloq ahli – dehqonlar, chorvadorlar va bog‘bonlar bo‘lgani bois ularda qo‘y-qo‘zi, echki-uloq, mol, tana, yaylov, tog‘- Tosh, daryo, qushlar, turli ekin va o‘simliklar, daraxtlar nomlari juda keng qo‘llanilgan:

*Daryomasmi deganda daryomasmi,
Daryoning ko‘k qiyog‘in mol yemasmi?
Haydab-haydab mol bersang oz emasmi,
Qizning qo‘yni saraton – yoz emasmi?[3.39.]*

Harifdosh yigit ham o‘lanchi qizning chiroyini ta’rif-tavsif qilishda o‘xshatishlarni o‘z atrofidan qidiradi, go‘zallikda o‘zlari yashab turgan tog‘ yon bag‘rilarida ko‘p uchraydigan qush turi – kaklikka qiyoslab, “kaklik bo‘yin”, “kaklik qosh” deya tashbehlaydi:

*Bismillosin, singiljon, bismillosin,
Bismillodan o‘lanni kim tinglasin?
Bismillodan o‘lanni bizlar aytsak,
Kaklik bo‘yin, kaklik qosh qiz tinglasin.[3.38.]*

Yozma, xususan, mumtoz adabiyotda ham yorni go‘zallikda, ayniqsa, odimlashini tog‘ kakligiga o‘xshatish ko‘p kuzatiladi (Masalan, Huvaydo “Kabki xurramdek yurushim doimo ko‘hsor edi” deb yozgan). Xalq qo‘shiqdarida yorning qoshini qoralikda kakliknikiga o‘xshatilgan bo‘lsa, Yusuf Xos Hojib esa kaklikning og‘zini qizillikda qonga o‘xshatib, qoshini qora deya sifatlaydi:

*Qo'shiq aytdi go'zal kaklik tog' ora,
Qizil og'zi qondek, qoshi qop-qora.[4.14.]*

O'lanlarda uy, imorat qismlari: tom, tokcha; uy-ro'zg'or buyumlari: tovoq, cho'mich; milliy matolar: baxmal, atlas, adraslar nomlari ham ko'p qo'llaniladi.

*Pastakkina tokchadan tovoq oldim,
O'zim tengi qizlardan saboq oldim.
O'zim tengi qizlarning ustasiman,
Yangi chiqqan baxmalning nusxasiman.*

O'lan matnida qo'llangan "pastakkina tokcha", tokchalarga terilgan "tovoq"lar o'zbekona uy manzarasini yaqqol ko'z oldingizga keltiradi. O'lanchi qiz o'zini go'zallikda eng qimmatbaho va chiroyli milliy mato sanalgan baxmalning "yangi nusxasi"ga qiyos etadiki, o'landa milliy koloritni yana bir qadar ortishini ta'min etgan.

Odatda o'lanlar o'n bir hijoli barmoq vaznida yaratiladi. Qofiyalanish tartibi a-a-b-a tarzida bo'lib, birinchi, ikkinchi va to'rtinchi misralar o'zaro qofiyalanadi. Yuqoridagi o'lan namunasida hijolar miqdori an'anaviy tarzda o'n bitta bo'lsa-da, qofiyalanish tartibida an'anadan chekinish kuzatiladi, ya'ni a-a, b-b ko'rinishida masnaviyga xos qofiyalanish ko'zga tashlanadi. Bunday holat ko'p bo'lmasa-da, o'lanlar tarkibida uchrab turadi. O'lanlardagi bunday shakily o'zgachalikning uchrab turishi xususida Muzayyana Alaviya ham qayd etib o'tgan.[1.182.] buning sababi oddiy: xalq og'zaki ijod namunasini yaratishda she'r tuzilishi, shakli, qofiya tartibi singari nazariy jihatlarga asoslanmaydi, bu tabiiy. Shuning uchun ham ba'zan muayyan janrning nazariyotchilar tomonidan qo'yilgan nisbiy chegarasidan chetga chiqish holatlari kuzatiladi.

O'lanning ikkinchi va uchinchi misralari boshida "O'zim tengi qizlar" birikmasi takror kelgan bo'lib, mana shunday xarakterdagi takrorlar o'lanlarda juda keng qo'llaniladi. Mana yana bir misol:

*Poda boqib o'taman tana bilan,
Sen chaqirsang, men boray pana bilan.
Sen chaqirsang, men borsam pana bilan,
Seni opang uradi tuni bilan.*

Oldingi o'lan namunasida misra tarkibidagi ma'lum bir qism (birikma) takrorlangan bo'lsa, mazkur o'landa ikkinchi misradagi istak

maylidagi “boray” fe’li, uchinchi misrada shart mayli shaklida “borsam” tarzida o‘zgarish bilan to‘liq takrorlanadi.

O‘lan misralari o‘zaro “tana”, “pana”, “tuni” tarzida qofiyalangan bo‘lib, birinchi va ikkinchi qofiyalar to‘q hisoblanadi. Uchinchi qofiya esa och, to‘liqsizdir, lekin o‘lanlarda qofiyalar, asosan, to‘q bo‘lib, bu kabi qofiyadagi to‘liqsizlik juda kam kuzatiladi.

*Salom ayting, osmondagi yulduzlar,
Uyqum kelmas eslab kecha-kunduzlar.
Bog‘da bo‘lsa xabar bering, yulduzlar,
Shahlo ko‘zli, qizil yuzli sho‘x qizlar.*

Bu o‘rinda o‘lanchi yigit yulduzlarga xuddi odamdek murojaat qilib, qizlar haqidagi xabarni keltirishlarini so‘raydi. Bu esa she’riyatda insonga xos jihatlarni jonsiz narsa-predmetlarga ko‘chirish bo‘lib, jonlantirish deb yuritiladi. Bundan tashqari qizlarning ko‘ziga nisbatan qo‘llanilgan “shahlo”, yuziga nisbatan keltirilgan “qizil”, qizlarning o‘ziga nisbatan ishlatilgan “sho‘x” sifatlashlari ham o‘lan badiiyatini yuksaltirishga xizmat qilgan.

Xulosa tarzida shuni ta’kidlash joizki, o‘lanlar ham badiiy tasvir vositalariga boy va o‘ziga xos rang-barang obrazlar tizimiga ega bo‘lib, ularning yuzaga chiqishi hamda yaralishida xalq, ya’ni o‘lan ijodkorlari va ijrochilarining hayot tarzi, kundalik turmushda uchraydigan milliy narsa-predmetlar, joy – makon bilan bog‘liq unsurlar, shu bilan birga xalqning ajdodlardan meros bo‘lib kelayotgan urf-odat, udum, qadriyatlarini, diniy-e’tiqodiy qarashlari, tarixi kabilar muhim ahamiyatga molikdir.

Adabiyotlar:

1. Alaviya M. O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari. –Toshkent: Fan, 1974. 224 b.
2. Musaqulov A. Sevgi magiyasi va xalq lirikasi//O‘zbek tili va adabiyoti. 1993, №5-6. –B.18-24.
3. Namangan xalq og‘zaki badiiy ijodi namunalari (To‘plovchilar va nashrga tayyorlovchilar: T.G‘oziboev, A.Sobirov), –Namangan. 1993. 106 b.
4. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. –Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. 200 b.
5. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik tyerminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. –Toshkent: O‘qituvchi, 1979. 368 b.

**CHO‘LPONNING YANGI TOPILGAN “YANA UYLANAMAN”
KOMEDIYASIDA SHARQQA XOS AN‘ANALAR VA MILLIY
O‘ZIGA XOSLIK**

*Abdullaeva Dildoraxon Zumratbekovna
Andijon davlat universiteti
Filologiya fanlari doktori, dosenti.
Andijon, O‘zbekiston Respublikasi*

Annotasiya: Maqola Cho‘lponning yangi topilgan “Yana uylanaman” komediyasidagi sharqona an‘analar hamda o‘zbek milliy mentalitetiga xoslik tahliliga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: Cho‘lpon komediyasi, “Yana uylanaman” komediyasi, o‘zbek xalq tomosha san‘ati, milliy urf-odatlar.

Аннотация: Статья посвящена анализу восточных традиций и особенностей узбекского национального менталитета в недавно открытой комедии Чулпана «Я снова женюсь».

Ключевые слова: комедия Чулпана, комедия «Я снова женюсь», узбекское народное искусство, национальные традиции.

Annotation: This article is devoted to the analysis of oriental traditions and peculiarities of the Uzbek national mentality in the newly discovered comedy “I’m getting married again” by Cholpon.

Keywords: Cholpon comedy, comedy “I’m getting married again”, Uzbek folk art, national traditions.

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon XX asrning 20-yillaridagi jadidchilik harakatining faol namoyandalaridan edi. Uning she‘riy, nasriy, dramatik, publisistik va tarjima asarlarida ham jadid g‘oyalari, ma‘rifatparvarlik mavzusi hamda milliy an‘analar tadriji yaqqol namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, uning dramalarida xalq tomoshalariga xos elementlarning mavjudligi, asar qahramonlari portretidagi o‘zbek milliy xususiyatlariga xos chizgilar, sahna jihozidagi milliy uslub kabilar alohida ahamiyat kasb etadi.

Cho‘lpon dramatik faoliyatida yaratilgan sahna asarlari o‘ndan ortiq bo‘lib, hali barchasi to‘la aniqlangan emas. Yaqinda Rossiya davlat adabiyot va san‘at arxivi (RGALI)ning Butunrossiya teatr jamiyati (VTO) SSSR baynalmilal xalqlari bo‘limidan Cho‘lponning “Yana uylanaman” (inv.№59/IV. Chulpan. “Pul undirish” yoki “Yana

uylanaman”) komediyasi topildi. Asar rus tilida bo‘lib, yozuv mashinkasida ko‘chirilgan, 33 betdan iborat. Komediyaning rus tiliga boshqa kishi tomonidan tarjima qilingani yoki Cho‘lponning o‘zi rus tilida yozgani yoki tarjima qilgani hozircha aniqlangan emas.

“Yana uylanaman” komediyasida bir imomning masjid ahlidan o‘z haqini ikki yildan buyon undirolmayotgani hamda hiyla yo‘li bilan pul undirishi, o‘z pullariga ega bo‘laolmayotgani sababli xotini bilan janjallashib qolishi voqealari tasvirlanadi.

Komediyada o‘zbek oilasining turmush tarzi, to‘y, yig‘in va boshqa marosimlaridagi an‘analar, diniy rasm rusumlar, xalqona udumlar, kishilarning o‘zaro munosabatlaridagi milliylik, xalq tomosha san‘atidan ayrim lavhalar mahorat bilan yoritiladi.

Komediya imom (domulla)ning hovliga yelkasida shox-shabba bilan kirib kelish sahnasi bilan boshlanadi. U ehtiyotsizlik qilib qatiq ivitish uchun osib qo‘yilgan idishlarni shoxchalar bilan turtib, sindirib yuboradi. Domullaning bu holati remarkada quyidagicha berilgan: “Подходит, задевает хворостом посуду с молоком и простоквашей, висящую над ним, и разбивает её, проливая молоко” [2;1]. Bu o‘rinda sut va qatiqlar solingan idishlarning ayvonga ilib qo‘yilishi o‘zbeklarning turmush tarzidagi o‘ziga xos odatlardan biri hisoblanadi. Shuningdek sut qatiqlarning ilib qo‘yilishi bilan ular ochiq havoda yaxshi saqlangan. Yoki idishlarga turli hayvon, hasharotlarning tushib qolishi, bolalarning turtib yuborishining oldini olish uchun shu tarzda yo‘l tutilgan. Bundan tashqari o‘tmishda sigiri bor hovlida bemalol qozon qaynagan, tirikchilik o‘tkazish mumkin bo‘lgan. Chunki sutdan ovqat tayyorlangan, saryog‘ olingan, qatiq ivitilib non bilan tamaddi qilingan.

Birinchi sahnada sut va qatiqlar solingan idishlarning sinishi kitobxon yoki tomoshabinda voqea davomida nimadir ko‘ngilsizlik ro‘y berishi haqida ishora beradi. Domulla idish singanda “О, боже!” (E, xudoyim!) desa, xotini “О, несчастье” (E, baxtsizlik) deydi. O‘zbek xalqi o‘rtasida ro‘zg‘orda idish sinsa, “kelgan balo-qazo shunga ursin” deyilgan, lekin boshqa biror narsa deb talqin qilinmagan.

Domullaning ikkinchi xotinga uylanishi haqida so‘z ketayotgan o‘rinda Turg‘un ismli bola unga xabar yetkazadi. Turg‘unning nutqida “qalin” so‘zi bor. Turg‘un kelin tomondan xabar keltiradi: agar Domulla Sotqinxonni ikkinchi xotin qilib olishga rozi bo‘lsa, biz undan “qalin”ni ko‘p olmaymiz. “Qalin” pul bo‘lib, to‘yda qiz tomonga, odatda otanaga berilgan.

O‘zbek xalqining urf odatlari, udumlari ularning yashash hovlilarining tuzulishida ham aks etib turgan. Jumladan hovli ikki qismga: ichki va tashqi hovliga ajratilgan. Tashqi hovlida ayollar bo‘lmagan, erkaklar, xizmatkor, cho‘ri va boshqalar yurishi mumkin bo‘lgan. Komediya Domulla xotinini urgan vaqtda uni qutqargani bir yigit hovlining ichki qismiga kirib keladi. Shunda Domulla uni “nomahram” deb ataydi: “Ах, ты разбойник. Чужой человек! В мой гарем ты как посмел...” [2;6] O‘zbek ayollari uchun begona erkaklar nomahram hisoblanib, ularni ko‘rishi, so‘zlarini eshitishi ham mumkin bo‘lmagan.

Hovlining ichki va tashqi qismga bo‘lingani komediyaning remarkasida ham tasvirlanadi: “Мужская половина. Вошли прохожие. Слышат шум. Идут к двери женской половине” [2;6].

Komediyaning ikkinchi sahnasida ayiq o‘ynatuvchi kirib keladi. Masjid oldidagi maydonda bolalar va boshqa tomoshabin oldida keksa chol ayiqni turli qiliqlari orqali to‘planganlarni kuldiradi. Ayiq cholning buyrug‘iga ko‘ra shar ustida yuradi, o‘yinga tushadi, muqom qiladi, qo‘lida patnis ushlab o‘tirganlarga pul berishlari uchun tutadi. Tomoshabinlar pul beradilar. Shu payt namozga azon aytiladi. Yig‘ilganlar esa ayiq o‘yiniga mahliyo bo‘lib o‘tiraveradilar. Ayiq o‘ynatuvchi ayiqni maqtar ekan, zamon boylarini ham tanqid qilib o‘tadi:

*Очень приятно, о мой медведьбай,
Когда дети смеются.
Ну, покажи ка, как умирает
Бай, который свои деньги отдаёт в долги,
а процентов не получил.
Такие бай ростовщики плохие люди,
Они вредны для народа,
Но при власти “белого царя”*

Свобода наступила для плохих людей... [2;11]

Ayiq o‘ynatuvchi chol bilan bog‘liq sahna o‘zbek xalq tomosha san’atining bir elementi sifatida ko‘zga tashlanadi. She’rda boylarning hajv qilinishi komediyaning satirik pafosini ta’minlagan.

Komediyaning kul’minasion nuqtasini ham diniy urf-odat, udum bilan bog‘liq vaziyat tashkil qiladi. Domullaning masjid ahliga shart qo‘yishi va shuning bajarilishi bilan o‘z xizmat haqini undirishi sahnasi eng qiziqarli sahnadir. Domullaning sharti shundan iboratki, masjid ahli “agar Domulladan avval boshlarimizni ko‘tarsak (sajdada) o‘z

xotinlarimiz nomahram bo‘lsin” degan qasam ichishlari kerak edi. Shunga rozi bo‘lishsa, Domulla imomlikka o‘tishini aytadi. Bu o‘rinda ham qasam ichilishi va unga amal qilinishida diniy rasm-rusumlarning bajarilish holatlari tasvirlangan.

Domullaning ikkinchi xotinga uylanishida, to‘y marosimida ham o‘zbek xalqidagi urf-odatlar ko‘rsatilgan. Sotqinxonni kuyov aravadan tushirishi quyidagicha keltiriladi: “Через некоторое время слышен общий крик: «Поднимите» и опять все замолкает: это крик от восторга за время поднятия невесты с арбы женихом. Через некоторое время проходят торопливо две-три женщины” [2;28]. Kelinni aravadan kuyovning ko‘tarib tushirishi bu ham o‘zbekona udum bo‘lib, kelgan kelinga ko‘rsatilgan hurmat ma‘nosi hisoblangan. Xalqda to‘yning bu qismi hozirgacha “kelin tushdi” yoki vodiya “tushirdi” degan nom bilan saqlanib qolgan.

Komediya to‘y sahnasidagi rasm-rusumlar yana quyidagicha berilgan: “Наверху в комнате невесты женщины сидят широким кругом, пьют чай и кушают. В углу за занавесом сидят невеста и её тётка. Женщины их не видят” [2;29].

Kelin kelgandan keyin mehmonlarning davra bo‘lib o‘tirishi, ziyofat bo‘lishi, burchakka tikilgan chimildiqda kelinchakning xolasining hamrohligida va har xil nazarlardan xoli o‘tirishi ham o‘ziga xos milliy odatlardir. Cho‘lpon milliy urf-odatlar, xalqona udumlar va diniy marosimlarni yaxshi bilgan hamda ushbu komediya ham jonli tasvirlagan.

To‘y ziyofati tugagach, kelin o‘tirgan xonada o‘yin-kulgi boshlanadi. Bu manzara quyidagicha tasvirlangan: “Чаепитие кончается, и начинаются танцы с пением и музыкой. Каждая танцующая подходит к занавесу, поднимает его и делает «любезность» невесте, но та притворяется сумаседшей, танцующие отходят” [2;29].

Cho‘lpon o‘zbek milliy raqs va o‘yinlarini sahna asarlarida ham aks ettirib, milliy o‘ziga xoslikni saqlab qolishga harakat qilgan. Mazkur komediya Moskvadagi o‘zbek davlat drama studiyasida sahnalashtirilgan, 1927 yil aprel oyida namoyish etilgan. Cho‘lponning “Yana uylanaman” maqolasida spektakldagi sharqona elementlar haqida teatrshunos Fevralskiyning fikrlari keltiriladi: “...Sharqqa xos qiziq harakatlar bergan, spektaklni raqs, ashula va cholg‘ilar (tanbur, dutor, childirma, nog‘ora, karnay va boshqalar) bilan to‘lg‘izg‘an; ikkinchi tomondan, Sharq xalqining o‘ltirib gaplasha berishdagi zeriktirish

ta'sirlaridan spektaklni qutqarg'an. Lekin gaplasha berish va sekin qimirlashdan qochilg'an vaqtda, albatta, juda ehtiyot bilan qochilg'an. Sharqqa xos u ahvolning tasvirlari hali ham spektaklda bor" [3;119].

Xalq o'rtasida qiz va yigitning bolalik chog'ida "beshikkerti" qilinishi yoki "qulog'ini tishlatish" odati komediyada o'rinli qo'llangan. Domulla va boyning qo'lidan Sotqinxonni qutqargan To'xtasin qizning yoshligida "qulog'idan tishlaganini" aytib o'tadi: "Господа! Девушка моя. Когда она была ещё ребенком, я ей уши целовал. Никому я её не отдам" [2;33].

Cho'lponning mazkur komediyasida ham boshqa nasriy va dramatik asarlaridagi xotin-qizlar huquqiga, ularning erkin va ozod shaxs ekanligi masalalariga e'tibor qaratgan. O'zbek xalqining turmush tarzidagi o'ziga xosliklarni ochib bergan, shuningdek ko'pxotinlilik, ayollarning huquqsizligi kabi illatlarni ham tanqid qilgan. "Yana uylanaman" komediyasi cho'lponshunoslikdagi yangiliklardan bo'lib, uni jamoatchilikka taqdim etish, asarning g'oyaviy-badiiy jihatlarini tahlil qilish galdagi vazifalardan biridir.

(Ushbu maqola bajarilishi 2021-2022-yillarga mo'ljallangan A-OT-2021-57 raqamli "Cho'lpon hayoti va ijodiy merosi manbalarining elektron platformasi va mobil ilovasini yaratish" mavzusidagi amaliy grant- loyihasi doirasida tayyorlangan.)

Adabiyotlar:

1. Mamajonov S. Bizning Cho'lpon. – T.: Yozuvchi, 1997. – 64 b.
2. Cho'lpon A. RGALI VTO Kabinet internacional'nix narodov SSSR bo'limi inv.№59/IV. Chulpan. "Pul undirish" ili "Yana uylanaman".
3. Cho'lpon A. Asarlar. 4 jildlik. 4-j. – Toshkent: "Akademnashr", 2016. – 320 b.
4. Cho'lponning badiiy olami. – Toshkent: Fan, 1994. – 132 b.
5. Sharafiddinov O. Cho'lpon. - Toshkent: Cho'lpon, 1991. – 112 b.
6. Quronov D. Cho'lponning hayoti va ijodiy merosi. – Toshkent: O'qituvchi, 1997. – 80 b.

ZULFIYA QUROLBOY QIZI NASRIDA FOLKLORIZM ELEMENTLARI

Abdullayeva Dilafruz Suratillaevna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti
Toshkent, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek adibasi Zulfiya Qurolboy qizi ijodi tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, tadqiqot doirasida adiba nasridagi, xususan "Qadimiy qo'shiq" hamda "Ajal qiyofasidagi ayol" hikoyalarda folklorizm elementlari folklor motivlari va obrazlar yoritib berilgan. Adibaning o'ziga xos bayonchilik uslubi, matn o'yinlaridan foydalanishi, g'ayritabiiy hodisa va personajlarni asarga olib kirishdagi badiiy mahorati tahlil etilgan.

Kalit so'zlar. Folklor, folklorizm elementlari, badiiy psixologizm, Zulfiya Qurolboy qizi, psixologik hikoya, magik realizm.

Аннотация. Статья посвящена исследованию творчества современной узбекской писательницы Зульфии Куролбой кизи. Анализируется уникальный стиль повествования автора, использование текстовых игр, художественное мастерство привнесения в произведение необычных событий и персонажей. В частности, в рассказах «Древняя песня» и «Женщина в образе смерти» выделяются элементы фольклора - народные мотивы и образы.

Ключевые слова. Фольклор, элементы фольклоризма, художественный психологизм, Зульфия Куролбой кизи, психологический рассказ, магический реализм.

Abstract. The article is devoted to the study of the work of the modern Uzbek writer Zulfiya Kuroolboy kizi. The author analyzes the unique style of the author's narration, the use of text games, the artistic skill of introducing unusual events and characters into the work. In particular, in the stories "Ancient Song" and "Woman in the Image of Death", elements of folklore - folk motives and images - are highlighted.

Key words. Folklore, elements of folklorism, artistic psychologism, Zulfiya Kuroolboy kizi, psychological story, magic realism.

XX asr oxiri XXI asr boshida o'zbek adabiyotshunosligida, xususan nasriy janrlarda badiiy psixologizm va psixologik tahlil masalasi yetakchilik qilib kelmoqda. Avvalambor, bunday psixologik nasriy

asarlar bugungi kun jamiyatining muammolari va unda inson taqdirining murakkab ko‘rinishlarini o‘ta ta’sirchan tarzda tasvirlangan bo‘lsa, ikkinchidan, mazkur asarlar orqali hozirgi kundagi jamiyatimiz muammolari, illatlari inson ruhiyatiga, ruhiyati orqali esa uning taqdiriga qanday salbiy ta’sir ko‘rsatayotganligi psixologik tasvir vositalari hamda psixologik tahlil orqali yozuvchilar tomonidan mohirona ochib berilmoqda. Adabiyotshunoslikka oid ilmiy manbalarda badiiy psixologizmning uchta asosiy prinsiplari – dinamik prinsip, analitik prinsip va tipologik prinsip ajratib ko‘rsatiladi.

Dinamik prinsipda qahramon ruhiyati uning xatti-harakatlari, mimika va qiliqlari, turli hayotiy vaziyatlarda o‘zini tutishi va gap-so‘zlari orqali ifodalab beriladi, “mohiyatan bu dramatik asar personajlari ruhiyatini ochish usuliga o‘xshash, shu boisdan dinamik prinsip ba’zan psixologik tahlilning dramaturgik usuli deb ta’riflanadi [1,49].

Tipologik prinsipda obraz ruhiyati uni shakllantirgan va qurshab turgan muhit shart-sharoitlari bilan bog‘lab tasvirlab beriladi.

Analitik prinsipda qahramon ichki kechinmalari, qalbidagi his-tuyg‘ulari, tafakkur va mulohazasi, o‘y-fikrlari dinamikasi tasvirlanadi. “Bunda bir hisdan boshqa his, bir o‘ydan boshqa fikr o‘sib chiqadi, ular bir-birini to‘ldiradi, sifat jihatidan o‘zgartiradi [1,49]”. Bu shakl personajlar taqdiri va tafakkurida keskin burilishlarni ko‘rsatib berishga imkon beradi, shu sababli ham ayrim tadqiqotchilar “qalb dialektikasi” shakli deb ham ataydilar.

Badiiy asarning psixologik darajasini belgilashda adabiy tur va janrlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, lirika – inson qalbi va ichki his-tuyg‘ulari kuychisi ekanligi ma’lum, demak u bevosita ruhiyat tasviri bilan bog‘liq holda shoir psixologiyasi va ichki olamini tarannum etadi. Dramatik turda ruhiyatni tasvirlash dinamik prinsip asosiga qurilishi haqida yuqorida batafsil to‘xtalib o‘tgan edik.

Nasriy janrlar – inson ruhiyatini tasvirlashning xilma-xil vositalari, usullaridan iborat keng imkoniyatlarga ega. Epik turda lirika va dramadagi barcha usul va vositalar o‘ziga xos ravishda uyg‘unlashadi. Yozuvchi lirikadagi singari o‘z qahramonining ichki dunyosidan turib ham, qahramonning o‘z nutqi vositasida ham, tashqi xarakteristika va holatlar tasviri orqali ham ruhiyat dunyosiga daxl qilaveradi. Ayni paytda badiiy psixologizmdan foydalanish epik tur janrlariaro ham farqli xususiyatlarga ega [3,19]. Nasriy janrlar orasida hikoya, xususan psixologik hikoyaning o‘rni bugungi kun adabiy jarayonlarida

yetakchilik qilmoqda. Hikoya – hayotning kichik bir parchasini aks ettirganidan, epizodik tarzda unda bir yoki bir necha hayotiy voqea qalamga olinganidan bu janrda qahramon ruhiy dunyosi izchil ravishda batafsil yoritish, “qalb dialektikasi”ni chuqur va to‘liq ochib berish yozuvchidan katta mahorat va iste’dod talab qiladi. Roman va qissa kabi katta yoki o‘rta hajmdagi nasriy asarlarda qahramon xarakteri, uning ruhiyati, botiniy hayoti va ichki kechinmalarini ochib berish uchun yozuvchida imkoniyat va vaqt ko‘proq bo‘ladi.

Nasriy asarlarda davr masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. XX asr boshidan to hozirgi kunga qadar nasriy janrlarda yozilgan asarlarni va mualliflar uslubini kuzatsak, ular ijodida shakl, mazmun va uslub birbiridan farqli ekanini ko‘rasiz. Sovet davri nasriy asalarida inson mehnati ulug‘langan va sotsrealizmga oid asarlar ko‘proq uchrasa, XX asrning 3-choragiga kelib insonning o‘zi asar bosh g‘oyasini tashkil eta boshladi. Istiqloq davrida yaratilgan nasriy asarlarda esa falsafiylik va psixologizm yetakchilik qilib, adiblar inson ruhiyati, ichki olami va ichki hayotini chiza boshladilar.

Bu kabi yaratilgan psixologik nasriy asarlarning yana bir o‘ziga xos jihati ularda an’anaviylik va novatorlikning uyg‘unlashuvidir. Bu jarayon badiiy asarga folklor va mifologiyaning kirib kelishida ham namoyon bo‘ladi. Milliy adabiyotimizda istiqloq davriga kelib aksariyat nasriy asarlarda fikrlayotgan odamlar bosh qahramonga aylandi. Xayotning eng og‘ir sinovlarini boshidan kechirayotgan, hammaga o‘xshamagan taqdirni boshidan o‘tkazayotgan insonlar obrazi Ulug‘bek Hamdam, Isajon Sulton, Nazar Eshonqul, Abduqayum Yo‘ldosh, Zulfiya Qurolboy qizi, Salomat Vafo kabilar ijodida uchratishimiz mumkin. Bular orasida yozuvchi Zulfiya Qurolboy qizi o‘zining uslubi bilan alohida ajralib turadi. Adiba asarlaridagi psixologik va magik realizm unsurlari, folklorizm elementlari, so‘zlar ortiga yashiringan tag ma’no o‘quvchini o‘ziga qamrab oladi. Adibaning folklorizm usurlari bilan uyg‘un xolda yaratilgan hikoyalaridan biri “Ayol qiyofasidagi ajal” hikoyasi bo‘lib, bu hikoyada muallif yangi mavzu va o‘ziga xos harakterni gavdalantirgan. Hikoya bosh qahramoni qishloqda istiqomat qiluvchi, nomi chiqqan, taniqli, “dami o‘tkir”, ko‘pchilikni dardiga davo ulashgan mulla Ashur ismli yoshi ulug‘ bir kishi, unga mullalik ota kasb bo‘lib, o‘ziga xos xislat va g‘ayritabiiy kuchga ega shaxs edi. Ammo barchaning dardiga davo topolgan mulla, o‘z dardini ichiga yutib yashashga mahkum edi u befarzadlik azobini boshdan kechiradi. Bir kun sirli ravishda mullaning chillaxonasida paydo bo‘lgan va Mulla

Ashurni o‘ziga rom qilgan, xayolini o‘g‘irlagan begona ayol uni bexalovat qiladi. Mulla gunohi azimga botayotganini bilib, o‘zini ibodatga uradi. Ammo huddi o‘zi singari befarzadlik iztirobini boshidan o‘tkazib, shu dardni ko‘tarolmay bu olamni tark etgan afsonaviy, balki xayoliy ayol qiyofasi uni tinch qo‘ymaydi. Mulla Ashurni ko‘ziga turli joylarda, turli ko‘rinishda namoyon bo‘lgan begona Ayol qiyofasi uni ajal sari yetaklaydi va o‘zi bilan olib ketadi. Hikoyada taqdiri azal, inson va o‘zlikni anglash kabi g‘oyalar yetakchilik qiladi.

“Qadimiy qo‘shiq” hikoyasi ham folklor motivlar asosiga qurilgan, mazmun jihatdan yuqoridagi hikoyaga o‘xshash syujetga ega. Hikoya bosh qahramoni Sul-tonmurodning sevgan qizi Shohsanam qishloq ahlining e‘tiqodi va hurmat e‘tiborga sazovor bo‘lgan, “dami o‘tkir eshonlar avlodi”dan bo‘lgan Abdurahmon eshonga ikkinchi xotin bo‘lib turmushga chiqadi:

“Eshon buva uni (Shohsanamni) tunda qo‘qqisdan gumburlagan momaqoldiroqdan qo‘rqib, yuragi besaranjom urib qolgan navnihol qizni – avval davolagan, yetti kun yetti mahal duo o‘qib sog‘aytirib yuborgan, keyin esa yana duo o‘qib, uni o‘ziga og‘dirib olgan...

Har qalay odamlarning og‘zida gap shunday” [2,48]

Hikoya folklorizm elementlariga yo‘g‘rilgan xolda, magik realizm uslubida taqdim etiladi. Muallif bayonchilikda matn o‘yinidan foydalanib, matnni kursiv va oddiy shriftlarga ajratadi oddiy shriftda real hayot tasviri berilsa, kursiv shriftda real olamga parallel bo‘lgan g‘ayritabiiy olam vakillari suhbat beriladi. Hikoyada dialog egalarining kim ekanligi tilga olinmagan, ularning suhbatlari esa matnga hech qanday ogohlantirishsiz kirib keladi. Hikoyaning avvalida kursiv matndagi dialoglar beriladi:

«Ana u! Kelyapti! Ana, anavi yoqdan kelyapti. Qara, qaragin. Nimaga to‘xtab qolding? Bormaysanmi oldiga?

— Voy sharmanda! Voy yuzsiz... Anavi yuzsizni qara!

— Tangriga ibodat qilish o‘rniga...

— Qizim, jon qizim, iymon keltir, tavba qil. Endi u yoqning keragi yo‘q senga. U yoqning yeri ham boshqa, osmoni ham! Olloh iymon keltirgan bandalarining gunohlaridan kechguvchidir. Iymon keltir, bolam, iymon keltir, iymon nuriga chulg‘angaysan!..

— Qiyomat kuni bir tarozu qurilurki, ani beadam ustunlar bila barpo qilishur, Har bir ustunning uzunligi mag‘rib birla mashriqning miyonasiga barobardur. Aning har bir pallasi yer yuziga barobardur.

Bir pallasi Arshning o'ng tarafida tururki, anga savob solinur. Bir pallasi Arshning chap tarafida tururki, anga gunoh solinur.

...kimning tarozusi yengil kelsa, bas, andog' kishining onasi Hoviyadur.

—Shivir-shivirlarga to'lgan olam qalbini tilib yuborgan o'tli xo'rsiniqni iliq shamol olis-olislarga olib ketdi...»[2,47]

Umuman hikoya g'ayritabiiy voqealar bayoniga bag'ishlangan, hikoya qahramonlari Sultonmurod va Shohsanam bir-birini qattiq sevadi, lekin Abdurahmon eshon qizga o'zidagi g'ayritabiiy kuchlarni ishlatib uylanib oladi. Bu nikoh uzoqqa bormaydi, yoshi bir joyga borgan Eshon ko'p yil o'tmay olamdan o'tadi, Shohsanam beva qoladi. Ammo juvon Eshonning vafotidan keyin ham “bandilikdan” ozod bo'lolmaydi, Sultonmurod Shohsanamni ko'rgani kelganida Eshonning ruhi ularga to'sqinlik qiladi:

“To'satdan javondagi idishlar jaranglab ketdi. Qandaydir ko'rinmas qo'l idishlarni bir-biriga urib, chil-chil qilayotgandek edi...

— Badbax! Yaramas! Tavqi la'natimga uchrading! Qiyomat kuni ham seni kechirmayman!.. Ey, badbax! Azob farishtalariga topshirdim seni! Alar do'zax o'tidin toj kiydirurlar boshingga, qizdirilg'on misdan libos kiyursan!” [2,61]

O'ziga bosim o'tkazayotgan g'ayritabiiy kuchga bardosh berolmagan juvon yurak xurujidan vafot etadi. Ammo uning ruhi bu yorug' olamdan, Sultonmurodning yonidan ketolmaydi. Yigitnig shuurida g'ayritabiiy o'zgarishlar sodir bo'la boshlaydi: yomg'ir tagida sayr qilib keladi ammo ust-boshi qup-quruq bo'ladi, avvaliga Shohsanamning ruhi bilan ko'rishib, suhbatlashib yuradi, keyinchalik qishloqda vafot etgan boshqa kishilarning ruhlari bilan ham ko'rishadi. Shunda Eshonning ruhi Sultonmurodni ham “os-os” dardiga duchor etib, suisid sari boshlaydi, ammo Shohsanamning ruhi uni bu ishdan qaytaradi:

“— Yo'q! — deya takrorladi u. — Yo'q! Bunday qilmang! Bu tuzoq... Bu fitna... — juvon yigit poyiga tiz cho'kdi. — U meni o'zi bilan olib ketmoqchi edi. U bilan ketsam gunohlardan forig' bo'larmishman. Jannat mening poyimda bo'larmish! Mag'firat nuriga yo'g'rilar emishman. Shunda buyuk azob kuni yorug' yuz bilan chiqar emishman. Aks holda ruhim yorug' dunyoda sarson-sargardon izg'ib yurarkan... Men shunisini tanladim. Dunyoni siz borligingiz tufayli yaxshi ko'raman!” [2,65]

Ammo Sul-tonmurod tamomila aqldan ozib, telba bo‘lib qoladi. Bu voqeani parallel olamdan kuzatib turgan kursiv matni dialoglari egalaning suh-bati bilan hikoyaga yakun yasaladi:

«— *Yo tavba, men ilgari ham bunday voqeaga guvoh bo‘lgandim.*

— *Qachon?*

— *Million yil avval...»*[2,65]

Hikoya o‘quvchini o‘ylashga, jumboqli savollarga o‘zi javob qidirishga undaydi parallel dunyo dialoglari sohiblari kim? Ruhlar? Farishtalar? Yo jinlar olami vakillarimi? Fikrimizcha, yozuvchi bu savolni atayin ochiq qoldirgan. Bu kabi personajlar Milliy adabiyotimiz, xususan, folklorimizda ko‘p uchraydi va o‘zining o‘rniga ega ruh-arvoh, farishta, jin, ajina, alvasti va ularning o‘z olami mavjud. Adiba Zulfiya Qurolboy qizi o‘z asarida keltirilgan g‘ayritabiiy obrazlarni har bir o‘quvchi o‘zi yaratishini, tassavurida paydo qilishini, hayolan ularni mavjudligini his qilishini istagan. Zero, ijodkorning ijod psixologiyasi ham shunda namoyon bo‘ladi u yaratgan obraz sahifa satrlaridan o‘quvchi ongiga ko‘chib o‘tib, o‘z hayotini boshlaydi. Muallif Zulfiya Qurolboy qizi ham o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erisha oldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. U yaratgan hikoyalariga kirib kelgan folklorizm elementlari folklor motivlar va obrazlar har bir o‘quvchi tafakkurida o‘z xayotini davom ettiradi.

Adabiyotlar:

1. Adabiyotshunoslik lug‘ati. D. Quronov va b. T.: Akademi-nashr, 2013.

2. Zulfiya Qurolboy qizi. O‘lim hech narsa emas./ Hikoyalar. T.: “Yangi asr avlodi”, 2011.

3. Normatov U. Qalbdagi benazir ziyo. 2010 yil, <http://normatov31.narod.ru/maqola/qbz.html>

4. To‘raev D. Yangi o‘zbek adabiyoti. – Toshkent. Fan, 2008. – B. 178.

5. Qobilova N. Jek London va Abdulla Qahhor ijodida badiiy psixologizm. Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)diss. avtoref. – Buxoro, 2020.

O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA ELLIPSIS HODISASI

Vafoyeva Muxayyo
Samarqand davlat universiteti
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Abdusaidova Barchinoy
Samarqand, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya: Maqolada o'zbek xalq maqollaridagi gap bo'laklari, grammatik shakllar, fonetik hodisalar bilan bog'liq ellipsis hodisasining sodir bo'lishi, uning ahamiyati haqida fikr bildirildi.

Kalit so'zlar: maqol, ellipsis, grammatik shakllar, sintaksis, fonetika.

Аннотация: В статье рассматривается феномен эллипсиса в членах предложения, грамматических формах и фонетических явлениях узбекских народных пословиц и высказывается мнение о его важности.

Ключевые слова: пословица, эллипсис, грамматическая форма, синтаксис, фонетика.

Abstract: The article is devoted to the emergence of ellipsis' phenomena in the parts of the sentence , grammatical forms and phonetic phenomena in Uzbek folk proverbs and the opinion about it's importance is expressed.

Key words: proverb, ellipsis, grammatical form, syntax, phonetics.

Ma'lumki, maqollar xalq og'zaki ijodining janri bo'lib, xalqning donoligini, millatning madaniyatini ko'rsatadigan, insoniy fazilatlarini targ'ib etadigan, xalqning kuzatuvlari, tajribalari asosida vujudga kelgan sintaktik-semantik jihatdan tugal bo'lgan barqaror birikmalar hisoblanadi. Maqol kishi nutqini bezaydi, ta'sirchanligini oshiradi. Insonlarga uzundan uzun pand-nasihatdan ko'ra qisqa va sermazmun maqollar kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Maqollarning ta'sirini oshiruvchi uslubiy vositalardan biri bu ellipsis hodisasi hisoblanadi. Tejamkorlik tamoyiliga asoslangan ellipsis hodisasi maqollarning badiiyiligini, ixchamligini, jozibadorligini va eng muhimi ta'sirchanligini oshiradi. Albatta, ellipsis ma'lum bir nutq talabiga asosan qo'llaniladi.

Ellipsis (yunoncha– elleipsis ~ tushish, tushirilish) – nutq unsurining tushib qolishi. Nutqda ellipsis turli maqsadlar bilan (mas., iqtisod talabi bilan) yuz beradi.[1;133]

Ellipsis atamasining lug‘aviy kelib chiqishi hamda bir qancha kuzatuvlarga ko‘ra ellipsisni tilning fonetika, so‘z yasalishi, sintaksis sathida kuzatilishi mumkin bo‘lgan, qisqalik, tejamkorlik tamoyiliga asoslanadigan, ba‘zan nutq talabi bilan sodir bo‘ladigan hodisa deyish mumkin.

Maqollarda ellipsis hodisasi tilning quyidagi sathlarida o‘rganildi:

1. Gap bo‘laklari bilan bog‘liq ellipsis hodisasi.
2. Grammatik shakllar bilan bog‘liq ellipsis hodisasi.
3. Fonetik soha bilan bog‘liq ellipsis hodisasi.

O‘zbek xalq maqollarining sintaktik sathida ellipsis hodisasini quyidagi misollarda ko‘rib chiqamiz:

I. Kesim komponent ellipsisga uchraydi:

a) fe‘l kesim:

Mehnat yerda qolmas, Oltin – yo‘lda [qolmas], To‘g‘ri so‘z toshni yorar, Egri so‘z – boshni [yorar], Ekin yerida ko‘karar, Er – elida (ko‘karar), Yaxshi boladan – rahmat, yomon boladan – la‘nat [kelar];

b) ot kesim:

Bulbulga bog‘ yaxshi, Kaklikka – tog‘ [yaxshi], Mehmon mezbonga aziz, Mezbon – mehmonga [aziz], Eplashga ep kerak, Bog‘lashga – ip [kerak], Kelinning tili yo‘q, Qaynonaning – iymoni [yo‘q]

II. Ega (aniqlanmish) komponent ellipsisga uchraydi:

Yalqov asli qush bo‘lmas, qush bo‘lsa ham ucha olmas. Bu misolda ega (yalqov so‘zi uchun esa aniqlanmish) – kishi so‘zi bo‘lib, u ellipsisga uchragan, natijada ega vazifasini yalqov so‘zi bajargan. O‘zbek tilshunosligida bu hodisaga nisbatan otlashish atamasi ham ishlatiladi.

Olovdan qo‘rqan [odam] tutundan ham qochar. Ish ishtaha ochar, Dangasa [odam] ishdan qochar. Misollardan ko‘rinadiki, sifat, sifatdosh bog‘langan ot [odam] gapda ellipsisga uchragan.

Qo‘shma gap tuzilishida shakllangan quyidagi maqollarda esa har ikkala sodda gapning aniqlanmish komponenti ellipsisga uchragan: Birlashgan [kishi] o‘zar, Birlashmagan [kishi] to‘zar. Kamtar [odam] yetar murodga, Manman [odam] qolar uyatga.

III. To‘ldiruvchi komponent ellipsisga uchraydi:

Vafosizda [kishi] hayo yo‘q. Hayosizda [kishi] vafo yo‘q. Yo‘qotgan [odam]ingni yo‘qlab topasan. Chiniqqan [odam]ga chang

yuqmas. Misollardan ko‘rinadiki, vositali va vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida kelgan ot komponent ellipsisga uchragan.

IV. Aniqlovchi komponent ellipsisga uchraydi:

Bunda aniqlovchi aniqlanmish tipida tuzilgan birikmalarning aniqlanmish komponenti ellipsisga uchragan: Ko‘p [odam]ning qo‘li ham to‘g‘ri, yo‘li ham to‘g‘ri. So‘zi o‘lgan [kishi]ning o‘zi o‘lar.

Ba‘zi maqollarda esa bir nechta gap bo‘laklarining birvarakayiga ellipsisga uchragani kuzatildi: Rost [so‘z]ni aytgan [kishi] shon yutar, Yolg‘on [so‘zni] aytgan [kishi] qon yutar. Bu misolda to‘ldiruvchi va eganing tushirilishi kuzatiladi, natijada vositasiz to‘ldiruvchi – ot komponentning grammatik shaklini aniqlovchi qabul qilgan.

Ko‘rganning tili bildirar, Kuyganning – dili maqoli to‘liq gap holida quyidagi ko‘rinishda shakllanadi: «Ko‘rgan kishining tili ko‘rganini bildirar, Kuygan kishining dili kuyganini bildirar». Maqolda aniqlovchi, to‘ldiruvchi, kesim komponentlar ellipsisga uchragan. Maqolning elliptik ko‘rinishi qisqa bo‘lsa-da, ta‘sirchanroq, ma‘no jihatidan mukammal.

Qizil gul ekkan[kishi]ning xirmoni bo‘lmas, Yaxshi[inson]ni suygan [odam]ning armoni [bo‘lmas]. Bu maqolda aniqlovchi, to‘ldiruvchi, kesim vazifasida kelgan 4 ta so‘z ellipsisga uchragan. Quyidagi maqolda esa «Aqlli ishiga ishonar, Aqsiz – tushiga» (Aqlli odam qilgan ishiga ishonar, Aqlsiz odam ko‘rgan tushiga ishonar) ega, aniqlovchi, kesim vazifasida kelgan 5 ta so‘z ellipsisga uchragan.

«O‘nning yarmi besh» (O‘n[son]ning yarm[qism]i besh[sonidir]) maqolida aniqlovchi, ega, kesim kabi bo‘laklar ellipsisga uchragan.

O‘zbek xalq maqollarida sifat, son, ravish, sifatdoshlar bog‘langan otning tushib qolishi natijasida ega, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, ba‘zi ot kesim kabi gap bo‘laklarining ellipsisga uchrashi kuzatildi.

Maqollarda morfologik ko‘rsatkichlarning ellipsisga uchrashi ham ko‘p kuzatiladi: El[ning] qudrati – chin qudrat [dir], Vatan[ning] tuprog‘i – qimmat[dir]. Ushbu maqolda ikki o‘rinda qaratqich kelishigi, ikki o‘rinda esa bog‘lama; «Do‘stingga qo‘shiq[ni] ayt, Mehringni qo‘shib ayt» maqolida esa -ni tushum kelishigi affiksi tushirilgan.

Bundan tashqari ellipsis hodisasi fonetik sathda ham til va nutq talabi bilan uchraydi. Fonetik ellipsis hodisasi tilda «tovush tushishi» deb ham o‘rganiladi: «Qor[i]nimga yig‘[i]lamayman, Qadrimga yig‘[i]layman», «O‘zingni o‘zing maqtama, Sen[n]i birov maqtasin», «Betga aytganning zah[a]ri yo‘q» kabi.

Shunday qilib, maqollar barqaror birikmalar bo‘lgani bois ulardagi elipsisga uchragan gap bo‘lagi, morfologik ko‘rsatkich, yoki fonetik birliklarni mantiqan tiklay olish mumkinligini o‘quvchilarga tahlillar davomida tushuntirib borish maqsadga muvofiq sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, ellipsis hodisasi til va nutq talabi bilan yuzaga chiquvchi hodisa bo‘lib, tejamkorlik tamoyiliga asoslanadi. Shuning uchun ham maqollarda ellipsisning o‘rni muhim bo‘lib, bu hodisa tufayli maqollar hajman qisqaradi, ifoda ravon bo‘lib mazmun aniq bo‘ladi, badiiyligi, ta’sir kuchi ortadi va esda saqlab qolish osonlashadi.

Adabiyotlar:

1. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002.
2. Ibragimova F.E. Badiiy matnda ellipsis va antiellipsis: Filol. fan.nom.dissyertasiya avtoref. – Toshkent, 2011.
3. Махмудов Н. М. Эллипсис в узбекском языке: Автореф. дис. канд. филол. наук. –Т.,1977.
4. O‘zbek xalq maqollari. T.: Sharq, Toshkent -2016.
5. Mirtojiyev M. Gap bo‘laklarida semantik–sintaktik nomutanosiblik. Toshkent. “Universitet”, 2008.

O‘ZBEK FOLKLORINING IKKI TILLI VEB-SAYTINI YARATISHNING O‘ZIGA XOSLIGI

Jafarov Botir Sattarovich
Namangan davlat universiteti
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dosent
Namangan, O‘zbekiston Respublikasi

Annotasiya: Mazkur maqolada “O‘zbek folklorining o‘zbek va ingliz tillaridagi veb sayti va multimedia mahsulotini yaratish” loyihasi doirasida amalga oshiriladigan ishlar to‘g‘risida fikr yuritilgan. Unda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan folklor janrlarning yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati milliy madaniyatimiz va qadriyatlarining uyg‘unligi hamda turfa xilligini saqlash va rivojlantirish, nomoddiy madaniy merosning eng yaxshi namunalarini veb sahifa, ios va android platformalari orqali keng targ‘ib qilish to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘rin egallagan.

Kalit soʻzlar: Folklor, xalq ogʻzaki ijodi, ajdodlar dahosi, doston, ertak, maqol-matal, qoʻshiq, afsona, rivoyat, adabiyot, tarix, veb sahifa, multimediya, platforma.

Аннотация: В статье рассказывается о работе, проводимой в рамках проекта «Создание сайта и мультимедийного продукта узбекского фольклора на узбекском и английском языках». Он содержит информацию о роли и значении созданных гением наших предков фольклорных жанров в воспитании подрастающего поколения, сохранении и развитии гармонии и разнообразия нашей национальной культуры и ценностей, продвижении лучших образцов нематериального культурное наследие через веб-сайты, платформы IOS и Android.

Ключвые слова: Фольклор, устное народное творчество , ген предков, эпос, сказка, пословицы и поговорки, песня, миф, легенды, литература, история, веб-страница, мультимедиа, платформа.

Annotation:This article discusses the work being done under the project "Creation of a website and multimedia product of Uzbek folklore in Uzbek and English languages." It contains information on the role and importance of folklore genres created by the genius of our ancestors in the education of the younger generation, the preservation and development of the harmony and diversity of our national culture and values, the promotion of the best examples of intangible cultural heritage through websites, iOS and Android platforms.

Key words: Folklore, ancestor gene, epic, fairy tale, proverbs and sayings, song, myth, legends, literature, history, web page, multimedia, platform.

Bugungi kunda Oʻzbekiston madaniy merosini saqlab qolish va yosh avlodga yetkazish hamda oʻzbek folklorining tarixi, taraqqiyoti, bugungi kundagi milliy madaniyatimizda tutgan oʻrni va ahamiyatini targʻib etishga qaratilgan ishlar koʻlamini yanada kengaytirish boʻyicha milliy va xorijiy mutaxassislar uchun imkoniyatlar eshiklari keng ochilgan. Mustaqil Oʻzbekiston Respublikasining folklorshunoslik anʼanalarini targʻib etishga qaratilayotgan ishlar koʻlami mutlaqo tasodifiy emas. Bunday ulkan yutuqlar zamirida oʻtmishda yashab ijod etgan ajdodlarimiz qoldirgan boy madaniy merosning oʻrni beqiyos. Ota-bobolarimiz tafakkur durdonalari bilan yaratilgan folklor anʼanalari oʻzining qadimiy va boy milliy madaniyati bilan jahon sivilizasiyasiga ulkan hissa qoʻshgani bizga gʻurur va iftihar bagʻishlaydi.

Ammo ular yanada jiddiyroq, yanada koʻrkamliroq tarzda

o'rganilishi lozimligini hayotning o'zi taqozo etmoqda. Xuddi shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 noyabrda «Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida»gi PQ-3990- sonli Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 18 maydagi «Buyuk ipak yo'li» xalqaro folklor musiqa festivalini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida»gi №371-son va 2018 yil 27 iyundagi «Nurli navolar» xalqaro folklor festivalini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida»gi №486-son Qarorlari shu g'oyalarning mantiqiy davomi sifatida yuzaga keldi, deb aytish mumkin.

Shu o'rinda Qarorlardagi: "Folklor musiqa san'atini keng targ'ib etish, musiqiy merosni zamonga mos e'zozlab saqlash, o'rganish, o'zlashtirish, rivojlantirish, yoshlar va kelajak avlod qalbida folklor san'atiga bo'lgan mehrni oshirish, folklor merosning boy, badiiy va estetik imkoniyatlarini tarannum etish, xalqlar o'rtasidagi do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlash, o'zbek milliy folklor san'ati hamda boshqa xalqlarning folklor musiqa san'atlarini qamrab olish, ular bilan yaqindan ilmiy va ijodiy muloqotlar va hamkorlik qilish, madaniy-ma'naviy munosabatlarni xalqaro miqyosda kengaytirish, xorijiy davlatlar bilan milliy madaniyatlar uyg'unligi va turfa xilligini saqlash va rivojlantirish, xalq ijodiyotining eng yaxshi namunalarini keng targ'ib qilish, muhofaza qilish va rivojlantirish, turli millat vakillarini ma'naviy muloqotga jalb etish, yaxlit madaniy muhitni asrash hamda milliy an'analar va estetik ideallar umumiyliги asosida davlatlararo va xalqlararo madaniy hamkorlikni mustahkamlash..., folklor san'atini keng targ'ib etish, turli xalqlarning qo'shiq, raqs, musiqa va sahna ko'rinishlari kabi janrlarini o'zida mujassam etgan, ularning turmush tarzi, urf-odatlarini, an'ana va qadriyatlarini hamda ma'naviy dunyosini boyitib kelayotgan folklor san'ati ijodkorlari o'rtasida ijodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish, nomoddiy madaniy merosning eng yaxshi namunalarini keng targ'ib qilish, muhofaza qilish va rivojlantirish, an'anaviy badiiy san'atni ommalashtirish va zamonaviy hayot tarziga singdirish, yurtimiz va qo'shni mamlakatlardagi eng yaxshi folklor jamoalari o'rtasida tajriba almashishni yo'lga qo'yish, go'zallik, vatanparvarlik, bag'rikenglik, do'stlik va boshqa chin insoniy qadriyatlarni tarannum etish, milliy an'analarni asrab-avaylash, yoshlarda san'atga bo'lgan muhabbat tuyg'ularini kamol toptirish, xalqaro miqyosida ijodiy aloqalar doirasini kengaytirish, tinchlik va birdamlik g'oyalarini ulug'lash, o'zaro madaniy-ma'naviy hamkorlikni

yanada mustahkamlash, milliy an'analar va madaniy turizmni rivojlantirish" singari ta'kidlarning nihoyatda hayotiy va o'rinli ekanligini e'tirof etish zarur.

«Folklorshunoslik» yoki «folkloristika» fanining asosiy maqsadi xalq og'zaki badiiy ijodining o'ziga xos xususiyatlari, folklor janrlarining paydo bo'lish tarixi va taraqqiyot qonuniyatlari, tur va janrlarning tarkib topishi, shakllanish jarayonlari, folklor ijrochiligi va ijodkorligi, folklor va ijtimoiy hayot, folklor asarlari poetikasi, tarixiy-folkloriy jarayon, runetfolklor, "postfolklor" va uning o'ziga xos belgilari kabi masalalarni o'rganishdan iboratdir. Shuningdek, mifologiya va qadimgi davr folklori, marosim folklori, bolalar folklori, xalq lirikasi, folklor va yozma adabiyot, o'zbek folklorining epik janrlar tizimi, xalq dostonchiligi, dostonchilik maktablari va ularning epik an'analari, turkiy xalqlar folklorining o'zaro aloqalari va folklorda janrlararo munosabatlar, og'zaki teatr va xalq tomosha san'ati, og'zaki an'anadagi xalq musiqasi va an'anaviy raqs san'ati ham folklorshunoslikning o'rganish obekti doirasiga kiradi.

Folklorshunoslik o'zbek xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlari, laparchi, o'lanchi, askiyaboz, qiziqchi, qo'g'irchoqboz, ashulachi, ertakchi, baxshi, qushnoch va boshqa folklor ijrochilarining repertuarini o'rganish, folklor ijrochiligiga xos lokal xususiyatlarni aniqlash, o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodini turkiy hamda jahon xalqlari folklori kontekstida tadqiq etish singari fundamental masalalar bilan shug'ullanadi[1, 5 b.].

Yozma adabiyot va folklor munosabatlarini o'rganish hozirgi adabiyotshunoslik fani oldidagi jiddiy muammolardan biridir. Ma'lum bir xalq adabiyotining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini muayyanlashtirishda uning folklorga munosabati masalasini chetlab o'tish mazkur masalaning to'laqonli va obektiv hal etilishiga monelik qiladi. Adabiyot tarixining qadim davrlari haqida gap borgudek bo'lsa, bu masalaning tarixiy ham umumfilologik ahamiyati yanada ravshanlashadi[2, 21 b.]. Albatta, bugungi kungacha folklorning barcha janrlari: mif, afsona va rivoyatlar, maqol, topishmoq, askiya, latifa va lof, ertak, xalq qo'shiqlari, marosim qo'shiqlari, termalar, xalq dostonlari, bolalar folklor o'yinlari hamda baxshilar, jirovlar, oqinlar, folklor ijrochilari faoliyati bilan faqat o'zbek va qardosh hamda rus tilarida shug'illanib keldik. Endi maqsadimiz ularni ham ona tilimizda ham ingliz tildagi versiya va variantlarini ustida ishlash va shu bilan bir qatorda o'zbek folklorini targ'ib qilishga qaratilgan o'zbek va ingliz

tildagi veb sahifa, ios va android platformalarini yaratishdan va shu orqali o‘zbek folklorini jahon miqyosida ommalashtirishdan iborat.

Namangan davlat universitetida O‘zбекистон Respublikasi Innovasion rivojlanish vazirligining amaliy grant loyihasi doirasida bajarilishi 2020-2023 yillarga mo‘ljallangan “O‘zbek folklorining o‘zbek va ingliz tillaridagi veb sayti va multemedia mahsulotini yaratish” loyihasi amalga oshirilmoqda. Loyiha doirasida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan folklor janrlarning yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati milliy madaniyatimiz va qadriyatlarning uyg‘unligi hamda turfa xilligini saqlash va rivojlantirish, nomoddiy madaniy merosning eng yaxshi namunalarini veb sahifa, ios va android platformalari orqali keng targ‘ib qilish bugungi kunimizning dolzarb muammolari sarasiga kiradi. Ularni barhayotligini saqlash va rivojlantirish, an‘anaviy folklor san‘atni ommalashtirish va zamonaviy hayot tarziga singdirish, yoshlarimiz ongida o‘zbek folklori namunalarida mujassamlashgan go‘zallik, vatanparvarlik, bag‘rikenglik, do‘stlik va boshqa chin insoniy qadriyatlarni tarannum etish loyihaning asosiy muammolaridan biridir. Mazkur loyihada quyidagi ilmiy muammolar hal etiladi:

- o‘zbek folklori tarixi va taraqqiyotini bugungi kun talablari asosida tadqiq etish va folklore.uz veb-sayti yaratish;

- xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi ma’lumotlar, olib borilgan tadqiqotlar, asarlar, dissertasiyalar, monografiya, o‘quv qo‘llanma, maqolalar guruhlariga bo‘lingan, tizimlashtirilgan tarzda saytga joylashtirish, yangi ma’lumotlar yuzasidan tadqiqotlar olib borish;

- bugungi kungacha aniqlangan eng qadimgi xalq og‘zaki ijodi namunalari: miflar, xalq og‘zaki ijodi janrlari; afsona va rivoyatlar, maqollar, topishmoqlar, askiya, latifa, loflar, ertaklar, xalq qo‘shiq-lari; termalar; xalq dostonlarni to‘plash, yangilarini topish ustida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, yangi qo‘lgan kiritilgan natijalar haqida o‘quv uslubiy qo‘llanma tayyorlash;

- xalq og‘zaki ijodi namoyandalari Ergash Jumanbulbul o‘g‘li; Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li; Muhammadqul jonmurod o‘g‘li Po‘lkan; Islom shoir Nazar o‘g‘li haqidagi ma’lumotlarni to‘plash va va ularning asarlarini tadqiq qilish;

- bolalar folklori bo‘yicha barcha ma’lumotlarni guruhlariga bo‘lib tizimlashtirish, yangi ilmiy xulosalar olish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borish va “Bolalar folklori” nomli ilmiy risola nashrga tayyorlash;

- o‘zbek marosim folklori namunalari guruhlarga bo‘lingan holda, saytga joylashtirish, “O‘zbek marosim folklori namunalari” nomli o‘quv uslubiy qo‘llanma nashrga tayyorlash;

- o‘zbek folklorini targ‘ib qilishga qaratilgan ios va android platformalari uchun ilova dasturlari yaratish va ular orqali milliy madaniyatimizni keng targ‘ib etish ishlari mufoqilashtirish ko‘zda tutilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Loyihani amalga oshirish jarayonida ota-bobolarimiz zakovati va ulkan madaniy merosga bo‘lgan munosabat tubdan yangilanib, ajdodlarimiz tarixi, madaniyati va ma‘naviy qadriyatlar tizimini keng ko‘lamda targ‘ib etishning misli ko‘rilmagan imkoniyatlarini ochib beradi. Mazkur loyiha folklor asarlarni to‘plash, va ularni targ‘ib qilishga qaratilgan ham o‘zbek ham ingliz tilidagi veb-sahifalar, ios va android platformalarini yaratish hamda dunyo kutubxonalarida saqlanayotgan qo‘lyozmalardagi o‘zbek va turkiy xalqlarga tegishli folklor namunalarini aniqlash, ularni o‘zbek va xorijiy tillardagi shakllari bilan qiyosiy aspektda tadqiq etish, ularning tarixi, taraqqiyoti va milliy madaniyatimizda tutgan o‘rnini targ‘ib etish bilan bir qatorda, folklor nazariyasi, folklor asarlar poetikasi, folklor ijrochiligi va ijodkorligi, folklor va yozma adabiyot, folklorshunoslik metodologiyasi, folklori to‘plash va o‘rganish tarixini yangi bosqichga olib chiqadi.

Adabiyotlar:

1. Jo‘raev M. O‘zbek folklorshunosligi. “Firdavs-shox”. Toshkent. 2021.

2. To‘xliiev B. Yusuf Xos Hojib va turkiy xalqlar folklori. “Bayoz” Toshkent. 2014.

O‘ZBEK KOMEDIYASINING YUZAGA KELISHIDA XALQ OG‘ZAKI IJODINING TA’SIRI

*Jo‘raev Murodulla Alishboevich
Jizzax davlat pedagogika instituti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
Jizzax, O‘zbekiston Respublikasi*

Annotasiya: Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotida komediya janrining yuzaga kelishida xalq og‘zaki ijodining ta’siri masalasi ilmiy tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: komediya, xalq og‘zaki ijodi, xalq teatri, masxarabozlik.

Аннотация: статья представляет собой научное исследование влияния фольклора на возникновение комедийного жанра в узбекской литературе.

Ключевые слова: комедия, фольклор, народный театр, клоун.

Annotation: This article is a scientific study of the influence of folklore in the emergence of the comedy genre in Uzbek literature.

Key words: comedy, folklore, folk theater, clown.

Komediyaning janr sifatida o‘zbek adabiyotida paydo bo‘lish sababi hayot talabi, ijtimoiy-madaniy, milliy an’analarimiz, xalq ruhiyatining badiiy ehtiyojlari bilan belgilanadi, albatta. Janr qirralari aniq ifodasini topa boshlagan dastlabki asarlarning yuzaga kelishi esa, bir tomondan, Yevropa adabiyoti bilan bog‘lansa, ikkinchi tomondan, uning shakllanib, rivoj topishida o‘zbek xalq og‘zaki ijodi hamda mumtoz adabiyotimizdagi o‘lmas va bebaho hajviy asarlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda, xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyotimizda mavjud bo‘lgan yuksak saviyadagi satirik hamda yumoristik ruhdagi asarlar komediyanavislarimiz uchun ilhom manbai va badiiy tasvirlash bobida katta ijodiy mahorat maktabi vazifasini o‘taganligi ham ayni haqiqatdir.

Masxarabozlik hamda qiziqchilik teatri shakliga professor M.Qodirov shunday ta’rif beradi: “...bir zamonlar bu tushunchalar “masxara”, “muqallid” shaklida ifoda qilingan. Ularda o‘ziga xos dramaturgiya bor, qahramonlar qiyofasini o‘z qobiliyati, aqli, mijozi, hissiyoti, tanasi, harakatlari bilan gavdalantiruvchi aktyorlar bor,

ularning o‘yinlaridan zavqlana oladigan tomoshabinlar bor – qo‘yingki, teatr san‘atining barcha alomatlari muhayyo. Bu teatrning hozirgi zamon teatridan ayirmasi shundaki, uning maxsus binosi va sahnasi yo‘q, turli sharoitlarda gir atrofi tomoshabinlar bilan qurshalgan o‘ziga xos xalqa – “sahna”da ko‘rsatib ketaverganlar. ...Ammo masxarabozlik va qiziqchilik - bu xalqning marosimlari, urf-odatlarini bilan tutashib ketgan ibtidoiy shakldagi teatr emas, balki og‘zaki an‘anadagi professional teatrdir.”¹⁸

“Драматургиянинг сўз ёки ҳаракатдан иборат уч кўринишини санаш мумкин:

BIRINCHISI: masxarabozlarning faqat hajv va kulgidan iborat so‘z o‘yinlariga qurilgan dialoglari shaklidagi ko‘rinishi;

IKKINCHISI: muayyan qiyofa va qiliqlarga taqlidan harakatlarni namoyon qiluvchi so‘z vositasi va yoki so‘zsiz ijro etiladigan ko‘rinishi;

UCHINCHISI: turli niqoblar bilan hamda “chodir jamol”, “chodir xayol” kabi qo‘g‘irchoq o‘yinlari paytida ijro etiladigan shakli.”

Darhaqiqat, o‘zbek komediyalarining yuzaga kelishida xalq og‘zaki ijodiyotining ta‘sirini O‘zbekiston Qahramoni Erkin Vohidovning “Oltin devor” komediyasi misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

Erkin Vohidovning “Oltin devor” komediyasi ham uning o‘ziga xos hajviyoti va xalqchil yumorga boy badiiy-estetik tafakkurining bir samarasi bo‘lib yaratilganini yaqqol ko‘rishimiz mumkin. “Oltin devor” komediyasida syujet voqealarini harakatga keltiruvchi asosiy tugun bu – ikki qo‘shni hovlisi o‘rtasidagi devor ostidan topilgan bir xumchadagi oltinlarning mojarosi bilan bog‘liqdir. Ushbu komediyaning g‘oyaviy mazmuni va badiiy talqinlari hamda undagi qahramonlarning xatti-harakatlari tasvirlari bilan tanishganimizda, beixtiyor Sharq xalqlari og‘zaki adabiyotida keng tarqalgan bir rivoyat yodimizga keladi. Bu rivoyat Alisher Navoiy va boshqa ulug‘ shoir hamda mutafakkirlarning asarlarida ham tilga olingan va o‘zining insofu adolati hamda xalqparvarligi bilan shuhrat qozongan hukmdor Anushervoni (ba‘zi manbalarda No‘shiravon) odil haqidagi ibratli hikoyatdir.

Rivoyatda aytishlaricha, Anushervoni odil zamonida bir kishi qo‘shnisining hovlisini sotib oladi. Kunlardan bir kuni yer chopayotib, hovli chekkasidagi daraxt yonidan bir ko‘za tilla topib oladi. Diyonatli inson bo‘lgani uchun tillani o‘ziniki qilib olmaydi, balki ko‘zani

¹⁸ Қодиров М. Ўзбек халқ томоша санъати.-Т.: Фан.1981.36-б.

qo‘ltiqlab, hovli sotgan odamning oldiga boradi va unga shunday so‘zlarni aytadi:

“-Hovli chekkasidagi daraxt yonidan mana bu xazinani topib oldim. Uni sen ko‘mgan bo‘lsang kerak, demak, u seniki, -deydi.

-Yo‘q, - dedi haligi odam, -men hovlini yeri va daraxtlari bilan birgalikda senga sotganman, shuning uchun endi bu xazina ham seniki.

Ular uzoq tortishib, hech kelisha olishmaydi, oxiri ajrim qilishini istab, Anushervoni odilning huzuriga boradilar. Voqeani surishtirib bilgach, hukmdor ulardan so‘raydi:

-Farzandlaringiz bormi?

-Ha, -dedi ulardan biri, -mening o‘g‘lim bor.

-Mening esa qizim bor, -dedi ikkinchisi.

-Unda bir-birlaringiz bilan quda-anda tutinglar, -maslahat berdi Anushervoni odil, -xazinani esa kuyov bilan kelinga tuxfa qilinglar”.

Bizningcha, sharq mumtoz adabiyotini, ayniqsa, Navoiy dostonlarini chuqur bilgan Erkin Vohidov bu rivoyatdan bexabar bo‘lishi mumkin emas. Aksincha, bu rivoyat o‘zining teran hayotiy mazmuni va insonlarni ezgulik, olijanoblik va insof-adolatga, halollikka va to‘g‘rilikka boshlovchi yuksak g‘oyasi bilan Erkin Vohidovga chuqur ta'sir ko‘rsatgan va shu bilan birga unga ushbu ibratomiz zamonaviy komediyani yaratishda ma’lum darajada ilhom bergan bo‘lishi ham haqiqatdan yiroq emas, deb o‘ylaymiz.

ИССЛЕДОВАНИЕ ОЙКОНИМОВ В СОСТАВЕ ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОК УЗБЕКСКОГО НАРОДА

Исломова Дилором

Наманганский государственный университет,

преподаватель

Наманган, Республика Узбекистан

Аннотация. В статье уделяется внимание функционированию топонимов и проблеме их значения в языке и речи, а именно анализируются ойконимы в составе узбекских пословиц и поговорок как индикаторы ациональных особенностей.

Ключевые слова: топоним, ойконим, географический объект, этноним, символ.

Annotasiya. Maqolada toponimlarning tilda funksional vazifalariga e'tibor qaratilgan, jumladan o'zbek maqollarida oykonimlarning milliy xususiyatlar indikatorini sifatida taxlil kilingan.

Tayanch so'zlar: toponim, oykonim, geografik obekt, etnonim, simvol.

Annatation. The article focuses on the functioning of toponyms and the problem of their meaning in language and speech, namely, oikonims are analyzed as part of Uzbek proverbs and sayings as indicators of national characteristics.

Key words: toponym, oikonym, geographic object, ethnonym, symbol.

Пословицы и поговорки, являясь обобщением социально-исторического и житейско-бытового опыта народа, обладают признаками краткости, устойчивости, ритмичности и многозначности. Они представляют собой сгустки народной мудрости, они выражают истину, проверенную многовековой историей народа, опытом многих поколений. Топонимы, являясь памятником языка, входят своеобразным культурным компонентом в пословицы и поговорки. Вошедший в пословицу и поговорку топоним подчеркивает важность в жизни человека географического пространства, которое его окружает. В этом жанре народного творчества топонимы сохраняют связь с конкретным географическим объектом, но она считается не прямой и не непосредственной. Анализ пословиц содержащих топонимы, доказывают тезис о способности топонимии в новом для себя контексте выполнять новые функции, не свойственные географической номенклатуре.

Ойконимы одна из распространенных групп имен собственных в пословицах узбекского народа. Слова –реалии, обозначая единственные в своем роде объекты и явления окружающих и действительности, вошедшие в состав пословиц и поговорок, участвуют в целостности словесной организации на основе единой их целенаправленности. Поэтому многие пословицы, содержащие топонимы, и ойконимы в частности, не имеют эквивалентов в другом языке. В случае же наличия иноязычных эквивалентов пословицам и поговоркам с топонимами данные эквиваленты часто не включают топонима. Топонимы в пословицах узбекского народа отражают языковое и ассоциативное мышление народа, и поэтому возможно провести лингвокультурную интерпритацию.

«Семантическая функция топонима в составе пословицы может быть обозначена как символическая и номинативно-стилистическая. Географическое название в составе пословицы или поговорки кроме номинативного содержания обогащается дополнительным образным смыслом, обрастает рядом культурологических ассоциаций» [4,50-55].

Кондакова И.А в своем исследовании «Фразеологизмы, содержащие топонимы, как средство выражения микроавтостереотипа» отмечает, что топоним во многих пословицах «как область цели метафоры преимущественно употребляется не в прямом адресном значении, а в функции этнонима. Важно заметить, что на микроуровне этнонимы, как правило, отсутствуют, и их функцию выполняют топонимы» [5, 103-105]

Материалом для нашей статьи послужили более 20 узбекских пословиц, содержащие ойконимы, в которых самым распространенным ойконимом является Мекка (около 25 %). Мекка относится к макротопонимам, имеющим широкую известность. Для узбекского народа, как представителя исламской религии, Мекка является священным местом, в которое совершается паломничество - хадж - один из столпов ислама. Хадж является обязанностью каждого мусульманина. Люди, совершившие паломничество, как правило, пользуются всеобщим уважением. Отсюда, Мекка в пословицах этой группы выступает как символ очищения, уважения, возвеличивания, особого статуса. Такой смысл приобретает этот ойконим в пословице «**Eshak Makkaga borib xalol bo'lmaydi**» - дословный перевод «Посетив Мекку, осел не становится «разрешенным и дозволенным». В данной пословице образ осла подразумевается не ослятина, как «недозволенная мусульманская пища», а как символ «глупости, невежества, низости, отсутствия достоинств». Существует вариант данной пословицы: «**Eshak Makka borib xodji bo'lmas**», дословный перевод которого звучит: «Побывав в Мекке, осел не становится ходжи». Ходжи - почетное звание, данное мусульманину, который успешно завершил обряд хаджа в Мекку [2]. Общий смысл этих пословиц - «Побывав в хадже и совершив священное паломничество, осел не очищается от больших грехов».

Пословица “**Bir ko'ngil imorat - ming Makka ziyorat**” дословно означает: “Если ты сделал добро одному человеку, в

память об этом можно построить здание (памятник), если ты сделал доброе дело тысяче людей - тебе присуждается звание – полонника священного места Мекки”. Помощь многим людям даёт такое почётное звание.

В пословице **“So‘rab-so‘rab Makkani topibdi”** Мекка выступает как географический объект. Известно, что в древности хадж в Мекку совершали пешком, тогда как расстояние между Узбекситаном и Меккой составляет приблизительно 5 тысяч километров. Это путешествие занимало несколько месяцев. У этой пословицы есть удачный эквивалент в русском языке: *“Язык до Киева доведет”*. Известно, что для первого русского государства Киев был столицей, в которой строились церкви и монастыри, со всех уголков русской земли шли сюда молиться. Считалось, что Киев всем известен, что можно дойти до него, даже не зная дороги, а только расспрашивая о ней у встречных [7,146-152]. Данная узбекская пословица в современном употреблении означает что, если путник не знает, как добраться до нужного ему места, надо спрашивать встречных людей, и те ему подскажут направление.

В пословице **“Toshkent tarig‘ini yegan chumchuk Makkatilodan qaytadi”** Маккатило (Мекка) выступает также в значении географического объекта, расположено далеко от Ташкента. Дословно данная пословица означает: *“Попробовав Ташкентское просо, воробей вернется даже с Мекки”*. Эта пословица о качестве товара, выращиваемого на данной территории. Восхваление товара или продукции сельского хозяйства определенного географического объекта часто выступает в вариантах. Например, такое же значение несет пословица **“Damachining qovunini yemabsiz – dunyoga kelmabsiz”**, что дословно означает: *“Если вы не попробовали дыни Дамачи, то вы не почувствовали вкус жизни”*. У данной пословицы существуют несколько вариантов, которые в современном обществе считаются весьма продуктивными, когда стоит целью похвалить чаще какой-нибудь определенный пищевой продукт: **“Kuva anorini yemabsiz – dunyoga kelmabsiz”** (гранаты Кувы), **Varganza uzumini yemabsiz – dunyoga kelmabsiz** (виноград Варганзы), **“Marg‘ilon turupini yemabsiz – dunyoga kelmabsiz”** (редьку Маргилана), **“Oqqurg‘on anjirini yemabsiz – dunyoga kelmabsiz”** (инжир Аккургана) и подобное. [11, 86]

В пословице “**Qarshining arpasini yegan eshak, Samarqandgacha hangrab keladi**”, восхваляется ячмень города Карши. Второй топоним Самарканд в данной пословице выступит как географический объект, расположенный недалеко от Карши, до которого часто люди в древности добирались на ослах, как доступном средстве передвижения. Её значение: “ Употребив каршинскую ячмень, осел без усталости дойдет до назначенного пункта”.

Рассмотрим семантику ойконима в пословицах, компонентом которых является древний города Бухара, часто встречаемый в узбекских пословицах. Бухара в древности была одним из главных городов на Средней Азии. Сюда стремились попасть торговцы, ученые, полонники. В пословице “**Buxoroda moli borniki ko‘ngli to‘q**”, дословный перевод которого означает: “Владеющий имуществом в Бухаре, может быть спокоен, уверен”. Бухара выступает как символ достатка, постоянства, сытости, уверенности в будущем.

У пословицы “**Buxoro uzoq bo‘lsa, poygoxi yaqin**”, в которой Бухара выступает как символ родного, близкого уголка, имеется удачный эквивалент в русском языке, содержащий ойконим - “*Москва верстой далека, да сердцу рядом*” или её вариант “*Москва от глаз далека, да сердцу близка*».

В пословице “**Beva xotinga Buxorodan it xuradi**”, обозначающий, что на вдову даже в с Бухары собаки лают, имеется эквивалент “*Вдову только ленивый не оговорит*». Бухара здесь выступает как географический объект, имеющий значение дальнего расстояния.

Пословица “**Fil tushida Xindistonni ko‘rar**” имеет эквивалент “*Родная земля и во сне снится*», где Хиндистон (Индия) - выступает как символ родной земли, дословный перевод которого звучит: «Во сне слон видит Индию».

Интересно значение пословицы “**Tokni qirqmasan, Qashqarga yetar**” или его вариант “**Tokni “tak” demasan, Qashqarga yetar**”. Кашкар – город в Китае, через который проходил Великий Шелковый путь, с древности связывающий узбекский народ с уйгурским. Расстояние от территории проживания узбекского народа до Кашкара было достаточно большим (в пределах 1000 км), Кашкар выступает в пословице в значении дальнего географического объекта. В первом варианте ТОК – виноградная

лоза. Дословный перевод: “Если не срезать стебли лозы, они до Кашкара дотянутся”. Второй вариант “Если не понукать (удерживать словами) лозу, она до Кашкара дотянется”. Пословица имеет двойственное значение: положительное – “если не понукать и не удерживать, а дать больше свободы, то можно достичь больших результатов” и второе - “если постоянно не следить за действиями и не поддаваться разным желаниям, то можно заработать большие неприятности”. Обобщенный смысл пословицы – мера в действиях и желаниях человека.

В состав пословицы “**Nasib etsa kelar Shom-u Iroqdan, nasib yitsa, ketar qosh - u qaboqdan**” включены ойконимы Шом (Сирия) и Ирак, символизирующие дальнейшее расстояние. Смысл пословицы заключается в том, что, если “это судьба, участь, она придет и из дальних мест”.

Пословица “**Ahmoqqa To‘ytera nima yo‘l**” имеет дословный перевод “Дураку дойти до Тойтепы нипочем». В узбекском языке у этой пословицы есть варианты: “**Ahmoqqa To‘ytera bir tosh**», «**Ahmoqqa Koson bir qadam**”, “**Ahmoqqa Quva bir tosh**», в которых ойконимы Туйтепа, Косон, Кува выступают как символы дальней дороги. Процесс варьирования ономастического элемента в данных пословицах объясняется временным и территориальным планом. Такое же значение несет пословица «Для дурака и Мекка не далека», данная в разделе узбекских пословиц книги Рассохина П. «Пословицы и поговорки мира» [6], которая, на самом деле, не имеет аналога в узбекских пословицах. Так как понятие «дурак» и паломничество в Мекку не совместимы для узбекского народа, потому что человек, который желает дойти до святого места, не может быть назван дураком.

Пословица “**Adandan joy topilsa to‘rga o‘tma**” переводится дословно: “Если найдется место в Адане, не попадайся в сеть”. Адан (Аден) -город в Арабских Эмиратах, расположенный в Южном Йемене [9,184]. Данная пословица о высокомерии. В Турции тоже есть город Адана, на реке Сейхан, через которую проходят торговые пути между Сирией и малой Азией. Соответственно слово “сеть” приводит к толкованию данной пословицы в значении “Если ты нашел место в Адане, не оставайся там”- следовательно пословица приобретает новый смысл, становится пословицей про патриотизм. Оба эти города – Адан и

Адана - в древности считались торговыми центрами, в которые стремились попасть путешественники и ремесленники.

Пословица **“Gap desang, qop-qop, ish desang, Ashtarxondan top»** ойконим Аштархан – древнее название Астрахани [3, 229-242], символизирующее далекое расстояние. Эквивалент пословицы в русском языке: «Кто много говорит, тот мало делает». В данной пословице ойконим выполняет функцию географического объекта, расположенного далеко, в значении: «Лентяй убегает от работы до Астрахани», та как расстояние от территории Узбекистана до Астрахани около 2 тыс км.

В пословице **“Chustni pichog‘idan Popni patiri yaxshi”** является пословицей узко территориального значения. Она используется в основном на территории Ферганской долины и восхваляет товары ремесленников маленьких городов Чуста и Папа, которые являются районами Наманганской области. И сейчас Наманганская область славится Чустскими ножами и Папскими лепешками. Такой же элемент узко территориального значения несет ойконим в пословице из текста знаменитого произведения восточного поэта XVIII-XIX вв. Гулханий **“Зарбулмасал”** - **“Namangan shaxri vayron, oti ulug‘, sufrasi quruq”**[1, 271]. Дословное её значение: “У Намангана громкое звание, но скатерть у него пустая” о богатом, но негостеприимном месте[10, 401]. Обычно эта пословица выступает в вариантах, в которых на месте ойконима выступают и урбонимы, в современном языке даже должности, профессии, выполняя функции поговорки.

В заключении можно отметить, что пословицы, компонентом которых являются топонимы, всегда историчны, как и топонимия, использование которых продиктовано уровнем социально-экономического развития. В ходе анализа ойконимов в составе пословиц и поговорок узбекского народа было обращено внимание на процесс варьирования ономастического элемента в зависимости от временного и территориального плана. Ойконим становится в контексте пословицы символом и выполняют образно-метафорическую функцию. Из проанализированных 20 пословиц и поговорок у двух пословиц имеются удачные эквиваленты в русском языке, содержащие топоним, что составляет около 10%. Это подтверждает мысль о том, что фонд пословиц и поговорок разных языков часто не совпадает по лексическому и концептуальному выражению в силу того, что представители

разных лингвокультурных общностей воспринимают окружающий их мир по-разному.

Ойконимы в пословицах отражают многообразные отличительные особенности не только географического объекта, его жителей, но и несут символические характеристики национального своеобразия, знакомя с особенностями жизни другого народа и географией его страны

Литература:

1. Adabiyot. Majmua. Akademik liseylarning ikkinchi bosqich o'quvchilari uchun. Toshkent. 2010.

2. Гогиберидзе Г. М. Исламский толковый словарь. Ростов Н/Д: Феникс, 2009.— 266 с. <https://ru.wikipedia.org>

3. Зайцев И.В. К вопросу о названиях города Астрахани в средневековых источниках. М. Восточная литература. 2006. с. 229.

4. Кодынева Л.Ю. Компонентный анализ пословиц с географическими названиями. Новгородский государственный университет. Журнал «Поливановские чтения». Смоленск. 2008.

5. Кондакова И. А. Фразеологизмы, содержащие топонимы, как средство выражения микроавтостереотипа. Вятский государственный гуманитарный университет. Филологические науки. Вопросы теории и практики, № 3 (45) 2015, часть 1.

6. Рассохин П. Пословицы и поговорки мира (2 часть). LITERES2018 isbn 504114674663/97850041467463

7. Сударь Г.С. Язык до Киева доведет. Журнал «Вестник Российского нового университета». Москва. 2019. <https://www.elibrary.ru/item>.

8. O'zbek xalq makollari. Tuzuvchilar: Mirzaev T., Musoqulov A., Sarimsaqov B. Toshkent. "Sharq". 2005. ziyouz.com kutubxonasi.

9. O'zbekiston milliy ensiklopediya. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. ziyouz.com kutubxonasi.

10. Узбекско-русский словарь. Под ред. Ақобирова С.Ф. и Михайлова Г.Н. Ташкент. 1988.

11. Hikmatnoma. O'zbek makollarining izoxli lug'ati. Toshkent, 1990. ziyouz.com kutubxonasi.

SAKKOKIY BADIY ME'ROSIDA BADIYAT VA AN'ANAVIYLIK MASALASI

Isroilov G'ayrat
Jizzax davlat pedagogika instituti,
O'qituvchi
Jizzax, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada iste'dodli lirik shoir Sakkokiy ijodining takomiliga, xalq og'zaki ijodi juda katta ta'sir ko'rsatganligi, Sakkokiy ijodining gurkirab ketishida muhim omil bo'lgan xalq og'zaki ijodidan bahramandligi hamda uning g'azallarida ishq, oshiqlik, hijron iztiroblari, visol lazzati, oshiq qalb kechinmalari juda ustalik bilan xalqona ohangda tasvirlagani xususidadir.

Kalit so'zlar: Sakkokiy, Maryam, Jabroil (a.s.), Islom va Qur'on, I.Yu.Krachkovskiy, Qays ibn Mulavvah (yoki Qays Muod), "Kitobush-she'rvash-shuaro".

Аннотация: В этой статье на творчество талантливого лирического поэта Саккоки большое влияние оказал народный фольклор. Любовь, страдания хиджры, вкус висоля, переживания сердца влюбленного очень умело описаны в народном творчестве.

Ключевые слова: Саккоки, Мария, Гавриил (ас), Ислам и Коран, И.Ю. Крачковский, Кайс ибн Мулавва (или Кайс Муад), шуаро».

Annotation: In this article, the talented lyric poet Sakkoki's work has been greatly influenced by the folklore of the people. love, the sufferings of hijra, the taste of visol, the experiences of the heart of a lover are very skillfully described in a folk tone.

Key words: Sakkoki, loveMary, Gabriel (as), Islam and the Qur'an, I.Yu. Krachkovsky, Qays ibn Mulawwah (or Qays Muad), shuaro ”.

O'zbek mumtoz she'riyatining Navoiyga qadar etishgan yirik namoyandalardan biri Sakkokiy bo'lib, uning ijodi o'zbek mumtoz adabiyotining ravnaq topishiga ma'lum hissa bo'lib qo'shilgan. Bunga asos, nazarimizda, uni xalq og'zaki boy ijodidan, shuningdek salaflari asarlarini puxta o'rgangani va ulardan ijodiy oziqlanganligi, deb o'ylaymiz. Shuningdek, Sakkokiy tug'ma, iste'dodli lirik shoir bo'lib, u o'zidan oldin o'tgan o'zbek, fors-tojik shoirlari asarlarini puxta o'rgangan. Ulardan ijodiy foydalangan. Darhaqiqat, shoir ijodini kuzatar

ekanmiz, uni o‘zbek va fors–tojik tilidagi manbalarni puxta o‘rganib chiqqanini va ulardan– o‘z asarlarida ijodiy foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, xalq og‘zaki ijodi Sakkokiy ijodining takomiliga juda katta ta‘sir ko‘rsatganki, biz quyida shoir ijodini shu jihatiga to‘xtalamiz. Xalq og‘zaki ijodi barcha davrlarda insonlarning doimiy yo‘ldoshi bo‘lib, xalq badiiy ijodining ajoyib yodgorliklari barcha avlodlarning tafakkurini o‘stirish, ularning estetik didini tarbiyalash, ma‘naviy dunyosini boyitishda mislsiz katta ahamiyat kasb etgan. Sakkokiy ijodining gurkirab ketishida muhim omil bo‘lgan ham xalq og‘zaki ijodidan bahramandligidir. Hech kimga sir emaski, Sakkokiy – g‘azalnavis shoir. Uning g‘azallarida ishq, oshiqlik, hijron iztiroblari, visol lazzati, oshiq qalb kechinmalari juda ustalik bilan xalqona ohangda tasvirlanadi: Kim ermas ul oy muhtalosi, Yolg‘uz menga yo‘q aning balosi. Tushti bu zaif jonimg‘a dardi, O‘lmaktin izin yo‘q ul davosi [5;251]. Ko‘rinib turibdiki, Sakkokiy g‘azallar yaratishda, uning boy ichki imkoniyatlaridan samarali foydalana olgan, ya‘nikim inson muhabbati, orzu– tilaklarini, dard–alamlarini, tabiat go‘zalliklarini xalqqa yaqin holatda badiiy buyoqlarda, xalq qo‘shiq-lari ohangiga yaqin yo‘lida, sodda ifodalay olgan: Sentek jahonda ko‘zlari ayni balo qani? Mentek aning balosi bila muhtalo qani?

Irning aqiqi garchi jahonda yagonadur, Chehrai mengizli ham yana bir qahrabo qani? Sakkokiy lirikasidagi g‘azallarining asksariyati xalqona uslubda yozilib, ularda urf–odat, ibora va ifodalardan shoir juda mohirlik bilan, o‘z o‘rnida foydalangan: Ko‘rub gultek yuzung jon pora–pora, Jigar ham qildi ul qon pora–pora.. Kularda ko‘rsa og‘zi birla tishin, Bo‘lur gulnori xandon pora–pora. Netong munda o‘zin chok etsa g‘uncha, Aningtek bo‘ldi chandon pora–pora [5;242].

Shoir g‘azallarida ma‘no va shakl birligini saqlab, so‘z o‘yinlari va qochirimlardan unumli foydalangan. Sakkokiy g‘azalarini o‘rganar ekanmiz, ularda xalqona ibora va ifodalar, maqol va hikmatli so‘zlarning ko‘plab uchratamiz: Bale, bu ranju baloni men ixtiyor etdim, O‘zimga ishni o‘zum qildim, emdi ne chora [5;229].

Shoir e‘tirof etadigan ranj–u balo — oshiqlikdir. Ya‘ni yorni sevish, unga muhabbat bog‘lash lirik qahramonning ixtiyoriy ishi ekan, lirik qahramono‘zimga o‘zim qildim, endi na chora demoqda. Barchamizga yaxshi ma‘lumki, endi ne chora, o‘zimga ishni o‘zim qildim kabi ifodalar xalq og‘zaki ijodida, og‘zaki so‘zlashuvda tez–tez qo‘llanishi bilan e‘tiborni tortadi. “O‘zimga o‘zim qildim”, “ko‘zi chiqsin”, “eson qol” singari xalqona ifodalar Sakkokiy g‘azallarining

tiliga o'ziga xos tarovat bag'ishlagan. Sakkokiy she'riyatida diniy tushunchalar bilan bog'liq tarzda talqin etilgan tarixiy shaxslar obrazlari mavjud bo'lib, bu uni g'azallarini badiiy jihatdan yetuk, tasvirlash vositalari pishiq, tilini jozibali bo'lishga asos vazifasini o'tagan. Shoir g'azallarini o'rganimizda, ularda Iso alayhissalom, Xizr, Farhod, Sulaymon, Layli, Majnun va boshqa shunga o'xshash ko'pdan–ko'p tarixiy shaxslar hamda adabiy qahramonlarga oid rivoyat va ma'lumotlarga ishorat qilib, lirik qahramon xarakter xususiyatlariga xos xilma–xil sifat va fazilatlarni betakror badiiyat tasvirlanganini ko'ramiz. Mumtoz she'riyatimizda diniy tushunchalar bilan bog'liq tarzda talqin etilgan tarixiy shaxslar obrazlaridan biri Iso alayhissalom obrazidir. Ma'lumki, hazrati Iso barcha payg'ambarlarga o'xshab ota–onadan emas, tanho ona, ya'ni Bibi Maryamdan tavallud topgan, bu haqida Alisher Navoiyning yozishicha: “Muqarrardurkim, Iso (a.s.)ning atosi yo'qtur. Maryam Jabroil (a.s.)ning nafasi bila homila bo'ldi va tug'urur vaqtda Baytulmuqaddasdin chiqib, qirog'roq yerda vaz'i haml qildi. Xalq bu ishni bilib, borib ul holni ko'rub, irik so'zlar ayta boshladilar. Yuqoriroq bitilibturkim. Iso (a.s.) ne nav javoblar berdi. Andin so'ng el mutaajjib bo'lub, so'z ayta olmay qayttilar. Maryamni, Habib Najjorkim, xolazodasi erdi, Iso (a.s.) bila olib Damashqqa bordi. Iso (a.s.) o'n uch yoshag'uncha anda maosh qildi. Anda ham Iso (a.s.)ning mo'jizoti ko'b zohir bo'ldi”[3; 589–590]. Shu o'rinda, Iso Masih badiiy timsoli Sharq she'riyatida qanday adabiy qonuniyatlarga asoslanib o'z g'oyaviy–badiiy ifodasini topgan degan o'rinli savol tug'iladi? Chunonchi, Iso alayhissalom badiiy timsoli mumtoz she'riyatimizdan mustahkam o'rin egallaganligi tasodifiy bo'lmay, uning mo'jizakorligi, ayniqsa, o'likni tiriltirishi, dil va ruh uyg'oqligi, ko'ngul erkinligi ramzi kabi xislatlari, bizningcha ijodorlarni o'ziga tortib, qayta–qayta murojaat etishlariga sabab bo'lgan. Islom va Qur'on mavzusi o'zbek adabiyotida tarixiy shaxslar obrazi talqinining o'zak mohiyatini tashkil etgan. Islomiy adabiyotda tarixiy shaxslar obrazi iymon, e'tiqod, ezgu amallar, insonning Yaratgan oldida mas'ulligi kabi mezonlar asosida tasvirlangan. Shu bois ham, yagona Islom madaniyati hududlarida turkiy xalqlar adabiyoti boy an'analari jihatidan muhim o'rin tutgan va o'zga adabiyotlarga ham ta'sir o'tkazgan. Sakkokiy ham o'z g'azallarida Masiho (Iso) haqidagi diniy afsonalardan foydalanib, oshiq va yor munosabati bayonida juda go'zal manzaralar yaratganki, biz buni quyida imkoniyatimiz darajasida ko'rib chiqamiz.

Sakkokiy g‘azallarida yor–masihodam. Uning zulfi, nortek yangoqing oshiqni bemor qiladi. Biroq dami (nafasi) unga shifo beradi: Jon hajr o‘tina tushti, yana bizni unutma, Zulfung biki qad bo‘ldi duto, bizni unutma..., Nortek yangoqing furqati ichra ko‘ngulu jon, Ul kuydi judou bu judo, bizni unutma. Iso damining bor asari har nafasingda, Jon dardina, ey xulqi davo, bizni unutma [5;236]. Ko‘rinib turibdiki, shoir ilohiy ishq hamda insonning insonga bo‘lgan samimiy sevgisini yonma–yon qo‘yib kuylaydi va sharaflaydi. Shoirning tasvirida yor–go‘zal, latofatli va dilrabo. Uning husn–jamoli oy va quyoshdan, chamanzor gullaridan ham ziyoda, yorning qomatiga na sarv va na sanobar, uning og‘ziga na pista va na g‘uncha, labiga na la‘l va na yoqut, ko‘ziga na ohu va na nargis, zulfiga na sunbul va na rayhon tenglasha oladi. Gulyuzungni orzulab yuz, ko‘zni gulzor ayladi, Shakkar erningni tilab jon tanni afgor ayladi. Oymudur yuzung, yoxud xurshedi tobon, ey sanam, Bor aningtek shu‘lasi ko‘zlarni bekor ayladi.. Ey Masihodam begim, bir dam bila bergil shifo, Sheva birla ko‘zlaring jonimni bemor ayladi (278–bet). Sakkoiy ma’shuqaning qoshu ko‘zlari, kipriklarini, ayni paytda noz–karashmalarini tasvirlar ekan, oshiq uchun nihoyatda totli azoblardir. Ma’shuqadan jabr tortish oshiq uchun lazzatli damlardir. Bunday tasvirlar shoir g‘azallarida ilohiy ishq bilan majoziy ishqni bir o‘zanga birlashishiga sabab bo‘ladi. Ba’zi g‘azallarida, shoir tazod san’atidan unumli foydalanib, dilbar hayotiy manzara yaratganligini ham ko‘rishimiz mumkin: G‘am mening zotimg‘a vojib bo‘ldi, bo‘lmas mumtani O‘zga hamd etma, jafo ko‘trurg‘a imkon qolmadi. Chunkim ul Iso nafas qasd etti, Sakkokiy, senga Dardi dil birla o‘lardin o‘zga darmon qolmadi (250–bet).

Ishq oshiq uchun tunganmas dard, ammo oshiq bu dardning tunganmasligini istaydi. Oshiq ma’shuqaga etishish uchun har qanday jabru jafolarga ham tayyor. Shu bilan birga, yor oshiqqa hayot va umid, shodlik va quvnoqlik bag‘ishlaydi: Meni o‘lturdi ko‘zi, erni himoya qilmadi, Iklik o‘ldi go‘yiyo, Iso rioyat qilmadi. Nargisi bir g‘amza birla qutqorur jondin meni, Muncha ishimni ne bo‘ldi, ul kifoyat qilmadi (247–bet). Shoir g‘azallaridagi Layli va Majnun qanday obraz, tarixiy shaxsmi? Shu xususida ba’zi ma’lumotlarni keltiramiz. Barchamizga yaxshi ma’lumki, “Layli va Majnun” ko‘p asrlik tarixga ega. Uning kurtaklari, akademik I.Yu.Krachkovskiy ta’kidlaganidek [2;31-36], VII asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi. Ayrim arab manbalarining ma’lumotlariga ko‘ra Majnun tarixiy shaxs bo‘lib, bani Omir qabilasidan chiqqan, asl nomi Qays ibn Mulavvah (yoki Qays Muod).

Ba'zi manbalarda Mahdiy ibn Muod, al-Buhturiy ibn al-Ja'd kabi nomlar bilan ham zikr etilgan. Qays Layli degan qizni sevgan, o'z sevgisi va hijron alamlari haqida mungli she'rlar bitgan. Shunday qaydlar, jumladan, IX asrda yashagan ibn Qutaybaning (889 yilda vafot etgan) "Kitob ush-she'r vash-shuaro" asarida ham mavjud. Lekin boshqa bir qator manbalar bu ma'lumotlarni rad etadi. Masalan, VIII asr va IX asrning boshlarida yashagan ba'zi arab tarixchilari, jumladan, (764 yilda vafot etgan) arab olimi Avon ibn Hakim al-Qalbiy ham, (819 yilda vafot etgan) arab tarixchisi Hishom al-Qalbiy ham Majnun tarixiy shaxs emas, uning nomi majoziydir, she'rlar esa o'z yaqin qarindoshlaridan birining qiziga oshiq bo'lgan ummaviylar xonadoniga mansub bir yigitga mansub bo'lib, u o'z nomini oshkor etmaslik uchun Majnun taxallusini qo'llagan, deydi. Demak, Majnun tarixiy shaxsligi masalasi munozarali. Lekin VII asrning ikkinchi yarmidayoq arab poeziyasida Majnun taxallusi zikr etilgan ko'pgina mungli she'rlar vujudga kelgan. XII asrda Abu Bakr al-Volibiy degan kishi Majnun nomiga nisbat berilgan she'rlarni devon qilib tuzadi, ularga sharhlar beradi hamda she'rlarni Majnun haqidagi rivoyatlarning syujetiga kiritadi. Alisher Navoiygacha bo'lgan davrda turkiy tilda yaratilgan "Layli va Majnun" dostonlari to'g'risida turk adabiyotshunosi Ogoh Sirri Levend ma'lumot bergan [1;30]. Gulshahriy Fariduddin Attor asariga nazira tarzida yozgan "Mantiq ut-tayr"ida Majnun voqeasini Hudhud tilidan keltiradi. Sakkokiy ham Layli va Majnun obrazlariga g'azallarida bir necha marta murojaat etgan. Shoir g'azallarida sevikli yor hajri bilan bog'liq tuyg'ularini Layli va Majnun taqdiriga qiyosan tasvirlar ekan, ular qissasi bizning muhabbat oldida eskirdi, deydi: Devonaliqqa soldi meni zulfungu ko'zung, Bo'ldi magar bu yo'lda menga haq hidoyati. Bizdin eshitsun emdi jahon toza qissalar, Chun ko'hna bo'ldi Layliyu Majnun hikoyati (267-bet). Shoirning bir necha g'azallarida badiiy asarlar personajiga aylangan Layli va Majnun taqdiridan ko'ra real hayotdagi kishilar qismati tasvirlangandek tuyuladi. Jumladan, quyidagi misralarda: Netong bo'lsa agar Layli zulfunga Majnun, Pari yuzingga bo'lur holi ko'rsa devona (234-bet). She'rdagi ortiqcha badiiy bo'yoqlar uchramaydi. Unda shoir lirik qahramon ruhiy holati, kechinmalarini o'z zamondoshi, xalq orasida ma'lum va mashhur bo'lgan inson taqdiri bilan bog'liq holda ifodalaydi: Ey sening zulfungg'a Laylitek tuman ming bandalar, Holiyo davron bizningdur, kechti Majnun navbati (270-bet) Ma'lumki, chin ma'nodagi oshiqlik barchaga ham berilmaydi. Real hayotda ham biror kishiga qattiq

bog‘langan oshiq o‘zligini unutadi. Ularning ruhiy holatini atrofdagilar qabul qilishi mahol. Uni telba, devona deb hisoblaydilar: Layli mizojin saqlabon Majnun bormas tig‘ina, Chun bersa telba keldi teb, albatta g‘avg‘o bo‘lg‘usi (269–bet). Majnun taqdiri buning isbotidir. U Layli ishqida tog‘larda sarson kezib, hayvonlar orasida yashaydi: Sabo zulfin taoyurda saharda solsa sunbulni, bo‘lub Majnun bikin shaydo, parishon hol bo‘lur Layli (264–bet). Yuqoridagi baytda shoir tasvirlagan oshiq Majnunga qiyoslangan, ya‘ni oqil edim, yorsiz devona bo‘ldim, firoq meni Majnun shior etdi, deydi: Ko‘zlaringiz ohuni har dam jigar xun ayladi, Mushk hidliq zulfigiz Laylini Majnun ayladi (275–bet). Mazkur misolda lirik qahramon yori ko‘zini ohu ko‘zidan ham go‘zalroq ekanligini, mushk hidliq zulfi esa Laylini ham Majnun ayladi, deya tasvirlab, mubolag‘a san‘atidan mohirona foydalangan. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Sakkokiy o‘z g‘azallarida Masiho (Iso) Laylini ham Majnun haqidagi diniy afsonalardan foydalanib, oshiq va yor munosabati bayonida juda go‘zal manzaralar yaratgan. Shuningdek u g‘azallarida so‘z o‘yinlari, qochirim, xalqona ibora, ifodalar, maqol, hikmatli so‘zlar va diniy afsonalardan foydalanib, oshiq va yor munosabati bayonida juda go‘zal manzaralar yaratgan. Bular Sakkokiyning o‘zbek adabiyoti uchun qo‘shgan munosib hissasidir. Bashariyat axloqiy tafakkur xazinasiga ulkan hissa qo‘shgan Sakokiy g‘azallarini o‘rganib, ulardan o‘quvchilar ma‘naviyatini shakllantirish va takomillashtirishda unumli foydalanish mumkin.

Adabiyotlar

1. AhmedovT. Alishyer Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni. – T.: Fan, 1970.
2. Крачковский. И.Ю. Ранняя история повести о Меджнуне и Лейле а арабской литературе // Алишер Навои. Сб.статей. АН СССР, – М– Л.: 1946.
3. Alishyer Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 tomlik. 8–jild. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot–matbaa uyi, 2011.
4. Xisrav Nosir. Safarnoma.–T.: O‘zbekiston, 2010.
5. Hayot vasfi. Sakkokiy. G‘azallar, qasida – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1988.

XORAZM VOHASI DEHQONCHILIGIDA FOLKLOR (XIVA XONLIGI DAVRIDA)

Kamolova Nargiza Po'latbayevna
Xorazm Ma'mun akademiyasi
Tayanch doktoranti
Xorazm, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya: Butun Sharq olamida bo'lgani kabi o'rta asrlarda Xiva xonligida ham dehqonchilik bilan bog'liq an'analar va urf – odatlarni amalga oshirishda xalq og'zaki ijodi namunalari aholining kundalik hayotida muhim o'rin tutgan. Dehqonchilikning hech bir turi va davrini an'analarsiz tasavvur qila olmaymiz. Zero, ekin ekilgandan to hosil yig'ib olinguniga qadar ko'plab dehqonchilik marosimlari ado etilganki, ularni ado etishda har birining o'ziga xos afsonaviy qahramonlari, muqaddas sanalgan totemi, predmetlari va marosim qo'shiqlari mavjud bo'lgan. Ushbu maqolada Xiva xonligida mavjud dehqonchilik va suv bilan bog'liq bo'lgan xalq og'zaki ijodi namunalari, afsonalar va ularning Xiva xonligi dehqonchiligidagi ahamiyati bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Axura Mazda, Hayot daraxti, Xubbi, Polvonyop

Аннотация: В средние века, как и во всем остальном Восточном мире, Хивинское ханство играло важную роль в повседневной жизни населения в реализации сельскохозяйственных традиций и обычаев. Мы не можем представить себе любой тип и период земледелия без традиций. Ведь со времени посева до времени сбора урожая было совершено множество земледельческих ритуалов, в каждом из которых были свои легендарные герои, священные тотемы, предметы и обрядовые песни. В этой статье описаны примеры фольклора и легенд, связанных с сельским хозяйством и водными ресурсами в Хивинском ханстве, и их значение в земледелии Хивинского ханства.

Ключевые слова: Ахурамазда, Дерево жизни, Хубби, Палваняб

Abstract: In the Middle Ages, as in the rest of the Eastern world, the Khiva khanate played an important role in the daily life of the population in the implementation of agricultural traditions and customs. We cannot imagine any type and period of agriculture without traditions.

After all, from the time of sowing to the time of harvest, many farming rituals were performed, each of which had its own legendary heroes, sacred totems, objects and ceremonial songs. This article describes the examples of folklore and legends related to agriculture and water in the Khiva Khanate and their importance in the farming of the Khiva Khanate.

Key words: Akhura Mazda, The tree of life, Khubbi, Palvan yap

Xorazm dehqonlari qadimdan yer va suvni muqaddas bilganlar hamda ularga e'tiqod qilganlar. Yangi hududlarga suv chiqarib, yangi ekin maydonlarini obod qilgan shaxslar alohida hurmatga va xalqning ishonchiga sazovor bo'lgan. Albatta dehqonchilik bilan shug'ullanish zardushtiylikda ham muqaddas kasb sanalgan. Avestoda yozilishicha, yerni xuddi ma'shuqani sevgan kabi sevish, yerni hosildor qilish va unga urug' qadab, mo'l hosil beruvchi onaga aylantirish zarurligi uqtiriladi. Zero, bular eng muhim yumush sanalib, xalqning saodati ana shu serhosil yerlarga bog'liq bo'lgan. Avestoda Zardusht bilan Axura Mazdaning suhbatida [1,192 b.] shunday deyiladi, ya'ni Zardusht Axuramazdadan dunyoning eng muhim qonuni nimaligini so'raganida, u yerga eng yaxshi, eng zo'r urug'larni qadash ekanligini aytadi.

Qadimdan tabiat hodisalari hisoblangan yer, yomg'ir, yorug'lik, issiq havo, sovuq havo kabi unsurlar insoniyatning dehqonchilik qilib hayot kechirishi uchun katta imkoniyatlar yaratgan bo'lsa – da, insonlar bu jarayonlarni to'liq anglab yetmadi. Demak, tabiatdagi barcha sodir bo'ladigan o'zgarishlar insonlar uchun sirli, mavhum bo'lib tuyuladi va tabiatga g'ayri tabiiylik nuqtai nazari bilan qarash shakllanadi.

Xorazmliklarda daraxt va o'simliklar juda e'zozlangan. Ular taqinchoqlarni turli daraxt va o'simliklarning rasmlari bilan bezaganlar. Masalan, Xorazmda qo'lga taqiladigan bilaguzuk hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Bu bilaguzuklar arpa doni tasvirlangan rasmlar bilan bezatilgan.

Xorazmda daraxtlar va o'simliklarning ayrim turlari dehqonchilik uchun noxush holatlarga sabab bo'lsa, ayrim turlari ijobiy xususiyatlarga ega deb qarash mavjud bo'lgan. Jumladan, ba'zi bir dehqonlar jiyda, na'matak, piyoz, achchiq garimdori va tamaki ekinlariga nisbatan salbiy munosabat bildirganlar. Masalan, yerga piyoz va tamaki ekilsa, shu ekin yeri nopok hisoblangan va ekan odamga kulfat keltiradi deyilgan. Bu haqda Xorazm viloyatining deyarli barcha hududlarida ana shunday tasavvur borligi aniqlandi.

Yuqoridagi marosimlardan ma'lum bo'ladiki, xorazmliklar har bir hodisa, voqea va narsalarda e'tiqod qilishda me'yor tushunchasiga ega bo'lganlar. Shuning uchun ham ularo'zlari sig'ingan va amal qilgan urf-odatlarining yaxshi hamda yomon tomonlarini batafsil ifodalab bera olganlar. Masalan, jiyda, tut daraxtlari va na'matak o'simligiga ijobiy taraflama qarash bilan birga, salbiy tomonlari ham mavjud bo'lgan. Jiyda, tut daraxtlari va na'matak o'simligi o'zida yovuz kuchlarni saqlovchi hisoblangan va ularning yonida uxlash mumkin bo'lmagan.

Xorazmda ijobiy xususiyatlari bilan ilohiylashtirilgan daraxt va o'simliklarga esa tut, jiyda (yuqorida ularning salbiy jihati haqida to'xtalgandik), anor va poliz ekinlaridan qovun kirgan. Mazkur daraxt va ekin turlariga bo'lgan ijobiy qarash, ularning ser hosilligi bilan bevosita bog'liqdir. Masalan, jiyda va tut daraxtlarining mevali har yili ser hosil bo'ladi. Anor daraxti esa suv mo'l bo'lgan har qanday yerda yaxshi ko'karadi. Xorazmliklarda anor mevasining donalari shirin va mo'lligi sabab, undan dehqonchilik ilohasi Anahita paydo bo'lgan degan fikrlar mavjud. Qovunni tamaki va piyoz ekilgan yerga ekkanlar. Chunki bu ikki ekin turi yerni nopok qilsa, yerni poklash uchun shu dalaga qovun ekilib, yer halollangan. Yerni suv yordamida ham halollash mumkin bo'lgan, ya'ni ag'darish jarayonida yerdan odam suyaklari chiqsa, bu yer harom hisoblangan va besh marta sug'orilib, halollangachgina ekin ekish mumkin bo'lgan. Ba'zi joylarida esa bunday yerlar jo'yak tortib chegaralab qo'yilgan va ikki – uch yil davomida sug'orilmasdan qo'yilgan. [2, 141 b.]

Vohaliklar oy fazalari bilan bog'liq bir qancha dehqonchilik marosimlarini ado etganlar. Jumladan, yangi oy ko'ringanda uning o'rog'i chalqancha yotgan bo'lsa, ob – havo noqulay kelishi, kutilmaganda sovuqlar va yog'ingarchiliklar bo'lishi, agar hilol tikka chiqsa, oy davomida qurg'oqchilik bo'lishini kuzatib borganlar va mazkur holatlar kuzatilgan vaqtlari aholi uylarida is chiqarganlar. Yangi oy bilan eski oy orasidagi oraliq vaqtlarda ham ob – havo o'zgarishi kuzatilib turgan va dehqonchilik mashg'ulotlari shu o'zgarishlarga qarab ham rejalashtirilgan.

Mazkur hudud aholisi orasida daraxtlar bilan bog'liq turli afsonalar shakllangan. Jumladan, tut bilan bog'liq afsona shulardan biri bo'lib, unga ko'ra yerga qadalgan tayoqdan tut daraxti o'sib chiqqan va yil bo'yi hosil bergan. Qaysidir yili qattiq qurg'oqchilik bo'lib, barcha ekinlar qurib qolgan va aholi faqat tut mevalaridan iste'mol qilibgina, ochlikdan qutulib qolgan. Xiva xonligining asosiy oziq – ovqati bo'lgan

non bilan bog‘liq afsonada esa yovuz ruhlar yerga ilk bug‘doy urug‘lari qadalganida terga botib bezovta bo‘lishi, hosil yig‘ilib, xirmon sovurilganida bezovtaligi oshib yo‘tala boshlashi, tozalangan bug‘doyni tegirmondan chiqarilayotgan vaqtda baland ovozda yig‘lashlari va tandirda non qilib yopilganida esa barchasi butunlay g‘oyib bo‘lishi aytiladi. [3, 219 b.] Zero, non xorazmliklar orasida yovuz kuchlarni haydovchi vositalardan biridir.

Xiva xonligida dehqonchilik va suv bilan bog‘liq afsonalar ham mavjud bo‘lgan. Jumladan, dehqonchilikda dunyo yaralishining totemlaridan biri Semurg‘ qushi, Hayot daraxti (barcha urug‘lar daraxti) bilan bog‘liq afsonalardir. Olimlarning fikriga ko‘ra, islom davrida Senmurv o‘rnini asta – sekin Semurg‘ egallaydi va u mevalari g‘arq pishgan daraxtda o‘tirgan holatda tasvirlanadi. Mo‘g‘ullar bosqinidan keyin mahalliy tilda ataladigan Semurg‘ sharq xalqlaridan kirib kelgan daraxtustidagi Feniks qushi (fin – xuan, fin) bilan uyg‘unlashtirilib yuborilgan. [4, 120 b.] Umuman olib qaralganda, musulmon mamlakatlarida rang-barang dumli tovlanuvchi ayol-qush juda nafis uslubda tasvirlangan va u Hayot daraxtining qo‘riqchisi bo‘lgan. O‘rta asrlarga kelib, islom san’atida sfinkslar, ayol – qushlar va Hayot daraxti bir mavzu atrofida birlashgan. Masalan, Xorazm hududiga oid X – XII asrlarda yasalgan Ermitajda saqlanayotgan kumush jomda tasvirlangan ayol– qush qo‘lida uzum novdasi va atrofida chirmashgan novdalar timsolida hayotning qaytadan yangilanishi va hosildorlik timsoli sifatida ifodalanadi. [5, 133 b.]

Xonlik aholisi orasida suv muqaddas deb tushunilgan. [6, 62 b., 58b.,27b.] Shuning uchun xalq orasida u bilan bog‘liq turli afsonalar ham paydo bo‘lgan. Ana shunday afsonalardan biri Amudaryo xaloskori Xubbi haqidagisidir. Unga ko‘ra, juda qadim zamonlarda Amudaryoda Xubbi ismli yigit yashagan. U bir qo‘li bilan baliq ovlab, ikkinchi qo‘li bilan quyoshga tutib tursa, bir zumda baliq pishar ekan. Xubbi shu zaylda baliq ovlab, Amudaryo suvlarini qo‘riqlab, daryoda yetti yuz yil yashagan, shu yetti yuz yil davr mobaynida Amudaryoga hech bir yovuz ruh, hattoki chivin ham yaqin yo‘lamagan. Xubbi insonlarga qayiq yasash, daryoda suzib baliq ovlashni o‘rgatadi. Xalq undan bu ishlari uchun mamnun bo‘lib, faravonlikda yashagan, lekin Jamshid zamoniga kelib, Xubbi to‘satdan g‘oyib bo‘lgan. Odamlar Xubbini suv ilohi o‘g‘irlab ketgan deb, uni qaytarish uchun turli marosimlar o‘tkazganlar, daryo suvlari ilohlari uchun hayvonlarni qurbonlik qilganlar. Xubbining onasi Anbarona qayiq yasab, ana shu qayiqda yillar davomida daryodan

o'g'lini izlagan va u ham daryoda g'oyib bo'lgan. Xubbining hasratida shunchalik ko'p yig'laganidan, hattoki Amudaryo suvlari qirg'oqlardan toshib ketgan. Daryo qirg'oqlarida yashovchi aholi hanuzgacha o'g'lining hasratida yum-yum yig'lagan Anbaronaning ovozi quloqlarga chalinib turishini aytadilar. Shunday paytlari is chiqarilib, qurbonliklar qilish odati mavjud.

Xonlik hududidagi sug'orish shohobchalari bilan bog'liq afsonalar ham yaratilgan. Jumladan, Polvon – yopning qazilishi bilan bog'liq afsonada, xonlikdagi qishloqlardan biriga suv chiqarish uchun Polvon ismli bir kekxa odam daryodan o'z hassasi bilan chiziq tortib kelgan. Hassa qoldirgan izdan shildirab suv oqa boshlagan. Qishloq aholisi hassa izidan oqib kelayotgan suvning kamligidan norozi bo'lishadi va kengroq yop kerakligini aytishadi. Polvon ota esa ularga shu jilg'a kun kelib, katta ariqqa aylanishini va suvi ko'pligidan qishloqlardan biri zaxlab ketishi aytilgani yozilgan. Manbalarda yozilishicha, keyinchalik Polvon – yop oqib o'tuvchi qishloqlardan birining yerlari zax tortib ketgan. [7, 135 b.] Suv inshootlari, sug'orish tizimi va dehqonchilik homiylari bilan bog'liq yana bir afsonani keltiramiz. Bu afsona Xivaxonligining eng yirik kanallaridan biri G'ozibod kanali bilan bog'liq afsonadir. Unga ko'ra, daryo irmoqlarining birida suv ruhlari (aranglar) katta toshqin hosil qilganlar. Shu yaqin atrofdagi qishloqlardan birida yashovchi kuchli duo o'qish qobiliyatiga ega shaxs bu yovuz ruhlar bilan kurashish uchun suvga tushadi. Birozdan so'ng suv yuzida uning jonsiz tanasi oqib borayotganini ko'rishgan aholi bu suv yo'lig ag'oziy, ya'ni muqaddas urush qatnashchisi nomini berganlar.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, Xiva xonligi davrida e'tiqod masalalari, ularning xo'jalik madaniy turmush – tarzida ko'proq aks etgan. Islom e'tiqodidan ko'ra, sinkretik dinlarga ko'proq amal qilingan. Bu esa ularga xo'jalik hayotini yuritishda ko'proq ruhlantirgan, motivatsiya bergan.

Adabiyotlar:

- 1.Snesarev G. Xorazmliklarning musulmonlikdan avvalgi marosimlari va urf – odatlari. – Urganch: 2018. – B. 192.
2. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. 2007. – B. 141.
- 3.Snesarev G. Xorazmliklarning musulmonlikdan avvalgi marosimlari va urf – odatlari. – Urganch: 2018. – B. 219.

4. Karomatov N. O‘zbekistonda moziy e’tiqodlali tarixi. –Toshkent: 2008. – B. 120.

5. Karomatov N. O‘zbekistonda moziy e’tiqodlali tarixi. – Toshkent: 2008. – B. 133.

6. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. 2007. – B. 2007. – B. 62.; Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. – Toshkent: 1986. – B. 58; Watson P. Total body water volumes for adult males and females estimated from simple anthropometric measurements // The American Journal for Clinical Nutrition. – 1980. – Vol. 33. – № 1. – P. 27.

7. Xudaybyerganov K. Xiva dunyodagi eng ko‘hna qal’a. – Toshkent: 2012. – B. 135.

PIRIMQUL QODIROVNING “BOTIRLAR VA BAXILLAR” QISSASIDA XALQ OG‘ZAKI IJODIYOTINING O‘RNI

*Karimova Yulduz Akulovna
Jizzax Davlat Pedagogika Instituti
filologiya fanlari nomzodi, dosent
Jizzax, O‘zbekiston Respublikasi*

Annotasiya: Ushbu maqolada yozuvchi Pirimqul Qodirovning xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lmish “Uch og‘a-ini botirlar” ertagi ta’sirida yozilgan, xalq ijodining afsonaviy dunyosidan oziqlangan “Botirlar va baxillar” qissasi badiiyati qiyosiy o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: xalq ijodiyoti, qissa ma’naviyati, adabiy ta’sir, syujet, folklor elementi.

Аннотация: В статье были сравнены художество повести П.Кадырова «Ботирлар ва Бахиллар», которые припитовались мифологическим мировоззрением творчества народа и считавшиеся примером устного народного творчество, сказки «Уч оға-ини ботирлар».

Ключевые слова: народное творчество, мастерство повести, литературное влияние, сюжет, элементы фольклора.

Annotation: The article is a comparative study of the art of the story “Botirlar va bakhillar”, written by the writer Pirimkul Kadyrov

under the influence of the fairy tale “Uch oga-ini botirlar”, a masterpiece of folklore nurtured by the legendary world of folk art.

Keywords: folk art, storytelling, influence of literary, plot, folklore element.

Adabiyotshunos olimlarimiz jahon adabiyotining Shekspir, Servantes, Gyote kabi buyuk ijodkorlarning asarlarini “folklor zaminida yaratilgan muhtasham imoratlarga” (H.Olimjon) tenglaydilar, A.S.Pushkini jodiy faoliyatining butun bir bosqichini folklor davri deya e’tirof etishadi.

Akademik shoirimiz G’afur G’ulom o’zining “Folklordan o’rganaylik” maqolasida Alisher Navoiy ijodida folklorning o’rni haqida fikr yurita turib: “U o’z syujetlarini xalqdan olgani kabi, ikkinchi navbatda xalq uchun syujet beradi”, – deb aytgan edi.[1:75] Binobarin, Pirimqul Qodirovning “Botirlar va baxillar” afsona - qissasining syujeti ham xalqdan olingan.

Sevimli adibimiz Pirimqul Qodirov ham o’z insoniy va ijodiy kamoloti yo’lida onasidan tinglagan xalq og’zaki ijodi namunalarining beqiyos ahamiyatini shunday e’tirof etadi: “Bolalikda onamizdan o’rgangan so’zlarimiz, duolarimiz, qo’shiq va ertaklarimiz umrbod yodimizdan chiqmaydi. Rahmatli onam O’g’iloy Husan qizi aytgan ertaklarda dahshatli devlar, yalmog’izlar bilan olishib g’olib chiqadigan botirlar bizni ham jasur bo’lishga undar edi”. [2:123]

“Botirlar va baxillar” afsona-qissasining asosiy folklor manbai «Uch og’a-ini botirlar» ertagi hisoblanadi.

Adolatli hukmdor, xalq farovonligi, yurt obodligi, tinchlik, inson-insonga do’st, birodar tamoyili asosida yashash, o’zaro ahillik va totuvlik, mehnat kishisining qadr-qimmatini haqidagi orzu-istaklari afsona-qissaning g’oyaviy mazmunini tashkil qiladi.

Afsona-qissada folklorga xos kolliziya – ikki bir-biriga qarama-qarshi qutb ezgulik tarafdorlari Cho’pon ota, uning o’g’illari uch og’a-ini botirlar, yovuzlik, johillik tarafdorlari Kamolxon podsho, vaziri a’zam Zuhurbek va shahzoda Abusaidlar bilan bo’lgan to’qnashuv va janglarda ochib beriladi.

“Botirlar va baxillar” qissasida ijtimoiy ideallar ruhidagi ramziylikka kuchli mayl seziladi. Afsona - qissada ramziylik syujetni ma’lum ma’noda to’ldiribgina qolmay, asar g’oyasining umumiy salmog’ini oshirishga ham xizmat qiladi.

Afsona-qissada ijtimoiy-maishiy ma’no kasb etgan konflikt yechimida, adolat va haqiqat tantanasida, botirlarning zafariyatida,

baxillarning magʻlubiyatida botirlarning padari buzrukvori Choʻpon ota obrazi hal qiluvchi rol oʻynaydi. Afsona-qissada Choʻpon ota xonning johil siyosatiga qarshi bosh koʻtargan xalq qahramoniga aylanadi, mazlum xalqning dardu-tashvishlariga sherik yurt otasi darajasiga koʻtariladi. Kitobxon Choʻpon ota timsolida stalinizm siyosatidan azob chekkan butun bir oʻzbek xalqining, oʻzbek millatining timsolini berishga harakat qilgan.

Afsona-qissada Choʻpon otaning kasb-kori bilan bogʻliq avtobiografik xarakterdagi lavhalar mavjud. Ushbu fikrimizni yozuvchining nozik bir ishorasi ham tasdiqlaydi deb oʻylaymiz: “Yoshlar uchun yozilgan barcha qissa va hikoyalarni toʻplab, 1994 yilda “Choʻlpon” nashriyotida “Botirlar va baxillar” degan nom bilan chop etdik. Bu kitob maktab oʻquvchilari uchun ushbu tarjimai holga ilova (taʼkid bizniki – Yu.K.) boʻlib xizmat qilishi mumkin”. [2:110]

Yoshlik yillarida oʻzini zamonaning oʻgay farzandiday oʻksik sezgan yozuvchi “boyning farzandi”, “ijtimoiy kelib chiqishi xavfli” kabi yorliqlar bilan bot-bot aziyat chekkani bizga maʼlum.

Adib shunday yozadi: “Rahmatlik otam Qodir Yoʻldosh oʻgʻli togʻlarda qoʻy boqib oʻz mehnati bilan, choʻponlik mahorati bilan oʻnta qoʻyni mingtaga yetkazgan, bugungi ibora bilan aytganda, badavlat fermer boʻlgan. Shoʻro tuzumi shu boylik tufayli otamga qoʻshib bizni ham tugʻilgan qishlogʻimiz Kengqoʻldan qahraton qish kuni badargʻa qilgan”. [2:107]

Ayozli qish kunlarida 4 yosh bola bilan 24 soat ichida majburan koʻchirish natijasida yozuvchining 6 oylik goʻdak ukachasi shamollab vafot etadi. Jigargoʻshasining jonsiz vujudchasini bagʻriga bosib kuyib-yonib yigʻlayotgan onasining gʻamzada qiyofasi yozuvchi xotirasining eng ogʻriqli nuqtasi boʻlib qoladi. Koshki “baxillar” shu bilan tinchigan boʻlsalar. Xovosning Iskandar qishlogʻidan qoʻnim topib, sal ahvollari oʻnglanganda, yakkaxoʻjalik soligʻini toʻlamagansanlar deb sigir, qoʻy, echki, uy-roʻzgʻor buyumlari hammasini shoʻro hukumati nomidan musodara qilishadi.

Yozuvchi voqeani shunday xotirlaydi: “Kech kuz edi, tun sovuq. Men otamning barra poʻstinini yopinib yotgan edim. Tintuv qilayotganlardan biri poʻstinni tortib olmoqchi boʻldi. Onam, menga: “Berma! Havo sovuq! Qish kelayapti!” dedi. Lekin shafqatsiz tintuvchi “jiring bor, boyvuchcha, sovuqda oʻlmaysan!” dedi-yu, poʻstinni ham tortib olib ketdi. Mis koʻzachalar, yogʻoch korsonlar, rangdor kigizlar, patgilamlar, onamning boʻgʻchalari – hammasi aravaga ortildi”. [2:107]

Yozuvchi oila boshidan kechgan bu zoʻrlik va zulmlarni “Botirlar va baxillar”da shunday tasvirlaydi:

Bostirmalarda bezovta qilingan otlar kishnashib, sigirlar moʻrashib, xonalarda xotin-xalajalar dod solib, qiy-chuv, toʻpolon koʻtarildi.

-Voy noinsoflar, kelinlarga atab yiqqan taqinchoqlarni nega olasanlar?!

-Podsholikka oʻtadi hammasi!

-Podsholaring shu bozbandga zor boʻlib qoldimi, a?! Shu gilamchani ham qoʻymaysanlarmi, nazari pastlar?!” [20-bet].

Real hayotda Qodir Yoʻldosh oʻgʻli bilan Oʻgʻiloy Husan qizining musodara qilingan mol-mulklari noqonuniy tarzda qishloq doʻkonida sotilib, puli moliya boʻlimi soliqchilarining choʻntagiga tushadi, egalariga oʻndan biri ham qaytarilmaydi. Afsona-qissada esa vaqtinchalik boʻlsada haqiqat qaror topadi. Butun saltanatga Qirondev tahlika solib turganda, najotni faqat uch ogʻa-ini botirlarda koʻrgan Kamolxon podsho botirlarning ota-onalaridan kechirim soʻrab, musodara qilingan mol-mulkni qaytarib beradi.

Shu oʻrinda achchiq real hayot bilan badiiy asardagi voqelik toʻqnashadi. Yozuvchi oʻsha kechgan voqea-hodisalarni afsona-qissa sahifalariga koʻchirar ekan, ularni bir muncha “bezaydi”. Bu bir taʻrafidan, aniq syujet talabi bilan boʻlgan boʻlsa, ikkinchi tarafdin xalq ogʻzaki ijodi bilan yoʻgʻrilgan asar oʻta shafqatsizlikni uncha hazm qilolmasligi bilan izohlanadi. Adolat tantanasi – xalq badiiy tafakkurining yetakchi belgisi ekanligi avvaldan maʼlum.

“Botirlar va baxillar” afsona-qissasining asosiy maqsad-gʻoyasi, yozuvchining oʻzi taʻkidlaganidek, “xalqning botirlarini koʻra olmagan, ularni yoʻq qilishga harakat qilgan yomon hukmdorlarning baxilligini fosh etish” (2004 yil, 12 yanvarda yozuvchi bilan boʻlgan suhbat).

Afsona-qissada imo-ishora, ramz, har bir jumla, ibora, soʻzga iloji boricha koʻproq maʼno joylash xususiyatini koʻramiz. Shuning uchun ham asar qatiga yashiringan tagmaʼno birdan koʻzga tashlanavermaydi, uni kitobxon oʻz fahmi va didi bilan anglab olmogʻi lozim. Masalan, qissada Qirondev obrazi juda yaxshi topilgan majoz. Ertakda bu obraz yoʻq. Qissaning koʻlamdorligini ham shu obraz tayin etadi. Voqealarning keskin tus olishi, botirlar bilan podshoning ochiqdan-ochiq yovlashib qolishiga ham Qirondev ustidan qozonilgan gʻalaba kimga tegishli ekanligini xalq tomonidan haqqoniy baholanishi edi.

Qirondevning Kamolxon saltanatining algʻov-dalgʻov qilishi, navkarlarini qirib, qoʻshinida parokandalikni vujudga keltirishini

tasvirlashda serma'nolilik mavjud. Yozuvchi bu yerda bir voqeani tasvirlay turib, butunlay boshqa bir maqsadni ko'zlayapti, ya'ni kitobxonni boshqa bir haqiqatdan ogoh etayapti.

Asarda botirlar tarafdorlarining saltanatga qarshi bosh ko'tarishlari mumkinligidan jazavaga tushayotgan Kamolxon podsho xufyalar amiriga shunday buyruq beradi:

“– Hammasini tutib zindonga tashlang! Avom xalq ichida yuradigan xufyalarni ko'paytiring! Mudarrisu mavlonolar nima demoqdalar? (ta'kid bizniki – Yu.K.) Ulardan xabardor bo'ling! Bizga qarshi aytilgan bironta so'z jazosiz qolmasin!” [2:58].

“Mudarrisu mavlonolarga” – jamiyatning guli bo'lmish ziyolilarga, millatning barkamol insonlariga: davlat, jamoat, din, fan, madaniyat arboblari, harbiy sarkarda, buyuk olim, hatto oddiy qishloq o'qituvchisiga nisbatan ham “xalqlar otasi”ning qahru-g'azabi chegara bilmasdi. Botirlarning kuchini sinash, jismoniy kuchlar musobaqasi ertakda ham, afsona-qissada ham yetakchi motiv hisoblanadiki, bejizga og'a-inilardagi bu fazilat har ikki asarning sarlavhasiga chiqmagan, ya'ni “Uch og'a-ini botirlar” – “Botirlar va baxillar”.

Ertakda botirlar sher, ajdar va o'g'rilar to'dasini yengadilar. Bu g'alaba botirlarga o'z kuchlari va qobiliyatlariga ishonch uyg'otadi. Ular podshoning nazariga tushadilar. Podsho botirlarning aql-zakovatiga, jasoratiga qoyil qolib, o'ziga kuyov qiladi. Ertakda ezgulikning hosili afsona-qissaga nisbatan tor doirada, ya'ni botirlarning o'z manfaatlari doirasida qoladi.

Afsona-qissada esa yozuvchi arslon, ajdar, Qirondev kabi afsonaviy personajlar dahshatini, insonlarning boshiga soladigan kulfatlarini bo'rttirib ko'rsatadi, ularni yorug'lik va ezgulik kushandasi, qonxo'rlik va yovuzlik timsoli sifatida faqat botirlarga emas, butun xalqqa qarshi qo'yadi. Afsonaviy maxluqlar o'zlariga qarshi chiqqan qanchadan-qancha yigitlarning umriga zomin bo'ladilar, shahar va qishloqlarni vayron qiladilar, ariqlardagi suvlarni quritadilar, eng dahshatlisi ular oqila, go'zal qizlarni o'zlariga qurbonlikka talab qiladilar. Yozuvchi bu yerda botirlarning qudratini ideallashtirish maqsadida ularning g'alabasi nechog'lik zarur va ahamiyatli ekanligini ko'rsatish uchun ham ertakdan farqli o'laroq sher, ajdar va Qirondevning yovuzliklarini mubolag'alashtiradi.

Akademik shoirimiz G'afur G'ulom o'zining “Folklordan o'rganaylik” maqolasida deydi: “Og'zaki adabiyotni yangi syujetlar bilan boyitishda, o'sha syujetni ifoda qilar ekan, har bir satrgacha

bizning dunyoqarashimiz bilan sugʻorilganligini taʼmin qilishda yozma adabiyot kadrlarimiz folklorchilarga yordamda boʻlishlari kerak. Yaʼni adabiyotimizning yetakchilik roli yozma adabiyotda boʻlsin. Biz oʻz folklorimizni oʻrganishimiz, uni oʻstirishimiz kerak”. [1:80]

Agar muhtaram shoirimizning ushbu fikrlaridan kelib chiqadigan boʻlsak, adibimiz Pirmqul Qodirov “Botirlar va baxillar” qissasida faqat “Uch ogʻa-ini botirlar” ertagining voqealar silsilasiga bogʻlanib qolmay, ijodiy niyati, qissa konsepsiyasidan kelib chiqib oʻz badiiy fantaziyasiga suyanganini koʻramiz. Natijada yozuvchi dunyoqarashini oʻzida aks ettiradigan yangi toʻqima voqealar, toʻqima obrazlar yaratadi. Ertak syujeti yozuvchining badiiy niyatiga koʻra koʻproq ramziy obrazlar, imo-ishoralar, ichki va tashqi maʼno oqimlari hisobiga boyiydi.

Afsona-qissadagi Kamolxon podsho shahzoda Abusaid, vazir Zuhurbeklar qora niyatli insonlar. Ertakda Kenja botir podsho oldida oʻzining niyati xolisligini isbot etadi. Podsho botirlardan kechirim soʻraydi. Botirlar biz saroy odamlari emasmiz, erkin yashab oʻrganganmiz deb malikalarni olib, oʻz yurtlariga, otalari bagʻriga qaytadilar. Ertak konflikti shunday yechim topadi.

Afsona-qissada esa podsho va saroy aʼyonlari bilan botirlar oʻrtasidagi ziddiyat oʻsib, keskinlashib, podshoning zoʻrlik va zoʻravonlik, xunrezlik siyosatiga qarshi xalq isyoniga aylanib ketadi, voqealar, qissa konflikti ijtimoiy - siyosiy tus oladi. Asarda Kamolxon podsho tomonidan muhim bir fikr aytiladiki, bu afsona-qissaning stalincha mustabid tuzum bilan bogʻliqligi naqadar uzviy ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Mana oʻsha fikr: “Men odamlarni faqat tashqidan emas, ichidan ham bilishim kerak. Tashqi dunyoga podsho boʻlishim yetarli emas. Men odamlarni ichki dunyosiga ham hokim boʻlishni istayman” [1:112]. Bu fikr sovet totalitarizmining azaliy orzusi edi. Lekin adolat gʻalaba qozondi, toju taxtga zulukdek yopishib olgan Kamolxon podsho oxir-oqibat taxtning tagida qolib, koʻr boʻlib qoladi.

Butun asar davomida faqat ezgulikka xizmat qilgan, eng yaxshi insoniy fazilatlarni oʻzida mujassam etgan, oʻgʻillariga ham yaxshi ota, ham olijanob inson sifatida oʻrnak boʻla olgan Choʻpon ota kitobxonning cheksiz mehrini qozonadi.

Choʻpon otaning tabiatidagi halimlilik uni qoʻrqoqlikka, mutellikka, koʻr-koʻrona itoatga yetaklamaydi, buning isbotini vazir Zuhurbek bilan boʻlgan quyidagi suhbatdan ham koʻrish mumkin:

“Yoʻlda borayotganlarida vazir Zuhurbek Choʻpon otaga soʻz oʻrgata boshladi: Namozdan keyin masjid hovlisida men xaloyiqni

to‘xtataman. Siz ayting: “Kamolxon hazratlari g‘alabaniy rahnamosi bo‘ldilar!”, deng. O‘g‘illaringiz unga sodiq xizmat qilishini e‘lon qiling! “Podshomiz o‘z taxtida yana yuz yil tursin!”, deb duo ayting.

Cho‘pon ota bu gaplarni yoqtirmay:

- Janob vazir, bo‘ynidan bog‘lagan tozi ovga yaramaydi, - dedi. – Bizni o‘z holimizga qo‘ysangiz yaxshi bo‘lar edi. Dilimizda borini o‘zimiz aytamiz» [1:62].

Baxillarga qarshi kurashda Cho‘pon ota halok bo‘ladi. Lekin xalq “qo‘g‘irchoq” podsho Kamolxondan, badkirdor Zuhurbek, shahzoda Abusaidlardan qutuladi. Haqiqat qaror topadi. Adolat g‘alaba qozonadi. G‘alaba esa qurbonlar evaziga, Cho‘pon ota kabi fidoyi insonlarning qimmatli umri hisobiga keladi.

Pirimqul Qodirov yomonlik dunyosiga qarshi qat‘iylik bilan kurash olib borgan, barcha azob-uqubatlarga bardosh berib g‘alaba qozongan botirlar qissasini yaratdi. Botirlar yengilmas qahramonlardir. Chunki ular xalq irodasi va qudratining timsoli. Xalq irodasi va qudratini yengish, bo‘ysundirish hech qachon mumkin emas, chunki qissa oxirida keksa otaxon ta‘kidlaganidek, “najot-xalqning o‘zida, najot ham, baxt ham – xalqning shu uch og‘ayniday mard, asl farzandlari borligida” [2:124].

Bu bilan muallif o‘zining asardagi ma‘naviy-axloqiy idealini tayin etadi: “Najot – xalqning o‘zida”. Zotan xalq ezgulikning bitmas-tuganmas manbai. Xalq bor ekan, uning ma‘naviy-axloqiy qiyofasi pok va go‘zal bo‘lar ekan, hech qachon yomonlar – baxillarning oshig‘i olchi bo‘lmaydi. Vaqti-soati kelib, ezgu kuchlar – xalqning botirlari ularning tanobini tortib qo‘yadi. Alaloqibat ezgulik g‘olib chiqadi. Afsona-qissaning ma‘naviy-axloqiy pafosi shu.

Binobarin, xalq og‘zaki ijodida asrlar davomida sinovdan o‘tib, qat‘iy ma‘naviy talab darajasiga yetgan xalq donishmandligi sodda, ayni paytda teran obrazlar, turli-tuman ramz va ishoralarda o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. Zero, folklorshunos olimlar yozishicha, fol‘klor “bilimning spesifik sohasi, xalq donishmandligining namoyishidir”. [3:44]

Aytilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirib quyidagi xulosalarga keldik:

1. Yozuvchi ijodida folklorga xos syujet va ifoda yo‘sini bejiz paydo bo‘lmaydi. Bu narsa ijodkorni bezovta qilgan hayotiy voqealar ta‘sirida ro‘y beradi, ya‘ni afsona-qissa real hayotdan ozuqa oladi.

2. “Botirlar va baxillar” genetik jihatdan o‘zbek xalq ertagi “Uch og‘a-ini botirlar”ga borib taqaladi. Lekin yozma adabiyot namunasi bo‘lganligi tufayli, u qator o‘ziga xos jihatlarga ega. Afsona-qissa xalq o‘tmishining afsonaviy dunyosi bilan adib o‘tmishining voqe dunyosi sintezidan paydo bo‘lgan asardir.

3. Afsona-qissada yozuvchi olg‘a surgan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar xalq ijodining ma’naviy qudratidan kuch-quvvat oladi, uning o‘ziga xos sinovidan o‘tadi. Bu asarning etik va badiiy-estetik qimmatini belgilaydi.

Adabiyotlar:

1. G‘afur G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami. 11-tom. - Toshkent, 1989.
2. Pirimqul Qodirov. Qalb ko‘zlari. -Toshkent: Ma’naviyat, 2001.
3. Прангишвили А.С. Фольклор и психология / Проблемы фольклора. – М.: Наука, 1975.

MUHAMMAD YUSUF SHE’RIYATIGA FOLKLORNING TA’SIRI

Mahmudova Sevara Irisalievna
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
Filologiya fanlari nomzodi, dosent
Toshaliev Sarvara Irisalievna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
o‘qituvchi
Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi

Annotasiya: Mazkur maqolada adabiyotda mifologik obrazlar, xususan Muhammad Yusuf ijodidagi milliy, diniy qadriyatlarni, shuningdek, folklorga xos obrazlarni, shoirning folklordan ta’sirlanishi, erishgan yutuqlari sirlarini ilmiy-nazariy aspektda tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: folklor, mifologik obraz, mifologik model, Pari obrazi, xalqona uslub.

Аннотация: В данной научной статье рассматриваются теоретические аспекты мифологических образов, национальных, религиозных ценностей в литературном творчестве Мухаммада Юсуфа. Нужно отметить, что огромное влияние на становления

творческого потенциала поэта оказали национальный фольклор и национальные фольклорные образы.

Ключевые слова: фольклор, мифологический образ, мифологическая модель, образ Пери, народный стиль.

Abstract: This scientific article discusses the theoretical aspects of mythological images, national, religious values in the literary work of Muhammad Yusuf. It should be noted that national folklore and national folklore images had a huge impact on the formation of the poet's creative potential.

Key words: folklore, mythological image, mythological model, Peri image, folk style.

Badiiy adabiyotda xalqning ijtimoiy hayoti, ma'naviy-axloqiy, ma'rifiy turmushini tasvirlashda, uning yanada taraqqiy topishida, xalqchilligining ta'minlanishida folklorning o'rni beqiyosdir.

Jahon adabiyoti namoyandalari folklor asarlaridan bahra olib, ulardagi yuksak umuminsoniy g'oyalardan ta'sirlanib, badiiy barkamol asarlar yaratishgan. Har bir shoir xalq og'zaki ijodining rang-barang janrlariga murojaat qilib, badiiy obraz va xarakter yaratishga harakat qiladi. Shu bois, biror-bir shoir yoki yozuvchi ijodi o'rganilganda, folklorga xos uslub, syujet, obraz va tasviriy vositalar yaqqol ko'zga tashlanadi. Muayyan shoir lirikasi misolida folklor an'analari muammosini tadqiq etish – o'sha davr adabiy jarayonini, muallifning individual uslubi va mahoratini oydinlashtirishga imkon beradi. Qolaversa, har bir shoir yoki yozuvchi xalq og'zaki ijodi namunalari yangicha talqin qilib, o'ziga xos badiiy-estetik dunyosini shakllantiradi.

Milliy adabiyotning qudratli tarbiyaviy ta'siriga alohida to'xtalib: "Biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat xazinasini bo'lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz", [1,530] – deb yozadi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev. Darhaqiqat, adabiyot hamma zamonlarda xalq ma'naviyati uchun bebaho xazina bo'lib kelgan. O'zbek she'riyatining taniqli namoyandasi Muhammad Yusuf ijodidagi milliy, diniy qadriyatlarni, shuningdek, folklorga xos obrazlarni tadqiq etar ekanmiz, shoirning folklordan ta'sirlanishi, erishgan yutuqlari sirlarini ilmiy-nazariy aspektda tadqiq etish bugungi adabiyotshunosligimiz uchun muhim masala ekanligini anglab yetamiz. Zero, "folklor an'analari va elementlarini san'atkor o'z ijodiy

laboratoriyasida qay darajada ishlab, xalq uchun ahamiyatli, xalqchil asarlar yaratib, kishilarning ezgu insoniy tuyg'ular bilan tarbiyalashga hissa qo'shishini ko'rsatib berish – adabiyot va folklor aloqalarini o'rganishning asosini tashkil etadi"[2, 8].

Istiqlol sharofati bilan xalq og'zaki ijodi, diniy, milliy qadriyatlarimizga munosabat tubdan o'zgarganligi, e'tibor oshganligi hisobga olinsa, hozirgi o'zbek she'riyatida xalqchilik, milliylik va xalqona uslubni yuzaga keltirgan asosiy sabablar folklorga borib bog'lanishi oydinlashadi.

Xalq og'zaki ijodining doston, ertak, afsona, rivoyat va xalq qo'shiqlari kabi janrlarida mifologik obrazlar muhim o'rin tutadi. Mifologik obrazlar qadimda insoniyatning tashqi olamga, borliqqa nisbatan ikki xil qarashlari natijasi va tasavvurlari zahirida vujudga kelgan. Xalqning pari, ajdar, dev, yalmog'iz singari mifologik, shuningdek, mifologik zamin asosida vujudga kelgan o'rdak, qaldirg'och, turna, qarg'a, g'oz singari obrazlari dastlab og'zaki ijod janrlari – doston, ertak, qo'shiq, maqol va matallarda zuhur topgan bo'lsa-da, bu rang-barang obrazlar yozma adabiyotda ijodkorlar tomonidan muayyan g'oyaviy-badiiy maqsadni ifodalash yoki inson xarakteri, turmush va hayot tarzini tasvirlashda keng qo'llaniladi.

Tadqiqotchi S. Hamdamova: "Mif – olamni ongsiz idrok etish natijasida yaratilgan qadimgi tasavvurlarning izchil tizimga solingan ko'rinishidir"[3, 18] degan noto'g'ri xulosaga keladi.

Zero, adabiyotshunos A.Musaqulov aytganidek: "Ko'pgina kishilar bir necha asrlardan buyon miflar insonning tabiat qarshisidagi ojizligi tufayli yaratilgan, degan hukmga moyil bo'lib kelmoqdalar. Bizningcha, miflar va ularning ta'siri shuning uchun ham yashab kelmoqdaki, ular insonning ojizligi emas, balki tafakkuri, o'z faoliyati qudratiga, pirovardida ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishiga ishonchining ifodasidir"[4, 4].

Darhaqiqat, insoniyat XXI asrda taraqqiy etgan texnika, shiddatli va sershovqin muhitda yashar ekan, qadim madaniyat va adabiyotdan qancha uzoqlashmasin, baribir inson ruhi, qalbi qadimiy mif, afsona va rivoyatlarni shuncha qo'msaydi. Bu hol insonning ulg'aygan sari bolaligini sog'inishiga o'xshaydi.

Qizig'i shundaki, XX asrning absurd va modernistik oqimida ijod qilib dong taratgan mashhur shoir va yozuvchilari bevosita o'sha qadim mifologik model, mifologik obrazlardan foydalanib yozgan asarlari bilan dunyoga tanildilar. Xususan, A.Kamyu, F.Kafka singari yozuvchilar,

bugungi kunda mashhur bo'lib qolgan Paulo Koel'o asarlari ham bevosita mifologik model, qadimiy tasavvur va qarashlar asosida yaratilgani bilan xarakterlanadi.

Har bir mifologik obrazning eng muhim belgi va xususiyatlari mavjud. Shuningdek, har bir mifologik obraz xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotda o'z genezisi va tadrijiga ega. Pari, Dev, Ajdar, Yalmog'iz yoki O'rdak, G'oz, Turna, Qarg'a singari obrazlar turli janrlarda keng va atroflicha ishlangan.

Mifologik obraz hisoblangan pari obrazi nafaqat xalq og'zaki ijodida, balki yozma adabiyotda ham qadim davrlardan beri keng qo'llanib kelinadi. Adabiyotshunos K.Imomov bu obraz haqida shunday yozadi: "Pari obrazi olov stixiyasining timsoli, otashkadalarda olov bilan shug'ullanib shuhrat topgan ayollar ruhining timsollaridir. Qadimiy animik tasavvurda yuzaga kelgan pari va parizod obrazlari mif zamirida paydo bo'lgan... U go'zallik ramzi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Olov pari g'oyat go'zal, nafis, marhamatli, husunkor qiz qiyofasida tasvirlangan. Uning pari atalishi olovdan chiqib, otashga singib ketishida amal qiladi"[5, 57]. Pari nafaqat, o'zbek xalqi orasida, balki qardosh xalqlar, qolaversa, yevropaliklar orasida ham ma'lum va mashhur obraz sanaladi. T.R.Xo'jaev nomzodlik ishida mumtoz shoirlar ijodida pari obrazini tadqiq etar ekan, bu obraz haqida quyidagicha fikr yuritadi: "Pari xalq og'zaki ijodida, uning doston, ertak, qo'shiq kabi janrlarida asosiy obrazlardan biri hisoblanadi. Ammo pari obrazi uchun yetakchi belgi, "pari" so'zi tilga olinganda xayolimizda zuhur bo'ladigan ilk tasavvur husn bilan, beqiyos go'zallik bilan bog'liq. Demak, pari uchun bosh sifat unga tegishli dastlabki yorliq bu noyob go'zallik, tengsiz latofat. Pari inson tasavvurining eng nozik, g'oyat mo'jaz nuqtalarining mahsulidir. U xalq idealidagi go'zallik olami, tashqi qiyofaning mukammallik timsoli. Pari ko'zga juda kam ko'rinadigan, namoyon bo'lganda esa, o'zining husn va latofati bilan insonni aqlu hushidan mosuvo etuvchi sohira"[6,37]. Ammo mifologiyada pari – diniy timsol. U og'ir paytlarda insonga yordam beradi, yoki balolar yog'diradi. Ularning shaffof, nafis va go'zalligi esa yozma adabiyotda ramziy ma'noda go'zallik timsolidir. Shu ma'noda "pari" nomi tilga olinishi bilan T.Xo'jaev ta'kidlaganidek, tengsiz go'zallik timsoli ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Bu obrazning xususiyatlarini mukammal tasavvur etish uchun "tengsiz" so'zini uch xil talqin qilish mumkin. Birinchisi, haqiqatan ko'plab folklorshunos, adabiyotshunoslar qayd etganlaridek, "pari" obrazi, avvalo, husnda tengsiz, tashqi go'zal qiyofa

timsoli bo'lsa, ikkinchidan, dunyoning barcha sir-sinoatlarini o'zlashtirgan bilimdon, olamdagi barcha xoh dunyoviy bo'lsin, xoh g'ayb ilmini egallagan obraz hisoblanadi. Uchinchidan, pari oddiy insonlardan (chunki pari inson qiyofasida tasavvur qilinadi) farqli ravishda sehr-jodulovchi xarakterga egaligi bilan xalq og'zaki ijodida, qolaversa, yozma adabiyotda alohida ajralib turadi. Demak, o'z-o'zidan parining ikki xil qiyofasi yaqqol ko'zga tashlanadi: birida botirlarga rahnamo bo'lsa, birida rashkchi raqib, gohida bolalarni o'g'irlab insonga azob beradi. Xususan, folklorshunos olimlar aniqlagan "Pari obrazi, bir tomondan yovuz kuch, xiyonatkor, jodugarlikka ega bo'lgan salbiy personaj, ikkinchi tomondan, donishmand va go'zallikka ega bo'lgan ijobiy personaj sifatida ifodalanadi" [7, 143].

Muhammad Yusuf "Suvpari" she'rida mifologik obrazning ikki xil turini, ya'ni ko'kda yashovchi hur-pari va suv ostida yashovchi suvpari obrazini yaratganligiga guvoh bo'lamiz:

*Sen ko'kdagi harir ko'ylak, hur-pari,
Ko'k ko'ldagi tinib qolgan suvpari.
Muhammadning ko'nglidagi dilbari,
Seni hech kim sevolmaydi meningdek*[8, 28].

Bu she'rdan lirik qahramon sevgilisiga muhabbatini izhor qilar ekan, hech kim uningdek seva olmasligini har band oxirida "seni hech kim sevolmaydi meningdek" takroriy refren misralar bilan ta'kidlaydi. Oxirgi badda sevgilisini osmonu falakda yashovchi harir ko'ylak kiygan hur-pariga va ikkinchi misrada esa ko'k ko'ldagi suv ostida yashovchi suvpariga qiyos qiladi. Nima sababdan shoir o'z sevgilisini aynan pari obraziga qiyos qildi ekan? Chunki yuqorida aytib o'tilganidek, lirik qahramonning "ko'nglidagi dilbari" qo'l yetmas falakda hur-pari, inson qadami yetmas ko'l tubida suvpari misoli hayot kechiradi. Lirik qahramon, garchand uning vasliga yeta olmasligini bilsa-da, uni sevaveradi, unga talpinaveradi. Demak, Muhammad Yusuf xalq og'zaki ijodidagi va yozma adabiyotga ko'chgan "pari" obrazining ikki xil hayot tarzidan foydalanib ushbu obrazni yaratgan.

Binobarin, Muhammad Yusuf ham mumtoz shoirlar yaratgan an'analar va folklor ijodining tunganmas xazinasidan oqilona foydalanib, o'z she'riyatida pari obrazining turli qirralarini, xarakterini, qisqasi go'zallik va donolikning tengsiz timsolini, ya'ni pari obrazini yaratadi. Uning she'riyatida "pari" obrazi nihoyatda izchil ishlanganini kuzatish mumkin. Xususan, "O'tinch", "Kelinchak" nomli she'rlarida ham pari obraziga nisbat beriluvchi satrlar uchraydi. Jumladan:

*Mulkingizga ne parilar havas etmas,
Yorim ayting, sizga yana nima yetmas,
Nechun oydek yuzingizdan qayg‘u ketmas,
Hajr azobin siz ham endi totdingizmi? («Saylanma», 58)*

“Kelinchak” she’ri, avvalo, xalq qo‘shiqlari uslubida yozilgani bilan xarakterlansa, ikkinchidan, lirik qahramon tez-tez murojaat qilgan, ya’ni qiz bolaning o‘zga xonadonga uzatilishi mavzusiga yana bir bor qaytadi. Lirik qahramon kelinchakka qarab, unga hatto parilar ham havas qilayotgan bir mahalda, uning oydek go‘zal yuzida nechun qayg‘uning iztirobli ko‘lankasi sababini surishtiradi; ayriliq azobining dahshatini “yor” ham totayotganini aytib ko‘nglini yozadi.

Muhammad Yusuf “Yaxshi” nomli she’rida ayolni pariga mengzaydi. Ammo endi bu yerda pari – go‘zal, o‘ziga rom etuvchi, ammo bevafo ayollar timsolida gavdalanadi:

*O‘pich ko‘rgan paridan
Sepkil toshgan yuz yaxshi,
Ichmasang ham qimiz zo‘r,
Quchmasang ham qiz yaxshi («Saylanma», 64).*

Ko‘rinadiki, Muhammad Yusuf xalq qo‘shiqlariga xos soddalik, teran mazmun, samimiylik, jozibadorlikdan unumli foydalangan holda o‘z she’rlarida pari obraziga juda ko‘p murojaat qiladi.

Muhammad Yusufning “Yaxshi” radifli she’ri xalq qo‘shiqlaridan ushbu satrlarni yodga soladi:

*Shamchiroqni yonganidan,
Yonmagani yaxshiroq.
Bevafo yor bo‘lganidan,
Bo‘lmagani yaxshiroq(“Saylanma”,158).*

Muhammad Yusufning “O‘pich ko‘rgan paridan” xunuk qizning yaxshiligini ta’kidlashi xalq qo‘shiqlariga xos uslub she’rga xos ohang, turoq, ritm va mazmun aynan xalq qo‘shiqlaridan ta’sirlanish natijasida yaratilganini ko‘rsatadi.

“Oq ro‘mol qizlar” she’rida esa shoir qizlarning yurgan yo‘llariga, qadamiga parilar ham havas qilishini ta’kidlash orqali tasvirda emosional ta’sirchanlikka erishadi. Zero, parilar nurdan yaratilgan bo‘lsa-da, qizlarning nur kabi sofligiga ular ham oshiq:

*Yursa yo'lga yog'dular izi,
Parilarga orzular izi.
Siz – onamning yorishgan yuzi,
Siz – otamning yo'qotgan qizi...
Oydin qizlar, oyjamol qizlar,
Oydan tushgan oq ro'mol qizlar ("Saylanma", 145).*

Xullas, o'zbek xalq og'zaki ijodidagi mifologik obrazlar kishilar hayotining muayyan timsolli obrazlari sanaladi. Jumladan, go'zallik, sehr-jodulik timsoli pari poetik obrazi Muhammad Yusuf lirikasida o'ziga xos o'rin egallaydi va she'rlariga joziba baxsh etib, falsafiy ma'no tashiydi.

Shoir lirikasida bu mifologik obraz yangicha sayqallangan poetik obraz, poetik sifatlash, poetik tasviriy vosita sifatida namoyon bo'lgan.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 530. (592 b.)
2. Hakimov M. Alisher Navoiy lirikasi va xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Fan, 1979. – B.8.(– 196 b.)
3. Hamdamova S. Xalq ijodi – ilhom chashmasi. Toshkent: Fan, 2009. – B. 18.(– 64 b.)
4. Jo'raev M, Narziqulova M. Mif, fol'klor va adabiyot. – Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006. – B. 4. (– 184 b.)
5. Imomov K. Zardo'shtiylik va epik motivlar genezisiga doir // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2009. – № 6. – B. 57.
6. Xo'jaev T. XV asr birinchi yarmi o'zbek adabiyoti va fol'klor: Filol.fanlari nomzodi ... diss. – Toshkent, 1996. – B. 37. (– 131 b.)
7. Razzoqov H. Mirzaev T., Sobirov O., Imomov K. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – B. 143. (– 360 b.)
8. Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – B. 28. (– 288 b.)

O‘ZBEK XALQ ERTAKLARIDA SAFAR MOTIVI

Mashrapova Gulsanam Axadovna
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi
Farg‘ona, O‘zbekiston Respublikasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada safar motivining xalq og‘zaki ijodi janrlari, xususan, ertak janrida tutgan o‘rni haqida ayrim mulohazalar misollar asosida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: motiv, safar, ertak, xalq dostonlari, syujet, voqealar rivoji

Аннотация: В статье приведены примеры роли мотивов путешествий в фольклорных жанрах, особенно в жанре сказки.

Ключевые слова: мотив, путешествие, сказка, народные сказки, сюжет

Annotation: This article provides examples of the role of travel motifs in folklore genres, particularly in the fairy tale genre

Keywords: motive, journey, fairy tale, folk tales, plot

Ertak xalq nasrining yetakchi janrlaridan biri bo‘lib, xalqning ulug‘vor g‘oyalari, dunyoqarashi, ruhiy kechinmalari ijtimoiy-siyosiy, oilaviy-maishiy, diniy, ahloqiy ideallari o‘ziga xos badiiy aks ettirgan mustaqil turi [1,104]. Ertak eng keng tarqalgan folklor janr sifatida har bir xalq ijodida yashovchanlik xususiyatiga ega, chunki insoniy sifatlarni kamol toptirish, go‘zallikni his etish, yurtni sevish va himoya qilish, xalqning orzu-istaklarini ro‘yobga chiqarish ertaklarning azaliy mavzulari hisoblanadi. Folklorshunoslik bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda ham ertak mavzusi salmoqli o‘rin tutadi. Yetakchi olimlarimiz tomonidan ertaklarning mavzusiga ko‘ra turlari, struktural tahlili, boshqa janrlar bilan aloqasi, yetakchi qahramonlari, ertaklardagi turli motivlar masalasi atroflicha o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlar, shuningdek, xalqimizning ertak janridagi boy adabiy merosi shuni ko‘rsatadiki, safar motivi ham boshqa motivlar singari ertak syujetida muhim o‘rin tutgan holda voqealarni tashkil etuvchi, rivojlantiruvchi, qahramonni sinovdan o‘tkazuvchi, maqsadiga yo‘llovchi va yetkazuvchi muhim omil hisoblanadi.

Ko‘p tomli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da **safar** so‘ziga shunday izoh berilgan: “safar – sayohat, sayr, biror joyga borish. Xizmat yo‘li

bilan yoki sayohat qilish, uchrashish maqsadida biror yerga borish; yo‘l [2:460].

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida bu tushunchani juda keng ta’riflaydi: “Safar – ayriliqqa uchraganlarni maqsadiga yetkazuvchi va mahrumlarni murod uyiga olib kiruvchidir. Safar xom odamlarni pishiruvchi va taomlarni singdiruvchidir. Safar kishilarni olam ajoyibotlaridan bahramand qiladi, g‘aroyibotlar dunyosidan xabardor qiladi” [3:538]. Shuningdek, shoir safarda insonga mashaqqatlar tikani sanchilishini, lekin har bir qadamdan so‘ng maqsad guli ochilishini juda chiroyli tashbehtar bilan tasvirlaydi. Darhaqiqat, safarga chiqish, yo‘l yurish, sayohat qilish orqali inson ko‘p narsalarga erishadi. Avvalo, safardan ko‘zlangan maqsadiga - u turlicha bo‘lishi mumkin – xizmat safari, sayohat-tomosha safari, Haj safari, kimnidir izlab yoki qadrdonlar bilan diydorlashish uchun safar, xorijda ta’lim olish yoki ishlash uchun safar qilish va h. Bu ro‘yxatni uzoq davom ettirish mumkin. Zero, insonlar ko‘p, maqsadlar turfa. Ikkinchidan, zarur bilimga - safar insonning ilmiy, ma’naviy dunyosini boyitadi. Safar davomida kishilar tajriba orttiradilar, o‘zlari uchun yangi-yangi bilimlarni kashf qiladilar: no‘malumlari ma’lum bo‘ladi, mavhumlari aniqlashadi. Uchinchidan, safar insonni toblaydi, sabr-toqatga o‘rgatadi, irodasini mustahkam qiladi. Mashaqqatlarni yengish asnosida inson ruhiy-ma’naviy kamolotga erishib boradi.

Adabiyot – insonshunoslik ekan, uning bosh tasvir obyeksi inson va uning hayoti, kechmishi ekan, u bilan bog‘liq boshqa omillar qatori safar motivi ham badiiy adabiyotda eng ko‘p murojaat qilinadigan mavzulardan biridir. Xalqimizning bebaho durdonalaridan hisoblangan o‘zbek folklori namunalari, xususan, ertak janrida ham safar maqsadidan kelib chiqqan holda turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Masalan, qahramonlari hayvonlar bo‘lgan “Susambil” ertagida eshak, ho‘kiz, xo‘roz, arilar, kalamushlar o‘zlari uchun “ideal makon” hisoblangan - “o‘tning bo‘lig‘i, suvning tinig‘i” Susambilga hayotlarini asrab qolish, azob-uqubatlarga barham berish, bundan buyog‘iga farovon hayot kechirish uchun yolg‘a o‘tlanadilar [4:45]. Bu yerda safarga chiqish, mavjud turmushdan voz kechib, yangi hayot sari o‘tlanish juda muhim vazifa bajaradiki, hayvonlar vositasida mashaqqatlardan ezilgan xalqning o‘z ideallari tomon intilishi, safar chog‘i tanishgan hamrohlarning keyinchalik butun bir jamoaga aylanishi tasvirlangan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu o‘rinda hammaslaklik (Susambilni izlab topish istagi), iqtisodiy tanglik (jonivorlarning deyarli barchasi

och edi), insonlardan xizmati evaziga jabr ko‘rish (ho‘kiz, eshak, xo‘roz) turli hayvonlarni birlashtirgan bo‘lsa, “Egri va To‘g‘ri” ertagida, aksincha, bir yo‘ldagi ikki insonning tabiatlari, xarakter xususiyatiga ko‘ra safardosh bo‘la olmagan aks etadi. Xalqimizda “insonni sinamoqchi bo‘lsang birga safarga chiq” maqoli bejiz yuzaga kelmagan. Ismi jismiga monand To‘g‘rivoy yo‘ldosh topilganidan xursand bo‘lib, ishonuvchanligi oqibatida bor-budini Egrivoyga boy beradi. Yo‘l mashaqqatlariga duch kelgan bo‘lsa-da, oqko‘ngilligi tufayli safar so‘ngida go‘zal baxtga erishadi [4:337]. Bunday syujet yozma adabiyotda ham ko‘plab uchraydi. Masalan, Alisher Navoiyning “Xamsa” asari (“Hayrat ul-abror”, “Sab‘ai sayyor”) dan o‘rin olgan “Muqbil va mudbir” nomli ikki hikoyat ham ayni mazmunga ega. Ushbu hikoyatlarda ham muallif ilgari surmoqchi bo‘lgan g‘oya safar motivi orqali yuzaga chiqadi, qahramonlar o‘zligini, xarakter-xususiyatini safar chog‘ida namoyon qiladilar.

Har qanday epik ijod, birinchi navbatda, ertak va dostonlar ham o‘z qurilmasiga ega. Motiv ana shu qurilmada asosiy o‘rin tutadi. Shunday ekan, folklor asarlar tahlili motivlar tahlili orqali amalga oshmog‘i kerak. Epik asarlardagi motivlarni aniqlash, har bir motivning boshqa motivlar bilan bog‘liq jihatlarini, ichki harakat va xususiyatlarini, badiiy estetik vazifalarini tahlil etish folklorshunoslikdagi muhim vazifalardan biridir [5:137]. Shunga ko‘ra motiv tushunchasiga folklorshunoslikda juda ko‘plab ta‘rif berilgan va shu sohaga oid tadqiqotlarning deyarli barchasida ushbu atamaga alohida e‘tibor qaratilgan. Rus olimlari V.Propp, B.Putilov va A.N.Veselovskiyning qarashlariga tayangan holda chiqarilgan xulosalar o‘zbek folklorshunosligida ham yetarli. Motivlar birlashib, syujet xalqalarini yuzaga keltirar ekan [6: 494] , hech bir epik asar faqat birgina motivga tayanmasligi, bir-birini to‘ldiruvchi yoki biri ikkinchisini yuzaga keltiruvchi motivlar birlashib syujetni tashkil etishi ayon haqiqat. Ya‘ni birgina motivning o‘zini ajratib olib o‘rganish imkonsiz. Turli motivlar tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarda motivlar o‘rtasidagi aloqadorlik masalalari ochib berilgan. Zero, xalq dostonlari va ertaklari syujetida befarzandlik, g‘ayritabiiy tug‘ilish, tush, safar, sinov kabi motivlar bir-birini taqozo etadigan yondosh motivlar desak, adashmaymiz. Folklorshunos olim Jabbor Eshonqul “Ozodachehra”, “G‘ulombachcha”, “Susambil”, Bulbuligo‘yo”, “Qiron aka” ertaklarida qahramon ma‘lum tushni ko‘rgach safarga otlanishini qayd etsa [5:139], Shahnoza Nazarova shartlarning qo‘yilishi, bajarilishi, syujetdagi joylashuvi, sinov

motivlarining safar motivlari bilan parallel kelishini “Sirli gilamcha”, “Kenja botir”, “Baxt izlagan yigit”, “Cho‘loq bo‘ri”, “Bulbuligo‘yo” ertaklari tahlili misolida yoritishga harakat qiladi [7:109]. Darhaqiqat, “Bulbuligo‘yo” ertagida oltin qushni izlab safarga chiqish kenja shahzodaga tushida ayon bo‘ladi(tush – safar motivi): “Podshohning kenja o‘g‘li tush ko‘ribdi, tushida bir parcha bulut uzilib qo‘yniga tushibdi. Cho‘chib uyg‘onibdi va podshohning yoniga kelib: Ey otajon! Menga ham safar yo‘li tushdi. Tush ko‘rdim, tushimda safarga chiqishni xush ko‘rdim. Yaxshilik bilan javob bersangiz ham, yo‘q desangiz ham ketaman, - debdi”. [4:99] Parchadan ko‘rinib turibdiki, tushida “bir parcha bulutning uzilib tushishi”ni kenja botir safarga chiqishga ishora deb bilmoqda. O‘z ixtiyorlari bilan avvalroq safarga chiqqan ikki aka “Borsa kelar” va “Borsa xatar” yo‘llarini tanlab hech qanday natijaga erisholmaydilar, aksincha, kenja ukalariga nisbatan zulm qilib, oyoq-qo‘llarini yaralab, cho‘l-u biyobonga tashlab ketadilar. Bu yerda “bir parcha bulut”ni imkonsiz, juda olis, qo‘l yetmas bir narsa deb tushunish, uzilib shahzoda qo‘yniga tushishi uning kenja shahzodaga atalganligi, faqat ugina qo‘lga kiritishi mumkinligiga ishoradir. Albatta, safar qilmay turib, maqsadga erishib bo‘lmaydi. Buni yaxshi anglagan shahzoda yo‘lga otlanadi va bir emas, bir necha safarni boshidan kechiradi: bulbuligo‘yoni olish uchun yalmog‘izning otini keltirish, ot uchun esa yana bir olis yurt malikasini olib kelish kabi shartlarni bajaradi. Hazrat Navoiy ta’riflaganidek, har mashaqqatli safardan so‘ng bir maqsad gulini qo‘lga kiritadi. Umuman olganda, ertaklar va xalq dostonlari sujetlarida asosiy maqsadga yo‘nalgan safar asnosida qandaydir shartlarni bajarish uchun boshqa safarlarni ham boshdan kechirish ko‘p uchraydi. Bu bejizga bo‘lmay, qahramon safardan izlagan narsasi(oltin qush)dan tashqari qo‘shimcha “hadya”lar – yigit kishi uchun zarurat hisoblangan tengsiz, uchqur ot va go‘zal yor-malika bilan bilan qaytadi.

Xalqimizda yo‘lga otlanayotgan kishini ezgu tilaklar bilan, xayrli duolar bilan kuzatish azaliy odat hisoblanadi. Xalq og‘zaki ijodining yirik janri hisoblanmish xalq dostonlarida she’riy va nasriy usuldagi safar duolariga ko‘plab guvoh bo‘lamiz. Dostonlardagi kabi o‘zbek xalq ertaklari syujetida ham safar duolari va safaroldi nasihatlarini ko‘plab uchraydi. “Uch og‘ayni botirlar” ertagida o‘g‘illarini dunyo kechish uchun yo‘llayotgan otaning ularga qarata aytgan nutqi juda muhim vazifa bajargan. Otaning ertak boshlanmasida keltirilgan “...sizlarni uch narsa bilan tarbiya qildim: birinchidan, sog‘lom vujudli qilib tarbiya qildim – quvvatli bo‘ldingiz. Ikkinchidan, yarog‘ bilan tanishtirdim –

qurol ishlatishga usta bo'ldingiz. Uchinchidan, qo'rqitmay o'stirdim – botir bo'ldingiz” [4:118] so'zlari tinglovchini hali asosiy voqealar boshlanmay turib qahramonlar bilan yaqindan tanishishiga imkon berishi bilan barobarida keljakdagi ro'y beradigan hodisalar bilan ko'prik vazifasini o'taydi. Uch og'ayni safar davomida duch kelgan uch sinov: she'r, ajdar, podshoh xazinasining o'g'rilari bilan olishuvda yuqorida otasi ta'kidlagan uch tarbiya: sog'lom vujud, botirlik va qurol ishlatishga ustalik qo'l kelgani aks etadi. Bundan tashqari safaroldi nutqida otaning yana uch nasihati (to'g'ri bo'ling – bexavotir bo'lasiz, maqtanchoq bo'lmang – xijolat tortmaysiz, dangasa bo'lmang – baxtsiz bo'lmaysiz) botirlarning safari davomida qanchalik qo'l kelgani ertak so'ngidagi xayrli yakunda o'z isbotini topadi. Ha, aynan to'g'riso'zlik, kamtarlik va mehnatsevarlik ularni podshohga kuyov bo'lish, el orasida mehr va obro' qozonish darajasidagi baxtga muyassar qildi. Demak, ushbu ertakda qahramonning safaroldi nutqi keyingi voqealarni anglashga tayyorlov vazifasini o'tagan. Umuman, yo'lga o'tlanishdan oldin bildirilgan ezgu tilaklar safarning ijobiy yakun topishiga yordam berishini hayotda ham, uning in'ikosi bo'lmish badiiy adabiyotda ham ko'p bora guvohi bo'lganmiz.

Ayrim ertaklarda esa, aksincha, safar oldidan aytilgan duoyibad, qarg'ish voqealar rivojida qahramon hayotiga ta'sir etgani, o'z ijobatini topgani aks etadi. “Orzijon va Qambarjon” ertagida yorini ovga ketayotganidan g'azablangan malika “oving ov bo'lmasin, doving dov bo'lmasin, kiyik quvlab, qo'ling sinib kelsin” deb duoyibad qiladi va Qambarjon haqiqatan ham kiyik quvib, qo'lini sindirib oladi[4:164].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, safar motivi xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari kabi ertaklarda ham muhim ahamiyatga ega. Ayrim ertaklarda safar butun bir syujet asosini tashkil qilsa, ayrimlarida qahramonni ma'lum bir sinovdan o'tkazish jarayoni yoki voqealar rivojiga turtki beruvchi muhim omil vazifasini o'taydi.

Adabiyotlar:

1. Imomov K. O'zbek xalq nasri poetikasi. – T.: “Fan”,2018.104-b.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 3-jild.T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010-yil, 460-b.
3. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik.T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2011-y.
4. O'zbek xalq ertaklari. III jildlik. I jild. T.: “O'qituvchi” NMIU, 2007.

5. Jabborov E.S. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini: Filol.fan. dok..diss. – Toshkent,2010.

6. Veselovskiy A.N. Istoricheskaya poetika. – L.: Visshaya shkola, 1940.

7. Nazarova Sh.I. O‘zbek xalq ertaklarida sinov motivlarining genezisi va poetikasi.Filol.fan.bo‘yicha falsafa doktori (PhD). diss. - T, 2017-y.

O‘ZBEK VA RUS XALQ MAQOLLARIDA ZONIMIK RAMZLAR

*Naimov Eldorbek Ilxambekovich
Andijon Davlat Universiteti o‘qituvchisi
Andijon, O‘zbekiston Respublikasi*

Annotasiya: Maqolada folklorning kichik janrlaridan biri bo‘lgan xalq maqollarida keluvchi zoonimik ramzlar semantikasi, semantik doirasi o‘zbek va rus xalq maqollari misolida qiyosiy tadqiq qilingan. Shuningdek, maqolada o‘zbek va rus xalq maqollarining o‘ziga xos xususiyatlari, maqollardagi ekvivalentlik va analogiya kabi masalalar ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: paremik tur, maqol, matal, aforizm, ramz, o‘zak ramz, vaziyat ramz, analogiya, tipologiya, lakonizm, bipolyar, ambivalent.

Аннотация: В статье проводится сравнительное исследование семантики зоонимических символов в народных пословицах - одном из поджанров фольклора, семантический объем которого основан на примере узбекских и русских народных пословиц. В статье также рассматриваются особенности узбекских и русских народных пословиц, равнозначность и аналогия в пословицах.

Ключевые слова: паремический тип, пословица, поговорка, афоризм, символ, символ основы, символ позиции, аналогия, типология, лаконизм, биполяр, амбивалент.

Annotation: The article provides a comparative study of the semantics of zoonymic symbols in folk proverbs - one of the subgenres of folklore, the semantic volume of which is based on the example of Uzbek and Russian folk proverbs. The article also examines the features

of Uzbek and Russian folk proverbs, equivalence and analogy in proverbs.

Key words: paremic type, proverb, saying, aphorism, symbol, base symbol, position symbol, analogy, typology, laconicism, bipolar, ambivalent.

Xalq maqollari folklorning kichik janrlari sirasiga kirib, u o'zining lakonik xarakteri va didaktik funksiyasi bilan boshqa kichik janrlardan ajralib turadi. Xalq maqollariga turli adabiyotlarda ta'riflar berilgan bo'lib, ularning aksariyatida maqollarning xalqning ming yillik tajribalari natijasida vujudga kelgan, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan janr ekanligi ta'kidlanadi. Xususan, maqol qisqa, chuqur ma'noli, nutqda keng qo'llaniluvchi barqaror shaklga ega folklor janrlaridan biri [10, 239] ekanligi, maqol xilma-xil mavzularda bo'lib, hayotning turli masalalarini qamrab olishi, ko'pincha maqol o'git-nasihati xarakterida bo'lishi [11,106], maqollar asrlar mobaynida xalq orasida sayqallashib, ixcham va sodda poetik shaklga kelganligi [4, 128], dunyoda maqol janriga ega bo'lmagan xalq yo'qligi, shu sababli maqollar xalqaro janr ekanligi [3, 26,] aytilgan.

Xalq maqollarida keluvchi badiiy tasvir vositalaridan biri ramz bo'lib, u o'zining an'anaviyligi, xalqning ming yillik tarixi davomida shakllangan mifologik qarashlarga bog'lanishi bilan xarakterlanadi.

Bizga ma'lumki, badiiy asarda (folklor va adabiyotda) ramz deb biror so'z (obraz yoki detal) va so'zlar birikmasining o'zi ifodalab kelayotgan lug'aviy ma'nodan tashqari, shartli ravishda turg'un badiiy assosasiya uyg'otishini va bu imuquqning nazarda tutilayotgan poetik ma'noning yuzaga chiqishida xizmat qilishini tushunamiz[8,6].

Folklor asarlaridagi ramzlar tadqiqotlarda turlicha tasniflangan holda o'rganilgan. Xalq qo'shiqlaridagi ramzlarni o'rgangan folklorshunos olim Sh.Turdimov ramzlarni qushlar, hayvonlar, o'rin-joy, mevali daraxtlar, mevasiz daraxtlar, tabiat unsurlari, rang, kasb-hunar bilan bog'liq o'zak ramzlar sifatida tasniflab o'rganadi [8,118-134]. O'zbek folklori matnlaridagi an'anaviy ramzlarning sinergetik tahlilini amalga oshirgan D.O'rinbaeva an'aviy ramzlarni ranglar, qushlar, hayvonot olami, daraxt va o'simliklar, sonlar, magik va e'tiqodiy qarashlar bilan bog'liq ramzlarga tasniflagan holda o'rganadi [6, 71-76]. Rus va turk xalq maqollarini qiyoslab o'rgangan B.Omer esa maqollardagi ramzlarni metafora sifatida o'rganadi hamda xalq maqollaridagi hayvonlar bilan bog'liq ramzlarni zoomorfizm, zoomorfik

obraz, zoomorfik leksema deya nomlaydi [1, 60]. Xalq maqollaridagi hayvonlar bilan bog‘liq ramzlarni zoonim sifatida o‘rganish A.V. Shevsova., J. Xabibullaevlarning maqolalarida ham kuzatiladi[7, 3].

Xalq maqollarida keluvchi ramzlar uning zamiridagi nuqtadonlik bilan yashirilgan ma‘noni yuzaga chiqarishda asosiy vosita hisoblanadi. Maqollardagi ilon, g‘oz, o‘rdak, qarg‘a, qaldirg‘och, it, bo‘ri, tulki, ot, eshshak, tuya kabi o‘zak ramzlar poetik ma‘nosi ana shu obrazlar ichida yashirin keladi. Masalan, o‘zbek xalq maqollaridagi ilon ramziy obraz sifatida ochiq yoki yashirin dushman, yomon odam kabi tushunchalarni o‘zida birlashtirib, shu tushunchalar asosida assosiasiyalanadi:

Yotgan ilonga tegma / Yotgan ilonning quyrug‘ini bosma [Не трогай лежащего змея, не наступай на хвостъ лежащей змеи]

Ilondan qo‘rqqan ola chilvirdan hatlamas [Боящийся змеи не переступает через канат]

Ilonni qo‘yinda saqlab bo‘lmas [Змею нельзя держать вподмышке].

Quyidagi maqollarda ilon ramziy obrazi chayon bilan qiyoslanadiki, bu holat ilonning aksariyat xalq maqollarida ochiq yoki yashirin dushman, yomon odam kabi ma‘nolarda kelishini tasdiqlaydi:

Ilonning bolasi — ilon, / Chayonning bolasi — chayon.[От змеи — змееныш, от скорпиона — скорпион], Ilondan—ilon, chayondan—chayon. [От змеи — змееныш, от скорпиона — скорпион][9]

Ilon goh-goh chaqar,/ Yomon doim chaqar [Змея часто укуситъ, плохой всегда укуситъ] maqolida esa ilon va yomon odam fe‘lining qiyosi ilon ramzining ma‘nolarini oydinlashtirgan.

Змея кусает не для сытости, а ради лихости [Ilon to‘yish uchun emas, yovuzlik uchun chaqadi], Сера, что свинья, а зла, что змея [Cho‘chqa oltin gugurt, ilon esa yovuz], Из дому жена, а из лесу змея [Uydan xotin, o‘rmondan ilon] kabi rus xalq maqollarida ham ilon ramzi yovuz, yomon fe‘lli inson, yomon xotin tushunchalarini anglatib, o‘zbek xalq maqollaridagi ilon ramzi assosiasiyalariga uyg‘un.

O‘zbek xalq maqollarida o‘rdak ramzi salbiy ma‘noga ega bo‘lib, ayyor, yolg‘onchi, ig‘vogar, xudbin, loqayd kimsalar sifatida talqin qilinadi. Masalan, shoshgan o‘rdak ham boshi bilan, ham dumi bilan sho‘ng‘ir [Торопливая утка ныряет и передом, и задом] [русский эквивалент: Поспешишь — людей насмешишь][5], o‘rdak bo‘lmay g‘oz bo‘l, / bilim olib soz bo‘l [Не будь уткой, гусем будь, получив знания, будь отличным], dunyoni suv bossa o‘rdakka ne g‘am [Нет

забот утке, если даже весь мир утопить], o‘rdak o‘ziga oro bersa ham, oqqush bo‘lolmas [Не быть жар птицей утке, сколько не ухаживай].

Rus xalq maqollarida esa o‘rdak obrazi salbiy bo‘yoq konnatasiyaga ega va o‘zida subutsiz inson, xunuk ayol, ayol makri kabi tushunchalarni ifodalaydi. Quyidagi rus xalq maqollarida o‘rdak ramzi orqali past nazar bilan qaralgan inson obrazi gavalantiriladi:

Сколько утка ни бодрись, а лебедем (а гусем) не быть,
Утка в море, хвост на горе [2, 2:104]

Где утка (*т. е. баба*), тут и мутка (*т. е. сплетня*) [2, 2:179]

G‘oz ramzi esa o‘zbek xalq maqollarida ijobiy talqinga ega bo‘lib, yaxshi xabar, chiroyli inson sifatida talqin qilinadi. Masalan, “qarg‘a uchib g‘oz bo‘lmas, boshliqsiz uy soz” [не быть вороне гусем и взлетев, не хорош дом без хозяина] maqolida qarg‘a salbiy obraz, yomon xabar kabi ramziy ma‘nolarga ega bo‘lib, uning ikkinchi qutbi bo‘lgan g‘oz esa ijobiy ma‘noda keluvchi obraz sifatida yaxshi xabar mazmunini anglatadi. Ushbu maqolning tub mohiyati ham ayni shu ramzlar mohiyati orqali ochiladi. Maqoldagi ramzlarning ma‘nosidan kelib chiqadigan bo‘lsak, boshliqsiz, ya‘ni erkagi yo‘q uy haqida soz – yaxshi xabar tarqalmaydi, shuning uchun har bir oilaning erkaki, boshlig‘i bo‘lgani yaxshi degan ma‘no anglanadi.

Qo‘shning tovug‘i g‘oz ko‘rinar,/ Kelinchagi qiz maqolida esa [Соседская курица как гусь, а невестка как девочка] g‘oz chiroyli inson mazmunida kelmoqda.

Xalq maqollarida keluvchi qo‘ng‘ir g‘oz esa o‘rdak obrazi talqinlariga to‘g‘ri keladi [8,23] va loqayd, xudbin inson ma‘nolarini anglatadi:

Dala tuzni suv olsa, qo‘ng‘ir g‘ozning to‘shidan,/ Quloqsizga so‘z aytsang qulog‘ining ketidan [Если поле берет воду, из груди бурого гуся, если вы говорите слово непослушному, проходит мимо ушей]

Rus xalq maqollarida g‘oz ambivalent ramziy obraz bo‘lib, salbiy va ijobiy bo‘yoqli tushunchani anglatishi bilan ajralib turadi. Одним гусем поля не вытопчешь [2, 2:53] rus xalq maqolining “Bir qarg‘a bilan qish kelmas” [Одна ворона ещё не делает зимы] o‘zbekcha ekvivalentida g‘oz ramzi qarg‘a shaklida berilgan bo‘lib, yomon odam, yomonlik kabi salbiy tushunchalarni ifodalagan. Гусь свинье не товарищ [2, 2:132] [g‘oz cho‘chqaga do‘st emas], свинья да мякина, гусь да вода — здоровы живут [2, 2:133][cho‘chqa somonda, g‘oz – suvda – sog‘ yashaydilar] kabi rus xalq maqollarida esa g‘oz va cho‘chqa ramzi ikki qutbda (bipolyar) qiyoslanishidan, cho‘chqa (irkit

inson) salbiy, g'ozning (pok, halol inson) esa ijobiy mazmun yukini olganini anglash mumkin.

O'zbek xalq maqollarida qarg'a yomon xabar, hammaslak bo'lgan yomon insonlar kabi tushunchalarni jamlab, turg'un assosiasiya uyg'otadi. "Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi" maqolida qarg'a ramzi hammaslak bo'lgan yomon insonlarni anglatadi. Ushbu maqolning "ilon ilonning quyrug'ini bosmas"[змея не наступает на змеиный хвост], "ilon tilini ilon tushunar"[язык змеи понимает только змея]kabi variantlaridagi ilon ramzining salbiy bo'yoqqa egaligini inobatga olsak, qarg'a ramziy obrazining yomon inson konnatasiv ma'noga egaligi qat'iylashadi.

"Bir qarg'a bilan qish kelmas" [Одна ворона ещё не делает зимы] maqolida esa birgina yomon inson bilan hamma yomon bo'lib qolmaydi yoxud birgina yomon xabar bilan yomonlik boshlanmaydi, degan mazmun anglashiladi. Uning analogi bo'lgan "daryoni bir kesak bilan loyqata olmaysan" maqolidagi joy va narsa bilan bog'liq bo'lgan kesak va daryo detallari ham yuqoridagi fikrimizni dalillaydi. Ushbu maqolning одним гусем поля не вытопчешь [2, 2:53], один мороз не приносит зимы kabi rus xalqidagi ekvivalentlarida qarg'a ramzi mohiyati g'oz va ayoz ramzi bilan beriladi. Xalq maqollaridagi ramz bo'lib kelgan har bir detal xalq orasidagi mifologik tasavvurlar, turg'un tushunchalar assosiasiyasiga bog'lanadi. Xalq maqollaridagi qarg'a, g'oz va qaldirg'och, qish, ayoz va bahor, gul va bahor, detallari mifologik tasavvurlar bilan bog'liq assosiasiyalarni uyg'otadi. Masalan, bir qaldirg'och bilan bahor kelmas [Одна ласточка не приносит весны, Первая ласточка не делает весны], бир гул билан баҳор келмас [Один цветок весны не делает], [Одна капля с неба ещё не дождь]kabi maqollar yuqoridagi maqollarning analogiyalari bo'lib, unda qaldirg'och, bahor, gul ramzlari ijobiy ma'no bo'yog'iga ega bo'lib, ezgulik kuchlarini anglatadi; qarg'a, qish ramzlari esa yovuzlik, yomonlik bilan bog'liq tushunchalarni o'zida saqlaydi. Bundan ko'rinadiki, xalq maqollaridagi qarg'a va qish, qaldirg'och va bahor, gul va bahor kabi tushunchalar tub mohiyatida mifologik kodlar saqlanadi.

Ola qarg'ada olarin bo'lsa, olaqarg'a omon bo'lsin [Если у вороны есть долг перед тобой, пусть она будет жива-здорова] [русский эквивалент: Если у должника озноб, кредитора трясет лихорадка] maqolida esa olaqarg'a ramziga birovdan qarz olib bermaydigan, birovning haqini yeb ketuvchi inson mazmuni yuklangan.

Rus xalq mental tasavvurlarida qarg‘a yovvoyi, yovuz, lekin aqlli bo‘lgan o‘rmon qushi sifatida keladi. Har ikki xalq maqollaridagi zoonimik ramzlar mohiyati uyg‘un. Rus xalqida “Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi” maqolining to‘liq ekvivalenti bo‘lib (ворона ворону глаз не выключает), bu esa o‘zbek va rus xalq maqollaridagi ramzlarda semantik aloqalarning, tipologik o‘xshashliklarning mavjudligini ko‘rsatadi.

Rus xalq maqollarida qarg‘a ramzining semantik doirasi keng bo‘lib, xasis va yovuz inson, qo‘rqoq, aqlli va tajribali inson kabi tushunchalarni anglatadi. “Пуганная ворона куста боится” maqolida qarg‘a qo‘rqoq odam konnotasiyasiga ega, biroq ushbu maqolning o‘zbek tilida aynan mos keluvchi ekvivalenti yuq. Biroq qarg‘a ramzi mohiyatidagi qo‘rqoq odam ma‘nosi qo‘rqan mushuk soyasidan ham qochar [пуганный кот бежит даже от своей тени], ilon chaqqan ola arqondan qo‘rqadi [Укушенный змеей пятнистую веревку боится] analogiyalarida mushuk, ilon chaqqan (odam) obrazlari orqali berilgan. “Старая ворона мимо не каркнет”[2], “старого воробья намякине не проведешь” maqollarida esa qarg‘a ramzi aqlli va tajribali inson mazmuniga ega bo‘lib, ushbu rus xalq maqolining qari tulki tuzoqqa ilinmaydi [старый лис не попадает в капкан]maqollarida esa qarg‘a ramzi aqlli va tajribali inson mazmuniga ega bo‘lib, ushbu rus xalq maqolining qari tulki tuzoqqa ilinmaydi [Если верблюд ляжет, остается лишь пушок, если умирает груз] maqolida tuyu ramziy obraziga baraka, meros, boy odam kabi mazmun yuklanganligini ko‘ramiz. Shuningdek, tuyu ramzining semantik doirasi mifologik tasavvurlarga uyg‘un holda kengaygan, xalq maqollarida uning barakali va boy inson, ulug‘lik, kattalik kabi ma‘no qatlamlari ham mavjudligini ko‘ramiz.

“Туяни shamol uchirsa, echkini osmonda ko‘r“ [Уж если верблюда уносит ветер, то козу ищи в небе] [русский эквивалент: Лес рубят — щепки летят] maqolidagi tuyu va echki ramzlari assosiasiyasi orqali qiyinchilik kelganda boy odamlar ham qiynaladi, kambag‘al odamning ahvoli esa undanda yomon bo‘lishi anglanadi. “Туянингдумикалтабўлсаҳам, тулкидандумсўрамас” [Если даже у верблюда короткий хвост, он не спрашивает хвоста у лисы]maqolida esa tuyu ramziy obraziga vazmin, qanoatli, mag‘rur, ulug‘ inson mazmuni yuklangan. Tuyu ramzining ulug‘, yurtning katta odami (mansabdori, xoni) konnotativ ma‘nosi “tuyu mingan qo‘yorasiga

yashirin olmas” [человек верхом на верблюде не может спрятаться среди овец] maqolida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

O‘zbek va rus tillaridagi antroposentik maqollarning aksiologik tadqiqini amalga oshirgan R.Majidova antroposentrik maqollarning baholash markerlarini aniqlash jarayonidavardagi baholashning bipolyarligini (ikki tomonliligi) [Majidova R., 10] ta’kidlaydi. Har ikki xalq maqollari ikki qutbga ega bo‘lib, har ikki qutbni o‘zaro qiyoslash, taqqoslash, qarshilantirish orqali ibratli fikr yuzaga chiqariladi. Masalan, “dushmaning kuya bo‘lsa ham, tuyu bil” [Если даже враг маленький, знай его как большого] maqolida tuyu so‘zi ulug‘, katta ma’nosini, kuya esa kichik ma’nosini anglatmoqda, ya’ni maqolda ikki qutb (katta va kichik) qiyosi orqali dushman kichik bo‘lsa ham, uni katta bilish lozimligi haqidagi ibratli fikr ifodalangan.

“Qatorda noring bo‘lsa, yuking yerda qolmaydi” [Если в ряду идет самец верблюда, груз твой не останется на земле]maqolidagi nor (erkak tuyu) ramzi mohiyati uning ulovlik vazifasi asosida shakllangan. Лёг верблюд, так приехали, Мал сокол, да на руке носить; велик верблюд, да воду возить и верблюда на обороти вода kabi rus xalq maqollarida ham tuyu ramzi mohiyati ulovlik vazifasi asosida shakllangan.

Xalq maqollarida keluvchi jonivorlar bilan bog‘liq ramzlardan biri eshshak bo‘lib, u ahmoq, bilimsiz, o‘jar, tarbiyasiz insonlar ramzi bo‘lib keladi. “Eshshak eshshakligicha qoladi”, “Eshshak eshshakligini qiladi” maqoli va uning ekvivalenti bo‘lgan [Осёл останется ослом, Хотя осипь его звездами]rus xalq maqolida ham eshshak o‘jar ahmoq inson ko‘chma ma’nolariga ega. Bundan ko‘rinadiki, rus xalq maqollarida eshshak ramzi kelgan maqollar kam uchrasa-da, ifodalagan konnotativ ma’nosiga ko‘ra uyg‘un. Eshak Makkaga borib hoji bo‘lmas / Eshak Makkaga borib halol bo‘lmas.[Не быть ослу хаджи, посетив в Мекку, не быть ослу чистый, посетив Мекку]

Xar akash eshak yo‘lga yaramas [Ленивый осёл, негоден в путь]

Eshak yurar qatqoqda, / Ma’lum bo‘lar botqoqda. [осёл ходит по земле, но его личность известна в болоте]

“Yuki yengil eshak yotag‘on bo‘lar” [осёл с легким грузом станет ленивым]maqolida esa yuki yengil eshak bekorchi, dangasa inson mazmuniga ega. Bilimsiz mulladan ustiga yuk ortilgan eshak yaxshi. [Нагруженный осел лучше чем невежественный мулла]

Ilmsiz olim — to‘qimsiz eshak. [Ученый без знаний – осел без куска мешковины]

Ot bilan bo'lsa eshakning oxuri,/ Rangi yuqmas, fe'li yuqar oxiri.
[Если одна кормушка для коня с ослом, не цвет, а натура заразиться под конец]

Eshakka muguz bitsa,/ Эгасинисузар. [Если у осла вырастают рога, бьет рогами хозяина]

It izzatga arzimas,/Eshak — tarbiyaga. [Собака не стоит чести, а осёл воспитанию]

Yuqoridagi maqollardan ko'rinadiki, eshshak ramziga yomon, tarbiyasiz, ilmsiz, o'jar insonlar salbiy mazmuni yuklanganligini ko'rishimiz mumkin.

It ramzi o'zbek va rus xalq maqollarida keng qo'llanadi va u ambivalent ramz bo'lib, salbiy va ijobiy konnatasiyalar asosida assosiasiyalanadi. Masalan, it qopag'on it, akillovchi it, vafodor it sifatlari bilan birikmali ramz bo'lib, u xalq maqollarida yomon, urushqoq inson, noahil insonlar, yaxshilikni bilmaydigan odam, hurmatsizlik, nohalol, xarom bo'lgan kabi salbiy hamda vafodorlik, sadoqatlilik kabi ijobiy mazmunlarga ega.

It ichmas oshidan umid qilar/Itning ko'ngli — bir suyak. [Собака мечтает о недостижимой еде, душа собаки лишь одна кость]

Bo'unidan bog'langani tovga yaramas. [Собака, привязанная от шеи, не годится для охоты]

Quyidagi maqollarda it noahil, urushqoq insonlar mazmunini anglatib, u bo'ri (dushman, begona) ramziga zid qo'yiladi.

It yig'ini birikmas. [Собачий сбор не объединяется]

Ovul iti ola bo'lsa-da,/ Bo'ri kelganda birlashar. [слабый аульный собачий сбор, объединяется с появлением волка]

Ovuliti talashar /Bo'ri kelsa, yarashar. [собака аульного сбора грызется, а с появлением волка мериться]

Куйидаги мақолда эса ит рамзий образининг эшак билан қиёсланишидан унинг салбий мазмунга эга бўлган, аҳмоқ, яхшиликни билмайдиган ёмон инсон эканлиги англанади:

Eshak semirsa, egasini tepar, / It semirsa, egasini qopar [осел пинает хозяина когда толстеет, собака кусает хозяина когда толстеет]

"It-vafo, хотин jafo" [собака-преданность, жена мучение], yaxshi it o'ligini ko'rsatmaydi [не видать тела хорошей собаки]kabi maqollarda it vafodor, sadoqatli inson mazmunini anglatgan.

Rus xalq maqollarida ham it yomon, urushqoq, yaxshilikni bilmaydigan inson konnatasiyasiga ega. Oq it, qora it — baribir it

[Чёрная собака, белая собака – а всё один пёс] [русский эквивалент: Собака всегда остается собакой]

Xalq maqollarida bo‘ri ramzi dushman, xiylagar va qonxo‘r, birovning haqqini yeuvchi inson semantikasiga ega.

Uyurli qo‘ydan bo‘ri ham qo‘rqar. [волк бояться от объединённых овца]

Qo‘y qarg‘ishi bo‘riga o‘tmas [Прокливание овцы не действует на волка]

Tangri asragan to‘qlini bo‘ri yemas [Спасенного всевышним барашка волк не кушает]

Bo‘ri xom bo‘lmas /Ho‘kiz ishlab boy bo‘lmas.[волку не умереть от сырой пищи, быку не обогатеть от труда]

Yuqoridagi maqollarda qo‘y va bo‘ri, qo‘y va ho‘kiz ramzlarida bipolyarlik mavjud bo‘lib, ushbu ramzlar ahil xalq, ahil insonlar, mazlum inson, mehnatkash inson ijobiy hamda dushman, birovning haqqini yeguvchi inson kabi salbiy mazmun semantikasiga ega.

Bo‘ri qarisa ham bitta qo‘yga kuchi yetar. [Волк и с больной овцой управится]

Bo‘ri qarisa, itga kulgu bo‘lar. [Состарившийся волк становится посмешищем для собак] [Состарившийся волк питается саранчой. Когда волк состарится, он становится игрушкой для собак.]

Bo‘rining og‘zi yesa ham qon, yemasa ham — qon. [У волка морда всегда в крови, поел ли он или не поел]

Bo‘rini qancha boqma, tozi bo‘lmaydi [Сколько волка не корми, он борзым (собакой) не станет] [русский вариант: сколько волка не корми, он все в лес смотрит]

Bo‘ri qulog‘i ovda [Уши волка на добыче (на охоте)]

Ot ramzi ambivalent bo‘lib, o‘zbek xalq maqollarida vatanparvar inson, vafodor inson, ulug‘ maqsadlarni ko‘zlovchi inson kabi ijobiy hamda adashuvchi inson kabi salbiy mazmunli yuk olgan.

Ot aylanib qozig‘ini topar [Лошадь все равно найдет кол, к которому ее привязывают] [русский вариант: Одна у человека мать, одна у него и родина]

Ot boshiga ish tushsa, suvliq bilan suv ichar, er boshiga ish tushsa, etik bilan suv kechar [Если лошади выпадет работа, будет пить удилами, если мужчине выпадет работа]

Yuqoridagi maqollarda ot vatanparvar inson mazmunini anglatgan.

Ot minib yaqinni ko‘zlaguncha, tuya minib uzoqni ko‘zla [Лучше смотреть вдаль, сидя на верблюде, чем высматривать вблизи, сидя]

[русский вариант: лучше будь дальноруким, чем близоруким]maqolida esa ot ramziga ulug‘ maqsadlarni ko‘zlovchi inson mazmuni yuklangan.

Ot tepkisini ot ko‘taradi [Удар коня может снести только конь]maqolida esa maqomiga ko‘ra bir xil insonlarning o‘zaro munosabati haqidagi ibratli fikr berilgan.

Oti borning qanoti bor [у кого конь, у того крылья][русский вариант: лошадь человеку крылья] [2, 345]maqolida esa ot do‘st, ulov mazmunida kelgan.Otni termaydi dema, itni qorpaydi dema [Не считай, что лошадь не лягает, собака не укусит] [русский вариант: к собаке сзади подходи, а к лошади — спереди (об осторожности)]Otni termaydi dema, itni qorpaydi dema [Конь на четырех ногах, и то спотыкается]maqolida esa yaxshi, ulug‘ insonlar ham adashadi, xato qiladi mazmuni (salbiy) ot ramzi orqali ifolangan.

Otning o‘limi — itning bayrami [Смерть лошади — праздник для собаки] [русский вариант: Смерть коня - праздник собакам]

Ot o‘ldi, arava sindi [Лошадь умерла, телега сломалась] [русский вариант: Умер вол — и дружбе конец]

Yuqoridagi ikki maqolda esa ot va it, ot va arava ramzlari orqali yaxshi insonning o‘limi yomonlar uchun quvonch keltirishi mazmuni berilgan.

“Сытая лошадь меньше ест”, “Не потчуй лошади ездом, а корми тестом: не гладь рукой, посыпай мукой”, “Лошадь холь, корми, как сына, а берегись как ворога. Конь копытом сдачидаёт”, “Добр конь, да копыта отряхивает. Ты боишься лошади, а она тебябоится ” [2, 345]kabi rus xalq maqollarida ham ot mehnatkash, halol inson kabi ijobiy bo‘yoqli tushunchalarni ifodalaydi.

Tulki ko‘chma ma'noda og‘zaki va yozma adabiyotda xiylagarlik ramzi bo‘lib kelgan. Tulki obrazi xalq maqollarida ham ayorlik, maqtanchoqlik ramzi sifatida keladi.

Tulki o‘z quyrug‘ini guvohlikka tortadi [Лиса призывает в свидетели свой хвост] [Лиса врет, на свой хвост шлет, да оба изверились] maqolida tulki ramzi yolg‘onchi inson ma'nosini anglatadi.

Tulki-qarsoqning ini bir, g‘ar-o‘g‘rining tili bir [Лис и шакалов одно логовище, а у воров и развратниц — один язык][5] maqollarida esa tulki ramzi o‘g‘ri, birovning haqini yeb ketuvchi inson konnativ ma'nolarini anglatadi. “Лиса всё хвостом прикроет”, “Лиса и во сне кур считает”, “Всякая лиса свой хвост хвалит”[2,240]kabi rus xalq maqollarida esa tulki ramzi maqtanchoq inson salbiy mazmunini

ifodalaydi. Ushbu maqollarning o‘zbek tilidagi ekvivalentlari mavjud bo‘lmasa-da ulardagi ramzlar mohiyatan uyg‘un.

Yuqoridagi maqollardan ko‘rishimiz mumkinki, tulki ramziy obrazi xalq maqollarida ayyor, hushomadgo‘y, sotqin, maqtanchoq, o‘g‘ri inson salbiy tushunchalarni jamlaydi va shu ma'nolar doirasidagi assosiasiyalarni uyg‘otadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbek va rus xalq maqollaridagi ramzlar ma'no-mazmuniga ko‘ra tipologik o‘xshashliklarga ega. O‘zbek va rus xalq maqollarining tipologik o‘xshashliklari jamiyatning tarixiy-tadrijiy rivojlanishning bir xilligi (evolyusionistik nazariya) bilan izohlanadi. Shuningdek, o‘zbek va rus xalq maqollarida har bir xalqning o‘ziga xos milliy mentaliteti va qadriyatlarini o‘zida aks ettirish kabi o‘zigagina xos xususiyatlari ham mavjud.

Adabiyotlar:

1. Бичер Омер. Зооморфные образы в русских пословицах и поговорках: лингвокультурологический и лексикографический аспекты. Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Смоленск, 2016. – с.174

2. Даль В.И. Пословицы русского народа. Том 1. – М.: Художественная литература, 1989. – 433 с; Shu muallif: Пословицы русского народа., Том 2. – М.: Художественная литература, 1989. – 449 с,

3. S.Ro‘zimboev, H.Ro‘zmetov. Folklor atamalari qisqacha lug‘ati. – Urganch, 2007. – 221 b.

4. Salaev F., Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. –B. 127-128. Узбекские пословицы и поговорки [Электронный ресурс]. – Режим доступа: URL: <http://fmc.uz/maqollar.php> Дата обращения 08.09.21

5. Уринбаева Д.Б. Статистическо-синергетическое исследование узбекских фольклорных жанров: Монография. СамГУ. Тамбов: Консалтинговая компания Юком, 2018. 86 с.

6. Шевцова А.В., Хабибуллаев Ж.. Сопоставительный анализ русских и узбекских пословиц с компонентом- зоонимом// Мова, история, культура у лингвокоммуникативному простори : зборник наукових праць / Ред.кол.: Л.В. Быденко, О.М. Волкова, С.І. Дегтярьов; Упоряд. Л.Д. Біденко. - Суми : СумДУ, 2015. - Вип.2. - С. 195-201.;

7. Shomirza Turdimov. Xalq qo‘shiqalarida ramz. – Toshkent: Fan, 2020. – 192 b.

8. O‘zbek xalq maqollari / T.Mirzaev, A. Musaqulov, B.Sarimsoqov. – Toshkent: Sharq, 2005

9. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiётshunoslik tyerminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. –Toshkent: O‘qituvchi, 1979. –B. 239.

10. Homidiy H., Abdullayeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik tyerminlarining izohli lug‘ati. –Toshkent: O‘qituvchi, 1970. –B.106.

MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK LIRIKASIDA FOLKLOR AN‘ANALARI

Oripova Gulnoza Murodilovna
Farg‘ona davlat universiteti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Farg‘ona, O‘zbekiston Respublikasi

Annotasiya: Maqolada mustaqillik davri o‘zbek lirikasiga xalq og‘zaki ijodi ta’siri masalalari Erkin Vohidov hamda Usmon Azimning ijroviy lirikaga mansub she’rlari tahlili orqali tadqiq etilgan. Hozirgi o‘zbek she’riyatining g‘oyaviy-estetik ta’sir manbalari, shakliy-mazmuniy yangilanishlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: folklor, folklor an‘analari, baxshiyona ohang, xalqona ohang, ijodiy ta’sir.

Аннотация: В статье исследуются влияния фольклора на узбекскую лирику периода независимости на основе анализа стихов Эркина вахидова и Усмона Азима. Показаны источники идейно-эстетического воздействия, формальные и смысловые обновления современной узбекской поэзии.

Ключевые слова: фольклор, фольклорные традиции, щедрый тон, народный тон, творческое влияние.

Annotation: The article examines the influence of folklore on the Uzbek lyrics of the independence period through the analysis of poems by Erkin Vahidov and Usmon Azim. The sources of ideological and aesthetic influence, formal and semantic updates of modern Uzbek poetry are shown.

Key words: folklore, folklore traditions, generous tone, folk tone, creative influence.

Folklor va yozma adabiyot munosabati haqida fikr yuritgan professor B.Sarimsoqov folklorning yozma adabiyot bilan munosabatga kirishishida ijodkor asaridagi oddiy folklorizmdan tortib ijodiy metod munosabati, xalqchilik, milliylik va baynalmilallik, ijodkorning folklordan ijodiy foydalanish yo‘llari va usullari, u yoki bu san’atkor mahorati yo‘nalishi va unda folklor an’analarining ta’siri kabi masalalar bilan birgalikda badiiy shakl sohasidagi o‘zaro ta’sir masalalarigacha qamrab olinishini ta’kidlagan. [1.85 b.] Xalqchilik va haqqoniylik, ifoda soddaligi va ravonligi, hayotiylik va jonlilik, obrazlilik va ixcham ifodaviylik xususiyatlari Erkin Vohidovning ijroviy lirikaga mansub she’rlarida ham alohida o‘ringa ega.

Ijroviy lirikaga xos bo‘lgan ijroviy xarakter, asosan, ramka unsurlari: sarlavha hamda sarlavha osti izohida yuzaga chiqadi. Ijroviy lirikaga xos she’rlarda sarlavhalar, ko‘pincha, lirik qahramon nomini o‘z ichiga oladi. Erkin Vohidovning “Sultonmurod” nomli she’ri bunga yorqin misoldir. She’rning kompozision qurilishi xalq dostonlaridagi baxshiyona ohangni yodga soladi. Shoir o‘quvchiga ijroviy lirika qahramoni shaxsi hamda uning ijtimoiy holatini yaqqol namoyon etishda sarlavha ostidagi izohdan keng foydalangan. Mazkur izohda xalq dostonlariga xos saj’ usulining qo‘llanishi shoir poetik mahorati bilan bog‘liq hodisadir: “Sultonmurod davlatmand odam edi. Saxiy, ma’rifatli boy edi. Sovet hokimiyati uning mol-mulkini musodara, o‘zini eldan badarg‘a qildi. Bor-yo‘g‘idan, vatanidan mosuvo bo‘lib, uzoq ellarga jo‘nab ketar ekan, Sultonmurod alam ichida shunday so‘zlarni aytdi” [2. 112 b.]. Ijroviy lirikaning hozirgi she’riyatimizga xos bo‘lgan namunalarida ifoda imkoniyatlarining kengliklari she’r asosiy matnidan so‘ng ham izoh keltirilishi bilan ifodalanmoqda. Bunday holatni mazkur she’r so‘ngida ham kuzatish mumkin: “Sultonmurod shu so‘zlarni aytib, otga qamchi bosib, Olatog‘dan oshib, Qashqarga ravona bo‘ldi...”. She’rning asosiy matni ostidagi izohida ham shoir o‘zbek xalq og‘zaki ijodi an’analaridan ijodiy ta’sirlanganligi va ularga murojaat qilganligi ko‘rinadi. Ma’lumki, ot mifologik totem hayvon bo‘lib, vafodorlik ramzidir. O‘zbek folklorining ko‘plab namunalarida ot kulti alohida ahamiyatga ega. Xalq dostonlarida ham ot obrazi an’anaviy obraz bo‘lib, otda safarga chiqish voqealari “Alpomish”, “Ravshan”, “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlarda o‘ziga xos uslubda bayon etilgan. Erkin

Vohidovning poetik mahorati shundaki, xalq dostonlaridagi otda safarga chiqish an'anasi ijroviy lirika qahramoni Sul-tonmurodning "otga qamchi bosib, Olatog'dan oshib, Qashqarga ravona bo'lish"ida davom etgan. Sul-tonmurodning Olatog'dan oshish voqeasi bevosita xalq dostonlarida aks etgan voqelik zaminidan o'sib chiqqan bo'lib, buni "Alpomish" dostonidan keltirilgan quyidagi bandda ko'rish mumkin:

*El ko'chirib Olatog'dan oshirdi,
Sirin aytmay dushmanlardan yashirdi,
Ikkovi ham tilladandir uzangi,
Yarqillatib ikki yoqqa tushirdi.*

Erkin Vohidov yaratgan ijroviy lirika qahramoni – mustamlaka tufayli o'z vatanidan badarg'a bo'lgan ma'rifatli boy. Shoir she'ning asosiy matnini Sul-tonmurod nutqi orqali ifoda etar ekan, elidan badarg'a bo'lgan lirik qahramon alam-bian xitob qiladi:

*Shafqat etmay baxtim qaro qilganlar,
Shafqatga zor baxti qarolar bo'lgay.
Meni vatanimdan judo qilganlar
Vatanda vatandan judolar bo'lgay...*

Mustabid tuzumi davrida o'z yeridan quvilgan, badarg'a qilingan xalqimiz vakillari chorasiz holda vatandan ayro bo'ldilar. Ularning qismati, dardli iztiroblari, elimizga aytar so'zlari, tarixning asl HAQIQATlari nidolari orqali satrlarga ko'chdi. Yuqorida keltirilgan misralarda "shafqat", "baxt", "qaro", "vatan", "judo" so'zlari takror holda qo'llanib, she'ning ritmik-intonasion tuzilishida o'ziga xos funk-siya bajargan.

*Hech qachon, hech yerda hech kimsaga, bas,
Talab olgan yeri buyurgan emas,
Yer-suvimni olgan nobakor ul kas
Yer ustida yerga gadolar bo'lgay.*

Birinchi misrada keltirilgan "hech" so'zidagi "h" tovushining takrori lirik qahramonning og'ir ho'rsiniqlarini ifodalaydi. She'rda takrorlangan "Er" so'zi bu inson uchun muqaddas tuproq, kindik qoni to'kilgan go'sha, bag'rida katta qilgan vatan, rizq beruvchi ne'mat, bu dunyoni tark etganda o'z bag'riga oluvchi makon timsolidir. Shuning uchun shoir she'rda "er" so'ziga chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmun yuklagan.

She'r badiiyatini ta'minlashda shoir "Lak-lak surgun qilar, zindonga tiqar" misrasi orqali "lak-lak", "zindon" arxaizmlarini qo'llaydi. Bu esa she'ning badiiy-estetik xususiyatlarini yuzaga chiqarib, Sul-tonmurod

yashagan davr manzarasini kitobxon ko‘z o‘ngida namoyon etadi. Ko‘rinadiki, “Erkin Vohidovning har bir she‘rida davrning yorqin manzarasi, xalqning o‘lmas psixologiyasi, millatning ulug‘vor qiyofasi to‘la aks etadi” [3. 479].

Usmon Azim ijodida ijroviy lirikaning baxshiyona va xalqona ohang sintezlashgan namunasi uchraydi. Faqat bu she‘rda shoir sarlavha qo‘llamaydi. O‘quvchi ijroviy lirika qahramoni dehqonlar ekanligini she‘rning asosiy matnidan oldin keltirilgan izoh orqali anglaydi: “Bug‘doy pishig‘ida bir xirmonning yonidan o‘tayotgan edim, galagov haydayotgan ikki dehqonga ko‘zim tushdi. Biri qo‘yib, biri “Mayda-yo, mayda”lab qo‘shiq aytyapti...” [4. 36] Ma‘lumki, mehnat qo‘shiqlari xalq she‘riyatining eng avvalgi turlaridan biri bo‘lib, ularning yaratilishi va ijro etilishi kishilarning mehnat jarayoni bilan bevosita bog‘liqdir. Xirmon yanchish paytida dehqonlar tomonidan aytilgan qo‘shiqlar “ho‘p-mayda”, “mayda”, “galagov qo‘shiqlari” deb yuritilgan. Yanchiqqa birdan ortiq xo‘kiz jalb etilsa, galagov deb yuritilgan. Bu qo‘shiqlar dehqon faoliyatining ana shu pallasida ijro etilgan. Olim R.Nosirov “Xalq qo‘shiqlari kompozitsiyasi” nomli monografiyasida yanchiq qo‘shiqlari motivlarini quyidagicha qayd etgan: “Mayda qo‘shiqlarida asosan o‘rilgan bug‘doy donini somondan ayirib olish, maydaga qo‘shilgan ho‘kizlarni bardamroq ishlashga da‘vat qilish motivlari yetakchilik qiladi” [5. 80]. Quyidagi yanchiq qo‘shiqlaridan biri bo‘lgan to‘rtlikni misol tariqasida keltirish mumkin:

*Mayda desam, ho‘p deydi, mayda-yo, mayda,
Ho‘pga ko‘nglim ko‘p deydi, mayda-yo, mayda,
Mayda qilib bo‘lgan so‘ng, mayda-yo, mayda,
Peshonamdan o‘p deydi, mayda-yo, mayda. [6. 51]*

Mazkur to‘rtlikda galagovga qo‘shilgan ho‘kiz, halol ishlab, donni yaxshi maydalab bergandan so‘ng unga minnatdorchilik bildirish motivi ifodalangan. Usmon Azimning quyidagi satrlari ham yanchiq qo‘shiqlari ta‘siri hamda nozik kuzatishlari mahsuli sifatida vujudga kelgan:

*Yaxshi edik, yomon bo‘ldik,
Ho‘kizginam, mayda-yo.
Mayda bo‘ldik,
Somon bo‘ldik,
To‘kisginam, mayda-yo. [4. 37]*

She‘r uch banddan iborat bo‘lib, shoir ijroviy lirika qahramoni - ikki dehqonning don yanchish jarayonidagi mashaqqatli mehnatini ular ijro etgan qo‘shiq orqali tasvirlaydi. She‘rning har bir banddagi ikki

misrasida takrorlangan “mayda-yo” nidosi she'r umumiy simfoniyasini tashkil qiladi. She'rdagi “mayda bo'ldik”, “somon bo'ldik” birikmalari dehqonlarning yanchiq jarayonidagi og'ir mehnati va ho'kizning tinimsiz harakati ifodasidir. She'rda “ho'kizginam”, “to'kisginam” undalmalari orqali lirik qahramon ho'kiziga bo'lgan muhabbatini tasvirlaydi. Lirik qahramonning ho'kiz so'ziga “gina” ayiruv bog'lovchisi hamda –m egalik qo'shimchasini qo'shib aytishi ho'kizini erkalash, faqat o'z egasigagina qarashlilikini bildirish, “to'kisginam” undalmasi vositasida tirikchiligi uning bilan o'tayotganligidan minnatdor bo'lish motivlari mujassamlashgan. Banddagi “o” tovushi takrori musiqiy ohangni yanada kuchaytirib, mehnat ritmini qo'shiq ritmiga moslashtirgan.

*Tuyoqlaring tosh – beomon,
Ishing haqdir, mayda-yo.
Jon bir tomon,
Don bir tomon –
Shudir taqdir, mayda-yo.*

She'arning ikkinchi bandida “o” unlisi takrori kuzatiladi va endi shoir lirik qahramonning ham, ho'kizning ham taqdiri xirmonda don yanchish bilan bog'liq ekanligini “jon bir tomon, don bir tomon” deya, dehqon ohlari ohangi orqali satrlarga singdiradi. Qadimiy qo'shiqlarimiz va ularning so'zlari xalqimiz qalbida muhrlanib qolishini istagan shoir “Mening ham paymonam to'lsa, ikkigina dehqonning birgina nola qo'shig'i dunyodan izsiz ketmasin, deb, yozib turgan joyim”, deya baxshiyona ruhda avlodlarga uzatayotir.

Xullas, mustaqillik davri o'zbek she'riyatida xalq og'zaki ijodi an'analari muhim o'rin tutib, o'ziga xos mahorat pog'onasi va takomil bosqichiga ko'tarilishda manba bo'lib xizmat qilgan. Erkin Vohidov hamda Usmon Azim o'z g'oyaviy niyati, asarning g'oyaviy-estetik va badiiy funksiyasini kuchaytirishda xalqona an'analardan yangicha yondashuv asosida samarali foydalanganlar.

Adabiyotlar:

1. Sarimsoqov B. Folklor va o'zbek adabiyoti munosabatlariga doir izlanishlar // O'zbek tili va adabiyoti. – 1976, № 5. – B. 85.
2. Erkin Vohidov. To'la asarlar to'plami. 3-jild. – Toshkent: “Sharq”, 2016. – B.54.

3. Solijonov Y. Shoir ijodida milliy ozodlik mavzusi// To quyosh sochgayki nur. Erkin Vohidov: hayoti va ijodi zamondoshlari nigojida. – Toshkent: “O‘ZBEKISTON”, 2016. – B. 479.
4. Usmon Azim. Ko‘ngil. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – B.36.
5. Nosirov R. Xalq qo‘shiq-lari kompozitsiyasi. – Toshkent: “Fan”, 2006. – B.80.
6. Ochil K. Qaldirg‘ochni qo‘ndirgan qo‘shiq. – Samarqand: Zarafshon, 1998. – B.51.

YASHAR KAMOLNING “SEVGI AFSONASI” ROMANIDAGI MIFOLOGIK UNSURLARNING O‘ZBEKCHA TARJIMADA BERILISHI

*Sharipov Rustam Husniddinovich,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dosenti, filologiya fanlari
nomzodi*

*Jumaboev Oybek Sheralievich,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti,
Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi*

Annotatsiya: ushbu maqolada atoqli turk adibi Yashar Kamolning “Sevgi afsonasi” (“Ağrıdağı Efsanesi”) romanidagi mifologik unsurlar va ularning o‘zbekcha tarjimada berilishi, tarjimonning so‘z tanlash mahorati masalasi roman qahramonlari, o‘z muhabbati uchun kurashgan Ahmad va Gulbahorning qismati haqida hikoya qilish orqali ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Og‘ri tog‘, afsona, mifologiya, xalq og‘zaki ijodi, asliyat, obraz, tarjimon mahorati.

Аннотация: В статье рассматриваются мифологические элементы романа известного турецкого писателя Яшара Кемала «Легенда горы» и их передача на узбекский язык, а также мастерство переводчика, умение выбирать слова при переводе посредством повествования историю героев романа Ахмада и Гульбахор, которые боролись за свою любовь.

Ключевые слова: Арарат, легенда, мифология, фольклор, оригинал, образ, мастерство переводчика.

Abstract:The article examines the mythological elements of the novel by the famous Turkish writer Yaşar Kemal "The Legend of the Mountain" and their transfer into the Uzbek language, as well as the skill of the translator, the ability to choose words when translating through the story of the heroes of the novel, Ahmad and Gulbahor, who fought for their love.

Key words: Ararat, legend, mythology, folklore, original, image, translator's skill.

Yuksak iste'dodi, inson qalbining tub-tubida yotgan kechinmalarni san'atkorona ifodalash qobiliyati, nasriy nazmi bilan XX asr ikkinchi yarmi turk adabiyotining yirik namoyandalardan biriga aylangan atoqli adib – Yashar Kamolning «Sevgi afsonasi» (“Og‘ritog‘ nolasi” - “Ağrıdağı Efsanesi” [1]) romani jahon adabiyotining sara asarlari sirasiga kiradi. 1955 yilda nashr etilgan ushbu roman adibning qisqa davrda dunyoning qirقدan ortiq tiliga tarjima qilinib, adib nomini dunyoga tanitgan “Inja Mamad” romanidan keyingi mashhur asaridir. Asarda o‘z muhabbatini Mahmudxondan himoya qilgan Ahmad va Gulbahorning achchiq qismlari haqida hikoya qilinadi. Afsonalar va xalq og‘zaki ijodiga chin yurakdan bog‘langan Yashar Kamolning ushbu asari inson psixologiyasining eng teran torlarini chertib o‘tadi. Tarjimada asarning ayni mana shu nozik xilqatlarini o‘zbek o‘quvchisiga aniq, ravon va eng muhimi badiiy salmog‘ini tushirmagan holda yetkazib berishga muvaffaq bo‘lingan.

Haqiqiy so‘z ustasi, o‘z ijodini Onado‘lu xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan omuxta asarlar yozish bilan boshlagan Yashar Kamol turk tilining badiiy ifoda qudrati, nafosati, xalq og‘zaki ijodining yagona qahramoni bo‘lgan turk xalqining boy madaniyatidan ilhomlandi. Yevropada Yashar Kamolning “Og‘ritog‘ nolasi” asari Shahrizoda hikoyalari, Tolstoy romanlari kabi keng miqyosli, Dikkens romanlari kabi jonli ekanligi, kitobning go‘zalligi boy nazm uslubi, afsona tuyg‘usiga tayanishi ta’kidlanadi [2,6].

Ta’kidlash joizki, tarjima asarlari tufayli kitobxonlar jahon adabiyoti durdonalaridan bahramand bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, tarjima tillarning rivojlanish sur’atini jadallashtiruvchi, lug‘at boyligini oshiradigan va takomillashtiradigan vosita sifatida ham muxim ahamiyatga ega. Ushbu jihatlarda tarjimani inson ma’naviy xayotini boyituvchi, ona tilining bor bisotini ro‘yobga chiqaruvchi, ayni paytda, uning serjilo bo‘lishini ta’minlovchi, kitobxon tafakkurini

charxlab, yangi g'oyalar, tushunchalar bilan boyituvchi xususiyatga ega ekanligini namoyon etadi. Shu bilan birga, tarjima asarlar orqali milliy adabiyotlarga yangi g'oyaviy yo'nalish, yangicha syujet, janr, yangi obraz va badiiy tasvir vositalari kirib keladi. Shu ma'noda, badiiy tarjimani asliyatni qayta yaratish, talqin etish san'ati deb ham ta'riflash mumkin. Ushbu san'atni egallash uchun tarjimondan, birinchi navbatda, asliyat matni mazmun-mohiyatini to'la-to'kis idrok etish, uni o'girilayotgan tilda bekami ko'st qayta ifodalashga erishish talab qilinadi.

Bu masalaga lingvistik nuqtai nazardan yondashiladigan bo'lsa, tarjimani bir tilda yaratilgan matnni uning shakl va mazmun birligini saqlab qolgan holda, o'zga til vositalari asosida qayta yaratish maqsad qilib qo'yilgan hamda ilmiy jihatdan asoslangan ijodiy-adabiy jarayon sifatida ta'riflash mumkin. Demak, tarjima jarayonida asliyat tili vositalari yordamida yaratilgan asar tarjima tili qonuniyatlari va imkoniyatlariga mos ravishda qayta yaratiladi va buning natijasida asliyat hamda tarjima matnlarining mazmuniy-uslubiy muqobilligi yuzaga keladi. Bu esa o'z navbatida lingvomadaniy qatlamlarning yaqinlashuviga zamin yaratadi.

Jahon adabiyoti xazinasini dunyo tamadduni tomonidan yaratilgan eng buyuk kashfiyotlardan biri ekanligi shubhasiz. Ammo, lison otli xilqat sabab ushbu xazinadan hamma ham birday bahramand bo'lishi imkoniyati cheklangan. Ushbu muammoning yagona yechimi sifatida "badiiy tarjima" atalmish ham adabiy, ham ilmiy hodisa yuzaga kelgan.

Akademik Naim Karimov o'zining "Tarjima san'ati va jahon adabiyoti" maqolasida shunday deb yozadi: "Odamzod qaerda, yer kurrasining qaysi bir go'shasida yashagan bo'lmasin, yangi hayot manzillarini kashf etish, daryolar, dengizlar, hatto ummonlarning narigi sohilidagi hayot bilan oshno bo'lishga, o'sha yerdagi hayot manbalaridan bahramand bo'lishga intilgan. U shu maqsadda suzishni o'rgangan, qayiqalar yasagan, ko'priklar qurgan. Insoniyat taraqqiyotning muayyan bosqichiga ko'tarilganidan so'ng boshqa mamlakatlar va qit'alarda yashagan xalqlar badiiy madaniyatidan, nafis adabiyot olamida erishgan yutuqlaridan bahramand bo'lishga katta ehtiyoj sezgan. Odamzodning ana shu ehtiyoj taqozosi bilan adabiyotlar aro qurgan "ko'priki" hozirgi kunda "badiiy tarjima" deb ataladi" [3].

Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, hech bir milliy madaniyat boshqa ma'naviy-ma'rifiy qatlamlardan, shuningdek tamaddun rivojlanish jarayonlaridan ajralgan holda yuksak taraqqiyot bosqichiga

ko'tarilganini ko'rmaymiz. Aksincha, dunyodagi barcha madaniyatlar bir-birlariga u yoki bu darajada ta'sir o'tkazib, o'ziga xos rivojlanish yo'lini boshidan o'tkazib kelgan. Shuning uchun turli millatlar madaniyatlarida umumiylik va xususiylik borligini hisobga olib, tarjimani xalqlar o'rtasidagi lingvomadaniy ko'prik, tarjimonlarni esa madaniyat elchilari deyishga to'la asosimiz bor.

Hayotdagi voqea-hodisalarni teran falsafiy idrok etish adib ijodiga xos xususiyatdir. U o'z asarlari orqali hayotdagi azaliy va abadiy, har doim o'zaro kurashib kelgan hayot va o'lim, muhabbat va nafrat, sadoqat va xiyonat, go'zallik va chirkinlik, shaxs va jamiyat kabi azaliy qarama-qarshiliklar mavzusiga murojaat qiladi. Ana shunday ijtimoiy muammolar, jumladan "hokimiyat va xalq" muammosi "Sevgi afsonasi" asarining ham markazida turadi.

"Yashar Kamol o'z ijodini Onado'lu xalq og'zaki ijodi namunalari bilan omuxta asarlar yozish bilan boshladi. Haqiqiy so'z ustasi bo'lgan adib turk tilining ifoda qudrati, nafosati, xalq og'zaki ijodining yagona qahramoni bo'lgan turk xalqi madaniyatidan ilhomlandi" – deb yozgan edi tunislik olim Jeliha Hafsiya (La Press). Angliyaning Manchester Guardian jurnali adib haqida "Yashar Kamolning romani Tolstoy romani kabi keng miqyosli, Dikens romani kabi jonlidir" deb, Irlandiyaning Irish Times gazetasi adibning tili haqida "Uning boy, rangorang uslubi va yozgan har so'zi o'tkir, serjilo, sermag'iz, bug'doy doni kabi to'q, sermahsuldir" deb yozgan edi.

Ushbu asar haqida Angliyaning Daily Telegraph gazetasi "Yashar Kamol Shahrizodaning hikoyalari, Tolstoy romanlari kabi keng miqyosli, Dikens romanlari kabi jonlidir" deb yozgan bo'lsa, "Sunday Telegraph" jurnali "Kitobning go'zalligi boy nazm uslubi, afsona va mif tuyg'usiga tayanadi" deb takidlagan edi [2,5].

Turk mumtoz adabiyotining durdona asari tarjimasiga qo'l urgan tarjimon zimmasiga jiddiy masuliyat yuklanishi tabiiy. Ammo, tarjimon asl matn tilini yaxshi egallaganligi, turk xalqining milliy ruhiy holati, tarixi, madaniyati, mentaliteti, mamlakatshunoslikka oid ma'lumotlardan xabardor bo'lib, o'zbek tili qonun-qoidalaridan boxabar bo'lganligi asar o'zbek tilidagi tarjimasining muvaffaqiyatli chiqishiga zamin yaratgan, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Adabiyotshunos Ibrohim G'afurov shunday yozadi: "Asliyat matni ustida qunt va sabot bilan ish olib bormay turib, asarning o'ziga yarasha iboralari, frazeologizmlari, obrazli ifodalariga daxldor maxsus lug'atlar va izohlar tuzmay turib, qoramalar qilmay turib, tarjimaga kirishib

bo'lmaydi. Har qadamda qoqilasiz va har qadamda noto'g'ri tarjima qilasiz. Bu jarayonga ilmiy-ijodiy yondoshib, asliyatning badiiy uslubiga yo'l topasiz, zarur ritmika, jumalarning ohanglarini anglay boshlaysiz. Muttasillik va uzluksizlik, izchillik - tarjima jarayonlarida juda ulug' amaliy ahamiyatga ega g'oya! U tarjima ma'rifati va madaniyatida birinchi o'rinda turadi".

Yashar Kamol "Sevgi afsonasi" romanida Og'ritog' (Ararat tog'i) etaklarida yashagan xalqlarning hayot tarzi, mahalliy aholining tarixiy qadriyatlari, urf-odatalari, xalqlarga oid afsonalardan ustalik bilan foydalangan. Asarda hikoya qilingan voqea-hodisalarning ba'zilari afsona emas, balki tarixda yuz bergan voqealar bo'lib, adib ularni o'z asariga mohirona singdira olgan.

Asar Og'ritog' etagida joylashgan Kup ko'li atrofida cho'ponlarning xar yil bahor kelishi o'tkazadigan marosimlari haqidagi hikoyasi bilan boshlanadi. Unga ko'ra cho'ponlar tog'dagi qorlar erib, bahor ko'z ochganda, hali quyosh chiqmasdan Kup ko'li atrofida to'planishadi, o'zlari bilan olib kelgan sibizg'alarini sozlab, "Og'ritog' nolasi"ni chala boshlaydilar. Bu nola quyosh chiqishidan boshlanib, ufqqa bosh qo'ygandagina nihoyasiga yetadi. Kun botishi bilan esa qorday oppoq, ingichka, barmoqday keladigan, mitti bir qushcha ko'l uzra charx ura boshlaydi. U ko'lning moviy suviga bir qanotini tekkizib o'tadi va bu harakatini uch marotaba takrorlaydi. Qushcha g'oyib bo'lgach, cho'ponlar sibizg'alarini yana belbog'lariga qistirib, u yerdan jimgina uzoqlashadilar. Aynan shu hikoya asarda bir necha marotaba takrorlanadi va asarning qolgan qismi ushbu hikoya atrofida "aylanadi".

Kumush bezakli, naqshinkor, cherkes ustalari yasagan egarli, kumushdan yasalgan uzangisiga naqsh solingan, kigiz yopinchiqli shohona bezatilgan, asar qahramoni Ahmadning boshiga tushgan tashvishlarning asosiy sababchisi bo'lgan ushbu xoldor ot mohirona chalingan sibizg'a nolasi tufayli Ahmadning uyi oldiga kelib to'xtaydi. Avvaliga qo'shnilar, xususan So'fiy ham otni Ahmadni mehmonlariga tegishli deb o'ylaydi. Otning ko'rinishi, egari, undagi tamg'adan otning yuqori martabali biriga tegishli ekanligi bilinib turardi. So'fiy o'z oyoqlari bilan kelgan otni Ahmadning qismati ekanligini ta'kidlaydi. Shunday bo'lsada So'fiy Ahmadga otni uch marotaba uydan uzoqqa tashlab kelishini maslahat beradi va har safar ot takror Ahmadning eshigi oldiga kelib to'xtaydi. Shundan so'ng Ahmad ham xoldor otning o'z qismati va ilohiy mukofot ekanligiga ishonadi.

Mahalliy aholi urf-odatlariga ko‘ra, o‘z oyog‘i bilan kelgan ot asl egasiga hech bir holatda qaytarib berilmasdi. Bu vaziyat asliyatda quyidagicha berilgan: “Atın sahibi bey de olsa, paşa da, Osmanlı Padişahı, Acem Şahı da olsa, Köroğlu da olsa, kelleni verir de bu atı veremezsin. Ve hem de veremeyiz” [1,15]. Tarjimasi: “Mayli, otning sobiq egasi bey bo‘ladimi, poshshomi, Usmonli sultoni yoki Ajam mulkining podshosi bo‘ladimi, Go‘ro‘g‘li bo‘ladimi, boshingni o‘rtaga qo‘yasan, ammo otni egasiga qaytarib bermaysan. Bu bizning odatlarga to‘g‘ri kelmaydi [2,17]”.

Xoldor ot nafaqat Ahmad va Gulbahor uchun balki mahalliy aholi, Gulbahorning otasi, ushbu hudud begi Maxmudxon ham ot tufayli qizi va o‘z ta’sir kuchidan ayriladi. Oradan olti oy vaqt o‘tgandan so‘ng ot Boyazid begi Mahmudxonniki ekanligi ma’lum bo‘ladi va u otini qaytarib berishni talab qilib odamlarini jo‘natadi. Ahmad otni qaytarib bermagach, g‘azab otiga mingan Mahmudxon Og‘ritog‘ sari yurishga otlanadi. Ahmadning Sariq qishlog‘iga kirib kelgach, huvillab qolgan qishloqda So‘fiydan boshqa bironta tirik jonni topa olmaydi. Qishloq aholisi va Ahmad Maxmudxondan qochib Og‘ritog‘ bag‘ridagi qishloqda yashirinib oladi. Asarning keying qismlarida Ahmadga Og‘ritog‘ cho‘qqisida mash’ala yoqish sharti qo‘yilganda tog‘ bilan bog‘liq afsonalarga keng o‘rin beriladi.

Asarda tog‘ dunyo yaratilgandan buyon mavjud bo‘lgan muqaddas makon sifatida beriladi. Afsonaga ko‘ra ushbu tog‘ dunyoning markazi ekanligi va insoniyat tarixida ilk olov ana shu tog‘ cho‘qqisidagi mash’aladan olingani aytiladi: “Ağrının tam tepesinde bir ateş harmanı vardır. Doruğun tam ortasından bir kuyu dünyanın ortasına iner. İlk ateş bu kuyudan alınmıştır”[1.121]. Ushbu parcha tarjimada quyidagicha berilgan: “Og‘ritog‘ning cho‘qqisida bir vulqon bor. Cho‘qqining aynan o‘rtasidan to yer qa‘rigacha boradi. İlk olov ana shu vulqon qa‘ridan olingan ekan”. Bu yerda ilk olov aynan Og‘ritog‘dan olingan degan asotir ilgari suriladi. Mahmudxon Ahmadga Og‘ritog‘ning cho‘qqisida mash’ala yoqish shartini qo‘yganida, “tog‘dan olov o‘g‘irlash” voqeasi haqida so‘z boradi. Unga ko‘ra, insonlar Og‘ritog‘ning tepasidan olov olishga bir necha marotaba harakat qilishgan: “Ateşi kaçıranlardan bir tanesi dağın gafletinden faydalanmış, ateş gölünden bir tutam ateş koparmış, başlamış dağdan aşağı koşmağa, ta aşağılara inmiş. Tam bu sırada Ağrı uyanmış, bakmış ki ateşi koparan başını almış gidiyor. Hemen eli ateşli adamı orada, olduğu yerde yakalamış, durdurmuş. Adamı da, elindeki ateşi de o anda, orada dondurmuş” [1.121].

Tarjimada bu holat quyidagicha beriladi: “Olovni olib qochgan kishi tog‘ning g‘aflatda bo‘lgan paytidan foydalangan, olov dengizidan bir hovuch olov yulib olib tog‘dan pastga yugurgan. Shunda Og‘ritog‘ uyg‘ongan va tezda uni tutib olgan, uni ham, qo‘lidagi olovni ham toshga aylantirib qo‘ygan ekan [2,106]”.

Mahmudxon, Ismoil og‘a maslahatiga ko‘ra, Ahmadni tog‘ning cho‘qqisiga jo‘natar ekan, tog‘ bilan bog‘liq afsonalarga eslaydi va Ahmadni shartini bajara olmay cho‘qqida vafot etishiga ishonadi. Asarda ushbu holat shunday beriladi: “Balki chiqar, -dedi poshsho. – Chiqqan taqdirida ham qaytib tusha olmaydi. Og‘ritog‘ uni qo‘yvormaydi [2,106]”.

Garchi Og‘ritog‘ haqida manfiy afsonalar ko‘p berilgan bo‘lsada, tog‘ning zulmga uchraganlarga yordam qo‘lini cho‘zishi, yomonlikka qarshi g‘azabi bilan bo‘liq afsona ham keltiriladi.

Afsonaga ko‘ra cho‘pon va bekning qizi bir-birini yoqtirib qoladi. Bundan habar topgan bek va qo‘l ostidagi o‘n besh qishloqning yigitlari toqqa yashiringan cho‘pon yigitni topish uchun yo‘l oladi. Tog‘ning sevishganlarga qarshi bo‘lganlar va ularning zulmga g‘azabi quyidagicha beriladi: “Ağrıdağı zulme, kötülüğe öfkelenmiş, kaldırmış bir parçasını bunların üstüne yollamış. On beş köy teknil canlısıyla dağın altında kalmış. Dağ yutmuş onları”[1,118]. Tarjiması: “Og‘ritog‘ zulmdan g‘azabl原因, ana shu g‘azabdan bir parchasini ularga yo‘llagandi. O‘n besh qishloq aholisi bilan tog‘ ostida qolgan, tog‘ ularni yamlab yutgan edi...”.

Boshqa bir o‘rinda, Og‘ritog‘ning xalq bilan birgalikda Gulbahorni qutqargani Mahmudxon saroyi ustiga yurgani aytiladi. Ya‘ni Og‘ritog‘ xalqqa aylanadi. “...go‘yo yerdan odam unib chiqayotganday, osmondan yog‘ilayotganday so‘ngsiz olomon, Og‘ritog‘ bilan Mahmudxon saroyi tomon oqmoqda [2,85]”. Bu orqali yozuchi xalq birlashsa tog‘day kuchli bo‘la olishini ta‘kidlashga harakat qiladi. Inson va koinotning yaratilishi bilan bog‘liq afsonalarga ko‘ra tog‘ insonlar orasidagi birlik ramzi ham hisoblanadi.

Roman oxirida Ahmad Kup ko‘lida afsonaviy qaldirg‘och kabi nozik, kichkina qushga aylanadi. Ushbu qush ishtirokidagi holat asar davomida bir necha bor takrorlanadi “.... kücücük ak bir kuş gelip kanadını suyun som mavisin batırır. Ve sonra da bir atın kapkara gölgesi gölün üstünden gelir geçer” [1,143]. Bu parcha tarjimada quyidagicha beriladi: “...shunda kichkina oppoq qushcha uchib kelib, qanotlarini moviy zilol suvga tekkizadi va yana yuqoriga parvoz qiladi.... So‘ngra

bir qo‘ng‘ir otning qop-qora ko‘lankasi ko‘l ustidan uchib o‘tganday bo‘ladi” [2,125].

Barcha voqealarning sababchisi bo‘lgan xoldor ot va asar yakunida Ahmadning afsonaviy qushga aylanish sahnasida qo‘ng‘ir otning qop-qora ko‘lankasi paydo bo‘ladi. Otlar asarda Gulbahor obrazini ifodalaydi, buni ushbu parchadan ham bilib olishimiz mumkin “...Bu taqdirning taqozosi, peshonaga yozilgani, yigitning boshiga qo‘ngan baxt qushi edi. Ot ham, Gulbahor ham unga Yaratganning, Og‘ritog‘ning bebaho tuhfası edi. Demak, Ahmad bu bebaho tuhfaga munosib bo‘lmog‘i kerak”.

Xulosa. “Sevgi afsonasi” (Og‘ritog‘ afsonasi) romanida ot, muqaddas hayot daraxti, temirchi kabi dostonga oid unsurlar; so‘fi, Karvon shayxi, Og‘ritog‘ cho‘qqisiga chiqib olov yoqish kabi hikoya va afsona motivlaridan foydalanilgan. Og‘ritog‘, Kup ko‘li, sibizg‘a nolasi, qaldirg‘ochga o‘xshagan nozik qushcha, qop-qora ot ko‘lankasi asarda afsonaviy ramzlarga aylantirilgan. Asarni o‘zbek tiliga mohirona o‘girilganligini e‘tirof qilish barobarida, ushbu maqola mifologik unsurlarga yo‘g‘rilgan turkcha roman va uning o‘zbekcha tarjimasi ustida olib borilayotgan tadqiqotimizning ilki ekanligi va bu mavzudagi ishlar kelajakda davom ettirilajagini ta’kidlamoqchimiz.

Adabiyotlar:

1. Yaşar Kemal. Ağrıdaki Efsanesi, roman. www.cizgiliforum.com.
2. Yashar Kamol. Sevgi afsonasi: roman. Tarjimon: X.Hamidov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021 yil. – 128 b.
3. Karimov Naim. Tarjima san’ati va jahon adabiyoti. “Jahon adabiyoti” (el. nashr), 2017 yil.

BUXORO NIKOH TO‘YI UDUMLARINING UNGA ALOQADOR MAROSIM QO‘SHIQLARIDAGI BADIY IFODASI

Sherbekova Gavhar Yaxshiboevna

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Buxoro, O‘zbekiston Respublikasi

Annotasiya. Mazkur maqolada Buxoro nikoh to‘yi udumlari hamda nikoh to‘yi urf-odatlariga aloqador aloqador marosim qo‘shiqlari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: nikoh to‘yi, marosim, “Uy ko‘rdi”, “Qalin bichish”, “sut puli”, “karda puli”, “Fotixa”.

Аннотация. В статье дается научное исследование бухарских свадебных обычаев и обрядовых песен, связанных с свадебными обычаями.

Ключевые слова: свадьба, обряд, Уй курди”, “Калин бичиш”, “сут пули”, “карда пули”, “Фотиха”.

Abstract. This article scientifically examines the Bukhara wedding customs and ceremonial songs related to wedding traditions.

Key words: wedding, ceremony, “Uy kurdi”, “Kalin bichish”, “Sut puli”, “Karda puli”, “Fotiha”.

Buxoro nikoh to‘yi udumlarga boy. Unga aloqador udumlarning aksariyati nikoh to‘yi marosimi jarayonida aytiladigan qo‘shiqlarda ham o‘z badiiy tajassumini topganligi bilan e‘tiborni tortadi.

To‘ydan oldin kelin boradigan xonadonni surishtirish, borib ko‘rish, tanishish udumi haligacha saqlanib kelayotir. Odatda, keksa ayollar ishtirokida tashkil qilinadigan bu udum xalq orasida “Uy ko‘rdi” deb nomlanadi. Unga ishoralar quyidagi yor-yorda ifoda etilgan:

Keksa-keksa xotinlar

Borib keling, yor-yor.

Ikki yoqni ko‘ndirib,

To‘yni qiling, yor-yor.

To‘y bo‘lajak hovlini

Ko‘rib keling, yor-yor.

Domotimiz onasini

So‘rab keling, yor-yor.

Kuyovning uyini ko‘rishga kelgan ayollarga kuyov xonadoni, odatda maqtalgan, ta‘rif-tavsiflangan:

Kelin tushgan uyning

Naqshi bordir, yor-yor.

*Bizga kelgan kelinning
Baxti bordir, yor-yor.*

Kuyovning uyini, xonadon ahlini ko‘rib kelgan ayollar esa qiz tomonga shu maqto‘v va ta‘rif-tavsiflarni yetkazishgan:

*Kelin tushgan uyning
Sveti bor, yor-yor.
Hamma xalqning dunyodan
Umidi bor, yor-yor.*

Yoki:

*Hay-hay o‘lan, hay o‘lan,
Hay saniki, yor-yor.
To‘rt burchagi kumushdan
Uy saniki, yor-yor.*

Yor-yorlarda “uy ko‘rdi” natijalarini ba‘zan qizning dugonasi so‘rab, bilib berishi ifoda etilgan:

*Tog‘da kiyik sayr etib,
Soyga tushdi, yor-yor.
Maning sevgan dugonam
Qayga tushdi, yor-yor.*

Uy ko‘rib kelgan ayolning kelin dugonasi savoliga javobi:

*“Qayga tushdi?” – demanglar,
Ishq bog‘ida, yor-yor.
Endi o‘rin qolmaydi
Dil dog‘iga, yor-yor.*

Agar “uy ko‘rdichi”larga kuyov tomon ma‘qul kelmasa, bu ham ro‘y-rost aytilgan:

*Jersi ko‘ylak egnida
Guli mayda, yor-yor.
Tanimaymiz kuyovni
Uyi qayda, yor-yor.*

Turmushga uzatilayotgan qiz uchun kuyov tomonga ma‘lum miqdorda “qalin” belgilash va olish shunday udumlardan biridir. Bu voqelik, xususan, qizni kuyovnikiga uzatish jarayonida kuylanadigan “yor-yor” qo‘shiqlarida ham bildirib o‘tilgan:

*Boqqa qo‘chqor bog‘lamoq,
Odat ekan, yor-yor.
Qalin berib, qiz olmoq,
Davlat ekan, yor-yor.*

Ko‘rinyaptiki, qo‘shiqda “qalin berib, qiz olmoq” odat, davlat ekani alohida ta’kidlanmoqda. Buning uchun yigit tomon maxsus tayyorgarlik ko‘rgan. Mol-hol boqib, pul yiqqan, chunki qalin narxi yo pul, yo mol bilan belgilangan. Qalin belgilash jarayoni “qalin bichmoq” deb yuritiladi. “Qalin bichish”da sovchilar mas’ul hisoblangan.

Ayrim yor-yorlarda qalinning miqdori, odatda, uning qimmat narxlanishiga ishorani kuzatish mumkin:

*Uzoq-uzoq yo‘l yurib
Surilmanglar, yor-yor.
O‘n besh tillo pul berib
Kerilmanglar, yor-yor.*

Ushbu to‘rtlik bandda “O‘n besh tillo pul” miqdoridagi qalin pulini “berdim” deb aytishga va kerilishga arziyasligi shunchaki aytilmayapti. Buning sababi shu bandning mantiqiy davomi sifatida keltirilgan quyidagi bandda ravshanlashtirilgan. Kelin tomon, odatda, qizning “qalin”i uchun olgan pulini uning sepini qilish, kam-ko‘stini hozirlash uchun ishlatadi. Shuning uchun qizni olib kelgan yangalar tilidan aytiladigan yor-yorlarda olingan tillo puli bo‘lsa-da, xarjlab kelingani haqida gapiriladi:

*O‘n besh tillo qalinni
Xarjlab keldim, yor-yor.
To‘lgan oydek singlimni
Boshlab keldim, yor-yor.*

Ayrim joylarda qalindan tashqari, “sut puli” ham olinadi. Ba’zi joylarda “qalin” va “sut puli” ning umumiy holatda “qalin”ni ifodalashi ham kuzatiladi. Aslida “sut puli” (Surxondaryoda “karda puli” deb ham yuritiladi) qizning onasini rozi qilish uchun kuyovning onasi tomonidan beriladigan pul hisoblanadi. Umuman aytganda, xalqimiz orasida, jumladan, Buxoro aholisi o‘rtasida saqlanib kelayotgan “sut puli” berish udumining nomi hududda yaratilgan va kuylanib kelayotgan nikoh to‘yiga aloqador qo‘shiqlardan o‘rin olgani bejiz emas. Bunga “kelin salom” qo‘shig‘i matnidan olingan quyidagi misralar misol bo‘la oladi:

*“Sut puli” deb so‘zlagan.
Qo‘y-qo‘zini ko‘zlagan,
Tog‘asiga bir salom.*

Yuqoridagi misralarda “sut puli” deb so‘zlagan, buning uchun qo‘y-qo‘zini ko‘zlagan aynan tog‘a ekaniga bekorga e’tibor jalb qilinmayotir. Chunki, odatda, “qalin” va “sut puli”ni belgilashda har ikkala tomondan jonkuyar va himoyachi, rahnamo sifatida tog‘a ishtirok etadi.

Keyingi paytlarda ko‘p joylarda “qalin” va “sut puli” olish-berish udumi yo‘qolib borayotgani tahsinga sazovor. Shuning uchun ular haqida ma’lumot beruvchi qo‘shiqlarni o‘rganish xalq marosim qo‘shiqlarining tarixiy-hayotiy asoslari bilan tanishish, ular to‘g‘risida bilish imkonini berishi bilan muhim hisoblanadi.

Kelin uchun berilgan qalin bilan to‘y xarji bir narsa emas. To‘y xarji to‘y ziyofatini tashkil qilish va o‘tkazish uchun kuyov tomonidan yuboriladigan narsalarni, ya’ni to‘yga so‘yiladigan tana yoki qo‘chqor, qo‘y), yog‘, un, shirinliklar, hatto o‘tin kabilarni anglatadi. Xalq tilida bu udumni ifodalash uchun “to‘y ortmoq”, “to‘y yubormoq”, “to‘y olmoq”, “to‘y keltirmoq”, “to‘y kelmoq” kabi birikmalar ishlatiladi. Ko‘pchilik “ko‘z tegmasin” degan niyatda “to‘y”ni yashirin, pana-pastqam ko‘chalar orqali yuborgan.

Egri-bugri ko‘chadan

Soy keladi, yor-yor.

Uzun bo‘yli singlinga

To‘y keladi, yor-yor.

Yoki yana:

Tizza bo‘yi loy ko‘cha,

Bu kecha, yorug‘ kecha.

Qo‘shnimizda bo‘ldi to‘y,

Keldi to‘yga semiz qo‘y.

Ba’zi qo‘shiqlarda qalin uchun yoki to‘y ziyofati uchun keltirilgan mollarning oriqligi ustidan kulinadi. Kelinchak hali bormay turib, kuyov tomonidan bu tarzda kamsitilganiga achinish, kuyov tomonning xasisligi va bee’tiborligidan nafrat bildiriladi:

Arobaning gupchagi

Yoriq ekan, yor-yor.

Qizga bergan qo‘yingiz

Oriq ekan, yor-yor.

Aravaning gupchagi

Larzon ketdi, yor-yor.

Esizgina jon singlim

Arzon ketdi, yor-yor.

Nikoh to‘yi bilan aloqador ayrim marosim qo‘shiqdarida “to‘y” berishda, to‘y yuborishda oliyhimmat bo‘lishga chorlangan. Qolaversa, xalqimizda “Topganing to‘yga buyursin” degan alohida olqish ham mavjud:

*Qator-qator tevaga
To‘y ortinglar, yor-yor.
Tog‘da yurgan suruvdan
Qo‘y ortinglar, yor-yor.*

Buxoroda kelin-kuyov uchun chimildiq ikki bor tutiladi. Birinchisi – kelin xonadonida, uni kuyovnikiga uzatishdan oldin o‘tkaziladigan “Fotiha” to‘yida tutadilar. Ikkinchi esa kuyov xonadonida tutiladi. Uning ichiga kelin-kuyovning joyi to‘shaladi.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro nikoh to‘yiga aloqador udumlar tasviri, talqini hozirgacha jonli ijroda saqlanib kelayotgan yor-yor, o‘lan, kelin salom singari janrlarda o‘ziga xos badiiy ifodasini topganligi alohida e‘tiborga loyiqdir.

XORAZM DOSTONCHILIGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

(Baxshilar repertuari va ijrochilik mahorati)

*Sabirova Nasiba Ergashevna
Urganch Davlat Universiteti
filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD), dotsen
Urganch, O‘zbekiston Respublikasi*

Annotasiya: Ushbu maqolada Xorazmda doston ijrosida soz, musiqaga asosiy e‘tibor qaratilishi, har bir nag‘ma-kuy maxsus nomlangan bo‘lganligidan kuylarni esda saqlash baxshi zimmasiga yanada ko‘proq mas‘uliyat yuklashi, baxshilar repertuari va ijrochilik mahorati haqida so‘z boradi. Bundan tashqari baxshida o‘z kasbiga e‘tiqod, kuch-g‘ayrat bo‘lishi shart ekanligi, xorazmlik Suyav baxshi Muhammad Rahimxon Soniy-Feruz dargohida “Ero‘g‘li” dostonini 21 kecha muntazam kuylagani, hatto poyariqlik Amin baxshi “Alpomish” dostonini uch oy mobaynida kuylagani va bunday real ma‘lumotlar hozirda afsonaday bo‘lib tuyulishi, baxshi mahorati ko‘p narsaga bog‘liq ekanligi, eng avvalo an‘anadan boshlanishi lozimligi xususida fikr-mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, doston kuylash an‘anasi asrlar

bo'yi avloddan avlodga o'tib kelganligi, iqtidorli baxshilar uni muntazam takomillashtirib kelishgani, ammo ijrochining shaxsiy mahorati faqat an'ana doirasidagina ro'yobga chiqshi maqolada misollar asosida keltirib o'tilgan. Dostonchilikning sir-asrorini puxta bilmagan ijrochi o'z mahoratini namoyon qila olmasligi, bu sir-asror asosan, doston kompozitsiyasida namoyon bo'lishi, folklorshunoslikda bu hodisani epik qolip deb yuritilishi yuzasidan qiziqarli ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: baxshichilik, baxshichilik repertuari, ijrochilik mahorati, baxshichilik maktabi, doston ijrosi, soz, musiqa, dostonchilik, doston kuylash an'analari.

Аннотация: В этой статье обсуждается акцент на словах и музыке при исполнении былин в Хорезме, тот факт, что каждая мелодия имеет особое название, поэтому память мелодий накладывает большую ответственность на бахши, репертуар и исполнительское мастерство бахши. Кроме того, Бахши должен иметь веру и энергию в своей профессии: Суяв Бахши Мухаммад Рахимхан из Хорезма пел эпос «Эрогли» в Соний-Феруз 21 ночь, и даже Амин Бахши из Пояра спел эпос «Алпомиш» три месяца. что мастерство бахша зависит от многих вещей, начиная с традиции. В статье также приведены примеры из того, что традиция пения былин передавалась из поколения в поколение на протяжении веков, а талантливые бахши постоянно совершенствовали ее, но личные умения исполнителя реализуются только в рамках традиции. Приводится интересная информация о неспособности исполнителя, не знавшего секретов эпической поэзии, проявить свое мастерство, что эта загадка в основном отражается в композиции эпоса, а в фольклоре это явление называется эпическим узором.

Ключевые слова: бахши-сказитель, репертуар бахши-сказителей, исполнительское мастерство, школа бахши-сказителей, эпическое исполнение, соз, музыка, дастаны, традиции эпического пения.

Annotation: This article discusses the emphasis on words and music in the performance of epics in Khorezm, the fact that each melody has a special name, so the memorization of melodies puts more responsibility on the baxshi, the repertoire of baxshis and performance skills. Besides, Bakhshi must have faith and energy in his profession. Suyav Bakhshi from Khorezm Muhammad Rahimkhan sang the epic

"Erogli" for 21 nights at Soniy-Feruz. It has been suggested that the skill of the bakhsh depends on many things, starting with tradition. The article also cites examples of the fact that the tradition of singing epics has been passed down from generation to generation for centuries, and talented bakhshis have constantly improved it, but the personal skills of the performer are realized only within the tradition. Interesting information is given about the inability of the performer, who did not know the secrets of epic poetry, to demonstrate his skills, the fact that this mystery is mainly reflected in the composition of the epic, and in folklore this phenomenon is called an epic pattern.

Key words: baxshichilik, baxshichilik repertoire, performance skills, baxshichilik school, epic performance, soz, music, dostonchilik, epic singing traditions.

Doston xalqimiz bisotidagi buyuk obidadir. Uning asrlar osha saqlanib, ajdoddan-ajdodga o'tib kelishida ko'plab baxshilar shajarasining hissasi bor. Shu boisdan ham "...keng mundarijali, chuqur mazmunli, xilma-xil obrazlarga, rang –barang badiiy vositalarga, arxaik va barhayot lug'atga, tadqiqotchilar hali payqab ololmagan grammatik xususiyatlarga juda boy xalq dostonlarining asrlar osha saqlanib kelishida zo'r qobiliyat egasi bo'lgan xalq shoirlarining xizmati g'oyat katta va tahsinga sazovordir"[1], deb yozganida talantli folklorshunos Hodi Zarif mutlaqo haqdir. Darhaqiqat doston o'z ijrochisi bilan tirikdir. Baxshi yoki xalfa, qolaversa qissaxon matndagi tafilotga jon bag'ishlaydi. Biroq, bu ijrochilar orasida baxshiga tenglashadigani yo'q [2]. Chunki baxshi kuy, qo'shiq va badiiy nutqni jozibali qilib birlashtirgan holda auditoriyaga yetkazadi. "Baxshi ijrosida uning betakror ijrochilik iqtidori, talanti va musiqiy mahorati namoyon bo'ladi [3]. Shu nuqtai nazardan qaraganda professional baxshi darajasiga erishish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. "O'zbek xalqi va barcha baxshichilik maktablarining estetik prinsipiga ko'ra chinakam xalq baxshisi birinchi navbatda tabiiy talantga ega, ya'ni xalqona ta'bir bilan aytganda "Xudobergan" bo'lishi kerak" [4]. Shu boisdan ham professor M.Saidov: "Doston murakkab san'at asari bo'lib, uning doston bo'lishi uchun adabiy tekst, musiqa bo'lishi, kuylovchi hofizlik san'atini puxta egallagan va soz cherta bilishi zarur" [5], deb yozadi. Albatta doston ijrochisi yuksak xotira egasi bo'lishi ham shart va zarurdir. Ayniqsa Xorazmda doston ijrosida soz, musiqaga asosiy e'tibor qaratilib, har bir nag'ma-kuy maxsus nomlangan bo'lganligidan kuylarni

esda saqlash baxshi zimmasiga yanada ko'proq mas'uliyat yuklaydi. Bundan tashqari baxshida o'z kasbiga e'tiqod, kuch-g'ayrat bo'lishi shart. Aks holda xorazmlik Suyav baxshi Muhammad Rahimxon soniy - Feruz dargohida "Ero'g'li" dostonini 21 kecha muntazam kuylamagan bo'lar edi. Hatto poyariqlik Amin baxshi "Alpomish" dostonini uch oy mobaynida kuylagan[6]. Bunday real ma'lumotlar hozirda afsonaday bo'lib tuyuladi. Baxshi mahorati ko'p narsaga bog'liq bo'lib, avvalo an'anadan boshlanadi. Doston kuylash an'anasi asrlar bo'yi avloddan avlodga o'tib kelgan. Iqtidorli baxshilar uni muntazam takomillashtirib kelishgan. Ammo ijrochining shaxsiy mahorati faqat an'ana doirasidagina ro'yobga chiqadi. Dostonchilikning sir-asrorini puxta bilmagan ijrochi o'z mahoratini namoyon qila olmaydi. Bu sir-asror asosan doston kompozitsiyasida namoyon bo'ladi. Folklorshunoslikda bu hodisani epik qolip deb yuritishadi. Professor M.Saidovning ta'kidlashicha, epik qolip va an'anaviy formulalar ot ta'rifi, poyga tavsifi, safarga otlangan qahramonga ota, ona yoki biror yoshi ulug' kishining nasihati, yo'l bo'lsin va unga javob, jang oldidagi faxriya yoki maqtanish-manmanlik kabilar doimiy o'rinlarda ishlatilib, dostonchilikda muhim o'rin tutadi[7]. Epik qolip baxshi uchun tayyor andoza bo'lib xizmat etadi. Agar iqtidorli ijrochi bo'lsa, o'zi tomonidan yangi lavhalarni ham qo'shib, syujetni yanada boyitadi. Epik qolip doston kompozitsiyasi bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Stilistik formulalar esa dostonidan dostonga ko'chib yuradi. Shu jarayonda tobora sayqallashib boradi. Xorazm dostonlari romantik xarakterda bo'lganligi sababli ularda ot ta'rifi, poyga tavsifi kam uchraydi. Ushbu lavhalarni faqat "Go'ro'g'li" turkumi dostonlaridagina uchratish mumkin. "Oshiq" turkumida esa epik ot obrazi yo'qligi uchun ot ta'rifi va poyga tavsifi umuman tushirib qoldirilgan. "Go'ro'g'li" eposida g'irotning ta'rifi juda ko'tarinki ruhda madh etilgan Go'ro'g'li mo'jizali g'irotg'a ega bo'lib, eranlardan fotiha olgandan so'ng jo'shib ketib bedovining ta'rifini boshlaydi:

*Bedov otning ta'rifini boshlasam,
Shunqorligi uch yoshinnan ballidir.
Horimas oyoqli, toshdan tuyoqli,
Ko'zi tog' boshinda, bo'yni yollidir.*

*Uch yoshinnan qadam qo'ysa beshina,
Qashlaganda qo'llar yetmas boshina,*

*Olazarak boqar degra-deshina,
Kishnaganda chiqqan sasi ballidir.*

*Nor tuyaday masdir yetti yoshinda,
G'animlari qaltiraydi qoshinda.
Baland-baland tog' go'rinar tushinda,
Burgut sifatlidir ovda ballidur.*

*Bedov otning orzu-joni tandadur,
Pirim Shohimardon, dastim sandadur,
Go'ro'g'libek bir Xudog'a bandadur,
Tablada bosh bedov yovda ballidur[8].*

Bola baxshi ijrosidagi ushbu dostonda Go'ro'g'li tomonidan ot ta'rifi ikki –uch o'rinda berilgan bo'lib, unda epik qahramonning epik otga bo'lgan sadoqati, muhabbati madh etiladi. O'z navbatida epik qolip tarkibidagi faxriyalar, maqtanishlar ham ko'zga tashlanadi. Baxshi o'z ijrosida faxriyalarni go'yo o'zi haqida aytayotgandek ishtiyoq bilan kuylaydi. Faxriya –maqtanish-manmanlikning yorqin ko'rinishi "Go'ro'g'li" eposining "Bozirgon" shoxobchasida keltirilgan. Unda Go'ro'g'li o'zini juda ulug'lagan holda ta'riflab, manmanlikkacha borib yetadi:

*O'n sakkiz archin ot mindim,
Mindim, armonim qolmadi.
Zardan to'shaklar ustinda,
Yotdim, armonim qolmadi.*

*Savash guni quyruq eshdim,
G'anim bilan ko'p tashlashdim.
Dushman bilan qilichlashdim,
Chopdim armonim qolmadi.*

*Man surdim ajab davronni,
Tanda qo'ymadim armonni.
Urushg'anda yov qonini,
Do'kdim armonim qolmadi.*

*Umrin o'tar qolmas boqi,
Man gazdim yaqin yiroqi,
Go'rdim Shirvonu Iroqi,
Yurdim armonim qolmadi.*

*Dog'lardan jayron qochirdim,
Daryodan otni oshirdim,
Eramnan pari gatirdim,
Surdim armonim qolmadi.*

*Go'ro'g'li der: ot chopdirdim,
Yeddi fildan o'q o'tirdim,
Do'stlara sharob ichirdim,
Ichdim armonim qolmadi.*

O'n to'rt banddan iborat ushbu faxriyada Go'ro'g'li barcha faoliyatini bir-bir maqtab o'tadi. Baxshi ulardagi maqtanish ifodasini alohida urg'u bilan ifodalashga harakat qiladi. Chunki, dostonning ushbu joyi syujet tuguni bo'lib, voqealar rivojini boshlab beradi. Shu sababli ijrochi faxriyaning, o'zicha maqtanishning oqibati nimalarga olib kelishini ko'rsatish uchun Go'ro'g'lining faxriyasiga Og'a Yunus parining munosabatini so'z orqali ifodalashga o'tadi: Go'ro'g'li bu so'zni aytib tamom qilg'onnan keyin, Og'a Yunus pari qarasa, Go'ro'g'li suvchisinacha maqtadi, lekin parizodni dila olmadi, Go'ro'g'li bu so'zni aytib durg'onda parizod dolonning u yoqinann bu yoqina o'tib, ashulani eshitib: tomosha qilib durg'on adi.

Parizod Go'ro'g'lini so'zlarini eshitgannan keyin, qopisini gumburdatib ochib yubordi: ey, Go'ro'g'li sulton san na dab maqtanib o'tiribsan, dedi. O'n ikki ming uyli takali turkmanim bor, yigirma to'rt ming uyli ali ilim bor, mani na armonim bor, dab aytasan dadi. Qirq yigitim yonimda bo'lsa, olg'on yerni oldim, chopg'on yerni chopdim dab aytasan, zo'rdan zo'r ko'p, dadi. Magaram bir yera borsang, qazong yetib o'lsang, izingda og'adan ining, otadan zuryoding yo'q, bu sango bir armon amasmi, dadi.

Go'ro'g'li lol bo'lib o'tirvadi, zuryod so'zini eshitib, mazasi qochib getavardi. Saiston viloyatinda Salsolni o'g'li Bozirgon dagan do'ragan akan dadi, sani talab qilib, galib, qal'angni bir hafta qamal qilib getdi, bu sango bir armon amasmi, dedi. Agarda mani so'zima ishonmido'vin bo'lsang, darvozog'a bir xat diqib getdi, chiqib olib go'r na dagan akan dadi. Go'ro'g'li shatta o'rninnan turib, xatni go'rib, Bozirgonni

galganligini bilib, yigitlarini chaqirib yonina oldi. Yigitlarina maslahat barib, yigitlarini urusha tayyorlab otlarni zardan zabardan egarlab, o‘q-yoylarini bo‘ynina osib, qalqona cho‘lanib Go‘ro‘g‘li Bozirgonni izinnan sharpildab otlandi [9]. Bola baxshi nasriy bayonda eshituvchilarning ruhiyatiga kirib, bosh qahramonning ichki kechinmalarini tasvirlash orqali ularga ta‘sir o‘tkazadi.

Og‘a Yunus pari erining maqtanishiga quloq solib, o‘zining nomiga bir og‘iz xushomad so‘z aytilmaganidan jahli chiqib, Go‘ro‘g‘liga Bozirgon raqibi haqida xabar beradi. Ayniqsa Og‘a Yunus parining befarzandlik haqidagi so‘zi Go‘ro‘g‘liga jiddiy ta‘sir o‘tkazadi.

Baxshining ushbu bayoni tinglovchilarda jiddiy e‘tibor uyg‘otadi. Voqeaning endi qaysi tomonga yo‘nalishini baxshidan orziqib kutishadi. Shu tariqa doston voqealari o‘z rivojiga chiqa boshlaydi. Baxshining badiiy nutqdagi mahorati auditoriyani to‘la doston voqealari ichiga olib kiradi. Barcha doston ijrochilari ham asar voqealariga auditoriyani to‘la rom qila olmaydi. Buning uchun baxshi soz va so‘z qudratini o‘zida jamlagan bo‘lishi, yuksak talant va mahorat egasi sifatida shakllanishi zarur.

Bola baxshi-Qurbonnazar Abdullaev og‘zaki badiiy nutqda turli stilistik usullarga murojaat qiladi. Ayniqsa, “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari ijrosida badiiy nutqqa ko‘proq e‘tibor qaratadi.

Dialog personaj xarakterini, ichki tuyg‘usini ochib berishda asosiy omil bo‘lib xizmat etadi.

“Go‘ro‘g‘lining uylanishi” dostonida Og‘a Yunus pari bilan Go‘ro‘g‘lining uchrashuvi epizodi bo‘lib, unda Og‘a Yunus pari Go‘ro‘g‘li bilan Chamlibelga yo‘l olmoqchi bo‘ladi. O‘shanda uning enaga kampir bilan o‘zaro so‘zlashuv sahnasi baxshi tilidan dialog shaklida juda ta‘sirchan ifodalangan. Parcha keltiramiz: “Darrov xizmatkor kampirni chaqirdilar. Xizmatkor kampir deshona chiqib, Go‘ro‘g‘liga bir qaradidon ortina qaytavardi. Galib parizoda aytdiki, ey Og‘a Yunus parizod, dushingda go‘rgan odamzod shumi, dadi.

-Top o‘zi, shu-dadi parizod.

-Agar shu bo‘ladovin bo‘lsa, san mani so‘zima quloq sol-dadi kampir. –Ammo lekin so‘zimni qabul qilsang ham ixtiyoring qilmasang ham ixtiyoring o‘zingda, dadi kampir.

-Qani na gaping bo‘lsa aytavar, -dadi parizod.

-Agar aytsam, -dadi kampir, -bu galgan odamzoddur, san parizodsan. Odamzod tuproqdan, parizod nurdan yaralg‘an, sizlar bir-biringa hech do‘g‘ri galmisan, -dedi kampir.

-Yo‘q, - dedi parizod, man rost dushimda shungo al bardimmi, tuproqmi, doshmi shungo o‘z tanimni baxsh etaman, dadi parizod. Shunda kampir aytdiki, odamzodning boshqa hunarlari ham bor. San odamzoda borsang, xaros qo‘shasan, yer ag‘darasan, non yopasan, maydonnan tazak yig‘nisan, o‘joqa o‘t yoqasan, bu ishlar saning alingnan galavo‘larmakin, dadi kampir.

-Roziman – dadi parizod.

-Agar san munga rozi bo‘lsang, odamzodning yana bir hunari bor, mungo rozi bo‘lmassan, -dadi kampir.

-Na hunar akan, dadi parizod.

-Bu odamzod dagani bir –ikki xotina qanot atmidi, ustinga o‘ylanadi, yor so‘vadi, -dadi kampir. Hamma gapa rozi bo‘lib durgan parizod shu yera galganda sal o‘ylanib qoldi.

Go‘ro‘g‘li qopida durip bu gaplarni eshitib durvadi. Oxirgi gapdan so‘ng parizodning ikkilanganini ko‘rib, sal mazasi qochdi. Kampirni bu gapina ishonib ishni buzjoq-ov, bu dap, parizoda qarab, ko‘nglini go‘tarib” [10].

Ikki ayolning ichki kechinmasi dialog shaklida juda ta’sirchan ifodaga tortilgan. Unda ayollarga xos bo‘lgan andisha, xavotir, ehtiyotkorlik, tashvish, rashk, sevgi, iztirob kabi turli tuyg‘ular aralashib, oilaviy-maishiy hayotga oid kartina yuzaga kelgan. Ammo oxir oqibat sevgi-muhabbat bularning barchasidan ustun keladi. Bu lavhani baxshi tabiiy, ravon badiiy nutq orqali bayon qiladi. Eng asosiysi ayol tuyg‘usiga jiddiy ta’sir etadigan nuqtani ijrochi aniqtopa olgan. Og‘a Yunus pari enaganing aytgan barcha e’tirozlariga befarq qaraydi. Biroq, “Odamzoti bir-ikki xotinga qanoat qilmaydi, ustingga xotin oladi”, degan so‘zini eshitgach, ikkilanib qoladi. Ushbu epizod ayolning ruhiy holatiga aloqador bo‘lib, baxshi uni qahramon ichki tuyg‘usini yoritish uchun kiritgan va real kartinani namoyon qilib, tinglovchilarda hayotiy tuyg‘u uyg‘ota olgan. Chunki auditoriya ahli Og‘a Yunus parining qaysi tomonga rizolik bildirishiga qiziqib, uning Go‘ro‘g‘li bilan bosh qo‘shishiga hayrixoh sifatida qarashadi. Bola baxshining badiiy nutqida kinoya, qochirim, shama, kesatik kabi leksik usullar ham ko‘p uchraydi. Uning repertuarida “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari asosiy o‘rinni egallaydi. Og‘zaki nutq negizida namoyon bo‘ladigan badiiy tasvir ijrochi mahorati orqali o‘zining rangin qirralariga ega bo‘lgan. Unda Xorazm xalqining og‘zaki so‘zlashuv nutqidagi milliy kesatq va kinoyalar faqat o‘g‘uz lahjasi vakillari leksikasi bilan

aloqadordir. “Avazxon” dostonidagi badiiy nutqda tilning leksik ma’nodorligi baxshi mahorati orqali original tarzda namoyon bo’lgan.

Адабиётлар:

1. Hodi Zarif. Ulkan xalq san’atkori. // Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o‘rni. –T.: Fan, 1971. –B.8. (8-40).
2. Ro‘zimboev S.R. Epos haqida qaydlar. // Saylanma. –Urganch, “Xorazm”, 2012. –B.222. (222-295).
3. Бозоров А. Вопросы авторства и творческой индивидуальности бахши в узбекском народном дастанном сказительстве. АКД. –Т.: 1991. –С.15. (18).
4. Qahhorova Sh. Baxshi estetik ideali haqida. / O‘zbek folklorshunosligi masalalari. Vtom, -T.: 2015. –B.41. (40-44)
5. Saidov M. O‘zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat. –T.: Fan, 1969. –B.21. (264).
6. Мирзаев Т. Эпос и сказитель. –С.47-48.
7. Saidov M. Xalq dostonlarida epik qolip va an’anaviy formulalar. // O‘zbek filologiyasi masalalari. Nauchnie trudi TashGu. vip. 362. –T.: 1970. –S.52.
8. “Go‘ro‘g‘li”. –Urganch, “Xorazm”, 2004. –B.41 (476).
9. “Go‘ro‘g‘li”. –Urganch, “Xorazm”, 2004. –B.358-359(476).
10. “Go‘ro‘g‘li”. –Urganch, “Xorazm”, 2004. –B.65 (476).

NAZAR SHUKUR VA A’ZAM O‘KTAM IJODIDA XALQ MAQOLLARINING LIRIK IFODASI

*Umarova Nilufar Turapovna
Qarshi Davlat Universiteti
o‘qituvchisi
Qarshi, O‘zbekiston Respublikasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada shoirlar Nazar Shukur va A’zam O’ktamlar ijodida folklor namunalari, ularning she’r tarkibida bajargan vazifasi xususida fikr bildirilgan. Har ikki shoir she’rlarida uchraydigan folklor elementlari haqida ilmiy umumlashmalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: Xalq og‘zaki ijodi, yozma adabiyot, folklorizm, an’ana, xalqchilik, maqol, ibora, masal, matal.

Аннотация: В данной статье высказано мнение о фольклорных образцах в творчестве поэтов Назар Шукур ваузам Уктамов, их роли в поэзии. Сделаны научные обобщения об элементах фольклора, встречающихся в стихах обоих поэтов.

Ключевые слова: устное народное творчество, письменная литература, фольклоризм, традиция, народность, пословица, поговорка, притча, поговорка.

Annotation: in this article, the poets expressed their views on the task performed in the composition of the poem by folk samples in the works of Nazor Shukur and'zam Oktam. Scientific generalizations were made about the elements of folklore, which are found in the poems of both poets.

Key words: oral creativity of the People, written literature, folklorism, tradition, folklore, proverb, phrase, parable, matal.

Xalq og‘zaki ijodi xalqning donishmandligi, o‘tkir zehn va kuchli xotira manbai hisoblanadi. Tabiiyki, adabiyotning barcha davri mana shu bebahova bitmas-tuganmas manbadan oziqlanadi, ko‘chirma oladi. Folklor namunalari yozma adabiyotda shoir va yozuvchilar tomonidan aynan yoki mazmunan qo‘llanilib, asarning xalqchilligini ta‘minlash bilan birga, badiiy adabiyotdagi o‘zining yangi hayotini yashaydi.

Adabiyotda folklor namunalarining eng ko‘p uchrovchi turi hisoblangan maqollar nafaqat asar mazmunini boyitish, balki uning badiiyligi va ta‘sirchanligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Eng qadimgi folklor namunalari yozma adabiyotning taraqqiy topishi va rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. O‘zbek xalqining qadimgi mushtarak yodgorligi bo‘lgan “Devonu lug‘otit turk” (Mahmud Koshg‘ariy) asarida qadimiy qo‘shiq (qo‘shiq so‘zi ilk bor shu asarda keltirilgan, qoshug‘, ya‘ni she‘r, qasida deya qo‘llangan) va maqollarning uchrashi, Yusuf xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrablar ijodida izchil suratda folklor tajribalarining davom etishi, Gulxaniyning “Zarbulmasal”ida 400 ga yaqin xalq maqollarining qo‘llanilishi fikrimizni isbotlaydi.

Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarida Boyo‘g‘lining qiziga o‘z o‘g‘lidan sovchi bo‘lib bormoqchi bo‘lgan Yapaloq qushga Ko‘r qushning: “**Bo‘l! Og‘iz bo‘lma, oyoq bo‘l!**”, eshitmadingmuki, “**oyoq yugurugi oshqa, og‘iz yugurugi boshqa**” Sen kim, Boyo‘g‘lining eshigiga kishi yubormoq kim? Hech bilmasmusanki, “**teng-tengi birla,**

tezak qopi birla”...“Borliqdin maqtanma,“Maqtangan qiz to‘yda uyalar” va yana aytmishlar: “O‘zini maqtag‘oni o‘lumning qorovuli”. Sening ahvoling olamga ma‘lumdir.“Oyni etak birla yashirsa bo‘lurmi?”,”Chumchuq semirsa, botmon bo‘lurmi?”,”Olak o‘zanak ola bo‘lsa ham, arslon bo‘lmas, ola to‘g‘anoq olg‘ur bo‘lsa ham, ahvoli ma‘lum¹⁹”kabi maqollarning keltirilishi asar muallifining xalq og‘zaki poetik ijodidan nechog‘li darajada ta’sirlanganligini ko‘rsatadi.

70-80-yillar yangi o‘zbek she‘riyati vakillari ijodida folklorizmning ko‘p uchrashi davr she‘riyati uslubining namoyon bo‘lishiga ham ijobiy ta’sir o‘tkazdi. Bu esa o‘z o‘rnida she‘riyatda milliy ruhni kamol toptirish, milliy adabiyotimizning xalqchilligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Davrining o‘ziga xos shoirlari bo‘lgan Nazar Shukur va A‘zam O‘ktamlar she‘riyatini ham xalq og‘zaki poetik ijodiyoti yorqin aks etgan ijod namunalari desak, mubolag‘a bo‘lmas. Shoirlar ijodida xalqona ruhiyat va xalqning qalb kechinmalari misralar qatiga tabiiy yo‘sinda singdiriladi.

Nazar Shukur va A‘zam O‘ktamlar ijod manerasi va uslubini yaratishda folklorning o‘rni alohida ekanligi seziladi. Har ikki shoir she‘riyatida ham folklor an‘analari hisoblangan maqollar, xalq iboralaridan namunalar hamda xalqona tarzda yozilgan she‘rlarning ko‘plab uchrashi, ularning bu bebaho meros ruhiga muhabbat bilan ijodqilganliklarini bildiradi.

Maqollar va hikmatli iboralarning aksariyati lirik shaklga yaqin bo‘lib, ularda o‘xshatish (istiora, metafora, tashbeh), parallelizm, anafora, qofiyalash, taqqoslash (antiteza), piching, kinoya, kesatiq kabi badiiy tasvir vositalari ifodalangan bo‘ladi.

Maqollar va hikmatli iboralarning aksariyati lirik shaklga yaqin bo‘lib, ularda o‘xshatish (istiora, metafora, tashbeh), parallelizm, anafora, qofiyalash, taqqoslash (antiteza), piching, kinoya, kesatiq kabi badiiy tasvir vositalari ifodalangan bo‘ladi. Maqollar xalqning etik va estetik normalarini, tasavvurlari, maishiy turmushi va mehnat tarzi, sevgi va nafrati hamda orzu umidlariga ob‘ektiv baho berishi bilan ahamiyatlidir.

Xalqimizning donishmandlik qomusi bo‘lgan maqollar she‘riy nutqda o‘ziga xos vazifani bajarib, badiiy asarning estetik qimmatini oshiradi hamda kitobxonga fikrni aniqroq tushunish imkonini beradi.

¹⁹Гулханий.Зарбулмасал. – Тошкент: Янги нашр нашриёти, 2019. Б-5-6

A.Navoiyning “Ishq aynidin ko‘zumni qilmish yoruq jahon” deb boshlanuvchi g‘azalida **“O‘yladurkim, it uyub qoldiyu ko‘chti karvon²⁰”** ya’ni (**“It huradi –o‘tadi karvon”**) maqoli keltiriladi.

Nazar Shukurning “Nima bo‘ldi, hurmay qoldi it” misralari bilan boshlanuvchi she’ri “It huradi – karvon o‘tadi” xalq maqoliga kinoyaviy tarzda yaratilgan. Ushbu maqolning shakliy mazmuni bilan maqolda aytilmoqchi bo‘lgan asosiy mazmun o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘chimga asoslangan:

*Nima bo‘ldi hurmay qoldi it,
To‘xtadimi mening karvonim?
Nimadandir ko‘ngil xira, xit,
Nimadandir qurir darmonim.*

She’rning birinchi misrasida keltirilgan “Nima bo‘ldi hurmay qoldi it” ritorikasida kinoya, kesatiq ma’nosi singdirilgan bo‘lib, “itlarning hurib” turishi ba’zida karvonlarning yurishiga turtki bo‘lishiga ishora qilinmoqda. She’rning so‘nggi bandida buning badiiy isbotiga guvoh bo‘lamiz:

*Suvlar, oqing tegirmonimga
Kimdir don deb toshlar solmasin.
Itlar, huring g‘anim yonida,
Karvonlarim to‘xtab qolmasin!*

Yuqoridagi kabi she’rning yaralishi uchun zamin bo‘lgan shunga o‘xshash ayrim maqollar xalqimiz tiliga o‘rnashib qolgan va ularni ko‘pincha kundalik turmush tarzimizda deyarli har kuni ishlatamiz. **“Egilgan boshni qilich kesmas”** maqoli bunga misol bo‘la oladi. Nazar Shukur bu maqoldan ishq-muhabbat mavzusidagi “...GA” she’rida unumli foydalandi. Lirik qahramonning va’dasiga vafosizlik qilgan ma’shuqaga “Ulbexabar yorni aldama, Kelsin, mayli, haqiqat g‘olib...” deya o‘tmishdagi muhabbatini yashirmasligini ta’kidlaydi va mana shu yerda maqolni **“Aytgin, ochiq barini bugun, Boshegilsa uzolmas hech kim”** tarzida, biroz o‘zgartirgan holatda keltiradi.

Xalqimizda **“Bir boshda bir o‘lim”** degan maqol bor. Inson zoti borki, ikki olam –tiriklik va o‘lim oralig‘ida yashaydi. Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” asarida o‘limga ta’rif berib: **“Qamug‘da qatig‘raq firaq bu o‘lum, O‘lumki, etig yo‘q yo tutmas tolum, ya’ni: Hammadan qattiqroq firoq – buo‘limdir, O‘limga iloj yo‘q, yo qurol-aslaha (uni) qaytarolmaydi”** degan edi. Darhaqiqat, o‘limeng

²⁰A.Навоий. МАТ. Олтинчи том. Фавоид ул-кибар. – Т.Фан, 1990.-Б-334.

qattiq firoqdir. Dunyoning o'tkinchiligini bilib, o'z o'limini bo'yniga olish musulmonchilikning muhim belgilaridan hisoblanadi.

A'zam O'ktamning 1987 yilda momosiga bag'ishlab yozilgan islomiy mavzudagi bir she'rida garchi yuqoridagi maqol keltirilmagan bo'lsa-da, buni she'r mazmunidan anglash unchalik qiyin emas. She'rdagi yoshi bir joyga borib qolgan kampirning o'limtadorigi oldidagi xatti-harakati hikoya qilinadi. Shubhasiz, kampir o'z oxiratini o'ylab u dunyoga nima olib ketishidan tashvish chekadi.

*Enam o'xshab qoldi bolaga,
Nuqul o'ylar qabrni.
Qabrni o'ylar enam –
To'yi yaqin qolgan kelinchak,
bo'lg'usi uyini qandoq bezatish,
yasatishni o'ylab entikkan kabi.*

Odamzod o'limni eslaganida dahshatga tushishi, tabiiy. Eng og'iri orzusiz, sevgisiz yashashini o'ylagan dam manguulikning qudrati ulug'vor maqsadlarning mayog'i ekanligini tushunadi. Inson tushunish faslida yashagandagina hayotdan o'z ulushini olishga, o'z qalbini poklashga intiladi, ya'nikim ma'noli umr kechirish orzusida qalbini ezgulikka tikadi. Va shundagina umrini ezgu maqsadlar yo'lida sarflay oladi.

Bu mavzu Nazar Shukur she'riyatida ham ahamiyat kasb etadi. Shoirning aksariyat she'rlarida insonning ma'naviy-axloqiy jihatdan komillik va oriflik rutbasi maqomiga erishishga undash, chorlov tiniq misralarda bo'y ko'rsatadi. Shu bilan birga, shoir foni yumrning har bir lahzasini ezgu ishlar uchun baxshida etish muhimligini uqtiradi.

*Umrlar ortida barhayot o'lim,
U battar dahshatli, jim-jit bir dunyo.
Qadimiy zulumot bezavol, so'lim,
O'lim ham jim kezar qo'rqqandan go'yo .*

Hayot borki o'lim bor. Bu haqiqatdan tonib bo'lmaydi. O'lim bu yo'qlik. Shoir o'limni eslatish barobarida har bir inson o'z umri g'aznasini ezgulik gavhari ila to'ldirishi kerakligidan ogoh etmoqda.

*Darvoqe, eslarkan uni odamzod,
Silqigan vahmini bo'lmaydi so'ylab.
Dahshatga tushadi,
Abadul-abad
Orzusiz, sevgisiz yashashin o'ylab.*

Nazar Shukurning “Bir boshga bir o‘lim” deb boshlanuvchi she’rida o‘z ma’shuqasi ko‘yida o‘lish ham lirik qahramonga zavq bag‘ishlashi, shu boisdan unga jonini sadqa qilishga tayyor ekanligi ushbu maqol bilan izohlanmoqda.

*Ko‘z yosh –xato, rashk –xato,
Bir boshga bitta o‘lim.
Ko‘yingda bo‘lmoq ado,
Oh, gulim, qanday so‘lim!*

A’zam O‘ktamning xalq maqollari ta’siri sezilib turgan ko‘pchilik she’rlarida kinoya, piching va o‘tkir istehzo ustunlik qiladi. Jumladan, “Tushuning” nomli she’rida ham shunga o‘xshash kinoyaviy mazmun yetakchidir.

*To‘g‘ri, to‘g‘ri. E’tirozim yo‘q:
Sichqon g‘irt ovsar-da –
sig‘maydi-yu iniga,
g‘alvir bog‘lar dumiga.
Tushundim:
daxli bor bu gapning menga.
Ammo sizga anglatay qandoq –
O‘, naqadar suluvidir g‘alvir,
Uni sudra-ab yurish–
Naqadar zavqli*

Ushbu she’rda **“Sichqon sig‘mas iniga g‘alvir bog‘lar dumiga”** maqolida keltirilgan g‘alvir detali shoirning g‘oyaviy maqsadini ochiqlash uchun xizmat qilmoqda.

“Tajriba” nomli kichik hajmli she’rida “ursang eti qotar, so‘ksang beti qotar” maqolining ta’siri o‘laroq pichingli va istehzoga to‘la misralarni uchratamiz. She’rning “Tajriba”deb nomlanishi ham ilmoqli.

*Zarblardan
etimiz qotdi.
Gaplardan
betimiz qotdi*

Qotiramiz endi biz ham

She’riyatda maqollardan unumli foydalanish va ularda ifoda etilmoqchi bo‘lgan fikrlarni she’r qatiga singdirish holatini A’zam O‘ktam ijodida ko‘plab uchratamiz. Shoirning ko‘pchilik she’rlarida maqol va matallarning mazmuni singdirib yuboriladi. **“Tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko‘r”** (“Vahimachi”), **“Chumchuqdan qo‘rqqan tariq ekmas”** (“Chumchuq”), **“Bir kun tuz yegan joyga**

qirqkun ta'zim qil", "**Uyimiz tor bo'lsa hamko'nglimiz keng**" ("Mehmondo'stlik"), "**Birovga choh qazisang, o'zing yiqilasan**" ("O'zingga ehtiyot bo'l") kabi maqol va matallardan she'rning ichki mazmunini ochib berish yo'lida foydalanadi.

Xalq maqollarida qo'llanilgan badiiy ifoda vatasviriy vositalar she'riy asar mazmunini reallashtirish, hamda maqolning g'oyaviy vazifani bajarishiga ko'mak beradi.

"Maqollarda istioraviy ko'chimlar yetakchi semantik vazifa bajaradilar. Masalan, et bilan tirnoqni ajratib bo'lmas maqolini oling. Undagi "et" va "tirnoq"ni ajratib bo'lmas maqolini oling. Undagi "et" va "tirnoq" so'zlari yaqin qarindosh-urug', og'a-ini ma'nolarini anglatadi. Biroq qarindosh-urug', og'a-ini o'rtasidagi yaqinlikka ishora qilish maqsadida bir-biriga juda ham singishib, birikib ketgan "et", "tirnoq" obrazlari olingan. Bunday istioraviy ko'chimlar maqol janrining yetakchi badiiy qudratini belgilaydi²¹"

A'zam O'ktam ijodida maqol va iboralarning mazmuniga tamoman teskari munosabatni, ya'ni parodoks tarzida ifoda etilgan misralar ko'p uchraydi. Xususan, uning to'rt misradan iborat "Ishonch" nomli she'rida bu holat to'lig'icha, har to'rt misrada ko'zga tashlanib turadi.

*Osmon behad yaqin, yer esa yumshoq,
Yoshlik qaytib ketmas, u mangu qolar.
Bo'zchiman – bog'layman har kun bir belbog',
Safarim qarimas, yasharib turar*

Ushbu she'r aytish joiz bo'lsa, shoirni xalq maqollarining inkorchisiga aylantirgan. She'rda "**Osmon uzoq, yer qattiq**"– Osmon behad yaqin, yer esa yumshoq, "**Yoshlik qaytib kelmas**" – Yoshlik qaytib ketmas, u mangu qolar, "**Bo'zchi belboqqa yalchimas**" – Bo'zchiman – bog'layman har kun bir belbog', "**Safari qarimoq**" – Safarim qarimas, yasharib turar kabilarda ifoda etilgan fikrlar teskarisiga o'zgartirilgan holda beriladi. Maqolda keltirilgan uzoq, qattiq so'zlari birinchi misradagi yaqin, yumshoq so'zlari bilan almashishi natijasida tazodlanish hodisasi yuzaga kelgan. Inkor ma'nosining 2-3-4 misralarda tasdiq ma'nosiga ko'chishi ham zidlantirish uchun qo'l keladi.

"Eski afsona" she'rida "**To'g'ri oshini yeydi, Egri boshini**" maqolining teskarilanganligiga guvoh bo'lamiz.

*"O'g'rimisan – yeysan oshingni,
To'g'rimisan – o'z boshingni, bas!"*

²¹Имомов К, Мирзаев Т, Саримсоков, Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Тошкент. Ўқитувчи нашриёти Б. 26

Bundan tashqari, bu shoirlarning she'rlarida ko'plab xalq iboralari ko'zga tashlanadiki, ular maqollar singari tugal fikrni ifodalamasdan, aksincha, faqatgina obrazli ifoda sifatida qotib qolgan holda ifoda etiladi.

Xulosa qilib aytganda, XX asr o'zbek adabiyotida Fitrat, Cho'lpon, Oybekdan tortib, Abdulla Oripov, Erkin Vohidovlargacha davom etib kelgan xalqon abadiyatning zamonaviy lirikada namoyon bo'lish an'anasi Nazar Shukur va A'zam O'ktamlar ijodida ham izchil davom etgan. Bu shoirlar ijodida xalqona ruhiyat va millat qalbi kechinmalarining she'r to'qimasiga tabiiy yo'sinda singdirish an'anasi yaqqol ko'rinadi.

Adabiyotlar:

- 1.Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B.,Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik . ijodi. –Toshkent: O'qituvchi, 1990.
- 2.Shukur N. Sen qaytmasang. She'rlar. –Toshkent: Zarqalam nashriyoti, 2006.
- 3.Shukur N. Osmon tashbehlari. Saylanma. –Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2019.
- 4.O'ktam A. Taraddud. – Toshkent:Cho'lponnashriyoti 1993.
- 5.O'ktam A. To'maris bilan suhbat. – Toshkent:Muharrir nashriyoti, 2019.

“O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA XALQ DOSTONLARINING EPIK TASVIR AN‘ANALARI (“Tohir va Zuhra” dostoni misolida)

Soatova Nodira

*Jizzax Davlat Pedagogik Instituti
Filologiya fanlar nomzodi, dosenti
Jizzax, O‘zbekiston Respublikasi*

Annotasiya: ushbu maqola Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanining Rahmatulla Yusuf o'g'li tomonidan aytilgan xalq dostoni “Tohir va Zuhra”dagi o'xshash va farqli jihatlari talqini masalasiga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: An'ana, adabiy an'ana, epik an'ana, adabiy ta'sir, romantizm, realistik uslub, fantastik tasvir, ijodiy uslub.

Аннотация: Эта статья посвящена обсуждению сходства и различий между романом Абдуллы Кадири «Последние дни» и

популярными друзьями «Тахир и Зухра», упомянутыми в названии Рахматуллы Юсуф оглу.

Ключевые слова: Традиция, литературная традиция, эпическая литература, литературное влияние, романтизм, реалистический метод, фантастическое изображение, творческий метод

Abstract: This article is devoted to the interpretation of the similarities and differences between the folk epic “Tahir and Zuhra” narrated by Rakhmatullah Yusuf oglu of Abdullah Kadri's novel “Last Days”.

Key words: Tradition, literary tradition, epic tradition, literary influence, romantism, realistic method, fantastical image, art method.

O‘zbek xalqini yangi “zamonning “Tohir va Zuhra”lari, “Chor darvesh”lari, “Farhod va Shirin”lari, “Bahromgo‘r”lari bilan tanishtirish”ga [2;203] bel bog‘lagan Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanini yaratar ekan, xalq kitoblari deb atalgan bitmas–tuganmas ma’naviyat chashmasidan qonib–qonib suv ichgani sir emas. Asarda axloqiy–didaktik ruhning ustunligi, uning xalqona sodda va jozibali til, yengil va serjilo uslubda yozilganligi, chuqur falsafiy–hikmatona mazmunga yo‘g‘rilganligi, kompozitsiyasi, syujeti, obrazlar olami, xarakterlar yaratish usuli, konflikt va kolliziyalari, qisqasi, butun qurilishi shundan dalolat berib turibdi.

Xuddi shu nuqtai nazardan qaralganda, o‘zbek og‘zaki ijodi, xususan, uning epik dostonlari o‘zbek adabiyotida roman janrining paydo bo‘lishida dastlabki muhim manba bo‘lgan. Chunki, roman janriga xos ko‘p qirralik xususiyatlari xalq dostonlariga ham taalluqlidir. Shu sababli uni milliy–adabiy manbalardan ajratib olib o‘rganish mumkin emas.

Albatta, Qodiriy xalq qitoblaridan o‘rganish va ta’sirlanish bilangina cheklanib qolmagan, iste’dodli va mahoratli bir adib sifatida novatorlik namunalarini ko‘rsatib, bu an’analarni o‘ziga xos ravishda rivojlantirgan.

Chin sevgi va sadoqatni, ruhiy poklik va go‘zallikni ulug‘lovchi, aksincha, razolat mol–dunyoga hirs qo‘yish, g‘iybat va adovatni qoralovchi “Tohir va Zuhra” xalq kitobi bilan “O‘tkan kunlar” romani to‘g‘risida bir qator mushtarak jihatlar mavjud. Oshiq va ma’shuqa haqida yaratilgan “Tohir va Zuhra” xalqning eng go‘zal dostonlaridan bo‘lib, sharq xalqlari orasida 6–7 xil variantida aytilib kelinadi. Biz

quyida uning Rahmatilla Yusuf o'g'li aytib bergan variantidan foydalanamiz.

“Tohir va Zuhra” dostonida Tohir bilan Zuhra yoshligida ko'pincha birga–birga o'ynab yursalar–da, ular Qoraxon shohni qizini Tohirga beraman deb qilgan ahddan bexabar bo'ladilar. Tohir soqqa o'ynab yurib, bir kampirning charxiga tegib ketadi. Kampir Tohirga uning Sorixon vazirning o'g'li ekanligi va Zuhra uning yoshligida unashtirilib qo'yilganligi haqidagi sirni ochadi. Aslida Tohir va Zuhra o'rtasidagi muhabbat bu sirni bilmasdan ancha oldinroq boshlangan, ular doim Gulhovuzda yashirincha uchrashib yurar edilar. Ular orasidagi oshiq–ma'shuqlikdan xabar topgan Tohirning enasi yurt ulamosi–Mulla Haqqulga borib, vaziyatni tushintiradi va undan sovchi bo'lishini, yoshlarning boshini qovushtirib qo'yishni iltimos qiladi. Mulla Haqqul esa, “bir–necha shumlikni o'ylab, ko'ngliga joylab Qoraxonni oldiga borib: “Ey podshohim. Sizga arzim bor”, deb podshohga qarab mo'ylovini burab, soqolini silab, jo'rttaga yig'lab, Zuhraning hamisha Tohir bilan o'ynashi–yu, Tohirning Zuhra qasdida yurishidan xabar berdi: “Ey, podshohim, hali–ku qizingiz toza, yo'ldan chiqmasa ham shunday holda maktabda yuraversa, bugun bo'lmasa, ertaga ishi chatoqlikka aylanadi. Endi tezroq bu ishning oldini olib, Zuhrani, birinchidan, maktabga yubormasangiz, ikkinchidan, bir belgiroq kishiga bersangiz. Bizlar to'yni yesak” [1;25], – deydi.

“O'tkan kunlar” romanida esa, Otabekning Kumushni sevib qolganini sezgan Hasanali sovchilik qilishini so'rab, Ziyo shohichiga boradi. Lekin Ziyo shohichi mulla Haqqulga o'xshab yomonlik qilmay, ishni ijobiy bitiradi. Bu Abdulla Qodiriyning xalq dostonlaridan ijodiy foydalanganini ko'rsatadi.

“Tohir va Zuhra”da Tohirning Zuhraga elakishganidan qahri kelgan Qoraxon podshoning “ko'nglidagi o't kun sayin alanga olib, Tohirni oxiri sandiqqa solib, daryoga oqizmoqchi bo'ladi. Bu gap elga ayon bo'lib qoladi. “Qoraxon Tohirni sandiqqa solib, daryoga oqizar emish. Shuytib, ustoga sandiq yo'ndirayotgan emish”, deb Zuhra ham eshitdi. Bechora Zuhra zor–zor yig'lab, eldan yashirincha usta bolaning oldiga borib, usta bolaga yalinib shunday deydi:

*Usta uka, ishda chindan,
Yog'ochlarin yo'ngin tindan.
Sandiq qancha mahkam bo'lsa,
Shuncha olqish olgung mendan.
Yog'ochini mahkam ishla,*

Shanglog 'i bo 'p suv kirmasin.

Bir girdobga borganida,

Aylantirib, cho 'ktirmasin...

Agar Tohir shu sandiqda

Ming yil qolsa namiqmasin.

Balandida teshik bo 'lsin,

Tag 'in yana dimiqmasin" [1; 25-26] .

Zuhraning iltimosi bilan usta sandiqni suv o'tmaydigan qilib yasaydi. Natijada bu Tohirni o'limdan saqlab qoladi.

Abdulla Qodiriy o'z asari voqealarni bir–biriga bog'lashda, fabulani tashkil etishda, bayonchilikda ko'proq xalq og'zaki ijodi an'analariga suyanadi. Ma'lumki, "O'tkan kunlar"da voqea bosh qahramonning Marg'ilonga kelishidan boshlanadi. Otabek bu yerda Mirzakarim qutidorning qiziga uylanadi va birmuncha vaqt turib qoladi. Xuddi shu fursatda Otabek Kumushni uchinchi xotin qilib olish ilinjida yurgan "makkor Homidning iblisona dasisasi" [2;206] tufayli qamaladi. Bu voqea yozuvchi tomonidan juda ko'p tafsillar yordamida ishonarli tasvir etilgan. Qo'qon xoni Otabekni ham, uning qaynotasi Mirzakarim qutidorni ham dorga osishga hukm chiqaradi. Nihoyat, hukmni ijro etish daqiqasi yetib keladi. Otabek dor tagiga keltirilib, osish taraddudi boshlanganida kutilmagan hodisa sodir bo'ladi. Mahbuslarni birgina Yusufbek hojining Otabekka yozgan maktubi o'limdan saqlab qoladi. Bu xatni Kumush keltiradi. Odatda xalq kitoblarida ham ana shunday tugun paydo bo'lib, qahramon to'siqqa uchrab, o'lim bilan yuzma–yuz kelganda qandaydir ilohiy kuch yoki sabab bilan u o'limdan, halokatdan xalos bo'ladi. "Tohir va Zuhra"da shunga o'xshash epizodni yuqorida ko'rib o'tdik. Abdulla Qodiriyning o'z romanida xalq asarlaridagi ana shu usuldan foydalanganligi yaqqol sezilib turadi. Ayni chog'da u ana shu usul vositasida qahramon tasvirida ham, voqea bayonida ham roman janriga xos epiklikni keltirib chiqaradi.

Urganch yurtida Rustamxon podshohlik qilar, uning ikki qizi–Guloysha va Gulxadicha daryo bo'yiga sayrga chiqib turar edi. Tohir oqib kelayotgan sandiqni ko'rgan iki qiz sandiqni talashib qoladi. Shuning ustiga kelib qolgan otasi sandiqni Guloyshaga ichidagi Xadichaga, degach uni ochishadi. "Ammo Tohir qancha odamlar so'z so'ragani bilan bir og'iz ham gapirmadi. Rustamxon Tohirni gung hisoblab, Gulxadichaga hiylai sha'riy nikoh qildirib, Gulxadicha va kuyovi Tohir uchun bir hovli ajratib berdi. Tohir dim indamasa ham Gulxadicha Tohirni yaxshi ko'rib qolib, Urganchda uni gapirtira

oladigan tabib, duokash, avrovchi–jodugar bo‘lsa, keltirib qarataverdi. Tohir bo‘lsa, Zuhrani o‘ylab, Gulxadichaga hech gapirmay yuraverdi” [1;33].

Ota–ona orzusi va qistovi tufayli ikkinchi marta uylangan Otabekning Zaynab bilan munosabatida ham shunga o‘xshash holatni ko‘ramiz. Otabek uylanadi, lekin O‘zbek oyimning orzu–havas orqasidan kutilgan “marg‘ilonik balosi”dan o‘g‘lini qutqarish masalasi tilagicha hal bo‘lmaydi. Nikoh kuni Otabekning kiyimlarini juhud domlaga o‘qitishlar, marg‘ilonlikdan sovitib, toshkentlikka isitishlar–barchasi ham hozir o‘z ajzlarini unga iqror qilar edilar. Keyingi “besh–bosh” domlaning bergan tutatqi, ezib ichki, duo va tumorlari ham negadir ta’sir asarini sezdirmadilar.

Otabek bir lahza bo‘lsin, ilk muhabbati, ko‘z ochib ko‘rgani Kumushni unutmaydi. Natijada Zaynab bilan birga bo‘lolmaydi, “mijozi sust”ligini bahona qilib, mehmonxonada yotib yuradi.

Tohir va Otabeklarning muhabbatlari haqiqiy bo‘lib, ular garchi falakning gardishi bilan sevmaganlariga uylangan bo‘lsalar–da, o‘z sevganlariga sodiq qoladilar. Ularni bu yo‘ldan qaytarish borasidagi har qanday harakatlar, issiq–sovuqlar samarasiz ketadi.

“Tohir va Zuhro” dostoni va “O‘tkan kunlar” romanining xotimasida ham o‘zaro mushtarak jihatlarni ko‘ramiz:

Tohir dorga osilgach, Zuhraning esi og‘ib, “...toza o‘lim telbasi bo‘lib qoladi. Qoraxon podshoh darrov Tohirni qabristonga ko‘mdirib, bir maston kampirga picha pul berib, nima bo‘lsa ham Zuhrani aldashni buyuradi. Maston kampir Tohirning qoni to‘kilgan tuproqdan loy qilib, bir odamcha yasab, Zuhraga: –Mana shuni qirq kechayu qirq kunduz hech orom olmasdan va yerga qo‘ymasdan ko‘tarib yursang, Tohir bo‘lib tiriladi. Murodingga yetsan, deb aldaydi...Zuhraoy qirq kechayu kunduz shuncha narsaga o‘ralgan loy odamchani hech orom olmay, o‘tirmay, qattiq ixlos va umid bilan ko‘tarib yurdi. Shu orada Zuhraoy cho‘pday qotib, ozib–to‘zib qoldi. Oradan o‘ttiz to‘qqiz kechayu o‘ttiz to‘qqiz kunduz o‘tib, Zuhraoy bir ariqning labiga yetib borsa, Maston kampir momosi bir qora kigizni suvga yuvib o‘tiribdi. Shunda Zuhraoy: – Ha, momo, bu kigizni yuvib nima qilasiz,– desa Maston kampir momosi:– Qizim, yuvib oq qilib olaman, –deydi. Shunda Zuhraoy: – Momo, aynibsizmi? Qora kigiz yuvgan bilan oq bo‘larmidi?!–desa Maston kampir momosi:– Bo‘lmasa, o‘lgan ham tiriladimi? Sen bo‘lsang, behudaga loy odamchani bir kam qirq kundan berib ko‘tarib yuribsan,– dedi. Bu so‘zni eshitib, Zuhraoy “voh”lab, ko‘tarib yurgan

yukini ko‘chaga otib tashlab, o‘zi telbalarcha qabristonga qarab yugurdi... Birdan ko‘ngliga dunyoning tirikchiligidan o‘lish afzal ko‘rinib, yerga qarab: “Endi qo‘yningni och!” [1;47] deb, ochilgan qabrga kiradi.

“O‘tkan kunlar”da Kumush Zaynab tomonidan zaharlanib o‘ldirgach, Otabek uchun yashashning ma’nosi qolmaydi va u ota–ona xonadonini tark etib, Marg‘ilonga yo‘l oladi. Bir yildan so‘ng Otabek usta Alim bilan birga Toshkent keldi... Eng so‘ngg‘i kech yolg‘iz ko‘yi Kumush qabri yonida bo‘ldi...Qur‘on oyatlari qabriston ichiga og‘ir ohangda oqar edi... Bir soatdan keyin tilovat to‘xtaldi. Otabek holsilanib oyoq uzra turdi... Bundan so‘ng Otabek Toshkandga qaytib kelmadi.

1277 yilning kech kuzlarida bo‘lsa kerak, Yusufbek hoji Qanoatshodan bir xat oldi. Qanoatsho avliyo otadan yozar edi. “O‘g‘lingiz Otabek yana bir kishi bilan bizning qo‘shunda edi. Olmota ustidagi o‘rus bilan to‘qunashimizda birinchi safimizni shu ikki yigit oldi va qahramonona urushib shahid bo‘ldi...” [2;302-303].

Tohirdan judo bo‘lgan Zuhra singari, Otabek uchun ham Kumushsiz yashash ma’nisiz edi. Shuning uchun ham u naq o‘limni afzal biladi. Abdulla Qodiriy realist yozuvchi sifatida, o‘z asari bilan faqat muhabbat mojarolarini tasvirlashni emas, balki katta g‘oyalarni olg‘a surishni ham o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan ijodkor sifatida Otabekning o‘limini milliy mustaqillik va ozodlik yo‘lidagi o‘lim darajasiga olib chiqqanki, bu uning xalq ijodi motivlariga g‘oyatda ijodiy munosabatda bo‘lganini yorqin namoyish etadi.

Bu va boshqa ana shunday ko‘pdan–ko‘p lavhalar “Tohir va Zuhra” singari xalq dostonlari Abdulla Qodiriy ijodiga samarali ta’sir ko‘rsatganligidan dalolat beradi. Chunki xalq og‘zaki ijodi va raelistik yozma adabiyotda tom ma’nodagi roman janri yaratilmagan bo‘lsa ham unda voqealarni, qahramonlarni romanga xos ravishda bayon etish, epik tasvir vositalari bilan yaratish an’analarini mavjud edi. Keltirilgan misollar buning isbotidir.

Agar diqqat qilinsa, qahramon obrazini tasvirlashdagi XX asr o‘zbek adabiyoti erishgan yutuqlar aslida boy xalq og‘zaki ijodida mavjud bo‘lgan badiiy tajriba asosida erishilgan edi. Roman janri esa milliy adabiyotimizning ana shu epik tasvir an’analarini o‘z tabiatiga moslashtirib, ijodiy foydalanishi bilan dunyoga keladi. Abdulla Qodiriy romanlari ham ana shunday yo‘l bilan paydo bo‘ldi.

Keltirilgan misollarga asoslanib, Qodiriy xalq og‘zaki ijodidan yuqori darajada ta’sirlangan va o‘z asarini faqat shu ta’sir asosiga

qurgan ekan—da degan biryoqlama xulosa chiqarish noto‘g‘ri bo‘lar edi. Zero, barcha iste‘dodli qalam sohiblari kabi Qodiriy ham xalq kitoblari an‘analariidan ijodiy foydalangan holda, ularni yangicha sharoitda rivojlantirgan va yangi mazmun bilan boyitgan. Zero, har qanday chinakam asar bu— an‘ana bag‘ridagi novatorlikdan iborat.

Ammo yozuvchi o‘z romanida faqat voqealarni tasvirlash, fabulani tashkil etish yoki kompozisiya qurilishlaridagina bunday milliy an‘analardan foydalanish bilangina cheklanmadi. U ayni paytda tarixiy jarayon taraqqiyoti qonunlarini o‘rganish va tahlil etish, milliy turmush manzaralarini kuzatish, tarixiy shaxslar va to‘qima obrazlarni hayot haqiqatini, asar g‘oyasini ochishga safarbar etish yo‘lidan bordi; milliy urf—odatlar, tarixiy obidalar va tabiat manzaralari tasviridan tarixiy voqelikni haqqoniy aks ettirishda keng foydalanadi; qahramon obrazini yaratish, uning ruhiy olami va bu olamdagi o‘zgarishlar dialektikasini yorqin aks ettirishda xalq og‘zaki ijodidagi epik an‘analariga tayandi. “O‘tkan kunlar” romanini yaratishida boy og‘zaki va yozma adabiyotdagi badiiy vositalar yordamga keldi.

Adabiyotlar:

1. Tohir va Zuhra. O‘zbek xalq ijodi. Dostonlar (Aytuvchi Rahmatulla Yusuf o‘g‘li. Nashrga tayyorlovchi M.Saidov),—T.: Adabiyot va san‘at, 1974.

2. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. Mehrobdan chayon.—T.: Adabiyot va san‘at, 1994.

O‘ZBEK FOLKLORIDA TUT OBRAZI BILAN BOG‘LIQ UDUMLAR IFODASI

Rustamova Gavhar Bahron qizi
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
Buxoro, O‘zbekiston Respublikasi

Annotasiya. Ushbu maqolada xalqimiz orasida tut daraxti bilan inonchlar hamda uning an‘ana va marosimlardagi ifodasi, tut bilan bog‘liq udumlarning tarixiy va hayotiy asoslari xususida so‘z yuritilgan.

Kalit soʻzlar: oʻzbek folklori, daraxt, tut, shomonlik, ibtidoiy diniy tasavvur, udumlar, marosimlar, hosildorlik inonchi.

Аннотация. В этой статье обсуждаются верования в тутовое дерево среди нашего народа и его выражение в традициях и церемониях, историческая и важная основа обычаев, связанных с шелковицей.

Ключевые слова: узбекский фольклор, дерево, шелковица, шаманизм, примитивное религиозное воображение, обычаи, обряды, вера в плодородие.

Abstract. This article discusses the beliefs of the mulberry tree among our people and its expression in traditions and ceremonies, the historical and vital basis of the customs associated with the mulberry.

Key words: uzbek folklore, tree, mulberry, shamanism, primitive religious imagination, customs, rituals, fertility belief.

Tut daraxti bilan bogʻliq inonchlarning genezisi xalqimizning islomgacha shakllangan eʼtiqodlariga borib taqaladi. Xususan, tut bilan bogʻliq hosildorlik inonchining ayrim elementlari qadimgi shomonlik anʼanalari bosqichida ham yashab kelgan. Hosildorlik inonchlarida mevali daraxtlardan foydalanish tasodifiy emas. Shomon kasallikka chalingan bemorlarni “Davolash” jarayonida davolovchi poʻrxon (parixon)lar kasal tanidagi ruhlarni quvish uchun alasdanda foydalanish jarayonida olovga tut daraxti novdalarini yoqishgan.

Maʼlum boʻladiki, odamlar tut juda unumdor hosil tuhfa qilishini allaqachon anglab yetgan. Tut daraxtining mevasi bahorning soʻnggi kunlarida mavsumiy neʼmatlar ichida birinchilardan boʻlib pishib yetiladi va ayni ilik uzdi paytida tanlarga mador boʻladi. Bu daraxt mevasining gʻayritabiiy mahsuldorligini odamlar ibtidoiy diniy tasavvur orqali anglaganlari holda, ulardan sehr-jodu orqali foydalanish yoʻlini izlaganlar.

Uzbek xalqida tut daraxti bilan bogʻliq koʻplab udumlar mavjud hamda bu udumlar xalqimiz turmush tarzining ajralmas qismiga aylangan. Koʻpni koʻrgan keksalarning aytishlaricha, tut daraxti va uning novdalarini besabab kesish taʼqiqlangan. Uning qurigan shoxalarini kesib olganda, maxsus duolar oʻqilgan. Ye.M.Pesherevaning taʼkidlashicha, Fargʻonalik tojiklar tut daraxtida Sulaymon paygʻambar yashiringan deb hisoblab uni kesmaganlar. Darvoqe, xalq ertaklarida ham devlarning ruhi daraxtlarda yashaganligi bayon etiladi. Sibirda yashovchi turkiy xalqlarda har bir qabila yoki urugʻning oʻz homiy

daraxti bo'lgan. Masalan, oq qayin bir urug'ning, archa va qarag'ay boshqa bir urug' homiysi hisoblanib, hech bir urug' o'zining homiy daraxtini kesishga jur'at etolmagan. Agar zarurat tug'ilgudek bo'lsa, boshqa urug'dagilardan shu daraxtni kesib berishni so'rab murojaat qilganlar.

Daraxtlarga lattaband bog'lash udumi ham yurtimizning ko'pchilik hududlari aholisi orasida keng tarqalgan. Buning uchun odatda biror avliyo yoki ziyoratgohda joylashgan tut daraxti tanlangan. Bunda muhimi, avliyoning karomati emas, aynan tutning xosiyatidan bahramand bo'lish umididir. Lattaband ko'pincha bir parcha surp dastro'mol yoki belbog'dan bog'langan. O'z libosidan bir parcha yirtib olib mozordagi tut, dov-daraxt shoxlariga bog'lab qo'yish natijasida topinuvchi e'tiqod obekti yoki inson bilan tabiat o'rtasidagi afsungarlik muloqoti o'rnatilganligiga ramziy ishorani ko'rish mumkin. Snesevning ta'kidlashicha, "tayoq-tug'ga, daraxtlarga latta osish ham ibtidoiy xarakterga ega bo'lib, muqaddas shaxs bilan ziyoratchi orasidagi ilohiy aloqaga kirishning bir ko'rinishidir".

Mevali daraxtlar va ularning mevasi oddiy ramz bo'lib qolmasdan serhosillikni ta'minlovchi turli marosimlar bilan bog'langan.

O'zbeklar orasida xatna to'ylari bilan bog'liq udumlarda ham tut daraxti ishtirokini ko'rish mumkin. Xatna qilish erta bahorda daraxtlar uyg'onmasdan burun amalga oshirilgan. Bolaning sunnati onasi tomonidan ramziy ravishda sotib olingan va juda ehtiyotkorlik bilan yashirin holda mevali daraxt, xususan, tut tagiga ko'mib qo'yilgan. Bunday qilinishiga, befarzand ayollar xurujidan himoyalash zaruriyati sabab bo'lgan. Shuningdek, bola ham tutday sermeva va serpusht bo'lishiga ishonilgan.

Cho'ponlarning asosiy ish quroli bo'lgan tayog'i va kiyimi ham o'ziga xos magik xususiyatga ega hisoblanadi. Cho'pon tayog'i odatda pishiq bo'lgan chetan, qarag'ay, tol bilan birga qizil tut daraxtidan qilinadi. Cho'pon tayog'i muqaddas hisoblanganligi bois cho'pon bo'luvchi shaxs unga ega bo'lish niyatida qurbonlik qilib, biror-bir hayvonni so'ygan. Shundan keyingina cho'pon tayog'iga ega bo'lgan. O'z navbatida tayoqdan boshqa narsa bilan hayvonlar urilmagan va tayoqni bosish ham gunoh hisoblangan. Agar shu tayoq ustidan mollar o'tib qolgudek bo'lsa, ular biror dardga chalinadi va aynan o'sha tayoq bilan kasal hayvon silab davolanishi kerak degan tavsiya berilgan. Shu mulohazaga binoan cho'ponlar tayoqlarini doimo o'zlari bilan olib yurganlar va uni oyoq ostiga emas, chetroqqa qo'yishga harakat

qilganlar.

1) To'y marosimi bilan bog'liq udumlarda tut daraxti faol ishtirok etadi. Kelinni kuyov uyiga eltish uchun to'y aravasi yasatilar ekan, unga o'rnatilgan ko'shayana mevali daraxt novdalariga birlashtiriladi. Bu novdalar jiyda yoki tutdan olinadi. Arava kuyov uyiga kelgandan so'ng ko'shayaanaga birlashtirilgan oq, uzun mato olinib, tut va jiyda novdalariga o'raladi va ular birinchi farzand tug'ilguncha saqlanadi. Mevali daraxtlarning sehrli ahamiyati uning mantiqiy yakunigacha davom etadi.

2) Tut daraxti bilan bog'langan bunday udumlar farzand tug'ilgach ham davom etadi. Bola tug'ilgach chilla ichida ajralgan kindigi (yo'ldosh, esh) tut daraxtining butoqchasi bilan birga ko'milgan, buning ma'nosi shuki, tug'ilgan bola kelajakda o'z ota-onasining to'q-farovon yashashini ta'minlaydi.

3) O'rta Osiyo xalqlari etnogenezisida aloxida qiziqish uyg'otadigan daraxtlar bilan bevosita aloqador yana bir tip – yer usti sog'onasi sandiqdir.

4) Bu yog'och tobut to'laligicha g'ola va taxtadan ishlangan. Ular, asosan, yakka dafnga mo'ljallangan. Axborotchilar so'ziga qaraganda, bu sandiqlar yosh o'lganlar va katta obro'li kishilar uchun ishlatiladi. Bunday sandiqlarda mix ishlatish ta'qiqlangan. Ular faqat pona vositasida birlashtirilgan. Qadimda sandiqlar muqaddas daraxt sifatida tut yog'ochidan ishlangan.

5) Ko'rinadiki, serhosilligi beqiyos bo'lgan tut daraxti bilan aloqador inonchlar anchani tashkil etadi. Yurtimizda tut daraxti, uning xosiyati, tut nomi bilan bog'liq ko'plab manzilgoxlar va ziyoratgohlar mavjudki, xalqimizning islomgacha shakllangan e'tiqodlari va madaniy turmush tarzida chuqur o'rin olgan hamda ularning aksariyati islom dini ta'sirida aziz avliyolar nomlari bilan bog'langan, ya'ni diniy qiyofa kasb etgan. Shu xususiyatga ko'ra, yurtimizda mavjud muqaddaslashtirilgan tutlarni ham quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Sof muqaddaslashtirilgan tut daraxtlari.

2. Xorazm viloyati Xonqa tumani yaqinidagi Sarapoyon qishlog'ida chilla tut juda ommaviylik kasb etadi. Bu tut biror aziz avliyo bilan bog'liq afsonaga aloqador emas. Uning o'zi muqaddas sanalib, birinchi navbatda, bolalar homiysi sifatida tan olingan. Chilla tut yaqinida sadaqaga qo'ylar so'yiladi, bo'g'irsoq pishiriladi. Agarda bolalar chilla davrida kasallansa, ayollar ushbu tutning butoqlariga turli lattalar ilib qo'yishadi. Tutning tomirlariga bolalarning do'ppisi

tashlanadi. Chilla tutning shifo berish xususiyati ana shu predmetlar orqali ilohiy yo‘l bilan bemor bolaga o‘tib, uni sog‘aytiradi. Shuningdek, Buxoro viloyati Jondor tumani yaqinida ham “Nartut” deb ataluvchi bir xosiyatli tut daraxti bo‘lib, o‘g‘il farzand ko‘rish istagidagi ko‘plab insonlar ushbu manzilgohga tashrif buyurib, unga sajda qilishadi. Kimda kim uyiga shu tut daraxtidan shoxcha olib borib, isiriq bilan birga tutatsa, tug‘ilajak farzandi, albatta, o‘g‘il bo‘lar emish.

3. Biror aziz avliyo yoxud din vakillarining nomi bilan bog‘liq tutlar (Masalan, Urkut buva, Yakkatut buva qabristoni, Sharim shayx, Lo‘mon bobo nomi bilan bog‘liq Duldul tut va h.k).

Respublikamizda Yakkatut nomi bilan ataluvchi bir nechta manzilgohlar mavjud bo‘lib, elshunos olim A.Ashirov N.Abdulahatovning so‘zlariga tayanib Farg‘ona viloyatida joylashgan Yakkatut buva ziyoratgohi xaqida ma‘lumot keltiradi. Uning ta‘kidlashicha, qaysi bir odamning chorvasidagi qo‘yi, moli yoki oti kasal bo‘lib qolsa, shu mozorda joylashgan tut atrofidan uch marta aylantirib olib ketar va shundan keyin kasal hayvon tuzalar ekan.

Qiziltepa tumanidagi “O‘zbekiston” jamoa xo‘jaligi hududidagi Xo‘jalak qishlog‘ida bitta Duldul tut degan tut bor. Bu tutning paydo bo‘lishini Lo‘mon bobo degan bir kishining nomi bilan bog‘laydilar. Aytishlaricha, kunlardan bir kuni Lo‘mon bobo o‘zining hassasini yerga tiqqan hamda ana shu hassa ko‘karib ketgan emish. Hozirgi kunda qo‘lida so‘gal chiqqan kishilar shu tutning tagidan loy qilib surtadilar. Shundan keyin so‘gal tezda qaytib ketadi, deb o‘ylaydilar.

Mazkur tut haddan tashqari katta bo‘lgani sababli har yili uning barglarini ipak qurtiga berish uchun qirqadilar. Ammo tut bargini qirqishdan avval is chiqaradilar, bo‘lmasa tut kesuvchilar shikast topadi deb cho‘chiydilar.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, tut daraxti bilan aloqador inonchlar, qadriyatlar tizimidagi udumlar ko‘pchilikni tashkil etadi hamda farovon hayot va hosildorlik g‘oyalari bilan bog‘lanadi.

Adabiyotlar:

1. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alishyer Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. –B.144.

2. Jo‘raev M., Sattiyeva D. O‘zbek folklorida hayot daraxti. –T.: Fan, 2010. – B.32.

3. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi. – T.: Fan, 2010. – 307 b.

4. Пещерова Е.М. Праздник тюльпана (лола) в сел. Исфара Кокандского уезда. Сб. В.В.Бартолду –туркестанские друзья, ученики и почитатели. – Т., 1927.

5. Snesev G.P. Xorazmliklarning musulmonlikdan avvalgi marosim va urf-odatlari. – Urganch: UrDU noshirlik bo‘limi, 2018. – 332 b. –В.192.

6. Фрезер Д.Д. Золотая ветвь. 2-изд. – М.: Политиздат, 1983. – С.110-139.

7. O‘zbek xalq ertaklari. –Т.: Yosh gvardiya, 1991. –В.167.

РОЛЬ ВОСТОЧНЫХ ИСПОЛНИТЕЛЕЙ ФОЛЬКЛОРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ В РАЗВИТИИ ДУХОВНО-РЕЛИГИОЗНЫХ И НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ НАРОДА.

(на примере узбекских народных терма)

*Турсунов Ибрагим Нуралиевич
Ташкентский институт текстильной и легкой
промышленности,
Кандидат филологических наук, доцент
Ташкент, Республика Узбекистан*

Annotasiya: Ushbu maqolada muallif Sharq xalqlari diniy-ma’naviy, axloqiy taraqqiyotida folklor asarlari ijrochilarining roli o‘zbek xalq termalari misolida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: terma, ijrochilar, ma’naviyat, odob-axloq, islomiy ta’limot.

Аннотация: В данной статье автор освещает роль исполнителей фольклора в религиозном, духовном и нравственном развитии народов Востока на примере узбекского народа.

Ключевые слова: терма, исполнители, духовность, этика, исламское учение.

Annotation: In this article, the author highlights the role of folklore performers in the religious, spiritual and moral development of the peoples of the East on the example of the Uzbek people.

Key words: terma, performers, spirituality, ethics, Islamic teaching.

В Исламе имеются влиятельные поучения, призывающие к верности, честности, прямоте, добросовестности, заботе и другим благородным деянием. Узбекские народные сказители с большим мастерством отражали эти мысли в своих терма на понятном для простого народа языке, и эти народные песни веками служили людям как средство воспитания.

В узбекских терма подробно растолковывается положительное воздействие религии на нравственное воспитание. Народные сказители иногда в своих терма, вдохновляясь от аятов священного Корана, пользовались ими как существенным средством воспитания. Народные сказители были знатоками заповедей Ислама, глубоко познав их нравственно-философские значения, они временами использовали эти мудрые слова для того, чтобы влиять на воспитание, сознание и на душу людей.

Значительная часть нравоучительных понятий брала своё начало из Карана, и религиозные нравоучения сыграли большую роль в обогащении человеческого нрава, морали. Аяты (стихи), задания, заповеди священного Корана, у которого каждое слово, словно струящийся поток света из родника, каждая его фраза необъятный океан, он луч, прорывающий мрак, и он указывает человеку верный путь к истине. Эти воспитательные промысли, в первую очередь, помогают человеку формироваться путём самовоспитания. Каждое поколение может найти ответа на беспокоящие его вопросы. В Коране проповедуются человечеству все духовные качества, которые сегодня хотят увидеть в человеке, и народная, и научная педагогика.

Бог создал всех равными. Второй аят суры Человек гласит: «Мы ведь создали человека из капли, смеси, испытывая его, и сделали его слышащим, видящим» (Перевод И.Ю.Крачковского). Следовательно, люди, созданные из одной капли воды, отличаются друг от друга только своими хорошими и плохими поступками. В религиозных терма многократно повторяется мысль о том, что каждое мирское дело, этот пленный мир, вечная жизнь в горе людей зависит от бога:

*Har kimni xar kyga solga Ollosan,
Kim yaxshi, kim yomon o'zing bilasan.
Bir kun berganni bir kun olasan,
Senga kelib kimning ko'ngli shod bo'ldi.[3, 21]*

Перевод:

*Ты (бог) дал каждому заботу,
Кто хороший, кто плохой тебе видно,
То что дал в один день в другой день ты заберёшь,
Кто был счастлив, приходя в этот мир.*

Каждые аяты Корана носят нравоучительский характер и в этих коротких фразах скрывается большой смысл. Сказители с помощью термина старались внушить людям эти нравственные идеи. В некоторых терминах сказители, напоминая о божьем правосудии, о гневе создателя, призывают грешников вернуться на путь истинный, владеют особенностями, не свойственными человеку, и советуют им подчиняться повелению Творителя. В терминах говорится, что человек от судьбы не сможет бежать. Например, о предопределенности судьбы говорится в терминах так:

*Dunyoning to 'rt burchin donga to 'ldirdim,
Qo 'limga bir karchigay qush qo 'ndirdim,
Har bir donni ming yilgacha so 'rdirdim,
Oxir kelib qushni ochdan o 'ldirdim [3, 72]*

Перевод:

Этот мир я запоил зерном,
Приручил я себе одну птицу,
Каждое зернышко в тысячи лет давал ему,
Все равно птица погибла от голода...

Аллаху ведомы все тайны миров, он уведомлён о поступках каждого. Поэтому человек должен совершать добро. В народном терминах есть призыв и справедливости:

*Uldun yoni ko 'rdim. Yo 'qdir vafosi,
G 'animat bil, shuldir zavqi-safosi.*

Перевод:

Я видел тот свет, в нём нет верности,
Цените этот, здесь и радость, и сладость.[2, 33]

Почтение родителям занимает важное место в Коране. Всевышний гласит: «И завещали мы человеку его родителей. Сопровождай их в этом мире в добре и следуй по пути их в этом мире в добре и следуй по пути тех, кто обратился ко Мне. Благодаря Меня и твоих родителей: ко Мне возвращение». (Сура Лукман, 14-ый аят). Служить родителям значит служить Аллаху. Слава родителям – это слава аллаху. Человек прежде всего должен

ценить и заботиться о родителях, которые произвели его на свет, с большим трудом вырастили и заботились о нём. Неблагодарный к родителям не познаёт и своего Аллаха. Мысли, проповедающиеся в Коране, нашли своё художественное отражение в терма Поян бахши так:

*To 'g 'ri yo 'ldan yursang, birodar,
Oqibat saqlasang, katta-kichikka,
Ota-enang roziligin olsang, birodar,
Yaratganning muruvvatin kutgin.*

Перевод

*Если человек на истинном пути,
Если он в компании вежлив.
И если он чтит своих родителей,
Значит, он не будет наказан. [4]*

Из терма Поян бахши становится ясно, что человек, уважающий, почитающий, заботившийся о родителях есть любимец Аллаха, и он не будет наказан в потустороннем мире. Вероятно, под словом «Мир» понимается и этот, и потусторонний мир.

Ангелы, записывающие грехи и благе деяния людей, выполняют приказы Всевышнего. Они стоят на левом и правом плечах человека и становятся свидетелями всех деяний. Хушвакт бахши говорит:

*Yelkangda o 'tirar ikki farishta,
Yozishar qilgan gunohlaringni. [5]*

Перевод:

*На левом и правом плече,
Ангели собирают твои грехи.*

В таких терма сказители, внушая людям эти нравственно-воспитательные мысли, говорят, что эй человек, не думай, что никто не видит твои деяния, когда свершаешь их, всегда помни об Аллахе, который смотрит на тебя свыше. Помимо этого, на твоих плечах есть ангелы, записывающие твои деяния. Поэтому делай добро и избегай дурных поступков.

В священном Коране сказывается, что люди не должны причинить зло друг другу. Только создатель может наказать человека за его деяния, никто кроме него, не имеет права мучить или терзать его. Сказители с большим мастерством отражали эти

помыслы. Они в своих терма призывают всех чтить обездоленных и бедняков, а в судный день все – и владыка. и холоп должны отвечать перед Аллахом.

Иногда сказители в своих терма показывают истинное лицо людей, которые используют религию в своих злорадных целях. Они говорят, что люди не должны преследовать свои выгоды в полонничестве и думать только об искуплении грехов, а должны желать от чистого сердца и пойти с чистой душой, сочувствуя обездоленным, беднякам, опасаясь приобретенного не честным путём. Чори бахши эту мысль характеризует следующим образом:

*Xojga borishga maqsading ne dir,
Yetim-yesirga topganing yedir.
Qilganing savobdir, amallaring toj
Alarning barchasin Ollox etar Xoj.[6]*

Перевод :

*Если твоё полонничество не от чистого сердца,
То лучше порадовать сирот,
Зачем нужно идти тебя такую даль,
Аллах видит, это тебе награда.*

Бахши справедливо твердили. что не правильно паломничать ради славы. Лучше прокормить, обрадовать обездоленного, бедного человека, сироту в своём краю, нежели растратить много денег и средств ради паломничества. Совершают большой грех и те, которые полонничают, чтобы продемонстрировать себя и ради хвастовстваю Пророк Мухаммед так изрекал, те, кто совершают полонничество ради прокормления семьи, находится на пути рай. Кто отправился в путь. чтобы заработать хлеб для своих родителей, они также на пути в рай. А те, которые путешествуют ради собственного показа и показа своего богатства, находятся на одной дороге с дьяволом.

Узбекские бахши(сказители) особенно уделяли внимание на значение слов. Слово способно воскресит веру человека в жизнь, а может и убить всякий интерес к ней:

*So 'z degan bir qimmatbaho gavhardir,
So 'zni farq qilmagan, do 'stlar bekordir,
Asli bilsa suxanvarning farqi ko 'p,
Kim aytadi hamma so 'z barobardir?*

*Oqillar ayirar so'zning farqini,
Barobar qilmabdi, har mol narxini,
O'zbeklarda so'zga sinchi ko'p bo'lar,
Gap bilan airing o'zbek xalqini.*

Перевод:

*Бывает слово – мусор, слово – грязь,
Бывает слово – камень драгоценный.
Алмаз способно перепутать целый,
Спуском стекла, что промелькнет искрясь.
Среди узбеков много знатков,
Подход к вещам совсем не одинаков:
Учёный различает смысл знаков,
А умный различает смысл слов.[7]*

Хотелось бы отметить, что в развитии узбекского фольклора, в частности, народной лирики значительную роль играли туркменский, каракалпакский, киргизский и казахский фольклор. Они обогащали друг друга. Не зря и узбек, и казах, и каракалпак, и туркмен дастан «Гор-оглы» считали своими. Народная лирика тюркских народов не имела границ.

Именно в этом и заключается секрет жизненности фольклорных жанров, как и многих народных произведений прошлого, их не теряющая актуальности историческая и эстетическая ценность. Узбекское устное народное творчество, верное традициям народности и гуманизма, приобретает новую жизнь, как инструмент воспитания современников в духе высокого гуманизма.

Литература:

1. Мусакулов А. «Терма в узбекском фольклоре» Кан.дисс. Ташкент – 1984, стр 112.
2. М.Мурадов. «Эпос «Гор – оглы» сокровищница души и чаяний народа» .Ташкент 1990. изд. Узбекистон. стр 120.
3. Турсунов И.Н. «Исторические основы народных терма и их художественность».Диссер.канд.филол.наук, ташкент. 2011.
4. Фольклорный архив при университета узбекского языка и литературы.инв№ 192.
5. Тот же источник.Инв.№221.
6. Тот же источник.Инв№ 41.
7. Тот же источник. Инв № 102.

“QAYTMAS TO‘LQINLAR” ROMANIDA MILLIY QADRIYATLAR TASVIRI

*Turopova Parizod Shavkat qizi,
Jizzax Davlat Pedagogik Instituti
(PhD), o‘qituvchisi
Jizzax, O‘zbekiston Respublikasi*

Annotasiya: Ushbu maqola Turob Maqsudning “Qaytmas to‘lqinlar” romanidagi milliy qadriyatlar tasviri, adib uslubining o‘ziga xoslik masalasini o‘rganish tadqiqiga bag‘ishlangan. “Qaytmas to‘lqinlar”da o‘zbek xalqi qadrlaydigan an’analar, urf–odatlar, marosimlar, madaniy va ma’naviy qadriyatlar, milliy qahramonlari hayoti misolida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: an’ana, rivoyat, afsona, urf–odat, marosim, qadriyat, milliylik.

Аннотация: Данная статья посвящена исследованию изображения национальных ценностей в романе Туроба Максуда «Необратимые волны», изучения вопроса своеобразия стиля писателя. В произведении «Необратимые волны» на примере жизни национальных героев показывают традиции, обычаи, обряды, культурные и духовные ценности, которые ценит узбекский народ.

Ключевые слова: традиция, притча, легенда, традиция-обычай, обряд, ценность, национальность.

Abstract: This article is devoted to the study of the image of national values in the novel "Irreversible Waves" by Turob Maqsud, the study of the specificity of the writer's style. "Irreversible Waves" reflects the traditions, customs, ceremonies, cultural and spiritual values of the Uzbek people, the lives of national heroes.

Key words: tradition, legend, myth, customs, ceremony, value, nationality.

Turob Maqsudning “Qaytmas to‘lqinlar” romani tabiatning go‘zal in’omi bo‘lgan xayol, xotira mahsuli ekan, shu o‘rinda I.Otamurodning “Men bir - armon, men - bir xotira, Sog‘inch zardobini sipqarar sukun. Armon - quvonchini yo‘qotgan yig‘i, Xotira - ko‘ksimda bo‘zlaydi...”[1;26], –degan satrlari beixtiyor yodga tushadi.

“Qaytmas to‘lqinlar” romanini o‘ziga xos jihati jahon adabiyotida kechayotgan ijodiy jarayon va yangilanayotgan milliy romanlarga hamohangligida ko‘zga tashlanadi. Asar boshidanoq muallifning Alisher

Navoiyning “Ka’baki, olamning o’lib qiblasi, Qadri yo’q ondoqkim, ko’ngil ka’basi” misralarini keltirishi, shuningdek, romanning ifoda yo’sinida esdalik, xotira – memuar, nasriy bayon va drama usullari qorishiq holda kelishi, lirik–falsafiy chekinishlar, tarixiy–afsonaviy talqinlar, she’riy parchalar munaqqid e’tirof etgan fikrni to’liq isbotlaydi.

Har bir millatning o’zi qadrlaydigan an’analari, urf–odatlar, marosimlari, madaniy va ma’naviy, milliy qahramonlari bo’lganidek, besh kitobdan “Go’daklik”, “Bolalik”, “O’smirlik”, “O’spirinlik”, “Ilk yoshlik”dan iborat “Qaytmas to’lqinlar”da qahramoni Quddus hayotining besh pallasidagi voqealar bayoni yuqoridagi holatlarni o’zida aks ettiradi. Asar Quddusning tilidan hikoya qilinadi. Yuqorida aytganimizdek, asar avtobiografik asarlar sirasiga mansub bo’lib, qaysidir ma’noda Sadridin Ayniy, Oybek, Abdulla Qahhor, Nazir Safarovlarning shu yo’nalishda yozilgan asarlariga hamohangdir. Ushbu asarning “Go’daklik” qismida Quddus hikoyasi orqali “yo’qolib borayotgan urf–odatlar” mahorat bilan tasvirlagan. Buni biz birgina bosh qahramonning onasini chillaka tokni kech kuzgacha Abudurahmon tog’asi yoki Maskovdan yurgan o’g’li uchun asrab avaylab saqlashiyu, palov qiladimi, suyuq oshi qiladimi qozonda ozgina qismini qoldirib “g’oyibning haqi” deb olib qo’yish holatlarida ham ko’rishimiz mumkin. Bu faqatgina Quddus onasigagina xos bo’lmay, balki har bir o’zbek oilasiga xos bo’lgan fazilat ekanligini asar davomida ko’rishimiz mumkin. Bu sof o’zbekona milliylik, umuminsoniy qadriyatlar ifodasidir. Asarda bu kabi holatlar bir necha o’rinda, voqealar bayonida, xususan hashar, Sayid aka bilan To’ti opani orasidagi muammolar hal qilinishi jarayonida, ya’nikim halala [“taloq” qo’yishi sharti bilan ikkinchi erga nikoh qilinish]da yaqqol namoyon bo’lgan. Sayid aka ichkilik oqibatida ayoli To’ti opani taloq qiladi. Bu Qur’onda yomon bo’lib bunday holatdan so’ng turmushni davom ettirish mumkin bo’lmay qoladi, qachonki halala qilsagina yana qayta turmush qurish mumkin bo’ladi. Adib ushbu voqealarni juda ta’sirchan, ishonarli qilib tasvirlab beriladi.

Shu o’rinda, “Ijodkor yaratgan badiiy voqelik hayot haqiqatiga mos, lekin o’ziga asos bo’lgan ana shu voqelikdan ustun bo’lmog’i lozim. Hayotga taqlid badiiy ijodda muayyan iste’dod his–tuyg’usi, taffakuri, ideali ta’sirida umuminsoniy qadriyatga ega bo’lgan yangicha badiiy hayot yaratish”[3;97] – ekanligi o’z isbotini topgan.

Asarda ba'zi yoshlarimiz hozirda bilmaydigan milliy qadriyatlar haqida ham so'z boradi, bu Quddus tilidan shunday hikoya qilinadi: "Beshariq yoqalab ketgan so'qmoqdan uyga qaytayotsam, shunday ariq bo'yida belbog'ini yerga to'shab, namoz o'qiyotgan usta Fayzi boboni ko'rib qoldim... ariq oldida yotgan kaltakni oldim—da, Usta boboning belbog'idan ancha beriga ko'ndalang qo'yib, oldini kesib o'tdim—namoz o'qiyotgan odam oldidan shunday qilib o'tish kerakligini dadam o'rgatgan" [2;191].

Asarda yana bir o'rinda, adib rais va Usta bobo halollik haqida bo'lib o'tgan suhbatini keltirilishi, unda Usta boboni "Bir kitobda o'qigandim!", — deganda Quddus hayron bo'ladi "maktabda aytishardiki, bunaqa chollarning bari savodsiz" [2;193] deb o'ylashdan keyin Usta bobo tomonidan eshitgan rivoyat asar badiiy g'oyasini nihoyatda ko'targanligini ko'rishimiz mumkin. Unda soy yoqalab ketayotgan husnu malohatda tengsiz Yusuf zilol suv yuzida oqib kelayotgan bir dona olmani olib, bexosdan bir—ikki tishlab yarmini yeb qo'yadi, shunda o'ylamasdan qilgan ish xatoligini, so'ramasdan yeyish gunoh ekanligi o'ylab olma egasini izlab, uni haqini bergani keladi:

—Ey otaxon! Men xom sut emgan bandadan xatolik o'tdi. Ana shu olmangiz suvda oqib ketayotgan ekan, ushlab, so'ramay—netmay yarmini eb qo'yibman. Endi men sizning oldingizda ham gunohkor, ham qarzdor bo'lib qoldim...Ayting—chi, otaxon, men qarzimni qanday uzib, gunohimni qanday yuvay?", — anchayin savol — javoblardan so'ng chol olmani haqini to'lashga puli yetmasligini uni to'lash uchun faqat shartini bajarishini aytadi, "—Bo'lmasa, mening bir qizim bor, ismi—Abkor. Uning oyog'i shol, ko'zi ko'r, qulog'i kar. Abkorga uylanasiz, shart shu!. Yusuf shartga ko'ndi...Yigit go'shangaga kirdiyu hayratdan qotib qoldi: chimiliqdiqda oy desa oydan oydin, kun desa kundan yorug' bir sohibjamol egilib salom berib turganmish. Yusuf qo'li bilan yuzini to'sib, go'shangadan chiqib ketdi..Bu menga aytilgan qiz emas!.. —Axir siz, zaifamning ko'zi ojiz, oyog'i shol, qulog'i kar degan edingiz—ku!

—To'g'ri, lekin ko'zi ojiz deganim nopoklarning yuziga boqmagan deganim, oyog'i shol deganim, ostona hatlab tashqariga chiqmagan deganim, qulog'i kar deganim, yomon so'z, noto'g'ri gap eshitmagan deganim erdi, o'g'lim!.. Yillar o'tib Akobirdan tug'ilgan o'g'il to'rt yoshida beqiyos iste'dod namoyon etdi. Shunda Akobir: "Otasi agar olmaning yarmini yeb qo'ymaganda edi, o'g'lim o'z qobiliyat kuchini uch yoshdayoq zohir etgan bo'lar edi!" degan ekan. Ana Orziqul uka, endi bizning halolligimiz, qayga borardi?!" [2;195–196]. Ana endi

yuqorida keltirilgan parchaga e'tibor qaratsak, "maktabda aytishardiki, bunaqa chollarning bari savodsiz" degan jumлага e'tibor qaratsak, Sho'ro hukumati yopishtirgan bu tavqi la'nat qanchalik asossiz ekanligini Usta boboni aytib bergan rivoyati ko'rsatib turibdi. Rivoyatda juda katta falsafiy ma'no singdirilgan bo'lib, birovni haqini yeyish musulmon farzandini ishi emasligini, uning oqibati faqat o'zida emas, kelajak avlodga ham ta'sir etishi ochib berilgan. Shuningdek, hozirda birovni haqini yeyishga qo'rqmaganlarga, kuyov tanlashda esa imon e'tiqodligiga emas balki yashash tarziga, puliga uchaydiganlarga, milliy qadriyatlarimizni o'zida ifoda etgan, bu rivoyat qaysidir ma'noda ibrat, saboq ekanligini ta'kidlash joiz.

Yuqoridagi tahlilardan shu narsa ayon bo'layaptiki, Turob Maqsud milliy adabiy an'analarni ham, dunyo adabiyoti tajribalarini ham puxta o'zlashtirgan, doimiy izlanish, so'z va fikr qolipini yangilashga intilgan ijodkor ekanligi, romani g'oya mazmunidan yaqqol namoyon bo'lib turibdi.

Adabiyotlar:

1. Ikrom Otamurod. SEN. She'rlar va doston. – T.: Qatortol-Kamolot, 1999 .
2. Turob Maqsud. Qaytmas to'lqinlar. Toshkent.: O'zbekiston, 2014.
3. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T. : Fan, 2004.
4. Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. –Москва.: Писатель, 1975.

“ALPOMISH” DOSTONIDAGI YETAKCHI OBRAZLAR SEMANTIKASI

Turdimov Shomirza Ganievich
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
Filologiya fanlari doktori, yetakchi ilmiy xodim.
Toshkent, O'zbekiston Respublikasi

Annotasiya: Etnosning tarixi, taqdiri mumtoz eposda badiiy timsollarda aks etishi, bu mazmun eposdagi obrazlar tasvirlari orqali berilishi “Alpomish” eposining yetakchi obrazlari talqini misolida yoritilgan. Bu o'z navbatida etnos tarixi bilan bog'lik qatlamlarning alp

obrazi, uning hamkorlari va qarama-qarshi kuchlar kurashi tasvirida oydinlashganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: doston, epos, etnos, obraz, alp, bo'g'im, bo'g'in.

Аннотация: История этноса, ее судьба отображается на художественных образах классического эпоса – все это исследовано в работе через интерпретацию ведущих образов эпоса “Алпомиш”. В свою очередь, это показывает о раскрытии пластов, связанных с историей этноса, через образы главного героя, его соподвижников и их борьбе с силами противоположной стороны.

Ключевые слова: поэма, эпос, этнос, образ, геройство, пласт.

Resume: The history of the ethnos, its fate is reflected in the artistic images of the classical epic - all this is explored in the work through the interpretation of the leading images of the epic "Alpomish". In turn, this shows about the disclosure of the layers associated with the history of the ethnos, through the images of the protagonist, his associates and their struggle against the forces of the opposing side.

Key words: poem, epic, ethnos, image, heroism, layer.

“Alpomish” dostoni tadqiq etgan H.Zarifov[6, 39, 42 b.], H.Olimjon[5, 85-91 b.], M. Saidov[2, 87 b.], M.Mirzaev [3, 33-35 b.], Sh.Turdimovlar[4, 37,54,65 b.] dostonidagi bir qator obrazlar semantikasi yuzasidan ma'lum fikr-mulohozalarni bildirib o'tishgan. Biz bu maqolada dostonning asosiy obrazlar mohiyatida ifodalangan ma'nolar xususida o'z mulohazalarimizni bayon etishni maqsad qildik.

“Alpomish” dostonidagi har bir obraz etnosning ma'lum ijtimoiy tabaqa yoki biror guruhining ramziy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Doston voqeligida bu obrazlarning harakati, intilishlari, fikr-o'ylari, taqdiri badiiy ko'rinishda o'ta mukammal tasvirlangan. Etnos manglayiga tanazzul tamg'asi tushsa, xalqning bunyodkorlik quvvati bo'linadi. Dostonda ayni ko'rinish axborotini bo'g'in(uchlik) misolida dastlab Boybo'ri – Boysari taqdirida, so'ngra badiiy tasvirini bo'g'im(ettalik) ko'lamida – Kashal podshosi Toychixon va to'qson alp tasvirida timsol darajasida tasvir topganligini ko'ramiz. Boysun-Qo'ng'iro't tanazzulga yuz tutganida, Kashal gullab yashnardi. Boysarining akasidan arazlab, o'n ming uyli el bilan Kashalga ko'chib kelishi Boysun-Qo'ng'iro't tanazzulining eng quyi, Kashal etnosi rivojining esa eng yuqori ko'rsatkichi edi. Shu nuqtadan boshlab charxning Boysun-Qo'ng'iro't qismi tepaga ko'tariladi. Kashal bo'lagi quyiga inadi. Alpomish Kashal yurtiga Barchin talabida borgan vaqti esa

Toychixon mamlakatida tanazzul buhroni avj nuqtasiga yaqin kelgan edi. Tanazzulni tutib bo'lmaydi. Uni bir kishi, bir avlod hosil qilmaydi. Aksincha, bir necha avlodlar a'moli tug'diradi (sust-faol-sust. Bo'g'in bo'g'implarning davriy almashinuvi) – etnosning gunohu savobiga, karmasiga qarab yuzaga chiqadi. Toychixon mamlakatning rasman hukmdori bo'lsa-da, amaldagi kuch-to'qson alp tomonida. To'qson alpning o'dag'asi yetti aka-uka alp va ularni orqa qilib «qonundan tashqari» turgan Surxayil kampirning ham so'zi – o'ktam edi. Qalmoq mamlakatida kuchlarning bo'lingani Barchin uchun bo'lgan kurash – to'rt shartning bajarilish jarayonida ro'y-rost yuz ko'rsatdi. Poygada Boysun-Qo'ng'iroq bilan Kashalning quvvati sinovdan o'tadi. Avvalo, poygada Qorajon Alpomish taraf, qolgan alplar o'z boshiga, Toychixon nomidan uch ot qatnashadi. Sirdan qaralsa, qalmoqlar o'z-o'zlari bilan talashib-tortishayotganday taassurot qoladi. Ayni shu nuqtada tanazzulni boshidan kechirayotgan etnos va bu etnosning tanazzul chekiga tushgan avlodi taqdiri, ularning turli toifa va sosial guruhlarning ruhiy-siyosiy holatlari, missiya, vazifalari aniqlashadi, mumtoz epos namunasida bu holat mukammal badiiy-ramziy tasvir oladi.

Tanazzulga yuz tutayotgan Kashalga qarama-qarshi o'laroq, allaqachon tanazzul bosqichini o'tab, yangidan, qayta tug'ilayotgan Boysun-Qo'ng'iroq etnosida esa vaziyat endi boshqacha. Bu yerda taxt vorisi, to'qson alpga muhr bo'luvchi alpu xalqning jismoniy va ma'naviy qudratini jamlagan shaxs bitta. Bu – Alpomish.

Alpomish– buzilgan yurtning tuzuvchi passionar shaxs timsoli. Bu xil tuzuvchi-bunyodkor shaxslarda butun xalq (bo'g'im) quvvati jamlanadi. Xalqning a'moli yurtning tuzilishiga asos bo'lsa, Alpomish kabi shaxslar tug'iladi. Alp etnosning bunyodkorlikkaingan bo'g'imida yetiladi. Bunyodkor bo'g'im quvvatini o'zida jamlovchi alpning bichimi xalqning «alplik» haqidagi tasavvurlar tizimida turadi. Alp xalqning adolat o'rnatuvchi botiri, ideal qahramoni. Hamid Olimjon yozadi: «Xalq ongida go'zallik ideali – mardlik, adolat, haqiqatning hokimligi ideali bilan ajralmas bog'langan. Odamgarchilikning biror kun qat'iy yengajagi xalq ongida shubhasiz. Buning uchun esa, qahramon bo'lmoq, mard bo'lmoq va dushman bilan olishmoq lozim.

Adolat o'rnatish uchun botir bo'lish zarur. Maqsadga yetmoq uchun kurashmoq lozim. «Alpomish»damardlikning targ'ib qilinishi ana shundan kelib chiqqan. «Alpomish» mardlik dostonidir. Alpomish o'lim o'ldirmaydigan odam to'g'risidagi dostonidir.»[5, 85-96 b.] Dostonda Alpomishning tavsifdan ortiq tavsifi, ta'rifdan ziyod ta'rifi, tasvirdan

ulug' tasviri ham bor. Bu avvalo kurash shartida qalmoq alplarining mubolag'ali ta'rifi barobarida Alpomishning hech bir sifatlarsiz maydonga kiritilganida namoyon. Kurash shartida Alpomish va qolgan alplarning quvvati sinovdan o'tadi. San'atdagi eng katta poetik san'atlardan biri – narsaning narsaga, hodisaning hodisaga, kishining o'ziga sifatlanishi. «Alpomish – Alpomish» deyish. Mubolag'a, sifatlash, o'xshatishning siri, qudrati ham shunda. Aslida bu she'riy san'atlarining bari tushuntirish uchun xizmat qiladi. Alpomish aqlni lol qoldiruvchi, vahimasi vahimani qo'rqituvchi alplardan g'olib keldi. Mubolag'ali, sifatlangan polvonlarni sifati keltirilmagan pahlavon yengar ekan, uning kuchi-qudratini tasavvur qiling. Alpomishning alpligining ta'rifdan ortiq ta'rifini topgan baxshining san'atkorligi ham ushbu san'atda.

Barchin ham Alpomishdek tilab olingan farzand. Etnos yukini ko'tarish zimmasiga tushgan olovqalb(pasionar) avlod peshqadami. Barchin otasi – Boysaribiy boshliq elning Kashalga ko'chishiga avval boshdan qarshi chiqadi. Qolmoq alplari Barchin talabida kelgan vaqti Barchin alplarga haddini bildirib, munosib javob qiladi. Barchin o'n ming uyli elning najotkori ota yurt, uning kuchi Alpomish ekanligini birinchi bo'lib ilg'adi. Qalmoq alplaridan muhlat olib, Alpomishga maktub yo'lladi. Alpomish kimligini namoyish etdi. Dostonda Barchin ikki qiyofada ko'ramiz. Biri – Ko'chish xatar, deb ogohlantirgan, to'qson qalmoq alpiga so'zini o'tkargan. Boychiborni «qurho-qur» deb chorlab, madad bo'lgan, so'ng tulpor oyog'idagi gulmixlarni tishi bilan sug'irib yarasiga malham qo'yib, mehr ko'rgazgan, Ko'kaldoshni yengishda qiynalgan Alpomishga dalda berib, o'zi maydonga tushishga jahd qilgan olov qalb Barchin. Bu holatlar dostonning birinchi qismida kuylangan. Dostonning ikkinchi qismidagi Barchin avvalgisiga mutlaqo o'xshamaydi. Uning quvvati «pov» etib yonib, o'chib sustlashib, ojiz qolganday tuyuladi. Jo'n mantiq o'lchovlari bilan yondashilsa, bu o'rinda baxshilardan jinday «ayb» o'tgandek tuyuladi. Aslida bunday emas. Har ikki holat ham Barchin obrazi timsollari mantiqiga ko'ra o'zini oqlaydi, hamda dostondagi barcha obrazlar tizimi qamrovida asoslanadi. Doston talqiniga ko'ra Barchin uchun kechgan tortishuv oddiy bellashuv emas. Bu kurash badaliga saltanatlar taqdiri tikilgan. Barchin qalmoq qo'lida qolsa, Kashal super etnosini qayta quvvatlantirishi mumkin bo'lardi. Alpomish g'olib kelsa, Barchin shartlari Kashal super etnosining parchalanishining bosh sababchisiga aylanardi. Natija kutilganday yakun topdi. Barchinning Kashaldagi

shiddati, jasorati o'zini begona muhitdan himoya qilgan elat kuchiga tayanadi, ayni kuchni namoyon etadi. Dostonning ikkinchi qismida kurash Boysun-Qo'ng'iroq etnosi ichida kechadi. Bu yerda tashqi dushman yo'q. Tashqi dushman elni birlashtirsa, ichki dushman bo'laklaydi. Bunday vaziyatda etnos tarkibidagi qavmlar, toifa, guruhlar bir-biriga zimdan qarshi chiqadi, natijada etnos falaj holatga tushadi. Etnos tiklanish yo'liga kirganch dam uchun bu holat umumiy taqdir deyish deyish mumkin. Ana shu davrda bo'lajak saltanat urug'i unib, qad rostlaydi. Mabodo to'la-to'pda hokimiyatga o'ralashib qolgan manfaatparast kuchlar g'olib kelsa, etnos halokatga uchraydi. Aksincha alp o'z quvvatini yig'ib, adolat bilan taxtga egalik qilsa etnos gullab yashnaydi.

Ko'kaldosh tanazzulga uchragan etnosning kechagi kuniga tegishli avlod – Kashalning qartaygan quvvatining timsoli. Shu o'rinda Ko'kaldosh va Toychixon bir mavqe, makon va zamon vakillari. Ularning dunyo qarashlarinin go'zagi shu nuqtada birlashadi. Ko'kaldosh kechagi kun tasavvurlari, orzu intilishlari bilan yashaydi, kechayotgan o'zgarishlarni tanolmaydi. Qabul qilmaydi. Qabul qilishga ojiz. U Alpomishning kuchu qudratiga ham Boybo'ri va Boysari qatorida, kechagi kun mezonlari bilan qarab baholaydi. Alpomish timsolida Boysun-Qo'ng'iroq yangi kuchga aylanganligini aqliga ham sig'dira olmaydi. Bu holatni aytganlarni, ogohlantirganlarni dushman bilib jazolaydi. Birgina misol. Ko'sa sinchi taqdiri. Ko'sa sinchi Ko'kaldoshga sirdosh bo'lib, Boychibor benazir ot ekan, o'zbekning qiziga burilmay qo'ya qo'y, deganida, Ko'kaldosh sen o'zbekdan pul olib otini maqtayapsan, deb sinchining ikki ko'zini o'yib oladi.

Kashalda yana bir kuch Surxayil maston tomonida. Surxayil podsholikka yo'l-yo'riq ko'rsatishga qodir, o'ktam, g'ujurli ayol. U Kashal mamlakatining bosh mastoni (bugunning atamasi bilan aytilsa ideologi). Toychixon Surxayil maston bilan avval-oxir murosa qilib keladi. Podsho shunday yo'l tutishga majbur. Chunki Surxayil – Toychixonga maslahatchi, tadbirchi sifatida zarur. Qolaversa, uning yetti alp o'g'li bor edi. Hatto o'g'illarining oltitasi halok bo'lib, kenjasi Alpomish bilan ketgan bo'lsa-da, Surxayil kuchi singan emas. Ayniqsa Barchin masalasi hal bo'lib, Alpomish asosiy raqib sifatida Kashal etnosi qarshisida qad tiklagach, Qalmoq shohga bu xavfni yo'ldan olishda alamzada Surxa yildan ishonchliroq hamkor topilmasdi. Qalmoq shohning rejalari ma'lum ma'noda o'zini oqladi. Alpomishga alamzada Surxayil mastondan ortiq dushman yo'q edi. Surxayil maston butun

kuchu hunarini Alpomishga qarshi ishlatdi. Uni mahv etishga kirishdi. Eng so‘ngi nafasigacha tinchimadi. Surxayil tom ma‘noda qushi qochgan – Toychixonning, qartaygan etnosning siyosiy-harbiy tadbirlarni ishlab chiquvchi qatlamning timsoliy obrazi.

Qorajon –chegaradagi odam obrazi. Alpomishga do‘st, o‘z onasi, akalari, Toychixonu alp sheriklariga maslagi o‘gay – ikki o‘t orasida yongan qahramon. Qorajon shaxsi oddiy mezonlar qolipiga sig‘maydi. Uni do‘st sifatida oqlovchi, «xoin» deb qoralovchilar ham asoslidek tuyuladi. Kishilik tarixida bir etnos quvvatga kirib yuksalganida, uning g‘ayriqutbi qartayib singanida, bir saltanat qad tiklab, boshqasi nuragan davrlarda qorajonlar hamisha bo‘lishgan. Ular quvvati sinayotgan etnos va nurayotgan saltanat vakili bo‘la turib, dushman – raqib etnos safida turgan. Aslida qorajonlar boshqaga mardikor bo‘lsalarda, mohiyatan o‘z xalqining teshasini chopgan toifaning timsoliy obrazidir. Chingizxon kelganidagi Mahmud Yalavoch, sho‘rolar davridagi Fayzulla Xo‘jaevlar Qorajon tipidagi shaxslardir. Qorajon tobora nurab borayotgan Kashal jamiyati halokatini sezib, unga “kunim o‘tdi, zo‘r davron”, deya xizmat qilayotganidan norozi. U Kashal etnosiga taxt egasichalik mas‘ullik sezib kuyinadi. Qorajon ruhan Alpomishga yaqin. Qorajonning asl niyati o‘z etnosi ravnaqiga xizmat qilish edi. Lekin mavjud vaziyat uni o‘z etnosidagi umumiy oqimga ters harakat qilishga majbur qiladi. Qorajonning fojeasi ana shu nuqtada. Qalmoqning 89 alpi, podshosi Barchinni olmoqchi. Qorajon esa Barchin Alpomish bilan ketsin, deydi. Alpomishga yordam beradi. Borib-borib o‘zi ham Boysun-Qo‘ng‘irotga muhojir bo‘ladi. Qorajon Kashal saltanati zavolini aniq sezib shu yo‘lni tutadi. Aslida nuragan saltanati imorati qorajonlar ustiga qulaydi. Shunda, qorajonlar yer ostiga tushgan urug‘ga aylanadi. Nuragan etnos aynan qorajonlar yelkasida qayta qad tiklash imkonini saqlaydi. Tarixda buning misollari ko‘p. Qorajonni Kashalning cho‘kayotgan avlodi inkor etdi. Kashal torlik qilgan Qorajonni Boysun-Qo‘ng‘irot ham sig‘dirmadi. Ultontoz uni Olatog‘ga surgun qildi. Toki Alpomish qaytguncha elga aralasha olmay yurdi.

Yortiboychilik. Doston olomonchilik ruhiyati, tabiati, xarakterini “maslahatchi” Yortiboy oqsoqol timsolida ochib bergan. Yortiboy oqsoqol qanday shaxs o‘zi? Yortiboy yarimta shaxs ham emas, yorti – 0,25, yarimning yarmi. Mamlakatning – xalqning bo‘linishiga nafaqat Boybo‘ri, Boysarilarning o‘zaro kelishmovchiligi, nifoqi, o‘zbilarmonligi, xudbinligi, manfaatparastligi, ochko‘zligi, kaltao‘yligi, balki ana shu illatlar tug‘dirgan fojeaga befarq tomoshabin bo‘lib turgan,

olomonchilik fe'li – yortiboychilik ham sababchidir! Yortiboylar: «Maslahat bermaymiz Boysariboyga, osilmaymiz Boybo‘rining doriga» deydi. Mana yortiboychilik falsafasi! Har qanday jamiyat ildiziga bolta uruvchi bu xil mavqe tutuvchi Yortiboylar befarq, beparvo, ular uchun or-nomus, millat, vatan, kelajak nasl taqdiri degan tushunchalar begona. Uning joni tinch, qorni to‘q, maishati bekamu ko‘st, oyog‘i uzangida bo‘lsa kifoya. Yortiboyning Barchinni alplarga berib, evaziga «Bolalarni toha-jiyan qilami, Muna eldi toza erkin bo‘lamiz» deyishi shundan. Sirtida turgan dushmanning aniq qiyofasi bor. Uning kuchi-qudrati chamalab, bilib reja tuzasan. Eng yomoni shulki, ichingda turgan ko‘zga ko‘rinmas yortiboylarni qo‘l bilan ko‘rsatish qiyin. Foje esa yortiboychilikning har bir fuqaro ruhiyatiga ko‘chishida. Alpomishni «choh»ga ana shu «ichki dushman» tushirdi. Alpomish ana shu dushman oldida g‘ofil qoldi, ogohligini yo‘qotdi. Yortiboychilik alpning oyog‘idan chaldi, aqlini oldi, zindonband qildi. Aynan yortiboychilik Ultontozni Boysun-Qo‘ng‘irot taxtiga «egaman», deb chiqishiga imkon berdi.

Ultontoz va u erk, hokimiyat bergan odamlarga dostonida «qul» deyiladi. Bu «qul» tushunchasi ham serqatlam mazmunga ega. Avvalo Ulton va uning qavmining qonuniy ildizi yo‘q. Qolaversa ular nafsqullari, manfaatqullari, boylik, mansab, hokimiyat qullaridir. Ultontoz davri yolg‘onlari Bodom bikach obrazi timsolida yanada mukammal badiiy tasvirini olgan. Baxshi – shoirlar bu o‘rinda kulgu, yumorni o‘yinga kiritishgan. Shunday damlar bo‘ladiki: botirlar behol, mulozimlar yaltoq, dono-hakimlar tilining tagiga tosh tashlab oladi. Ana shunda masxaraboz tilga kiradi. Afandi so‘zlaydi. Kulgu haqiqatlarni qiyshiq oynaga solib ko‘rsatadi. Ultontoz darvi yolg‘onlari Bodom bikach aytgan «yor-yor»da, Qultoy qiyofasida kelgan Alpomish bilan aytishgan o‘landa o‘z ifodasini topgan. Bodom bikachning tili chuchuk. U «r»ni «y» deb talaffuz qiladi. Odatda chuchuk tili odam ko‘p oldida so‘zlashga tortinadi. Bodom bikach aksincha, baralla «yoy-yoy» deydi. Bir mard chiqib to‘g‘ri so‘zlovchi gapirsin deyya olmaydi. Yorti boylar, labbaychilar ham bu holatda tillarini chuchuk qilib «yoy-yoy»ga jo‘r bo‘lishadi. Hatto «Yor-yor» deyish ayb hisobiga o‘tadi. Hamisha yolg‘on haqiqat qarshisida niqobsiz qoladi. «Qultoy» (Alpomish) va Bodom bika cho‘lanida «yolg‘on»lar niqobi sirib tashlanadi. Ultontoz tizimining g‘oyaviy rahnamosi Bodom Bikachni mahf etdi.

Qultoy – Boysun-Qo‘ng‘irot vijdoni edi. Boychibor – Boysun-Qo‘ng‘irotning murodi atansa, Qultoy ana shu murodni tarbiyat qilgan

ShAXSdir. Alpomishning o‘ng egniga Shohimardon pining panja izi tushgan bo‘lsa, chap egniga Qultoyning besh panjasining izi belgi bo‘lib tushgan. Aslida Alpomishning ikki ma‘naviy qanoti bor. Biri – Qultoy, ikkinchisi emakdosh singlisi – Qaldirg‘och.

Qaldirg‘och va Qultoy bir iqlimga tegishli obrazlardir. Ularni birgalikda olib qaralsa, mohiyatan yaxlit bir tizimda turishlari ma‘lum bo‘ladi. Qultoy va Qaldirg‘ochni ko‘nglidagi mulk uzluksiz vaqt zamonga tegishli. Qultoy ko‘kdan yergaingan, Qaldirg‘och yerdan ko‘kka intilgan Boysun-Qo‘ng‘irotning quvvat «tashuvchi»laridir. Qultoy va Qaldirg‘och – etnosning ma‘naviyat qo‘rg‘onlari edi. Ultontoz davrida eng qadrsiz holatga Qultoy va Qaldirg‘och tushdi. Chunki, Ultontoz siyosati aynan ana shu ikki qadriyat ziddiga qurilgan. Ultontoz ushbu ikki qadriyat asoslarini oyoq osti qilish hisobiga taxtni egalladi.

Adabiyotlar:

1. Alpomish. Doston. O‘zbek xalq qahramonlik eposi / Aytuvchi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi To‘ra Mirzaev. – Toshkent: Fan, 1999. – 832b.
2. Saidov M. O‘zbek dostonlarida badiiy mahorat. – Toshkent: Fan, 1969. – 264 b.
3. To‘ra Mirzaev. Dostonlar gultoji // O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. Toshkent: G‘.G‘ulom, 2015, 21–38- betlar.
4. Turdimov Sh. Etnos va epos. Toshkent: O‘zbekiston, 2012, 95 bet.
5. Hamid Olimjon. So‘zboshi o‘rnida // “Alpomish” – o‘zbek xalq qahramonlik eposi. Toshkent: Fan, 1999, 80–96-betlar.
6. Hodi Zarif. Alpomish eposining asosiy motivlari // “Alpomish” – o‘zbek xalq qahramonlik eposi. Toshkent: Fan, 1999, 24–46-betlar

MUHAMMAD YUSUF IJODIDAGI O‘ZBEK FOLKLOR MOTIVLARINI O‘RGATISH

Saydaxmedova Nigora Sulaymonovna
Namangan Davlat Universiteti
mustaqil izlanuvchisi
Namangan, O‘zbekiston Respublikasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Yusuf she’rlarida maqollar va iboralarning qo‘llanishi, leksik yoki grammatik jihatdan o‘zgartirilib she’rda o‘ynoqilik, ta’sirchanlik kabi xususiyatlarni ta’minlay olganligi misollarda ko‘rsatilgan. Frazeologik iboralarni interfaol usuldan foydalanib, o‘quvchilarga oson o‘rgatish yo‘llari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ibora, maqol, so‘z, so‘z birikma, she’r, til, jamiyat.

Аннотация: В этой статье демонстрируется использование пословиц и фраз в стихотворениях Мухаммада Юсуфа, которые можно модифицировать лексически или грамматически, чтобы придать стихотворению такие особенности, как игривость и выразительность. Фразеологические выражения объясняются способами, которые легко преподать студентам с помощью интерактивного метода.

Ключевые слова: фраза, пословица, слово, фраза, стихотворение, язык, общество.

Annotation: This article demonstrates the use of proverbs and phrases in Muhammad Yusuf’s poems, which can be modified lexically or grammatically to provide features such as playfulness and expressiveness in the poem. Phraseological expressions are explained in ways that are easy to teach to students using an interactive method.

Key words: phrase, proverb, word, phrase, poem, language, society.

Muhammad Yusuf o‘ziga xos va betakror shoir bo‘lib, uning she’rlarida xalqona ohanglar jaranglab turadi va shu jihati bilan u boshqa shoirlardan farqlanib turadi. Shoir she’rlariga o‘zgachalik baxsh etgan omillarning eng asosiysi - uning o‘ziga xos tili, o‘ziga xos tasvir usuliga egaligidir. M. Yusuf ijodida maqol va iboralarning she’riyat yoki uslubiyat talabi bilan ijodiy tarzda qo‘llanganligi she’rda o‘ynoqilik, ta’sirchanlik, falsafiylik kabi xususiyatlarini ta’minlaydi.

Muhammad Yusuf she'rlaridagi har bir chizgi, tasvir jimjimadolik, balandparvozlik, havoyilikdan holi tarzda sodda, teran, xalqona so'zlar orqali berilgan. Shoir she'rlarining o'qishligini ta'minlaydigan vositalardan biri xalq falsafasini chuqur anglash, xalq og'zaki ijodidan oziqlanish, shu jumladan, maqol, hikmatli so'zlar, ibora kabi barqaror birliklardan mohirona foydalana olishdir. Albatta, har qaysi ijodkor – u xoh nasrda ijod qilsin, xoh nazmda – o'z asarlarida xalq og'zaki ijodi namunalari albatta qo'llaydi. Muhammad Yusufha maqol va iboralardan foydalanishda ularga ijodiy yondashdi, ayrim o'rinlarda ularga ayri-ayri jilo baxsh eta oldi. Shoir tasviriy ma'noga va emosional bo'yoqqa ega bo'lgan iboralardan unumli foydalangan. Shu bilan birga, ayrim maqol va iboralarning ma'nosi boyitilib, ba'zi maqol va iboralarning emosional – ekspressiv bo'yoqlari kuchaytirilgan. Muhammad Yusuf she'rlarida xalq maqollari va iboralarni she'riyat talabi bilan ijodiy tarzda qo'llangan[1,41]. Maqollar va iboralarning leksik yoki grammatik jihatdan o'zgartirilganligi she'rda o'ynoqlik, ta'sirchanlik kabi xususiyatlarni ta'minlagan.

Frazeologik iboralar mahalliy dialekt va shevalarga tegishli bo'lishi, turli qarashlarni ifodalashi, kasb-hunarga va turmushning xilma-xil sohalariga doir bo'lishi mumkin. Bunday hollar frazeologik iboralarni stilistik nuqtai nazardan o'rganishga imkon beradi. Bugungi adabiy ta'limga muayyan shoir yoki yozuvchi ijodi xususidagi rang-barang qarashlarni, turlicha talqin tahlillarni olib kirish, binobarin, o'quvchilarni ham bir asar tevaragida turfa fikr-mulohazalarga tayanib tahlil, bahs-munozara qilishga o'rgatish ta'limda fikrlar xilma-xilligini ta'minlash imkonini beradi. Shunday usuldan umumta'lim o'rta maktablarida Muhammad Yusuf ijodini o'rgatish bo'yicha o'tiladigan to'garak mashg'ulotlarda ham foydalanilsa, darslarning samaradorligi oshib, o'quvchilarning bilimi mustahkanibgina qolmay, ularda yaxshi ma'naviy-axloqiy sifatlar shakllanishi ham tezlashadi. Bugungi kunda qator mamlakatlarning ta'lim tizimida keng qo'llanilayotgan «Aqliy hujum», «6x6x6», «Klaster», «Qarorlar shajarasi», «Chig'irliq» singari interfaol ta'lim metodlaridan o'rta maktablarning to'garak mashg'ulotlarida Muhammad Yusuf ijodini o'rganishda ham foydalanish mumkin. Shu o'rinda biz «Kichik guruhlarda ishlash» metodidan foydalanamiz. Dastlab, to'garak a'zolarini 3 guruhga bo'lib olinadi. Frazeologik iboralarga grammatik nuqtai nazardan qaraganda, bunday iboralarning bir xili so'zga teng kelib, bir ma'noni anglatadi. Boshqa xillari so'z birikmasiga teng bo'ladi, ba'zilari esa gapga teng

kelib, nisbiy tugal fikrni bildiradi. Mana shu xususiyatlariga ko‘ra frazeologik iboralarni grammatik tomondan dastlab uchga bo‘lish mumkin. O‘quvchilar guruhda ishlaydilar, o‘qituvchi boshqaruvchi vazifasini o‘taydi.

| No | So‘zga teng kelgan frazeologik iboralar Gapga teng frazeologik iboralar So‘z birikmasiga teng kelgan frazeologik iboralar | Ko‘ngli bo‘sh - ko‘ngilchan, rahmdil. | Ammo qalb tan olmas, u o‘sha-o‘sha, |
|----|---|--|--|
| 1. | Qarshimda boladek dardin yoradi. | | (M.Yusuf. «Erka kiyik», 50-bet) |
| 2. | | Dardini yormoq – aytmoq, tashvishga solib yurgan yashirin ish - uylarini o‘ziga yaqin olib aytmoq. | |
| 3. | | Bosh bir kun toshyostiqaqqa yetar, | Ruh to‘tisi tanni tark etar. |
| 4. | (M.Yusuf. «Erka kiyik», 41-bet) | | Boshi yostiqaqqa yetmoq - kasal bo‘lib yotib qolmoq. |

Tahlillar shu tariqa davom etadi, o‘qituvchi bu o‘rinda xatolarni to‘g‘rilab, tahlilga yordamlashadi. Ko‘p misollar topib tahlil qilgan guruhlar rag‘batlantirib boriladi.

Navbatdagi «Burchaklar »deb atalmish interfaol usuldan shoir she‘rlarida uchraydigan maqollarni topishda foydalanib ko‘ring, albatta katta didaktik samara beradi. Bu usulning o‘ziga xosligi shundaki, unda o‘qituvchi o‘quvchilarining fikrlarini to‘g‘rilash imkoniga ega bo‘lmaydi. Bu usulni adabiyot o‘qitish, adabiyot to‘garaklar jarayonida qo‘llashdan maqsad o‘quvchilarni, birinchidan, she‘r o‘qishga o‘rgatish, ikkinchidan, o‘qigan asari yuzasidan o‘z fikriga ega bo‘lishga odatlantirish, uchinchidan, va eng muhimi, bu mustaqil fikrning, albatta, asar matnidan keltirib chiqarilishiga erishish, to‘rtinchidan, o‘spirinlarda

o‘z fikri uchun mas‘uliyat hissini shakllantirishdan iboratdir. Bu usulni qo‘llaganda, o‘qituvchining o‘quvchilar fikrini to‘g‘rilamasligi kerakligining sababi shundaki, o‘quvchilarda noto‘g‘ri bo‘lsa-da, o‘z fikri bo‘lishi muhimroqdir. O‘quvchining noto‘g‘ri fikri mashg‘ulot so‘ngida to‘g‘rilab olinadi, lekin o‘quvchilik davrida o‘z fikri bo‘lishiga erishmagan odam bir umr shu holicha qolib ketishi mumkin. Demak, u nafaqat barkamol shaxs, balki umuman, shaxs sifatida shakllanmay qoladi. Holbuki, bugungi o‘zbek maktabi oldida o‘quvchilarni barkamol shaxslar sifatida shakllantirish vazifasi turibdi. Xalq maqollari va iboralari ta‘sirida shoir tomonidan yangi yaratilgan aforizmlar, hikmatli so‘zlar juda ko‘plab uchraydi. Bunday barqaror birliklar shoir she‘rlarining ta‘sirchanligini, ohangdorligini, badiiy va estetik jihatdan oshiradi. M.Yusuf ayrim she‘rlarining birinchi misralaridayoq xalq maqollarini keltiradi. Bu holat she‘rda bayon etilmoqchi bo‘lgan fikr, maqsadni o‘quvchiga tezroq yetib borishini ta‘minlaydi va she‘rdagi xalqonalikni oshiradi. Uchta burchakdan joy olgan guruhlardan biri shoir she‘rlaridan aytadi, navbvtidagi guruh maqollarning aynan o‘zin keltirish kerak. Muhammad Yusuf she‘rlarida va xalq maqollarida - deb, solishtiradilar.

| Muhammad Yusuf she‘rlarida Xalq maqollarida | Totuv yurtida tuproq o‘zin tog‘ aylagay, |
|--|---|
| Bir – birini qo‘llagan el kam bo‘lmagay. | |
| <i>To‘qligingda yoqlagan Qarindoshdan yot yaxshi.</i> | <i>Qadr bilmas qarindoshdan yaqindagi yot yaxshi[2,103.].</i> |
| <i>O‘nta nomard do‘stingdan Bitta cho‘loq ot yaxshi.</i> | <i>Yomon do‘stdan qirda yotgan tosh yaxshi[1,48.].</i> |

Ba‘zan shoir ta‘sirchanlikni oshirish maqsadida xalq maqolini keltirib, uning ma‘nosini inkor etib, mohirlik bilan o‘zgacha bir ko‘rinishni yaratishga erishadi.

Muhammad Yusuf «Beshinchi o‘g‘il» she‘rida oiladagi mehr-oqibat, oilada ota va onaning o‘rni, ota-ona tirikligida farzandlar o‘rtasidagi hurmat-izzatni, ayniqsa, onaning mehnati, mehri beqiyosligi, cheksizligini kundalik voqealarni xalq maqoli asosida zo‘r mahorat bilan ochib bergan.

Garchi biz yosh, g‘o‘r edik,

*Siz bor-biz ham zo‘r edik.
Bir mayizni besh o‘g‘il
Teng bo‘lishib yer edik,*

*Gulim, mehr ko‘zda degani yolg‘on,
Mening dilimda hech o‘chmas yolqinsiz.
Qancha ko‘rishmasak, shuncha qadrdon,
Qancha olis bo‘lsak, shuncha yaqinsiz.
Ko‘nglimqolsabulbuldanhamguldanham,
Qolarbo‘lsambirkunaxirtildanham .
Agar bir zum yig‘lasa, chin dildan ham
Onam yig‘lar, onam yig‘lar, onam yig‘lar.*

Muhammad Yusuf «Onaizor» she‘rida onaning naqadar azizligi, mehribonligi, farzand uchun doimo parvona bo‘lishini, farzand uchun har qanday og‘ir mehnatlarga ham tayyor bo‘lib, tinim bilmay, beminnat xizmat qilishlarini, farzand kasal bo‘lganda ham, boshiga har qanday og‘ir musibat tushganda ham, onaizor hoziru nozir bo‘lishini, onani qancha hurmat qilsak ham, onaga qancha xizmat qilsak ham ozligini yoritgan.

*Qushday uchib quchog‘ingdan dunyo kezdim,
Kezib-kezib topganlarim sog‘inch bo‘ldi.
Qancha olis ketsam, shuncha qadring sezdim,
Qayda yursam yodda mehring ovunch bo‘ldi.*

«O‘zingdan qo‘ymasin, xalqim» she‘rida Muxammad Yusuf yurtimizning ko‘p asrlik tarixini, boy madaniyati, ko‘xna qadriyatleri xalq bilan bevosita bog‘liqligi, bizga nonutuz bergan, oq yuvib oq taragan, eng qiyin damlarda ham bag‘rida avaylab asragan, yig‘lasak yupatib, kulsak xursand bo‘lib voyaga yetkazgan ona xalqimizni ta‘riflaydi. O‘quvchilarni tayyor fikrlarni shundayicha qabul qilishga emas, balki o‘z qarashlariga ega bo‘lishga o‘rgatish ularga tayyor bilimlarni singdirishdan muhimroqdir. Til jamiyat taraqqiyotining ko‘zgusi ekan, ma‘lum ma‘noda Muhammad Yusuf she‘rlari ham hozirgi tilimiz imkoniyatlari, uning nozik ma‘no qirralarini namoyish eta olgan. Bu imkoniyatlar turli vositalar, jumladan, so‘zni mohirona qo‘llash, yangi birliklar hosil qilish, xalq tilidan ijodiy foydalanish va boshqa vositalar orqali o‘z aksini topgan.

Adabiyotlari:

1. Shadieva D. Sh, “Muhammad Yusuf she’riyati lingvopoetikasi” dissertatsiya. – Toshkent. 2007.
2. Yusuf, M. “Yolg‘onchi yor”. G‘afur G‘ulom nomidagi nashryotmatbaa ijodiy uyi. –Toshken.2018.
3. Yusuf, M. “Xalq bo‘l, elim”. “O‘zbekiston”. - Toshkent. 2018.
4. Yusuf, M. “Biz baxtli bo‘lamiz”. Nihol. – Toshkent. 2011.
5. “ O‘zbek xalq maqollari”Sharq nashriyoti. – Toshkent. 2005.

ПЕРЕВОПЛОЩЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ РЕАЛИЙ В ПЕРЕВОДАХ СТИХОТВОРЕНИЙ ГАФУРА ГУЛЯМА

Салимова Дильнаваз Акмаловна

*Джизакский Государственный Педагогический Институт
доктор философии по филологическим наукам, и.о.доцент
Джизак, Республики Узбекистан*

Annotasiya: G‘afur G‘ulom she‘rlari tarjimasida milliy realiylarning qayta mujassamlanishi.

Maqolada she‘riy tarjimada milliylikning qayta yaratilishi mavzusi tilga olinadi. Tarjimashunos olimlar S.Florin va S.Vlaxovlar tomonidan milliylik vositalari - realiyalarning turli guruhlariga ajratilganligi esga olinib, olimlar tilga olmagan sharq mumtoz poeziyasiga mansub poetik so‘zlarning ham milliylikni ifodalashdagi o‘rni xususida fikr boradi. Ushbu masala G‘afur G‘ulom she‘rlarining rus tiliga tarjimalari misolida yoritiladi.

Kalit so‘zlar. Mumtoz so‘z-poetemalar, “qorako‘z” ifodasi, hos so‘zlar, milliy ruh, milliy atributlar.

Аннотация: Перевоплощение национальных слов-реалий в переводах стихотворений Гафура Гуляма.

В данной статье рассматривается вопрос о перевоплощения национальности в стихотворном переводе. Литературоведы С.Флорин и С.Влахов относят национальные реалии на разные группы по типу их применения автором оригинала, но ученые не останавливаются на восточно-классические слова-поэмы, которые по мнению автора статьи, тоже имеют значительную роль

в изображении национальности, и этот вопрос рассматривается в примерах переводах на русский язык стихотворений узбекского поэта Гафура Гуляма.

Ключевые слова. Классические слова-поэмы, метафора “қоракўз”, национальный дух, национальные атрибуты.

Annotation: Transformation of national coloring in the translation of poems Gafur Gulam. This article discusses the transformation of national color in the examples translated into Russian language poems Gafur Gulam, in the comparative analysis.

Key words: classic poetry words, metaphor “black eyed”, national, national attribute.

В языке каждого народа классификация слов и слов-понятий может обновляться в соответствии характеру данного языка исходя из исторических, географических и этнографических условий. Лексика национального языка в некоторых случаях обогащается за счёт творчества писателей и поэтов или мастерства переводчиков. Мастера художественного слова, эффективно пользуясь лексическими и грамматическими ресурсами, могут создавать новые слова и понятия на поэтическом языке, в свою очередь переводчики с таким же мастерством, как и автора, подходят к выбору альтернативных слов более подходящих для применения по отношению к оригиналу подобных слов и понятий. Ещё одним средством достижения эмоциональной чувствительности, лирической привлекательности и художественной гармонии стихотворного произведения является отражение национальных особенностей присущих родине оригинала. Такие средства как национальное лицо, методы, мелодии и образы не возникают вне традиций классической литературы и ценностей устного народного творчества. Сохранение в переводе особых национальных слов создаёт возможность лучше осознавать национальный колорит оригинала. В переводческой среде приводятся разные классификации и толкования слов-реалий. Учёные Е.М.Верещагин и В.Г.Костомаров оценивающие слова-реалии с лингвистической точки зрения относят их к безэквивалентной лексике [1,56]. Е.М. Верещагин и В. Г.Костомаров указали лишь то, что слова, план содержания которых невозможно сопоставить с какими-либо иноязычными лексическими понятиями, называются безэквивалентными. По мнению этих ученых такие слова в строгом смысле непереводимы.

Национальная особенность, имеющая отношение к творчеству всех поэтов, тем не менее, в каждом отдельно взятом произведении проявляется по-своему, поэтому использование национальных атрибутов придаёт стихотворному произведению особый колорит, красоту и точность, отражая при этом и личное мировоззрение автора. В процессе перевода стихов узбекских поэтов минувшего века на русский язык и на другие языки с помощью русского языка для сохранения национальных особенностей учтены критерии реалистичного перевода И.Кашкина. То есть переводчик, взявшийся к переводу оригинала в основе данных критерий, в первую очередь ставил целью пробуждать у читателя своего языка определенное представление о родине и народе оригинала произведения. Естественно, при сохранении национальных особенностей были свои сложности перевода определенных слов и понятий, что в частности, весьма чувствуется при выборе альтернативных слов словам-поэтам, относящихся к восточной классической поэзии. С целью обоснования собственных мыслей можем привести, к примеру, стихи Гафура Гуляма, в которых часто встречаются такие слова-поэмы. Следует отметить, что в поэзии данного автора по-особому ярко проявляются порядок, внутренние и внешние особенности стиха. Широта тематики, разнообразие мира образов, постоянное обновление стилистических средств и отражение национального духа придают особый, неповторимый колорит всему творчеству прекрасного мастера слова. По-нашему мнению, если поэзия талантливого узбекского поэта входит в литературу других народов, то, во-первых, она несёт представление о характере узбекского народа, во-вторых, пробуждает у народа воспринимающего эту поэзию интерес к народу, которому относится автор оригинала произведения. В поэзии Гафура Гуляма характерные черты узбекского народа, в основном, мастерски передаются в лице разных образов и путём множества изобразительных приёмов. Таким образом, зарубежный читатель, читающий его стихотворение, осознаёт, что его автор является узбеком.

В творчестве Гафура Гуляма слова-реалии, усиливающие национальности, действительно, занимают большое место. Примером к сказанному могут служить такие слова как - *tagdo'zi, chakma, sanama, jiyag, hakkari, sharbat, chilli, shinni, poyandoz, to'n, atlas, sadarayhon, jigirim, mushfiq, qo'zim, oqpadar, hayo, munis,*

ajdar, oltin beshik, gulo'yin, gopak, oltin kamar, qirquyak, qo'sha qarimok, joma, tasadduk, и другие. В поэзии поэта есть реалии, придающие его творчеству национальный облик в лице географических названий и имён: O'zbekiston, Toshkent, Samarqand, Namangan, Xorazm, Jizzax, Shosh, Sir, Amu, Rumo, Chirchiq, Marg'ilon, Ohangaron, Bo'z, Anhor, Solor, Sharq, Osiyo, Yozyovon, Sarson ; Eram, Lena, Parij, Moskva, Baytul-mukaddas, Bobil; Olmaota, Oltoy, Konibodom, Oynabulok, Nayson, Gang, Kurill, Jazoir; Odam, Ulug'bek, Nodira, Oybegim, Avezovim, Hofiz, Lutfiy, Navoiy, Bedil, Jomiy, Nasriddin, Xamid Olimjon, Zebi, Qumri, Halima.

Такие слова-реалии как *shomoniy, islom, budda, tasbeh, childirma, takbir, karvon, ravoq, fotih, obida, qatron, qalandar, masjid, fir'avn, xoqon, tasanno, rafa, alhazar, dilorom, davot* и другие служат повышению художественной ценности и медитативной (эмоциональной) красочности стиха.

С.Флорин и С.Влахов, разбирая реалии на группы, часто встречающиеся в поэзии восточных народов поэтемы не соотносят ни в какую группу. По нашему мнению слова-поэтемы вошедшие в современную литературу из классической поэзии в определенной степени могут выполнять задачи реалий. Потому что такие поэтемы как *shabnam, boda, sunbul, gul, tannoz, syernoz, aysh-ishrat, setora, lolagin, chaman, gulbog'*, используемые в поэзии Гафура Гуляма, да и в целом в поэзии узбекских поэтов, являются словами характерными для поэзии востока и при переводе на дальние языки пробуждают у читателя восточное представление. С учётом безэквивалентности слов-поэтем, то есть, с учётом того, что они относятся к не альтернативной лексике, считаем, что можно классифицировать такие понятия как восточные поэтемы-реалии.

Как показывают анализы, в поэзии Гафура Гуляма национальный дух и характер, в пространство и времени не знают границ. В стихах поэта, написанных на разные темы и в разное время, чувствуется, что он является представителем узбекской нации и стихотворение относится к узбекской поэзии. С этой точки зрения ассоциация классической, современной и фольклорной традиций в поэзии Гафура Гуляма дает нижеследующий результат:

1. Яркое выражение национальных особенностей в результате слияния фольклорных мелодий с современными стихотворениями.

2. Слияние деталей устного народного творчества с деталями классической восточной поэзии.

Данная ассоциация выражается не только словами и понятиями, но и отражаются с языковой точки зрения – в грамматической и синтаксической категории, например, *o'g'limenkim, qolg'aymi, qilg'usi, ermish, sevmayin, bormayin, bo'lmagay* и другие. Обращаем внимание к примерам:

*Bir vatanning o'g'limen kim, har taraf gul-lola bog',
Qalb ko'ziday eng qorong'i kechada porlar charog',
Har yigit mag'ruru har qiz ko'kragi qo'sh cho'qqi tog'.
Suv desang sharbat oqar, iqlim desang qaymog'u yog',
O'z-o'zini maqtaganda, maqtamay qolg'aymi men? [7;27]*

В стихотворении «Боғ» («Сад»), написанном в жанре мухаммас, встречаем чистые узбекские поэтические детали. В нем, написанном в современном пафосе в сочетании с традициями восточной классической поэзии и фольклорных мелодий, вырисовывается перед глазами пейзаж сада, созданный трудом дехканина. В образе сада передается любовь лирического героя к Родине, изображается природа и сады родного края. В прекрасных строках поэт уподобляет красоту сада красоте прекрасной девушки. Таким своеобразным поэтическим средством как бы дает понять, что каждый человек, вошедший в сад узбекского края, не остается не плененным царящей здесь красотой, и тем самым дарит читателю приподнятое настроение.

Такие поэтемы-реалии относящиеся к классической и народной поэзии как *gul-lola, chillik, daroyi, husayni, ko'z shivirg'on, shinni-sharbat, lola jomi, qarosiday, xummorda o'lsin, ul meni «yorim» deganda, dil, xush-chun, kabutar qalbiday, sohibi sen bu chamanning, qurboning ketay, rayhon* и *чарос* способствуют повышению национальности стихотворения. При переводе нельзя оставлять без внимания такие вдохновенные слова и словосочетания придающие читателю приподнятый настрой, в противном случае вообще нет смысла взяться за перевод стихотворения. Именно этой истиной руководствовалась при переводе стихотворения на русский язык поэтесса-переводчик В.Потапова, постаравшаяся как можно больше сохранить слова-реалии:

*Наша Родина прекрасна-
розы, мак, полей атлас.
Голубое небо ясно,
и сады ласкают глаз.
Наши девушки чудесной*

*красотой чаруют вас.
И отвагою джигитов
любовался я не раз.
Пред напором песни рьяным
устоять могу ли я?[3;83-84]*

Переводчик старается оставить реалии оригинала без изменений или стремится найти подходящие к ним эквиваленты из родного языка: пиала, шувиргон, гулистан, джигит, Гырат, шербет, чилла, и шатер - *chodir*, стакан – *jom*, кувшин – *jom*, роза, тюльпан – *gullola*, цветник – *chaman*. Как видно из этого примера – реалии как бы остаются на месте, но национальный колорит оригинала отнюдь не группируется только в этих словах. В данном стихотворении национальный колорит создан в сочетании нескольких атрибутов – коннотаций, песенной мелодии фольклора, выразительно-изобразительных средств, обеспечение гармонии которых, понятно, по причине естественных различий не может быть реализовано.

По мнению ученых, «Основных трудностей передачи реалий при переводе две, 1) отсутствие в ПЯ соответствия (эквивалента, аналога) из-за отсутствия у носителей этого языка обозначаемого реалией объекта (референта) и 2) необходимость, наряду с предметным значением (семантикой) реалии, передать и колорит (коннотацию) — ее национальную и историческую окраску » [2;80]. Исходя из этого, можно сказать, что переводчик В.Потапова смогла сделать слова-реалии и коннотации подходящими к оригиналу, национальность оригинала тоже на уровне, только не удалось ей сохранить полностью вышесказанное нами – гармонию ассоциаций, составляющую стиль Гафура Гуляма. Достижение такого результата может и не требуется, так как в поэтическом стиле автора основное место занимают выразительно-изобразительные средства. Обилие слов относящихся клады узбекского устного народного творчества, а также языковое богатство повышают смысл, художественно-эстетическую и лирическую ценность поэзии Гафура Гуляма. При переводе таких произведений считается важным, чтобы переводчик кроме знания языка чувствовал главную мысль, опираясь на опыт и интуицию, действовал исходя из позиции контекста.

В узбекской поэзии словосочетание «қора кўзлим» активно используется с целью усиления значения нежности или ласки. Представители голубоглазых наций при выражении «қора кўзлар»

(«чёрные глаза») понимают жителей восточных стран, в частности, человека узбекской национальности. Гафур Гулям, взявшись написать данное словосочетание, подразумевает не традиционный смысл «qora ko‘z», а другое - его качество. Блеск чернил из чернильницы уподобляется блеску зеницы очей, а исходящий из неё луч, словно зеркало, освещает тьму, и благодаря этому свету, поэт может заниматься творчеством всю ночь. Значение словосочетания «qora ko‘zligim», примененного автором в стихотворении «Siyohdon» («Чернильница»), переводчики понимают по-разному. Первый переводчик, зная традиционное значение «qora ko‘zligim» узнаёт и другое его значение, с целью сохранить национальности оригинала в переводе использует альтернативный вариант:

*Alishyer qalamga qilganda xitob
Davoti yodidan ko‘tarildimu?
Siyohdon, azizim, qora ko‘zligim,
Qora tunlar aro yorigan ko‘zgu [7;76].*

Перевод С.Сомовой :

*Перо прославив, славный Алишер
Не вспомнил о чернильнице своей...
О черноглазая чернильница моя,
Ты – света зеркало во тьме очей [4;54].*

Знаменитый переводчик С.Иванов – автор непревзойденных переводов из узбекской классической поэзии наблюдает за движением стихотворения, правильно доводит до читателя национальный колорит заложенной в нем философской мысли:

*Когда калам свой Алишер хвалил,
Что ж он забыл чернильницу при этом?
Мне чёрным оком блеск твоих чернил
Светил в ночах зеркально-ясным светом [5;446].*

Обращение «О черноглазая...» не применяется в третьем переводе. Вместо него переводчик выбирает словосочетание «черным оком» (qora kўz билан), так как знает что, слово «черноглазая» может вводить русского читателя в заблуждение. То есть цель здесь не в упоминании черных глаз узбекского народа, а в пробуждении у читателя воображения об исходящих из чернил лучей, словно как из зеницы очей. Мастерское использование Гафуром Гулямом фольклорных традиций придает его стихам

особый ритм и нежность, характерную стихотворному размеру бармок в устном народном творчестве.

Подытоживая собственные мысли, мы приходим к выводу, что частое использование слов-реалий в произведении не усиливает его национальности. Потому что для этого недостаточно одного только упоминания названий городов и сёл или особенностей природы родины оригинала. Национальность произведения обеспечивают характерные особенности нации, ее своеобразные ценности и традиции.

Литература:

1. Верещагина Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. – М.: Русский язык, 1990. – 387 с.

2. Влахов С. Флорин С. Непереводимое в переводе.– Москва: Международные отношения, 1980.

3. Гулям Гафур. Стихотворения и поэмы. Малая серия.–М.-Л.:Советский писатель,1980

4. Гулям Гафур.Стихи. –Ташкент: Госиздат, 1949

5. Иванов С.Кровное слово. Переводы из узбекской поэзии.Ташкент:Литература и искусство,1981

6. Пугина Е.Ю., Смыслов С.П., Холстина Т.В. Восточные реалии: репрезентация при переводе. [Электронный ресурс]. <http://vestnik-mgou.ru/Articles/Doc/9815/>(дата обращения: 04.10.2016).

7. G‘ulom G‘afur.Tanlangan asarlar. Nazm va nasr.-Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi; 2012

O‘ZBEK FOLKLORIDA ANOR POETIK OBRAZINING SEMANTIK TALQINLARI

Rustamova Gavhar Bahron qizi

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Buxoro, O‘zbekiston Respublikasi

Annotasiya. Ushbu maqolada o‘zbek folklorida anor poetik obrazi badiiy ifoda etilgan hamda ushbu obraz bilan bog‘liq afsona, rivoyat, xalq qo‘shiqlari va topishmoqlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek folklori, daraxt, anor, ramziy obrazlar, urf-odat, hosildorlik.

Аннотация. В статье художественно выражен поэтический образ граната в узбекском фольклоре и научно проанализированы мифы, легенды, народные песни и загадки, связанные с этим изображением.

Ключевые слова: узбекский фольклор, дерево, гранат, символические образ, традиция, продуктивность.

Abstract. This article artistically expresses the poetic image of pomegranate in Uzbek folklore and scientifically analyzes the myths, legends, folk songs and riddles associated with this image.

Key words: Uzbek folklore, tree, pomegranate, symbolic images, tradition, productivity.

O‘zbek folklorida anor an’anaviy ramziy obrazlardan biri sanaladi. Markaziy Osiyo xalqlari orasida anorga jannatiy daraxt sifatida qadim-qadimdan alohida ehtirom ko‘rsatib, e’tiqod qilib kelingan. Boisi anor haqida muqaddas Qur’oni Karimda ham oyatlar mavjud: U ikkisida (jannatda) meva, xurmo va anorlar bordir (Rahmon surasi, 68-oyat).

Anor faqatgina foydali meva emas. Shuningdek, u yer yuzidagi qadimiy madaniylashtirilgan o‘simlik hamdir. Taxmin qilinshicha, ibtidoiy odamlar yegan va o‘stirgan birinchi mevalardan hisoblanadi. Anor haqidagi ilk ma’lumotlar esa eramizning III asrlariga taalluqli.

Nafaqat anor, umuman olganda, deyarli barcha mevali daraxtlar bilan bog‘liq e’tiqodiy qarashlar juda uzoq yillik ildizlarga borib taqaladi hamda hosildorlik inonchlari bilan bog‘lanadi. Markaziy Osiyo xalqlarining islomgacha bo‘lgan e’tiqodiy qarashlari va urf-odatlarini tadqiq etgan etnograf olim G.P.Snesarevning qayd etishicha, mevali daraxtlar yoki ularning ayrim turlari, mevasining xususiyatlari rag‘batlantiruvchi hisoblangan, keyinroq hosildorlik ramziga aylangan.

O'rta Osiyoda Zardushtiylik dinining muqaddas ma'budalaridan biri, hayot ilohasi Anaxitaning kelib chiqishi anor mevasidan ekanligi tasodifiy emas. Anor donalari o'zining mo'lligi bilan kishini hayratga soladi. Mana shu sababdan bo'lsa kerak, anor mevasi sehr-jodu maqsadida O'rta Osiyoda sovg'a uchun kashta vositasida tayyorlanadigan so'zanalarga tushirilgan. Ko'rinadiki, xalq orasida anor bilan bog'liq magik inonchlar ham mavjud bo'lgan.

Buxoro viloyati Romitan tumanidagi Qo'rg'on anori, Surxondaryoning Sara Osiyo anorlari, Farg'ona viloyatining Quva anori, Namangan viloyati Chust tumani bog'bonlari tomonidan yetishtirilgan anorlar dong'i qadimdan nafaqat respublikamiz, balki butun dunyoga tarqalgan. Zukko dehqonlar anor yetishtirishda yuksak darajada rivojlangan agrotexnikani qo'llaganlar. Ular bu borada magik urf-odatlariga ham amal qilganlar. Anor eng qadimdan o'ziga xos ilohiy ne'mat tarzida qadrlangan. Shuningdek, anor hosildorlik homiysi Anbar onaning atributi hisoblangan.

Xalqimizda anor daraxti bilan bog'liq bir qancha udumlar bor – bu daraxt istagan joyda gullayverishi mumkin, ammo u inson ko'zi tushmaydigan joyda meva tugadi, – deb hisoblashadi. Shu sababli anor ko'chatini bog'ning to'riga, taxminan uydan 100 metr nariga o'tqazishadi. A.Ashirovning ta'kidlashicha, vodiy dehqonlari anorni ko'pincha o'zgalar ko'zi tushmaydigan joyga, bog'ning chekkaroq yeriga ekanlar. Chunki ular tasavvurida ushbu meva magik xususiyatga ega bo'lib, gullaganda yot kishining nigohi tushsa urchimay qolar ekan. Anor mevasining yonidan ayol va qizlar o'tmasligi kerak. Chunki ular qizil kiyim kiyishadi, anor esa bu rangni yoqtirmaydi, mevasi to'kiladi. Bu yerda biz, shuningdek, ranglarning sehrli xususiyatlari borasidagi qarashlarga ham duch kelamiz.

Bu kabi urf-odatlar Navro'z bayrami munosabati bilan o'tkaziladigan marosimlar tarkibida ham saqlangan. Jumladan, daraxtlar bilan aloqador magik qarashlarni o'zida aks ettirgan Navro'z kuni dasturxon o'rtasiga turli daraxtlardan olingan yettita novdani qo'yish udumida tol, o'rik, behi jiyda kabi daraxt novdalari orasida anor novdasi ham bo'lgan.

Daraxtlarning insonga aylanishi yoki hayotning daraxtdan boshlanishi haqidagi afsonalar nafaqat o'zbek xalq og'zaki ijodida, balki dunyo xalqlari folklorida ham uchraydi. Masalan, qadimgi skif qabilasida shunday afsona mavjud bo'lgan: aytishlaricha, bir kishining ayoli vafot etadi. U o'zining Sid (ya'ni Anor) ismli qiziga uylanmoqchi

bo'ladi. Qiz bunday tahqirga chiday olmay o'zini o'ldiradi. Xudolar esa uni anor daraxtiga aylantiradilar. Doktor Odil Abu Nasr o'zining "O'simliklar tarixi" nomli kitobida anorning Yevropada tarqalishi bilan bog'liq quyidagi rivoyatni keltiradi: "Anor arablar bilan birgalikda Andalusiya kirib kelgan. Arablar Ispaniyani egallab, Aburrahmon ibn Muoviya Andalusiyaning boshqarayotgan paytda uning singlisi Umm al Asba' akasiga bir qator sovg'a-salomlar jo'natadi, ular orasida bir nechta anor mevalari ham bor edi. Sovg'alarni olgan shoh ularni xizmatkorlariga tarqatdi. Ja'far ismli bir kishiga esa anor tegdi. Jafar anorni tatib ko'rgach, anorning ta'mi unga juda ma'qul keldi. U avval bunday mevani sira yemagan yedi. Ja'far bu mevaning urug'larini bog'iga ekdi. Vaqt o'tishi bilan anor daraxti o'sdi. Ja'far bu daraxtning chiroyiga, qip-qizil gullariga mahliyo bo'lib, shoh saroyiga ham ektirdi. Natijada Andalusiya bu anor navi tarqalib, Ja'far anori deb nom oldi.

Odam alayhissalom Jannatdan quvilganda, unga 30 xil meva olishga ruxsat berilgan edi. Bulardan o'ntasi po'stloqli, o'ntasi danakli, yana o'ntasi danagi ham, po'stlog'i ham bo'lmagan mevalar edi. Po'stlog'i bor mevalar orasida anor ham bor edi. Shuning uchun ham anor jannatda o'sadigan mevalar qatoriga kiritiladi.

Hayot al-marom fi hujjat al-xisom" ("Bahs-munozara isbotida istaklar chegarasi") kitobida Abdurrazzoq, Muammar, az-Zubayr, Said ibn al-Musayyibdan quyidagi voqea keltiriladi: "Bir kuni tunda qattiq yomg'ir quydi, tong otgandan so'ng Muhammad s.a.v. Aliga aytdilar: Yur, al-Aqiqqa boramiz, u yerda o'rada yomg'ir suvi to'plangan bo'lishi kerak". Ular yo'lga tushdilar. Manzilga yetib borgandan so'ng Ali aytdi: "Ey Allox payg'ambari, nega yo'lga chiqishimizni kecha kechqurun aytmadingiz, men yegulik hozirlab qo'yar edim". Muhammad s.a.v. aytdilar: "Ey Ali, bu yerga bizni keltirgan Zot xaqqi, U bizlarni och qolishimizga yo'l ko'ymaydi". Shu paytda payg'ambarimiz oldilarida bir dasturxon paydo bo'ldi, unda inson ko'zi ko'rmagan g'aroyib anorlar bor edi. Ular uch po'stloqdai iborat bo'lib, biri oltin, biri kumush va biri marjondan edi. Payg'ambarimiz Aliga: "Bismilloh de va tanovul kil, ular sen olib kelishing mumkin bo'lgan ovqatdan yaxshiroqdir" dedilar. Ular anorni bo'ldilar, ularning donalari yoqut, marjon va zumraddan iborat edi. Shu paytda Ali ahli ayollari Fotima hamda o'g'illari Hasan va Husanni eslab qoldilar. U kishi uch dona anordan olib dasturxonga o'rab ko'ydilar. Birozdan keyin ular qaytib yo'lga chiqdilar, yo'llarida ikki saxoba uchrab qoldi. Sahobalar so'radilar: "Ey Alloh payg'ambari qaerdan kelyapsiz?" Ular: "Al-Aqiqdan kelyapmiz", dedilar. "Ey Allox

payg‘ambari, oldinrok aytganingizda, biz yegulik tayyorlar edik”, deyishdi. Payg‘ambarimiz: “Bizning bu yerda bo‘lishimizga sababchi bo‘lgan Zot bizni och qoldirmaydi”, deb javob berdilar. Shu paytda saxobalarning biri dasturxondan taralayotgan xushbo‘y hidni sezib koldi. Ali sahobalarni mehmon qilish uchun dasturxonni ochdilar. Ammo u yerda anor yo‘q edi. Ali qayg‘uga botdilar, ammo hech narsa qilishning imkoni yo‘q edi. Ular uyga qaytdilar. Ali uyga kirgach, dasturxondagi g‘alati shitirlashni sezidilar va dasturxonni ochsalar, yana o‘sha uchta anor turibdi! Darhol Fotima, Hasan va Husanga berdilar. Payg‘ambarimizga borib bo‘lib o‘tgan vokeani aytib bermoqchi bo‘ldilar. Payg‘ambarimiz u kishidan oldinroq: “Ey Ali, sen menga biror narsa aytmoqchimisani yoki mening aytganimni eshitasanmi?” – dedilar. Ali: “Ey Alloh payg‘ambari, ayting”, – dedilar. Shunda payg‘ambarimiz Alining uyida bo‘lgan voqeani o‘zlari aytib berdilar”.

Ko‘rinadiki, anor ham shifobaxsh o‘simlik, ham homiy kul’t sifatida xalqimiz e‘tiqodi va turmush tarzida mustahkam o‘rin egallagan. Shu bois, anor bilan bog‘liq tushlar ta‘birlariga ham ayricha e‘tibor qaratishadi. Bir kuni bir odam mashhur tush ta‘birchisi Ibn Siriyn oldiga keldi va: “Tushimda ko‘limda anor bor edi, buning ta‘biri nima?” – deb so‘radi. Ibn Siriyn: “Anor sen uylanadigan xotinni anglatadi. Agar sen uni yegan bo‘lsang – bu yaxshi belgi”, – dedi. Shuningdek, anor bilan bog‘liq boshqa ta‘birlar xam bor. Masalan, anor daraxtining tikanlarini tush ko‘rish, sabrliroq bo‘lishni anglatadi, nordon anor tashvish va g‘amga ishora; anor mevasi xotin, farzand yoki boylikni anglatadi; kimda kim tushida anor daraxtini kessa, o‘z qo‘li bilan boyligini yo‘qotgan bo‘ladi; tushida anor sotgan odam dunyo hayotini oxirat hayoti bilan almashtirgan bo‘ladi; tushida anor po‘stlog‘ini tozalagan odam kacallikdan forig‘ bo‘ladi va h.k. Anglashiladiki, anor bilan bog‘liq tushlar ta‘biri ham oila, farzand, va hosildorlik bilan bog‘liq xalq e‘tiqodining mahsulidir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, anor bilan bog‘liq e‘tiqodiy qarashlar juda uzoq yillik ildizlarga borib taqaladi hamda, asosan, hosildorlik inonchlari bilan bog‘lanadi. Anorning, umuman, daraxtlarning insonga aylanishi yoki hayotning daraxtdan boshlanishi haqidagi afsonalar nafaqat o‘zbek xalq og‘zaki ijodida, balki dunyo xalqlari fol’klorida ham uchraydi. Xalq qo‘shiqlarida uchraydigan anor obrazi sevgi-muhabbat, oila, farzand, hosildorlik g‘oyalarini o‘zida aks ettiradi.

Adabiyotlar

1. Alaviya M. O‘zbek xalq qo‘shiqlari. –T.: O‘zFA «Fan» nashriyoti, 1959. – 315 b. – B.28.
2. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alishyer Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. –B.144.
3. Gulyor. Farg‘ona xalq qo‘shiqlari. To‘plovchi Hoshimjon Razzoqov. –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1967. –248 b.
4. Jo‘raev M., Sattiyeva D. O‘zbek folklorida hayot daraxti. – T.:Fan, 2010. – B.32.
5. Ismoilov Q. Anor bilan davolanish. – T.: Adabiyot uchqunlari, 2015. –96 b.
6. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi. – T.: Fan, 2010. – 307 b.
7. Snesev G.P. Xorazmliklarning musulmonlikdan avvalgi marosim va urf-odatlar. – Urganch: UrDU noshirlik bo‘limi, 2018. – 332 b. –B.192.
8. Фрезер Д.Д. Золотая ветвь. 2-изд. – М.: Политиздат, 1983. – С.110-139.
9. Чепелевецкая Г.Л. Сузани Узбекистана. Ташкент, 1961. С.71-72; 74-75.
10. Kur‘oni karim. O‘zbekcha izoxli tarjima va izoxlar muallifi Alouddin Mansur. – Toshkent: Sharq, 1991. – 496 b.

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI.....3

BIRINCHI KENGASH. SHARQ MAMLAKATLARI FOLKLORI JANRLARI BADIYYATI VA YOZMA ADABIYOT RIVOJIDAGI O‘RNI

- Abdullaeva Ruqiya Muhammadovna.** Sharqxalqlari folkloridaranglarning ramziy ma’nolari. Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi.....4
- Abdullayeva Umida Abdukadirovna.** Xalq og‘zaki ijodi va ijroviy lirika uyg‘unligi. Qarshi, O‘zbekiston Respublikasi.....10
- Boysinov Sohibjon Sobirovich.** Adabiyotshunoslikda maqol janrining o‘rganilish tarixi. Jizzax, O‘zbekiston Respublikasi.....15
- Ismanjonova Maftuna Tursunpulot qizi. Sulaymonov M.** Bolalar adabiyoti va folklorida polvon obrazi Namangan, O‘zbekiston Respublikasi.....19
- Ernazarov Shermuxammad Eshbekovich.** Tarixiy ong shakllanishida xalq og‘zaki ijodining ahamiyati. Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi.....25
- Saydaxmedova Nigora Sulaymonovna. Rahmatova Mavjuda Mutallievna.Tursunqulova Shaxloxon Meliboevna.** Bolalar folklorining o‘rganilishi. Namangan, O‘zbekiston Respublikasi.....32
- Tursunov Z.** Ertaklarning paydo bo‘lishiga oid turli qarashlar. Namangan, O‘zbekiston Respublikasi.....35
- O‘raeva Darmonoy Saidaxmedovna.** “Afsona va rivoyatlar” modulini o‘rganish mavzusini o‘tishga doir interfaol metodlar. Buxoro, O‘zbekiston Respublikasi.....38
- Shomurodova Dilorom Husanmurotovna.** Drama shakllanishida folklor janrlari ta’siri Qarshi, O‘zbekiston Respublikasi41
- Eshonkulova Surayyo Isomiddinovna.** The influence of folklore on classical oriental literature Jizzakh, Republic of Uzbekistan.....46
- Egamberdiyeva Mukarram Shoolimovna.** Yapon folklorida ertaklarga yuklatilgan didaktik g‘oyalar Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi.....54
- Otaboeva Mohira Axmadovna.** Ingliz maqol va matallarining tarjimada aks etishi. Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi.....62
- Yusupova Dinora Akmalovna.** Siyovush kasroiy ijodida “orash kamongir” obrazi talqini. Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi.....66

IKKINCHI KENGASH. FOLKLOR ASARLARINING O'ZARO TA'SIRI VA TIPOLOGIYASI MASALALARI

- Алиева Дильдора Ботировна.** Философская лирика и пейзажные миниатюры Пак Мог Воля. Ташкент, Республика Узбекистан.....72
- Арынова Динара Суиндиковна. Байсеит Султан Ерланулы.** Письменная литература эпохи золотой орды, развитая в Средней Азии Казахстана. Туркестан, Республика Казахстана.....79
- Xudayqulova Latifa Avazovna.** Afg'on o'zbek to'ylari marosim folklorida zullisonaynlikning aks etishi. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi.....86
- Berdiev Husan Xolnazarovich.** Folklor asarlarida o'tovsozlikka doir badiiyma'lumotlarning ifodalanishi. Samarqand, O'zbekiston Respublikasi.....91
- Doshanova Muxabbat Muratbaevna.** Qoraqalpoq xalq dostoni "qirg qiz" ning sahnaviy talqini. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi.....97
- Mamatqul Jo'raev.** Qadimiy qadriyatlar tahlili. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi.....102
- Latipov J.L.** Xitan xalqi folklorining o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasi.....110
- Madaliev Ya.X., Tursunbaeva G.K., Beskempirova B.K.** Aldar Ko'sa, Nasriddin Xo'ja tipologiyasiva o'ziga xosliklari. Shimkent, Kazaxstan.....115
- Turdiyev Jahongir.** Mavlid marosimlarida me'roj bayoni. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi.....122
- Doç. Dr. Sabina Nematzade.** Türk-Islam elyazma sanatlarinda bestiar motifler. Bakü, Azerbaycan.....127
- Tursunov Zoxidjon.** Olmon ertaklaridagi she'riy satrlarning o'zbekcha talqini. Namangan, O'zbekiston Respublikasi.....134
- Hidoyatova Aziza Tal'at qizi.** Yan Kvi Ja: maymunning ham daraxtdan yiqiladigan kuni bor. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi.....136
- Ergasheva Zilola Saydullayevna.** Folklore is the eternal history of the nation. Tashkent, Republic of Uzbekistan.....143
- Исмоилов Хамдам.** Фольклорная основа произведений Чингиза Айтматова. Ташкент, Республика Узбекистан.....147

UCHINCHI KENGASH. O'ZBEK HORIJIY SHARQ XALQLARI FOLKLORI ALOQALARI MASALALARI

- Abdullaev Muhammad Xamzaevich.** Ubaydiy ijodida folklorning ta'siri. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi.....156
- Turg'unov Sherali Dolixonovich.** O'zbek xalq o'lanlari poetikasiga doir. Namangan, O'zbekiston Respublikasi.....170
- Abdullaeva Dildoraxon Zumratbekovna.** Cho'lponning yangi topilgan "yana uylanaman" komediyasida shgarqqa xos an'analari va milliy o'ziga xoslik. Andijon, O'zbekiston Respublikasi.....176
- Abdullayeva Dilafuz Suratillaevna.** Zulfiya Qurolboy qizi nasrida folklorizm elementlari. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi.....181
- Vafojeva Muxayyo.** O'zbek xalq maqollarida ellipsis hodisasi. Samarqand, O'zbekiston Respublikasi.....187
- Jafarov Botir Sattarovich.** O'zbek folklorning ikki tilli veb-saytini yaratishning o'ziga xosligi. Namangan, O'zbekiston Respublikasi....190
- Jo'raev Murodulla Alishboevich.** O'zbek komediyasining yuzaga kelishida xalq og'zaki ijodining ta'siri. Jizzax, O'zbekiston Respublikasi.....196
- Исломова Дилором.** Исследование ойконимов в составе пословиц и поговорок узбекского народа. Наманган, Республика Узбекистан.....198
- Isroilov G'ayrat.** Sakkokiyy badiiy me'rosida badiiyat va an'anaviylik masalasi. Jizzax, O'zbekiston Respublikasi.....205
- Kamolova Nargiza Po'latbayevna.** Xorazm vohasi dehqonchiligida folklor (xiva xonligi davrida). Xorazm, O'zbekiston Respublikasi.....212
- Karimova Yulduz Akulovna.** Pirmqul Qodirovning "botirlar va baxillar" qissasida xalq og'zaki ijodiyotining o'rni. Jizzax, O'zbekiston Respublikasi.....217
- Mahmudova Sevara Irisalievna, Toshalievna Sarvara Irisalievna.** Muhammad Yusuf she'riyatiga folklorning ta'siri. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi.....224
- Mashrapova Gulsanam Axadovna.** O'zbek xalq ertaklarida safar motive. Farg'ona, O'zbekiston Respublikasi.....231
- Naimov Eldorbek Ilxambekovich.** O'zbek va rus xalq maqollarida zoonimik ramzlar. Andijon, O'zbekiston Respublikasi.....236
- Oripova Gulnoza Murodilovna.** Mustaqillik davri o'zbek lirikasida folklor an'analari. Farg'ona, O'zbekiston Respublikasi.....247

| | |
|--|------------|
| Sharipov Rustam Husniddinovich. Yashar Kamolning “Sevgi afsonasi” romanidagi mifologik unsurlarning o‘zbekcha tarjimada berilishi. Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi..... | 252 |
| Sherbekova Gavhar Yaxshiboevna. Buxoro nikoh to‘yi udumlarining unga aloqador marosim qo‘shiqlaridagi badiiy ifodasi. Buxoro, O‘zbekiston Respublikasi..... | 259 |
| Sabirova Nasiba Ergashevna. Xorazm dostonchiligining o‘ziga xos xususiyatlari(Baxshilar repertuari va ijrochilik mahorati). Urganch, O‘zbekiston Respublikasi..... | 264 |
| Umarova Nilufar Turapovna. Nazar Shukur va A‘zam O‘ktam ijodida xalq maqollarining lirik ifodasi. Qarshi, O‘zbekiston Respublikasi.... | 272 |
| Soatova Nodira. “O‘tkan kunlar” romanida xalq dostonlarining epik tasvir an‘analari(“Tohir va Zuhra” dostoni misolida). Jizzax, O‘zbekiston Respublikasi..... | 279 |
| Rustamova Gavhar Bahron qizi. O‘zbek folklorida tut obrazi bilan bog‘liq udumlar ifodasi. Buxoro, O‘zbekiston Respublikasi..... | 285 |
| Турсунов Ибрагим Нуралиевич. Роль восточных исполнителей фольклорных произведений в развитии духовно-религиозных и нравственных ценностей народа.(на примере узбекских народных терма). Ташкент, Республика Узбекистан..... | 290 |
| Turoпова Parizod Shavkat qizi. “Qaytmas to‘lqinlar” romanida milliy qadriyatlar tasviri. Jizzax, O‘zbekiston Respublikasi..... | 295 |
| Turdimov Shomirza Ganievich. “Alpomish” dostonidagi yetakchi obrazlar semantikasi. Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi..... | 299 |
| Saydaxmedova Nigora Sulaymonovna. Muhammad Yusuf ijodidagi o‘zbek folklor motivlarini o‘rgatish. Namangan, O‘zbekiston Respublikasi..... | 306 |
| Салимова Дильнаваз Акмаловна. Перевоплощение национальных реалий в переводах стихотворений Гафура Гуляма. Джизак, Республики Узбекистан..... | 311 |
| Rustamova Gavhar Bahron qizi. O‘zbek folklorida anor obrazining semantic talqinlari. Buxoro, O‘zbekiston Respublikasi..... | 319 |

